



Muxiddin ABDURAXMONOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b.,(PhD)
E-mail:Muxiddin1967@gmail.com

O‘zMU professori B.To‘ychiyev taqrizi asosida

O‘ZBEKISTON OLIY TA‘LIM TIZIMIDA TIZIMLI TAHLIL SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIDA

Annotatsiya. Maqolada tizimli tahlil yo‘nalishining tadqiq qilish sohalari, ushbu soha bo‘yicha oliy ta‘lim tizimida mutaxassislar tayyorlash muammolari va shart-sharoitlari yoritilgan. Bundan tashqari tizimli tahlil bo‘yicha mutaxassislarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o‘ziga xos roli ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: tizimli tahlil, oliy ta‘lim, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, bashorat, tadqiqot obyektlari.

О СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ В СФЕРЕ СИСТЕМНОГО АНАЛИЗА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье освещены сферы исследования направления системного анализа, условия и проблемы подготовки специалистов данной сферы в системе высшего образования. Кроме этого, указаны особенности роли специалистов по системному анализу в социально-экономическом развитии страны.

Ключевые слова: системный анализ, высшее образование, социально-экономическое развитие, прогноз, объекты исследования.

ON IMPROVING THE TRAINING OF SPECIALISTS IN THE FIELD OF SYSTEMS ANALYSIS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN

Annotation

This article highlights the areas of research in the direction of system analysis, the conditions and problems of training specialists in this field in the higher education system. In addition, the features of the role of systems analysis specialists in the socio-economic development of the country are indicated.

Key words: system analysis, higher education, socio-economic development, forecast, objects of research.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim tizimini rivojlantirish, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadigan sohalar bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlash muhim strategik ahamiyatga ega. Hozirda O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimini Markaziy Osiyo mintaqasida xalqaro ta‘lim dasturlarini amalga oshiruvchi “xab”ga aylantirish, jumladan kamida 10 ta oliy ta‘lim muassasasini xalqaro e‘tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxatiga, O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish vazifalari belgilangan[1]. Mazkur maqsadni amalga oshirishda tizimli tahlil yo‘nalishining ham o‘ziga xos o‘rni bor.

Hozirgi davrda aksariyat mamlakatlarda faoliyat yuritish shaklidan qat‘iy nazar, o‘rta yoki katta biznes yoki davlat organi, oliy ta‘lim muassasasi bo‘ladimi o‘zining axborot-tahlil bo‘limi mavjud. Ushbu bo‘limlarning xodimlari shtati asosan muhandis-texnik va iqtisodchilardan iborat. Ammo bugungi kunda ushbu tuzilmalarga boshqaruv qarorlarini qabul qilish, axborot tahliliy faoliyatini ta‘minlash sohasida malakali mutaxassislar zarur. Yangi turdagi mazkur mutaxassislar konseptual fikrlash, yangi axborot texnologiyalari asosida innovatsion faoliyat uslublarini o‘zlashtirgan tizimli tahlilchilar hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tahlil (grekcha. “analysis” so‘zidan olingan bo‘lib parchalash, bo‘lish, qismlarga ajratish, degan ma‘noni anglatadi) tadqiqot

obyektlarini alohida qismlarga bo‘lish orqali o‘rganish usuli hisoblanadi.

Tizim to‘g‘risida ta‘riflar juda ko‘p, lekin ularning birortasi ham fan olimlari tomonidan to‘liq tan olinmagan. Biroq, I.N.Drogobitskiy tizimga keng falsafiy ta‘rif bergan: “tizim – bu falsafiy toifa bo‘lib, materiya va ma‘noviy dunyoning tashkil etilishini anglatadi” [5].

Tizimli tahlil sohasidagi mutaxassislar mintaqalarning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqish, budjetning shakllanish va sarf-xarajatlari jarayonlarini takomillashtirish, sohalar, hududlar, mintaqalar va tashkilotlarning innovatsion salohiyatini aniqlay olish kabi murakkab vazifalarni hal qila oladigan kishilardir[2].

Albatta mamlakat taraqqiyoti uchun dolzarb sohalarda malakali mutaxassislar tayyorlash oliy ta‘lim tizimining birinchi darajali vazifasidir. Jumladan, O‘zbekistonda ushbu sohaga professor-o‘qituvchilar, talabalar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish, jamoatchilik va ish beruvchilarning fikrini o‘rganish hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta‘lim sifatini oshirish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari yuklatilgan[1].

Shuningdek, oliy ta‘lim muassasalari ilmiy faoliyati ham hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari kelib chiqib tashkil etilishi, tahlillar asosida innovatsion rivojlanishni prognozlash faoliyati yo‘lga qo‘yilishi, oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoit yaratish belgilangan. Bu yo‘nalishda oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ijodiy

fikrlash, tizimli tahlil qilish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi[1].

Bu sohada xorijiy tajriba namunalarini olib ko'radigan bo'lsak, Rossiyada malakali mutaxassislar – tizimli tahlilchilarni tayyorlash maqsadida mamlakat Ta'lim vazirligi 2000 yilda 553000 “ tizimli tahlil va boshqaruv” yo'nalishida texnika va texnologiya mutaxassiligi bo'yicha bakalavr (magistr) darajasini berish bo'yicha oliy kasbiy ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlagan. Shu bilan birga, 05.13.01 “tizimli tahlil, boshqarish va axborotni qayta ishlash” mutaxassiligi aspiraturasi tashkil qilingan[3].

“Tizimli tahlil, boshqaruv va (sohalar bo'yicha) axborotni qayta ishlash”- mutaxassiligi murakkab tizimli tahlil uslublarini qo'llash va ishlab chiqish, axborotni qayta ishlash, insonning tadqiqot obyektlariga maqsadli yo'naltirilgan ta'siri, shuningdek tadqiqot obyektlari faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida tahlil, modellashtirish, optimallashtirish, boshqarish va qaror qabul qilishni takomillashtirish muammolari bilan shug'ullanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasini tizimli tahlil nazariyasi bo'yicha mamlakatimiz hamda xorijiy olimlarning olib borgan ilmiy ishlari natijalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimini, xususan tizimli tahlilchilar tayyorlashni yo'lga qo'yishga oid farmon va qarorlari tashkil etadi. Shu bilan birga, rivojlangan xorijiy mamlakatlardan tizimli tahlil usullari va modellarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, O'zbekistonda tizimli tahlil sohasini rivojlantirish siyosatini yuritishda foydali jihatlarni amaliyotga kiritishda katta turtki bo'lishi mumkin. Shu nuqta nazardan ushbu tadqiqotning metodologik jihati mamlakatimizda innovatsion rivojlanish g'oyalarini amaliyotga joriy etish yo'llarini asoslashdan iborat.

Tahlil va natijalar. Tizimli tahlil ixtisosligining boshqa sohalaridan farqi shundan iboratki, uning asosiy mohiyati obyektlar va jarayonlarning axborotlarni qayta ishlashning zamonaviy uslublaridan foydalanish orqali ularni boshqarish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan sohaviy o'ziga xos xususiyatlarining rivojlanishi va faoliyat yuritish qonuniyatlarini hamda tizimli aloqalarini nazariy va amaliy tadqiq qilishdan iborat. Tizimli tahlil ixtisosligining ilmiy va texnik muammolarni hal qilishning ahamiyati xalq xo'jaligi uchun zarur yangi axborotlarni qayta ishlash hamda samarali tahlil vositalari va uslublarini ishlab chiqish, mavjudlarini takomillashtirish, murakkab tizimlarni boshqarishning tibbiy, biologik, iqtisodiy, texnik, sifat va ishonchlilik samaradorligini oshirishdan iborat[3].

Tizimli tahlil ixtisosligining tadqiq qilish sohalarini quyidagilardan iborat:

tizimli tahlilning nazariy asoslari va uslublari hamda optimallashtirish, boshqarish, qaror qabul qilish va axborotlarni qayta ishlash;

tizimli tahlil vazifalarini hal qilish samaradorligini baholash hamda mezon va modellarini ishlab chiqish, maqbullashtirish, boshqarish, qaror qabul qilish va axborotlarni qayta ishlash;

tizimli tahlil vazifalarini hal qilishning uslublari va algoritmlarini ishlab chiqish, maqbullashtirish, boshqarish, qaror qabul qilish va axborotlarni qayta ishlash;

tizimli tahlilning maxsus matematik va dasturiy ta'minotini ishlab chiqish, maqbullashtirish, boshqarish, qaror qabul qilish va axborotlarni qayta ishlash;

boshqarish tizimini avvalgi, hozirgi va ekspert ma'lumotlar asosida identifikatsiyalash uslublari;

murakkab tizimlarni strukturaviy parametrlarini sintezlash va tenglashtirish;

murakkab tizimlarni nazariy-ko'plik va nazariy-axborot tahlil qilish;

muammoli-yo'naltirilgan boshqarish tizimlarni ishlab chiqish, qaror qabul qilish va tibbiy, biologik, iqtisodiy, texnik va ijtimoiy obyektlarni maqbullashtirish;

tibbiy, biologik, iqtisodiy, texnik va ijtimoiy tizimlarda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda aqliy qo'llab-quvvatlash uslublari va algoritmlari;

bashorat qilishning uslublari va algoritmlari hamda samaradorlikni baholash, murakkab tizimlarning sifati ishonchligi;

ma'lumotni qayta ishlashning kompyuter uslublari asosida axborotni ko'rib chiqish, o'zgartirish va tahlil qilish;

ekspert ma'lumotni olish, tahlil qilish va qayta ishlashning uslublari.

Bugungi kunda butun dunyoda, jumladan O'zbekiston Respublikasida ham inson faoliyatining turli sohalaridagi vaziyatli yondashuvlarga qiziqishning ortib borishi kuzatilmogda. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida yirik korxonalar, kompaniya va tashkilotlar hamda ularning bo'limlari va filiallarida faoliyatni tahlil qilish uchun vaziyatli xonalar tashkil qilingan, tahliliy markazlarda voqea-hodisa va reinjiningni bashorat qilish uchun vaziyatni modellashtirish uslublaridan foydalaniladi. Oliy ta'lim muassasalarida tizimli tahlil va malakali boshqarishni muvaffaqiyatli o'rgatish uchun vaziyatli o'qitish uslublari kiritilmogda. Shunday uslublardan biri bo'lgan oliy ta'lim muassasasi bazasida vaziyatli o'quv markazini tashkil qilish bo'lajak mutaxassislarini tayyorlash jarayonini modellashtirish instrumentlaridan biri hisoblanadi. Vaziyatli o'quv markazida ta'lim olgan va boshqaruv qarorlarini qabul qilish, strategiya ishlab chiqish ko'nikmalarini olgan talabalar qo'lga kiritgan tajribalarini turli davlat idoralari, tashkilot, kompaniyalarning vaziyatli markazlarida real holatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llash imkoniga ega bo'ladi.

Masalan, Rossiya Federatsiyasida qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha vaziyatli markazlar Prezident, hukumat va hududiy davlat organlari, ijro hokimiyati huzurida tashkillashtirish ishlari faol rivojlanmogda. Ta'kidlash joizki, ushbu vaziyatli markazlar xodimlarining shariatidagi asosiy zveno bu tizimli tahlilchilar hisoblanadi[3].

Xulosa va takliflar. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi paytda tizimli tahlil sohasiga davlat tomonidan e'tibor kuchaytirilmogda. Ammo tizimli tahlil yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarini tayyorlash talab darajasida emas. Hozirda mamlakatimizda faol islohotlar o'tkazilishi davrida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning islohot qilinishi sharoitida ushbu turdagi mutaxassislariga talab ortishi shubhasiz.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydigan tizimli tahlil sohasini rivojlantirish uchun uni zarur moliyaviy, infrastrukturaviy, texnologik va axborot vositalari bilan doimiy ravishda ta'minlab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimizga ko'ra, tizimli tahlil sohasini taraqqiy qildirishni uch darajada tadqiq qilish mumkin:

tizimli tahlilni alohida soha sifatida bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha zarur vositalar bilan ta'minlab rivojlanishini ta'minlash;

tizimli tahlilni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, xususan, sohalar, mintaqa va hududlar kesimida tutgan o'rni va darajasi;

ushbu sektorning rivojlanishi va samarali faoliyat uchun tegishli normativ-huquqiy bazaning takomillashtirish.

Yuqoridagilarni va hozirda iqtisodiyotning aksariyat sohalarini axborot va tahliliy ko'nikmaga ega, uning uslublarini yaxshi o'zlashtirgan malakali mutaxassislariga ehtiyoj sezayotganligini, nazarga olib, amalga oshirish uchun bir qator chuqur o'ylangan va asoslangan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq;

malakali tizimli tahlilchilarni respublikamizning ilg'or oliy ta'lim muassasalarida tayyorlashni yo'lga qo'yish;

davlat tomonidan tizimli tahlil sohasiga manzilli investitsiyalarni yo'naltirish orqali uni xalq xo'jaligi va boshqaruv tizimiga joriy etish;

tizimli tahlil sohasi mutaxassislariga faoliyatlarini rahbatlantirish maqsadida tegishli shart-sharoit va imtiyozlarni ko'zda tutish;

tizimli tahlil sohasini rivojlantirishda ilg'or xorijiy tajribalarni tadqiq va tahlil qilgan holda samarali qo'llash;

tizimli tahlilchilar imkoniyatlaridan faol foydalanish iqtisodiy va boshqa sohalardagi islohotlarning kutilgan natijalarni berishiga hamkorlik ko'rsatadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni faol amalga oshirish sharoitida sohani samarali va istiqbolli sohaga aylantirish maqsadida huquqiy, moliyaviy sharoitlarni yaratish, ilmiy-nazariy asoslangan holatda rivojlantirish orqali ushbu sohani mamlakat iqtisodiyotining ta'sirchan subyektlaridan biriga aylantirish mumkin. Ayniqsa so'nggi paytdagi jahon iqtisodiy, moliyaviy inqirozi paytida aniq tahlil va sifatli bashorat muhim ahamiyat va dolzarblik kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Таълим Тизимини 2030 йилгача Ривожлантириш Концепциясини Тасдиqlаш Тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 08.10.2019 йилдаги ПФ-5847-сон // <https://lex.uz/docs/4545884>
2. Егоров А.И. Системный анализ и управление в высшем профессиональном образовании // Современные проблемы науки и образования. – 2009. – № 6-1.; URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=1354>.
3. Егоров А.И. «Вопросы подготовки специалистов для информационно-аналитических подразделений органов государственной власти и других организаций». Научно-практическая конференция «Ситуационные центры 2009» 14-15 апреля 2009 г.: Тезисы выступлений. - М.: РАГС, 2009.
4. М.Ю.Рахимов, О.Т.Астанакулов. Бизнес-таҳлил: янги касб ва янги имкониятлар сари// <http://www.iqtisodiyot.tsue.uz>
5. Дрогобыцкий И.Н. Системный анализ в экономике, М. 2012 г.// <http://library.lgaki.info:404/20>
6. Звягин Л. С. Основы системного анализа: качество и выбор. М. 2014. //URL: <https://moluch.ru/archive/67/11393/>



Khamza AVAZOV,
Karshi State University teacher
E-mail: khamzaf1driver@gmail.com

Doctor of Philology, Professor T.Jumayev. under review

INGLIZ TILIDA O'QISH KO'NIKMALARINI OSHIRISH: SAMARALI STRATEGIYALAR VA YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini oshirish, samarali strategiyalar va yondashuvlar til birliklari o'rtasidagi semantik munosabatlarni va ular orqali matn mazmunini qayta ishlashni ta'minlanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: O'qish mahorati, o'qishni tushunish, kirish, o'qishni tushunish muammolari, turli ma'nolar, ikkinchi til o'rganuvchilar, interfaol jarayon, o'qish strategiyalari.

ENHANCING READING SKILLS IN ENGLISH: EFFECTIVE STRATEGIES AND APPROACHES

Annotation

This article discusses how to improve English reading skills, effective strategies and approaches to ensure the semantic relationships between language units and through them the processing of textual content.

Key words: Reading skill, reading comprehension, an input, reading comprehension problems, various meanings, second language learners', interactive process, reading strategies.

УЛУЧШЕНИЕ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ: ЭФФЕКТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ И ПОДХОДЫ

Аннотация

В данной статье рассматриваются способы улучшения навыков чтения на английском языке, эффективные стратегии и подходы для обеспечения семантических связей между языковыми единицами и через них обработки текстового контента.

Ключевые слова: навык чтения, понимание прочитанного, вход, проблемы понимания прочитанного, различные значения, изучающие второй язык, интерактивный процесс, стратегии чтения.

Introduction Developing proficient reading skills in English is crucial for students to succeed academically and navigate an increasingly globalized world. This article aims to explore effective strategies and approaches for teaching reading skills in English. Drawing upon current research and best practices, we will delve into the importance of building vocabulary, employing comprehension strategies, integrating technology, and promoting a love for reading.

Understanding the Importance of Reading Skills: Discuss the significance of reading skills in the context of language acquisition and overall academic performance. Cite relevant research studies supporting the positive impact of strong reading abilities on students' cognitive development and critical thinking skills.

Preparing for Reading Instruction: Address the importance of creating a supportive and engaging learning environment to promote reading skills. Discuss strategies to assess students' reading abilities, including diagnostic testing, informal assessments, and reading inventories. Highlight the benefits of establishing individualized reading goals to cater to students' diverse needs and strength.

Building Vocabulary for Reading Success: Explain the vital role of vocabulary knowledge in comprehending written text. Explore effective instructional practices for teaching vocabulary, such as explicit word study, contextual analysis, and word families. Discuss the importance of incorporating vocabulary-building activities across content areas and providing ample opportunities for meaningful word usage.

Literature review. Teaching Comprehension Strategies. Describe the essential role of comprehension strategies in understanding and interpreting written text. Introduce evidence-based strategies such as predicting,

questioning, summarizing, visualizing, and making connections. Provide examples and activities for explicitly teaching and reinforcing these strategies in the classroom.

Developing Critical Reading Skills: Explore higher-level reading skills, including inference, analysis, evaluation, and synthesis. Discuss instructional strategies for developing these critical thinking skills, such as close reading, exploring text structure, and identifying an author's purpose.

Offer ideas for facilitating meaningful discussions and encouraging students to think critically about what they read.

Integrating Technology in Reading Instruction: Discuss the benefits and challenges of incorporating technology into reading instruction. Highlight digital tools and resources that can enhance reading skills, such as online reading platforms, interactive e-books, and language learning apps. Provide guidelines for integrating technology effectively, including digital literacy skills and responsible use.

Fostering a Love for Reading: Emphasize the importance of promoting a lifelong love for reading. Explore strategies for inspiring motivation and engagement, such as book clubs, author visits, and reading challenges. Discuss the role of teachers as reading role models and the significance of creating a nurturing reading community.

Research Methodology. Supporting English Language Learners (ELLs): Address specific strategies for supporting ELLs in developing reading skills. Discuss the benefits of scaffolding, language support, and culturally responsive texts. Highlight effective instructional practices to foster ELLs' linguistic and socio-cultural development while enhancing their reading skills.

Professional Development for Educators: Stress the importance of ongoing professional development to improve

educators' instructional practices in teaching reading. Discuss opportunities for educators to further their knowledge, such as attending workshops, conferences, and online courses. Highlight the value of collaboration and sharing best practices within professional learning communities.

Conclusion and Key Takeaways: Summarize the key points discussed in the article. Emphasize the significance of employing research-based strategies and approaches to enhance reading skills in English. Inspire educators to continue their journey in providing effective and engaging reading instruction that empowers students as confident and proficient readers.

Analysis and results. Reading is an essential skill that plays a fundamental role in our daily lives. Whether we are studying, working, or simply enjoying a good book, strong reading skills are crucial for success and personal growth. In this article, we will explore various techniques and strategies to enhance reading skills and become more proficient readers. Let's dive in! **Building Vocabulary:** A robust vocabulary is the foundation of effective reading. Here are some tips to expand your word knowledge:

a. **Read Widely:** Explore different genres, authors, and topics to encounter diverse vocabulary.

b. **Use Context Clues:** Pay attention to the surrounding words and sentences for hints about word meanings.

c. **Make Word Lists:** Keep a personal vocabulary log to record new words encountered during reading.

d. **Utilize Online Resources:** Access online dictionaries or vocabulary-building apps for definitions, synonyms, and antonyms.

Improving Reading Comprehension: Understanding and retaining information from what you read is crucial. Try the following strategies:

a. **Preview:** Skim the text before diving in to gain a general idea of the content and structure.

b. **Active Reading:** Engage with the text by highlighting key points, taking notes, or asking questions.

c. **Summarize:** After each paragraph or section, briefly summarize the main idea to reinforce understanding.

d. **Visualize:** Create mental images of the text to help in understanding and remembering the content.

Speed Reading Techniques: Speed reading can be a valuable skill in today's fast-paced world. Here are techniques to read efficiently:

a. **Eliminate Subvocalization:** Avoid mentally pronouncing every word, as it slows down reading speed.

b. **Use a Pointer:** Use your finger or a pen to guide your eyes along the lines, reducing distractions and increasing focus.

c. **Practice Chunking:** Read groups of words instead of individual words to improve reading pace.

d. **Avoid Regression:** Resist the temptation to reread sentences or go back unless absolutely necessary.

Enhancing Reading Fluency: Reading fluency refers to reading with accuracy, speed, and proper expression. Here are ways to improve it:

a. **Read Aloud:** Practice reading aloud to develop rhythm, intonation, and pronunciation.

b. **Listen to Audiobooks:** Follow along with a narrator to develop pacing, phrasing, and overall fluency.

c. **Join Reading Groups:** Participate in book clubs or reading workshops to gain confidence and receive feedback from others.

d. **Read Widely:** Expose yourself to various writing styles and genres to adapt to different reading experiences.

Active Reading for Analytical Skills: Reading critically and analytically fosters deeper comprehension. Here's how you can develop these skills:

a. **Question the Text:** Challenge the information, identify biases, and evaluate the author's credibility.

b. **Make Connections:** Relate the text to your personal experiences, other books, or current events.

c. **Annotate:** Underline, highlight, or jot down notes to analyze key points, themes, and arguments.

d. **Engage in Discussions:** Join book clubs or online forums to discuss and debate different interpretations of the text.

Reading is speech related to the perception and understanding of written text

receptive type of activity. It is recognition for reading and understanding foreign text phonetic, lexical, and grammatical informational that instantly implements the process is assumed to have a set of properties.

At the initial stage, teaching the student to read correctly, to sound graphemes, to extract meaning, i.e. to understand text information, it is important to teach how to evaluate and use it. These are skills depends on how fast the child reads. Through the reading technique, we learn not only sound and the quick and clear correspondence of the letter, but also the child of the sound-letter connection. We also understand that it is related to the semantic meaning of what we are reading. Exactly the high level of learning the reading technique is the result of the reading process itself allows you to get fast and quality information.

Pedagogical requirements in the organization of the process of teaching to read in a foreign language can be formed.

Conclusion. Reading skills are vital for success in education, work, and personal growth. By implementing the strategies discussed in this article, you can enhance your vocabulary, reading comprehension, reading speed, fluency, and analytical skills. Remember that practice and consistency are key to becoming a proficient reader. Embrace the joy of reading and embark on a lifelong journey of discovery and knowledge. Summarize the key points discussed in the article. Emphasize the significance of employing research-based strategies and approaches to enhance reading skills in English. Inspire educators to continue their journey in providing effective and engaging reading instruction that empowers students as confident and proficient readers.

Reading is an essential skill that plays a fundamental role in our daily lives. Whether we are studying, working, or simply enjoying a good book, strong reading skills are crucial for success and personal growth. In this article, we will explore various techniques and strategies to enhance reading skills and become more proficient readers.

REFERENCE

1. - Adams, M. J., & Bruck, M. (1993). Word Recognition: The Interface of Educational Policies and Scientific Research. *Reading Research Quarterly*,
2. National Reading Panel. (2000). *Teaching Children to Read: An Evidence-Based Assessment of the Scientific Research Literature on Reading and its Implications for Reading Instruction*. National Institute of Child Health and Human Development.
3. -Rost, M. (2001). Listening. In R. Carter, & D. Nunan (Eds.).
4. Pressley, M., & Afflerbach, P. (1995). *Verbal Protocols of Reading: The Nature of Constructively Responsive Reading*. Routledge.
5. Rasinski, T. V., & Lodge, J. M. (2006). *Reading fluency instruction: Moving beyond accuracy, automaticity, and prosody*.

The Reading Teacher, 59(7), 704-706.

6. Hennessey, L. M., & Amabile, T. M. (2010). Creativity. Annual Review of Psychology, 61, 569-598.
7. Luckesi, C. C. (2005)
8. Understanding performance assessment. PA: American Association for the Advancement of Curriculum Studies.
9. ole, J. A., Sindelar, P. T., & Bramlett, R. K. (1996). Landed reading theory and the role of prior knowledge: Implications to reading instruction for students with learning disabilities. Journal of Learning Disabilities, 29(5), 480-490.



UDK:327

Dilnura AVEZOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail:avezovadilnura1989@mail.ru

ToshDO'TAU f.f.d., dotsent K.Mavlonova taqrizi asosida

ONA TILI TA'LIMIDA ESSE YOZISH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING IMKONIYATLARI XUSUSIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada ona tili ta'limida yozma ishning esse turidan foydalanishning ahamiyati, esse yozish orqali shakllantiriladigan ko'nikmalar mazmuni, ona tili ta'limida esse yozish ko'nikmalarini shakllantirishning imkoniyatlari to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: yozma nutq, esse, analitik tahlil, tanqidiy fikrlash, kreativlik, verbal intellekt, xolisona fikr ifodalash, o'z fikrlarini asoslash, ta'lim mazmuni.

ВОЗМОЖНОСТЯХ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ НАПИСАНИЯ ЭССЕ В УСЛОВИЯХ РОЖДЕННОГО ЯЗЫКА ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье говорится о значении использования эссе-вида письменной работы в обучении родному языку, содержании умений, формируемых при написании эссе, возможностях формирования навыков написания эссе при обучении родному языку.

Ключевые слова: письменная речь, эссе, аналитический анализ, критическое мышление, креативность, речевой интеллект, выражение объективного мнения, обоснование своего мнения, содержание обучения.

ON THE POSSIBILITIES OF FORMING ESSAY WRITING SKILLS IN MOTHER LANGUAGE EDUCATION

Annotation

This article talks about the importance of using the essay type of written work in the education of the mother tongue, the content of the skills formed by writing an essay, the possibilities of the formation of essay writing skills in the education of the mother tongue.

Key words: written speech, essay, analytical analysis, critical thinking, creativity, verbal intelligence, impartial expression, reasoning of one's own thoughts, educational content.

Kirish. Yozma nutqqa oid malakalarni shakllantirish masalasi ona tili ta'limi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki yozma nutq insonlardagi fikr ifodalashning asosiy vositasi bo'lib, uning muloqot va axborot almashinuvi jarayonidagi o'rni beqiyos. Bugungi kunda yozma nutq savodxonligiga qo'yilgan talab esa kechagidan ancha farq qilib, uning mazmuni shaxsning zamonaviy ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokini ta'minlashga oid ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilmoqda.

Shu sababli, keyingi yillarda ona tili ta'limini tubdan isloh qilish, yangilangan ta'lim mazmunini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish, xususan, o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tiborni qaratish davlatimiz siyosatining asosiy maqsadlaridan biriga aylangan [1, 2].

So'nggi yillarda ta'lim tizimiga o'quvchilarning yozma nutqqa doir malakalarini baholashning bir qancha zamonaviy usullari kirib kelganligi barchamizga ma'lim. Xorijda ushbu malakani baholashga qaratilgan bir qancha xalqaro baholash dasturlari (IELTS, TOEFL, CAE, TESL) ishlab chiqilgan bo'lib, ularda yozma nutqni baholash uchun o'quvchilardan esse yozish so'raladi. Yozma ishning mazkur turi o'quvchilarning ijodiy, tanqidiy hamda kommunikativlik sifatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy faol fuqarolik pozitsiyalarini faollashtirishga yordam berganligi sababli ko'plab rivojlangan davlatlar essedan foydalanishni ma'qul ko'radilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Esse yozishning afzalligi globallashtiruv muhitida ulg'ayayotgan shaxslarga zarur bo'lgan quyidagi ko'nikmalarining shakllanishiga yordam berishi bilan o'lanadi.

Ma'lumotlarni analitik tahlil qilish. O'quvchi essening qaysi turini tanlagan bo'lmasin, jarayonda undan doimo o'z fikrlarini asoslash uchun ma'lum faktlarga hamda shaxsiy tajribaga tayanish talab etiladi. Buning uchun o'quvchi mavzu bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlarni izlashi, ularni o'rganishi, saralay olishi hamda yozma nutqqa olib kirishi uchun muayyan tartibga keltirishi lozim.

Tanqidiy fikrlash. O'quvchi yozma ishni yaratar ekan, bu jarayonda qo'yilgan muammoning kelib chiqish sabablariga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qarashi, uning tavsifini aniqlay olishi va muammoga yechim bo'la oladigan tavsiyalarni ishlab chiqishi zarur hisoblanadi. O'quvchi ongidagi bunday jarayon uning keyinchalik boshqalar bilan samarali muloqot qilishiga, har bir vaziyatni tanqidiy jihatdan tahlil qilishga, o'z e'tiroz va takliflarini tushunarli va asosli tarzda yetkaza olishiga yordam beradi.

Kreativlik. Muayyan sohada muvaffaqiyatga erishish uchun o'sha sohada bilimlarni yaxshi o'zlashtirishning o'zi yetarli hisoblanmaydi. Biror sohada yangilik yaratish, yuzaga kelgan muammolarni hal etish, vazifani yengillashtirish va uning samaradorlik darajasini oshirish uchun shu soha mutaxassisidan kreativlik qobiliyatini ishga solish talab etiladi. O'quvchi esse yordamida o'z fikrlarini bildirar ekan, bunda doimo hamma e'tirof etgan jihatlarni ta'kidlash orqali emas, balki hech kimnikiga o'xshamaydigan, original fikrlari bilan boshqalarni o'ziga jalb qilishi alohida ahamiyatga ega.

Fikrlarni tizimli ravishda ifodalash yoki verbal intellektga ega bo'lish. Biz bilamizki, esse turining har biri muayyan talablar asosida yoziladi hamda ularning tuzilishi, odatda, kirish, asosiy qism va xulosa kabi qismlardan iborat bo'ladi. Bunday tartib o'quvchidan fikrlarini ma'lum bir

izchillik bilan ifodalashni talab qiladi. Demak, o'quvchi fikrlarini tartiblash jarayonida ularni aralashtirib yubormasligi, mavzuga oid dastlabki fikrlarini kirish qismiga, ma'lumot va faktlarni asosiy qismga, yechim va tavsiyaviy xarakterga ega fikrlarni xulosa qismga yozishni o'rganishi talab etiladi.

Tafsilotlarga nisbatan xolis fikr ifodalash. Esse yozish o'quvchiga berilgan mavzuga nisbatan shaxsiy munosabatni ifodalashni o'rgatadi. Bunda o'quvchi muammoning tafsilotlarini sanar ekan, uning kelib chiqish sabablari hamda yechimlarini o'zining xolisona fikrlari yordamida ifodalay olishi lozim.

O'z fikrlarini asoslash. Esse janridagi yozma ishning samardorlik jihati undagi muallifning tanqidiy yoki tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan fikrlarini ma'lum faktlar, iqtiboslar yordamida asoslay olishi bilan ifodalanadi [3].

Fikrlarimiz davomida essening ana shunday zaruriy ko'nikmalarni shakllantirishdagi o'rnini hisobga olgan holda keyingi yillarda o'zbek tili ta'limida ham o'quvchilarning yozma nutqqa doir ko'nikmalarini esse yordamida takomillashtirish zarurati mavjudligini alohida ta'kidlamochimiz.

OTBMT.YN.1	<i>o'z fikr va hissiyotlarini imlo, punktuatsion, uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda to'g'ri, izchil, ifodalash, shuningdek, ma'lumotni belgilangan hajm talabiga ko'ra yozma olish;</i>
OTBMT.YN.2	<i>turli maqsad va har xil o'quvchiga mo'ljallangan matnlarni yozma olish, xususan, ma'lum narsa/hodisa haqida yozma ma'lumot yetkazma olish;</i>
OTBMT.YN.3	<i>materiallarni tartiblash va umumlashtirish, fikr va dalillarni tafsilotlar bilan asoslab yozma olish;</i>
OTBMT.YN.4	<i>yo'zma nutqning ta'sirchanligini oshirish maqsadida ifoda vositalarini o'rinli qo'llay olish;</i>
OTBMT.YN.5	<i>matnning izchilligi ta'minlash va saviyasini oshirish uchun so'z va grammatik vositalarni to'g'ri qo'llay olish;</i>
OTBMT.YN.6	<i>imlo, uslub va punktuatsion me'yorlarga rioya qilish.</i>

Bundan tashqari, ushbu dasturda esseni yozish malakalarini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni 9-sinf dan boshlab esse yozishga o'rgatib borish vazifasi belgilab qo'yilgan: *materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslagan holda esse va insho yozma olish.*

Shuningdek, ushbu dastur asosida yaratilgan 6–7 sinf "Ona tili" darsliklari bilan tanishar ekanmiz, ularda o'quvchilarni esse yozishga tayyorlashga qaratilgan topshiriqlarning borligiga guvoh bo'ldik. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, Milliy o'quv dasturining esse yozish malakalarini shakllantirishdagi imkoniyatlari kengroq bo'lib, unga oid ta'lim mazmunini takomillashtirish va ona tili darsliklariga olib kirish bugungi kun ona tili ta'limi metodistlari oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, esse o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalari deya ta'limga kirib kelayotgan va bir qancha zamonaviy ko'nikmalarni shakllantiruvchi asosiy ta'lim vositasi hisoblanadi.

Xorijiy manbalarda esse yozish malakasini shakllantirishga oid talablar umumiy tarzda quyidagi mazmunga ega bo'lib, o'quvchining yozma nutqqa oid malakalari aynan shu kriteriyalar asosida baholanadi:

- belgilangan mavzu yuzasidan bildirayotgan fikrlarni ifodalashda mantiqlik va muayyan izchilikka rioya qilish;

Ta'limiy hujjatlarda esse yozishga qaratilgan ta'lim mazmunining qay darajada aks etganligi to'g'risidagi xulosalarni chiqarish maqsadida ular tahliliga e'tiboringizni qaratsak.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi kunda amal qilinyotgan DTS[4]da bitiruvchilar(A2)ning yozma nutqiga qo'yilgan talablar quyidagicha bo'lib, ularda yozma nutqqa xos o'ta umumiy maqsadlar belgilanganligini ko'rish mumkin:

- *so'z va gaplarni bog'lagan holda fikrini aniq va ravon yozma bayon qila oladi;*

- *140-160 so'zdan iborat diktantni yoza oladi, 20-25 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yoza oladi;*

- *bayonga reja tuza oladi, epigraf tanlay oladi;*

- *matnda badiiy tasvir vositalaridan o'rinli foydalana oladi;*

- *husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qila oladi.*

Yangi avlod darsliklarining yaratilishiga asos vazifasini bajarib kelayotgan Milliy o'quv dasturi[5]da esa o'quvchilarning yozma nutqiga qo'yiladigan talablar quyidagi mazmunda berilgan:

- kirish, asosiy qism va xulosaga oid fikrlarni tartiblashga, xatboshini boshlash va ularni tugatish, ikkala xatboshi o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi til birliklaridan foydalana olish;

- belgilangan topshiriq, mavzu va maqsad asosida qisqa va uzun hajmga ega bo'lgan hikoya, axborot va argumentli matnlar(esse)ni tegishli uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda yozish;

- muayyan mavzuga nisbatan o'z munosabatini ifodalash yoki hayotiy hikoyalarni boshqalarga so'zlab berish maqsadida hikoya qilish texnikasidan foydalangan holda memuar, ya'ni avtobiografik yoki xayoliy tasavvurlarni tavsiflovchi mazmunga ega bo'lgan hikoya yoki esse yoza olish;

- berilgan mavzu yuzasidan shaxsiy va xolisona munosabatni ifodalovchi fikrlarini mavzudan chetga chiqmasdan, asosli tarzda, kerakli til birliklaridan foydalangan holda ifodalay olish [6].

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, esse o'quvchining yozma fikrini ifodalashning bugungi kun talablariga mos keluvchi janri hisoblanar ekan, ona tili ta'limida ushbu yozma ish turini yozishga o'rgatishga oid ta'lim mazmunini takomillashtirish va kerakli uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish masalasi bugungi kun ona tili ta'limi metodistlari oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi O'zR Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 46 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi (O'zR Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son Farmoni). – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 46 b.
3. Graham Davey. Essay writing skills. What do I need to do to write a good essay? 2021.
4. Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent, 2017. – 69 b.
5. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi. O'zbek tili. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2020. – 76 b.
6. Cambridge English Qualifications. Essay summary. <https://www.cambridgeenglish.org/Images/581163-b2-first-for-schools-preparing-for-eham-success-self-study-writing-activities-part-1.pdf>



Gulnora AZIZOVA,
Milliy rassomlik va dizayn instituti katta o'qituvchisi
E-mail: gulnora_azizova@mail.ru

Alfraganus universiteti dotsenti f.f.n. N.Jurayeva taqrizi asosida

NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILINI O'QITISHDAGI MUAMMOLARGA SAMARALI YECHIM

Annotatsiya

Ushbu maqolada nofilologik oliy ta'lim yo'nalishlarida chet tillarini o'qitishda muloqot qobiliyatlari rivojlantirish bo'yicha muammolar ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, ushbu muammolarni hal qilish uchun turli usullar ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: An'anaviy, usul, qobiliyat, texnologiya, skaffolding.

ЭФФЕКТИВНОЕ РЕШЕНИЕ ПРОБЛЕМ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ'

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос о коммуникативных навыках при обучении иностранным языкам в нефилологических институтах. Кроме того, были рассмотрены различные методы решения этих проблем.

Ключевые слова: Традиционный, метод, навык, технология, скаффолдинг.

AN EFFECTIVE SOLUTION TO PROBLEMS OF STUDYING NON-FILOLOGICAL UNIVERSITY STUDENTS'

Annotation

This article considers the issue of communication skills when teaching non-philological institutes foreign languages. Additionally, various methods have been considered to solve these problems.

Key words: Traditional, method, skill, technology, scaffolding.

Kirish. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'rgatishda nutqiy muammolar, muloqot qilish, fikrni mantiqan ifodalay olish kabi qiyinchiliklarni bartaraf eta olishga yo'naltirilgan metodikaning mutaxassislikka mos xolda yo'naltirish hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

Pedagoglar borki, chet tilini o'qitish borasida, faqat talabalar tomonidan grammatikasi va terminologiyasi noma'lum bo'lgan murakkab matnlarni o'qishni tushunishadi, shundan so'ng, odatda, ularga bir qator an'anaviy savollar va javoblar keladi. Yoki oddiygina matn tarjimai bilan dars jarayonini olib boradilar. Bu stereotip ba'zan juda barqaror bo'lib chiqadi va o'qituvchining boshqa (butunlay yangi) ta'lim shakliga o'tishga tayyor emasligidan dalolat beradi. Bu

Bir qancha metodlarni tahlil qilib ko'ramiz.

To'g'ri Usullari	Ongli usullari	Kombinatsiyalangan usullari	Intensive usullari
Tabiiy To'g'ridan-to'g'ri Audiovizual Audio til Gubernator usuli Og'zaki	Grammatik tarjima. Ongli ravishda amaliy. Ongli ravishda qiyosiy.	O'qish usuli Kommunikativ Tandem usuli	Suggestopedik Hissiy jihatdan semantik Faollashtirish usuli Gipnopediya Ritmopediya

Ro'yxatda keltirilgan o'qitish usullari quyidagi asosiy xususiyatlar bilan farq qiladi:

- usul tilni intuitiv yoki ongli ravishda o'zlashtirishga tayanadi;
- talabalarning ona tiliga tayanishi ishlatiladi yoki chiqarib tashlanadi;
- nutq turlarini o'zaro bog'liq yoki izchil o'zlashtirish faoliyati taxmin qilinadi.

Chet tillarini o'qitishning to'g'ridan to'g'ri usullari 19 asrning ikkinchi yarmida XX asr boshlarida paydo bo'ldi. O'qituvchilar til birliklari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri uyushmalar yaratishga harakat qilishdi va talabalarning ona tilini jalb qilmasdan tilni o'rganish degan tushunchalarga etibor qaratdilar. To'g'ridan-to'g'ri usullarning asosi quyidagi qoidalar bilan belgilanadi:

stereotipni buzish va chet tilini noan'anaviy o'rganishga asoslangan yangi dasturlarni taklif qilish kerak. Dars jarayonining samaradorligini oshirish uchun yangi metod, ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va shu bilan birga talabani kognitiv motivatsiyasini faollashtirish zarur.

Asosiy qism. Metod keng ma'noda maqsadga erishish usuli sifatida belgilanadi. S.A. Volkova takidlashicha, "Metod qanday o'qitishdagi yo'nalish tilni o'zlashtirish strategiyasini belgilaydi va quyidagilarga bo'linadi. O'qitish yondashuvlariga bog'liqlik, bu quyidagi usullar guruhlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

to'g'ridan to'g'ri, ongli, kombinatsiyalangan, intensiv" [4].

- ta'limning amaliy yo'nalishi (birinchi navbatda og'zaki shaklni o'zlashtirish);
 - intuitivlik;
 - tinglash-gapirish tizimida nutq faoliyati turlarining izchil rivojlanishi o'qish-yozish;
 - vizual materiallardan keng foydalanish.
- Ongli usullar o'quvchilarning o'quv jarayonida xabardorligini o'z ichiga oladi
til faktlari va ularni nutq aloqalarida qo'llash usullari.
- Bularning asosiy tamoyillari usullarga quyidagilar kiradi:
- ong printsiplari;
 - og'zaki yoki og'zaki faoliyat turlari bo'yicha o'zaro bog'liq ta'lim yozma aloqa;

- bilimlarni yetkazishdan shakllantirishgacha bo'lgan ketma-ketlikda darslarni tashkil etish
nutq qobiliyatlari;
- retseptiv va samarali assimilyatsiya qilish uchun o'quv materialini farqlash;
- interferentsiyani engish uchun talabalarning ona tiliga tayanishi.

Birlashtirilgan usullar ongli va to'g'ridan-to'g'ri usullar bilan tushunmovchiliklar kelib chiqardi. Ular quyidagi printsiplarga asoslanadi:

- ta'limning nutq yo'nalishi;
- tizimlilik;
- nutq faoliyati turlari bo'yicha o'zaro bog'liq ta'lim;
- chet tilidagi ma'lumotlarni olishning asosiy manbai sifatida yozma matnga tayanish.

Intensiv usullar chet tilini qisqa vaqt ichida va ko'pincha tor yo'naltirilgan maqsadda o'zlashtirish zarurati ortib borayotganligi sababli paydo bo'ldi.

1. Grammar translation method- bunda metod maqsadi faqatgina grammatika o'rganish va matn tarjima qilishdan iboratdir. Afzalligi tarjima qilish tartibi yaxshi o'rganiladi yani matn mazmuniga qarab, so'zma-so'z emas, lekin og'zaki nutqni rivojlantirish ko'rsatkichlari o'smaydi.

2. Inductive yondashuvi orqali chet tilini o'qitishda esa talabalar sherik bo'lib ishlaydilar. Bu yondashuvda chet tili "imitation" yani taqlid qilish orqali yoki o'qituvchini ketidan takrorlash orqali o'rganiladi. Bu usulda ong bilan ishlash jihatlarni rivojlantirish qiyinroq bo'ladi.

3. Direct method – bu usulda til o'rganish ko'proq tinglash va gapirish orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi deyarli ona tilini ishlatmaydi.

4. Audiolingual usulida talabalar o'qituvchini ketidan takrorlaydilar va har bir xatti-harakati uchun talabaga feedback berish kerak. Bu usulda ham nutqiy faoliyat bilan ishlash kam.

5. Scaffolding usuli quyidagilardan iborat: Shaxsga qaratilgan scaffolding odatda scaffoldingning ideal shakli hisoblanadi (Belland, Burdo, & Gu, 2015; Chi, 1996; Graesser va boshqalar, 1997). Skaffolding shakllari orasida u eng yuqori darajaga olib keladi. Bundan 12 yil avval Van Lehn tomonidan o'tkazilgan tajribaviy meta-tahlilda ko'rsatilgan ta'sir o'lchamlari, shaxsga qaratilgan scaffolding o'rtacha ta'sir hajmi 0,79 ga olib kelishini aniqladi, bosqichma-bosqich aqlli repetitorlik tizimlarida esa o'rtacha 0,76 effekt hajmiga olib keldi (VanLehn, 2011). Shunga qaramay, Belland, Gu, Armbrust va Cook fikrlariga ko'ra ko'pgina ta'lim muhitlarida barcha kerakli yordamni shaxsga qaratilgan scaffolding orqali kutish mumkin emas degan nazariyani surdi (Belland, Gu, Armbrust, & Cook, 2013; Muukkonen, Lakkala va Hakkarainen, 2005; Puntambekar & Kolodner, 2005). Shunday ekan, shaxsga qaratilgan scaffolding eng samarali bo'lgan sohalarida e'tibor qaratadi va kompyuterga asoslangan scaffolding talabalarni qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan va qolgan sohalarida talabalarni qo'llab-quvvatlash uchun mas'uliyatning asosiy ma'suliyatini o'z zimmasiga olishiga imkon beradi (Belland, Gu va boshq., 2013; Muukkonen va boshq., 2005; Saye & Brush, 2002). Demak, ta'lim va tarbiyada scaffoldingni o'rni beqiyos bo'lib, u ta'lim jarayonida uchta asosiy scaffoldingga bo'linadi:

Jismoniy scaffolding (Physical scaffolding) talabalarga o'rganish jarayonida jismoniy ko'mak berishga qaratilgan bo'lib, bu turdagi scaffoldingda talabalarga yangi kontseptsiyani tushunishga yordam berish uchun manipulyatorlardan foydalanish yoki talabalarga topshiriqni bajarishda yordam berish uchun nazorat ro'yxatini taqdim etish kabilarni o'z ichiga olishi mumkin.

Kognitiv scaffolding (Cognitive scaffolding) talabalarga o'rganish va bilim olish jarayonida aqliy yordam beradi. Bunda talabalarga bosqichma-bosqich

ko'rsatmalar berish yoki muammoni hal qilishda yordam berish uchun savollar berish kabilarni kiradi.

Ijtimoiy scaffolding (Social scaffolding) talabalarga o'rganish jarayonida ijtimoiy yordam berishga qaratilgan turi xisoblanib, bunga sherik bilan ishlash yoki o'qituvchi yoki repetitoridan yordam olish kabilarni kiradi.

O'quv jarayonida scaffolding metodini qo'llashda, bir necha prinsiplar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

O'quv jarayonida scaffolding metodini qo'llashda, bir necha prinsiplar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- talabalarning e'tiborini jalb qilish yani talabalarni topshiriq bo'yicha ko'rsatmalarga rioya qilishga tayyor qilish uchun o'qituvchi birinchi navbatda ularning qiziqishi va tasavvurini uyg'otishi kerak;
- vazifani soddalashtirish yani vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan harakatlar sonini kamaytirish orqali o'qituvchi talabalariga asosiy g'oyalarni e'tibor berishga qaratadi;
- o'quv maqsadni belgilab olish yani ko'pgina talabalar osongina chalg'iganligi sababli, o'qituvchi dars maqsadini yodda tutishi va talabalarning motivatsiyasini saqlab turishi kerak;

darsning muhim tafsilotlarni ta'kidlash yani o'qituvchi eng yaxshi natijalarga erishish uchun talabalarning e'tiborini vazifaning muhim tafsilotlariga qaratishi kerak.

Skaffolding metodi orqali quyidagilarga erishiladi: (Bransford, Braun va Cocking, 2000). O'quv jarayonlarida scaffolding texnikalarini va prinsiplaridan foydalanish ancha vaqt oladi biroq, bu usul talabalar va o'qituvchilar uchun juda ko'p afzalliklarni beradi. Bu talabalarning tushunchasini yaxshilaydi va individual ta'lim beradi (ayniqsa kichikroq guruhlarda shaxsga qaratilgan ta'lim). Skaffolding talabalarga murakkab vazifalarni osonroq bosqichlarga bo'lish orqali tezroq mahoratga erishishga imkon beradi. Shuningdek, u o'qituvchining ko'rsatmalariga aniqlik kiritilishi orqali talabalarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Bu talabalarning samaradorligini oshiradi va talabalarning ta'lim maqsadlariga erishish ehtimolini oshiradi. O'qituvchining faol ishtiroki talabalarning diqqatini vazifaga uzoqroq bajarishga va chalg'itmaslikka yordam beradi. Bundan tashqari, scaffolding texnikasi talabalarni qiyin narsalardan voz kechishni oldini oladi.

O'quv jarayonini monitoring qilish har bir talabaning qobiliyatlari va darsda ishlatiladigan materiallar turlari haqida ko'plab tushunchalarni berishi mumkin.

Mustaqil bilim olishga undaydi va talabalarni yaxshiroq talaba bo'lishga undaydi (qanday o'rganishni o'rganish). Talaba ma'lum darajada o'zlashtirgandan so'ng, o'qituvchi asta-sekin scaffolding tayanchini olib tashlashi mumkin. Shunday qilib, o'qituvchi talabalarga kattalar hayotida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan samarali mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishi mumkin. Bu hamkorlik ko'nikmalarini kuchaytiradi va tengdoshlar bilan o'rganish imkonini beradi.

Skaffolding – bu o'qituvchi bilan juftlik va guruhlarda hamkorlik qilishdir. Talabalar kursdoshlari bilan birgalikda ishlashda o'zlarining yetakchilik, faol tinglash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirish imkoniyatga ega bo'ladilar.

Xulosa. Skaffolding texnikasi o'quv jarayonini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatiga ega. Turli asoslardan foydalanilgan holda o'qituvchi muhim bilim ko'nikmalarini rivojlantirishi va talabalarning zaxiradagi bilimlarini ya'ni yashash davrida to'plagan barcha bilimlarini yangisi bilan bog'lashi mumkin. Skaffolding metodi talabalarning mustaqil ta'lim ko'nikmasi va amaliyotini kuchaytirishga yordam beradi, bu ham talabalarga, ham ularning o'qituvchilariga foyda keltiradi. Talabalar yangi mazmun bilan alohida shug'ullanishlari kerak, o'qituvchilar esa yo'l-yo'riq va

maslahat berish ko'nikmalarini oshiradilar. Garchi skaffolding birinchi marta amalga oshirilganda noaniq bo'lishi mumkin bo'lsa ham, u talabalarning akademik samaradorligini va ishonchini oshiradi va shaxslararo munosabatlarni

rivojlantiradi. Bundan tashqari, bu o'qituvchi va talaba munosabatlariga va guruh dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Кружкова Т.И., Сорокина Н.И. Проблемы высшего профессионального образования России и пути их решения. // Интеграция науки и образования в современном мире. Сборник материалов международной научно-практической конференции. – Екатеринбург. – 2014. – 160с.
2. Сорокина Н.И. Современные образовательные технологии при обучении иностранному языку в неязыковом вузе. // Аграрное образование и наука. – 2016. – № 2. – С. 63.
3. Ширшов В.Д. Инновационные технологии обучения. // Аграрное образование и наука. – 2013. – № 1. – С. 10.
4. Щукин А.Н. Обучение иностранным языкам. Теория и практика. – М.: Филоматис. – 2007. – 480с. 5. Belyaev G. Y. Innovative upbringing of the language personality of a learner within the environmental communicative context // Proc. of international conference education environment for the information age (EEIA2016). 2016. Vol. 29.
5. G.Azizova. International Journal of Inclusive and Sustainable Education “Communication Skills in Teaching a Foreign Language Problems and Solutions for their Improvement” February-2023. Volume 2 | No 2
6. http://aon.urgau.ru/uploads/article/pdf_attachment/629/%D0%92%D0%BE%D0%BB%D0%BA%D0%BE%D0%B2%D0%B0.pdf
7. https://dspace.kpfu.ru/xmlui/bitstream/handle/net/116007/Sakaeva_L.R._Baranova_A.R._Metodika_obucheniya_inostrannym_yazykam.pdf
8. <https://custom-writing.org/blog/scaffolding-technique-education>



УДК: 316.346.2 – 055.2:316.334.55 (575.1)

Нодира АЗИЗОВА,

Докторант национального университета имени Мирзо Улугбека

E-mail: nodiraazizova@gmail.com

по отзывам доктора социологических наук, доцента У.Собировой

ПОВЫШЕНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА КАК УСЛОВИЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЛАГОСОСТОЯНИЯ СЕЛЬСКИХ ЖЕНЩИН УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье представлено, что мотивация, навыки и финансовая поддержка являются основными факторами расширения прав и возможностей сельских женщин в социально-экономической жизни их сообществ, что ведет к повышению благосостояния их семей и сообществ и снижению уровня бедности. Гендерные стереотипы и патриархальные устои негативно влияют на занятость женщин и их лидерские позиции. В связи с этим необходима организация программ поддержки женского предпринимательства в сельской местности организация бизнес - информационного мастерства, которое будет охватывать развитие практических, информационных и других навыков.

Ключевые слова: сельские женщины, благосостояние, гендерное равенство, гендер, расширение прав и возможностей, Узбекистан.

INCREASING HUMAN CAPITAL AS A CONDITION FOR ENSURING THE WELL-BEING OF RURAL WOMEN IN UZBEKISTAN

Annotation

This article presents that motivation, skills and financial support serves as main factors of rural women empowerment in the socio-economic life of their communities which leads to increasing the wellbeing of their families and communities' lives and poverty reduction. The survey revealed that rural women face difficulties in accessing business education, skills and competencies in the field of business. Gender stereotypes and patriarchal attitudes negatively impact on women's employment and leadership positions. In this regard, it is necessary to organize programs to support women's entrepreneurship in rural areas organization of business - informative skills, which will cover the development of practical, informational and other skills.

Key words: rural women, wellbeing, gender equality, empowerment, Uzbekistan.

O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ AYOLLARI FAROVONLIGINI TA’MINLASH INSON KAPITALINI OSHIRISH SHARTI SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqolada motivatsiya, ko'nikma va moliyaviy qo'llab-quvvatlash qishloq ayollarining o'z jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy hayotida imkoniyatlarini kengaytirishning asosiy omillari bo'lib xizmat qiladi, bu esa ularning oilalari va mahalla hayotining farovonligini oshirishga va kambag'alchilikni kamaytirishga olib keladi. Gender stereotiplari va patriarxal munosabatlar ayollarning bandligi va rahbarlik lavozimlariga salbiy ta'sir qiladi. Shu munosabat bilan qishloq joylarda ayollar tadbirkorligini qo'llab - quvvatlash bo'yicha amaliy, axborot va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishni qamrab oladigan biznes-informatsion ko'nikmalarni dasturlarini tashkil etish zarur.

Kalit so'zlar: qishloq ayollari farovonligi, gender tengligi, gender, imkoniyatlarini kengaytirish, O'zbekiston.

Введение. Повышение роли человека, его знаний, навыков, умений и целеустремленности является драйвером обеспечения благосостояния всего общества и в том числе молодых девушек и женщин, проживающих в отдалённых районах Узбекистана[1]. В обращении Президента подчеркивается, что «В основе всего лежит стремление к совершенствованию, реализация мечты о целенаправленной жизни, под этим подразумевается привлечение людей к своей конкретной деятельности (приобретение профессии, получение высшего образования, предпринимательство). Все реализованные работы были организованы по модели Президента через модель «**мотивация, навыки, финансовая поддержка**», где основным фактором является целеполагание. Применение данной модели развития, основанной на формировании целеустремленности даст возможность резко снизить безработицу и иждивенческие подходы и увеличить стремление к поступлению в Высшие Учебные Заведения (ВУЗ), основать собственный бизнес и вносить свой вклад в бюджет семьи. Следует отметить, что в отдаленных районах нашей страны, основная доля

предпринимательства и источник дохода приходится на сельское хозяйство.

Использование гендерной концепции для анализа агропромышленного сектора показало, что существуют конкретные гендерные пробелы, которые необходимо устранить для достижения Целей Устойчивого Развития устойчивого развития общества. Гендерные стереотипы в значительной степени определяют выбор женщинами курсов и перспективы трудоустройства. При выборе профессии девочек мотивируют не столько занятость и успех, сколько желание получить квалификацию, которая будет полезна в семейной жизни (например, медицинский работник, учитель или коллектор). Женщины в сельских районах гораздо менее конкурентоспособны на рынке труда, в основном из-за ограниченного числа официальных рабочих мест, доступных на местном уровне, и отсутствия необходимого образования, профессиональной квалификации и навыков.

Необходимость сбалансировать работу с семейными и домашними обязанностями, вероятно, объясняет, почему все больше женщин работают

неполный рабочий день или в неформальном секторе. Неформальная работа вносит значительный вклад в семейный бюджет, но она часто оставляет женщин без социальной защиты. Сельские женщины часто работают в качестве неоплачиваемых работников на семейных фермах и несут бремя многочисленных обязанностей на уровне домашних хозяйств и общин, что особенно сложно и отнимает много времени ввиду слабой инфраструктуры в сельских (и особенно отдаленных) районах. Их труд часто не виден и плохо распознается. Их доступ к ресурсам, будь то материальные (Земля, воды, скота, оборудования и т. д.) или нематериальное (знания, доступ к технологиям и т. п.) и умение осуществлять за ними контроль, ограничены, и, как следствие, их экономические возможности ограничены[4]. Женские широкое представительство как неформальное или неполный рабочий день/рабочие, часто с более низкой заработной платы и минимальной социальной защиты, делает их более уязвимыми и понижает их статус в семье, потому что они оказывают гораздо меньше[5].

Литературный обзор. Одним из основных показателей эффективности социального развития сельской местности и качества жизни, живущих там людей является социальное самочувствие населения. С.И.Ожегов трактует его как «состояние физических и душевных сил человека»[6]. С точки зрения другого лингвиста Т.Ф.Ефремова самочувствие представляется как «общее физическое и моральное состояние человека»[7]. «Социальное самочувствие» в зарубежной научной мысли является категория «социальное благополучие», которое рассматривается на макро и микроуровне[8].

Так, исследователи из Института Гэллага Т.Рат и Дж.Хартер, предлагая свою трактовку понятия социального благополучия, выделяют пять ключевых элементов, из которых оно складывается[9]:

карьера – отражает то, насколько люди успешно оценивают свой карьерный рост или в целом удовлетворены своей работой;

личное благополучие – показатель качества межличностных отношений в семье и среди друзей (т.н. «сильные связи»);

финансовое благополучие – комплексный показатель, включающий уровень дохода, сбережения, имущество и пр.;

физическое (телесное) благополучие – самооценка физического и ментального здоровья;

благополучие человека как члена местного сообщества – показывает степень включенности в жизнь

местного сообщества и объём социального капитала «слабые связи»; отрицательное значение показателя на практике означает социальную изоляцию индивида.

В рамках социологии и социальной психологии наиболее полно представлено понятия «социальное самочувствие». Его подробный анализ дается в работах В.Э.Бойкова, Б.В.Дубина, Ж.Т.Тощенко, С.В.Харченко, А.А.Русалиновой, В.А.Кольцовой, Ю.Н.Олейника и др.[10]. В изучении феномена «социальное благополучие» можно выделить различные теоретико-методологические подходы.

1. Философский подход рассматривает социальное самочувствие как отражение процессов, происходящих в обществе, как реакция индивида на социальную действительность, и как элемент общественного сознания и общественного мнения, необходимых в построении отношений между людьми.

2. Социологический, который изучает субъективный и объективный подход в удовлетворенности и качеством жизни, благополучностью, реализацией в профессиональной деятельности, правовой защищенностью и уровнем социальной защиты.

Результаты исследования. Исследования социальное самочувствие можно представить как комплексный показатель состояния комфортности в среде..., основанный на оценочных суждениях респондентов об «...удовлетворенности жизненными условиями...» и «...защищенности от неприятных событий»[11], а также наличием и спецификой субъективно переживаемой неопределенности жизненной ситуации[12].

По нашему мнению, социальное самочувствие может отражать внешние по отношению к человеку условия и ситуации, как субъективные, так и объективные факторы социо-психологических аспектов жизни сельских жителей. В частности – степень удовлетворенности, компоненты личностного «счастья и благополучия, ценностные ориентации, удовлетворенность жизненной ситуацией, оценка рисков в обществе, удовлетворение потребностей и др. факторы.

Главными ценностями для опрошенных женщин из сельской местности является семья – 27,7% участниц опроса указали на это. Связанным с семейными ценностями является рождение ребенка – 20,6%. Вырастить и поставить на ноги детей, обеспечить их материальное

Социальное самочувствие



Рис. 1. Факторы социального самочувствия

благополучие, дать им образование, женить, выдать замуж, обеспечить их своим жильём также входит в приоритетные ценности женщин – на это указали 18,8% опрошенных женщин.

В тоже время значительной ценностью для женщин является получение высшего образования – 13,3%. Все обозначенные ценности считаются

обязательными условиями достижения благополучия женщин.

Подтверждением ценности для женщин является понимание и самоощущение счастья, которое в рамках данного исследования было выявлено как благополучие и спокойствие в семье (45,25%), здоровье родных и близких (18,8%), благополучие детей и внуков (11,8%).

Счастливыми себя считают половина опрошенных девушек/женщин – данный показатель составил 51,7%. Те респондентки, которые не ощущают себя счастливыми, чувствуют потребность в обеспечении финансового благосостояния (28,8%), благополучие и спокойствие в семье (26,8%). Данный показатель, в частности, указывает на состояние напряженности в семье, что также приводит к нарушению благополучия женщин. Для достижения счастья 24,5% опрошенных женщинам хотелось бы достижения здоровья близких и родных.

Исследования социального благополучия женщин целесообразно изучать с позиции ценностного подхода. Так, главной ценностью для женщин из сельской местности, является семья, постановка вопроса в исследовании указывала на то, что данная ценность представляется наиболее приоритетной и жизнь без нее практически невозможна. Для 31,2% опрошенных участниц опроса.

В целом, как показало исследование, ценностные ориентации женщин сельской местности ориентируются в большей степени на семью, детей, то есть ценности микроуровня, в тоже время, ценности самореализации, самодостаточности женщин находится на стыке традиционных ценностей и современных динамичных тенденций, и необходимости развития как одной из потребностей женщин. Это в свою очередь позволяет определить основное направление работы с сельскими женщинами, которое будет способствовать более широкому вовлечению женщин в социально-политическую активность, повышение уровня представленности женщин в органах государственной власти.

Заключения и рекомендации. Анализ гендерных стереотипов с точки зрения социально-структурной стратификации, дифференциации позволяет раскрыть мужские и женские роли, деятельность и статус. В заключении анализ показал, что самыми распространёнными гендерными стереотипами в сельской местности являются то что женщина – это хранительница очага, а мужчина кормилец семьи. Нами выявлены появление новых нестандартных форм занятости в виде, неформальной занятости, виртуальная занятость, неполная занятость, самозанятость, временная занятость.

Основываясь на модели Президента «мотивация, навыки и финансовая поддержка» по мнению диссертанта, социальное самочувствие может отражать внешние по отношению к человеку условия и ситуации, как субъективные, так и объективные факторы социально-психологических аспектов жизни сельских жителей.

Во-первых, необходимо повышение эффективности по обеспечению медико-социальных услуг, оказываемых женщинам в регионах, особенно в сельской местности, приобщению их к здоровому образу жизни, сохранению и повышению здоровья сельских женщин, сокращению его заболеваемости путем организации мобильных медицинских пунктов в отдаленных сельских районах.

Во-вторых, оказание социально-правовой, психологической помощи женщинам, оказавшимся в тяжелом социальном положении, их адресная поддержка через разработку и реализацию комплекса мер, направленных на развитие социально-психологической службы сельских регионов Республики Узбекистан с целью улучшения социального, и психологического самочувствия населения региона, профилактики трудных жизненных ситуаций, психических заболеваний, девиантности, домашнего насилия и развития семейных навыков.

В-третьих, анализ состояния системы образования в сельской местности показывает, что для улучшения качества ее функционирования необходимо: решение проблем финансирования и улучшения состояния материально-технической базы учреждений системы образования; сохранение и развитие сети учреждений дошкольного, коррекционного и дополнительного образования; повышение качества образования и развитие воспитательного потенциала образовательных учреждений; создание образовательных курсов для взрослых «Образование длиною в жизнь» на базе местных махаллинских комитетов.

В-пятых, повышение эффективности механизмов регулирования рынка труда и занятости в регионах Республики Узбекистан возможно через: оказание всестороннего содействия в обучении, овладении профессиональными навыками и обеспечении женщин достойной работой, активизацию процесса взаимодействия служб занятости, стимулирование создания дополнительных рабочих мест; поддержка женского предпринимательства и поощрение новых форм самозанятости; усиление работы по профессиональной ориентации сельских женщин с учетом требований рынка труда.

В-шестых, создавать условия на государственном уровне для повышения уровня информированности сельских женщин о программах по повышению потенциала, в частности, направленных на повышение охвата высшим образованием женщин, возможностей для реализации их притязаний в повышении своего уровня образования;

В-седьмых, органам государственной власти необходимо проводить политику, привлекающую женщин в общественную жизнь, стимулируя и поощряя их в выражении своего потенциала в социально-политической жизни;

ЛИТЕРАТУРА

1. Бекмуродов М.Б «Воспитание молодых – основа Стратегии просвещения III Ренессанса», Молодежь Узбекистана – основной драйвер третьего Ренессанса, 3 том, Ташкент, 2021, 62-67 стр.
2. Ильина Д. Реформирование сельского хозяйства в Узбекистане. <https://ifmr.uz/publications/articles-and-abstracts/agriculture>.
3. Указ Президента Республики Узбекистан от 23 октября 2019 г. № УП-5853 “Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы”.
4. JICA, Выявление гендерных проблем в секторе садоводства в Узбекистане, 2019 год. <https://openjicareport.jica.go.jp/pdf/12353710.pdf>.
5. Азиатский Банк Развития. Страновая Гендерная оценка Узбекистана, Обновлено, 2018.
6. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка [Электронный ресурс] / С.И. Ожегов. – М.: Мир и Образование, Оникс, 2011. – Режим доступа <https://slovarozhegova.ru/word.php?wordid=27812>(дата обращения 17.11.2021).

7. Ефремова Т.Ф. Новый словарь русского языка. Толково-словообразовательный [Электронный ресурс] – Москва: Русский язык, 2000. – Режим доступа: <https://www.efremova.info/word/samochuvstvie.html#.XXnWFC1vVRI>(дата обращения 22.12.2021).
8. Diener Ed., Oishi Shigehiro, Richard E. Lucas. Personality, Culture and Subjective Well-Being: Emotional and Cognitive Evaluations of Life // Annu. Rev. Psychol. – 2003. – Vol. 54. 403-425 стр.
9. Rath T., Harter J. Wellbeing: The Five Essential Elements. Gallup Press, 2011. – 240 стр.
10. Холондович Е.Н. Психологическое самочувствие человека как психологическая проблема. Институт психологии Российской академии наук. Социальная и экономическая психология 2018. Том 3. № 4 (12). <http://soc-econom-psychology.ru/engine/documents/document647.pdf>. (Дата обращения 20.12.2021)
11. Мозговая А.В. Шлыкова Е.В. Социальные ресурсы и адаптация к риску: выбор стратегии (на примере социальной общности в ситуации конкретного риска) // Социальная наука и социологическая практика / Гл. ред. М.К.Горшков. – Москва: ИС РАН, 2014. № 4(8). 41 стр
12. Корнилова М.В. Институт социальной защиты населения в условиях усиления социальных рисков (на примере социального обслуживания пожилых граждан г.Москвы): дис. ...канд. соц. наук. Москва, 2012. 94 стр.



UDK:316.323.6(575.1)

Xusan AKRAMOV,

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta o'qituvchisi

E-mail: x.akramov@mail.ru

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi «Din psixologiyasi va pedagogika» kafedrasida professor vazifasini bajaruvchi, sotsiologiya fanlari doktori (DSc) B.A. Farfiyev taqrizi asosida

SOTSIAL KAPITAL KO'RSATKICHLARINING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada hududiy sotsium tushunchasining ta'riflanishi. Hududiy sotsium tushunchasini tavsiflovchi omillarni ajratib ko'rsatilgan. Sotsial kapital hududiy sotsiumning muhim komponenti sifatida belgilangan. Insonlarni jamoatchilik ishlaridagi faolligi, vijdon erkinligi va diniy e'tiqodga bo'lgan munosabati, do'stlarning insonlar hayotida mavjudligi, insonlar hayotida o'zaro yordamning mavjudligi bo'yicha indikatorlarning tavsiflanganligi ko'rsatilgan. O'tkazilgan tadqiqot yuzasidan umumiy tahlil xulosasi qilingan.

Kalit so'zlar: sotsial kapital, sotsium, ijtimoiy-demografik tuzilish, mehnat bozori, aholi daromadi, ta'lim darajasi, differensial faollik, do'stlik, vijdon erkinligi, diniy e'tiqod, o'zaro yordam, ijtimoiy muhit.

ТЕРРИТОРИАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА

Аннотация

В этой статье дается определение понятия территориального социума. Выделены факторы, характеризующие понятие территориального социума. Социальный капитал определяется как важная составляющая территориального социума. Показана характеристика показателей активности людей в общественных делах, отношения к свободе совести и религиозным убеждениям, наличия друзей в жизни людей, наличия взаимопомощи в жизни людей. Из проведенного исследования сделан вывод об общем анализе.

Ключевые слова: социальный капитал, социум, социально-демографическая структура, рынок труда, доходы населения, уровень образования, дифференциальная активность, дружба, свобода совести, религиозные убеждения, взаимопомощь, социальная среда.

REGIONAL FEATURES OF SOCIAL CAPITAL INDICATORS

Annotation

In this article description of the concept of territorial society. Terms that characterize the concept of territorial society. Social capital as an important component of territorial society determined. It describes the characteristics of human activity in public Affairs, freedom of conscience and attitude to religion, the presence of friends in people's lives, the presence of indicators of the existence of mutual assistance in people's lives showing. The made Summary of the General analysis of the studies.

Key words: social capital, socio-demographic structure, labor market, income, education level, differential activity, friendship, conscience, religious relations, mutual assistance, social environment.

Kirish. Mamlakatimiz Prezidenti o'z fikrlarida quyidagi strategik yo'nalishlarga qaratish lozimligini tushintiradilar: "Aholining real daromadlarini, turmush darajasini va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Hukumat va shaxsan uning yangi rahbariyati faoliyati samarasini biz aynan shu mezonlar asosida baholashimiz zarur." [1; 21-22-b] Ushbu fikrlardan aholining turmush sifatini oshirish va farovonlik darajasini oshishi masalasi mamlakatimizning muhim strategik vazifalardan biri etib belgilangan.

Sotsial kapitalning zamonaviy talqinini tahlil qilishda, aynan e'tiborni ularning qaysilari sotsial kapitalni hududiy sotsium tushunchasi bilan bog'lashlari va unda ushbu kapital shakllanishi uchun sharoitlar mavjudligiga qaratish zarur. S.V.Polutina fikricha, hududiy sotsiumning tavsifiga ko'ra to'g'ridan to'g'ri sotsial kapital bilan bog'liqdir. Hududiy sotsium – bu madaniyat umumiyliigi, faoliyat sharoitining birdamligini tavsiflovchi va barqaror ijtimoiy umumiylikni ifodalovchi ma'lum bir hudud xalqidir. Hududiy sotsiumni tavsiflovchi oltita asosiy ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish mumkin, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijtimoiy-demografik tuzulish;
- mehnat bozoridagi vaziyat;
- aholi daromadining darajasi;

– aholining ta'lim darajasi bo'yicha taqsimlanishi;

– aholining faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi;

– sotsial kapital, sotsiumga uning tarkibiy qismlari va o'zining tegishli bo'lganligi tufayli.[2; 88-b] "Aholi bilan doimiy muloqat qilish, uning qonuniy talablari, so'rov va takliflarini amalga oshirish uchun aniq choralar ko'rishni men o'zim uchun eng muhim va ustuvor vazifa, deb hisoblayman." [3; 17-b] Mazkur fikr bilan mamlakatimiz rahbari aholi o'rtasidagi ishonch indeksini ya'ni sotsial kapital mezonini oshirishni asosiy maqsad qilib qo'yganligi yaqqol ko'rinib turibdi. Mamlakatimiz hududiy xususiyatlarini ijtimoiy-demografik tuzulishi va sotsial kapital indikatorlarining milliy xususiy tavsifi asosida tahlil qilishni lozim deb bildik.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Aholi turmush sifatini yuksaltirish va sotsial kapital masalalarning o'zaro aloqadorligiga oid muammolar insoniyat tarixining barcha davrlarda o'rganib kelingan. Sotsial kapitalning nazariy konseptual asoslarini shakllantirgan olimlardan P.Burduye[4], J.Koulman[5; 95-120 b], A.Portes[6; 1-24 b], R.Patnem[7], M.Mularskaya-Kucharek, K.Brjejinskiy[8; 144-b], F.Fukuyamalar[9] sotsial kapitalning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini, o'lchov birligini, baholashning kombinatsiyalangan usulini, ijtimoiy tarmoqlarni baholashni taklif etganlar.

Mamlakatimiz olimlaridan M.Bekmurodov[10; 52-b], T.Matibayev[11; 123-b], B.Farfiyev[12; 70-115-b], A.Jalilov[13; 112-b] va S.Saidovlar[14; 13-b] sotsial kapital indikatorlarining zamonaviy jamiyatdagi talqini, ularning fuqarolik jamiyati iqtisodiy jihatlarining asosini tashkil etishi, aholi turmush sifatini o'zlashtirish sifatida tadqiq etishgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, sotsial kapital murakkab tushuncha bo'lib, umumiy qarashga va aniqlikka ega bo'lmagan tushuncha sifatida mavhum tizimni shakllantiradi. Shuning uchun ham, uning shakllanuvchi va rivojlanuvchi cheklangan voqea va hodisalar to'plami haqida fikr yuritish qiyin. Sotsial kapitalni ko'pgina omillarga – madaniy, iqtisodiy, demografik, huquqiy va boshqalarga tobeligi, uning milliy xususiyati jihatdan differensial shaklda ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda, sotsial kapital turli xil darajadagi birlamchi va ikkilamchi sotsial guruhlarda rivojlanishini qayd etish zarur. Masalan: insonlarni jamoatchilik ishlaridagi faolligi, vijdon erkinligi va diniy e'tiqodga bo'lgan munosabati, do'stlarning insonlar hayotida mavjudligi, insonlar hayotida o'zaro yordamning mavjudligi va shunga o'xshash bir qator omillarni kiritish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. 1173 ta respondentdan Laykert shkalasi asosida shakllantirilgan 10 balli tizimda sotsial kapitalni ko'rsatkichlari orqali baholanishi so'ralgan anonim anketaning 1082 tasi Respublikaning 14 ta xududi aholisidan o'tkazildi. Shu bilan birgalikda ushbu tadqiqotda tanlab olingan ekspertlar ya'ni, Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazining 5 ta xodimlaridan, "Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazining 14 ta intervyuyerlaridan hamda 14 ta hududdan 5 tadan ixtiyoriy tanlov asosidagi Mahalla Fuqarolar Yig'inining 72 ta rais va kotiblaridan ekspert sifatida ushbu tadqiqot anketasi o'tkazildi.

Tahlil va natijalar. Sotsial kapitalning milliy xususiyatini va ijtimoiy muhitdagi holati va tavsifi darajasini kompleks tahlil qilish uchun yuqorida ko'rsatib o'tilgan birlamchi va ikkilamchi guruhni omillarni ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir. Ushbu kompleks tahlili uchun bir qator tadqiqotlar o'tkazildi. Ulardan birinchisi bu milliy xususiyatiga ko'ra kvotali tanlov asosida tanlab olingan barcha Respublika xududlaridan jami bo'lib 1174 aholi tanlab olinib, shulardan 557 tasi ya'ni 47,4% ayollar va 617 tasi ya'ni 52,6% erkaklar tashkil etdi. Mazkur o'tkazilgan tadqiqotdagi 1 ta anketa yaroqsiz deb topildi.

1-jadval

O'tkazilgan tadqiqotning hududlar kesimida aholini jinslar bo'yicha bo'linishi

Hududlar	jinsi	Jami:		
		ayol	erkak	
Qashqadaryo	soni	57	60	117
	ulushi	4,9%	5,1%	10,0%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	soni	31	29	60
	ulushi	2,6%	2,5%	5,1%
Andijon	soni	31	37	68
	ulushi	2,6%	3,2%	5,8%
Buxoro	soni	48	48	96
	ulushi	4,1%	4,1%	8,2%
Jizzax	soni	19	35	54
	ulushi	1,6%	3,0%	4,6%
Navoiy	soni	25	24	49
	ulushi	2,1%	2,0%	4,2%
Namangan	soni	40	41	81
	ulushi	3,4%	3,5%	6,9%
Samarqand	soni	65	46	111
	ulushi	5,5%	3,9%	9,5%
Sirdaryo	soni	20	29	49
	ulushi	1,7%	2,5%	4,2%
Surxondaryo	soni	30	51	81
	ulushi	2,6%	4,3%	6,9%
Toshkent viloyati	soni	39	47	86
	ulushi	3,3%	4,0%	7,3%
Toshkent sh	soni	65	78	143
	ulushi	5,5%	6,6%	12,2%
Farg'ona	soni	56	56	112
	ulushi	4,8%	4,8%	9,5%
Xorazm	soni	31	36	67
	ulushi	2,6%	3,1%	5,7%
Jami:	soni	557	617	1174
	ulushi	47,4%	52,6%	100,0%



1-rasm. O'tkazilgan tadqiqotning hududlar kesimida aholini jinslar bo'yicha bo'linishi

O'tkazilgan anketalardan ayol ekspertlar 30 kishi ya'ni 32%, hamda erkak ekspertlar 65 kishi ya'ni 68% ni tashkil etib, jami ekspertlar soni 95 kishini tashkil etdi. Ushbu ekspertlardan o'tkazilgan tadqiqot anketalarining 4 tasi yaroqsiz deb topildi.

2-jadval

O'tkazilgan tadqiqotning hududlar kesimida ekspertlarni jinslar bo'yicha bo'linishi

Hududlar	ayol	erkak	Jami:
Qashqadaryo	1	5	6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2	4	6
Andijon	3	3	6
Buxoro	2	4	6
Jizzax	1	5	6
Navoiy	2	4	6
Namangan	3	3	6
Samarqand	1	5	6
Sirdaryo	1	5	6
Surxondaryo	2	4	6
Toshkent viloyati	0	6	6

Toshkent sh	7	10	17
Farg'ona	3	3	6
Xorazm	2	4	6
Soni:	30	65	95
Ulushi:	32%	68%	100%



2-rasm. O'tkazilgan tadqiqotning hududlar kesimida ekspertlarni jinslar bo'yicha bo'linishi

Mazkur tadqiqotning asosiy mohiyati sotsial kapitalni quyidagi milliy xususiyatlarini asosidagi o'lchovini o'rganishdan iborat bo'lib, unda quyidagi indikator o'rganildi:

– Insonlarning jamoatchilik ishlaridagi faolligi indikatori. "Har qanday ish aniq iqtisodiy foyda keltiradi va ish bilan shug'ullanish insonlarga jamiyat bilan aloqada bo'lishga imkon beradi, insonning o'ziga beradigan bahosini ko'tarilishiga olib keladi qobiliyatlarini rivojlantirishga va


kompetentlikni kengayishiga olib keladi. Bundan tashqari, yuqori darajadagi bandlik jamiyatni yanada boyitadi, siyosiy jihatdan barqaror bo'lishiga va sog'lomlanishiga olib keladi." [15] Aynan ushbu insonlarning jamoatchilik ishlaridagi faolligini aniqlash orqali sotsial kapital darajasini aniqlash mumkin. Biz o'tkazgan ushbu tadqiqotdagi insonlarning jamoatchilik ishlaridagi faolligi quyidagi 3-Jadvalda o'z aksini topgan.

3-Jadval

		Past daraja				O'rta daraja			Yuqori daraja				jami	
		0 ball	1 ball	2 ball	3 ball	4 ball	5 ball	6 ball	7 ball	8 ball	9 ball	10 ball		
Aholi		9	6	41	60	113	199	198	175	146	72	63	1082	
	ulushi foizda (%)	0,8	0,5	3,5	5,1	9,6	17,0	16,9	14,9	12,4	6,1	5,4		92,2
		9,9 %				43,5 %			38,8 %					
Ekspert	Javob berganlar soni	0	2	2	5	7	23	9	14	16	7	6	91	
	ulushi foizda (%)	0,0	0,2	0,2	0,4	0,6	2,0	0,8	1,2	1,4	0,6	0,5	7,8	
		0,8 %				3,4 %			3,7 %					
Jami	Javob berganlar soni	9	8	43	65	120	222	207	189	162	79	69	1173	
	ulushi foizda (%)	0,8	0,7	3,7	5,5	10,2	18,9	17,6	16,1	13,8	6,7	5,9	100,0	
		10,7 %				46,7 %			42,5 %					

Unga ko'ra, aholi o'rtasidan tanlab olingan respondentlar jamoatchilik ishlaridagi faollikni yuqori darajada deb baholaganlar, ya'ni umumiy respondentlarning 38,8% tashkil etgan, ushbu respondentlarning ya'ni, umumiy respondentlarning 43,5% o'rta darajada deb baholaganlar va umumiy respondentlarning 9,9% respondentlar past darajada deb baholaganlar. Aholi bergan bahosiga qarab quyidagi fikrga kelish mumkin. Jamiyatimizda jamoatchilik ishlaridagi faollik biz o'ylaganchalik yuqori emasligi ma'lum qilinganligi

aholi o'rtasidan tanlanib olingan respondentlarning jamoatchilik ishlariga munosabatlarida aks etganligi hamda biz o'ylaganchalik ijobiy emasligi quyidagi diagrammadan ko'rishimiz mumkin. Ushbu diagrammada respondentlarni bergan baholari yuqori darajada bo'lmaganligi sababi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit va islohotlar natijasida mazkur shart-sharoitlar muammolari asta sekinlik bilan o'z yechimini topa boshlaganligini ko'rishimiz mumkin.




3-rasm. Aholi. Insonlarning jamoatchilik ishlaridagi faolligi darajasi

Insonlarning jamoatchilik ishlaridagi faolligi darajasini ekspertlar tomonidan "3-Jadval" da berilgan bahoga ko'ra quyidagicha talqin qilish mumkin. Hozirgi O'zbekiston sharoitida jamoatchilik ishlaridagi faollik tadqiqotda ishtirok etgan ekspertlar fikriga ko'ra yuqori darajada ya'ni, umumiy

respondentlarning 3,7%ni, o'rta darajada 3,4%ni va past darajada 0,8%ni tashkil etgan. Quyidagi diagrammadan biz aholi o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga juda o'xshash bo'lgan vaziyatni ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, ushbu tadqiqotda aholi o'rtasida va ekspertlar o'rtasida o'tkazilgan

tadqiqot natijalarini taqqoslaganimizda (korrelyatsiyasi) ushbu aloqadorligini va boqliqligini ko'rishimiz mumkin. olingan natijalar ko'rsatkichlarida bir biriga o'zaro



4-rasm. Ekspert. Insonlarning jamoatchilik ishlaridagi faolligi darajasi

Aholi o'rtasida va ekspertlar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida shakllantirilgan diagrammalarini bir biriga solishtirganimizda eng yuqori cho'qqi nuqtasi ya'ni eng ko'p respondentlar tomonidan belgilangan baho 10 balliy tizimda 5 ballni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Bu bilan har tomonlama olingan natija ya'ni mamlakatimizda insonlarning jamoatchilik ishlaridagi faolligi o'rtacha darajada ekanligini isbotlaydi.

Xulosa va takliflar. Milliy xususiyatga ega bo'lgan sotsial kapital indikatorlari har qanday jamiyatni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Jamoatchilik ishlaridagi faollik har qanday jamiyatga xosdir, ammo unga bo'lgan yondashuv turli xil shaklda bo'lib, ayniqsa bizning an'analarga asoslangan jamiyatimizda u o'ziga xosdir. Demak mamlakatimizda shakllanayotgan barcha qadriyatlar va me'yorlarni jamiyatimizda sotsial kapital sifatida o'rnatilganligini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2016 y. 21-22 betlar
2. Найденкова Л.И., Федотов Л.Н. Внеэкономический капитал и его значение для развития регионального социума // ЖССА. 2009. №2. Стр – 88.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2016 y. 17-bet.
4. Bourdieu P. The forms of capital // Handbook of theory and research for the sociology of education. – N.Y., 1985
5. Coleman J. (1988) Social capital in the creation of human capital // American Journal of Sociology. Vol. 94. – P. 95-120
6. Portes A. Social capital: its origins and applications in modern sociology // Annual Review of sociology, 1998. Vol. 24. – P. 1-24
7. Putnam R. Bowling Alone: The collapse and revival of American community. – N.Y., 2000
8. Monika Mularska-Kucharek, Kamil Brzezinski. Horizontal and Vertical Dimensions of Social Trust – The Case of Lodz and the Districts of Lodz Voivodeship // European Spatial Research and Policy, 2012. Volume 19. – Number 1. 10.2478/v10105-012-0011-x. – Page 144
9. <http://www.imf.org/external/pubs/ft/seminar/1999/reforms/fukuyama/html>
10. Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси. Монография / М.Бекмуродов. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – Б. 52.
11. Матибаев Т.Б. Ижтимоий ҳамкорлик ва демократия: давлат ва жамият ҳаётининг барқарор тараққиёт йўлида [Матн]. Монография / Т.Матибаев. – Тошкент: “Билим ва интеллектуал салоҳият”, 2019. – 123 б.
12. Фарфиев Б.А. Ўзбекистон ижтимоий тараққиётида ислом рационализи омили [Матн]. Монография / Фарфиев Б.А. – Тошкент: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти» нашриёти, 2019. – Б. 70-115.
13. Жалилов А., Мухаммадиев У., Жўраев Қ. Фуқаролик жамияти асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: МЧЖ «BAKTRIA PRESS» Нашриёт уйи, 2015. – Б. 112.
14. Саидов С.Ш. Ижтимоий капитал ривожда фуқаролик жамияти институтлари иштирокини таъминлаш тенденциялари. Сиёсий. ф.бўйича (PhD). дисс... автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 13.
15. <http://www.oecd.betterlifeindex.org/> Организация по экономическому сотрудничеству и развитию. (OECD) (Better Life Index).



UDK: 004(942)

Tuyg'un ALIQULOV,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti dotsenti
E-mail: [aliquolvuygun@mail.ru](mailto:aliqulov tuygun@mail.ru)
Suxrob IBRAGIMOV,
Qarshi xalqaro universiteti dotsenti
E-mail: ibragimovsuxrob@mail.ru
Gulzoda MUHIDDINOVA,
Qarshi xalqaro universiteti dotsenti
E-mail: gulzoda0301@gmail.com

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti, i.f.f.d (PhD) A.Rahimov taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF MATHEMATICAL MODELING IN SOLVING PROFESSIONAL PROBLEMS.

Annotation

In this article, many professional issues of students studying in technical higher educational institutions in the fields of specialization, the importance of mathematical modeling in solving them, and various approaches have been mentioned.

Keywords: modeling, model, system of linear algebraic equations, nonlinear algebraic and differential equations.

ЗНАЧЕНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В РЕШЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЗАДАЧ

Аннотация

В данной статье были рассмотрены многие профессиональные проблемы, с которыми сталкиваются студенты технических вузов по специальным дисциплинам, важность математического моделирования в их решении, различные подходы.

Ключевые слова: моделирование, модель, система линейных алгебраических уравнений, нелинейные алгебраические и дифференциальные уравнения.

KASBIY MASALALARNI YECHISHDA MATEMATIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada texnika oliy o'quv yurtlarida ta'lim oladigan talabalarning mutaxassislik fanlarida uchraydigan ko'plab kasbiy masalalari, ularni yechishda matematik modellashtirishning ahamiyatlari, turli xil yondashuvlar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlari: modellashtirish, model, chiziqli algebraic tenglamalar sistemasi, nochiziqli algebraic va differensial tenglamalar.

O'zbekiston Respublikasida matematika fanlari bo'yicha ta'lim sifatini yaxshilash, ilmiy tadqiqotlarning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirishning maqsadli dasturiga ko'ra Respublika sanoat ishlab chiqarish korxonalarining texnik-texnologik masalalari yechimini matematik usullar va modellashtirish orqali hal etishga qodir bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash, amaliy matematikani rivojlantirish va iqtisodiy tarmoqlardagi muammolarni modellashtirish asosida matematik yechimlarni ishlab chiqish matematika fani bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalari asosidagi o'quv adabiyotlarni tayyorlash vazifalari belgilangan.

Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur va shart.

Bu esa chuqur matematik bilimga ega bo'lish, axborot texnologiyalarni qo'llay olishni taqozo etadi. Yoshlarga matematika faniga qiziqishni kuchaytirish yo'llaridan biri matematika fanidan oddiy va tushunarli tilda yozilgan darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy o'quv yurtlarida "oliy matematika" fanini an'anaviy usulda o'qitishda dastlab tabiiy jarayonlar va amaliy masalalarni matematik modellarini, to'g'rirog'i ularning miqdoriy ko'rinishidagi abstrak masalalarni yechish usullari oliy matematika fanidan o'rganiladi. Keyinroq esa mutaxassislik fanlarini o'qitishda bu matematik usullardan foydalaniladi. Shuning uchun ham hozirgi mavjud oliy matematikaga oid adabiyotlarda asosan, dastlab nazariy bilimlarga ko'proq e'tibor berilib, ba'zi kamdan kam

hollardagina mavzu so'ngida bu bilimlarni amaliy masalalarga tadbqiq to'g'risida qisqa ma'lumot berilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, ba'zida oliy texnika o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalar tomonidan "bizga "oliy matematika" fanini o'qitish nimaga kerak"-degan savol bo'ladi. Shuning uchun talabalarga oliy matematika fanida o'qitiladigan har bir modul(bosh mavzu)da bu mavzu nima uchun o'qitilishi kerakligi, ya'ni kelgusida o'rganiladigan mutaxassislik fanlarida uchraydigan masalalarni matematik modeli va uning yechimi aynan shu mavzuda o'rganiladigan bilimlarga keltirilishi sodda tushunarli qilib yetkazish maqsadga muvofiq.

Boshqacha qilib aytganda, talabalarga berilayotgan nazariy bilimlarni bu bilimlar nimaga kerakligiga, ya'ni amaliyotda qo'llanishiga ko'proq e'tibor berish zarur.

Shu sababli ham matematika fani bo'yichayangi o'quv adabiyotlarni yaratishda quyidagilarga e'tibor berish kerak deb hisoblaymiz:

1. Har bir bosh mavzu boshida "bu mavzu nimaga kerak",- degan savolga javob tariqasida amaliy masalalarni matematik modeli aynan shu mavzuda o'rganilayotgan tenglama yoki teoremlarga keltirilishi to'g'risida ma'lumotlar berish.

2. So'ngra bu tenglamani yechish usullari berish.

3. Amaliy masalalarni yechish uchun ko'rsatmalar, talabalar mustaqil yechib o'rganishlari uchun amaliy masalalar topshiriqlari berish.

4. Namunaviy variant yechimi to'liq ko'rsatish.

5. Mavzu so'ngida esa amaliy masalalarni EHM yordamida turli dasturlash muhitlaridan foydalanib yechish yo'llari ko'rsatish. Masalan namunaviy variant misollarini Maple matematik paketida yechib ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu maqolada oliy texnika o'quv yurtlarida o'qitiladigan "oliy matematika"ning chiziqli algebra bo'limining chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi matematik modellar yordamida o'qitishga bag'ishlangan. Bu mavzu texnika yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun ularga kelgusida o'qitiladigan mutaxassislik fanlarini "sonli usullar va matematik modellar" yordamida o'rganishda ham foydali bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, mavzularni bu tartibda bayon qilinishi oliy matematika fanini masofaviy o'qitish platformalariga joylashtirish imkonini beradi.

Quyida mavzu avvalida talabalarga berilishi maqsadga muvofiq bo'lgan, tabiiy va iqtisodiy jarayonlar masalalarini chiziqli algebraik tenglamalar sistemasiga modellashtirish xususida to'xtalamiz.

Ko'plab nazariy va amaliy masalalar bitta bir noma'lumli tenglamani emas, bir nechta noma'lumli bir nechta tenglamalar sistemasini o'rganishga olib keladi. Tenglamalar sistemasi chiziqli va nochiziqli algebraik tenglamalar hamda chiziqli va nochiziqli differensial tenglamalar sistemasidan iborat bo'ladi.

Quyida chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini o'rganish zaruriyati sabablarini qaraymiz:

Birinchi ko'pgina o'zaro chiziqli bog'liq o'zgaruvchilar qatnashadigan nazariy va amaliy masalalar bevosita chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini yechishga olib keladi.

Ikkinchidan oliy texnika o'quv yurtlarida mutaxassislik fanlarini o'rganish uchun kerak bo'ladigan nazariy mexanika, materiallar qarshiligi va gidravlika kabi fanlar, shu jumladan mutaxassislik fanlarida ham chiziqli tenglamalar sistemasidan foydalaniladi.

Uchinchidan nochiziqli algebraik va differensial tenglamalarning analitik yechimlari umumiy holda aniqlanmagan. Shu sababli ularni yechishda turli xil sonli usullardan foydalaniladi. Bu usullar ham ko'p hollarda chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini yechishga keltiriladi. Shuning uchun ham chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini tabiiy va iqtisodiy jarayonlarni matematik modeli sifatida qarash mumkin.

Shuning uchun ham chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini tabiiy va iqtisodiy jarayonlarni matematik modeli sifatida qarash mumkin.

Shu sababli ham chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi va uni yechish usullarini bilish texnika oliy o'quv yurti talabalari uchun o'ta muhimdir.

Quyidagi tabiiy va iqtisodiy jarayonlarni matematik modeli chiziqli algebraik tenglamalar sistemasiga olib keluvchi bir necha masalalarni qaraymiz:

Iqtisodiy masalalarni chiziqli algebraik tenglamalar sistemasiga modellashtirish.

Quyida iqtisodiy masalalarni chiziqli tenglamalar sistemasiga keltirishga matematik modellashtirishga misol qaraymiz: Ma'lumki, banklarga quyidagidan omonat pullari yil oxiriga borib, ma'lum bir foizga (har bir bank uchun alohida) ortadi.

Aytaylik, omonatchi yil boshida A mln so'm pulini m_1 qismini birinchi bankga, m_2 qismini ikkinchi bankga m_3 qismini uchinchi bankga qo'ydi, natijada u b_1 mln so'mga ega bo'lardi. Bu yerda $m_1 + m_2 + m_3 = 1$ (variant 1). Agarda u n_1 qismini birinchi, n_2 qismini ikkinchi, n_3

qismini uchinchi bankga qo'yganida b_2 mln so'mga ega bo'lardi (variant 2). Xuddi shuningdek p_1 qismini birinchi p_2 qismini ikkinchi, p_3 qismini uchinchi bankga qo'yganda b_3 mln so'mga ega bo'lardi (variant 3). Har bir bank beradigan foyda foizi qancha bo'lishligini topamiz. Yechish. Quyidagicha belgilashlar kiritamiz:

x_1 - birinchi bank omonatiga to'lab beradigan foizi.

x_2 - ikkinchi bank omonatiga to'lab beradigan foizi.

x_3 - uchinchi bank omonatiga to'lab beradigan foizi.

Yil oxirida mijozni puli birinchi bankda $m_1 A$ mln so'm, oladigan foydasi $m_1 A \cdot \frac{x_1}{100}$ mln so'm bo'ladi. $\frac{m_1 A}{100} = a_{11}$

deb belgilaymiz. U holda birinchi bank foydasi $a_{11} x_1$

ikkinchi bankda mijozni puli $m_2 A$, oladigan foydasi $m_2 A \cdot \frac{x_2}{100}$ mln so'm bo'ldi. (

$\frac{m_2 A}{100} = a_{12}$, foyda $a_{12} x_2$) uchinchi bankda mijozni puli

$m_3 A$ oladigan foydasi $m_3 A \cdot \frac{x_3}{100}$ mln so'm bo'ladi. (

$\frac{m_3 A}{100} = a_{13}$, foyda $a_{13} x_3$).

Mijozni yil davomida jami oladigan foydasi $B_1 - A_1 = b_1$ so'm bo'ladi. Shunday qilib, mijoz yil davomida oladigan foydasi $a_{11} x_1 + a_{12} x_2 + a_{13} x_3 = b$ mln so'm bo'ladi.

Xuddi shunday mulohaza qilish orqali 2-variantda mijoz oladigan foyda $a_{21} x_1 + a_{22} x_2 + a_{13} x_3 = b_{21}$,

3-variantda mijoz yil oxirida $a_{31} x_1 + a_{32} x_2 + a_{33} x_3 = b_3$ mln so'm foyda olgan bo'lardi.

Natijada mijozni yil oxirida oladigan foydasi uchta variantda oladigan foydasi quyidagi chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi orqali ifodalanadi.


$$\left. \begin{aligned} a_{11} x_1 + a_{12} x_2 + a_{13} x_3 &= b_1 \\ a_{21} x_1 + a_{22} x_2 + a_{23} x_3 &= b_2 \\ a_{31} x_1 + a_{32} x_2 + a_{33} x_3 &= b_3 \end{aligned} \right\} (1)$$

Elektr zanjirlardan o'tayotgan toklarni hisoblash masalasini chiziqli algebraik tenglamalar sistemasiga keltirish modeli.

Murakkab elektr zanjirlaridan o'tayotgan toklarni hisoblashni matematik modeli chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini tuzish turli: hususan, Kirxgof qonunlariga asoslangan, kataklar potentsiallari va kontur toklar usullar yordamida amalga oshiriladi: Quyida kontur toklar usulida to'xtalamiz. [S.G'.Amirov, M.S.Yoqubov, N.G'.Jabborov elektrotexnikaning nazariy asoslari], [Л.А.Бессонов электрические цепи].

Bu usulda izlanayotgan noma'lum o'zgaruvchi sifatida kontur toklar olinadi. O'zaro bog'liq bo'lmagan konturdan yagona kontur toki o'tadi deb faraz qilinadi va shoxobchalar toki shu kontur toklari orqali aniqlanadi. Kontur toklar usuli-Kirxgofning ikkinchi qonuniga asoslanadi. Tenglamalar har bir kontur toklariga nisbatan tuziladi.

Quyidagi chizmada berilgan ikkita mustaqil konturlarni hisoblash uchun tenglamalar sistemasini tuzamiz.



Birinchi kontur uchun $(R_1 + R_2)J_1 + R_5(J_1 - J_2) = E_1 + E_2$

Ikkinchi kontur uchun $-R_5(J_1 - J_2) + (R_3 + R_4)J_2 = -E_5 - E_4$

tenglamalarda shakl almashtirib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\begin{cases} R_{11}J_1 + R_{12}J_2 = E_{11} \\ R_{21}J_1 + R_{22}J_2 = E_{22} \end{cases}$$

$$R_{11} = R_1 + R_2 + R_5;$$

Bu yerda $R_{22} = R_3 + R_4 + R_5;$

$$E_{11} = E_1 + E_2; \quad R_{12} = R_{21} = -R_5$$

$$E_{22} = -E_4 - E_5;$$

Agar sxemada mustaqil konturlar soni ikkitadan ko'p, masalan uchta bo'lsa, uchta chiziqli tenglamalar sistemasini, umumiy holda n ta bo'lganda quyidagi n ta noma'lumli n chiziqli algebraik tenglamalar sistemasiga keltiriladi.

$$\begin{cases} R_{11}J_1 + R_{12}J_2 + \dots + R_{1n}J_n = E_{11} \\ R_{21}J_1 + R_{22}J_2 + \dots + R_{2n}J_n = E_{22} \\ \dots \\ R_{n1}J_1 + R_{n2}J_2 + \dots + R_{nn}J_n = E_{nn} \end{cases}$$

Matematik fizika tenglamalarini chiziqli algebraik tenglamalar sistemasiga modellashtirish.

Ma'lumki, ko'pgina fizik jarayonlarni o'rganish matematik fizika tenglamalari deb ataluvchi quyidagi 3ta xususiy hosilali ikkinchi tartibli differensial tenglamalarga keltiriladi.

1.To'liq in tenglamasi

$$\frac{\partial^2 u(x;t)}{\partial t^2} = a^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$$

2.Issiqlik tarqalish tenglamasi

$$\frac{\partial^2 u(x;t)}{\partial t} = a^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$$

3.Laplas tenglamasi

$$\frac{\partial^2 u(x;t)}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} = 0$$

Bu tenglamalarning yechimlarini bir qiymatli aniqlash uchun biror bir Dtekis sohada aniqlangan boshlang'ich va chegaraviy shartlar deb ataluvchi qo'shimcha shartlar beriladi. Lekin, ko'p hollarda yechimlarni analitik shaklda topishning iloji yo'q. Bunday hollarda sonli usullar yordamida taqribiy yechimlar topiladi.

Oddiy differensial tenglamalarni chekli ayirmalar usuli bilan taqribiy yechishda hosilalar chekli ayirmalarga almashtirilgani kabi xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishda ham xususiy hosilalar mos chekli ayirmalarga almashtiriladi:

$$\frac{\partial u(x;t)}{\partial x} \approx \frac{u(x+h;t) - u(x;t)}{h}$$

$$\frac{\partial^2 u(x;t)}{\partial x^2} \approx \frac{u(x+h;t) - 2u(x;t) + u(x-h;t)}{h^2}$$

$$\frac{\partial u(x;t)}{\partial t} \approx \frac{u(x;t+h) - u(x;t)}{h}$$

Bu chekli ayirmalar usuli kataklar yoki to'rlar usuli deb ham yuritiladi. Unga ko'ra qaralayotgan D tekis soha parallel chiziqlar kesishishida hosil bo'ladigan to'r tugunlari bilan almashtiriladi. Har bir tugun matematik fizika tenglamalaridagi hosilalar yuqoridagi chekli ayirmalar bilan almashtirilib tuzib olinadi. Bunda sohani chegaralariga yaqin tugunlardagi funksiya qiymatlari boshlang'ich va chegaraviy shartlar yordamida topiladi. Ichki tugunlarda izlanayotgan funksiya qiymatlarini topish uchun chekli ayirmalar qatnashgan algebraik tenglamalar hosil bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda N ta ichki tugun uchun N ta algebraik tenglamalar sistemasini hosil bo'ladi. Bu algebraik tenglamalar sistemasini yechilib, izlanayotgan funksiyani tugunlarda qiymatlari taqribiy topib olinadi.

ADABIYOTLAR

1. E.Xolmurodov, A.I.Yusupov, T.A.Aliqulov. Oliy matematika 3-qism. Toshkent: Vneshinvestprom 2017.
2. Н.С.Пискунов. Дифференциальное и интегральное исчисления, часть 2. Москва: Наука 1985.
3. T.A.Aliqulov, S.L.Ibragimov. Chiziqli algebra va matematik modellashtirish. Qarshi: Nasaf 2021.
4. Suhrob Ibragimov. MATHEMATICAL MODELING IN THE SYSTEM OF VOCATIONAL TRAINING OF STUDENTS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 7 No. 12, 2019 ISSN 2056-5852.
5. Ibragimov S.L. Matematik modellashtirish asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ahamiyati va zaruriyati// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences volume 2 | ISSUE 4/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 April 2022.
6. Ibragimov S.L. Matematik modellashtirish asosida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ahamiyati va zaruriyati.// Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. 2022 1/8/1.
7. Ibragimov S.L. THE FORMATION OF STUDENTS PROFESSIONAL SKILLS WITH THE METHOD OF MATHEMATICAL MODELING. The Way of Science. International scientific journal. №2 (72), 2020. ISSN 2311-2158.



UDK: 17.022.1:008-053.81(575.1)

Elboy ARZIQULOV,
O'zbekiston Milliy universiteti stajor o'qituvchisi

E-mail: earziqulov94@gmail.com

TPTI Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti M.M.Axmedovna taqrizi asosida

O'ZBEK XALQ EPOSLARINING YOSHLAR MA'NAVYI TARBIYASINI YUKSALTISHIDAGI AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqolamizda o'zbek xalq eposlarining yoshlar ma'naviy tarbiyasini yuksaltishidagi ahamiyati hamda milliy va umumbashariy qadriyatlarining namoyon bo'lish xususiyatlari keltirib o'tilgan bo'lib unda, vatanparvarlik, insonlar o'rtasida mehr oqibat, bag'rikeng, mehnatkash xalqning o'tmishidan to bugunigacha asrab -avaylab ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib saqlanib kelinayotgan o'zbek xalq eposlarining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati haqidagi ilmiy-nazariy fikrlar ilgari suriladi. Shuningdek, o'zbek xalq eposlaridagi ma'naviy tarbiyaviy xususiyatlari ochib berilgan bo'lib, unda asosan: xalq og'zaki ijod namunalari; dostonlar; maqol va ibratli so'zlar hamda pand nasihatlarining yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rniga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: epos, qadriyat, ma'naviyat, vatanparvarlik, vafodorlik, rostgo'ylik, halollik, yaxshilik, hurfikrlilik, birodarlik, qardoshlik, o'zaro sog'lom munosabat, samimiylik, o'tkinchi dunyoda bir-biriga ozor bermaslik, bahamjihatlik, bosiqlik, fahm-farosatni ustuvorligi, sabr-matonat, vatanga sadoqat.

ЗНАЧЕНИЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДНОГО ЭПОСА В УЛУЧШЕНИИ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье отмечено значение узбекских народных эпосов в повышении духовного воспитания молодежи и особенности проявления в них национальных и общечеловеческих ценностей, патриотизма, доброты между людьми, семени толерантного, трудолюбивого народа. Представлены научно-теоретические мнения о значении узбекских народных эпосов в воспитании молодого поколения, сохранившиеся от прошлого до наших дней. Также раскрываются духовно-просветительские особенности узбекского народного эпоса, главным образом: примеры народного устного творчества; былины; Подчеркивается роль пословиц и поговорок и советов в повышении духовности молодежи.

Ключевые слова: эпопея, ценность, духовность, патриотизм, верность, правдивость, честность, добро, суеверие, братство, братство, здоровые отношения, искренность, не причинять друг другу вреда в преходящем мире, сотрудничество, скромность, приоритет понимания, терпение, верность страны.

THE SIGNIFICANCE OF UZBEK FOLK EPICS IN IMPROVING THE SPIRITUAL EDUCATION OF YOUTH

Annotation

In this article, the importance of uzbek folk epics in improving the spiritual education of young people and the characteristics of the manifestation of national and universal values are mentioned in them, patriotism, kindness between people, the seed of a tolerant, hardworking people. Scientific and theoretical opinions about the significance of uzbek folk epics in the education of the young generation, which have been preserved from the past to the present day, are presented. Also, the spiritual and educational features of uzbek folk epics are revealed, mainly: examples of folk oral creativity; epics; the role of proverbs and proverbs and advices in raising the spirituality of young people is emphasized.

Keywords: epic, value, spirituality, patriotism, loyalty, truthfulness, honesty, goodness, superstition, brotherhood, brotherhood, healthy relationship, sincerity, not to hurt each other in the passing world, cooperation, modesty, the priority of understanding, patience, loyalty to the country.

Kirish. Qadim zamonlardanoq xalqimiz nafaqat o'zining juda boy madaniy-ma'rifiy merosi bilan balki, inson ma'naviy tafakkur olamini yuksaltiradigan adabiy-badiiy merosi bilan ham jahon madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelgan. Bu borada fikr yuritganda ko'z o'ngimizdan o'zbek xalq eposlarida o'z ifodasini topgan umumbashariy qadriyatlar bir-bir o'tadi. Ularda millatlararo totuvlik, hamjihatlik, ona zaminni obod qilish, tabiat tabiiyligini asrab-avaylash, aql-tafakkur bilan ish tutish, ilmimon birligiga tayanish, vatanparvarlik, insonparvarlik, el koriga yarash, odamlarga, insonga, insoniyatga yaxshilik qilish yo'lida bedor bo'lish, vafodorlik, halollik kabilar shular sirasidandir.

Xalq og'zaki ijodiyotida xususan dostonlarda ko'proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor berilgan. Spetamen, Alpomish, To'maris va Shiroq to'g'risidagi

dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoiylik ruhi badiiy tasvirlangan. "Bu dostonlarni qadimgi yunonlarning "Iliada" va "Odisseya" dostonlari bilan qiyoslash mumkin"[1].

Umuman olganda qadriyatshunoslik tarixining eng teran jihatlarini faqat G'arbdan emas, balki Sharqdan qidirish ham foydadan holi bo'lmasa kerak[2]. Qadimgi odamlar borliq to'g'risida o'ylaganlarida, afsona, hikoyat yoki dostonlar so'ylaganlarida olamning qadri, uning cheksizligi, koinot va odamzod aloqalari, inson umrining ma'nosi, mazmuni, maqsadi hamda botirlik, oqillik, hokisorlik, yaxshilik, vafodorlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarga izoh berganlar, hatto ularning ba'zilarini ilohiylashtirganlar[3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugun biz qadriyat deb ishlatayotgan noyob tushuncha va amaliyot ajdodlarimiz hayotining ma'no-mazmunini tashkil qilganligini ming yillik

tarixga ega "Alpomish" dostonigina emas, balki, ajdodlarimizning qadimgi kitobi "Avesto" tizimidagi Kayumaris, Mitra, Anaxita kabi afsonalar, ezgulik timsoli bo'lgan Axuramazda, Rustam, Siyovish, Shiroq, To'maris kabilar ham yaqqol tasdiqlaydi. Ularda barkamollik, yaxshilik, hurfiylik, insonparvarlik kabi xislatlar o'z mujassamini topgan.

Pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo'ldosh keltirganidek: Alpomish – oriyat qo'riqchisi yigitlik ramzi, mardlik o'lchovi, qahramonlik o'rnagidir[4]. Mana necha zamonlardirki "Alpomish" eposining bosh qahramoni nafaqat o'zbeklar uchun balki bashariyat uchun ham yigitlik ramzi, mardlik o'lchovi, qahramonlik namunasidir.

Alpomish-u, Farhodlar, Shiroq-u To'marislar, Alp Erto'nga-yu Go'ro'g'lilar o'z o'zicha ma'naviy kamolotga erishgan emaslar. Balki, xalqimizning buyuk milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlar olami ular voyaga etkazdi. Zero, bizning milliy qadriyatlarimiz umumbashariylik bilan azal-azaldan tutashib ketgan. Buning yorqin, o'lmas misollari dostonlarimiz sahifalarida hamisha barhayotdir.

O'zbek xalqning har bir eposi xususan "Alpomish" dostonida milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlar o'z mujassamini topganligi bois, ular o'zlariga bog'liq barhayotlikni manguga qadar kasb etganlar. 1998 yil 13 yanvar-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to'g'risida" qaror qabul qilingani, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (1998 yil 13 yanvar) hamda YUNESKO ning 1999 yildagi tadbirlar bilan O'zbekistonda 1999 yil 6 noyabrda "Alpomish" dostonining 1000 yilligi keng nishonlanganligi va shu munosabat bilan Termiz shahrida xalqaro ilmiy konfrensiya o'tkazilganligi hamda "Alpomish" ning atoqli xalq baxshilari kuylagan variantlari qayta nashr etilishi, doston haqida hujjatli va badiiy film, uning motivlari asosida teatr spektakllari yaratilganligi milliy ma'naviy qadriyatlarimizning umumbashariy xususiyatlariga berilayotgan yuksak bahodir desak, har jihatdan to'g'ri bo'ladi. Hamonki, bu shoh dostonning ko'plab variantlari yaratilmoqda jumladan Surxondaryoda 2019 yilning 5 - 10 aprel kunlari ilk xalqaro baxshichilik san'ati festivali oldinda "Alpomish" dostoni kitobining taqdimoti bo'lib o'tganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi. O'zbekiston xalq baxshisi Abdunazar Poyonov talqinida havola etilgan ushbu doston Surxondaryo viloyati hokimligi, Respublika ma'naviyat-ma'rifat markazi viloyat bo'limi tomonidan nashrga tayyorlanib, "Akademnashr" nashriyotida 1000 nusxada chop etilgan[5] ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda katta voqelik bo'lib, o'zbek milliy ma'naviy qadriyatlarini umumbashariy mohiyat kasb etib avloddan – avlodga, ellardan-ellarga, asrlardan-asrlarga o'tishini ko'rsatadi.

O'sib - unib kelayotgan har bir yoshni milliy va umumbashariy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash xalqimizning azaliy odatlaridan bo'lib, birgina "Alpomish" dostoni misolida fikrimizga cheksiz dalillar topishimiz mumkin.

Donishmand xalqimiz qadim zamonlardan o'z ideallaridagi Alpomish darajasiga yetishning juda mukammal yo'llarini ishlab chiqqanlar va buni "Alp Erto'nga", "Alpomish" kabi dostonlari timsolida aks ettirganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ajdodlarimiz ma'naviy tafakkurining sara namunalarini xalq dostonlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi namoyon bo'ladi. Ular o'z davri ma'naviy takomil jarayonlari rivojiga qanday hissa qo'shgan bo'lsa, bugungi kamolot zamonlarida ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi bilan ham xarakterlidir. Umuman olganda umumsayyora ahamiyatiga molik qadriyatlar azal-azaldan o'zbek xalq eposlarida o'z mujassamini topgan. Ularning ma'no – mohiyati tizimlarida sog'lom turmush tarzi, insoniyatni o'rab turgan borliqqa,

atrof-muhit va tabitga oqilona munosabat, beozorlik, halim hazimlik, yovo'zlikka, ma'naviy tanazzulga qarshi kurash, ezgulikni ulug'lash, uning tantanasiga ishonch, ona zaminga sadoqat, kishilarning irqi, millati, e'tiqodi, toifasi va boshqa tabiiy-tarixiy hamda ijtimoiy belgilaridan qat'iy nazar unga oliy qadriyat sifatida qarash, koinot gultojisiga munosib bo'lish, o'zidan faqat ezgu ish, ezgu amallar qoldirish kabilar shular sirasidandir.

O'zbek xalq eposlarida birodarlik, qardoshlik, o'zaro sog'lom munosabat, samimiylik, o'tkinchi dunyoda bir-biriga ozor bermaslik, bahamjihatlik, bosiqlik, fahm-farosatni ustuvorligi, adolat tantanasi kabilar umuminsoniy mohiyat kasb etishi bilan birga, jamiyatning mavjud bir tarixiy davrdagi ma'naviy holati, kelajak ideallari, o'y-xayollari, ijtimoiy tuzilishi, muayyan turmush tarzi, tutumlari, oila, urug', qabila, elat, millat, xalq, davlat va boshqalarning ijtimoiy holati, axloq, huquq, din, madaniyat, nafosat, san'at, ilm-fan sohalarini xususida ham kerakli axborotlarni taqdim qiladi.

Tahlil va natijalar. Uzoq o'tmishdan kelayotgan eposlarimiz tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekda hech qachon ovro'pocha ma'nodagi qul bo'lmagan. Bizning millatimiz bunday ijtimoiy tabaqani bilmaydi. Qadimda bizda "asir", "novcha", "xizmatchi", "yugurdak" bo'lgan, lekin ularga qul deb qaralmagan. O'zbek yaqinlarini begonasiratib, o'z mavqeini pesh qilavermaydi. Shu sabab qulini ham "qulim" demagan. Uni o'ziga teng ko'rgan yoxud teng ko'rganday tutgan. Shu sababli Qultoy "o'zidan ketibroq" ish tutadi. Yusufbek hojining Hasanalisi, Mirzakarimboyning Yormati, Solihboyning Xolmati kabilar Qultoyning o'ziga xos genetik urpoqlari deyish mumkin[6].

O'zbek xalq eposlaridagi qahramonlarda o'z manfaatlarini o'ylab yashash emas, balki jamiyat, xalq, el-yurt, vatan, bashariyat taqdirini o'ylab yashash, kelajak oldidagi o'z mas'uliyatini sitqildildan his qilish, oqlash, birovlar xaqqiga xiyonat qilmaslik, olchog'lik, kalandumog'lik, manmanlik kabi illatlardan xoli bo'lish, pok bo'lish, aql-farosat, bosiqlik bilan ish tutish, shukuronalik, tejamkorlik, ilm-ma'rifatga intilish, borini baham ko'rish, o'tgunchi dunyoda yaxshi nom va yaxshi amallarni qoldirish kabilar yaqqol namoyon bo'ladi, bularning bari umumbashariy qadriyatlariga monandlik vujudga keltiradi.

O'zbek xalq eposlarida nafaqat erkaklar qahramonlik, botirlik, mardu maydonlik timsoli sifatida ko'rsatiladi, balki ayollar ham ezgulik, botirlik namunasi sifatida ulug'lanadi. Eposlarimizda - ayollar sadoqat ramzi, mehr va vafo gulshani, noziklik hilqati sifatida tasvirlanadi. Ularga xos sharqona – o'zbekona ibo-hayo, mo'minlik, jafokashlik, solihlik kabi nozik fazilatlar tarannum etiladi.

"To'maris" eposidan tortib "Yusuf va Zulayho"ga undan "Alpomish" dostonigacha xalq eposlarining tadrijiy takomili tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek ayollari or-nomus bobida hamma davrlarda ham mustahkam turganlar. Chunki momolarimiz o'zlarining butun umrini erkaklar orini saqlashga bag'ishlaganlar, deyish mumkin. Ular bir umr, hayot lazzatlari, ko'ngil istaklaridan voz kechib, nafslarini yengib yashaganlar. Qiz bola ota uyida otasi, aka-ukalarini uyaltirmaslik, oila qurgach esa, eri-yu o'g'illari ori uchun yashagan.

"Alpomish" eposida Alpomish oriyatli yigit sifatida, hatto do'sti oldida ham burchli bo'lib qolishni istamaydi. Qorajon zindondan tortib olayotgan paytda Alpomishning xayolidan kechgan o'ylar tasviri uning nechog'lik buyuk shaxsiyat egasi ekanini ko'rsatadi: Bu o'z sha'nini tirikligidan yuqoriroq qo'yadigan o'zbekning tutumidir.

Millatimizning shunday sifatlariga egaligi ham yoshlarda faxrlanish tuyg'ularini uyg'otadi. Alpomish faqat bilagida kuch ko'p bo'lgani uchun emas, ruhi baquvvat bo'lgani, ezgu va yuksak tuyg'ulariga egaligi barcha sinovlarda

sabab g'olib bo'ladi. Uning ma'naviy tayanchi, yo'qotadigan jonidan-da aziz narsasi – ori bor edi. Oriyat uchun esa kurashish talab etiladi. Or-nomus ezgulikning ajralmas bir ko'rinishi sifatida umuminsoniy qadriyatdir.

O'zbek xalq eposlarida umumbashariy qadriyatlarga zid holatlar olchoqlik, sotqinlik, gina-kudrat, manmanlik, kalandumog'lik, vatanpurishlik, nomussizlik, noumidlik, loqaydlik, beparvolik, xudbinlik kabi illatlar qat'iy qoralanadi. Har kimki jaf o'z qilsa jazo topish muqarrarligi qayd etiladi.

“To'maris”, “Shiroq”, “Alp Er to'nga”, “Alpomish” va Alpomish dostoni tizimidagi Qorajon, Qaldirg'och, Oybarchin timsollari dunyoda o'zbek degan millat bor ekan, bu qahramonlarga havas qilish, ulardagi eng ezgu jihatlarni o'zlashtirishga intilish uzluksiz davom etaveradi[7].

Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo'lsa, “Alpomish” ana shu dostonning shoh baytidir[8]. Bu mumtoz asarni ming yillar ilgari yashagan ajdodlarimizning umumbashariy qadriyatlarga qo'shgan buyuk bir tuhfasini desak, to'g'ri bo'ladi. Chunki bu dostonning ma'no – mohiyati ko'lamida bag'rikenglik, do'stlik, hamjihatlik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat, himmat, adolat boshqalarga hurmat kabi ezgu fazilatlar o'z ifodasini topgan. Bu doston bir tomondan yoshlarga vatanparvarlik, insonparvarlik fazilatlaridan saboq bersa, ikkinchi bir tomondan odil va haqqo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatishi[9] bilan ham buyuk insoniylik qadriyatlarini o'zida ifodalaydi.

Xalqimiz eposlari - ko'p ming yillik ma'naviy qadriyatlarimiz oynasidir. Unga boqar ekanmiz nafaqat milliy, mintaqaviy, balki umumbashariy qadriyatlarini ham namoyon bo'lishini ko'ramiz. Masalan; do'stlik, baynalminallik,

birodarlik, hamjihatlik, totuvlik, mehr-oqibat, insonparvarlik, vatanparvarlik, samimiylik, sadoqat, adolat, hushmuomalalik, shijoat, qanoat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, yaratuvchilik, bunyodkorlik, erkinlik, hurlik, tenglik, hojatbarorlik va boshqalar shular jumlasidandir.

Xulosa va takliflar. Xalqimiz eposlarida Vatanni sevish, e'zozlash masalalariga qadriyat sifatida ko'p va xo'p murojaat etilgan. *Avvalo, ma'naviy kamolot tizimida ta'lim-tarbiya uzviyligi naqadar buyuk kuch ekanligini idrok etish lozim. Agar e'tibor bersak,* Alpomish dostoniga tap-tayyor ideal qahramon sifatida kirib kelmaydi, balki jiddiy o'sish-o'zgarish jarayonini kechiradi va nihoyat, aql bovar qilmas qahramonliklar ko'rsata oladigan, har jihatdan etuk yigit tarzida namoyon bo'lishigacha qanchadan-qancha tarbiya saboqlarini oladi. Zero, donishmand xalqimiz: Nima eksang-shuni o'rsan” deganlaridek, yosh avlod qalbiga o'zbek xalq eposlaridagi sog'lom, umumbashariy qadriyatlarini singdirish, ularni ona vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash bugungi zamonning eng dolzarb masalalaridandir.

Yoshlarda ma'naviy tarbiyani yuksaltirish borasida takliflar:

1. Ta'lim jarayonlarida o'zbek xalq eposlaridagi boy ma'naviy qadriyatlar bilan hamohang dars masg'ulotlarini tashkil etish.
2. Globallashuv jarayonlarini inobatga olib, yoshlarni zamonaviy ilm - fan sohalaridagi bilimlar bilan birgalikda umuminsoniy qadriyatlar ruhida ham tarbiyalashga e'tibor qaratish;
3. “Vatan kelajagi yoshlar ma'naviy kamolotida” nomli ilmiy, adabiy qo'lyozma asarlarni yaratib, uni yoshlar o'rtasida keng targ'ib etilishida hamda har bitta ta'lim muassasasi faoliyatiga kirib borishini nazorat qilish lozimdir;

ADABIYOTLAR

1. M. Xayrullayev. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. – Toshkent: O'zbekiston, 1995. – B.6.
2. Q. Nazarov. Qadriyatlar falsafasi. –Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati, 2004. –B. 6.
3. Shu joyda.
4. Qozoqboy Yo'ldosh. Alpomish – oriyat qo'riqchisi yigitlik ramzi, mardlik o'lchovi, qahramonlik o'rnagi. <http://mv-vatanparvar.uz/>.
5. Surxondaryoda “Alpomish” dostoni kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi. <https://daryo.uz/k/2019/03/31/>.
6. Qozoqboy Yo'ldosh. Alpomish – oriyat qo'riqchisi yigitlik ramzi, mardlik o'lchovi, qahramonlik o'rnagi. <http://mv-vatanparvar.uz/>.
7. Shu joyda.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. –B.33.
9. Shu manbaa – B.32-33



Akmal ASATOV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, B.Orzikulov taqrizi asosida

KUCHLI IJTIMOY HIMOYA - JAMIYAT BIRDAMLIGINING ASOSIY OMILIDIR

Аннотация

Kuchli ijtimoiy himoyani xalqiga nisbatan albatta davlat o‘z zimmasiga oladi. Shubhasiz davlatning ushbu funksiyalari majburiyat sifatida o‘z qonunlarida mustahkamlanadi. Barchamizga ma‘lumki joriy yilning 30 aprelida bo‘lib o‘tgan Referendum natijalariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Yangi taxrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida “O‘zbekiston-..., ijtimoiy va dunyoviy davlat” ekanligi mustaxkamlab qo‘yildi. SHuningdek, bu borada izchil islohotlarni davom ettirilishi “O‘zbekiston-2030” strategiyasining asosiy g‘oyalari ham e‘tirof etildi. “Ijtimoiy davlat” tushunchasining asosida, fundamentida “birdamlik” qadriyati yotadi. Insonlar tabiatan birdam va hamjihat hayot kechirishni xohlaydilar.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy himoya, Referendum, Konstitutsiya, ijtimoiy va dunyoviy davlat, liberal, izchil islohotlar, strategiya, fundament, birdamlik, qadriyat, model.

СИЛА СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА – ГЛАВНЫЙ ФАКТОР СПЛОЧЕННОСТИ СООБЩЕСТВА

Аннотация

Государство обязательно предполагает сильную социальную защиту своего народа. Несомненно, эти функции государства закреплены в его законах как обязанность. Как мы все знаем, по итогам референдума, проведенного 30 апреля текущего года, была принята новая редакция Конституции Республики Узбекистан. Статья 1 новой редакции Конституции Республики Узбекистан гласит, что «Узбекистан является социальным и светским государством». Также продолжение последовательных реформ в этом направлении было признано в основных идеях стратегии «Узбекистан-2030». Концепция «социального государства» основана на ценности «солидарности». Люди, естественно, хотят жить в единстве и гармонии.

Ключевые слова: Социальная защита, Референдум, Конституция, социальное и светское государство, либерал, последовательные реформы, стратегия, фундамент, солидарность, ценности, модель.

STRONG SOCIAL PROTECTION IS THE MAIN FACTOR OF COMMUNITY COHESION

Annotation

Strong social protection is necessarily assumed by the state for its people. Undoubtedly, these functions of the state are strengthened in its laws as an obligation. As we all know, according to the results of the Referendum held on April 30 of this year, the new revised Constitution of the Republic of Uzbekistan was adopted. Article 1 of the newly revised Constitution of the Republic of Uzbekistan states that "Uzbekistan is a social and secular state". Also, the continuation of consistent reforms in this regard was recognized in the main ideas of the "Uzbekistan-2030" strategy. The concept of "social state" is based on the value of "solidarity". Humans naturally want to live in unity and harmony.

Key words: Social protection, Referendum, Constitution, social and secular state, liberal, consistent reforms, strategy, foundation, solidarity, value, model.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 20 iyunda konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Konstitutsiyamizda “O‘zbekiston - ijtimoiy davlat” degan tamoyilni mustahkamlash g‘oyasini ilgari surgan edilar. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bu g‘oya yanada mustahkamlanib, ijtimoiy davlatni barpo etishning ustuvor yo‘nalishlari to‘liq anglatildi. Davlatimiz rahbari bu xususda to‘xtalib, “Biz Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak”, deya ta‘kidlagan edilar. Ushbu islohotlar 2023 yilda o‘tkazilgan umumxalq Referendumidan so‘ng amaldagi Yangi taxrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida “O‘zbekiston-..., ijtimoiy va dunyoviy davlat” ekanligi mustaxkamlab qo‘yildi.

Shunday ekan “Ijtimoiy davlat” nima u qandan ijtimoiy funksiyalarni amalga oshiradi degan savol tug‘iladi.

“Ijtimoiy davlat” tushunchasi “Inson qadri” tushunchasi bilan o‘zviy bog‘liq bo‘lib, ushbu ezgu g‘oyaning tub mohiyatida, avvalo inson qadrini ulug‘lash va aholiga xizmat qilishdek olijanob maqsad turadi. Ijtimoiy davlat har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratib ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo‘yicha samarali siyosat olib boradigan davlatdir. Bu esa hayot tarzi uchun zarur bo‘lgan yangicha dunyoqarashlarni ilgari suradigan jozibador liberal ijtimoiy yondashuv bo‘lib istiqbolda o‘z o‘zidan jamiyat birdamligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Tarix shundan dalolat beradiki, “ijtimoiy davlat” tushunchasi ilk bor 1850 yilda Lorens fon Shteyn tomonidan qo‘llanilgan. U davlatning vazifasi ijtimoiy tenglik va shaxsiy erkinlikni o‘rnatish, quyi va kam ta‘minlangan tabaqalarni boylar va qudratlilar darajasiga ko‘tarishdan iborat, deb hisoblagan.

Umuman olganda keng ma'noda ijtimoiy davlatlar o'z fuqarolarini ijtimoiy farovonligini, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalariga, bolalar va yoshlarga, keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, aholini bandleligini ta'minlashga yo'naltirilgan ko'p sonli dasturlarni qabul qiladi hamda uning uchun mas'ul bo'ladi.

Ijtimoiy davlat tor ma'noda o'z faoliyatida aholiga nafaqalar to'lashni, jamiyatga xizmat ko'rsatishni amalga oshiradi va uy-joy bilan ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal qiladi.

Ijtimoiy davlat o'zining salohiyatidan kelib chiqib o'ziga xos funksiyalari mavjud, bu borada izlanuvchilarning aksariyati ularning asosiy sifatlari quyidagilarni ko'rsatadi:

- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini individual tarzda aniqlash va qo'llab-quvvatlash;
- qashshoqlik va ishsizlikka qarshi kurash;
- yosh tadbirkorlarni qo'llab quvvatlash;
- korrupsiyaga qarshi kurash;
- aholi daromadlari doimiy o'sishini ta'minlash;
- jamiyatning barcha a'zolarini belgilangan tartibda ijtimoiy sug'urta bilan ta'minlash;
- madaniyat va ma'rifaat, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalarini rivojlanish qulayligini ta'minlash;
- ehtiyojmand shaxslarni moddiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish;
- jamiyatdagi moddiy va ma'naviy tengsizlikni kamaytirish, imtiyozlarni taqsimlash orqali munosib turmush sharoitlarini yaratish;
- ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va b.

Umuman olganda, ijtimoiy davlatda mehnatga layoqatli har bir insonning daromad manbasi shakllanadi va bandleligi ta'minlanadi. Uning munosib hayot kechirishi uchun etarli miqdordagi ish haqi belgilanadi, ishchi uchun xavfsiz mehnat sharoitlari yaratiladi, ishsizlikdan ayniqsa yoshlar ishsizligidan himoyalani, sifatlari ta'lim, malakali tibbiy xizmat olish huquqlari aniq tarzda amalga oshiriladi. Bolalar, ayollar, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, migrantlar va ularning oila a'zolari har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning aksariyati ijtimoiy sohaga yo'naltirilganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ularga davlat tomonidan kafolatlar tizimi orqali yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Odamlarning farovon va hayotdan rozi bo'lib turmush kechirishi uchun munosib sharoit yaratish, bandleligini ta'minlash va daromadini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, turmush sharoiti va sifati jihatidan taqabalanishga yo'l qo'yimaslik kabi masalalarga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ishsizlikdan himoyalani, kafolatlangan sifatlari ta'lim berish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo'lgan shaxslarni, migrantlar va ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimizning doimiy diqqat markazida. Davlat byudjetining

asosiy qismi aynan shu kabi masalalarga yo'naltirilayotgani ham fikrimizning amaliy tasdig'idir. Alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan oilalar, ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun respublika miqyosida joriy etilgan "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "mahallabay" ishlash tizimi ham ijtimoiy davlatning mohiyatini va hayotiy ko'rinishini namoyon etmoqda.

Milliy davlatchiligimiz tarixini o'rganimizda ham "ijtimoiy davlat" tushunchasi shunga o'xshash nomlarda ko'plab uchrashiga guvoh bo'lamiz. Masalan, IX-X asrlarda yashab ijod qilgan Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida fozil shahar haqida bildirilgan fikrlar aynan "ijtimoiy davlat" tamoyilining mazmun-mohiyati hisoblanadi. Ijtimoiy davlatning zamirida ijtimoiy jamiyat turadi. "Jamiyat kishilarning mavjudligi va kamolot topishi uchun zarurdir". SHunga o'xshash fikrlarni Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy SHeroziy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish kabi buyuk ajdodlarimiz asarlarida ham uchratish mumkin.

Prezidentimiz ushbu tushunchani izohlar ekan, "Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, demakdir", deya ta'rif bergan edi. Nazarimizda, buyuk bobolarimiz orzu qilgan va o'z asarlarida keltirgan "fozil shahar" ham aynan shu "ijtimoiy davlat"dir.

Shuningdek, hozirda bir kuzatayotgan jamiyatda davlat tomonidan bunday ijtimoiy himoya dasturlari yillar davomida hayotga tadbiiq etilib kelinmoqda. Davlatimizning bu borada o'z modeli va o'z an'analari bor desak yangilishmaymiz. Ushbu dasturlardan ko'zlangan maqsad bitta, u ham bo'lsa – xalqimiz orasida kambag'al, qashshoq qatlam bo'lmasligi, kengayib bormasligidir.

Jamiyatimizda moddiy ehtiyojmand ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlamini aniqlash va ularni davlat tomonidan tizimli qo'llab quvvatlash maqsadida 28.09.2023 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-319-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatlari yaxshilash va joylardan ehtiyojmand aholini individuallashtirish orqali aniqlash hamda tizimli ravishda ularni qo'llab quvvatlash mexanizmini yaratib beradi.

Shuningdek, davomiy ko'zlangan yagona maqsad mustahkam fuqarolik jamiyatini shakllantirishdir. Pirovardida ushbu jamiyat, ongli va maqsadli harakatlari natijasida o'zini o'zi boshqaradi, hatto boshqaruvni o'zgarib turishi ham unga ta'sir eta olmaydi.

Xulosa o'rinda, ushbu xayrli ishlar "Avval inson, keyin jamiyat va davlat", degan ezgu g'oyani ro'yobga chiqarish, xalqimizni rozi qilish, erkin va farovon jamiyat barpo etishda muhim omil bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (20.12.2022 y)
3. Forobiy. Fozil shahar aholisi qarashlari haqida risola// V kn.: S.N.Grigoryan. Iz istorii Sredney i Irana VII-XII vekov. –M., 1960.
4. Forobiy. As-siyosat al-madaniya.
5. Форобий. Фозил шаҳар аҳолиси қарашлари ҳақида рисола// В кн.: С.Н.Григорян. Из истории Средней и Ирана VII-XII веков. –М., 1960. 136-6.



Farangiz ASLAMOVA,
Samarkand state institute of foreign languages
Teacher of the department of English Philology
E-mail: aslamova.farangiz@icloud.com
Guljaxon MARDANOVA,
Samarkand state institute of foreign languages
Teacher of the department of Language and Translation

Based on the review of SamSIFL Doctor of Philosophy, associate professor M.M.Oblokulova

UTILIZING AUTHENTIC MATERIALS TO DEVELOP SOCIOCULTURAL COMPETENCY

Annotation

This article deals with the using of authentic materials in enhancing socio-cultural competence. Author provides theoretical background of sociocultural competence from prominent scholars who propose different views concerned the topic. From a methodological perspective, the idea of sociocultural competence is intricate, yet it is fundamental to communicative ability in foreign languages.

Key words: authentic, socio-cultural, film, post-screening, epistolary.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУТЕНТИЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ ДЛЯ РАЗВИТИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Аннотация

В этой статье рассматривается использование аутентичных материалов для повышения социокультурной компетентности. Автор приводит теоретические основы социокультурной компетентности от известных ученых, которые предлагают различные точки зрения на эту тему. С методологической точки зрения идея социокультурной компетентности сложна, но она имеет фундаментальное значение для коммуникативных способностей на иностранных языках.

Ключевые слова: аутентичный, социокультурный, кинофильм, постэкранный, эпистолярный.

IJTIMOYIY MADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN AUTENTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Аннотация

Ushbu maqola ijtimoiy-madaniy kompetentsiyani oshirishda haqiqiy materiallardan foydalanishga bag'ishlangan. Muallif ushbu mavzu bo'yicha turli fikrlarni bildirgan taniqli olimlarning ijtimoiy-madaniy kompetentsiyasining nazariy asoslarini taqdim etadi. Uslubiy nuqtai nazardan, ijtimoiy-madaniy kompetentsiya g'oyasi murakkab, ammo u chet tillarida kommunikativ qobiliyat uchun asosdir.

Kalit so'zlar: autentik, ijtimoiy-madaniy, kino, post-skrining, epistolaryar.

Introduction. Currently, teaching a foreign language without taking into consideration the globalization processes that have consumed the global community is not feasible given the state of society's growth. The development of students' socio-cultural competence-the capacity to employ information about the nation where the language is being studied and its socio-cultural characteristics during communication in the target language-is a critical component of teaching any foreign language. A comprehensive school's primary goal in teaching foreign languages is to shape students' personalities so they can autonomously get better at speaking the language they have acquired and be able and eager to engage in cross-cultural conversation in the language they are studying. The unity of its four interconnected components-educational, developmental, educational, and practical-reveals this aim. The goal's practical component is to help schoolchildren develop sociocultural competence in a foreign language by meeting their basic cognitive and communicative needs at every learning level and giving them the chance to become familiar with the cultural values of the people who speak the languages they are studying.

Literature review. Researchers including E.M. Vereshchagin, G.I. Voronina, G.V. Rogova and S.G. Ter-

Minasova, have noted in their works the significance of the socio-cultural component in helping students form an intercultural worldview and understand their place in a globalized world with a vast cultural diversity. Without sociocultural knowledge about the people, traditions, and social phenomena that exist in the nation where the language is being studied, it is difficult to teach foreign languages to current pupils [1, 2, 3, 4].

A modern teacher has access to a vast array of teaching resources, but we would like to call attention in particular to authentic feature films. These films can be used as a supplementary tool to help students develop their socio-cultural competence and their ability to lead discussions on a given subject. The pervasive influence of visual mass communication mediums like television, movies, and the Internet is what defines the early years of this century. The younger generation is the most adept at processing visual information. According to O.V. Kochukova, "the use of feature films not only models the language situation and forms the speech competence of students, but in the light of the latest approaches to learning a foreign language helps them form an idea and understanding of foreign language culture and, as a result, forms a harmoniously developed personality in the

global intercultural space" [5]. Cinema is described as "an important element of the international information order" by L.G. Ionin [6].

Research methodology. Three steps are involved in using a film to teach English: the questioning, viewing, and post-viewing phases. For every level, a collection of exercises and assignments should be created.

The task might be arranged in the following way during the testing phase: students are given a series of questions to start a conversation about the next viewing. Following the hearing and discussion of the responses, a brief synopsis of the film's director, socio-cultural background, and historical perspective may be found before the watching phase. During the questioning phase, it's critical to give students information that will help them comprehend the film's content and build a more realistic impression of the episode elements. Additionally, something needs to be done to boost pupils' motivation. In addition to comments and recommendations, the material may also include connections to more resources.

During the viewing stage, you will watch a movie or episode in English straight through in order to get as much information as possible. This includes character descriptions, names of places of importance, a discussion of the movie's storyline, characteristics of the director's work, and the overall meaning of the video. Students are required to do many activities while watching, such as fill in the blanks, identify the characters, or create an episode order. For best outcomes, these kinds of activity let you develop your aural and visual sense. Students can now be handed worksheets that have activities they need to do while watching and that will aid them in the discussion that follows.

It is essential to have a discussion after seeing the first part of the movie. This kind of work will provide a deeper evaluation of the major characters' personalities and interpersonal interactions in addition to determining the students' comprehension and perception levels of the real video course that is being delivered.

If we restrict our examination of the film course to verbal methods and ignore non-verbal ones, the task will not be deemed finished. When teaching a foreign language, one may also employ a variety of nonverbal techniques as seen in the movie.

Analysis and results. Building the discussion of students' responses into the post-screening phase of the video course is a good idea. The objectives of the tasks at this point are to get students to share their thoughts about the fragment they saw, to recognize and evaluate nonverbal cues in the episode, to decipher the plot points, to draw comparisons between the two historical periods, and to pinpoint sociocultural parallels and divergences. Post-screening activities include summarizing the watching results, having a final discussion, and presenting creative ideas on the chosen topic based on newly discovered information and conversation.

Consequently, using a real feature film is a good way to help people develop their sociocultural competency. Through a meticulous examination of the film course, students are exposed to linguistic, historical, and cultural content through both verbal and nonverbal ways. Pupils research the historical period, writers and artists of the time, do their own independent research, and create speeches and presentations in English.

Projects hold a particular role in the school's instructional activities. Foreign language projects are particularly fascinating because they foster the development of a natural language environment and the necessity of language communication. As demonstrated by global practice and several research, well planned, intentional student

collaboration on a project may yield better educational outcomes than casual contact. The research, search, and problem-solving techniques are widely employed in the project approach, with a clear focus on a genuine, useful outcome that is important to the student. The project approach enables the practical application of information. Every foreign language instructor should be aware that each group member requires an installation in order to shape the information, abilities, and skills of the students in one or more speaking activities. Giving students the freedom to solve issues and consider potential solutions is essential to helping them concentrate on the meaning behind what they say, place their thoughts front and center, and formulate their ideas via language. In addition to being familiar with themes unique to their nation, teachers should also consider how to engage students in cross-cultural dialogues so they may experience firsthand the quirks of how a language functions in a foreign culture. Stated differently, the primary responsibility of the teacher is to redirect the focus from different forms of exercises to the students' active mental engagement. The project method is the only way to address this issue and transform a foreign language lesson into a research club discussion where students are asked to solve interesting problems while considering their language training.

Instructors utilizing the project approach should consider the following phases in creating and implementing the project structure:

1. The instructor sets up a scenario that enables you to recognize a problem or numerous problems pertaining to the subject matter;
2. The instructor leads a brainstorming session in which students submit theories about the issue and each one is examined and supported;
3. Talk about how to test established theories, where to find data to support the hypothesis, and how to construct the findings;
4. Collaborating in groups to gather evidence and counterarguments to support or contradict the hypothesis;
5. Defending each group's project against criticism from everyone in attendance.

The creation of a problem that students will work on while researching the project's topic is the most crucial component of the project technique. The instructor must consider what type of assistance they can give the pupils without providing a prepackaged answer. Planning a number of projects on which the project technique is suggested is advised. Throughout the whole assignment, the instructor should keep an eye on each student's progress. The instructor should utilize both mutual and self-control to achieve this goal. A preliminary draft of the project might be given by the students to the teacher. To serve as experts during the project defense lesson, two instructors may be invited.

The project methodology incorporates all the greatest concepts from both contemporary and conventional foreign language education approaches. It is imperative for educators to keep in mind that imparting pre-existing information, memorizing facts, or interpreting the opinions of others cannot be considered a valid method of instruction in today's classroom.

The issue of text authenticity receives a lot of attention in foreign language teaching methodologies. Since the goal of teaching a foreign language to pupils is to equip them with the capacity to utilize the language for realistic communication in cross-cultural discussion, the training materials used must be real. When it comes to language, real writings are distinguished by their high levels of originality and diversity in terminology. Pronouns, particles, interjections, words with emotional overtones, phrases designed to encourage the

formation of associative links, phraseological units, idioms, and speech clichés are all over them.

Epistolary: postcards, business, and personal letters, etc. passages from newspapers and magazines, as well as poetry, short stories, essays, cartoons, and other works of fiction. Every kind of text matches potential subjects and suitable working techniques.

“Authentic materials are materials we can use in the classroom and that cannot be adapted for students”, states Sanderson. [7]. A definition akin to this is provided by Harmer: “Authentic texts (written or oral) are texts addressed to native speakers; they are genuine texts meant for language users, not language learners” [8].

The texts serve as the foundation for the lesson; they provide tasks, crucial information, and sometimes even spark lively discussions among the students. They also serve to enhance and broaden the teacher's speech and foster the growth of the students' independent activity (for instance, assigning them to compile a list of keywords from the text they have read). Using text in a foreign language class might vary based on the teacher's aims and objectives as well as the students' ability level in the language.

These activities will help you engage with text in a way that will enhance your communication competence in all of its components-language, speech, sociocultural, and compensatory-and make the process of processing and understanding text fascinating.

1. Formulating inquiries regarding the text. Everyone taking part should raise their questions. The student poses his own question after responding to the one in the text. In this instance, students' ability to accurately respond to the questions will depend on their comprehension of the material.

2. Abstracting the text in its entirety or in its constituent sections. Students trade brief texts and respond to the teacher's questions, which are as follows: “If you hadn't read the text, could you predict what it is about? Why not? What about this abstraction may be eliminated? What matters?” The writers receive their abstracted texts back after responding (in writing) to the queries.

3. Expectation of the text's future developments. Students are instructed to bend a sheet of paper, producing two

columns: “information” on the left and “forecast” on the right. After receiving the text's title, they type it in the left column and list their assumptions along with an explanation in the right column. Here, we should to highlight the importance of training the predicting ability using data extracted from the text that has previously been read. The instructor may choose to exclude some of the text and assign the students to fill in the table instead. One might jot down intriguing theories on the board. This method appeals to students' knowledge, expertise, perspective, and creativity.

4. Text division into meaningful paragraphs. Students should also talk about why they divided the material into different sections and how each paragraph differs.

5. Creating a diagram based on the read material, particularly if it has a lot of information or several discussion themes. In this instance, the diagram may resemble a tree, with the facts for each text topic serving as the foliage, the primary categories of information represented by the branches, the title of the book as the trunk, and the students' understanding of the subject represented by the roots. Working in groups or alone, students may create their own drawings of trees while leaving comments on their submissions.

6. Identification of the text's “voice” Students offer their thoughts on what they read by speculating about who could narrate this narrative and how after reading the real text.

7. After reading, do the written assignment. Writing a journal for the story's protagonist, creating advertising, or creating a trip guide for a tourist is a few examples of this.

As a result, the following deduction can be made.

Conclusion. Reading real texts is a cognitive activity that can be seen in writing questions, making connections between the known and unknown, connecting the dots with prior knowledge, forecasting plots, organizing semantic connections within the text, and more. It can also be seen in creative and project tasks. It is important to adapt the activities to the material that has been read since pupils become less motivated and interested in reading when they are given the same assignments. E.I. Passov asserts that “reading is communication in itself, mediated by a book” [9].

LITERATURE

1. Верещагин, Е.М. Лингвострановедение в преподавании иностранного языка / Е.М. Верещагин, В.Г.Костомаров. М.: МГУ, 1980. 16с.
2. Воронина, Г.И. Организация работы с аутентичными текстами молодежной прессы // Г.И. Воронина // Иностранные языки в школе. М.: Просвещение, 1999. №5. С.56-60.
3. Рогова, Г.В., Верещагина, И.Н. Методика обучения английскому языку на начальном этапе в средней школе. М.: Просвещение, 1998. 224с.
4. Тер-Минасова, С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. М.: Слово, 2000. 261с.
5. Кочукова, О.В. Обучение пониманию социокультурного содержания иноязычного дискурса художественных видеофильмов: Автореф. дис. ...канд.пед.наук/О.В.Кочукова. М., 2004. 18 с.
6. Ионин, Л.Г. Социология культуры: путь в новое тысячелетие: Учеб.пособие для студентов вузов. М.: Логос, 2000. 431 с.
7. Sanderson, P. Using Newspapers in the Classroom. Cambridge: Cambridge University Press, 1999. 35p.
8. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. London, 1987. 146p.
9. Пассов, Е.И. Программа-концепция коммуникативного иноязычного образования. М.: Просвещение, 2000. 239 с.



Dilnur ASTANKULOVA,
Assistant o‘qituvchi UzDJTSU Nukus filiali
E-mail: Dilnur_qr@mail.ru
Adeliya OTALIEVA,
Assistant o‘qituvchi UzDJTSU Nukus filiali
E-mail: Adeliya-nuk@mail.ru

QDU Pedagogika fanlari nomzodi N.Kaypovning taqrizi asosida

THE VERSATILITY OF RHYTHMIC GYMNASTICS AND THE PECULIARITIES OF USING DANCE ELEMENTS IN IT

Annotation

This article will focus on the content of team exercises in rhythmic gymnastics, the peculiarities of the implementation of its competitive programs in compositional terms, the peculiarities of the connection of rhythmic gymnastics with elements of dance art and physical impressiveness for a person.

Key words: rhythmic gymnastics, dance, composition, element, training, musical tempo, rhythm, expressive movement, ball, ribbon, mace.

МНОГОГРАННОСТЬ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ГИМНАСТИКИ И ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В НЕЙ ТАНЦЕВАЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ

Аннотация

В данной статье речь пойдет о содержании командных упражнений в художественной гимнастике, особенностях реализации ее соревновательных программ в композиционном плане, особенностях связи художественной гимнастики с элементами танцевального искусства и физической внушительности для человека.

Ключевые слова: художественная гимнастика, танец, композиция, элемент, тренировка, музыкальный темп, ритм, выразительное движение, мяч, лента, булава.

BADIIY GIMNASTIKANING KO‘P QIRRALILIGI VA UNDAGI RAQS ELEMENTLARINING HUSUSIYATLARI.

Аннотация

Ushbu maqolada badiiy gimnastikada jamoaviy mashqlarining mazmuni, uning raqobatbardosh dasturlarini kompozision amalga oshirishning xususiyatlari, badiiy gimnastikaning raqs san‘ati elementlari bilan bog‘liqlik jihatlarini va insonga jismoniy ta‘sirchanligi borasida fikrlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy gimnatika, raqs, kompozitsiya, element, mashg‘ulot, musiqiy temp, ritm, ekspressiv harakat, to‘p, tasma, mayoq.

Kirish. Respublikamizda bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportning vosita metodologiyasining yagona tizimi yaratilgan bo‘lib, jumladan badiiy gimnastika vositalarining ommaviylikini orttirish tizimi haqli ravishda zarur o‘rin egallagan. Badiiy gimnastika mashg‘ulotlarining asosiy vazifasi insonni kichkina bolalik davridan boshlab, jismoniy va aqliy sog‘lomlashtirish, ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va garmonal kuchlarni rivojlantirishdan iborat.

Yurtimizda sport sohasida erishilayotgan natijalar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ko‘p yillik islohatlarning mahsulidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida to‘g‘risida"gi farmonida O‘zbekistonda sportning ommaviylikini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini rivojlantirish. Yurtimizning chekka hududlari va qishloqlarida sog‘lomlashtirish ishlarini yanada rivojlantirish. Yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish" [1] kabi ezuq maqsadlarning aks ettirilishi yurtimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada rivojlantirish mexanizmlarini belgilab berdi desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Badiiy gimnastika go‘zallik va nafosatni insonning jismoniy harakatlari orqali targ‘ib qiluvchi sport turlaridan biri

hisoblanadi. Jismoniy texnika va amaliy ko‘nikmalarni shakllantiruvchi badiiy gimnastika mashg‘ulotlarida maxsus bilimlar olinishi bilan birga axloqiy fazilatlar va irodaviy hususiyatlar ham tarbiyalanib boradi. Sababi, badiiy gimnastikada raqs va musiqa san‘ati muhim o‘rin egallaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. jismoniy harakatlarni boshqarish, musiqani eshitish, undagi ritmni sezish, musiqa orqali mashqlarni muvofiqlashtirish jarayonlarni rivojlantiradi [2].

Raqs elementlari talabalarning umumiy dunyoqarashini kengaytiradi, ularni xalq ijodiyoti bilan tanishtiradi; o‘z xalqining, dunyo xalqlarining san‘atiga bo‘lgan muhabbatini rivojlantiradi. Ular harakatlarni muvofiqlashtirish, raqs, ritm, ozodlik, emosionallik, vosita sifatlarini yaxshilashga hissa qo‘shadi. Badiiy gimnastika insondagi mavjud estetik harakatlarni birlashtiradi. Unda tananing ekspressiv, musiqa tempiga va ritmi hamohang ravishda harakatlanadi.

Badiiy gimnastika estetik tartib-qoidalarga rioya qilishni o‘rgatib, jismoniy go‘zallik haqidagi tushunchalarni shakllantiradi va musiqiy didni tarbiyalab shakllantirib boradi.

Mazkur sport turi bilan shug‘ullanuvchilar asosan ayol sportchilar bo‘lishiga qaramay, uni kuzatib boruvchi muxlislar boshqa sport muxlislaridan kam emasligini, xalqaro sport arenalarda tashkil etilayotgan musobaqalarda ko‘rishimiz mumkin. Badiiy gimnastika ayollar uchun tashkil etilgan

musobaqa shartlari tasma, to'p, halqa, arqon va boshqa vositalar yordamida raqs kombinatsiyalarini bajarishni talab qiladi. Keyingi yillarda ushbu sport turiga erkaklarning ham ishtiroki ommalashib borayotganligi sababli, ular uchun maxsus plastik va dinamik mashqlarini bajarish xalqaro musobaqalarning zamonaviy dasturiga ko'pkurash turi kirdi. Bunda g'oliblar, individual va guruh mashqlarida aniqlanadi.

Jamoaviy mashqlarda badiiy gimnastika tarkibining rivojlanish tendentsiyalariga oid maxsus adabiyotlarda guruh mashqlarida texnik murakkablikning o'rni, sportchilarni tanlash tamoyillari, ularning texnik va funktsional tayyorgarligi to'g'risida ko'plab savollar ko'rib chiqilgan. Bizningcha jamoaviy mashqlarining badiiy qiymatiga kamroq e'tibor beriladi.

Jahon miqyosida darajadagi raqobatni, asosan tendentsiya va ularni takomillashtirish yo'llarini aniqlash bilan jamoalarning dasturlarini o'rganish va tahlil qilish zarurati ormoqda. Gimnastikachilar individual chiqishlaridan dalolat beruvchi ma'lumotlar ixtisoslashtirilgan adabiyotlarda juda ko'plab keltirilgan. Bunda jamoaviy mashqlarining mazmuniga to'qaladigan bo'lsak gimnastikachilarning jamoaviy harakati uchun turli xil harakatlarni bajarish variantlarini bir vaqtning o'zida ijro etishni o'z ichiga oladi.

Bunda jismoniy mashqlarni amalga oshirishda obyektlar deganda texnik harakatlar shakli, uning amplitudasi, yo'nalishi, aniqligi, tezligi nazarda tutiladi va ular iloji boricha xilma-xil ishlatilishi zarur. Bu bo'yicha L.A.Karpenko "raqobatbardosh harakatlar juda oddiy bo'lib, faqat element, transferlar dep nomlanadigan motor harakatlarning sifat ko'rsatkichlarini tushunish va hisobga zarur, qolaberdil ushbu texnik kombinatsiyalar ega bo'lish uchun muhimdir" [3]-deya ta'kidlab o'tadi. Shuningdek L.A.Karpenko harakatlarning sifat ko'rsatkichlari deb quyidagilarni keltirib o'tadi kiradi:

-dasturlarda barcha harakatlarning tarkibida ma'lum bo'lgan guruhlardan obyekt va predmetlarsiz foydalanishni o'z ichiga olishi;

-xarakatning qiyinligi, bunda badiiy gimnastika tartib-qoidalarning aniq tartibga solinishi nazarda tutiladi;

-elementlarning o'ziga xos hususiyatlari, bu dasturda nazarda tutilmagan, ilk harakatlarning mavjudligi [3] bilan belgilanadi.

Badiiy gimnastikada harakatlarning obyektiv tahdidi elementlarni bajara olmasligi bilan bog'liq bo'ladi. Bu esa gimnastikachilarning texnik mahorati va nozikligi jihatidan ahamiyatli hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki kompozitsiyadagi elementlarni tanlash tamoyillari to'g'risida manbalarda bir qancha ma'lumotlar mavjud, ammo jamoaviy mashqlar uchun badiiy gimnastikaning umumiy rivojlanish tendentsiyalarini hisobga oladigan bo'lsak bu kabi ma'lumotlarning etarli emasligi, mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Badiiy gimnastikadagi jamoaviy mashqlarda harakatlanish kompozitsiyalarining asosiy mazmuni, turli harakatlarni takrorlash, texnik ahamiyatga ega elementlari qo'lingan xolda bajarish, raqs harakatlari [4] va boshqalar

Badiiy gimnastikaning jamoaviy mashqlarni rivojlantirishda elementlar va harakatning uzluksizligini oshirishning murakkabligi, vaqt birligi, tezkor harakatlar bilan ishlash, sakrash jarayonlarida har hil transfer va predmetlardan foydalanish, o'ziga xos musiqiy kompazitsialardan foydalanish tendentsiyalarga e'tibor qaratish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. shu o'rindi barcha his-tuyg'ular va ko'nikmalar amalda ma'lum bir harakatlarda ko'rsatilishi, harakatlar esa musiqa ohangi bilan birga undagi voqea-hodisalarni tasvirlashi mumkin. Raqs elementlari orqali aniq va tiniq ko'rsatilishi lozim. Ketma-ket harakatlarning raqs turini va uning odamga ta'sir kuchini ko'rib chiqish mumkin bo'ladi. Barchaga ma'lum raqs san'ati xoreografiya deb nomlanuvchi soha vakillarining shug'ullanadigan

tushuncha-lari hisoblanadi. U turli xil harakatlar kompleksini go'zal va nafis ko'rinishda insonlarga etkazilib beriladi. Shuning uchun ham raqs ijrosi paytida har kim turli his-tuyg'ularni boshdan kechiradi. Ya'niy raqsda badiiy obraz, plastik harakatlar va inson tanasining ritmik ekspressiv pozitsiyalarini o'zgartirish orqali yaratiladigan san'at turi hisoblanadi. "Raqs musiqa bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning hissiy va majoziy mazmuni uning harakatlarida, figuralarida, kompozitsiyalarida o'z ifodasini topadi" [5]-degan tahminlar olimlar tomonidan ko'p marotaba ta'kidlanib kelinmoqda. Mazkur nazariy kontsepsiyani tahlil qilib, raqs va uning tarkibiy qismi faqat hissiyotlar orqali tushunilishini ko'rishimiz mumkin.

Shunday ekan, raqsning insonga ta'siri va inson nimani boshdan kechirishini o'rganishga qiziqish ortadi. Isadora Dunkan mashhur raqqosa u raqsda asosiy omilni ijro texnikasi deb emas, balki uning hissiy komponenti deb hisoblagan. Mantiqan olib qaraganda uning fikriga qo'shilish mumkin, chunki inson raqsqa jismonan jalb qilinadi—tana, aql, ruh, bularning harakat omilini tashkil qiladi. Hattoki raqs inson kayfiyatni ko'tarish bilan birga, ko'plab kasalliklardan xalos bo'lishiga ham qodir ekanligi ilmiy manbalarda dalillanib kelinmoqda. "Psixofizika" atamasi paydo bo'lishidan ancha yil oldin, insonning ichki holatlari, uning jismi va tanasi bilan bog'liqligi [6] haqida fikrlar bayon etiladi.

O'tkan asrning o'rtalarida raqsning san'atining terapevtik ta'siri o'zining ilmiy tasdig'ini topgan. Bu bo'yicha olimlar "... qo'llaringizni yuragingizga qo'ying va qalbingizni tinglang — shunda siz uning qanday raqsqa tushishni sezasiz"[7]-deb raqs paytida eng katta qayg'u, qo'rquv va salbiy fikrlar ham odamni tark etishiga chin dildan ishonishgan. Bunnan ko'rishimiz mumkin agar gimnastika sportida ma'lum bir yo'nalishda harakat qilinsa, ya'ni raqs orqali to'g'ri harakatlar amalga oshirilsa ruhiy muvozanat tiklanib jismonan tetiklashish xolatlari uchraydi ekan. Demak badiiy gimnastikada raqsning kuchi o'ziga xos ritmga ega bo'lib, insondagi energiyani normallashtirishi mumkin degan hulosaga kelish mumkin.

Bunda badiiy gimnastikaning jamoaviy mashqlarida kompozitsiya qismlarining tarkibi va jamoalarning ishlash qobiliyatlari orasida turli darajadagi bog'liqlik o'rnatiladi:

-r = 0.6 qayta ishlash (10 mayoqchasi) va r = 0.8 (3 to'p va 2 tasma)

-r = -0,1 bog'liqlik (10 mayoqcha) va r = 0,8 (3 to'p va 2 tasma)

-r = -0,5 jismoniy qiyinchiliklar (10 mayoqcha) va r = 0,7 (3 to'p va 2 tasma)

-r = 0,2 raqs treklari (10 mayoqcha) va r = 0,4 (3 to'p va 2 tasma).

Aniqlangan bog'liqliklar asosida jamoaviy mashqlarni kompozitsion takrorlash tarkibiy qismlarining maqbul soni aniqlanadi:

-qayta ishlash 16 (10 klublari) va 17 (3 to'plari va 2 chiziqilar)

-bog'liqlik 14 (10 klublari) va 16 (3 to'plari va 2 chiziqilar)

-jismoniy qiyinchiliklar 6 (10 klub) va 6 (3 to'p va 2 tasma).

Qayta tartiblash elementlaridan foydalanish (diogonal, vertikal, gorizontal, doira shaklida, yoy shaklida, T-obrazli, X-obrazli) o'rtacha 2,0 (vertikal) dan 3,4 gacha (aylanada) o'zgaradi.

Dastur turidan qat'i nazar, past va yuqori bog'liqlikning miqdoriy nisbati 1,5 dan 1,0 gacha bo'ladi.

Amalda jismoniy qiyinchiliklarning texnik qiymati o'rtacha 1,8 ball (3 to'p va 2 tasma) va 1,9 (10 mayoqcha) bo'ladi.

3. 5 yilda faoliyat samaradorligining raqobatbardoshligi jamoaviy mashg'ulotlar tarkibidagi namunaviy xususiyatlari:

-qayta ishlash 18 (10 klublari) va 20 (3 to'plari va 2 tasma);

-bog'liqlik 15 (10 klublari) va 17 (3 to'plari va 2 tasma)

-jismoniy qiyinchiliklar 5 (10 mayoqcha) va 7 (3 to'p va 2 tasma).

Quyida bog'liqlik soni 9 (10 mayoqcha) va 11 (3 to'p va 2 tasma), yuqori 6 (10 klub) va 6 (3 to'p va 2 tasma) bo'ladi.

Amalda jismoniy qiyinchiliklarning texnik qiymati o'rtacha 2,4 ball (3 to'p va 2 tasma) va 2,1 (10 mayoqcha) bo'ladi [8].

Bugungi kunda badiiy gimnastika musobaqalar va Olimpiya o'yinlari dasturida ikki bo'limda individual va jamoaviy mashqlari bo'yicha namoyish etiladi. Jamoaviy mashqlar ko'pkurashning ikki turi mayoqchalarda harakatlarni bajarish va to'p va tasmalarda harakatlarni bajarish bilan ifodalanadi.

Xulosa va takliflar. jamoaviy mashqlar qiziq va murakkab bo'ladi, chunki unda har bir sportchi gimnastikachi

bir vaqtning o'zida elementlarni bajarishda individual texnikasini namoyish qilib, o'ziga yuklatilgan vazifani maxorat bilan bajarishi kerak [9]. Bu esa gimnastikachilardan mashqlarni bir tempta, bir ritmda, harakatlarni to'liq sinxronlik bilan bajarishi lozim. Butun jamoaning harakatlaridagi aniqlik, bir xillik va harakatlarning birligi mashqni yanada texnik jihatdan go'zal, badiiy jihatdan ta'sirchan qiladi.

Uning mazmuni obyektlar bilan harakatlanishning turli shakllarini tanlash bilan belgilanadigan jamoaviy mashqlarning muvaffaqiyatida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunnan ko'rinib turganidek, jamoaviy mashqlarning tarkibini belgilashda ma'lum darajada murakkab elementlarni kompozitsiyaga mos talablarni nazarda tutadigan musobaqa qoidalariga amal qilish kerak.

Badiiy gimnastikada jamoaviy mashqlarning rivojlanish tendentsiyalari, musobaqa qoidalarining kompozitsion qurilish mezonlari mazmuni va maxsus talablari asosida aniqlash, gimnastikachi jamoalarning xalqaro musobaqalarda raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi amaliy ta'sirchanligini orttiradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60 sonli qarori. 28.01.2022. lex.uz.
2. I.I.Margunova. "Gimnastika" o'quv qo'llanma Toshkent-2017. 4-bet.
3. В. Филин. Основы юношеского. спорта. М., «Ф и О», 1999.
4. В. М аслякат. Массовая физическая культура в вузе. М., «Высшая школа». 1999.
5. В. Д уборовский. Л ечебная физическая культура. М., «Медицина», 1999.
6. Б. Миняев. Основы методики физического воспитания. М., «Высшая школа», 1999.
7. М. Karimov. O'zbekistonda gimnastika. Т.. O'zDJTI, 1999.
8. М Л . Журовин, Я. К. Меньшикова. Гимнастика. М., «Академия», 2009.
9. Э.И. Сакун. Построение учебного процесса по физическому воспитанию студентов в вузе. М., «Дашков и К», 2009.



Zebuniso AXRAROVA,

O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti "Pedagogika va umumiy psixologiya" kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
E-mail: axrarova@nuu.uz

TDPU professori, pedagogika fanlari doktori Sh.A.Abdullayeva taqrizi asosida

THE POSSIBILITIES OF USING THE SPIRITUAL AND MORAL VIEWS OF MAHMUDHOJA BEHBUDI IN THE PROCESS OF EDUCATION

Annotation

The article analyzes the contribution to the development of spiritual culture of the educator Mahmudhoja Behbudi, who was one of the outstanding leaders of the national revival movement that emerged in Turkestan in the XX century, who played an important role in awakening the public consciousness of the Uzbek people at that time. Possessing a broad outlook and deep knowledge, he has always opposed conservatism and ignorance and in his works called for the correct understanding and interpretation of the Islamic religion. His goal was to enlighten the people and bring them to the level of highly developed peoples of the world, to build an advanced society in all respects, a state based on the unshakable principles of humanism and democracy. In the legacy of Mahmudhoja Behbudi, attention is paid to highlighting the issues of science, morality, the influence of art on the spiritual culture of youth, on the understanding of national identity. In satya, the modern meaning of Behbudi's work is investigated.

Key words: Jadidism, spiritual culture, science, religion, enlightenment, morality, politics, art, spiritual perfection.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДУХОВНО- ПРАВСТВЕННЫХ ВЗГЛЯДОВ МАХМУДХОДЖА БЕХБУДИ В ПРОЦЕССЕ ВОСПИТАНИЯ

Аннотация

В статье анализируется вклад в развитие духовной культуры просветителя Махмудходжи Бехбуди, который был одним из выдающихся лидеров движения национального возрождения, возникшего в Туркестане в XX веке, сыгравшего важную роль в пробуждении общественного сознания узбекского народа в тот период. Обладая широким кругозором и глубокими знаниями, он всегда выступал против консерватизма и невежества и в своих произведениях призывал к правильному пониманию и толкованию исламской религии. Он ставил перед собой цель просветить народ и вывести его на уровень высокоразвитых народов мира, построить передовое во всех отношениях общество, государство основанное на незыблемых принципах гуманизма и демократии. В наследии Махмудходжа Бехбуди уделяется внимание освещению вопросов науки, морали, влияния искусства на духовную культуру молодежи, на понимание национальной идентичности. В статье исследована современное значение произведения Бехбуди.

Ключевые слов: Джадидизм, духовная культура, наука, религия, просвещения, мораль, политика, искусство, духовное совершенство.

MAHMUDHOJA BEHBUDIYNING MA'NAVIY - AXLOQIY QARASHLARIDAN TARBIVAVIY JARAYONLARDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada XX asrda Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg'onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri bo'lgan, o'sha davrda o'zbek xalqi ijtimoiy ongining uyg'onishida muhim rol o'ynagan ajdodimiz jadid ma'riftparvari Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'naviy madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi tahlil qilingan.

Keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo'lgan Behbudi o'z asarlarida islom dinini noto'g'ri talqin etilmasligi, ma'rifiy jihatlariga e'tibor qaratishga chaqirgan. Behbudiyning maqsadi xalqni ma'rifatli qilish va ularni dunyoning yuksak rivojlangan xalqlari darajasiga olib chiqish, har tomonlama rivojlangan jamiyat, insonparvarlik va demokratiyaning mustahkam tamoyillariga asoslangan davlat qurish edi.

Maqolada Behbudi merosida ilm-ma'rifat, axloq, san'atning yoshlar ma'naviy madaniyati, milliy o'zlikni anglashga ta'siri masalalarining yoritilishiga e'tibor qaratilgan, asarlarining zamonaviy ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, ma'naviy madaniyat, ilm, ma'rifat, din, axloq, san'at, siyosat, ma'naviy barkamollik.

Kirish. Bugungi kunda har bir xalq, o'z kelajagini barkamol avlod taqdirida ko'rar ekan, bu maqsadni amalga oshirishda, har tomonlama rivojlangan, yuksak maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish ham muhim hisoblanadi. Tadqiqot muammosini nazariy o'rganish, jarayonning tashkil etilishi, tajriba-sinov ishlarining borishiga ko'ra oliy ta'lim tashkilotlarida Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'naviy - axloqiy qarashlaridan Oliy ta'lim tashkilotlarining tarbiyaviy jarayonlarida samarali foydalanishda tarbiya metodlarining o'rni alohida ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Tarbiyaviy ishlarda, bugungi kunda qo'llanilib kelinayotgan tarbiya metodlaridan foydalanish Oliy ta'lim tashkilotlarining tarbiya jarayonlarida tadbirlar

muvaffaqiyatini ta'minlashda samarali yordam berishi aniqlandi:

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlardan (shakli: ahloqiy-ma'naviy suhbat, baxs)

Odatlantirish va foliyatda mashqlantirish metodlar (shakli: namuna ko'rsatish, musobaqa)

Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari (shakli: ma'kullash, ishonch bildirish)

Quyida Oliy ta'lim tashkilotlarining tarbiyaviy jarayonlarida samarali deb topilgan metodlar tashkil etiladigan pedagogik faoliyatning imkoniyatlari haqida bayon etiladi:

Ijtimoiy ongini hosil qiluvchi metodlar. Bunday tarbiyaviy tadbirlar tajriba guruhiga jalb etilgan respondent - talabalar M.Behbudiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari va nazariy va amaliy bilimlar, ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ahloqiy-ma'naviy suhbat, baxs kabi shakllarda tashkil etiladi.

Axloq- ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish funksiyasini bajaradi. Axloq bizning ongimizga ta'sir qilib, yaxshilik, adolat va adolatsizlik, umuman, ijobiy va salbiy xatti-harakatlarni belgilab beradi.

Axloq normalari inson hatti-harakatini boshqarib turadi. Inson jamiyatda yashar ekan, u ma'lum huquqlarga ega bo'ladi. Ana shu huquq meyorlariga zid hatti-harakat qilish axloqsizlik xatti-harakati deb ataladi. Shuni ham e'tiborga olish lozimki, huquqiy meyorlar majburiy, axloqiy meyorlar esa, ixtiyoriy bo'ladi. Ma'naviy- axloqiy tarbiya insonlarni ijobiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirish bilan bir qatorda, ularni salbiy sifatlardan saqlashga undaydi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mohiyati, mazmuni va funksiyalarini quyidagilarda ko'rsatishimiz mumkin:

Jamiyatga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash.

Atrofdagilar, kursdoshlar, do'stlar va umuman u har doim muloqot qiladigan kishilarga axloqiy munosabatni tarbiyalash.

Shaxsning o'z-o'ziga axloqiy munosabatni tarbiyalash.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada quyidagi jihatlarga e'tiborni qaratish lozim:

1.Ma'naviy-axloqiy tarbiyani o'qitish jarayoni bilan qo'shib olib borish.

2. Yaxshi o'qita bilgan o'qituvchi yaxshi tarbiyalaydi ham. (nemis pedagogi A.V.Disterverg)

3.Oliy ta'lim tashkilotlari pedagoglari va talabalarining hamkorlik faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ya'ni ahil, inoq jamoani tashkil etish.

4.Tarbiyaviy ishlarni qat'iy reja asosida olib borish.

5.Ijobiy emotsional sharoit yaratish, ya'ni bayramlarni nishonlash.

6. Ijtimoiy ma'naviy- axloqiy shakllantiruvchi mashq, o'rnatma, namuna usulidan unumli foydalanish.

7.Ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid tadbirlarning saviyasini oshirish.

8.Turli badiiy-adabiy kechalar, tadbirlar, bellashuvlar, olimpiadalar o'tkazish.

9.Sharq qadriyatlari va milliy an'analar aks etgan asarlarni muntazam ravishda mutolaa qilish va munozaralar tashkil etish.

Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan namunalar:

1.Doimo kitob mutolaa qiladigan kishi hech qachon johil bo'lmaydi.

2.Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o'qitmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxtlilikl oramizda doimo hukmfarmo bo'lsa kerak. Bu ishlarni yo'q bo'lmog'iga o'qimoq va o'qitmoqdan boshqa iloj yo'qdir.

3...Ori siz talaba afandilar, millatni kelar zamon xodimlaridursiz.

4.Marg'ilon shahrining qozisi Muzaffarxon (usuli jadid uchun) bir bob usul jadid maktabiga fatvo oldi. Ba'zi sha'riyat peshvolari bu usulni tushunmagani holda Muzaffarxonning niyati millat bolalariga soyabon bo'lish, shoyad.

5.Arabiy bilmaslik, din, ruscha bilmaslik dunyo qo'ldan ketar.

6.Agar men muazzin bo'lsa edim, saxar chog'ida minora ustiga chiqib, azondan keyin: "Oy, musulmonlar! G'afflat va jaholatdan uyg'oningizki, maorif oftobi mag'ribdan chiqa boshladi"deb qichqirar edim.

7.Bularni (qizlarni) tabiiy harakati buzulmasligi uchun yana tadbir va sa'y lozimdur. YA'ni oshiqona kitob va hikoyalarni o'qimoq va eshitmoqlarig'a vaqt qoldurmasun, iffat va tarbiyati badaniylarig'a tadbirlar joriy qilinsun. Xususan, yomon va beqayd ayollar ila ixtilot yo'llari bog'lansun.

Samarali usullardan bo'lgan ma'naviy-ahloqiy insonning axloqiy tarbiyalanganligi uning tevarak-atrofdagilarga bo'lgan turli-tuman munosabatlaridan namoyon bo'ladi. U insonning xislarida, kechinmalarida ifodalanadi hamda xulq-atvorida, xatti-harakatida ko'rinadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi shaxsni ahloqiy shakllantirishdir.

Insonning muhim ma'naviy sifatlari bo'lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish; vatanparvarlik, Vatanga muhabbat, gerb, bayrog', madhiyaga hurmat, insonparvarlik, mehnatga munosabat, jamoa bilan birgalikda kilinadigan ishlarga munosabat, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish ma'naviy - ahlokiy tarbiyaning asosiy vazifalaridir.

Ma'naviy - ahloqiy tarbiyaning mazmuni, avvalo, talabalarda amaliy faoliyatlarida, o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida, o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, xulq-atvor meyorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, axloqiy tarbiya yoshi va talabaning to'g'ri yo'nalish olishi uchun hal kiluvchi ta'sir ko'rsatadigan muhitni (oila, o'rtoklar, do'stlar muhiti) ham hisobga olganda insonning butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Ma'naviy- ahlokiy tarbiyaning yo'l va usullari talabalarga ahlokiy saboq berish kabi mahsus ish tashkil qilishda alohida xususiyatga ega. Ma'naviy- axloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi: inson hayoti va madaniyatining ahloqiy qadriyatlari to'g'risida keng tasavvur beradi.

Ma'naviy - ahloqiy tasavvurlar, ahloqiy e'tiqodni yuksaltirishga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni:

talabalarni o'zlarining axloqiy tajribalarini mushohada qilishlari va boyitishlariga yordam beradi;

turli manbalardan axloq to'g'risida olingan bilimlarni to'g'rilaydi;

shaxs o'zini ma'naviy - ahlokiy tarbiyalashga zamin yaratadi.

Ma'naviy - ahloqiy bilim, asosan axloq to'g'risidagi suhbatlar, ma'ruzalar, kechalar, turli kasb namoyandalari bilan uchrashuvlar, talabalar konferensiyalari va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi.

Axloqiy meyorlarni tushuntirish ahloqiy bilimlarning poydevori bo'lib xizmat qiluvchi dunyoqarashga tayanganda samarali amalga oshiriladi.

Albatta, talabalarda ma'naviy - ahloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi lozim. Shuning uchun ham ma'naviy - ahloqiy tarbiyani tashkil jarayonida uyushtiriladigan tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlardan iborat bo'lishi lozim. Ma'naviy - ahloqiy hatti-harakatlar talaba tomonidan ahloqiy meyor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir.

Xatti - harakatlar tizimi ma'naviy - ahloqiy odatlarni tarkib toptiradi. Albatta, bu borada quyidagi talablarni amalga oshirish lozim:

ma'naviy - ahloqiy tarbiyani maqsadga muvofiq, uzluksiz, tizimli va izchil amalga oshirish zarur,

ma'naviy - ahloqiy hislatlarni va fazilatlarini tarbiyalash faol hayotiy vaziyatlar, ahloqiy meyorlar buzilgan holatlarda tarbiyalanayotganlarning o'z fikrlari, qarashlari, nuqtai nazarlarini ifodalashi bilan amalga oshiriladi

insonda o'z idealiga intilishiga bo'lgan tuyg'ularini uyg'otishga bo'lgan harakatlarini tashkil etish borasidagi ko'nikmalarini tarbiyalash,

mahnaviy – axloqiy tarbiyaga doir ishlarni tarbiyalanuvchilarning tajribasi, tarbiya qoidalariga rioya qilishlari, yaxshi va yomon xatti – harakatlarning mohiyatini tushunishlarini e'tiborga olgan holda amalga oshiriladi,

yoshlarda yuksak ma'naviy – axloqiy sifatlar – insoniylik, insonga hurmat, mehr – saxovat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va axloq qoidalariga rioya qilish kabi holatlarni tarkib toptirish,

fuqarolik madaniyati, ongli intizom, jamoani hurmat qilish va boshqa shunday ma'naviy – axloqiy sifatlar-o'zgalarga g'amxo'rlik, insonlarning tashvishi, quvonchiga sheriklik, empatiya, o'z manfaatini o'zgalar manfaatidan ustun qo'ymaslik, ma'lum harakatlarda o'zgalar fikri bilan kelishish, mas'uliyatni his etish.

Ma'naviy - axloqiy meyorlarni o'zlashtirish insonning bu meyorlariga emotsional munosabati bilan boyitiladi. Axloqiy meyorlarni ma'lum ma'noda u yoki bu xatti-harakatni keltirib chiqarishga undovchi sabablar ham belgilaydi.

Ma'naviy -axloqiy tuyg'u, axloqiy iztirob va axloqiy munosabatlar qat'i shaxsiy ma'naviy qiyofaga ega. Ular insonni olijanob harakat va niyatlardan qoniqtiradi, axloqiy meyorlarni buzganliklarida vijdon azobiga soladi.

Psixologlarning fikricha, talabalik yillarida yoshlar axloqiy talab va meyorlarini o'zlashtirishga moyilligining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Bu shaxs rivojlanishiga o'z vaqtida axloqiy yuksalish imkonini beradi.

Tajriba jarayoniga jalb etilgan talabalarga M.Behbudiyning ma'naviy – axloqiy qarashlari haqida ma'lumotlar bilan tanishtirishga yo'naltirilgan ahloqiy-ma'naviy suhbatlarda eng muhim axloqiy sifatlarini yoritishga yordam beradigan suhbatlar uchun quyidagi mavzular tanlandi:

M.Behbudiyning ta'lim – tarbiyaga oid qarashlari va uning bugungi avlod tarbiyasidagi ahamiyati.

M.Behbudiy Turkiston xalqining milliy qahramoni, jamoat arbobi, maorif va madaniyatning ilk tashkilotchisi.

M.Behbudiyning publitsistik asarlarida ma'naviy – axloqiy masalalar talqini.

M.Behbudiyning asarlarida yoshlarni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari.

M.Behbudiyning qarashlarida xotin – qizlar savodi masalalari.

Ijtimoiy ongni rivojlantiruvchi metodlar doirasida tashkil etilgan suhbat, bahslar mavjud bosma adabiyotlar, elektron manbaalardan foydalanilgan holda suhbatlar taqdimotlar orqali olib borildi.

Jumladan, "M.Behbudiy asarlarida yoshlarni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari" mavzusida tashkil etilgan bahsda Sirojiddin Ahmad tomonidan 2021 yilda nashr etilgan "Mahmudxo'ja Behbudiy" nomli tanlangan asarlar 2-jildli asarida yoritilgan g'oyalardan tarbiyaviy tadbirlardan maqsadli foydalanildi.

Shu jumladan, talabalarning ma'naviy- axloqiy tarbiyalanganligi masalalari quyidagilarda ko'rindi:

- yoshlarning ma'naviy tanazzuliga sabab bo'layotgani, turli xil axborot xavfi, nosog'lom turmush tarzi, jamiyat hayoti, davlat tuzilmalari, siyosiy bo'htonlar, ruhiy buzulishlar va boshqalardan himoyalani;

- talabalarning tarixiy manbalardan foydalanish va to'g'ri xulosalash ko'nikmalarini rivojlantirish juda muhim sanaladi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'naviy- axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanish orqali talabalarga ma'naviy ta'sir etish mexanizmlaridan foydalanildi.

Ma'naviy ta'sir – yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlarini shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim tarbiya jrayonini ifodalovchi tushuncha. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan ma'naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta'minlaydigan qadimiy va abadiy qadriyatdir. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, ma'naviy ta'sir masalasida hushyorlik va sezgirlik, qat'iyat va mas'uliyat yo'qotilsa, bu o'ta muhim ish o'z holiga, o'zbo'larchilikka tashlab qo'yilsa, muqaddas qadriyatlarga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan minglab yillik milliy – etnik asoslarga ega millat ma'naviyati va tarixiy xotirasidan ayrilib, oxir – oqibatda umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishi mumkin.

Xulosa. O'zbekistonning taraqqiyot dasturi, uzoq va davomli maqsadlarni belgilashda xalqning moddiy va ma'naviy olamini yuksaltirish, yosh avlodni ajdodlar qoldirgan o'lmas merosni chuqur o'rganish, anglash, qadrlash bilan birga, umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan cho'qqilarini egallash ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor vazifa qilib olingan. Chunki, ertaga kattalar o'rni bosadigan yoshlar aynan shunday oziqlangan zaminda voyaga yetgan taqdiridagina komil insonlar bo'lib, haqiqiy tayanch va suyanchga, yengilmas ma'naviy kuchga aylanib, jahon maydonlarida har qanday bellashuv va sinovlarga tayyor tura oladilar. Inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar ma'naviy ta'sir tufayli ajdodlardan asta-sekin tadrifiy ravishda avlodlarga o'tadi. Bunday tushunishda ma'naviy ta'sir faqat oila, institut, universitet va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, TV, OAV, va boshqa faoliyatni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi ma'naviy ta'sir tushunchasi tarkibiga bu sohada ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda ma'naviy ta'sir shaxsning ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didini o'stirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatini anglatadi. Bunday ma'naviy ta'sir oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari doirasida amalga oshiriladi. Har qanday ma'naviy ta'sir ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning bilimi ko'payibgina qolmay, balki ma'naviy axloqiy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi. Shu bois otabobolarimiz qadimdan bebaho boyluk bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim-tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti hamda garovi deb bilganlar.

Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'naviy - axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanish orqali talabalarda milliy o'zlikni anglashga oid bo'lgan g'ururi rivojlantiriladi.

Milliy o'zlik – shaxs faoliyatida muhim o'rin tutib, shaxs va jamiyatning ma'naviy kamolotida, fuqarolik jamiyatining moddiy ma'naviy asoslarini mustahkamlashda ulkan ahamiyatga ega. Darhaqiqat, jamiyatdagi ma'naviy tiklanish milliy o'zlikning sifatijihatlar bilan chambarchas bog'liq. Zero, o'zlikni anglash tufayli inson o'tmishini xotirlaydi, buguni bilan taqqoslaydi, xulosa chiqaradi va shu asosda kelajakka nigoh tashlaydi. YA'ni o'zlikni anglash insonni shaxs darajasiga ko'tarib, ma'naviy kamolot sari yetaklaydigan ruxiy kuchdir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 1-oktabr 2020 yil
2. Edvort Olvort. Birinchi o'zbek dramasi "Jahon adabiyoti" jurnali, 2009 yil, 9-son.
3. Ingeborg Baldauf XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2001. –B.42.

4. Qosimov B. Behbudiy, Maslakdoshlar, T., 1994 B. Qosimovning «Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik»
5. Karimov N. Mahmudxo'ja Behbudiy. https://docs.yandex.ru/docs/Ziyo_uz_kutubxonasi
6. D. Alimova. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri". Akademiya nashri 1 ti. T. 1999
7. Saidov H. Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik va muharrirlik faoliyati. Fil.fan.nom.diss. T.: 1999 B. 170
8. Avazov N. Behbudiyning ijodiy faoliyati. Fil.fan.nom.diss. T.: 1995 170 B
9. Ahrorova Z. Mahmudxo'ja Behbudiyning pdegogik qarashlari va ma'rifiy-amaliy faoliyati. Pedagog. Fan.nomzodi. diss. T.: 1997. 157



Nuriddin ACHILOV,

Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, dotsent

E-mail: terdunuriddin@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor D.I.Ro‘zieva taqrizi asosida.

O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBİYALASH – DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar va ularning mazmuni yoritilgan. Shuningdek, ma’naviyat, axloq, ma’naviy axloqiy tarbiya mazmuni va o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash usul va vositalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, ma’naviyat, axloq, ma’naviy-axloqiy tarbiya, ma’rifat, ma’rifatparvarlik, ijtimoiy davlat.

SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION OF STUDENTS - DOLZARB AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Аннотация

The article describes the reforms implemented in the education system and their content. Also, the content of spirituality, morality, spiritual and moral education and the methods and means of spiritual and moral education of students are described.

Key words: education, upbringing, spirituality, morality, spiritual and moral education, enlightenment, enlightenment, social state.

ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ СТУДЕНТОВ – ДОЛЗАРБ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация

В статье описаны реформы, реализуемые в системе образования, и их содержание. Также описывается содержание духовности, нравственности, духовно-нравственного воспитания и методы и средства духовно-нравственного воспитания студентов.

Ключевые слова: образование, воспитание, духовность, нравственность, духовно-нравственное воспитание, просвещение, просвещение, социальное государство.

Kirish. Yangi O‘zbekiston jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, barcha sohalarda yangilanish nafasi ufurib turibdi. Tabiiyki, taraqqiyotimizning yanada rivojlantirish har bir sohada yangiliklar va ularning istiqbolini jadalashtrish uchun ilg‘or va o‘z kasbining yetuk professional mutaxassislarni tayyorlash masalalari hozirgi kunning dolzarb talabiga aylangan. Shu maqsadda jahonning ilg‘or xorijiy davlatlarida ta’limni rivojlantirish birinchi maqsad etib belgilangani ham bejiz emas. Zero, har bir mamlakatning ertangi kuni, ravnaqi aynan ta’lim tizimining barcha bosqichlarida qo‘lga kiritilgan yutuqlarga bevosita va bilvosita bog‘liq. Shu sababli Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning: “Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurishni maqsad qilmoqdamiz. Ijtimoiy davlat deganda, avvalo inson bilimi, iqtidori va uning salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishdir”[1; 7] – deb ta’kidlaganlarida ham aynan bizning mamlakatimizda ta’lim tizimini rivojlantirish bosh masala sifatida e’tirof etilayotganligidadir. Shu bois, birinchi navbatda, e’tiborni Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya hisoblangan ta’limni qo‘llab quvvatlashga qaratish lozimligi Prezidentimiz tomonidan alohida ta’kidlanib, 2023 yil yurtimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nom berildi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda bu jarayonlar juda tez va jadal amalga oshirilmoqda. Jumladan, xalq ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish, uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash va ularning bilimi slohiyatini izchil rivojlantirish borasida aniq va keng ko‘lamli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, soha taraqqiyotiga yo‘naltirilgan o‘nlab muhim farmon, qaror va dasturlar qabul qilindi. Jumladan, xalq ta’limi tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash mamlakatimizni “2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment)

Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish”[2; 1], mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida Prezidentimiz farmoni bilan bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun dasturulamal vazifasini o‘tamoqda. Ushbu hujjatda quyidagi vazifalar belgilangan:

- uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

- o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

- yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish;

- yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish. Ushbu vazifalar ta’lim jarayonini yangi sifat bosqichga olib chiqish uchun xizmat qiladi.

Kontseptsiyada o‘qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o‘quv materiallarini asosan o‘quvchilar axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo‘lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotganligi alohida ta’kidlangan.

Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlatni ustuvor siyosati, davrning dolzarb talabidir. Ertangi kun kelajagimiz poydevori hisoblangan yoshlarni tarbiyalash, ularga Vatan, oila, tinchlik, osoyishtalik buyuk ne‘mat ekanini anglatish, ushbu

ne'matlarni qadrlash, himoyalash tuyg'ularini singdirish bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu maqsadda 2019-yil 31-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1069-sonli qarori qabul qilindi, Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontsepsiyasi tasdiqlandi. Kontsepsiyada yoshlar tarbiyasi, ularni tinch-osoyishta hayot uchun zarur kompetensiyalar bilan ta'minlash, ayniqsa ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish kabi aniq vazifalar belgilangan. Xususan, farzand tarbiyasi quyidagi 4 ta bosqichni qamrab olishi ta'kidlangan.

Birinchi bosqich – oilalarda. U ham o'z navbatida ikki bosqichni qamrab oladi: 1-bosqich – homila davri, 2-bosqich – bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr.

Ikkinchi bosqich – maktabgacha ta'lim. Bolaning 3-6 (7) yoshgacha bo'lgan davri.

Uchinchi bosqich – ikki bosqichli umumiy o'rta ta'limni o'z ichiga oladi. Ular: 1-bosqich 7 (6)-10 yosh boshlang'ich sinf davri, 2-bosqich 11-17 (18) yosh o'rta ta'lim davri.

To'rtinchi bosqich – ishlab chiqarishda foyit ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar, shuningdek o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari tizimidagi davri[3;3].

Bundan tashqari kontsepsiyada farzand tarbiyasida har bir bosqichda e'tibor berilishi muhim hisoblangan o'ziga xos xususiyatlar, tarbiyachilar, ustozlar va ota onalar tomonidan shakllantiriladigan fazilatlar aniq mexanizmlar asosida ko'rsatib o'tilgan. Masalan, uchinchi bosqichda umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olishi lozim bo'lgan quyidagi jihatlar alohida e'tiborga olingan. Masalan, ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o'zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi; milliy qadriyatlar, an'analarga hurmatning namoyon bo'lishi; o'zini – o'zi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishi; ma'naviy-axloqiy printsiplarning qat'iyilashuvi[3; 6]. Shu maqsadda bizning tadqiqot mavzimiz "O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash – dolzarb pedagogik muammo sifatida" deb nomlanib unda o'quvchilarning bilishga va allomalar merosini o'rganishga qaratilgan "O'n ikki oy – o'n ikki alloma" kitobxonlik oyliklarini tashkil etish rejalashtirilgan.

Ma'naviy-ma'rifiy soha, ta'lim-tarbiya jarayonlarini isloh qilish, avvalo islohotlarni o'zimizdan boshlashimiz zarurligi asosiy pedagogik muammo hisoblanadi. Shunday ekan, jamiyatimizning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, ta'lim, ma'rifat, madaniyat sohasini rivojlantirish, ilmiy-ijodiy tashkilotlar, ziyolilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishda davom etadi. Chunki, Prezidentimiz SH.Mirziyoyev: "jamiyatimizda bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, oliygo'hlarning professor-o'qituvchilari va ilmiy-ijodiy ziyolilarni bugun biz intilayotgan Uchinchi Renessansning to'rt tayanch ustuni deb e'tirof etmoqdamiz"[4; 5] – deb biz pedagoglarga katta ishonch bildirdilar.

Ta'lim-tarbiya barqaror taraqqiyot yo'lini tanlagan davlatning poydevori mustahkamligi ta'minlanadi. Ta'limning taraqqiyoti unda qabul qilingan qonunlar mazmunida aks etadi. Shu maqsadda 2020-yil 23-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni qabul qilindi. Qonunning 3-moddasida asosiy tushunchalar izohi va mazmuni keltirilgan. Unga ko'ra ta'lim va tarbiyaga quyidagicha ta'rif berilgan.

Tarbiya - aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

Ta'lim - ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon[5;2].

Tarbiya ta'rifini tahlil qiladigan bo'lsak, u ijtimoiy tarixiy tajribalar so'ziga e'tibor qaratmoqchimiz. Chunki, tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Tarix bizning kelajagimizni va ertangi kunimizni yaratishda poydevor hisoblanadi. Ana shu poydevorni asrlar davomida shakllantirib kelgan milliy qadriyatlarimiz va an'analarmizga sayqal berib asrab avaylagan xalqimiz, ulug' ajdodlarmizning o'gitlari, bebaho ilmiy merosini yanada chuqur o'rganish, yosh avlodga o'rgatish va ularning ongib shuuriga teran anglatish bilan mustahkamlashimiz lozim. Shu maqsadda bizning tadqiqotimiz hamisha qadimiy Termiz shahridan yetishib chiqqan buyuk alloma, al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Ulug' alloma o'zining qimmatli asarlarida ma'naviyat, axloq va ma'naviy axloqiy tarbiya masalalari majmuasi hisoblangan ma'rifatga alohida e'tibor berganki, necha asrlar o'tsa-da, ularning bebaho ilmiy merosi xalqimiz ma'naviy dunyosini boyitishda yoshlarimizni har tomonlama tarbiyalashda dasurulamal bo'lib xizmat qiladi.

Bugun biz tarixiy bir davrda, xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotda yashayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani - bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Ma'naviyat, axloq va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari barcha davrlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Hozir biz ushbu so'zlarning mazmun mohiyatini ko'rib chiqamiz. Ma'naviyat (arab. ma'no, ma'nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy hodisa [6;345]. Ma'naviyat tushunchasining mazmuni hozirgi kunda faqat "ma'ni", "ma'no" degan so'zlar ma'nosida qo'llanilmaydi. Chunki, insonni inson qiladigan, uning ongi, qalbi va ruhiyati bilan o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib har qaysi odamda, jamiyat, millat va xalq hayotida hech qanday narsa bilan o'lchanmaydigan darajada alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviyat – (arab. – axloqiy holat, barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar) – insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va boshqa tasavvurlari, tushunchalari majmui[7;282]. Har bir insonda tashqi va ichki olami bo'ladi. Insonning tashqi olamiga bo'y-basti, qomati, kiyinishi, hatti harakatlari kiradi. Uning ichki olamiga yashashdan maqsadi va muddaosi, fikrlashi, orzu-istaklari, intilishlari, qalbi, his tuyg'ulari kiradi. Ma'naviyat esa ana shu ichki olamga ruhiy ozuqa va qudrat beradi.

Axloq (arab. xulqning ko'pligi; lot. moralis - xulq-atvor) – ma'naviy hayot hodisasi, ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi o'zaro munosabat, shuningdek jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turadigan barqaror, muayyan me'yor va qoidalar yig'indisi[6;52]. Axloq bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollikdir. Tarixan nazar tashlasak, ajdodlarimiz

komil inson, barkamol inson haqida axloqiy talablar majmuini, ya'ni axloq kodeksini ishlab chiqqan. Unda inson qalbida haromdan hazar qilishi lozim, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz qalbida isyon bo'lishi kerakligi ta'kidlangan.

Axloq (arab.) – xulq so'zining ko'plik shakli, kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos qoidalari majmui[7;96]. U ma'naviy hayot hodisasi bo'lib, ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma'naviyat sohasiga oid tushuncha hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya – jamiyat ma'naviy hayotidagi muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, odob-axloq tizimini, axloqiy fazilatlarini zamon talablari asosida har qaysi avlod ongiga singdirish shakli[6;57]. Axloqiy tarbiya bu o'sib kelayotgan avlodda xulq-odob me'yorlariga mos keladigan, zamon talablariga javob beradigan insoniy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy va va amaliy harakatlar tizimidir.

Xulosa. Xalqimizga xos bo'lgan ma'naviy qariyatlar tarkibiga kiradigan bunday tushunchalar juda ko'plab uchraydi. Ularni to'g'ridan-to'g'ri o'zga tillarga tarjima qilish murakkab. Bu so'zlar millatimiz hayotining naqadar tarixiyligini xalqimizning boshqalarga aslo o'xshamaydigan bir qancha o'ziga xos milliy qadriyatlarimiz mavjudligini, tilimizda esa shu sohaga doir o'xshashi yo'q so'zlar borligini anglatadi.

Mamlakatimiz ta'lim tazimida qo'llanilayotgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlaridan kelib chiqqan holda shuni ta'kiddash lozimki, ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ma'nau har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson o'zida iymone'tiqod, mehr-shafqat, vatanparvarlik, do'stlik, muruvvat, qanoat va sabr-toqat, saxiylik, milliy g'urur kabi fazilatlarini shakllantirishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi, Toshkent, 2022-yil 20-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni, -Toshkent, 2019-yil 29-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1069-sonli qarori, Toshkent, 2019-yil 31-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga" tabrigi, Toshkent, 2021 yil 29-sentyabr.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.
6. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati. [Matn]: lug'at.// Q.Nazarov va b. - Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2021. 345-bet.
7. Pedagogika: entsiklopediya. II jild/ tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. 282-bet.



Shoiraxon BAYBABAeva,
O'zDJTU katta o'qituvchisi
E-mail:shoiraxon.0188@gmail.com

Fil.fan.dok.(DSc) K.Muratkasimova taqrizi asosida

TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA FLIPPED LEARNING TEXNOLOGIYASI

Annotasiya

Mustaqil ta'lim bu talabalarning ma'lumot yig'ish ustida individual ishlashidir. Mustaqil ta'lim axborotlar oqimi ostida eng muhim axborotni topa olish, unga to'g'ri baho berish, ushbu axborotdan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish kabi aqliy ko'nikmalarni shakllantirishga hizmat qiladi. Ega bo'lgan ma'lumotlar asosida mustaqil mashq va vazifalarni bajara olish imkonini beradi. Mustaqil ta'lim orqali talaba ingliz tilini o'qish jarayonida amaliy faoliyatida zarur bo'ladigan sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishga yordam beradi. Shuningdek, mustaqil ta'limga amaliy ahamiyatga molik bo'lgan vazifalarni bajarish va audiovizual uskunalar bilan ishlash ham kiritilgan sababli, texnik ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlash nazariy va amaliy tahlil qilinadi

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, flipped learning texnologiyasi, aqliy ko'nikmalar, mustaqil mashq va vazifalar, "Smart" auditoriyalar, onlayn o'quv platformalar, faol ta'lim, pedagogik texnologiya o'quv materiallar

ORGANIZING STUDENTS AUTONOMOUS LEARNING THROUGH FLIPPED LEARNING

Annotation

Autonomous learning is the individual work of students on the collection of information. Independent education contributes to the formation of mental skills such as finding the most important information under the flow of information, giving it the correct assessment, and using this information in one's professional activity. It allows students to perform autonomously exercises and tasks based on the information that are given. Through autonomous learning, the students will acquire the necessary quality indicators in his practical activities during the education. Since Autonomous learning includes performing tasks of practical importance and working with audiovisual equipment, ensuring the formation of technical skills is being analyzed theoretically and practically.

Key words: autonomous learning, flipped learning technology, mental skills, assignments and tasks, "Smart" classrooms, online educational platforms, active education, pedagogical technology, educational materials

ПЕРЕВЕРНУТОЕ ОБУЧЕНИЕ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО РАБОТА СТУДЕНТОВ

Аннотация

Самостоятельная работа – это индивидуальная задача для студентов по сбору информации. Самостоятельное обучение способствует формированию умственных умений, таких как находить в потоке информации наиболее важную информацию, давать ей правильную оценку и использовать эту информацию в своей профессиональной деятельности. Это позволяет студентам выполнять самостоятельные упражнения и задачи на основе имеющейся информации. Благодаря самостоятельному обучению студенту будет оказана помощь в приобретении необходимых показателей качества в его практической деятельности в ходе изучения английского языка. Также, поскольку самостоятельное обучение включает в себя выполнение заданий практического значения и работу с аудиовизуальной техникой, то обеспечение формирования технических навыков анализируется теоретически и практически.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, технология перевернутого обучения, умственные способности, самостоятельные упражнения и задания, «SMART» классы, образовательные онлайн-платформы, активное образование, педагогические технологии, учебные материалы.

Kirish. Nostandart "flipped learning" texnologiyasida talabalar o'quv jarayonidan avval didaktik materiallarini o'rganadilar (masalan, onlayn ma'ruzalarni tomosha qilish orqali), akademik dars jarayonida esa o'quv materiallar eksperimental qo'llaydilar. Ushbu pedagogik texnologiya "inverted classroom" deb ham yuritiladi hamda so'nggi o'n yil ichida xorijiy mamalatlarda turli xil akademik sohalarida qo'llanilib kelinmoqda va jadal rivojlanib bormoqda.

Yana bir guruh olimlar J. Bergman, J.Ovemayer va B.Uily "The Flipped Class: Myths vs. Reality" ilmiy izlanishlarida quyidagicha tasnif berilganligini kuzatamiz. M.Fisher, J.King hamda G.Tague mustaqil ta'lim talabalar o'quv jarayonida o'z zimmlariga ma'lum darajada mas'uliyat yuklaydi deb fikr bildirdilar. Bu esa amalda talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlariga keng yo'l ochadi, o'quv jarayonida o'z xulq-atvorlarini boshqarishga, mustaqil qarorlar qabul qilishga va o'z hayotlarida davomida qo'llashga yordam

beradi. Talabalar materiallarini oldindan o'rganishlari o'zlarini tartibga solish qobiliyatini, vaqtni boshqarish kabi ma'suliyatni yuklaydi, Nostandart "flipped learning" texnologiyasi muvaffaqiyati ham shundadir. Mustaqil ta'lim talabalariga materiallarini o'zlariga tashunarli organayzerlarni yaratishga imkon beradi, o'z o'quv maqsadlari, tegishli ta'lim strategiyasini qabul qilish va o'quv natijalarini o'zlarini o'zlari nazorat qila oladilar.

Adabiyotlar tahlili. Nostandart flipped learning yangi pedogogik texnologik yondashuv bo'lib, talabalar mavzuga doir asosiy fakt va konseptlarni turli metodlardan foydalangan holda darsdan tashqari vaqtda mustaqil izlanishlariga undaydi. Bularga o'quv materiallarini o'qish, onlayn modullarni bajarish, hamda video ma'ruzalarni tomosha qilish kabilar kiradi. "Akademik dars jarayoni ma'lumotni ma'ruza sifatida yetkazishdan dinamik interaktiv vazifalar bilan to'ldiriladi, pedogog talabalarni faol akademik

o'qishga jalb qiladi",- deydi J.Bergman . Shu o'rinda faol akademik o'qish terminiga tasnif berib o'tish joiz deb hisoblaymiz. Faol akademik o'qish – bu talabning mustaqil o'zlashtirishi asosida egallangan bilimni dinamik interaktiv darslarda amaliy qo'llashi bilan tushuntiriladi [3].

O'z ilmiy izlanishlarini ushbu texnologiyani nazariy asoslarini yaratishga sarf etgan yana bir olim K.Klark, nostandart "flipped learning" texnologiyasini samaralarini quyidagicha sanab o'tdi:

faol akademik o'qish - amaliy mashg'ulotlar, real hayot vaziyatlar va talaba o'zi mustaqil amalda qo'llashi orqali amalga oshiriladi;

faol ta'lim olish jarayoni akademik muhitda ro'y bergani uchun, pedogog talaba o'zlashtirishi yuzasidan ko'proq sharh berish imkoniga ega,

faol ta'lim olish jarayoni pedagog talabalarining emotsional holatini, hamda ehtiyojlarini kuzatish imkonini beradi, chunki an'anaviy akademik darslardagidek pedogog talabalariga yuzlanib so'zlamaydi, balki ular bilan muloqotga qirishadi;

faol ta'lim olish jarayoni talaba pedagogga shaxsan savol berish imkonini beradi, agar an'anaviy akademik dars jarayonida talaba hammani oldida savol berishda to'sqinlikka uchragan bo'lsa, nostandart "flipped learning" texnologiyasida faol topshiriqlar talabalarni o'zlarini erkin his qilishlariga va vazifalarni bajarish jarayonini o'zida savollar berishga undaydi;

faol ta'lim olish jarayoni pedagog-talaba o'rtasida muloqotga katta imkon beradi. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan xolda faol ta'lim olish jarayonining xususiyatlarini quyidagi jadvalda ko'rsatib o'tamiz [4].

Shuningdek, K.Klark nostandart "flipped learning" ("o'zgartirilgan sinf") muhim jihati sifatida talabalarining jamoaviy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishi deb qayd etadi. Nostandart "flipped learning" yoki o'zgartirilgan sinf modeli tabiatan jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga juda mos keladi. K.Klark o'z izlanishlarida talabalarining kritik va analitik jamoaviy ishlash ko'nikmalarini an'anaviy sinfda rivojlantirish qiyin deb ta'kidlaydi.

Nostandart flipped learning E. O'Konner va uning hamkasblari tomonidan yozilgan ilmiy ishda quyidagicha fikr keltiriladi [3]. Unga ko'ra Nostandart flipped learning texnologiyasi nafaqat faol va hamkorlikdagi ta'limga yo'l ochadi, balki talaba o'zi mustaqil ta'limini kuzatadi, talabalar biri-birlariga tushuntiradilar, hamda pedagog-talaba yoki talabalar o'zaro bir-birlarini mulohazalari va baholari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi fikrlar talabalar talabalarining o'zlashtirishi bilan bog'liq fikrlar berilgan bo'lsa, yana bir guruh olimlar an'anaviy akademik dars jaryonlari bilan nostandart "flipped learning" texnologiyasi asosida o'tilgan darslarni solishtirishgan. Jumladan, P.A.Kirshner, J.Sveller va R.E.K.Klarklarning "Why minimal guidance during instruction does not work?" ilmiy maqolasida quyidagicha fikr bildiradilar: "an'anaviy darslardan so'ng talabalar mustaqil uy vazifalarini bajara olishlarini sababi ular dars jarayonida yetarli ma'lumot va ko'rsatmalar olgan bo'ladilar. Agar ushbu ko'rsatmalar yetarli darajada yetkazilinmagan bo'lsa, yoki talabalar tomonidan biron-bir tushunmovchilik uy vazifalarini bajarish jarayonida vujudga kelsa, bu talabalarining noto'g'ri ma'lumotga ega bo'lishlariga va uni uzoq vaqt xotiralarida saqlanib qolishiga sabab bo'ladi." [9,3,8,6] Ammo nostandart "flipped learning" texnologiyasidan foydalanganda talabalar ko'rsatmalardan orqali olgan ma'lumotlar akademik dars jarayoni vaqtida turli mashqlar bajarish yanada chuqur anglaydilar.

Nostandart "flipped learning" pedogogik texnologiyasining tarkibiy qism sifatida elektron texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Yozib olingan

ma'ruzalar smartfon yoki boshqa turdagi mobil qurilmalarda ko'rish imkonini beradi. Chunki yozib olingan ma'ruzalar Onlayn ta'limni boshqarish tizimi orqali onlayn o'quv platformalarga joylashtiriladi [11]. Bu esa o'quvchilarga katta hajmdagi fayllarni qurilmalariga yuklamasdan materiallarga kirish imkonini beradi. Bundan tashqari, elektron texnologiyalar "Smart" auditoriyalarni tashkil etishda ham pedagog uchun qulayliklar yaratadi, ushbu texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonini yengillashtiradi. Hamda pedagogning ish faoliyatini yaxshilash uchun elektron formatlarni osongina almashtirishi mumkin. Shu o'rinda "Smart" auditoriya terminiga izoh berib o'tamiz, "Smart" auditoriya - bu kompyuterlar, ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minot, tinglovchilarga javob berishiga mo'ljallangan elektron texnologiyalar va dasturlar, yordamchi tinglash moslamalari, internet tarmog'i va audio / vizual sozlamalar singari o'quv texnologiyalarini birlashtirish orqali o'qitish va o'rganish uchun imkoniyatlarni yaratadigan texnologik takomillashtirilgan auditoriyalardir. Batayeva o'z ilmiy maqulasida "Smart" auditoriyalarni quyidagi formatlari mavjudligini aytib o'tadi va ular quyidagi jadvalda keltirilgan [7].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Smart-ta'lim akademik o'quv jarayonida nafaqat yangi texnologiyalardan foydalanishni bildiradi, balki innovatsion faoliyat bo'lib, onlayn dasturlardan hamda smart-gadjetlardan foydalanish dars o'tish stilini shakllantirsa, talabalarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'l ochadi.

S.D.Devid, K.Filiks, J.Jenson, L.Kester Nostandart "flipped learning" texnologiya samarasi borasida ilmiy ish olib borib, amalga oshirishgan meta analizlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Aslida ta'limda o'zgaruvchi omillar bir necha turga bo'linadi, ular ilmiy izlanish jarayonida ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligiga ta'sir etuvchi omillar bo'lib, ular bir necha turga bo'linadi: tobe', erkin, moderator hamda mediator omillardan iborat. Yuqorida keltirilgan olimlar Nostandart "flipped learning" texnologiyasining moderator o'zgaruvchi omillar o'rganib chiqishdi. Ular amalga oshirgan ilmiy faoliyatga tasnif berishdan avval o'zgaruvchi omillar haqida so'z yuritimiz. Moderator o'zgaruvchi omillarga kiruvchi: o'quv materiallarini yaratish, ta'lim mazmuni va ta'lim sifatlariga ta'sir etuvchi moderator omillarni. O'quv materiallarini ishlab chiqish tarkibiga kiruvchi test, kichik guruh vazifalari, auditoriya darslari, ma'ruzalarni tashkillashtirish xususiyatlarini o'rganib chiqishdi. Ular shuni isbotlashdiki, Nostandart "flipped learning" texnologiyadan foydalangan darslarda testlar va qisqa savol javoblardan kam xollarda foydalaniladi. Juft va qo'shma, juft bo'lib muammolarni hal qilish kabi topshiriqlar va guruh muhokamalari o'quv natijalarini yaxshilashini ta'kidladilar . Bundan tashqari, S.D.Devid, K.Filiks, J.Jenson, L.Kester Nostandart "flipped learning" texnologiya yana bir samarasi deb auditoriya mashg'ulotlari soatlarini qisqarishda deb belgilashdi, chunki talabalar o'zlari mustaqil ta'limni amalga oshirishlarida edi. Ular olib borgan izlanishlari natijasida auditoriya soatlari uchdan ikki qismga kamayganligini, lekin bu o'quv natijasiga erishishga hech qanday ta'sir ko'rsatmaganini, aksincha an'anaviy darslardan ko'ra yaxshiroq natijaga erishilganligi ma'lum bo'ldi. Nostandart "flipped learning" texnologiya ma'ruzalar avvaldan tayyorlangan yo'riqnomalarga amal qilgan xolda tashkillashtirish ko'zda tutilgan bo'lsada, talabalar mini-leksiyalarga muhtoj ekanliklari aniqlandi, bunda talabalar ega ma'lumotlarni bexato o'zlashtirganliklariga ishonch hosil qilishlari uchun zarur deb aytishgan [7].

N.L.Antonova va A.V.Merenkovlar o'z ilmiy izlanishlarida quyidagicha fikr bildiradilar: "Nostandart "flipped learning" o'quv jarayonidagi konstruktiv model bo'lib, talabalarining axborot-kommunikativ kompetensiyasini

rivojlanishiga va takomillashuviga xizmat qiladi." N.L.Antonova va A.V.Merenkovlar akademik o'quv jarayonida talaba roli faol subyekt sifatida belgilanadi, aynan talabalar faolligi ushbu pedagogik texnologiyaning konstruktiv maqsadini belgilaydi, ya'ni egallangan bilim va uning maxsulini [1].

Aynan yuqoridagi jarayonga asoslangan xolda shuni ta'kidlash mumkinki, Nostandart "flipped learning" texnologisi talabalarning mustaqil ta'limini takomillashtiruvchi kvazisubektiv-subyektiv o'quv jarayondir. M.V.Shakurova o'z izlanishlarida ta'lim jarayonini ikki turga subektiv-kvazisubektiv hamda kvazisubektiv-subyektiv bo'ladi. "Kvazisubektivlik" terminining ma'nosi Shakurova tomonidan quyidagicha beriladi: "kvazisubektivlik-shaxsning o'zini anglash faoliyatining o'ziga xos xususiyati, tasavvurdagi shaxsiyatni aks ettiruvchi obyektning faoliyat turlari". Ta'lim jarayonida esa talabaning o'zini anglash faoliyati ya'ni bo'lajak kasb egasining faoliya turlarining aks etishi. Subektiv-kvazisubektiv ta'limda pedagog tomonidan belgilangan sharoitlarda ishlab, darsning maqsadiga erishish, mavzuni talabarlardan tomonidan tushunishi va qabul qilishiga aytilsa, kvazisubektiv-subyektiv ta'limda esa talaba akademik dars jarayonida faol pozitsiyani egallaydi, talaba egallangan ma'lumotlardagi tushunmovchiliklarni topadi va pedagogdan uni bartaraf etish talab etiladi. Bu talaba-pedagogning noodatiy hamkorligining ko'rinishidir [10].

Bunga qo'shimcha qilgan xolda Nostandart "flipped learning" modeli talabarning metakognitiv kompetensiyalarini takomillashuviga yo'l ochadi, bu esa XXI asr bo'lajak kasb egalari qo'yilgan talablardan biri hisoblanadi. Shu o'rinda metakognitiv kompetensiya haqida so'z yuritiladi [2]. Metakognitiv kompetensiya aqliy tuzilma bo'lib, axborotni qayta ishlashni ixtiyoriy va beixtiyoriy tartibga solishni amalga oshirishni ta'minlaydi, shuningdek,

intelektual jarayonlarni ongli ravishda boshqarish imkoniyatini beradi. Metakognitiv strategiyalar talabaning individual fikrlash, idrok etish xususiyatlarini xisobga olgan xolda aqliy faoliyat usullari sifatida belgilanadi.

Xulosa. Xulosa qilib, Nostandart "flipped learning" texnologiyasi o'z afzalliklari va muammolari mavjud bo'lib, bu borada izlanish olib borish zarur. Yuqorida keltirilgan olimlar fikriga asoslangan xolda, nostandart "flipped learning" texnologiyasi quyidagi pedagogik taxminlar bilan pedagogik nuqtai nazarlar asosida kelib chiqqanligini ta'kidlash mumkin: an'anaviy darslarda ma'lumot va ko'rsatmalarni yetkazishning kamchiliklari kuzatilingan bo'lib, pedagog akademik dars jarayonida talabalarning ta'lim olish usullarini va o'zlashtirishiga oid gepotezalarini umumiy birlikda qabul qilib shu yo'l orqali ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Bundan tashqari ma'ruza davomida talaba va pedagog o'rtasidagi muloqot yoki savol-javob berish jarayoni cheklangan bo'lib, talabalar o'zlashtirishiga ta'sir etgan. Chunki, nostandart "flipped learning" texnologiyasi yondashuvida talabalar ma'lumotni dars oldidan ko'rsatma orqali, masalan, video ma'ruzalar orqali olishadi. Buning afzalligi shundaki, talabalar o'zlarining materialni o'zlashtirishlaridan kelib chiqib, akademik dars jarayonidan avval o'quv materiallarni ovoz chastotasi va ko'rish tezligi boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tarzda, ma'lumotni o'zlashtirish darajasi mumkin darajada ortadi, chunki ta'lim oluvchilar tomonidan boshqariladigan video segmentlar o'quv materialini qayta ishlaydigan talabalarni qo'llab-quvvatlaydilar. Nostandart "flipped learning" texnologiyasi ta'lim oluvchilarga qo'shimcha talabni keltirib chiqarishi mumkinligi haqida fikr yuritish ham muhimdir, chunki bu ta'lim oluvchilarning o'zini o'zi boshqaradigan metakognitiv strategiyalarini rivojlanishiga sabab bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Антонова Н. Л., Меренков А. В. Модель «перевернутого обучения» в системе высшей школы: проблемы и противоречия // Интеграция образования. 2018. Т. 22, № 2. С. 237–247. DOI: 10.15507/1991-9468.091.022.201802.237-247
2. Батаева Е. В. Когнитивные и метакогнитивные способности обучающихся в контексте smart-образования // Образование и наука. 2019. Т. 21. № 4. С. 36–59. DOI: 10.17853/1994-5639-2019-4-36-59
3. Bergmann J, Overmyer J, Wilie B. The Flipped Class: Myths vs. Reality." Available at: <http://www.thedailyriff.com/articles/the-flipped-class-conversation-689.php>, pp 1-4. Accessed March 29, 2016.
4. Clark, K. R. (2014). Flipping out: A trend in radiologic science education. *Radiologic Technology*, 85(6), 685-687.
5. Chris R. Becker "THE EFFECTIVENESS OF THE FLIPPED CLASSROOM ON STUDENT LEARNING" 2014, The Graduate Faculty University of Wisconsin-Platteville
6. David C.D. van Alten*, Chris Phielix, Jeroen Janssen, Liesbeth Kester Utrecht University, the Netherlands" Effects of flipping the classroom on learning outcomes and satisfaction: A meta-analysis" *Educational Research Review* 28 (2019) 100281
7. Erin E. et. al. Flipping Radiology Education Right Side Up *Academic Radiology*, Vol 23, No 7, July 2016
8. Fisher, M., King, J., & Tague, G. (2001). The development of a self-directed learning readiness scale for nursing education. *Nurse Education Today*, 21, 516-525.
9. Kirschner, P. A., Sweller, J., & Clark, R. E. (2006). Why minimal guidance during instruction does not work. *Educational Psychologist*, 41(2), 75–86. https://doi.org/10.1207/s15326985ep4102_1.
10. Шакурова М.В. Субъекты и квазисубъекты воспитательного пространства: к постановке социально-педагогической проблемы // Отечественная и зарубежная педагогика. 2017. Т.2, №1 (36). С. 91–98.
11. <https://www.igi-global.com/dictionary/smart-education-using-internet-of-things-technology/42914#>:



UDK:37:013

Dilnoza BEKMURADOVA,

Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi

E-mail: dilnoza.00.@gmail.com

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti, p.f.n A.Abdumannotov taqrizi asosida

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBİYALANUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHDA KO'RGAZMALARDAN FOYDALANISH

Аннотация

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayoni haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Shu bilan birga ko'rgazmalarning mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayoniga ta'siri bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, tarbiyalanuvchilar, mustaqil fikrlash, ko'rgazmalar, didaktik o'yinlar, jarayon, idrok etish.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВЫСТАВОК В ОБУЧЕНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНО МЫСЛИТЬ

Аннотация

В статье представлена информация о процессе обучения дошкольников самостоятельному мышлению. При этом описывается влияние выставок на процесс обучения самостоятельному мышлению.

Ключевые слова: Организация дошкольного образования, воспитанники, самостоятельное мышление, выставки, дидактические игры, процесс, восприятие.

USE OF EXHIBITIONS IN TEACHING PRESCHOOL EDUCATIONAL STUDENTS TO THINK INDEPENDENTLY

Annotation

The article provides information about the process of teaching preschoolers to think independently. At the same time, the impact of exhibitions on the process of teaching independent thinking is described.

Key words: Organization of preschool education, pupils, independent thinking, exhibitions, didactic games, process, perception.

Dunyoda mustaqil fikrlash jarayoniga jamiyatning insonga yaratib berayotgan imkoniyat va erkinliklarning mahsuli va inikosi sifatida qaralmoqda. Mustaqil fikrlash esa, shaxs bilish faoliyati jarayoni bo'lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Shu boisdan mustaqil fikrlash fanlararo tadqiqotlarni, kompleks fanlarni o'zida mujassamlashtiradi. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) sohasida turli innovasion-metodik tavsiyalar va muammoli ta'lim vositalariga tayangan holda bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, og'zaki nutqini o'stirish, ularni kitobxonlikka jalb etish orqali ularda milliy, madaniy-tarixiy qadriyatlarga nisbatan qiziqish uyg'otish kun tartibidagi muhim masalalardan sanaladi.

Ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatmoqdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishda qo'l keladigan usul va metodlarni aniqlash hamda nazariy-amaliy jihatlarini belgilash; nutq o'stirish mashg'ulotlarida badiiy asarlar misolida bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish metodikasini yaratish; didaktik o'yinlar va ularning bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdagi o'rmini belgilash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish; maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishdatorbiyachi kasbiy kompetentligining ahamiyati va bolalarning mustaqil fikrlash darajasini baholash mezonini ishlab chiqish muammolari bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, tashkilotlarni zamonaviy bilimlarga ega tarbiyachilar bilan to'ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha malakali tarbiyachi

va pedagog kadrlar bugungi kunda uzluksiz innovasion izlanishda bo'lishni, fikrlashi, shuningdek, MTT larda ham innovativ g'oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko'rsatishi zarur. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so'zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi

Jahon pedagogikasi va psixologiyasi ta'limotlariga ko'ra, insonning shaxs sifatida shakllanishidagi ta'limning asosiy vazifalaridan biri bolalarning ijodiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiyani tashkillashtirishdan iborat. Ijodiy ta'lim bolalarni ijtimoiy tajriba bilan qurollantirishning alohida nuqtai nazari bo'lib, ular faoliyatiga, tafakkuriga mo'ljallangan ta'limdir. U o'zidan yuqorida turadigan tizimning, jamiyatning bolalarni tarbiyalash sohasidagi ishlar qobig'ida amal qiladi, o'zidan paski tashkiliy tizimlarning ma'lumot mazmunini ijodiy o'zlashtirish, bolalarda ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalash va buning zaminida mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish muammolari o'zida qamrab oldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017 yil 19 oktyabrda bo'lib o'tgan ta'lim jarayonining dastlabki bo'g'ini – maktabgacha ta'lim muassasalari muammolariga bag'ishlangan tadbirda: «Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga etishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi. Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas», degan edilar.

Bola atrofidagi dunyoni bilish yo'li etti yoshgacha, juda katta. Bu vaqt ichida maktabgacha yoshdagi bola ko'p narsalarni o'rganadi. Bolaning ongi nafaqat individuallik bilan to'ldiriladi, tasvirlar va g'oyalar, balki yaxlit idrok bilan ham tavsiflanadi va uning atrofidagi haqiqatni tushunadi. Vizual-majoziy rivojlanish darajasini o'rganish muammosi maktabgacha yoshdagi bolalarni o'ylash, shunga qaramay, hali ham dolzarbdir turli tadqiqotchilar tomonidan katta e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalardan biriligi qolmoqda. Shunga ko'ra, mavzuning dolzarbligi xususiyatlarini o'rganishda yotadigan intellektual soha, aniqrog'i mustaqil fikrlash va ushbu tadqiqotimiz natijalari keyingi maktabgacha ta'lim muassasida rivojlanish usullarini tanlashga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan o'quv-tarbiyaviy faoliyat hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bulgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi - bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Ko'pgina psixologik tadqiqotlarga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy rivojlanish darajasi yuqori ekanligi aniqlangan. Chunki, maktabgacha yoshdagi bolalar yoshi nafaqat tashqi vizual xususiyatlarni muvaffaqiyatli o'rganishi mumkin obyektlar va hodisalar, balki ularning ichki muhim aloqalari bolalarda umumiy fikrlashni rivojlantirish uchun zaruriy asos bo'lib xizmat qiladi.

Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda mustaqil fikrlovchi yoshlarga bo'lgan talab davr taqozosidir. Chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo'lgan insonlargina jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo'ladi.

Respublikada olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham mustaqil fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega, iqtidorli, barkamol shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Zero, o'zgalar fikriga qaram bo'lish, turli yot mafkuralarga ergashish psixologiyasi jamiyat ma'naviyatini tanazzulga olib kelishi shubhasizdir.

Mustaqil fikrlash borliqni, voqelikni idrok etish usuli sifatida tafakkur jarayonining mahsuli sanaladi. U aqliy faoliyat bilan chambarchas bog'liqdir. Fikrsiz inson yaratish va o'sishga qodir bo'lmagan o'lik jussaga aylanadi.

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson mustaqil fikrlaydigan etib tarbiyalanadi.

Bolajonlarni mustaqil fikrlashga, erkin tafakkur yuritishga imkon bermaydigan eng yomon illat o'quv jarayonida o'qituvchining «hukmronlik» rolining saqlanib qolayotganligidir.

Bolaning mustaqil fikrlashidan qanoatlanilmasa uning shahdini bug'ib, boshqacha usulda mushohada qilishga majburlashning nafidan ko'ra zarari ko'proq. Ta'lim jarayonida tarbiyachi va bola o'rtasidagi munosabatda demokratik muhit bo'lmasa bola erkin, mustaqil fikrlay olmaydi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarga munosabatlarda ezgu insonparvar yondoshuvga amal qilish lozim. Bular:

- tarbiyachi va bola huquqida tenglik darajasi;
- bolaning erkin tanlash huquqi;
- xato qilish huquqi;
- shaxsiy nuqtai nazar huquqi;
- bolalar huquqi konvensiyasiga rioya qilish.

Bolalarni erkin, mustaqil fikrlashga o'rgatish bir kunda yoki bir soatlik mashg'ulot davomida amalga oshirilmagan, balki yillar davomida bosqichma-bosqich turli omillar ta'sirida amalga oshiriladigan jarayondir.

MTT tarbiyalanuvchilarini mustaqil fikrlashga, muammolarni mustaqil ravishda hal qila bilishga o'rgatish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Modomiki, shunday ekan, ta'lim jarayonini shunday tashkil etish kerakki, toki o'quvchilar bilim olish bilan birgalikda, ta'lim jarayonining obyekti bo'lib qolmasdan, balki tarbiyachining teng hamkoriga aylansin.

Tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish bugungi kunda ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Buni har bir o'qituvchi bilishi va Vatanimizning kelajagi, uning taraqqiyotini ta'minlovchi kadrlarni tayyorlashda, albatta, ularni tafakkurini o'stirish, mustaqil fikrlashga yo'llovchi yo'l va usullarni tinimsiz izlashi va uni ta'lim jarayoniga joriy etishi lozim.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar yetishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

Mutafakkirlar merosini o'rganish natijasida insonning shakllanishida ilmning ahamiyati katta ekanligining guvohi bo'ldik. Ularda bilim shaxs taraqqiyotining asosiy manbai ekanligi asoslab berilgan. Shuning uchun ham ajdodlarimiz bilim o'rgatuvchi ustozga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo'lgan asosiy talablardan biri edi. Chunki ilm bor joyda rivojlanish, taraqqiyot bo'ladi, yangiliklarni joriy etishga keng yo'l ochiladi.

Ko'rgazmali qurollardan foydalanib bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish juda katta natija beradi.

Zero, mustaqil, ongli faoliyat yuritadigan insongina o'z xalqi, Vatani, ota-onasi oldidagi burchini uddalay oladi va har qanaqa yot ta'sirlarga berilib ketmaydi, inson degan ulug' nomga munosib ish ko'radi. Shuningdek, mustaqil fikr yuritadigan inson o'z-o'zini anglaydi, o'zining hatta-harakati va odamlar bilan munosabatiga tanqidiy baho bera oladi, umuminsoniy axloq normalariga rioya etadi, mustahkam e'tiqodga ega bo'ladi.

Shaxsda fikr yuritishni shakllantirish-bu nafaqat keng qamrovli yondashuvni talab qiladigan ilmiy psixologik muammolardan biridir. Fan va taxnikaning bugungi kundagi jadal rivoji, yangiacha ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etilganligi, mustaqil fikrlashni ta'minlovchi eng qulay va oqilona jarayonni tashkil etish muammosini dolzarb qilib qo'ymoqda.

Mustaqil fikrlash shaxsning xislati haqida har qanday faoliyat turida individual yoki guruh yutuqlarga erishishda yuqori ko'rsatgichni ta'minlaydigan muhim omillardan biri bo'lib, uning fenomenologiyasi talqinida tafakkurning ijodiylikni alohida o'rin tutadi. MTT tarbiyachisining ta'lim-tarbiya jarayonini modulli ta'lim, pedagogik texnologiyalar, didaktik o'yinlar, interfaol metodlar asosida tashkil eta olishi bolajonlarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda nihoyatda ahamiyatlidir. Bu boradagi ishlarni muvaffaqiyatli hal etish, tarbiyachidan, albatta, chuqur bilim, izlanish, fidoiylilik hamda mashg'ulotlarni samarali tashkil eta olish mahoratiga ega bo'lish kabi katta tajribani talab etadi. Zero, yosh avlodni, chuqur bilimli, mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash tarbiyachi va ota-onalarning zimmasidadir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29-debabrda "2017 -2020 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

2. Ilk maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan talablar. T.: 2018.
3. "Ilk qadam" MTMning Davlat o'quv dasturi.- T., 2018.
4. "Sifatli maktabgacha ta'limni joriy etishga yangicha yondoshuv" mavzusidagi Davra suhbat materiallari. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi. Toshkent. 2014. -178 b.
5. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika: darslik.- T.: Tafakkur bo'stoni.2013.-288 b.
6. Davletshin.M va boshqalar. Yosh va pedagogik psixologiya. T.: 2002.
7. Nishonova.Z ,Alimova.G "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" T., 2006.
8. Mirjalilova S., R.To'laganova. Talim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsiyonoma. -T., 2008.
9. KayumovaN.M. va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. -T., Manaviyat-2017 yil.
10. Nurkeldiyeva D.A. va boshq. Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar. -T., 2007.



Shirin BEKMURATOVA

Teacher at the Alfraganus University,

E-mail: volidaravshan@gmail.com

UrDU dotsenti, PhD, Q.Olloyorov taqrizi asosida

EXPLORING CHALLENGES AND INNOVATIONS IN DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE

Annotation

Communicative competence plays a pivotal role in ESL education, encompassing both oral and written proficiency in diverse situations. This study delves into research findings on communicative competence, focusing on challenges faced by ESL students, assessing intercultural communicative competence, and implementing successful strategies in the classroom.

Keywords: Communicative competence, ESL education, challenges, teaching methods, technology, intercultural communicative competence, language learning, Computer-Assisted Language Learning (CALL)

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМ И ИННОВАЦИЙ В РАЗВИТИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Аннотация

Коммуникативная компетентность играет ключевую роль в образовании ESL, охватывая как устную, так и письменную речь в различных ситуациях. Это исследование углубляется в результаты исследований коммуникативной компетентности, уделяя особое внимание проблемам, с которыми сталкиваются студенты ESL, оценивая межкультурную коммуникативную компетентность и реализуя успешные стратегии в классе.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, ESL-образование, проблемы, методы обучения, технологии, межкультурная коммуникативная компетентность, изучение языка, компьютерное изучение языка (CALL)

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA BU SOHADAGI INNOVATSİYALAR TADQIQI

Annotatsiya

Kommunikativ kompetensiya ikkinchi til sifatida ingliz tilini o'qitishda muhim rol o'ynaydi, hamda turli vaziyatlarda og'zaki va yozma malakadan foydalana olish qobiliyatini anglatadi. Ushbu maqolada kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot ishlari natijalari aks etgan bo'lib, ikkinchi til sifatida ingliz tilini o'rganayotgan talabalar duch keladigan muammolarga e'tibor qaratiladi, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani baholash va darsda muvaffaqiyatli strategiyalarni amalga oshirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kommunikativ kompetensiya, ESL ta'limi, muammolar, ta'lim metodlari, texnologiya, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, til o'rganish, kompyuter yordamida til o'rganish (CALL)

Introduction. Communicative competence is a crucial aspect in teaching ESL. It encompasses the ability to communicate in English freely, both orally and in writing, in different situations. Therefore, to study research findings related to communicative competence in ESL, focusing on the challenges faced by ESL students and the assessment of intercultural communicative competence in the classroom, and implementing their achievements in the classroom are really important issues in teaching ESL.

Literature Review. However, as studies show, there are certain problems for ESL Students in developing their communicative competence. For example, Z. Gan's study showed that insufficient opportunities to speak English in lectures and tutorials, lack of focus on language improvement in the curriculum, and an input-poor environment for spoken communication in English outside of class contributed to a range of problems for ESL students [1]. These findings show that there is a need for further developing the effectiveness of the current ESL curriculum and a more intensive language atmosphere in the classroom[1]. It means that ESL teachers must create more opportunities for students to practice speaking English and design a curriculum that takes the language improvement into consideration.

M.Byram, P.Holmes, and N.Savvides compared the impact of clickers, the communicative approach, and the lecture method on the development of communicative competence in ESL learners [2]. Their study found that the

communicative approach was the most effective in promoting communicative competence. This suggests that interactive and student-centered teaching methods are crucial in ESL education.

The study by N. Azlan and S. Narasuman examined the relationship between ICT competence, infrastructure and online resources, working environment, and teachers' intention to adopt online educational technologies [3]. This study highlights the importance of integrating technology in ESL classrooms to enhance communicative competence.

V.Veen et al. investigated the opinions and attitudes of EFL teachers in China on the assessment of intercultural communicative competence [4]. This study emphasizes the importance of assessing and evaluating intercultural communicative competence in ESL education to ensure its effective development.

Despite the existing research on communicative competence in ESL education, there are still several knowledge gaps that need to be addressed. Firstly, there is a need for more research on the specific challenges faced by ESL teachers in developing communicative competence among their students.

Secondly, further research is needed to explore the impact of different teaching approaches and technologies on the development of communicative competence in ESL learners. This can help identify the most effective strategies

and tools for promoting communicative competence in diverse ESL contexts.

Lastly, future research should focus on the assessment and evaluation of intercultural communicative competence in ESL education. This can provide insights into the effectiveness of current assessment methods and inform the development of more comprehensive and valid assessment tools.

Results. The global demand for English proficiency has led to a surge in ESL education, emphasizing the acquisition of communicative competence. In the past, traditional teaching approaches were used in teaching languages, such as grammar-translation method, audio-lingual method, communicative language teaching, task-based language teaching. Below we will discuss each of them.

Grammar-Translation Method. The historical Grammar-Translation method, emphasizing explicit grammar instruction and translation exercises, has been a longstanding approach. While criticized for its lack of communicative focus, it laid the foundation for grammatical accuracy.

Audio-Lingual Method. The Audio-Lingual method, rooted in behaviorism, stresses repetitive drills and habit formation. While effective for language production, it has been criticized for its limited emphasis on comprehension and creativity.

Communicative Language Teaching (CLT). CLT prioritizes meaningful interaction. Role plays, simulations, and information gap activities provide ESL learners with opportunities to apply language in authentic contexts, fostering communicative competence.

Task-Based Language Teaching (TBLT): TBLT integrates language learning with task completion. By engaging in real-world tasks, learners develop communicative strategies and apply language skills to solve problems.

Discussion. However, in developing communicative competence of students the following educational-innovative methods are found to be effective.

Computer-Assisted Language Learning (CALL). CALL tools, including language learning software, interactive websites, and language apps, offer personalized learning experiences. Learners engage with multimedia resources to enhance their communicative skills.

CALL tools have revolutionized language education by offering personalized learning experiences. Language learning software provides interactive lessons tailored to individual proficiency levels, enabling learners to engage with multimedia resources. Interactive websites and language apps further enhance communicative skills by incorporating real-life scenarios and interactive exercises. Researches show that the impact of CALL tools on language acquisition is high, emphasizing their role in fostering personalized and effective learning environments.

Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR). Immersive technologies like VR and AR provide virtual environments for authentic language use. Learners interact with computer-generated scenarios, enhancing their communicative competence in realistic settings.

Immersive environments in VR allow learners to engage with educational content in a way that traditional methods cannot replicate. Subjects like history, science, and geography can be experienced firsthand. AR overlays digital information onto the real world, creating interactive and dynamic learning experiences. This is particularly beneficial in contextualizing information.

Simulations in VR enable users to practice and develop skills in a risk-free environment. This is valuable for professions such as medicine, aviation, and emergency services. AR can provide real-time guidance and information, enhancing skills development in fields like maintenance, repair, and assembly.

Both VR and AR offer a high level of engagement by immersing users in interactive and dynamic content. This engagement can lead to better retention of information. Users can experience realistic scenarios and environments, contributing to a more authentic and impactful learning or training experience. Overlaying digital information onto the real world allows users to interact with and respond to their actual surroundings in real-time.

Virtual environments facilitate remote collaboration, enabling individuals from different locations to interact and work together as if they were in the same physical space. AR can enhance remote assistance by providing real-time information and guidance in a user's field of view.

In industrial settings, AR can provide workers with real-time information, instructions, and schematics, improving efficiency and reducing errors. Both technologies are becoming more accessible, with advancements in hardware and software, making them available for a broader range of applications.

While there are numerous positive aspects, it's essential to acknowledge that challenges, such as cost, technological barriers, and potential ethical considerations, also exist. However, ongoing advancements in VR and AR technology continue to address and mitigate many of these challenges.

In using these methods, we come across several challenges and considerations. While these approaches and technologies have shown promise, challenges exist. Access to technology, teacher training, and cultural considerations impact the effectiveness of these methods. Striking a balance between technology and traditional methods is essential for comprehensive ESL education.

Conclusion. In conclusion, this study underscores the critical importance of communicative competence in ESL education. Addressing challenges identified in current research and embracing innovative teaching methods are essential for fostering proficiency in ESL learners. The integration of technology, such as CALL, VR, and AR, offers promising avenues for authentic language experiences. However, it is imperative to navigate challenges related to technology access, teacher training, and cultural nuances to ensure a comprehensive and effective ESL education. Future research should continue to explore these areas to refine teaching practices and promote communicative competence in diverse ESL contexts.

REFERENCES

1. Gan, Zhengdong. (2012). Understanding L2 Speaking Problems: Implications for ESL Curriculum Development in a Teacher Training Institution in Hong Kong.. *Australian Journal of Teacher Education*, 37, 3. <http://doi.org/10.14221/AJTE.2012V37N1>.
2. Byram, M., Holmes, P., & Savvides, N.. (2013). Intercultural communicative competence in foreign language education: questions of theory, practice and research. *The Language Learning Journal*, 41, 251 - 253. <http://doi.org/10.1080/09571736.2013.836343>
3. Azlan, N., & Narasuman, S.. (2013). The Role of Code-switching as a Communicative Tool in an ESL Teacher Education Classroom. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 90, 458-467. <http://doi.org/10.1016/J.SBSPRO.2013.07.115>
4. Veen, C. V. D., Mey, L. D., Kruijstum, C. V., & Oers, B.. (2017). The effect of productive classroom talk and metacommunication on young children's oral communicative competence and subject matter knowledge: An intervention

- study in early childhood education. *Learning and Instruction*, 48, 14-22. <http://doi.org/10.1016/J.LEARNINSTRUC.2016.06.001>
5. Del-Moral-Pérez, M. E., Villalustre-Martínez, Lourdes., & Neira-Piñero, M. R.. (2018). Teachers' perception about the contribution of collaborative creation of digital storytelling to the communicative and digital competence in primary education schoolchildren. *Computer Assisted Language Learning*, 32, 342 - 365. <http://doi.org/10.1080/09588221.2018.1517094>
 6. Chen, R.. (2021). Fostering Students' Workplace Communicative Competence and Collaborative Mindset through an Inquiry-Based Learning Design. *Education Sciences* . <http://doi.org/10.3390/educsci11010017>
 7. Hauer, K., Cate, O., Boscardin, C., Iobst, W., Holmboe, E., Chesluk, Benjamin J., Baron, R., & O'Sullivan, P.. (2016). Ensuring Resident Competence: A Narrative Review of the Literature on Group Decision Making to Inform the Work of Clinical Competency Committees.. *Journal of graduate medical education* , 8 2 , 156-64 . <http://doi.org/10.4300/JGME-D-15-00144.1>
 8. Nieto, Claudia., & Booth, Margaret Zoller. (2010). Cultural Competence. *Journal of Studies in International Education* , 14, 406 - 425 . <http://doi.org/10.1177/1028315309337929>



UDK: 159.922.7:371

Dilnoza BEKMURADOVA,
Qashqadaryo viloyati P Y M O' M M
Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti
kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: bekmuradovadilnoza1978@gmail.com

O'zbekiston Respublikasi Oriental universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining psixologiya fanlari doktori, professor
B.M.Umarov taqrizi asosida

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MUSTAQIL FIKRLASH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH NING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maktabgacha yosh davrining inson kamolotining keyingi rivojlanishidagi, bolani maktab ta'limiga tayyorlashdagi alohida roli maktabgacha ta'limning maqsadini belgilash, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish metodlari va tashkiliy shakllarini o'ziga xos mazmunini ishlab chiqishni, bolalarni har tomonlama kamolga yetkazishga o'qitishning rolini tadqiq qilish zarurligini shart qilib qo'ydi. Buni inobatga olgan holda ushbu maqolamizda maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faolligini rivojlantirish yo'llarini tadqiq etdik.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, bolalar, ta'lim, yo'naltirish, pedagog, bilish faolli, rivojlantirish, shakllantirish.

РАЗВИТИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫСЛИТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА У ДОШКОЛЬНИКОВ СОЦИАЛЬНО- ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация

Особая роль дошкольного возраста в дальнейшем развитии человеческого потенциала, подготовке ребенка к школьному обучению, роль педагогического дошкольного образования обусловила необходимость исследования. С учетом этого в данном государстве мы исследовали пути развития познавательной активности дошкольников.

Ключевые слова: дошкольник, дети, воспитание, направленность, воспитатель, активное обучение, развитие, формирование.

DEVELOPMENT OF INDEPENDENT THINKING PROCESS IN PRESCHOOLERS SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES

Annotation

The special role of preschool age in the further development of human development, the preparation of the child for school education. The role of teaching preschool education conditioned the need for research. With this in mind, in this article we explored ways to develop the cognitive activity of preschool children.

Key words: preschool, children, education, orientation, educator, active learning, development, formation.

Kirish. Bugunning talabi – jamiyatda jismonan sog'lom, ma'naviy etuk shaxslarni voyaga etkazishdir. Har tomonlama barkamol avlod esa porloq kelajakning garovidir. SHu sabab, yoshlarni qo'llab-quvvatlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Olimlarning ko'p yillik tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, inson umri davomida o'zlashtirishi mumkin bo'lgan bilimlarning 70 foizini 3-7 yosh oralig'ida egallar ekan. Chunki bu davrda boladagi barcha bilish jarayonlari o'sib, rivojlanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda Maktabgacha ta'lim tizimiga katta e'tibor qaralib, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida barcha imkoniyatlar yaratilmoqda.

Zamon taraqqiyotga, rivojlanishga yuz tutgan sari ta'lim-tarbiya jarayonida samarali vosita bo'lib xizmat qiladigan omil, metod, vositalarini ham takomillashtirish talabi vujudga keldi. O'n yil oldingi 5 yoshli bola bilan hozirgi shu yoshdagi bolaning qiziqishi, harakati, erkaliigi tubdan farq qiladi. SHu bois, ta'limning barcha bosqichlarida yangicha metodlar maydonga kelmoqda.

Ma'lumki, barkamol avlodni tarbiyalash, dastlab, oilada, so'ngra maktabgacha ta'lim muassasasida amalga oshiriladi. Bu an'ana mas'uliyat bilan davom ettirilishi lozim. Zamon talabidan kelib chiqib, millat jonkuyarlari zarur tadbirlarni izlab topadi, tizimga tatbiq etadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning eshitish xotirasidan ko'ra ko'z, tasavvur xotirasi kuchli bo'ladi. SHuni inobatga olib mashg'ulotlar o'yin, ko'rgazmali qurollar, multimedia-didaktika o'yinlaridan foydalanilgan holda tashkil etilsa, har bir bolada o'rganishdagi rag'batning amaliy natijasi his etilib, axloqiy fazilatlar rivojlanadi, halollik, adolatlilik, qat'iyatlilik, erkin fikrlash, nutqning o'sishi va eng asosiysi, zamonaviy texnologiyalar bilan hamnafas bo'lib voyaga etishiga zamin yaratiladi.

Asosiy qism. Globallashuv davrida maktabgacha yoshlarni ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini egallashga tayyorlash, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqlikni shakllantirish, yosh avlodni maktab ta'limi to'g'ri yo'naltirish, ularning bilish faolligini rivojlantirish muhim vazifadir. So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda, shu jumladan ularni ta'lim olishiga qator imkoniyatlar berilmoqda. Ammo zamonaviy dunyoda nafaqat ta'lim, balki tarbiya ham muhim sanalmoqda. Yoshlarimiz dunyoviy bilimlarni shu bilan

birgalikda ma'naviy tarbiyaviy sifatlarniham o'zida shakllantirmog'i zarur. Ushbu fikrni muhtaram Prezidentimiz ShavkatMirziyoyev ham ta'kidlaganlar: "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgarayapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan". Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratiimoqda. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyotstrategiyasi" da maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan maqsadlarga diqqat qaratsak:38-maqsad Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini oshirish hozirgi 62 foizdan kamida 80 foizga yetkazish. 39-maqsad Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish. 40-maqsad: Maktabgacha ta'lim tizimida budjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash.

Ko'rib turganimizdek maktabgacha ta'lim tizimida keng ko'lamli silohotlar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda ushbu sohada muammolar to'liq bartaraf etildi deya olmaymiz. Bu muammolarni to'laqonli hal etishda o'qituvchi-pedagogning intellektual salohiyati va kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham amalga oshirilayotgan ishlarni pedagogik tahlil qilish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarining samarali kechishini ta'minlash zaruriyati yuzaga keldi. Bu talablar pedagogika oliy o'quv yurtlarining maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga ham taalluqli bo'lib, bu ixtisos beradigan fanlarning nazariy jihatdan yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Fikrlash jarayoni - bu fikr jarayonlarini amalga oshirish innovatsiyalarni kashf etishga olib keladigan ijodiy jarayondir. Fikrlash psixologiyasidagi eng muhim tushunchalar muammoli vaziyat tushunchasi bo'lishi mumkin. Buning sababi, mazkur vaziyatni hal qilish uchun mavzuning shaxsiy tajribasida yetarli ma'lumot yo'qligi va bu ma'lum psixologik reaksiyalar bilan birga bo'lishidir - bu g'azab, tashvish, hayratlanish va hk. Bu shaxsning qidiruv faoliyatini faollashtiradi va unga muammoli vaziyatga yechim topishga, noma'lum narsani qidirishga yo'naltiradi, bu esa yangi ijodlarga ijodkorlikda muvaffaqiyat qozonishi mumkin. SHu kabi faoliyat taxminlar, gipotezalar yaratishda paydo bo'lishi mumkin. Bu holda, kundalik odamning fikrlashi yo'q.

Bolalarning fikrlashlari umumiy (transduksiya) ishtirok etmasdan, xususiydan xususiya quriladi. Bola ovoz chiqarib mulohaza yuritadi, taqqoslaydi, umumlashtiradi, harakatning turli xil variantlari orasidan tanlaydi, o'zi uchun, eng adekvat, tanlagan narsasining to'g'riligini isbotlaydi. Bu yoshdagi maktabgacha tarbiyachi tushunarli hodisa, narsa, obyekt orqali tushunarsiz narsani tushuntirish uchun o'xshashlikdan foydalanishga qodir. Uning fikrlashi hayoliydir. Ushbu davrda bolalar ko'pincha yorqin, ammo obyektlarning asosiy xususiyatlariga e'tibor berishadi, bu esa xulosalarning asl nusxalarini keltirib chiqaradi. Barcha bolalarning fikrlashlari o'ziga xos tarzda mantiqiydir.

Inson egallab olishi lozim bo'lgan ijtimoiy tajriba qanchalik murakkab bo'lgani sari, bu tajribani yetkazish yuzasidan maxsus tashkil etilgan faoliyatga ya'ni (biror ishlab chiqarishni o'rgatishga) ehtiyoji paydo bo'la boshladi. Tarbiya mohirlik va ishning ko'zini bilishni talab eta boshladi.

Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta shunday ta'rif bergan edi: "Ta'lim - degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish,

tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir.

Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishni, o'rganishidir". Ma'rifat darg'asi A.Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida esa pedagogika fanini aniq va tushunarli qilib ta'riflaydi: "Tarbiya pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur... "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir..." .

Hozirgacha soha mutaxassislaridan ko'pchiligi maktabgacha yoshdagi bolalar bilish faolligini rivojlanishi va uning nazariy asoslarini qator qirralarini o'z ilmiy izlanishlarida o'rganganlar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof muxitga va o'z-o'ziga nisbatan ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi asosida bilish faolligini rivojlanishi masalasi xorijlik psixologlardan DJ.Piyaje, D.Elkonin, S.Muxina D.Maers, V.Kvinn, R.Beron, D.Richardson, F.Zimbaro va boshqalarning tadqiqotlarida qisman yoritib berilgan. SHuningdek, bilish faolligini rivojlantirish muammosi G.Andreeva, V.Ageev, A.Donsov, V.Trusov, T.Emel'yanova, L.Petrovskaya, I.Jaspars, J.Jodelet kabi rus hamda fransuz olimlari tomonidan ham muayyan darajada o'rganilgan.

Olimlarning tadqiqotlari asosida olingan hulosalarga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayonlari ijtimoiy ta'sirlar asosida shakllanar ekan. Ularning diqqati, xotirasi, aqliy faoliyati va muloqatga kirishishi, ko'p xollarda, tashqi munosabatlar va o'yin faoliyatining ta'sirchanligiga bog'lik ekanligi olimlar tomonidan ta'kidlanadi. Olimlarning fikricha bog'cha yoshidagi bolalar bilish faolligi shaxs sifatida shakllanish davrlariga bog'liq holda rivojlanar ekan. Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishi uch davrga ajratadilar: 3-4 yosh oralig'ida bo'lib, bola emotsional jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustaxkamlanishi bilan bog'liqdir.4-5 yoshni tashkil qilib axloqiy o'z-o'zini boshqarish davri hisoblanadi. dastlabki empirik shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Mana shu davrlarda bolalarning diqqat barqarorligini ta'minlash uchun berilgan savolarga va topshiriqlarga javoblari, ularning xotirasini, tafakkurini va hayolini rivojlanishiga yordam beradi. Bolalarning xissiy - emotsional kechinmalari tashqi ta'siglag asosida shakllanar ekan, ularning ijtimoiy munosabatlar ichida ta'lim vatajriba natijalarida ham isbotlandi.

Ta'lim tartiya ta'sigi bilan birga bolalar psixik xususiyatlarining taraqqiyotiga ularning faol faoliyati rolini hisobga olish ham zarurdir. Chunki, bola tarbiyaning faqat passiv obyektiga emas, balki o'z faoliyatlari bilan ham o'ziga, ya'ni o'zining psixik taraqqiyotiga faol ta'si qilib turadigan mavjudotlardir. Tarbiya bolaning faol faoliyatlarini xar doim to'g'ri tashkil qilib, yo'lga solib tursa, undagi mavjud sifatlar faoliyatning har xil turlarida (o'yin, mehnat, o'qish) nomoyon bo'lib mustahkamlana boradi. CHunonchi-bola psixikasi o'yin, o'qish o'rganish, mehnat va turli ijtimoiy faoliyat jarayonlarida taraqqiy qiladi. Faoliyatning bu turlari bolaning o'sishi va yosh xususiyatlariga mos ravishda o'zgarib biri ikkinchisi bilan almashinib turadi. M: bog'chagacha va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'yindir. Chunki, o'yin bola tabiatining asosiy xususiyati hisoblanadi. Bola o'yin orqali atorofdagi hayotni va kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni bilib ola boshlaydi.

Shu o'rinda M.Voxidovning: «bola o'yinda qanday bo'lsa, o'cib ulg'aygach ishda ham ko'pincha ko'p jihatdan shunday bo'ladi» (ehtiyoj, moddiy dunyoga munosabat, o'z-o'ziga munosabat, iroda, xisiy tuyg'u, bilish jarayo^a^ deb ta'kidini e'tiraf etish maqsadga muvofiqdir. Kognitiv faoliyat katta maktabgacha yoshdagi bolalarning yangi bilim, ko'nikma, ichki qat'iyat va ma'lum bilimlarni to'plash va

kengaytirish uchun turli xil harakat usullaridan foydalanish zaruriyatiga bo'lgan qiziqishini aks ettiradi. G.I. Shchukina "kognitiv faoliyat" ni shaxsning sifati, ya'ni shaxsning bilimga bo'lgan intilishini o'z ichiga olgan, bilish jarayoniga intellektual munosabatni ifoda etadi. Shaxsning sifati, "kognitiv faoliyat", uning fikriga ko'ra, bilim olishga intilishning doimiy namoyon bo'lishi bilan yuzaga keladi. Shaxs darajasida kognitiv faoliyatni shakllantirish muammosi asosan kognitiv faoliyatning motivatsiyasini va maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim qiziqishlarini shakllantirish usullarini ko'rib chiqish bilan bog'liq. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kognitiv faoliyatni 3*4 rivojlantirishning eng samarali tomonlari matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonlarida namoyon bo'ladi va matematika o'qitish metodikasida asosiy o'rinni metodik usullar sifatida beriladigan savollar egallaydi. Ular reproduktiv-mnemik, reproduktiv-bilish, produktiv-bilish bo'lishi mumkin. Bunda savollar aniq va ixcham bo'lishi lozim. O'qitish jarayonida bolalar yoshi va o'maniladigan materialga bog'liq 40. M.Vohidov "Bolalar psixologiyasi" holda reproduktiv va produktiv savollar birligi bo'lishi kerak. Savollar bolalar fikrlashini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda asosan oddiydan boshlab, predmetlarning aniq belgilarini, xossalarni, amaliy harakat natijalarini yoritishga yo'naltirilgan, bog'lanishlarni, munosabatlarni, aloqalarni, ularni tushuntirish va asoslashni, oddiy isbotlashdan foydalanishni talab etuvchi murakkabroq savollardanko'prok foydalaniladi. Ko'proq bunday savollar tarbiyachi tomonidan namunani namoyish etgandan keyin yoki bola topshiriqni bajargandan keyin beriladi. Masalan, bolalar qog'oz to'g'riburchakni ikkita teng qismga bo'lganida, ulardan so'raladi: "Sen nima qilding? Bu qism qanday nomlanadi? Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim faolligini shakllantirish jarayonida bir qator omillarning mavjudligi barcha tadqiqotlar uchun umumiy hisoblanadi. Ular orasida ichki omil, ya'ni kognitiv harakatlarning subyektiv xarakteristikasi mavjud. Kognitiv faoliyatning tashuvchisi bilimning yaxlit subyekt - shaxsdir.

Pedagogikada bolalarning savollar va javoblar tizimi suhbat deyiladi. Suhbat usuli atroflicha o'ylangan savollar yordamida tarbiyachi bilan bolalar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, ularning mustaqil fikrlashini yangi tushunchalarni egallashga olib keladi. Uni qo'llashda savollarni qo'yish, bolalarning javob va mulohazalarini muhokama qilish, xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi. Amaliy usullarda vazifa (maqsad)ni qo'yish, uni bajarish usulini rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish,

tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash, maqsadga to'liq erishish uchun o'quv mashg'uloti jarayoniga tuzatish va o'zgartirishlar kiritishi ishlari amalga oshiriladi. Amaliy mashqlarni bajarishda bolalar bo'lajak hatti-harakatlarini faol mushohada qiladi, o'ziga-o'zi eshittirib gapiradi hamda bo'lajak voqeani sharhlaydi. Erkin fikrlash usuli illyustrativ rasmlar, fotolavhalar kabilar va ularning muhokamalariga bag'ishlanadi. Bu mashg'ulotdan ko'zda tutilgan maqsad bolalarning bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirish, ularni rasmlar, fotolavhalar, kitoblar bilan tanishtirish orqali, ularning bilim olish va qiziqishlarini orttirish, avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishishdir.

Xulosa. qilib aytganda maktabgacha yosh davridagi bolalar bilish faolligini nazariy jihatdan o'rganganimizda shunga amin bo'ldikki, bu yo'nalishda juda ko'p tadqiqotlar olib borilgan. Ma'lum metodikalar ishlab chiqilganligiga amin bo'ldik. Lekin shunga qaramasdan mazkur mavzuni xali o'rganishi lozim bo'lgan, o'z echimini kutayotgan muammolari ham mavjud ekan. Shu nuqtai nazardan biz ham o'z mavzuimiz chegarasida maktabgacha yosh davri bolalarining bilish faolligini rivojlantirish usullarini amaliy taxlil qilish uchun nazariy ma'lumotlarni chuqur o'rganib, kerakli xulosalarni oldik. Bilish faolligi o'z mazmun mohiyatiga ko'ra barcha yosh davrlarida rivojlantirishni taqozo etadiki, bevosita xar bir yosh davrining intellektual salohiyati, bilish darajasi va psixologik xususiyatlarini shakllanganligiga qarab tadqiqot ishlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlashida quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning tasvirlash faoliyati va ularning psixologik xususiyati;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim mashg'ulotlari va uning psixologik xususiyatlari;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat mashg'ulotlari va ularning psixologik xususiyatlari;
- maktabgacha yoshdagi bolalar asab tizimi rivojlanishi;
- maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasi (idroki, nutqi, taffakurning rivojlanishi, hissiyotlari va ongning rivojlanishi).

Ko'rinadiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni mustaqil mulohaza yuritishga yo'naltirishda ularga xos bo'lgan mana shu pedagogik tabiiy-ruhiy xususiyatlarni inobatga olish bu borada muvaffaqiyatga erishish garovidir.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi" mavzuidagi anjumanda so'zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqidagi nutqidan. <https://www.standart.uz/ru/news/view?id=963>
2. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi
3. Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolalar. -T.: «Fan», 1975,76-bet.
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. -T.: «Ma'naviyab», 1998. 36-bet
5. AKRAMOVA MATLUBA TULKINOVNA Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi O'quv qo'llanma Buxoro 2021
6. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. - Toshkent: «Fan», 1997.



Jonibek BOYSUNOV,
QarDU o'qituvchisi
E-mail:boysunovjonbek@gmail.com

QarDU dotsenti T.Qurbonov taqrizi asosida

THE ROLE AND IMPORTANCE OF VALUES IN THE DEVELOPMENT OF THE SPIRITUAL CULTURE OF YOUNG PEOPLE

Annotation

This article discusses raising the spiritual culture of young people, educating the future generation with a modern outlook, and forming a sense of loyalty to our national values in their hearts.

Key words: youth, spirituality, culture, conservative, humanistic, technocratic approach, cosmopolitanism, "five important initiatives", national and religious views, political culture, moral culture.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЦЕННОСТЕЙ В РАЗВИТИИ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье речь идет о повышении духовной культуры молодежи, воспитании будущего поколения с современным мировоззрением, формировании в их сердцах чувства верности нашим национальным ценностям.

Ключевые слова: молодежь, духовность, культура, консервативный, гуманистический, технократический подход, космополитизм, «пять важных инициатив», национальные и религиозные взгляды, политическая культура, нравственная культура.

YOSHLARNING MA'NAVIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA QADRIYATLARNI O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlarning ma'naviy madaniyatini yuksaltirish, zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan kelajak avlodni tarbiyalash, ularning qalbida milliy qadriyatlarimizga sadoqat tuyg'usini shakllantirish haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: yoshlar, ma'naviyat, madaniyat, konservativ, gumanistik, texnokratik yondashuv, kosmopolitizm, "besh muhim tashabbus" milliy va diniy qarashlar, siyosiy madaniyat, axloqiy madaniyat.

Kirish. Ma'naviy madaniyatning jamiyatda mavjud bo'lishi, o'zini namoyon qilishi madaniy qadriyatlarni yaratishda insonning biologik tur sifatida o'ziga xos jihatlarni ajratib turadi. Insondagi biologiklikdan tashqari ijtimoiylik bilan uyg'un tarbiya jarayonini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Yoshlar ma'naviy madaniyatning mohiyati insoniyat tarixiy rivojlanishi jarayonida ijtimoiy ong shakllarida namoyon bo'lib kelgan. Tarixiy rivojlanishda insoniyat taraqqiyoti turli qarama-qarshi ikkita tendensiya asosida namoyon bo'lgan. Bir tomondan, inson borlig'ining individualligi va boshqa tomondan, jamiyatdagi integratsion jarayonlarning kuchayishi, shakllanishi odamlarning transmilliy jamoalarda uyushishidir. Shu boisdan yoshlarda ma'naviy madaniyatga nisbatan shakllanayotgan "yangicha falsafiy tafakkur kishining tashqi olam narsa va hodisalariga butunlay yangicha munosabatda bo'lishini taqozo etsa, yangicha siyosiy tafakkur esa ijtimoiy hodisalarga bo'lgan munosabatlarda umuminsoniyatning tarixiy tajribalaridan kelib chiqib, umuminsoniy qadriyatlarga umuminsoniy manfaatlar nuqtayi nazaridan yondashilishini nazarda tutadi"[1]. Shuning uchun jamiyat va shaxs dialektik o'zaro bog'liq va bir-biriga aloqador jarayonlarni ifodalaydi.

Yoshlarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda qadriyatlar bilan uyg'unlashgan quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega. Bular: konservativ, gumanistik, texnokratik mantiqsiz yondashuv. Mazkur umumiy tamoyillarga asoslangan yo'nalishlarning har biri inson, tabiat va jamiyatga nisbatan falsafiy dunyoqarashni shakllantirish, muayyan xususiyatlarga e'tiborni qaratish singari o'ziga xos tarbiya modelini yaratadi.

Bugungi O'zbekiston yoshlarida ma'naviy madaniyatning shakllanishidagi asosiy omil bu erkin

shaxsning kamol topishi uchun xizmat qiladigan muhim yo'nalish insonparvarlik qadriyatlaridir. Yoshlar ijtimoiy ongida ta'limni insonparvarlashtirish jarayon bilan bog'liq bir qator tamoyillar mavjud. Bular:

– yangi ijtimoiy va tabiiy muhitdagi avlodlar tomonidan yoshlarga hurmat ruhida munosabatning tan olinishiga xizmat qiladigan ijtimoiy himoya, qadr-qimmat va huquqlarning jamiyatda e'zozlanishi;

– yoshlarning yangi avlod su'byektlari sifatida jamiyat tomonidan yaratilgan shart-sharoitlarga yondashuviga qaratilgan o'zini o'zi belgilash, o'zini anglash hayotini yaratishga moyil qobiliyatlarni rivojlantirish;

– ta'lim tizimida shaxslararo munosabatlarni insonparvarlashtirishda o'quvchilar, ota-onalar va bolalar, o'qituvchilar va talabalar tamoyillari asosida hurmat, rahm-shafqat, bag'rikenglik, mehr-oqibat singari insoniy tuyg'ularni kuchaytirish.

Ta'lim jarayonidagi insonparvarlik yoshlar ongining o'zgarishiga imkon beradi. Bunda ta'lim bug'inlaridagi yoshlarning qiziqishlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda, aholining turli qatlamlari ijtimoiy muhitini o'rganish, milliy g'oyaga asoslangan falsafiy tafakkurni rivojlantirish muhim fuqarolik pozitsiyasi hisoblanadi.

Globalashuv davrida ma'naviy madaniyatning jamiyat rivojida yangilanib borishi jarayonida inson, millat, xalqning ijtimoiy ongi va tafakkurida o'ziga xos milliy qadriyatlarga asoslanishi aks etgan. Unda jahon yoshlari ma'naviy olamida namoyon bo'layotgan o'zgarishlarning ijobiy va salbiy jihatlarni o'rganish, bu boradagi islohotlarni yangi O'zbekiston sharoitida takomillashtirish masalalari o'rin olgan.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yoshlarning milliy mentalitetiga mos ijtimoiy-madaniy muhitni yaratishga qaratilgan jarayon boshlandi. Ularning ma'naviy madaniyatini yuqori darajada zamonga moslashtirish, innovatsiyalarga asoslangan sharoitlar yaratish borasida keng ko'lamli izchil ishlar davom etmoqda. Ta'limni sifat jihatdan yaxshilash, mazmunan dunyo tajribasi bilan uyg'unlashtirish, undagi mavjud g'oyalar, ehtiyojlar, ideallarni milliy mentalitetga xos tarzda amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Jamiyatda yoshlar uchun ma'naviy madaniyatga mos ijtimoiy-madaniy makon yaratish, ta'limning barcha bug'inlarida yoshlar tarbiyasini o'zida mujassam etgan rivojlanish darajasi, uning manfaatlari va ehtiyojlarini qoplash tizimi shakllandi.

Ta'limning inson hayotida qanchalik muhimligi, uning savodli bo'lishi jamiyatda mavjud keng ko'lamli ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beribgina qolmasdan, ma'naviy madaniyat darajasining yangilanishiga xizmat qiladi. Shu boisdan, yoshlarni milliy qadriyatlariga oshno qilib kamol toptirish, milliy mentalitetida ajdodlar mersiga ixlosmandlik tuyg'ulari aks etishi lozim. Ularda mentalitet, ajdodlar merosiga e'tiqod, o'tmish qadriyatlariga zavqiy munosabat kuchayishi, shu asosda ma'naviy madaniyatning har bir elementlariga ehtiyoj uzluksiz bo'lishi kerak. Shu boisdan jamiyatda "milliy qadriyatlarimiz, sharqona axloq-odob va milliy mentalitetimizni inobatga olgan holda jahon sivilizatsiyasi darajasida bilimdon, ma'lum kasb-hunarga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish uchun demokratik tamoyillarga asoslangan tarbiya va ta'lim isloh qilindi"[2].

Insoniyat ma'naviy madaniyatning ertasini translyatsiya qilishdan qochishi, yuksak darajada rivojlangan robotlar jamiyatini yaratishi kerak emas. Balki barcha narsadan ustunlikka ega, voqelikni hissiyot va mustaqil fikrlash orqali tahlil etadigan fozil odamlar jamiyatini afzal ko'rishi lozim. Odamlar kelajakka ishtilishi kerak, lekin orqaga qarab, o'zining teran ildizlardan ajralmasdan, ular bilan birga rivojlanishi dardkor.

Yoshlar ma'naviy madaniyatni rivojlantirishda falsafiy kategoriyalar va dialektik qonunlar muhim bo'lib, bu o'zaro bog'liqlik mazmundagi funksional o'zgarishlarga xizmat qiladi. Madaniy jarayonning tarkibiy elementlari, uning ichki mohiyatida shakl va mazmun milliy mentalitet negizida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda yoshlarimiz mentalitetidagi funksional o'zgarishlar namoyon bo'lishining asosiy shakllari mavjud. Birinchidan, submadaniyat nuqtai nazaridan sobiq ittifoq davrida yoshlarning madaniy faoliyati, ijtimoiy ongi, mafkuraviy qarashlariga ta'sir ko'rsatgan sovet madaniyatining muhim ko'rsatkichlari bo'ldi. Ushbu jarayonda yoshlarning axloqiy ongi, milliy mentalitetida davr mafkurasining hukmron g'oyasi mustahkam joy oldi. Ikkinchidan, yoshlarning ma'naviy madaniyati mustaqillik davrida milliy mentalitetni rivojlantirishga qaratildi. Shu bilan birga jamiyatda yoshlar faoliyatida g'arbga intilish kuchayib, yangi madaniyat elementlarining kirib kelishi natijasida ma'naviy madaniyatdagi funksional o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ayniqsa, G'arb ommaviy madaniyatidagi stereotiplar va kosmopolitizm g'oyalari yoshlar tomonidan qadriyat sifatida qabul qilina boshlandi. Bunday ijtimoiy-madaniy tafakkur xalqimiz dunyoqarashiga yot g'oyalar sanaladi. Ayniqsa, "kosmopolitizm g'oyasi o'zbeklarning mentalitetiga to'g'ri kelmaydigan buzg'unchi g'oyadir. Chunki, unga ergashish mustaqilligimizdan mahrum bo'lish demakdir. Biz uchun bu yorug' jahonda o'zbeklarning yashaydigan joyi bitta – bu ham bo'lsa – mustaqil O'zbekiston davlatidir"[3]. Yoshlarning bu madaniyatga ergashishi ijtimoiylashuv sifatida badiiy va estetik timsollarda amalga oshirildi.

Yoshlar ma'naviy hayotida sodir bo'layotgan xilma-xil o'zgarishlar, ijtimoiy jarayonlar bevosita yangi O'zbekiston madaniyatining falsafiy muammolarini

globallashuv bilan uyg'un ravishda umumnazariy tarzda tushunish, ma'naviy madaniyatni yangi bosqichga olib chiqish uchun xizmat qiladi. Jamiyatdagi sodir bo'ladigan o'zgarishlar bevosita ham madaniyat, ham ma'naviyat, ham ijtimoiy hayotning mafkuraviy jihatlarini o'zida ifodalaydi. Ijtimoiy muhitda yuzaga keladigan muammolarni o'rganish, yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy institutlar faoliyatidagi rolini aniqlash, o'ziga xos sotsiologik so'rovnomalarni talab etadi. "2021 yil iyun-avgust oylarida Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridagi 645 nafar respondentlarga bir qator savollar bilan murajaat qilindi. Jumladan, so'rovnoma orqali yosh respondentlarga berilgan savollarga qo'yidagicha javoblarni berishdi. Sizningcha, ma'naviy madaniyat tizimiga nimalar kiradi? degan savolga 65,6 % ishtirokchilar xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlari, urf-odatlar, an'analari va ma'naviy boyliklar deb, 24,4 % ishtirokchilar madaniy meros obyektlari, masjid va madrasalar deb, 8,3 % ishtirokchilar moddiy boyliklar va inson yashashi uchun zarur mahsulotlar deb, 1,7 % ishtirokchilar qiziqmayman deb javob berishgan. Javoblardan ko'rinish mumkinki, yurtimiz yoshlari bugungi kunda ilm-ma'rifat va o'tmish merosimiz bilan bog'liq jarayonlarga befarq emas"[4]. Bu esa, yoshlarimiz o'zlarining ma'naviy madaniyatini o'rganishga qiziqib borayotganligi, joylarda xalqimizning ma'naviyati yuksalib borayotganligini ko'rsatib bermoqda.

Jamiyatdagi yangilanish jarayonlarida yoshlarning individual faoliyati, tabiiy ehtiyojlardan kelib chiqib o'z erkinliklarini namoyon etishi ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy xizmat qiladi. Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, an'anaviy boshqaruv tizimidagi munosabatlarni meyoriy-huquqiy normalar asosida tadrijiy rivojlanishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun mavjud muammolarni davlat islohotchiligi asosida yoshlar manfaatlarini o'lida tizimli amalga oshirish, har bir sohada yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash har bir davlat rivojida muhim ahamiyatga ega. Globallashuv jarayonida ilm-fan va ta'lim sohasidagi o'zgarishlar bevosita yoshlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatib, bunda milliy ommaviy axborot vositalarining rolini oshishi, turli axborotlashgan jamiyatdagi ma'lumotlarni yangicha mexanizmlarga asoslanib tarqatish kuchaydi.

Jamiyatda yoshlarning demokratik tamoyillar asosida yashashi va innovatsion muhitda kamol topishi uchun zamonaviy bilimlarni birlashtirgan ijtimoiy-madaniy faoliyatga mos yoshlarning yangi avlod dasturlari vujudga keldi. Mana shunday dolzarb ahamiyatga molik, yoshlarning barcha qatlamlarini qamrab olgan "Besh muhim tashabbus" jamiyatning barcha sohalari rivojiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Jamiyatda ushbu tashabbus doirasida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan institutsional tizim shakllanib, yoshlarga keng ko'lamli imkoniyatlar yaratildi. Natijada yoshlar faslaviy dunyoqarashida ijtimoiy masalalarga yechim topilib, davlatning jahondagi nufuzini yanada mustahkamlash uchun mamlakat bo'lab yangilanish jarayoni boshlandi. Nafaqat jamiyatdagi yangicha qiyofa, yoshlarning milliy tafakkuridagi kelajakka ishonch tuyg'ularining ezgu ro'yobi uchun zamin paydo bo'ldi. Ushbu tashabbus yoshlarning ma'rifiy-madaniy kamoloti bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarga nisbatan yuksak insonparvarlik, tarixan shakllangan millat an'analarni ma'naviy tajriba asosida ulug'lash, yoshlarni erkin fikrlashga yo'naltirgan tizim sifatida demokratik islohotlarni amalga oshirishga imkoniyatlar yaratdi. Yoshlarning milliy g'ururini har qanday ko'rinishdagi ma'naviy tahdidlardan asraydigan milliy g'oya asosida butun xalqning targ'ibotiga, turli yoshlar ma'naviy madaniyatini birlashtiradigan kuchga aylanib, mustahkam e'tiqodli avlodni tarbiyalash vazifasini bajaradigan tizim sifatida namoyon bo'ldi.

Xulosa va takliflar. Besh muhim tashabbus negizida jamiyatda yoshlar ma'naviy madaniyatini isloh qilishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratildi:

– yosh avlod faoliyatida demokratik islohotlar rolini mustahkamlashga adabiyot va san'atning mavqeini yanada oshirish, barcha sohalarida izchil va rejali tarzida teatr, rassomchilik va san'at yo'nalishlarida iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularning noyob qobilyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishga e'tibor qaratish;

– jahon yoshlari bilan sportning barcha turlari bo'yicha raqobatlasha oladigan yosh avlodni kamol toptirish asosida ijtimoiy faol va harakatchan, chaqqon va epchil, har qanday sport turlarida o'zini namoyon qila oladigan, o'zgarishlarga bardoshi, chidamli, mard va jasur farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazish;

– jamiyatda yoshlar aqliy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan kompyuter texnologiyalari sohasidagi

bilimlarni oshirishga doir munosabatlarga qiziqishini kuchaytirishni nazarda tutadigan, milliy qadriyatlar va insonparvarlikka asoslangan avlodni voyaga yetkazish;

– yoshlarning yuksak ma'naviyatini shakllantirishga xizmat qiladigan shaxsni tarbiyalashda ijtimoiy ehtiyojlar va ma'naviy madaniyatni mentalitetga mos holda kamol toptiradigan kitob mutolaasi jarayonini har bir hududni rivojlantirishga doir falsafiy tafakkurni boyitish;

– jamiyatda xotin-qizlarning rolini mustahkamlashga doir izchil chora-tadbirlar rejasini uzluksizligini ta'minlash va shu asosda har bir ish bilan band bo'lmagan qizlarning faoliyatini yo'lga qo'yishga bog'liq bo'lgan innovatsion loyihalar negizida yangi ish o'rinlarini yaratish.

Mazkur tashabbuslarni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish, ularning ma'naviy madaniyat tizimidagi rolini ochib berish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Карим Т. Миллий тафаккур тараққиётидан. –Тошкент: Чўлпон, 2003. 146-бет.
2. Ғайбуллаев О. Эстетик маданият. –Тошкент: Наврўз, 2020. 165-бет.
3. Яхшиликков Ж., Мухаммадиев Н. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. –Тошкент: Чўлпон, 2018. 320-бет.
4. Социологик сўров муаллиф томонидан тайёрланган ҳамда Қарши давлат университети Миллий ғоя, маънавият асослари кафедрасининг 2021 йил 14 сентябрдаги № 1А-сонли йиғилишида маъқулланган дастур ва анкета асосида 2022 йилнинг сентябрь-октябрь ойларида Самарқанд ва Қашқадарё вилоятларининг 5 та ташкилотида жами 655 нафар респондент орасида ўтказилган.
5. Haqqulov N., Xolmurodova Z. O'quvchi yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish dar talabi // Ijtimoiy fanlarni o'qitishning dolzarb masalalari: muammolar, yechimlar va istiqboldagi rejalar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Samarqand: 2017. 74-бет.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –Toshkent: O'zbekiston, 4-jild, 2020. 409-бет.
7. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. 228-бет.



Gulsora BO'RIYEVA,
Toshkent Iqtisodiyot va pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: Farhod@gmail.com

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti, p.f.b.f.d.(PhD), dotsent F.Yakubov taqrizi asosida

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING TA'LIM SOHASIGA NOVATSIYA VA INNOVATSIYALARNI KIRITISH MUAMMOLARI

Аннотация

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya ta'lim tizimi uchun zarur bo'lgan, novatsiya (yangilik) va inovatsiya (yangilik kiritish) tushunchalari keng qamrovli yoritib berilgan. Jismoniy tarbiya ta'lim tizimidagi innovatsion texnologiyalarning assosiy negizi o'qituvchi va o'quvchilarning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun oldindan ta'lim jarayonini loyihalash lozimligi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: inovatsiya, novatsiya, pedagogik inovatsiyalar, jismoniy tarbiya pedagogikasi, texnologiya, inovatsion faoliyat.

ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ НОВАЦИИ И ИННОВАЦИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНУЮ СФЕРУ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация

В данной статье комплексно раскрыты понятия новация (новизна) и инновация (инновация), необходимые для системы физического воспитания, дана информация о необходимости заранее спроектировать учебный процесс так, чтобы они могли добиться гарантированного результата в сотрудничестве.

Ключевые слова: инновация, новация, педагогические инновации, педагогика физического воспитания, технологии, инновационная деятельность.

THE PROBLEMS OF INTRODUCING INNOVATIONS AND INNOVATIONS INTO THE EDUCATIONAL SPHERE OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Annotation

In this article, the concepts of novation (newness) and innovation (innovation), which are necessary for the physical education education system, are comprehensively covered. Information was given about the need to design the educational process in advance so that they can achieve a guaranteed result in cooperation.

Key words: innovation, novation, pedagogical innovations, physical education pedagogy, technology, innovative activity.

Bugungi kunda mamlakatimizni dunyo sahnasiga olib chiqishda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati kattadir. Ayniqsa sportda erishayotgan natijalarimiz xalqimizning buyuk o'tmishini, madaniyatini dunyoga tanitmoqda. Bu bizga rivojlangan mamlakatlar tomonidan tan olinish imkoniyati beradi. Qolaversa, xalqimizning g'ururi yuksaladi. G'ururli, mag'rur, irodali insonni hech kim, hech qanday oqim yoki kuch zabt eta olmaydi.

Qachonki inson o'zini biror ishini, ya'ni mayl va istaklarini, maqsad qilgan ishini amalga oshirishga yo'naltira olsagina o'z ustidan g'alaba qozonishi mumkin. "O'z ustidan g'alaba qozonish deganda, men o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini intizomga o'rgatish, ayrim kamchilik va nuqsonlardan xalos bo'lish, sinovlarni yengib o'tishni nazarda tutaman". Insonning o'z mustaqil fikriga ega bo'lishi, maqsad qilgan ishini amalga oshira bilishi matonatli ekanligidan dalolat beradi. Matonatli inson doimo o'z millatining birligi va erkinligi uchun barcha ishlarni qilishga qodirdir. Chunki o'ziga ishongan inson kimdandir madad yoki himoya kutib yashamaydi. U barcha maqsadlarini o'z kuchi orqali amalga oshirib, boshqa insonlar oldida ahamiyatini, qadrini namoyish etadi. Natijada insonda faxr, iftixor va g'urur tuyg'ulari shakllanadi. O'z navbatida, bu tuyg'ularning bir millat yoki bir mamlakatda yashayotgan millatlarda aks etishi shu mamlakat xalqining qudratini ko'rsatadi. Bu borada jismoniy tarbiya va sportning o'rni va roli ulkan bo'lib, davlatimiz tomonidan joylarda olib borilayotgan sportni rivojlantirishga doir islohotlar sportni yanada rivojlanishiga olib kelmoqda. Avvalo, bu islohotlarni amalga oshirishda xalqimizning

ruhiyatiga monand olib borilishi nihoyatda muhim o'rin tutadi. Chunki joylarda xalqimizning yangi sport turiga munosabati, uni qabul qilishi aynan shu sport turining rivojlanishini belgilab beradi.

Ana shu ezgu maqsadlarni amalga oshirish mamlakatimiz mustakil tarakkiyot yo'lidagi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan etib belgilandi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida yosh avlodni yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va tafakkurga ega, ayni paytda sog'lom turmush tarziga rioya kiladigan, jismonan sog'lom, ruhan tetik insonlar qilib voyaga yetkazishning samarali tizimi hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Bu jarayonda o'g'il-qizlarimizni jismonan sog'lom, kuchli iroda va yuksak intellektual salohiyatga ega insonlar qilib tarbiyalashning bosh omili, o'zbek sportining kelajagi, xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirishning asosi bo'lgan bolalar sportini rivojlantirish umummilliy harakatga aylandi.

Albatta, bozor munosabatlariga iqtisodiy omillarning tanho o'zi bilan o'tib bo'lmaydi. Bu sohada ma'naviyatning ahamiyati behad katta. Odamlarda imon, vijdon, halollik, bironing haqini yeyishdan qo'rqish, odamgarchilik, mehr-muruvvat, diyonat singari sharqona ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xislat va fazilatlarini shakllantirmasdan, mustahkamlamasdan turib, bozor munosabatlariga muvaffaqiyatli ravishda o'tib bo'lmaydi.

Jamiyatda yangi iqtisodiy qadriyatlar tizimini shakllantirishda kishilarning ruhiyatini o'zgartirish, ularda islohotlarning talabiga mos keladigan yangi tafakkur tarzini shakllantirish nihoyatda muhim. Agar kishilarning ongida

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatlariga ishonch ruhi paydo bo'lmagan ekan, unda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirishning iloji yo'q.

Bu borada Vatanga sodiq, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, yetuk tafaakkurga ega bo'lgan ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash barcha davrlarda davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omillardan biri bo'lib kelgan. Zero, insonni shaxs sifatida shakllanib borishida ta'lim-tarbiya hamda ilmiy-tadqiqotlar asosida shakllanadigan ko'nikmalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. O'zbekistonda ushbu tizim doirasida bugungi kunga qadar bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Xususan, kadrlar tayyorlash qonuni va milliy dasturining qabul qilinishi sohaning rivojlanishida muhim qadamlardan biri bo'lib kelmoqda.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi – bu insonlarning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellektual va axloqiy rivojlanishidir. Bugungi kunda inovatsion texnologiyalar inson faoliyatining ajralmas qismiga aylanganligi hammamizga ma'lumdur. Inovatsion texnologiyalar natijalarni yaxshilashga yordam beradi, sport bilan shug'ullanish uchun qulaylik yaratadi, shuningdek jismoniy mashqlar samaradorligini oshiradi. Hozirgi kunda keskin raqobat sharoitida inovatsion texnologiyalar va ilm-fanni yanada rivojlantirish iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun ularga zarur shart- sharoitlar yaratish muhimdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Boshqa ta'lim sohalaridagi kabi jismoniy tarbiya ta'lim tizimida ham "inovatsiya", "inovatsiya" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi. V.I.Zagvyazinskiyning e'tirof etishicha novatsiya tushunchasi nafaqat muayyan g'oyani, balki hali amalyotda foydalanilmagan yondashuv, metod hamda texnologiyalarni ham ifodalaydi. Ammo bunda jarayon elementlari yaxlit yoki alohida olingan elementlardan iborat bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoit va vaziyatda ta'lim-tarbiya vazifalarini samarali hal etish g'oyalari o'zida aks ettiradi. Innovatsiya - maqsadga yo'naltirilgan o'zgarishlar bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy birlikka, muassasa, uyishma, jamoa va guruhlariga yangi va barqaror bo'lgan elementlarni umumiy holda xalqning ma'naviy-madaniy munosabatlarini va mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yangiliklarni kiritishdir. Ta'lim innovatsiyalari ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Barcha amalyotdagi o'qituvchilar bilganidek o'qituvchining eng asosiy vazifasi o'quvchiga vaqtida kerakli motivatsiya bera olishidir.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijalarni olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyon har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

I.P.Podlasiyning fikriga ko'ra, jismoniy tarbiya ta'lim tizimidagi inovatsiyalar quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi-T. "O'zbekiston" NMIU, 2018. B 19-20.
2. Насреддинов Ф., Шатерников Э., Казакова Р. Игры – дело серьезное/Народное слово, 29.03.1994.
3. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры /Учебник для вузов ч.1.-Москва: 2004.-С.-177.
4. Керимов Ф.А. Спорт сохасида илмий таджикотлар.//Дарслик.Т:Zar qalam, 2004.-344 б.
5. Salamonov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati.Darslik.T:ITA-PRESS, 2015.-296 b.
6. Виленский М.Я., Горшков А.Г. Физическая культура: учебник. - Москва: КНОРУС., 2020, - 214 с.
7. Гонашвили А.С., Васильев И.А., Шопулатов А.Н., Тевари С., Иван Е. Спортда халоллик ва ахлокийликни таъминлаш масалалари.//Фан-спортга. 2021.№ 1. Б.3-5.

- Pedagogik tizimning o'zgarishiga;
- O'quv jarayonining o'zgarishiga;
- Pedagogik nazariyaning o'zgarishiga;
- O'qtuvchi faoliyatining o'zgarishiga;
- Talaba faoliyatining yangilanishiga;
- Pedagogik texnologiyaning o'zgarishiga;
- Ta'lim mazmunining yangilanishiga;
- O'qitish shakl, metod va vositalarning o'zgarishiga;
- Ta'lim tizimi boshqaruvining o'zgarishi;
- Ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishi.

V.A.Slastenin inovatsiyani yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo'naltirilgan jarayonlar majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko'ra har qanday inovatsiya yangi vosita yordamida ijtimoiy subyektlarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag'batlantirish maqsadni ko'zlaydi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni hammasi jismoniy tarbiya ta'lim tizimiga inovatsion va novatsion tushunchalar qanchalik muhim ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Natijalar va muhokamalar. Bugungi kunda pedagoglarning inovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan inovatsion faoliyat ko'nikma va malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning inovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi. Har bir jismoniy tarbiya o'qtuvchisi dars mashg'ulotlari jarayonida kreativlik yondashuvi asosida o'quvchilarida darsga qiziqtirish yo'llarini topa olishi lozim. Bu borada, mashhur ruhshunos olim Deyl Karnegi "Insonni biror ishni bajarishga undash va qiziqtirishning yagona usuli mavjud. U ham bo'lsa, o'sha inson qalbida ishni bajarishga chinakam ishtiyoq uyg'otishdir. Majburlov va qiynoqlar ish bermaydi". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida tubdan yangilanishga qaratilgan inovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi. Yangi fikr, yangi g'oya, innovatsiyasiga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya-bu kelajakdir" – degan fikrlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bugungi ta'lim sohasini innovatsiyasiz tasavvur qilish qiyin albatta.

O'z navbatida, jismoniy tarbiya o'qituvchilarini davr harakteridan kelib chiqib, ularni innovatsion faoliyatga tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish zaruratining oshib borishi va ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilar faoliyatini boshqarish eng avvalo, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining bevosita barkamol shaxs tarbiyasiga yo'naltirilishi bilan uzviy bog'liq ekanligini unutmaslik zarur.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin Pedagogik inovatsiyalar barcha ta'lim sohalarida, shuningdek jismoniy tarbiya ta'lim sohasida yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko'ra ta'lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O'qtuvchining inovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lib, ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Jismoniy tarbiya tizimiga kiritilgan novatsiya kelajakda o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotida izchil o'rin tutishi aniq.



Tamara DJUMANIYAZOVA,

O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali dotsenti v.v.b

E-mail: tamara_70@mail.ru

Gulbaxar BABAJANOVA,

O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali Assistent o‘qituvchisi

E-mail: guliya-2023@mail.ru

QDU Pedagogika fanlari nomzodi N.Kaypov taqrizi asosida

ANALYSIS OF THE FEATURES OF PHYSICAL FITNESS IN RHYTHMIC GYMNASTICS

Annotation

This article describes the features of physical fitness in rhythmic gymnastics its importance, analyzes of the physical and physiological, pedagogical aspects of athletes, which should be paid attention to in the process. In particular, on the issues of special and general physical training, its reflexive effectiveness, coordination of the ability of athletes to adapt and the importance of developing endurance during training, issues of scientific analysis, implementation of the scientific theory of World Scientists into practice are discussed.

Keywords: body Gymnastics, functional base, dynamic compatibility, competition, composition, sensor, muscles, vestibular apparatus, balance, passive, active exercises.

АНАЛИЗ ВЗГЛЯДНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВНОСТИ В СПОРТИВНОЙ ГИМНАСТИКЕ

Аннотация

В данной статье излагаются особенности физической подготовки в художественной гимнастике, ее значение, анализируются физические и физиологические, педагогические аспекты спортсменов, на которые следует обратить внимание в процессе. В частности, будут рассмотрены вопросы научного анализа преимуществ специальной и общей физической подготовки, ее рефлексивной эффективности, координации адаптивных способностей спортсменов и значимости развития выносливости во время тренировок, практического применения научных теоретических разработок мировых ученых.

Ключевые слова: художественная гимнастика, функциональная база, динамическое соответствие, соревнование, композиция, сенсор, мышцы, вестибулярный аппарат, равновесие, пассивный, активные упражнения.

BADIY GIMNASTIKADA JISMONIY TAYYORGARLIK KO'RISH XUSUSIYATLARI TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy gimnastikada jismoniy tayyorgarlik ko'rish xususiyatlari uning ahamiyati, jarayonda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan sportchilarning jismoniy va fiziologik, pedagogik jihatlarini haqida tahlillar bayon etiladi. Jumladan Maxsus va umumiy jismoniy tayyorgarlikning avzalliklari, uning refleksif ta'sirchanligi, sportchilarning moslashuvchanlik qobiliyatini muvofiqlashtirish va mashg'ulot davomida chidamlilikni rivojlantirishning ahamiyatlari xususida ilmiy tahlillar, jahon olimlarining ilmiy nazariyalirini amaliyotga tadbiq etish masalalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Badiy gimnastika, funktsional baza, dinamik muvofiqlik, raqobat, kompozitsiya, sensor, mushaklar, vestibulyar apparat, muvozanat, passiv, faol mashqlar.

Kirish. Badiiy gimnastika sport turi orqali juda ko'p narsalarni ifodalab berish mumkin. Avvalo sportchi jismonan tayyorlangan bo'lishi, mashqlarni texnik jihatdan mukammal ijro etish kerak boladi. Insonning rivojlanish xususiyatlariga nazar tashlaydigan bo'lsak uning dastlabki jismoniy harakatlari oldin emaklashdan, keyin esa tetapaya qilishni, yurishni va oxirida chiroyli qadam tashlab yurishni organadi. Demak badiiy gimnastikada ham o'quvchilar dastlab jismoniy tayyorlanishi va o'z ishiga fidoyiligi shu kabi xususiyatlarni o'zlashtirishi lozim bo'ladi. Respublikamizda bugungi kunda sport turlari shu darajada yuqori cho'qqilarga erishganki, bunday natijalarga faqatgina sportchining iqtidor bilan erishib bo'lmaydi [15]. Sababi, har qanday sportchi muvofaqqiyatining zamirida nafaqat uning iqtidori, balki, fidoyilik, mehnatsevarlik kabi mashaqqatlar yashiringan, asosiysi sportga ilmiy yondashuvlar, faollik va boshqalar turadi. shuning uchun ham musobaqalarda sport ustalarining mahorat bilan chiqishlarini ko'rgan, tomoshabin ko'pincha bunday mahoraga qanchalik qiyinchilik bilan uzoq vaqt mobaynida erishilganligini sezmaydi [14]. Badiiy

gimnastikada ham mahorat har bir harakat aniq va musiqa bilan hamnafas bajarilib tomoshabinga ma'lum fikrni yetkazib bera olishi talab etiladi.

Aslini olganda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari odatda umumiy va maxsus tarzda olib boriladi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik gimnastikada mashg'ulotning fon turi bo'lib hisoblanadi. Aynan umumiy jismoniy tayyorgarlik yosh sportchilar bilan ishlashdan boshlanadi. Sababi kelajakda umumiy jismoniy tayyorgarlik malakali gimnastikachilar uchun muhim mashg'ulot vositasiga aylanadi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik sportchining tanasiga, kompleks ta'sir etib, yuqori natijalarga erishishda zarur bo'ladigan qobiliyatlarni takomillashtirishni, motor xususiyatlarini yaxshilashni va ular orqali inson tabiatning "funktsional bazasini" yaratib, tanani yaxshilash, toza havodan nafas olish kabi organizm ushuncha zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishni o'rganadi [1]. Eng asosiysi umumiy jismoniy tayyorgarlik nafaqat sportchining jismoniy tayyorgarligini oshirishga yordam beradi, balki undagi ijobiy fazilatlarining rivojlanishini ham tezlashtiradi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik bu ma'lum bir sport turidagi mashqlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish va sifatli bajarish uchun zarur bo'lgan jismonan rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik texnikalari sportchining jismoniy dinamik xususiyatlari va ishlash tartibi shug'ullanadigan sport turiga va yaratilgan sharoitlariga imkon qadar yaqin bo'lishi kerak. Bu dinamik muvofiqlik printsipli deb nomlanuvchi tavsiflarda ifodalanadi [3]. Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg'ulot texnikalarining asosiy sport mashqlari bilan o'xshashlik mezonlari amplitudasi va harakat yo'nalishi, muayyan kuch va uning namoyon bo'lish vaqti, mushaklarning ishlash tartibi kabi ko'rsatkichlarning yaxshilanishini ta'minlaydi. Ma'lumot o'rnida aytish joiz sportchining jismoniy tayyorgarligi va malakasiga qarab, umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlikka ajratilgan vaqt taqsimoti har xil bo'lishi mumkin, bu esa sportchining ko'p yillik tayyorgarlik davrida yuzaga chiqadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon olimlarining ilmiy farazlariga nazar tashlaydigan bo'lsak Yu.V. Verxoshanskiy (1988), maxsus jismoniy tayyorgarlik masalalarini yoritgan holda, "sportchining ish qobiliyati qanchalik yuqori bo'lsa, u mashg'ulot yuklarini shunchalik yaxshi va kuchliroq qabul qiladi" [1]-deb e'tirof etib, bu orqali sportchi mashg'ulotlarga tezroq moslashishini, yuqori mahorat darajasiga va sport texnikalarini mukammal rivojlantirishga erishish mumkin ekanligini aytib o'tadi. Buning uchun mashg'ulotning asosiy vazifalarini bajarishda kuch imkoniyatlarini oshirish, chidamlilik, epcillik, jismoniy tayyorgarlikning zarur masalalarini teng hal qilish zarur bo'ladi. Bunda tana holatini to'g'ri tarbiyalash, muayyan mushak turlariga e'tibor berish, sarflanadigan kuch miqdorini maksimal darajada sarflash irodasini tarbiyalash, bo'g'imlarning elastikligi va harakatchanligini yaxshilash, iroda va qat'iyatlilikni tarbiyalash zarur hisoblanadi.

Badiiy gimnastikada jismoniy tayyorgarlik jarayonida turli xil murakkab mashg'ulotlarni bajarish jarayonida muvozanatni saqlash ko'nikmalarini tarbiyalash ularning jismoniy faoliyatini takomillashtirishning muhim qismi N. V. Gerasimova (1981)ning tahliliga ko'ra, "...teskari aloqaning optik kanalidan foydalangan holda tanadagi tebranishlarni kamaytirish qobiliyati muvozanatni saqlash samaradorligini oshiradi va umumiy harakatni boshqarishni osonlashtiradi" [6]. Standart sharoitlarda bajariladigan harakatlarning fazoviy aniqligini takomillashtirish, harakat texnikasining talablariga javob beradigan parametrlarini takrorlash orqali amalga oshiriladi.

Badiiy gimnastikada o'quvchilarning harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyatini tarbiyalash usullari sifatida J. K. Xolodov va V. S. Kuznetsov (2001)lar mashqni takror bajarish usuli, qarama-qarshi vazifalarni bajarish usuli, vaqt, makon va mushaklarning o'zgarishiga monand mashg'ulotlarni bajarish usullarni qo'llashni taklif etadi. Mualliflarning fikricha ko'ra, "muvofiqlashtirish mashqlari charchoq fonida kichik ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun turli xil muvofiqlashtirish qobiliyatlarini tarbiyalash boshqa jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak" [4]ligi va bular darsning birinchi yarmida bajarilishi lozimligini ta'kidlab o'tadi. Chunki o'quvchilardagi barqarorlikni yaxshilashga eng moyil bo'lgan yosh davri 7 yoshdan boshlanadi va 13 yoshga kelib organizmda o'zgarishlar yuzaga kelishi aytib o'tiladi. Mazkur nazariya badiiy gimnastikada texnik faoliyatni rivojlantirishga va harakatlarni oson o'zlashtirishga yordam beradi.

Badiiy gimnastikada zarur bo'lgan yana bir muhim sifat bu umumiy chidamlilikdir. Bu bo'yicha N. V. Zimkin (1987) "sportchilarning ish faoliyatini yaxshilash va musobaqalarda qatnashish samaradorligini oshirishning eng

muhim sharti sifatida ajralib turadi"-deb aytib o'tadi. E. N. Zaharov, A. V. Karasev (1994) chidamlilikni "...mushaklar faoliyatini uzoq vaqt ushlab turish va charchoqqa qarshi turish qobiliyati" – sifatida belgilab, charchoqqa qarshi turish, kompozitsiyani ijro etish jarayonida aniqlikni yo'qotmasdan bajarish texnikasining mukammalligini ta'minlovchi zarur sifat [2] ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Badiiy gimnastikada mashg'ulotlarning har bir bosqichida sportchi namoyish qilishi kerak bo'lgan elementlar kompleksini o'zida singdirib boradi. Bunday jismoniy yetuklik, gimnastikada zarur bo'ladigan texnikalarning manipulyatsiyasiga bo'lgan ehtiyojlarning rivojlanishi bilan belgilanadi [5]. Sababi raqobat qoidalarining ushbu talabini bajarish moslashuvchanlikning namoyon bo'lishining faol va passiv shaklini takomillashtiradi.

Faol moslashuvchanlik mushaklarning sa'y-harakatlari tufayli mashqlarni mustaqil bajarish paytida amplitudaning yuqoriligi bilan tavsiflanib, u raqobatbardosh kompozitsiyalarda faol moslashuvchanlik juda ko'p namoyon bo'ladi. Passiv moslashuvchanlik, tashqi kuchlar ta'sirida erishilgan harakatlar amplitudasining maksimal qiymati bilan tavsiflanadi. sportchi uni faqat passiv moslashuvchanlikning etarli darajada rivojlanishi va ma'lum darajadagi kuch qobiliyatlari bilan namoyish qilishi mumkin.

Bir qator mutaxassislar mashg'ulot jarayonida cho'ziluvchanlik mashqlarini kichik seriyalarda, 5-10 daqiqa davomida ishlatishni taklif qilishadi, lekin ko'pincha bu mashqlar bajarilgandan keyin effektidan foydalanish mumkin ekanligi ta'kidlanadi. Bunda mashqlarning hajmi va intensivligi asta-sekin oshirib borish talab etiladi. Badiiy gimnastikada zarur bo'lgan bir xil darajada muhim jismoniy tarbiya harakatlarini muvofiqlashtirishdan iborat [6]. Demak bu orqali o'quvchilar tayyorgarlikning dastlabki bosqichida erkin xarakterdagi yakka kompozitsion harakatlarni manipulyatsiya qilishni o'zlashtirishga imkon beradigan muvofiqlashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Muvofiqlashtirish qobiliyatining biroz boshqacha tasnifi E. P. Ilyin tomonidan quyidagicha taklif qilingan (2000). Bunda olim birinchidan mushakni muvofiqlashtirish, bu individual mushak tolalarining qisqarishi va motor neyronlarining ishlashi bilan bog'liq [7]. Ya'ni mushakning individualuyg'unligi motor birliklarining ketma-ket yoki bir vaqtning o'zida qo'zg'alishi va bo'shashishida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan mushaklararo muvofiqlashtirish yaxlit texnik harakatida individual mushaklarning kuchlanishi va bo'shashishining izchilligi va mutanosibligi bilan bog'liq. Bu muvofiqlik mushaklarning ketma-ket qisqarishi va bo'shashishida namoyon bo'ladi, chunki bir harakatning tugashi bilan keyingisi harakatga aqlan tayyorlana boshlaydi. Demak mutanosiblik texnikasiga muvofiq harakat parametrlarini – amplituda, kuch, kuchlanish izchilligini dozalash orqali ifodalanadi. Uchinchi esa eng qiyini sensorli mushaklarni muvofiqlashtirish, chunki u vaziyatga muvofiq sportchining harakatlarini vaqt va makonda muvofiqlashtirish bilan bog'liq. Ushbu muvofiqlashtirish turi tashqi signallarni – vizual, eshitish, teginish–tez va aniq tahlil qilishni, ularni propriozeptiv, vestibulyar ichki signallar bilan taqqoslashni talab qiladi [8].

Badiiy gimnastikada deyarli barcha mashqlar muvozanatga bog'liq bo'ladi. Bu statik yoki dinamik elementlarda, obyektlar bilan mashqlarda namoyon ko'rinib tanani ma'lum bir holatda ushlab turishda tavsiflanadi. Tananing aylanishi bilan bog'liq mashqlarni bajarishi, vestibulyar apparat yuklanganidan keyin muvozanatni saqlash qobiliyati katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Badiiy gimnastikada bolalar bilan ishlashda maxsus elementlar, turli xil boshlang'ich pozitsiyalardan barqaror muvozanatni o'zlashtirish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin [9]. Murakkablikning yuqori darajasiga erishishda

muvozanatni namoyish qilish uchun keng ko'lamli harakat doirasi kerak bo'ladi. Mazkur barqarorlikni shakllantirishga yordam beradigan samarali vositalar sifatida qo'l va boshlarning turli xil harakat pozitsiyalaridan, yarim barmoqlardagi pozitsiyalarda tananing egilishi va burilishlardan foydalanish to'g'ri bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Shu o'rinda ta'kidlash joiz sport mashg'ulotlari qonunlariga zid ravishda texnologiyalarining tarkibini kengaytirish maqsadga muvofiq emas degan fikrlar ham yo'q emas. Buni esa vaqt masalasiga bog'lab har bir sinf bilan kompozitsiyalarni takomillashtirish uchun vaqtning sarflanishi va yangi mashqlarni o'zlashtirish uchun vaqt ajratish tobora qiyinlashib borishi bilan bog'liqligi atab o'tiladi [10]. Demak, badiiy gimnastikada jismoniy tayyorgarlik ko'rish xususiyatlarini muvofiqlashtirish, qobiliyatlarini tarbiyalash metodologiyasining etakchi yo'nalishi ixtisoslashuv chuqurlashgani sayin, harakatlarni muvofiqlashtirishga ortib borayotgan talablarni ta'minlashda odatiy harakatlarni bajarishda g'ayrioddiylik omilini joriy etish zarur bo'ladi.

Ushbu yo'nalishning uslubiy kompleksi murakkab harakatlarni muvofiqlashtirishda yoki odatdagi texnik harakatning butun shaklini qat'iy belgilangan o'zgartirishning individual xususiyatlari, nooddiy sharoitlarda odatiy harakatlarni bajarish, harakatlarni muvofiqlashtirishning odatiy shakllarini o'zgartirishga majbur qiladigan turli xil tashqi sharoitlarni joriy etish kabi yondashuvlarga to'g'ri keladi.

Badiiy gimnastika nafaqat harakatlarning fazoviy aniqligini, balki yuqori darajada rivojlangan sharoitlarni ham talab qiladi. Sababi gimnastika mashqlari yosh sportchining jismoniy rivojlanish samaradorligini oshirishga yordam berishini inkor etish qiyin. Sababi sportda avtonom organlar va tizimlarning funksiyalarini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatiladi, umuman inson tanasining hayotiy faoliyatini oshiradi. Bunda kuch va tezlikni oshirishga alohida e'tibor qaratiladi, chunki sportchining kuchi tashqi qarshilikni engish yoki unga qarshi turish qobiliyati sifatida belgilanadi, ya'ni har qanday texnik harakatni bajarish uchun gimnastikachi ma'lum darajada kuchi rivojlanishi kerak va albatta jismoniy qobiliyatlarining namoyon bo'lishiga asoslanadi [11].

Badiiy gimnastikada chidamlilik, xususan, muvofiqlashtirish qiyin bo'lgan faoliyatda kuch va chidamlilikni rivojlantirish, gimnastika kombinatsiyalarini uzluksiz, takror va tanaffuslarsiz bajarishda talab etiladigan sportchining mashg'ulot jarayonidagi xususiyati hisoblanadi. Mazkur sohada ishlaydigan mutaxassislar chidamlilikni umumiy va maxsus deb bo'ladi. Maxsus chidamlilik-bu ma'lum bir kasbiy faoliyat turiga xos bo'lgan yuklarni uzoq vaqt ushlab turish qobiliyatida ko'rinib, sezgirlik va tezkor kuch bo'lib hisoblanadi [5]. Gimnastikada eng katta chidamlilik turlaridan biri – gimnastika ko'p kurash jarayonida namoyish etiladigan muvofiqlashtirish va motor funksiyalaridan iborat. Muvofiqlashtiruvchi chidamlilikni rivojlantirishning uslubiy jihatlari juda har xil bo'lib, kombinatsiyani uzaytirish, dam olish oralig'ini qisqartirish, kombinatsiyani tanaffussiz takrorlash bilan belgilanadi.

Badiiy gimnastika bilan shug'ullanuvchi sportchilarga o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus talablar

qo'yiladi. Mazkur talablar qo'shimcha vositalaridan foydalanish, bo'g'imlardagi harakatchanlik, moslashuvchanlik va boshqalar. Qo'shimchalardagi harakatchanlikning etishmovchiligi kuch sifatining namoyon bo'lishini, reaksiya va harakat tezligining susayishiga, chidamlilikning cheklanishi, energiya sarfini oshirishi bilan birga, mehnat faoliyati samaradorligini pasaytirish, ma'lum bir shikastlanish [12]larga sabab bo'lishi mumkin.

Shuning ushbu passiv moslashuvchanlik mashqlarida faol mashqlarga qaraganda ko'proq harakat amplitudaga etibor qaratiladi. Olimlar faol va passiv moslashuvchanlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqni "zaxira cho'zilishi" yoki "moslashuvchanlik chegarasi" [6]deb nomlaydi. Bu yo'nalish bo'yicha mutaxassislarining ishlarida yuqorida ta'kidlab o'tilgan "umumiy" va "maxsus" moslashuvchanlik kabi nazariyalarni ko'rishimiz mumkin. Bunda moslashuvchanlik tananing barcha bo'g'imlaridagi harakatni aniqlaydi va katta amplituda turli xil kombinatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi. Maxsus moslashuvchanlik esa bu sport faoliyatining samaradorligini belgilaydigan alohida bo'g'inlardagi maksimal harakatchanlikni bildiradi ekan.

Xulosa va takliflar. Badiiy gimnastikada sport faoliyatining muvaffaqiyatiga bilvosita ta'sirning jismoniy sifati bu mushaklarning qisqarishi va bo'shashish chastotasi bilan belgilanadigan tezlik hisoblanadi. Tezlik murakkab faktorli kop tarmoqli vosita sifati bo'lib, bir-biridan nisbatan mustaqil elementar shakllar bilan belgilanadi. Ular texnik reaksiyasining yashirin davri, bir qisqarish tezligi va maksimal harakat chastotasidan iborat. Bular:

1. Muvofiqlashtirish qobiliyatiga nisbatan yuqori talablar tananing vertikal va gorizontal o'qlari atrofida aylanishi, qo'llab-quvvatlash bilan birga keladigan mashqlar bilan ta'minlanadi [4]. Qo'llab-quvvatlanmaydigan holat fiziologik xususiyatlar bilan tavsiflanadi, chunki u odamlarga eng tanish bo'lgan qo'llab-quvvatlash qabul qilinishiga ega emas. Harakatlarning vaqt o'tishi bilan juda aniq taqsimlanishi barcha harakatlarni tayanchsiz holatda mukammal bajarish uchun juda muhimdir.

2. Mushaklar kuchini belgilaydigan eng muhim jihatlardan biri bu mushaklarning ishlash tartibi hisoblanib, sportchi qandayda bir qarshilikni engib, mushak qisqarsa, unda bunday ish engish deb ataladi. Har qanday qarshilikka qarshi turadigan mushaklar kuchlanishda cho'zilishi mumkin. Mushaklarning ishlash rejimlarini engib o'tish va berish dinamik nomi bilan birlashtiriladi. Ularning ishlash tartibi izometrik yoki statik deb ataladi, bunda mushak maksimal kuchini namoyish etadi.

3. Badiiy gimnastika bo'yicha etakchi murabbiylarning amaliy tajribasini sarhisob qilgan xolda ma'lum bir sharoitlarda tezlashtirilgan sur'atda, musiqa ishtirokisiz, asosiy elementlar hisoblanadigan sakrash, muvozanatni ushlab, burilish kombinatsiyalarini bajarish texnikasining samarali ijrosi bilan tavsiflanadi. buning uchun maxsus poydevorni mustahkamlash uchun biomexanik tuzilishga yaqin mashqlarni bajarish kerak.

Shunday qilib badiiy gimnastikada jismoniy tayyorgarlik ko'rish xususiyatlari yuqori sport natijalariga erishish uchun muhim jismoniy fazilatlarini aniqlash zarur bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Верхошанский Ю.В. "Программирование и организация тренировочного процесса" М.: 2019. 156-стр.
2. Ашмарина Б. А. "Теория и методика физического воспитания" М.: 1990. 60-стр.
3. Курамшин Юрий Теория и методика физической культуры: М-2004.
4. Ж.К.холодов, В.С.Кузнецов Теория и методика физического воспитания и спорта М-2003 245-стр.
5. Гавердовский Ю.К., В.М. Смоленский Теория и методика спортивной гимнастики М.2014 127-стр.
6. Леводянский Иван Михайлович "Средства и методы воспитания физических качеств юных гимнастов на этапе начальной специализированной подготовки" Автореф. Л-1984

7. Гобузева К.В. "Модельные характеристики гимнасток-художниц с уровнем спортивной квалификации 1-го взрослого разряда" Санкт-Петербург-2006
8. Менхин Ю.В., "Физическая подготовка в гимнастике" М-1988 78-стр
9. Н. М. Мамедова Эффективность экономических М-1989. 49-стр
10. Siegvart Karbe , Erna Pash , Karlus Gyoetjes "Gymnastik zur Entspannung" <https://books.google.ru/>
11. Спортивная гимнастика <https://old.bigenc.ru/>
12. <https://www.iloencyclopaedia.org/uz/>
13. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>
14. <https://znano.ru/>
15. <https://www.lymphoma.org.au/uz/>



UDK:159.9

Rustam DUSHANOV,

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Akademiyasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

O'zMU professori D.Muxamedova taqrizi asosida

ICHKI ISHLAR ORGANLARI TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATIGA PSIXOLOGIK YONDOSHUVLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining o'ziga xos psixologik xususiyatlari va uni rivojlantirish omillariga oid fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: psixologik yondoshuv, psixologik qonuniyat, kasbiy yaroqlilik, anglanilgan va anglanilmagan motivlar, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik maslahat, kasbiy kuzatuvchanlik, kommunikatsiya, psixologik refleksiya.

PSIXOLOGICHESKIYE PODXODI K OPERATIVNO-ROZISKOVOY DEYATELNOSTI ORGANOV VNUTRENNIX DEL

Annotatsiya

V dannoy statye bili izlojeni mneniya i vzglyadi v selyax povsheniya spetsificheskix kachestv i faktorov vliyayushix na rizvitiya psixologicheskoy osobennosti subyektov v psixologii operativno-rozisknoy deyatelnosti

Klyuchevye slova: psixologicheskij podxod, psixologicheskaya zakonomernost, professionalnaya prigodnost, osoznanniye i neosoznanniye motivi, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologicheskaya konsultatsiya, professionalnaya nablyudatelnost, kommunikatsiya, psixologicheskaya refleksiya.

PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO QUICK SEARCH ACTIVITIES OF INTERNAL AFFAIRS BODIES

Annotation

There are noticed thought-meditations about psychological peculiarities and its developing factors of operational-search activity subjects in this story.

Keywords: Psychological approach, psychological legality, professional available, understandable and non understandable motivations, psychodiagnostic, psychocorrection, psychological advise, professional observation, communication, psychological reflection.

Bugungi kunda mamlakatimizda ichki ishlar organlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, 2016 yil 16 sentabrdagi O'zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi, 2012 yil 25 dekabrdagi «Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida»gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5005-son farmoni hamda 2017 yil 16 avgustdagi «Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3216-sonli, 2017 yil 29 noyabrdagi «Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 3413-sonli qarorlari ham Vatan himoyasi, yurt osoyishtaligi hamda davlat kelajagi uchun jonkuyar, olijanob, fidoyi, o'z xizmat burchini sidqidildan bajaradigan vijdonli xodimlarni tarbiyalab yetishtirish vazifasini qo'yimoqda. Chunki bugungi murakkab sharoitda ichki ishlar organlari xodimlari, jumladan tezkor-qidiruv xodimlarining xalq oldidagi nufuzini ko'tarish, ularga bo'lgan ishonchini mustahkamlash bevosita ana shu islohotlar samarasiga bog'liq.

Mazkur islohotlarni ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati sohasida ham amalga oshirishda psixologik bilimlarga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganligi:

birinchidan, ichki ishlar organlari tizimida professionallashuv jarayonining kuchayib borishi barcha tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining kasbiy – ruhiy

jihatdan jinoyatchilar dunyosiga qarshi doimo shay turishi zarurligi;

ikkinchidan, globallashuv jarayonlarining ham ijobiy, ham salbiy ta'siridan ruhiy zo'riqishning oldini oluvchi psixologik usul va vositalarining zamonaviy avlodlarini yaratish va ular orqali tezkor xodimlarni yangi vazifalarni bajarishga tayyorlash;

uchinchidan, ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining xizmat vazifalarini bajarish chog'ida olgan ruhiy jarohatlarini bartaraf etish uchun psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik kuzatuv, psixologik maslahat tizimini shakllantirish;

to'rtinchidan, ekstremal sharoitlarda ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining xizmat jamoalarida ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilashning psixologik omillarini ishga solishning psixologik metodikasini ishlab chiqish;

beshinchidan, jinoyatchilikning oldini olish maqsadida olib borilayotgan tezkor profilaktik chora-tadbirlar doirasida tezkor xodimlarga muntazam ravishda psixologik yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yish kabilar bilan belgilanadi.

Prezidentimizning «Jinoyat-qidiruv faoliyatida jiddiy nuqsonlar uchramoqda, ayrim joylarda huquqni muhofaza qilish idoralari o'rtasidagi hamkorlik talab darajasida emas. Qidiruvda yurgan aksariyat shaxslarning qo'lga olinmayotgani ularga jinoiy qilmishlarini davom ettirishga imkon beradi va bu g'oyat tashvishli holdir»[1] degan fiqrlarida katta ma'no bor.

Shu nuqtai nazardan, tezkor-qidiruv faoliyatining samaradorligini belgilovchi omillarni tahlil qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, shu orqali mazkur faoliyatni takomillashtirishning psixologik qonuniyatlari va

mexanizmlarini ishlab chiqish va yo'lga qo'yishga oid bir qator ilmiy yondoshuvlar mavjud. Jumladan, bir qator olim (A.I. Alekseyev, D.V. Grebelskiy, I.A. Klimov va boshq.) lar tomonidan ushbu yo'nalishga oid quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan. YA'ni;

- Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari, xodim, agent va uchrashuv xona egalari individual-psixologik xususiyatlari va ruhiy-irodaviy holatini o'rganish;

- qidiruvda bo'lgan shaxslarning psixologik qiyofasini yaratish, tasmollarni tuzish va ularning ruhiy holati hamda xatti-harakatini o'rganish;

- tezkor bo'limlarda, bo'lajak professional xodimlarni tanlab olishda ularning psixik jarayonlari, individual-psixologik xususiyatlari va hissiy-irodaviy holatlarini o'rganish;

- tezkor xodimlarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida ularning ruhiy holatini hisobga olish[2].

Yana bir guruh olim (G.K.Sinilov, V.A. Cherepanov, V.M.Shevchenko va boshq.)lar mazkur faoliyatning psixologik omillari, tezkor xodim va boshqa ishtirokchilar uchun e'arur bo'lgan professional xususiyatlarga psixologik baho berish, bu xususiyatlarni aniqlash va takomillashtirish yo'l-yo'riqlari haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishgan[3].

Bugungi kunga kelib, mazkur faoliyat bo'yicha psixologik yondoshuvlar quyidagi yo'nalishlarda olib borilmoqda. Bular:

- ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati bo'limlarini boshqarishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganish;

- tezkor-qidiruv faoliyati uslublari asosida, tezkor xodimlarning ish jarayonini boshqarishini tashkil qilish maqsadida, ilm-fan yutuqlariga mos keladigan asosiy psixologik koidalarni tadqiq etish;

- tezkor-qidiruv faoliyatida foydalaniladigan kuch va harakatlarining psixologik jihatlarini kompleks ishlab chiqish hamda amaliyotda ko'p uchraydigan vaziyatlarda mazkur usul va vositalarni qo'llashni hisobga olish;

- jinoyatchilikka qarshi kurash olib borishda, alohida tezkor xizmatlar yunalishlarining uslublarini yaratish va qo'llashni tashkil qilishning psixologik xususiyatlarini o'rganish;

- tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining ruhiy-idoraviy holatlari va tashqi hamkorlikning psixologik komponentlarini tadqiq etish.

Albatta, ushbu yo'nalishlar tezkor - qidiruv faoliyati psixologiyasi predmetining kattagina qismini yoritadi.

Bizning fikrimizcha, tezkor qidiruv faoliyati psixologiyasi - bu tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik qonuniyatlarini va maskur faoliyatini takomillashtirish mexanizmlari hamda usullarini o'rganadi.

Chunki, har bir shaxs qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iiy nazar, bilishning eng murakkab obyekti bo'lib, u doimo rivojlanishda, o'sishda, o'zgarishda bo'ladi va shu asosda shaxsiy, kasbiy jihatdan shakllanib boradi. Shu bilan birga, shaxs o'zi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmaydi, ya'ni xulqi, xatti-harakatlari mohiyatini hamma vaqt ham anglab yetavermasligini kuzatish mumkin. Shaxsning xulqi, ruhiyatiga ta'sir etuvchi kuchlar, psixologik omillar shu qadar xilma-xilki, ularning hammasini o'rganib ham u yoki bu inson haqida batafsil ma'lumotga bo'lish yoxud unga to'liq tavsif berishning imkoniyati yo'q. Bunday omillar qatori (anglangan

va anglanmagan motivlar, mayllar va boshq.)da shaxsning o'zi ham anglab yetavermaydigan, lekin uning ruhiyati, xulqining namoyon bo'lishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ong osti jarayonlari ta'sirini inobatga oladigan bo'lsak, tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasi fani doirasida o'rganiluvchi shaxs psixikasining naqadar murakkab ekanligini tasavvur qilish mushkul emas.

Shu ma'noda, tezkor xodimning izlanishi, ijodkorligi, uning bilimi, ko'nikmasi, malakasi, yo'nalganligi va hayotiy tajribasi bilan mustahkam-lanib borilishi uning malakali mutaxassis sifatida kamol topishini ta'minlaydi. Tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasining asosiy vazifasi shu ijodkorlikning muhim omillarini ilmiy tadqiq qilish, qidirib topish, aniqlash va ularni shakllantirish hamda rivojlan-tirishning eng samarali usullarini aniqlashdan iboratdir.

Shu nuqtai nazardan, tezkor-qidiruv faoliyatida psixologik bilimlarning zarurati quyidagi masalalarni yoritishda namoyon bo'ladi, jumladan:

- tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari va jamoalarining psixo-logiyasini har tomonlama o'rganish;

- tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining individual-psixologik xususiyatlari va imkoniyatlarini tadqiq qilish;

- jabrlanuvchi, ayblanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi va boshqa shaxslarning ongi, ruhiyati, ongillik va ongsizlik holatlarini o'rganish;

- tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining maxsus vazifalarni bajarishga yaroqliligining psixologik mohiyatini ochib berish;

- tezkor-qidiruv faoliyatining psixologik tamoyillari va usullarini ishlab chiqish;

- tezkor-qidiruv faoliyatiga oid muhim ma'lumotlarni olish maqsadida turli toifadagi shaxslar bilan ishonchli psixologik aloqa o'rnatish hamda psixologik ta'sir ko'rsatish usullarini yaratish;

- mazkur faoliyatga oid muammolarni obyektiv, ilmiy asoslangan holda baholash va bartaraf etish usullarini tavsiya etish;

- turli toifadagi shaxslar bilan ishonchli muloqot olib borish usullarini va rivojlanishining psixologik qonuniyatlarini ishlab chiqish;

- jinoyatchi shaxsining tuzilishi, uning faoliyati va faolligini o'rganish orqali olingan nazariy va amaliy xulosalarni yaratish;

- tezkor-qidiruv faoliyatida namoyon bo'ladigan psixik hodisalarning psixologik qonuniyatlarini o'rganish. Ayni vaqtda shuni ta'kidlab o'tish joizki, hozirda psixologik bilimlar tezkor-qidiruv faoliyatida ilmiy darajada emas, balki o'z-o'zidan tizimsiz holda qo'llanilmokda, bu sohdati ilmiy qarashlar ham kamchilikni tashkil etadi. Shu sababli bugungi kunda ichki ishlar organlarining tezkor-qidiruv faoliyatida psixologik bilimlarni targ'ib qilish va qo'llashning samarali muqobil tizimini ishlab chiqish va tashkil etish zarurati vujudga keldi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi «Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3216-sonli qaroriga asosan IIV Akademiyasida «Xizmat faoliyati psixologiyasi» yo'nalishi tashkil etildi. Bu esa o'z vaqtida, bugungi zamon talablariga mos psixologlarni tayyorlash va ichki ishlar organlari xodimlarini psixologik bilimlar bilan qo'rollantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 9 февраль куни ички ишлар органлари фаолияти, тизимда mavjud muammo va kamchiliklar, istiqbolдаги vazifalarга бағишланган видеоселектор йиғилишида сўзлаган нутқи.
2. Душанов Р.Х. Тезкор-қидирув фаолияти психологияси. Дарслик. Тошкент. ИИВ Академияси. 2015. 27 б.
3. Шевченко В.М. Психология оперативно-розыскной деятельности. Учебник – 2-е изд., Москва. 2012. – 25 с.



Sirojiddin JUMAYEV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
E-mail: sirojiddinjumayev702@gmail.com

TDPU dotsenti, PhD I.T. Azimov taqrizi asosida

MOLEKULAR BIOLOGIYA BO‘YICHA MASALALAR ISHLASHNI O‘RGATISHDA HUYAYRADAGI IRSIY MATERIAL MIQDORINI ANIQLASHGA DOIR MASALARNI ISHLASHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya

Molekulyar biologiya zamon talabidagi fanlaridan biri bo‘lib, genetik materialning tuzilishi va funksiyasini molekulyar darajada o‘rganadi. Talabalarga Molekulyar biologiyani o‘rgatish turli xil biologik jarayonlarni molekulyar darajada tushunish uchun asos bo‘lib, hujayrada irsiy ma‘lumotlarning irsiylanish jarayonini chuqur tahlil qilib, o‘rganish imkonini beradi. Molekulyar biologiyani o‘rgatishda masalalardan foydalanish, mazkur fan bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: o‘quv-ijodiy faoliyat, bilim, malaka, ko‘nikma, mashq ishlash, masala yechish, ma‘lumot, fikrlash, bilim egallash.

METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF WORKING PROBLEMS ON DETERMINING THE QUANTITY OF HEREDITARY MATERIAL IN THE CELL IN TEACHING THE WORKING OF PROBLEMS ON MOLECULAR BIOLOGY

Annotation

Molecular biology is one of the modern sciences that studies the structure and function of genetic material at the molecular level. Teaching molecular biology to students is the basis for understanding various biological processes at the molecular level, and allows for deep analysis and study of the process of inheritance of genetic information in the cell. The use of problems in the teaching of molecular biology allows for the formation of skills and competencies in this subject.

Key words: educational and creative activity, knowledge, competence, skill, exercise, problem solving, information, thinking, knowledge acquisition.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ НА ОПРЕДЕЛЕНИЕ КОЛИЧЕСТВА НАСЛЕДСТВЕННОГО МАТЕРИАЛА В КЛЕТКЕ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ РАЗРАБОТКИ ЗАДАЧ ПО МОЛЕКУЛЯРНОЙ БИОЛОГИИ

Аннотация

Молекулярная биология - одна из современных наук, изучающая структуру и функции генетического материала на молекулярном уровне. Преподавание студентам молекулярной биологии является основой понимания различных биологических процессов на молекулярном уровне, позволяет провести глубокий анализ и изучение процесса наследования генетической информации в клетке. Использование задач при преподавании молекулярной биологии позволяет формировать навыки и компетенции по данному предмету.

Ключевые слова: учебно-творческая деятельность, знание, компетентность, умение, упражнение, решение задач, информация, мышление, приобретение знаний.

Kirish. Bugungi kunda yurtimizdagi Oliy ta‘lim muassasalarida olib borilayotgan qator islohatlarning maqsadi ta‘lim olayotgan talabalarning bilim sifatini oshirish, talabalarning qobiliyatlarini namoyon qilishga imkon yaratish, iqtidorli talabalarni aniqlash va ularning iqtidorini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2018 yildagi PQ-3775-sonli “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorida o‘quv mashg‘ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo‘naltiradigan o‘qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e‘tiborni talabalarning mustaqil ta‘lim olishi bilan bog‘liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish belgilab o‘tilgan[1].

Molekulyar biologiyani yuqori darajada o‘rganish uchun hujayradagi genetik materialga oid masalalarni yechish orqali o‘rganish talabalarida mantiqiy fikrlarshi rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Hujayradagi genetik material miqdorini aniqlash, uning faoliyati bilan bog‘liq holda molekulyar biologiyaning tadqiqot metodlariga bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi. Hujayradagi genetik material

miqdorini aniqlashga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bo‘lajak tadqiqotchilarga hujayralarning genetik xususiyatlarini chuqur anglash va tushunishga yordam beradi.

Hujayradagi genetik material miqdorini aniqlash katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, tadqiqotlar natijasida olingan ma‘lumotlar hujayralararo aloqa mexanizmlarini va normal va patologik hujayralar o‘rtasidagi farqlarni tushunishga imkon beradi. Masalan, ular yordamida turli kasalliklar, jumladan, saraton, genetik nuqsonlar va irsiy kasalliklarga tashxis qo‘yish va monitoring qilish mumkin bo‘ladi.

Hujayradagi genetik material miqdorini aniqlashning umumiy vazifalaridan biri genomik ekvivalentlikni (GE) baholashdir. GE – bu bitta yadro genomida (hujayra yadrosidagi genlarning to‘liq to‘plami) topilishi mumkin bo‘lgan xromosomalar shaklida saqlagan dezoksiribonuklein kislotasi (DNK) miqdorining o‘lchovini bildiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda olib borilayotgan zamonaviy ta‘limni rivojlantirishdagi pedagogik tadqiqotlarning muxim masalalaridan biri biologiyadan masala va mashqlarni to‘g‘ri o‘zlashtirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni tashkil etish va uning samaradorligiga erishishdir. Bu borada bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan: A.T.G‘ofurov, S.S.Fayzullayev,

X.Xolmatov "Genetikadan masala va mashqlar yechish metodikasi". –T., "O'qituvchi". 1991 y., A.T.G'ofurov, S.S.Fayzullayev, B.Matchonov, I.Azimov "Genetik bilimlarni puxta o'zlashtirish va masalalar yechish metodikasi" Toshkent-2000 y., G.A. Shaxmurova, I.T. Azimov, U.E.Raxmatov "Botanikadan masala va mashqlar yechish" Toshkent-2016 uslubiy qo'llanma, G.A. Shaxmurova, I.T. Azimov, U.E.Raxmatov "Zoologiyadan masala masala va mashqlar yechish" Toshkent-2017 uslubiy qo'llanma, G.A. Shaxmurova, I.T. Azimov, U.E.Raxmatov "Biologiya (sitologiya va genetika asoslari)" Toshkent-2017 uslubiy qo'llanma, G.A. Shaxmurova, I.T. Azimov, U.E.Raxmatov "Biologiyadan masala va mashqlar yechish" Toshkent – 2017 o'quv qo'llanma. Yuqorida keltirilgan olimlar tomonidan genetika va biologiyaning boshqa tarmoqlari bo'yicha biologik masala va mashqlardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot jarayonida Pedagogik tahlil metodidan foydalanildi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashga qaratilgan bo'lib, tadqiq etilayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Hujayradagi irsiy malumotlarga oid masalalarni yechish uchun talabalar molekulyar biologiyaning asosiy tushunchalarini bilishi, shuningdek, tajribalar o'tkazishda yaxshi amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi. Bunday vazifalar aniqlik va tadqiqotga tizimli yondashuvni talab qiladi [2].

Binobarin, hujayradagi genetik material miqdorini o'lchashga asoslangan masalalar molekulyar biologiyani o'qitishda, fanga oid ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, talabalarga hujayralardagi faoliyat va ularning genetik axborot almashishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Bu topshiriqlar irsiyatning molekulyar asoslarini bilishga, molekulyar biologiya sohasidagi zamonaviy ilmiy kashfiyotlarni o'rganishda talabalar uchun o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Molekulyar biologiya fan sifatida matnli, raqamli va grafik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Talabani o'zi uning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ushbu ma'lumotni o'rganish uchun mos usullarni tanlaydi. Olingan bilimlarni amalda qo'llash tavsiya etilgan o'rganish usullaridan biri hisoblanadi, chunki u molekulyar biologiyaning asosiy tushuncha va tamoyillarini eslab qolish va mustahkamlashni osonlashtiradi.

Materialni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun nafaqat o'rganish bosqichlarini tushunish, balki mashqlardan faol foydalanish va bilimlarni amaliy qo'llash kerak. Shuni unutmaslik kerakki, har bir talabani o'ziga xos xususiyatlari va o'rganishga yondashuvlari bor, shuning uchun ko'proq mashq qilish va shaxsiy imkoniyatlardan samarali foydalanishga e'tibor qaratgan holda molekulyar biologiyani o'rganishni samarali tashkil etishga sabab bo'ladi. Masalaning yechimini topishga o'rganish bosqichlarini tushunish, olingan bilimlarni amaliy faoliyatda mustahkamlash va qo'llashdan iborat. Olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradigan mashqlar muhim ahamiyatga ega.

Talabalar uchun bilimlarni egallash jarayonini qanday tashkil etish kerakligini tushunish va bu jarayonning bosqichlarini bilish juda muhimdir. Talabalar o'rganishi bilimlarni idrok etish, tushunish, mustahkamlash va qo'llashni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich – idrok etish. Bu ongli tanlash jarayoni va aniq maqsadga qaratilgan. Ushbu bosqichda talabalar o'rganiladigan mavzuni tushunishlari va kurs materiali bilan tanishishlari kerak. Idrok real yoki xayoliy

obyektlarni kuzatish, tajribalar o'tkazish va vaziyatlarni o'rganishni o'z ichiga olishi mumkin. Bu bosqich talaba nimani o'rganishi va qanday muammoni hal qilishini to'liq anglaganida tugaydi.

Ikkinchi bosqich - o'quv materialini tushunish. Bu bosqichda talabalar mavzuning nazariy jihatlarini tahlil qiladilar va o'rganadilar. Ular asosiy mazmuni ajratib ko'rsatadilar, tushunchalarni belgilaydilar, ularning xususiyatlarini asoslaydilar, misollar va dalillarni tahlil qiladilar. Tizimli bilim muhim, talabalar tushunchalar va qoidalarining tuzilishi va o'zaro bog'liqligini tushunishlari kerak.

Uchinchi bosqich - yodlash va mustahkamlash. Bu bosqichda o'quvchilar o'rganganlarini takrorlaydi va amalda qo'llaydi. Ular nazariy materiallardan foydalangan holda mashqlar bajaradilar, muammo va vaziyatlarni hal qiladilar. O'qituvchi o'quvchilarning topshiriqlarini tushunishlarini va bilimlarini amaliyotda qo'llash malakalarini nazorat qiladi. Takrorlash va mashq qilish talabalarga uzoq vaqt davomida olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

To'rtinchi bosqich - bilimlarni qo'llash. Bu bosqichda talabalar o'z ko'nikma va malakalarini amaliy faoliyatda qo'llaydilar. Bu kurs ishi, laboratoriya ishlari, tadqiqot topshiriqlari va maktab ishlarini o'z ichiga olishi mumkin. Bilimlarni qo'llash o'rganilayotgan materialga qarab turli shakllarda sodir bo'lishi mumkin.

Bilimlarni egallashning butun jarayoni aqliy va amaliy harakatlar orqali amalga oshiriladi. O'rganilgan bilimlarni amalda qo'llash o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u sizga ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi. Mashqlar og'zaki, yozma, grafik yoki jismoniy bo'lishi mumkin va ulardan foydalanish talabalarga kerakli ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. O'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish faoliyatning maqsadi va mazmunini tushuntirish, topshiriqni bajarish tartibini ko'rsatish, o'quvchilarni o'qitishda o'qituvchining faol ishtirokini o'z ichiga oladi. Ko'nikma va malakalarni shakllantirishda o'quv faoliyatini takrorlash va mashq qilish ham muhim o'rin tutadi.

Molekulyar biologiyani o'rganish talabalardan aminokislotalarning grafik tuzilishi formulalarini yod olishlarini talab qiladi. Bu muammoning yechimi o'rganish bosqichlarini tushunish, ularni mustahkamlash va amaliy faoliyatda qo'llashga asoslangan. Molekulyar biologiyani o'rganishda mashqlar samaradorligini har xil turdagi mashqlar, jumladan, yozma va grafik mashqlarni qo'llash orqali oshirish mumkin[4].

Umuman olganda, nukleotidlar tarkibini hisoblash, vodorod bog'lari sonini, nuklein kislota va oqsil molekularining taxminiy uzunligi va massasini aniqlash, teskari masalalar DNK molekulari va boshqa nuklein kislotalarni tahlil qilish va o'rganishda muhim vazifalardir. Ularning yechimi bizga ushbu molekularning tuzilishi va funktsiyasi haqida qimmatli ma'lumotlarni olish imkonini beradi va biokimyoviy va genetik sohasidagi keyingi tadqiqotlar va ishlanmalar uchun asos bo'ladi.

DNK molekularini tahlil qilish bilan bog'liq molekulyar biologiyada muhim ahamiyatga ega. Bu masalardan biri Chargaff qoidasi yordamida DNK molekulasidagi nukleotid miqdorini hisoblashdir. Ushbu qoidani qo'llash DNK molekulasida namunasida to'rt turdagi nukleotidlarning har birining nisbiy miqdorini aniqlash imkonini beradi – adenin (A), timin (T), guanin (G) va sitozin (C)[5].

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, talabalar bilim olish jarayoni idrok etish, tushunish, mustahkamlash va qo'llashni o'z ichiga oladi. Molekulyar biologiyani o'rganishda hujayradagi irsiy material miqdorini aniqlashga doir masalarni

ishlash va mashqlarni bajarish talabalarda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Bilimni muvaffaqiyatli o'zlashtirishda o'quv jarayonini to'g'ri tashkil

etish, talabalarning hakorlikda o'quv bilish jarayonlarini tashkil etishda masala va mashqlardan foydalanish muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2018 yildagi PQ-3775-son. "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
2. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi: darslik/ Z.K. Ismailova, P.M. Maxsudov., O.K. Ergashev, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – O.: «Yangiyo'l poligraf servis», Toshkent – 2020. – 262 b.
3. Ilmiy tadqiqot asoslari: o'quv qo'llanma /A.Radjabov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – O.: «Tafakkur-Bo'stoni», 2012. – 208 b.
4. Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/ Tolipova J.O.; mas'ul muharrir G'ofurov A.T.; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. — 160 b.
5. Valixonov M.N., Dolimova S.N., Umarova G.B., Mirhamidova P. Biologik kimyo va molekulyar biologiya (2-qism): / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: "NAVRO'Z" nashriyoti 2015, 204-bet.



Alisher JO'RAYEV

*Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti,
E-mail: Alisher.Juraev@mail.ru*

Siyosiy fanlar doktori, professor T.T.Alimardonov taqrizi asosida

THE NEED FOR INTEGRATION OF NON-GOVERNMENT NON-PROFIT ORGANIZATIONS IN THE FIELD OF EDUCATION

Annotation

This article talks about the activities of non-governmental non-profit organizations in our country, the need and importance of their integration into the field of education.

Key words: political parties, social movements, trade unions, public organizations, continuous education system, civil society.

НЕОБХОДИМОСТЬ ИНТЕГРАЦИИ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье говорится о деятельности неправительственных некоммерческих организаций в нашей стране, необходимости и важности их интеграции в сферу образования.

Ключевые слова: политические партии, общественные движения, профсоюзы, общественные организации, система непрерывного образования, гражданское общество.

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARNING TA'LIM SOHASIGA INTEGRATSIYALASHUV ZARURATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimizdagi nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyati, ularning ta'lim sohasiga integratsiyalashuv zarurati va ahamiyati to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat tashkilotlari, uzluksiz ta'lim tizimi, fuqarolik jamiyati.

Kirish. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini tartibga solishga qaratilgan, xalqaro huquq normalari hamda demokratik talablarga javob beradigan qonunchilik tizimi yaratilgan bo'lib, davlatimiz tomonidan bu sohada olib borilayotgan siyosat yangi Konstitutsiyamizda ham o'z aksini topgan. Xususan bosh qomusimizning 72-moddasida "Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratadi"[1] deb belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda mustahkam qonuniy tizim asosida nodavlat notijorat tashkilotlar hisoblangan: fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat tashkilotlari va fondlar, mustaqil ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyati institutlari sifatida shakllanmoqda hamda fuqarolarning faol ishtiroki tufayli mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishida katta hissa qo'shmoqda.

Ta'lim tizimi asosida fuqarolarning siyosiy madaniyatini oshirish, siyosiy institutlar, partiyalar, nodavlat va ijtimoiy tashkilotlarni mustahkamlash va rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Siyosiy islohotlarning asosiy mohiyati "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" degan g'oyada o'z aksini topdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, mamlakatimiz aholisining aksariyatini yoshlar tashkil etishi, ular muhim ijtimoiy qatlam sifatida o'ziga xos e'tiborni talab qilishi tabiiy hol. Shuningdek, jamiyatning faol a'zolari bo'lmish yoshlarning manfaatlarini qanoatlantiradigan mexanizmi yaratish masalasi fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatida o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Ma'lum bo'ladiki, nodavlat notijorat tashkilotlarining faolligi fuqarolarning manfaatlarini qondiribgina qolmay, ularning

ijtimoiy-siyosiy hayotdagi fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga ham bevosita xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlariga ehtiyojlarining ortayotganligi hamda ular sonining bugungi kunda oshgani bevosita ularning faoliyati real voqelikka mosligi va asosiy, jamiyat a'zolarining manfaatlariga uygunligi bilan izohlanadi.

Fuqarolik jamiyatni institutlarining mamlakatimizda jamiyat a'zolarida yangicha tafakkurning shakllanishi, jamiyat taraqqiyoti, insonga munosabatning ijobiy jihatdan o'zgarishi, zamon talabi, xususiy mulkchilikka keng imkoniyat yaratilishi kabi omillar bilan bevosita bog'liq.

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimida fuqarolik jamiyati institutlarining o'mini tadqiq etish, ayniqsa, ta'lim sohasida nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki va hamkorligini yoritishni muhim ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, ta'lim o'zida ijtimoiylik jihatdan insonni shaxs sifatida rivojlanishini asosiy vositalardan biri sifatida namoyon etib, davr bilan qadamma qadam borishi kerak, ya'ni mazkur davrda jamiyatning talabiga mos keluvchi o'zgarishlar va innovatsiyalarga duch keladi.

Umuman ta'lim sohasida innovatsiya masalalari yangi deb bo'lmaydi, chunki masalan psixologiya, falsafa, pedagogika va boshqa sohalarida faoliyat yuritgan Yan Amos Kamenskiy, Rudolf Shtayner, Vigodskiy va boshqa shu kabi atoqli arboblardan tomonidan bu masalalar o'rganilgan. Boshqa so'z bilan aytganda, bilim olish va ko'nikmalarni rivojlantirish tizimidagi o'zgarishlar haqidagi gaplar ilgariydan bo'lgan.

Agar aynan zamonaviy dunyo haqida gapiriladigan bo'lsa, ta'lim sohasida "innovatsiya" atamasining o'zi ta'lim tizimini yangilash va yangi texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi. Albatta buning uchun insonning har qanday ishlanmasi birinchi navbatda o'qitishning samarali va natijaviyligini oshirishga

qaratilgan bo'ladi. Bu esa o'z navbatida bugungi kundagi ta'lim standartlari eskirib qolganini va yangi avlod o'qitish uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqish kerakligini bildiradi. Ta'lim tizimiga innovatsiyani tadbiiq etish lozimligi to'g'risida masalani ko'tarilganligini sababi ushbu tizimda rivojlanish darajasini oshirish bugungi kunning dolzarb ahamiyati borligidandir.

Hozirda ta'lim tizimida bir-biriga to'g'ri kelmaydigan jihatlar mavjud:

- o'quvchilarni qiziqish, qobiliyat kabi bir necha shaxsiy xususiyatlarini o'rgatish bo'yicha talabga to'g'ri kelmasligi;

- o'quvchilarda haqiqiy bilim imkoni fanni rivojlanishi sur'atini to'g'ri kelmasligi;

- ta'lim sohasida innovatsiyalar muammosi.

Qizig'i shundaki, ta'lim sohasida innovatsiya muammosi uni ishlab chiqish jarayoni boshlanganini o'zida kelib chiqadi. Hech qaysi mutaxassis aynan uning yangi pedagogik yondashuvi muvaffaqiyatli bo'lishiga va hamfikrlar yig'a olishiga 100% kafolat bera olmaydi. Bundan tashqari, kiritilayotgan yangilik doimo katta xavf bilan va hech qanday ishonch bilan o'z tasdig'ini topmagan.

Shunga qaramasdan, ta'lim tizimiga innovatsiyani tadbiiq etish doimo harakat qilinib kelingan. Bundan tashqari, mutahassislar biror tizimiga imkon qadar barcha innovatsiyalarni kiritishga harakat qilishmoqda. Eng zamonaviy innovatsiyalarning tavsiflari quyidagicha ko'rinishda:

Dolzarb innovatsiyalar - ta'lim tizimiga ta'limni mazmuniga ta'sir etuvchi lekin ilgari foydalanilmagan yangilikni joriy etishni ko'zda tutadi;

Retro innovatsiyalar - pedagogik faoliyatga davrlar mobaynida unutilgan yondashuvlarni joriy etishni ko'zda tutadi;

Birlashtirilgan innovatsiyalar - bir nechta ta'lim berish usullarini birlashtirish natijasida yangi bitta paydo bo'lishini nazarda tutadi.

O'xshash innovatsiyalar - mavjud ta'lim usuliga qisman yangilik ko'shilishini nazarda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim tizimida innovatsiyalarni kiritish maqsadi yangi avlodga ta'lim berishni yangi yondashuvlarini topishga harakat qilinishi va muvaffaqiyatli qo'llashdan iborat. Barcha innovatsiyalar zamonaviy jamiyat talablari va axborot texnologiyalar rivojlanishini hisobga olishi shart.

Yangilik yana 4 yo'nalishda qo'llanishi kerak:

- > Tarbiya
- > Ta'lim
- > Boshqaruv
- > Kadrlarni qayta tayyorlash

Innovatsiya nazariy va amaliy xarakterga ega bir qancha qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladigan juda muhim jarayondir. Lekin bu insonlarni ta'lim tizimini yaxshilashga qaratilgan yo'ldan to'htatmasligi lozim, aks xolda eski ta'lim tizimida uzoq vaqtga botib qolishi mumkin. Bu esa nafaqat yoshlarni ta'lim muassasalarida ta'lim olishga xoxishi kamayishi balki ularni ahloqiy, psixologik, etik, ijtimoiy va madaniy rivojlanish darajasi pasayishi xavfi mavjud.

Ta'lim inson omiliga qaratilgan investitsiyalardir. Jamiyat, davlat, umuman, bunday investitsiyadan manfaatdor, chunki ta'lim darajasini oshirish iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, mehnat unumdorligini oshiradi, ijtimoiy muammolarni bartaraf etadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlarini, farovonligini ta'minlash hamda insonni har tomonlama katolga yetkazishga qaratilgandir. Shu boisdan ta'lim sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqta. Farzandni tarbiyalash, ungailm berish, kasb o'rgatish qadimdan eng mas'uliyatli vazifa sanalgan. Odob-axloq, yoshi ulug'larga

hurmat, mehr-oqibat, oilaga, kindik qoni to'kilgan zaminga sadoqat fazilatlarini kamol toptirish bola tarbiyasida eng muhim jihatlardan hisoblangan.

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida bunyod etilayotgan zamonaviy o'quv maskanlarida yoshlarning chuqur bilim olishi, kasb egallashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Ta'lim jarayoni tubdan o'zgarimoqda. Har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, bilim olish salohiyati inobatga olingan holda, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik usullar asosida yondashilmoqta. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad - yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish, ongini o'stirish, dunyoqarashini boyitishdir. Zero, yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish, ularni e'tiqod, Vatan tuyg'usini kamol toptirish tarbiyaning ustuvor yo'nalishlaridandir.

Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek, "yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur" [2].

Ayni shu vazifa bizlardan katta mas'uliyat va mohoradni talab etadi. Yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni o'z qobiliyatiga o'ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan komil insonlar etib tarbiyalash muhim vazifamizdir.

Ana shu maqsadni amalga oshirishda faqat davlat ta'lim muassasalarining ishi demay fuqarolik jamiyati intitutlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Ayni shu institutlar darsdan keyingi yoshlarning bo'sh vaqtlarida o'z tadbirlarini amalga oshiradilar. Bu esa uzluksiz ta'limning bir ko'rinishidir.

Ma'nan va jismonan yetuk, hech kimdan kam bo'lmagan barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligi muhim o'rin tutadi.

Zero, inson, avvalo, oila bag'rida tug'ulib, voyaga yetadi, uning qalbidagi eng ezgu insoniy fazilatlar mahallada shakllanadi. Buni yodda tutgan holda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida kamolga yetkazish, ularning o'z iqtidorlarini to'la namoyon etishlariga yaqindan ko'maklashish borasida hamkorlik amalga oshirilmoqda.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yoshlar siyosiy va huquqiy madaniyatini yuksaltirish nafaqat davlat organlari zimmasiga mas'uliyatli vazifa yuklabgina qolmay, balki jamoat va boshqa nodavlat tuzilmalarning faollik darajasiga ham bog'liqdir. Yoshlarning nodavlat tuzilmalarida faol ishtirokini ta'minlash o'z navbatida ularning siyosiy madaniyati darajasini ham mutassil oshirib borishni zaruriyat qilib qo'ydi.

Tahlil va natijalar. Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti ta'lim tizimini rivojlantirishda fuqarolik jamiyati institutlarini ham keng jalb qilishni taqozo qilmoqda. Shu o'rinda bevosita fuqarolik jamiyati rivojlanib borayotgan bir davrda respublikamizda ta'lim tizimini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shayotgan 500 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko'rsatayotganini ta'kidlab o'tish lozim.

Jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishda fuqarolik jamiyati institutlari faolligini yanada oshirish va ular ishtirokini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligini rivojlantirishni taqozo etadi. "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi [3] qonunning ishlab chiqilishi ham shuni ko'rsatib turibdi.

Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi xulosa va takliflarni shakllantirdik:

Yoshlar bilimlarini hayotiy tajriba orqali shakllantirish mexanizmini yaratish;

Yoshlarda milliy qadriyatlarimiz va ulug' tariximiz chuqur hurmatini oshirish;

Globalashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan bugungi kunda yoshlarda immunitetni shakllantirish yo'llarini fuqarolik jamiyati institutlari orqali ishlab chiqish;

Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ayrim NNTlar mablag' olish maqsadida tuzilib 6 oydan keyin faoliyat ko'rsatmay qo'ygan. Ular doimiy faoliyat olib bormayapti. Ta'lim tizimini doimiy rivojlantirish Yoshlar ittifoqi tomonidan uzluksiz va tartibli olib borilmokda. Ushbu tashkilotlar imkoniyatlarini yanada kengaytirish va qo'shimcha bilimlar tashkil qilib, mablag' bilan ta'minlash;

O'z tashabbusi bilan tuzilib davlat ro'yxatidan o'tgan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tizimli monitoring qilish mexanizmini ishlab chiqish;

Ta'lim tizimini rivojlantirishga hissasini qo'shayotgan fuqarolik jamiyati institutlariga qo'shimcha imtiyozlar berish;

Mahalla instituti imkoniyatlaridan chekka qishloqlarda unumli foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish;

Ta'lim tizimini rivojlantirishda siyosiy partiyalar imkoniyatlaridan ham kengroq foydalanish;

Xalq deputatlari mahalliy Kengash deputatlarini ushbu jarayonlarga jalb qilish;

Fuqarolik institutlari hamkorligida tizimli va tadrijiy mafkuraviy tarbiya ishlarini olib borish. Xususan, fan, madaniyat, madaniy-ma'rifiy muassasalar, oila, mehnat jamoalari, siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari kabi ijtimoiy institutlar bu jarayonda muhim o'rinni egallaydi.

Xulosa va takliflar. Tahlillarimizdan ma'lum bo'ldiki, nodavlat notijorat tashkilotlarining faolligi fuqarolarning manfaatlarini qondiribgina qolmay, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga ham bevosita xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizda nodalat notijorat tashkilotlariga ehtiyojning ortayotganligi hamda ular sonining bugungi kunda oshgani bevosita ularning faoliyati real voqelikka mosligi va asosisysi, jamiyat a'zolarining manfaatlariga uyg'unligi bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т. 2008.
3. "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.09.2014 yildagi O'RQ-376-son. <https://lex.uz/docs/-2468214?ONDATE=21.04.2021&ONDATE2=22.07.2020&action=compare>



Ro'zimat JO'RAYEV,

Namangan davlat universiteti professori, siyosiy fanlar doktori (DSc)

E-mail: rozimat.juraev@mail.ru

Siyosiy fanlar doktori, professor v.b. Dexkanov N.B. taqrizi asosida

MUTUAL COOPERATION OF POLITICAL AND CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN SHAPING TERRITORIAL INTERESTS IN UZBEKISTAN

Annotation

This article talks about the mutual cooperation of political and civil society institutions and their importance in the formation of territorial interests in Uzbekistan. Opinions of a number of scientists on the topic are given.

Key words: dysfunction, "vertical" relations, civil society, democratization, "e-democracy", "e-government", "e-governance".

ВЗАИМНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО ИНСТИТУТОВ ПОЛИТИЧЕСКОГО И ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье говорится о взаимном сотрудничестве политических институтов и институтов гражданского общества и их значении в формировании территориальных интересов в Узбекистане. Представлены мнения ряда ученых по данной теме.

Ключевые слова: дисфункция, «вертикальные» отношения, гражданское общество, демократизация, «электронная демократия», «электронное правительство», «электронное управление».

O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY MANFAATLARNI SHAKLLANTIRISHDA SIYOSIY VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING O‘ZARO HAMKORLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda hududiy manfaatlarni shakllantirishda siyosiy va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligi munosabatlari va ularning ahamiyati to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Mavzuga doir qator olimlarning fikr-mulohazalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: disfunktsiya, “vertikal” munosabatlar, fuqarolik jamiyati, demokratlashtirish, “e-demokratiya”, “e-hukumat”, “e-boshqaruv”.

Kirish. O‘zbekistonda hududiy siyosiy tizimlarning rivojlanishi hududiy manfaatlarni akumulatsiya qilish, ularni ifoda etish va umumdavlat manfaatlari bilan mutanosiblashtirish imkonini beradi. Mazkur jarayonning samarali kechishi milliy va hududiy siyosiy institutlar faoliyati bilan bog‘liqdir. Mahalliy hokimiyat organlari muhim hududiy siyosiy institut bo‘lib, ular hududiy jamoalar tomonidan shakllantiriladi. Aynan mazkur institutning hududiy jamoa, uning boshqa institutlari bilan yaqin aloqalarni o‘rnatishi hududiy manfaatlarni akumulatsiya qilib, ularni amalga oshirishga xizmat qiladi. Mahalliy hokimiyat manbai bo‘lgan hududiy jamoalarning individlar va hududiy hamjamiyatlardan iboratligi siyosiy va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi aloqalarni atroflicha o‘rganish ehtiyojini ko‘rsatadi. Ushbu aloqalarni hamkorlik darajasiga chiqarmay turib, hududiy siyosiy tizimlar mavjudligi, davlatning barqaror rivojlanishi, jamiyatdagi xilma-xil manfaatlar mutanosibligiga erishib bo‘lmaydi.

O‘zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasidan hududiy jamoalar o‘z manfaatlarini amalga oshirish uchun turli siyosiy institutlarni shakllantirishi ayon bo‘ladi. Siyosiy institutlarning fuqarolarni ommaviy ishtirokisiz umumiy manfaatlarni ifoda etishi[1] ularni siyosatning mustaqil subyektiga aylantiradi. Har bir institut, siyosat subyektini sifatida, siyosiy faollikni, muntazam o‘zgaruvchan individual va guruhij ijtimoiy-siyosiy manfaatlarini qondirish maqsadida, ijtimoiy muhit bilan hamkorlikda o‘z yetakchilari, turli darajadagi rahbarlar va oddiy a‘zolar faoliyati orqali amalga oshiradi. Ushbu institutlarning faoliyatidagi kamchiliklar, jumladan tashkiliy-texnik nuqsonlar ta‘sirida, u yoki bu tuzilmaning imkoniyatlari

individ va guruhlarning ehtiyojlariga javob bermay qoladi, ijtimoiy-siyosiy institut faoliyatida kuzatilayotgan disfunktsiya jamiyatda uning obro‘sining pasayishiga olib keladi[2]. Bundan mahalliy hokimiyat organlarining o‘z vazifalarini samarali bajarishi ular bilan fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi aloqalar darajasiga bog‘liqligi ayon bo‘ladi.

Bir vaqtning o‘zida, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish – nafaqat ommaviy hokimiyat shakli, balki o‘z tuzilishiga ko‘ra, murakkabroq hodisa bo‘lib, uning qadri, bir tomondan, fuqarolik jamiyatining zarur elementi va, ikkinchi tomondan, uni takomillashtirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Lekin “munitsipal boshqaruv – davlat boshqaruvining nisbatan nomarkazlashgan shakli, shuningdek, fuqarolik jamiyati instituti hamdir” va boshqa shu kabi fikrlar o‘z-o‘zini boshqarishni yuridik jihatdan to‘g‘ri rasmiylashtirish, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish tizimida ham, avvalo, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish va davlat hokimiyati o‘rtasidagi “vertikal” munosabatlar muammolarini hal qilish zaruratini ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonlik ayrim olimlar ham fuqarolik jamiyatida o‘z-o‘zini boshqaradigan va davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning bir-biridan aniq ajratilishi kerakligi, aks holda, davlat boshqaruvining kengayib ketish ehtimoli mavjudligini ta‘kidlaydilar[3]. Zero, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish instituti, mustaqil ommaviy hokimiyat instituti bo‘lishi barobarida, o‘zining tashkiliy va funksional shakllarining ko‘pqirraligi tufayli fuqarolik jamiyati va siyosiy tizim o‘rtasida o‘ziga xos “chegara” instituti vazifasini o‘taydi.

Shu yerda davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish va hamkorlikni yo'lga qo'yish muammolarini hal qilishga oydinlik kiritish ehtiyoji namoyon bo'ladi. Aynan davlat vositasida fuqarolik jamiyati legitimlashadi va adolatsizliklardan himoyalana oladi. G'arbdagi ko'pchilik qarashlarda fuqarolik jamiyati fuqarolarning siyosatga ta'sir etuvchi uyushmalari sifatida e'tirof etilsa-da, lekin ular siyosiy tizimga kiritilmagan. Biroq E.Aratoning fikricha, "demokratiyaning barqarorligi va demokratlashtirishning istiqbollari fuqarolik va siyosiylik o'rtasidagi kompleks va o'zaro aloqalarning rivojlanishiga bog'liq"[4].

Bir vaqtning o'zida, G'arbdagi fuqarolik jamiyatining davlat bilan o'zaro munosabatlari o'zgacha talqinda – kontraktulizm doktrinasida mafkuraviy taqdim etilgan. Uning konsepsiyasi bo'yicha, fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini huquqiy tartibga solish va chegaralash orqali uni himoya qilish davlatning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu ham, o'z navbatida, ko'plab savollarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyatini davlatdan ustun qo'yuvchi yondashuv ham mavjud. O'zbekistonlik ko'pchilik olimlar, jumladan X.Odilqoriyev ham, shu yo'sinda "fuqarolik jamiyati – ijtimoiy hayotning davlat ta'siri va aralashuvidan, ma'muriy tazyiqlardan xoli bo'lgan hamda insonlarning xususiy turmush sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir"[5] deb ta'riflaydi.

Fuqarolik jamiyatining mavjudligi tashabbuskor, erkin va faol shaxs bilan bog'lansa-da, uning asosiy belgisi – o'z-o'zini boshqaruvchi murakkab tizimdir. Aynan yetuk shaxslargina bunday tizimni tashkil eta oladilar. Lekin ko'pchilik olimlar tomonidan bunday bog'liqlikka yetarli ahamiyat berilmay, mazkur tizimni takomillashtirib borishning muhim mezon demokratik jarayonlarni tezlashtirish va boshqaruv tizimiga keng ommani faol jalb qilishni talab qiladigan umumiy yondashuv mavjud.

O'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning ham, nodavlat va jamoat tashkilotlarning ham alohida vazifalari bo'ladiki, ular bir-birini to'ldirib, rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligi-hayotiyiligini ta'minlaydi. O'zbekistonda mahalla timsolida o'zini o'zi boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotning noyob shakli azaldan mavjud bo'lgan. Mahalla fuqarolarning intilishlari va sa'y-harakatlari tufayli, muayyan milliy, ma'naviy va axloqiy xarakterdagi tartib-qoidalarga rioya qilish, to'y-ma'rakalar, yaxshi-yomon kunlarni hamjihatlikda o'tkazish, ahillikni ta'minlash kabilarga xizmat qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy, qadimiy hududiy jamoa bo'lib, demokratik boshqaruvning noyob xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

O. Toshboyev globallashtirish va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarini tadqiq qilar ekan, "jamiyat immun tizimining real ko'rinishlaridan biri turli ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o'rtasidagi ijtimoiy ma'naviy aloqalardir. Mazkur aloqalarning mo'tadilligi ularning bir-biriga suyanch ekanligini namoyon etish bilan birga, milliy manfaatlar nuqtayi-nazaridan yakdil ekanligini ham anglatadi. Shu ma'noda, jamiyat va shaxs uyg'unligi targ'iboti, o'z navbatida, shaxsni jamiyat manfaatlari bilan bog'laydi"[7] deb ta'kidlaydi. Fuqarolik jamiyati va davlat munosabatlariga oid yondashuvlarning tahlili ular o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish zaruratini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Fuqarolik institutlari va davlat hamkorligini o'rganish uni quyidagi o'nta vazifasini bajarishga yo'naltirilganligini ko'rsatmoqda:

– fuqarolik jamiyati asoslarini qurish;

ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, davlat va mahalliy boshqaruv, tadbirkorlik faoliyatiga axloqiy

normalarni singdirish orqali haqiqiy demokratik tizimni shakllantirish;

mamlakatni tiklash umummilliy g'oyasi atrofida barcha fuqarolarni birlashtirish;

ma'muriy islohotda, korrupsiyaga qarshi faoliyatda, qonunchilik va normativ hujjatlarining ekspertizasida, davlat organlari tizimi shaffofligini ta'minlashda, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlarni ko'rsatishda fuqarolik institutlari ishtirokini ta'minlash;

fuqarolik o'quv-ta'limini tashkil etish;

mintaqada ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va fuqarolik jamiyatini mustahkamlash;

mintaqaviy reja va dasturlarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini tashkil etish;

nodavlat sektorda kooperatsiyani rivojlantirish, ijobiy tajribalarni umumlashtirish;

– mintaqalararo, umummilliy va xalqaro darajalarda fuqarolik institutlari va hokimiyat organlarining aloqalarini rivojlantirish.

Mahalliy hokimiyatning o'z-o'zini boshqarish orqali amalga oshirilishi tufayli, mahalliy hokimiyat organlari o'z-o'zini boshqarish organlari deb ham yuritiladi. Lekin eng quyi hududiy birlikdagi hududiy jamoalarning ham faol subyekt bo'la olmasligi, ya'ni o'z-o'zini boshqara olmasligi, mahalliy hokimiyat organlari zimmasiga murakkab vazifalarni yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 1-moddasida xalq deputatlari Kengashi va hokim O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlashi belgilangan. Lekin mahalliy Kengashlarga keng vakolatlar berilishiga qaramay, zikr etilgan vazifalarni bajarish masalalari yetarli darajada hal qilinmagan. Shu jihatdan, modernizatsiya va demokratlashtirish jarayonlari sharoitida xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining reglamentlarini takomillashtirish – qonun normasini amalga oshirish, ya'ni mahalliy hokimiyat organlarining hududiy jamoalar manfaatlarini ifoda etish va ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

O'zbekiston jamoatchiligining modernizatsiya, uning shakllari va jamiyat tarqiyotidagi o'rni tahlil qilinayotgan bir davrda, "mamlakatda modernizatsiya jarayonining amalga oshishi, barqarorlik kasb etishi ushbu jamiyatda o'z ildizi va asosiga ega bo'lgan institutlar, qadriyatlar, urf-odatlar, aholi mentaliteti, mintaqaviy, milliy, diniy, madaniy va ma'naviy xususiyatlar, xalqning modernizatsiyaviy qadriyatlarini qay darajada qabul qila olishi, siyosiy tizimning yangilanishlarga moslashishi singari muhim omillarga bog'liq"dir. Milliy davlatchiligimizdagi kengash instituti, kengashib ish ko'rish an'analari bunday omillardan biridir. Kengash asosida qaror qabul qilish Nizomulmulk asarida, Amir Temur tuzuklarida qayd etilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston qonunchiligida mahalliy boshqaruvda aholi ishtirokining mahalliy saylovlar, mahalliy o'z-o'zini boshqarishning saylangan mansabdor shaxslarini chaqirib olish, fuqarolar yig'inlari, hududiy jamoatchilik boshqaruvchi, fuqarolar murojaatlari kabi shakllari mavjud bo'lsa-da, hududiy jamoani hokimiyat va boshqaruvning haqiqiy subyektiga aylanishi ular safini yanada kengaytirishni taqozo qiladi. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunga alohida "Fuqarolarni mahalliy davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etish huquqi" nomli bob kiritilib, unda ushbu huquqni amalga oshirish shakllari sifatida mahalliy saylovlarda qatnashish, deputatlarni chaqirib olish, hudud manfaatlarida mahalliy darajadagi huquq ijodkorligi tashabbusi bilan chiqish, aholi va hokimiyat o'rtasidagi o'zaro ishonch va bog'liqlikni ta'minlash

maqsadida eng muhim qarorlar bo'yicha hokim yoki aholi tashabbusi bilan ommaviy eshituvlarni tashkil etish, u yoki bu qarorni qabul qilishdan avval, aholi fikrini o'rganish maqsadida masalalar bo'yicha tavsiyaviy tushaga ega bo'lgan so'rov o'tkazish, mahalliy davlat hokimiyati organlariga murojaat qilish bo'yicha muhim ahamiyatli normalarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir".

Mahalliy Kengashlarning doimiy komissiyalari tomonidan "ommaviy tinglovlar"ning o'tkazilishi, ko'rib chiqilayotgan masalalarni hal qilishda keng omma ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, doimiy komissiyalar, mahalliy Kengashlarda mansabdor shaxslar hisobotlarini yoki hudud uchun dolzarb masala yuzasidan qaror qabul qilishni ommaviy tinglovlar shaklida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan, Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining namunaviy reglamentini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Saylovchilar manfaatlarini o'rganishda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari doimiy komissiyalari tomonidan tuziladigan ishchi guruhlar muhim rol o'ynaydi. Lekin bunday guruhlar faoliyatiga hozircha yetarli e'tibor berilayotgani yo'q. Holbuki, mazkur guruhlar tarkibini shakllangan jamoalar, hududiy hamjamiyatlar vakillari va faol fuqarolardan shakllantirish ko'rilayotgan masalalarni hal qilishda barcha manfaatdor tomonlar ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Aytish joizki, bugungi kunda rivojlangan davlatlar mahalliy hokimiyat organlari huzurida doimiy faoliyat ko'rsatadigan jamoatchilik kengashlari shakllantirilmoqda.

Jamoatchilik kengashlari va fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishdagi ishtirokini ta'minlash deliberativ demokratiya mazmunini tashkil etib, "taxmin qilinayotgan qaror ta'sir qilishi mumkin har bir kishi uning muhokamasida qatnashish uchun teng imkoniyatlar yaratadi". Bunday jarayon mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining shaffofligi, ularning ishida fuqarolar ishtirokini ta'minlashga, ya'ni aholi siyosiy madaniyatini muntazam yuksalib borishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Axborot erkinligi kafolatlari va tamoyillari to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasiga muvofiq, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining maqbul axborot resurslarini yaratishga, foydalanuvchilarni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va

majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta'minlash majburiyati o'rnatilgan.

"Elektron hukumati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilinishi, umuman, ommaviy hokimiyat organlari faoliyati to'g'risida keng ommaga axborot berish va qaytma aloqalarni o'rnatishda Internet texnologiyalaridan foydalanish "e-demokratiya", "e-hukumat", "e-boshqaruv" va boshqa tushunchalarning shakllanishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorlikni yanada takomillashtirish chora-tadbirlarining ishlab chiqilishi respublikada "e-demokratiya" asoslarini yaratishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining tuzilmasi, tarkibi, funksiyalari va asosiy faoliyati, ularda fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida axborotlar taqdim etishni bazaviy interaktiv davlat xizmatlari reystriga kiritilishi, Internet tarmog'ida axborot tarqatish barobarida, qaytma aloqalar o'rnatish imkonini beradi. Lekin bugungi kunga qadar mazkur vazifalar yetarli darajada bajarilayotgani yo'q.

Davlatimiz rahbari tomonidan "Xalq qabulxonalari"ning tashkil etilishi, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash mexanizmini takomillashtirishga oid talablar fuqarolar siyosiy ishtirokini yanada kengaytiradi. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi murojaat qilish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Bunda nafaqat davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, balki nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini ham inson manfaatlariga xizmat qilishga yo'naltiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, qarorlarni qabul qilish va ularni ijro etishdagi aholining ishtirokini ta'minlash siyosiy va fuqarolik institutlari hamkorligining mazmunini tashkil etadi. Bunday ishtirok aholining yagona hududiy jamoaga aylanishi, hududiy manfaatlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu tufayli, O'zbekiston siyosiy hayotida fuqarolar ishtirokining shakllarini yanada kengaytirish, ilmiy asoslarini mustahkamlash dolzarb masalaga aylanadi.

ADABIYOTLAR

1. Трумэн Д.Б. Процесс государственного управления: политические интересы и общественное мнение // Теория и практика демократии. Избранные тексты / Пер. с англ. Под ред В.Л. Иноземцева, Б.Г. Капустина. – М.: Ладомир, 2006. С. 309.
2. Грачев М.Н., Ирхин Ю.В. Актуальные проблемы политической науки. – М.: Экономическая демократия, 1996. С. 32-33.
3. Адилходжаева С. Худайбердиева А. Теоретические вопросы формирования основ гражданского общества в Узбекистане // Давлат ва ҳуқуқ, 3/2002. С. 3.
4. Арато Э. Концепция гражданского общества: восхождение, упадок и воссоздание и направления для дальнейших исследований // Полис, 3/1995. С. 50-51.
5. Одиқориев Х.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Т.: Шарқ, 2002. 164-б.
6. Ташбоев О. Глобаллашув ва фуқаролик жамияти // Жамият ва бoshqaruv, 3/2007. 40-б.
7. Шубхонов Н. Сиёсий ижтимоийлашув жараёни // Жамият ва бoshqaruv, 3/2007. 25-б.



Aziz **IBRAGIMOV**,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori v.b

TVChDPI Jismoniy tarbiya va sport kafedrasini mudiri dotsent A.Abdulaxatov taqrizi asosida

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY SHAXSIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchilarda fuqarolik va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish mezonlari va ko‘rsatkichlaridan “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi”ni joriy etishda tarbiyalanganlikni baholash indikatorlari sifatida foydalanilgan. Natijada bo‘lajak pedagoglarni talabalarda Vatanga sadoqat kompetensiyasini shakllantirishga tayyorgarligini tashxis etish imkoniyati oshgan. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan vatnparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan interfaol shakl, metod va vositalaridan “Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyasi” qo‘llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan. Mazkur takliflar bo‘lajak pedagoglarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga imkon yaratgan.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik ongi, vatanparvarlik dunyoqarashi, ma‘naviy-axloqiy, fuqarolik-vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik, sport va vatanparvarlik, pedagogika, bo‘lajak o‘qituvchilar, tarbiyaviy faoliyat, ta‘lim, tarbiya, kompetensiya, modernizatsiya.

АНАЛИЗ ОТЕЧЕСТВЕННЫХ И ЗАРУБЕЖНЫХ ЭКСПЕРИМЕНТОВ ПО ДИАГНОСТИКЕ ПРОЦЕССОВ РАЗВИТИЯ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА

Аннотация

Данная статья была использована в качестве показателя оценки воспитанности при введении "концепции непрерывного духовного образования" из критериев и показателей развития гражданско-патриотической компетентности будущих педагогов. В результате возросла возможность диагностики готовности будущих педагогов к формированию у студентов компетенции лояльности к Родине. Разработанные в рамках исследования интерактивные формы, методы и средства, основанные на компетентностном подходе развития чувства патриотизма, были использованы при разработке учебно-методического пособия "педагогическая наука и технология обучения". Эти предложения позволили подготовить будущих учителей к воспитательной деятельности, развить в них активную гражданскую позицию.

Ключевые слова: Патриотическое сознание, патриотическое мировоззрение, нравственно-нравственный, гражданско-патриотический, военно-патриотический, спортивно-патриотический, педагогика, будущие учителя, воспитательная деятельность, образование, воспитание, компетентность, модернизация.

ANALYSIS OF NATIONAL AND FOREIGN EXPERIMENTS ON THE DIAGNOSIS OF PROCESSES FOR THE DEVELOPMENT OF A SENSE OF PATRIOTISM

Annotatsiya

This article was used as an indicator of the assessment of upbringing when introducing the "concept of continuous spiritual education" from the criteria and indicators of the development of civil and Patriotic competence of future teachers. As a result, the ability to diagnose the readiness of future teachers to form students' loyalty to the Motherland has increased. The interactive forms, methods and tools developed in the framework of the study, based on the competence-based approach of developing a sense of patriotism, were used in the development of the educational manual "pedagogical science and technology of education". These proposals made it possible to prepare future teachers for educational activities, to develop an active civil position in them.

Key words: Patriotic consciousness, Patriotic Outlook, moral, civil-Patriotic, military-Patriotic, sports-Patriotic, pedagogy, future teachers, educational activities, education, upbringing, competence, modernization.

Kirish. Global miqyosdagi ijtimoiy jarayonlarning ko‘p o‘lchamliligi, yoshlarni tarbiyalashning ma‘naviy-axloqiy asos va omillari murakkabligi hamda ahamiyatligi vatanparvarlik tuyg‘usini tashxis etishning individual-psixologik, ijtimoiy, emotsional, qadriyatli yo‘nalganlik xususiyatlari bilan boyitiladigan o‘lchov mezonlarini tanlab olishga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Bu borada respublikamiz va xorijdaga tajribalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

So‘nggi yillarda talabalarda vatanparvarlik ko‘rsatkichlarini tahlil etish va baholashga doir tadqiqotlarni amalga oshirgan A.Uzoqovning qayd etib o‘tishicha, “Yoshlarda vatanparvarlik darajasining sifat ko‘rsatkichlarini pedagogik tahlil qilish ma‘lum obyektga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi, yoshlarning rivojlanish davrlari, emotsional-hissiy sohasini o‘rganish, individual tafovutlarini hisobga olish, ularning dunyoqarashi, mental xususiyatlari, ijtimoiy

nufuziga qarab belgilanadi. Talabalarda vatanparvarlik darajasining sifat ko‘rsatkichlarini pedagogik tahlil qilish asosida kelajakdagi fuqarolik e‘tiqodiga ta‘sir etuvchi mezonlar ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi”.

Mezon – muayyan bir nazariya, ta‘limot, fan, dunyoqarash yoki nazariy dasturning asosi; insonning e‘tiqodi, voqelikka bo‘lgan munosabati va xulq-atvor me‘yorlarini belgilab beradi. Falsafada mezon – boshlang‘ich nuqta, boshqaruvchi g‘oya, xulq-atvor, o‘zini tutishning asosi sifatida qaraladi. Mantiqiy ma‘noda mezon markaziy tushuncha bo‘lib, abstraksiya sifatida olingan hodisaning barcha sohalariga tadbiiq qilinuvchi, umumlashtiruvchi va tarqatuvchi tizimning asosidir.

Tadqiqot dolzarbligi. Talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish eng avvalo, mazkur jarayon samaradorligini kafolatlovchi mezonlarni aniqlashtirib olishni

talab etadi. Buning uchun esa, vatanparvarlik tuyg'usini belgilab beruvchi umumfalsafiy mezonlarni o'rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish mezonlarini shartli ravishda bir necha guruhga bo'lish mumkin:

1) namunali – o'lka tarixi va hozirgi hayotiga qiziqadi, tabiatga mehr qo'yib, uni asrashni o'z burchi deb biladi. O'z uyi, mahallasini sevadi, vatanining buyuk kishilari bilan faxrlanadi. Vatanparlik tushunchasining mohiyatini biladi, Vatanga, millatiga xiyonat qilgan kimsalarga o'z shaxsiy munosabatlarini ifodalay oladi. O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlarning vakillari uchun O'zbekiston yagona Vatan ekanligini anglaydi;

2) yaxshi – vatanparvarlik tuyg'usi namoyon bo'ladi, lekin hali ehtiyojga aylangani yo'q, kursdoshlari jamoaning nazorati talib etiladi – Vatanning tarixi va madaniyati bilan qiziqadi, kursdoshlari va o'quvchilar bilan vatanparvarlik bo'yicha ishlar olib boradi. Atrofdagi kishilarga g'amxo'rlik qiladi, mehr-shafqat ishlarida ishtirok etadi, ammo boshqalardan buni talab eta olmaydi;

3) qoniqarli – vatanparvarlik tuyg'usi nisbatan kam namoyon bo'ladi – Vatan tarixi bilan kam qiziqadi, u bilan bog'liq ishlarni faqat nazorat ostidagina bajaradi va qatnashadi;

4) qoniqarsiz – vatanparvarlik tuyg'usi juda kam namoyon bo'ladi – Vatanning tarixi va madaniyati bilan qiziqmaydi, e'tiborsiz.

Mavzuning o'rganganlik darajasi. Yuqorida bayon etilganlar vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning umumiy mezonlari sirasiga kirib, tadqiqotimiz obyektidan kelib chiqqan holda, biz bo'lajak o'qituvichlarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish mezonlari masalasini ham o'rganishga harakat qildik. Jumladan, ta'lim falsafasiga doir adabiyotlarda pedagogik kategoriya sifatida mezonning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi: boshqaruvchi talablar; tarbiyaviy jarayonning qonuniyatlari hamda ziddiyatlari; e'tiqod sifatida namoyon bo'luvchi ichki boshqaruvchi g'oya; ma'lum doiradagi hodisa va jarayonlarga nisbatan tadbir etilish; mezonlar guruhida o'zaro ta'sirlashish va bir-birini to'ldirish. Shunday qilib, pedagogik mezonlar – "pedagog borlig'ining dominant, pedagogik ta'sir mavjudligini ta'minlovchi faoliyatning mazmuni va mohiyatini belgilab beruvchi qoidasidir".

Tadqiqot natijalari. Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi bo'yicha yetuk olim M.Quronov talabaning milliy tarbiyachi sifatidagi shaxsiy va kasbiy sifatlarining quyidagi namunaviy majmuasini taklif etgan:

I. Shaxsiy sifatlar: ma'naviy yetuklik; milliy-mafkuraviy onglik; milliy odoblilik; farosat; nozik didlik; o'z kasbiga sadoqat; vijdoniylik; tashabbuskorlik; bolajonlik; talabchanlik; adolatparvarlik; pedagogik o'dob; tadbirkorlik; qat'iylik; ma'naviy poklik va boshqalar.

II. Bilimlar: o'z fanining milliy-tarbiyaviy imkoniyatlarini sezish; O'zbekiston hukumati, Prezidentining

ichki va tashqi siyosatidan mukammal xabardorlik; milliy tarbiyaning nazariy va uslubiy asoslarini chuqur bilish; o'zbek madaniyatini chuqur, atroflicha bilish; millatning taraqqiyot qonunlarini bilish va boshqalar.

Tadqiqotni ilmiy va amaliy ahamiyati.

1. Konstruktiv ko'nikmalar: milliy tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish malakalari; har bola shaxsining pedagogik tashxisini amalga oshira olish; bir millatli va ko'p millatli talabalar jamoasida har bir talabani milliy tarbiyalashning xususiy dasturini tuzib, amalga oshira bilish va boshqalar.

2. Tashkilotchilikka doir ko'nikmalar: talabalarining ijtimoiy-milliy faolliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish; talabalarga milliy-tarbiyaviy maqsadlarda topshiriqlar berish va ularning boshqarilishini nazorat qilish, yordam berish va boshqalar.

3. Kommunikativ ko'nikmalar: talabalar orasida shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarni boshqarish; har bir talaba qalbiga yo'l topib, o'ziga moyillik uyg'ota olish; jamoaga, talabaga ko'rsatilishi kerak bo'lgan tarbiyaviy ta'sirning qanday natija berishini oldindan ko'ra bilish va boshqalar [1].

Xulosa. G.I.Maxmutova tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda esa, talabalarni pedagogika turkum fanlari asosida vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishda quyidagi mezonlar asos qilib olingan:

1. Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilishning oliy insoniy burch ekanligini anglash, vatanparvarlik tuyg'usiga ega bo'lish.

2. Yurt tinchligi, Vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lida faoliyat ko'rsatish.

3. Kamil inson, ijtimoiy hamkorlik – tushunchalari mohiyati borasida muayyan tushunchaga ega bo'lish.

4. Baynalminallik tuyg'usiga ega bo'lish; o'zga millat va elatlarning haq-va erkinliklarini hurmat qilish.

5. Dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik), o'zga millat va elatlar, shuningdek, kishilarning vijdon erkinligiga nisbatan hurmat ko'rsatish.

6. Insoniy fazilatlar (bilimlilik, insonparvarlik, kamtarlik, axloq-odob, mehnatsevarlik va h.k.)ni etish [2].

Pedagogika fanlari doktori D.Ro'zieva tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishida esa, talabalarda vatanparvarlikni tarbiyalash bilan bog'liq muhim fazilat milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish mezonlari sifatida quyidagilarga alohida e'tibor qaratilgan:

1. Talabalar tomonidan milliy iftixor tushunchasining lug'aviy ma'nosi va mantiqiy mohiyatining chuqur anglanganligi.

2. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lish ehtiyoji va xohishining yuzaga kelganligi.

3. Talabalar tomonidan Vatan ravnaqi, yurt obodligi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan ijtimoiy-foydali faoliyatning amalga oshirilishi.

4. Talabalarining bu sohada alohida faollik ko'rsata olishlari [3].

ADABIYOTLAR

1. Махмутова Г.И. Олий педагогик таълим тизимида талабаларни маънавий шакллантиришнинг ижтимоий педагогик хусусиятлари: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т.: 2004. – 179 б.
2. Рузиева Д. Олий таълим муассасаси талабаларида миллий ифтихор туйғусини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари: Пед. фан. док.... дисс. – Т., 2007. – 255 б.
3. Атаджанова Ш. Оилада ўспирин-ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда миллий кадрятлардан фойдаланишнинг педагогик асослари: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2001. – 136 б.
4. Балаганов А.Р. Патриотическое воспитание младших школьников средствами изобразительного искусства: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Кострома, 2000. – 27 с.
5. Бейсембаева А.А. Патриотическое воспитание старшеклассников средствами казахского героического эпоса. Канд.пед.наук.....автореф. –Алматы: 2004. – 23 с.
6. Галиахметов И.Р. Патриотическое воспитания школьников и пути его совершенствования. – Казан, 2001. – С.61-62.

7. Горбова М.А. Воспитания патриотизма у старших классников игровыми формами турстко-краеведческой деятельности: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – М., 1999. – 24 с.
8. Ильин И.И. Формирование патриотическое отношений у студентов: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Тамбов, 2003. – 24 с.
9. Иброхимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Тошкент, Ўзбекистон, 1996. – 139 б.
10. Каган М.С. Гражданское общество как культурная форма социальной системы // Социально-гуманитарные знания. – М., 2000. - №6. – С.49-50.
11. Калдыбекова А.С. Интернациональное воспитание учащихся в старших классов казахской школе в процессе изучения родной литературы (На меатериале казахских школ Республики Узбекистан): Дисс. ... канд.пед.наук. – Т., 1993. – 136 с.
12. Караковский В.А. Стать человеком. Общечеловеческие ценности – основа целостного учебно-воспитательного процесса. – М., 1993. – 80 с.
13. Каримбеков С. Военно-патриотическое воспитание учащихся старших классов в процессе преподавания литературы (на материале русской литературы): Дисс.канд.пе.наук. – Т., 1991. – 137 с.
14. Кирьякова А.В. Теория ориентации личности в мире ценностей. – Оренбург: Изд-во «Южный Урал», 1996. – 188 с.
15. Клименко И.М. Формирование патриотизма в процессе обучения истории и внеучебной работы: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Екатеринбург, 1999. – 22 с.
16. Кривых С.В. Педагогические основы патриотического воспитания младших шакольников. – Новокузнецк: Изд. ИПК, 2002. – С.8; С.16.
17. Левина Н.А. Типологические особенности развития чувств патриотизма у младших школьников: Автореф. дис. ...канд.псих.наук. – Тамбов, 2004. – 22 с.
18. Матушкин С.Е, Ипполитова Н.В. Сущность и особенности патриотического воспитания в современных условиях. – Курган, 2001. - №1(7). – С.6.
19. Новые ценности образования: Тезаурус для учителей и школьных психологов. / Под.ред. Н.Б.Крылова. – М., 1995. – 20 с.
20. Педагогические технологии: понятия, принципы и методы внедрения: Сборник материалов из Интернета. / Сост. С.Махкамова. – Ташкент, 2003. – с.65.
21. Педагогический энциклопедический словарь / Гл.ред. Б.М. Бм-Бад. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. – 528 с.
22. Рожков М.И. Организация воспитательного процесса в школе. – М.: Гуманит. Изд.центр ВЛАДОС, 2001. – 256 с.
23. Рындак В.Г. Методологические основы образования. – Оренбург, ОГАУ, 2000. – 192 с.
24. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998. – 256 с.
25. Степанов Е.Н. Педагогу о современных подходах и концепциях воспитания. – М.: ТЦ Сфера, 2002. – 160 с.



UDK:37.018.1

Jannat ISMAILOVA,

O'zbekiston tarixi davlat muzei direktori, tarix fanlari doktori, professor

E-mail: jannat.ismailova@mail.ru

MRDI, Muzeyshunoslik kafedrasini professori, tarix fanlari doktori D.Kuryazova taqrizi asosida.

ALLOMALAR FAOLIYATIDA AXLOQ VA TARBIYA

Annotatsiya

Ma'lumki, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'ladi. Masalan, Sharq olamida, jumladan, o'zimizning O'rta Osiyoda tarbiya va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Ushbu maqola negizida aynan allomalar faoliyatida ahloq va tarbiya munosabatlarining tahliliy jarayonlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, tafakkur, millat, ahloqiy-estetik madaniyat, milliy qahramonlar, buyuk allomalar, tarbiyaviy voqealar.

ЭТИКА И ОБРАЗОВАНИЕ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧЕНЫХ

Аннотация

Как известно, мышление, образ жизни, духовные взгляды любого народа или нации не формируются стихийно, на пустом месте. Именно исторические, природные и социальные факторы лежат в основе их возникновения и развития. Например, если мы посмотрим на то, как воспитываются и мыслят в восточном мире, в том числе в нашей собственной Средней Азии, есть ряд уникальных черт, которые не похожи ни на какие другие, сформированные на протяжении тысячелетий, которые проявляются не только как взаимоотношения, но и как неотъемлемая часть нашей жизни. Именно в деятельности ученых на основе данной статьи были исследованы аналитические процессы нравственно-воспитательных отношений.

Ключевые слова: воспитание, мышление, нация, нравственно-эстетическая культура, национальные герои, великие ученые, воспитательные события.

ETHICS AND EDUCATION IN THE ACTIVITY OF SCHOLARS

Annotation

As you know, the thinking, lifestyle, spiritual views of any people or nation are not formed spontaneously, from scratch. It is historical, natural and social factors that underlie their emergence and development. For example, if we look at how people are brought up and think in the Eastern world, including in our own Central Asia, there are a number of unique traits that are unlike any others formed over thousands of years, which manifest themselves not only as relationships, but also as an integral part of our life. It was in the activity of scientists on the basis of this article that the analytical processes of moral and educational relations were investigated.

Keywords: education, thinking, nation, moral and aesthetic culture, national heroes, great scientists, educational events.

Kirish. Axloq va tarbiya masalalari azaldan jamiyatning muxim bo'g'ini sifatida alohida e'tiborda bo'lib kelgan. Markaziy Osiyo xalklari ham o'zining axloqiy-estetik madaniyatini qadimdan afsonaviy obrazlarda ifodalab kelgan. Milliy qahramonlar Shiroq, To'maris va Alpomish kabi obrazlardagi o'z xalqiga va millatiga fidokorlik, vatanga mehr-muhabbat kabi hislatlar asriy hayotiy tajribalar asosida xalqning ma'naviy hayotini shakllantirgan.

Sharqda azaldan ta'lim va tarbiyaga juda katta e'tibor berilgan. Bolalarni kichik yoshdan ilmga qiziqtirish, yetuk axloqli, samimiy, halol, vijdonli, mehr-shavqatli qilib voyaga yetkazish, elu-yurtga nafi tegadigan farzandlar o'stirib, faxrlanish xalqimizda nihoyatda kuchli bo'lganligi qadimgi ertak va dostonlarda haqqoniy aks etgan. Qadimgi O'rta Osiyo sharoitida tarbiya san'ati va uni amalga oshiruvchi shaxslar to'g'risidagi fikrlarni Imom Buxoriy, Moturidiy, Zamaxshariy, Abduholiq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Xakim Termiziy, Xorazmiy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ko'plab buyuk allomalarning asarlari xazinasida xalq pedagogikasining nodir durdonasi hisoblanadi. Kitoblardagi

tarbiyaviy voqealarni ko'pincha hayvonlar va qushlar tilidan hikoya qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Qobusnoma", "Mahvon-ul Asror", "Matla-ul Anvar", "Axloqi Muhsiniy", "Kalila va Dimna" kabi asarlarda insoniylikning ulug' xislatlari bayon etilgan[1].

Imom Buxoriy ahamiyatiga ko'ra Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi diniy manbaa deb e'tirof etilgan "Al-Jome' as-Sahih" va undan keyin yaratgan "Al-adab al-mufrad" ("Adab durdonalari") asarida axloqiy tarbiya haqida so'z yuritgan. U ushbu asarlarida axloq, odob, farzandlarni ota-onaga hurmatda bo'lishga, onani e'zozlashga, mehr-oqibatli, pok va iymonli bo'lishga da'vat etgan. Ulug' olim o'z ta'limotida ilm o'rganish, uni o'rgatish yo'llari va qoidalarini bilish masalasiga ham jiddiy e'tibor beradi.

Imom al Buxoriy madrasada toliblarga dars berish bilan bir qatorda ularga maoshlar ham belgilagan. Manbalarda miskinlar va ilm axlini doimo moddiy tomondan qo'llab quvvatlaganligi alohida qayd etilgan. Uning pokiza va diyonatli inson sifatidagi tavsifi ko'plab zamondoshlari tomonidan e'tirof etilgan. Shuningdek o'zining shaxsiy hayotida ortiqcha dabdaba va bexuda sarf xarajatlarga yo'l

qo'ymagani va nixoyatda sabr toqatli inson ekanligi alohida qayd etilgan[2].

Tadqiqotlar metodologiyasi. Manbalarda Hakim at-Termiziy oilasi xaqida bir qancha ma'lumotlar uchraydi. Uning onasi va bobosi xadis ilmining yetuk bilimdonlari hisoblangan. Otasi Ali ibn al-Xasan esa o'z davrida xadis ilmining taniqli olimlaridan biri bo'lib, Xakim at-Termiziy: "Alloh taolo mening ustozim-validimdan judo qilganda men sakkiz yoshda edim. Uning sa'y-harakatlari bois men ilm olishga shunday berilib ketgandimki, kitob mutoala qilish men uchun asosiy mashg'ulot bo'lib qolgan edi. Vaholanki, mening tengqurlarim o'yin-kulgu va vaqtixushlik bilan band bo'lar edilar. Validimning ijtihodlari tufayli men shu yoshimda "Ilm al-osor"(hadis ilmi) va "Ilm ar-ray"(xanafiy mazxabi fikhi) bilimlarini to'liq egallab olgan edim"[3] degan so'zlari uning ilm cho'qqilarini egallashda otasining o'rni qay darajada ekanligidan dalolat beradi.

Yana shunday allomalardan biri Alouddin as-Samarqandiy o'z davrining yetuk fakixi bo'lib, ilm fan rivojiga o'zining munosib xissasini qo'shgan. U xaqidagi ma'lumotlar judo oz bo'lishiga qaramasdan uning asarlari Movarounaxrda fikx soxasiga katta hissa qo'shganligi va o'z maktabini yarata olganligiga guvoh bo'lamiz. U o'z asarlarida xadislardan hamasos sifatida foydalanganligi qayd etilgan.

Bu allomaning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki u o'z qizi Fotimani yoshlik chog'laridanoq ilmga o'rgatgan. Qiroat, arab grammatikasi, fikxdan dars berib, uni buyuk fakixa olima bo'lib yetishishiga sabab bo'lgan[4]. Fotimaning bironta yozma asarlari xaqida ma'lumot bo'lmasada, u o'z davrining ilmga chanqoq ayol timsolini yaratdi. Bu ma'lumotlar o'rta asrlarda Movarounaxrda ayollar va ilm-fan munosabatlari qay darajada rivojlanganligidan dalolat beradi

Tahlil va natijalar. Allomalarning hayoti o'zining ko'p qirrali xususiyatlari bilan keyingi avlodlarga doimo o'rnak bo'lib kelgan. Ular mehnatsiz hayotni va kasb hunarisiz insonlarni qadrlamaganlar. Ularning o'zlari ham hunarning biror turi bilan shug'ullangan. Masalan, Ali Romitanii to'qimachi, Muhammad Bob Samosiy bog'bon, Baxouddin Naqshband naqqosh –to'qimachi va chorvador, Xoja Ubaydullox Axror chorvador va savdogar, Amir kulol –kulol, uning o'g'li Amir Hamza esa ovchi bo'lgan[5]. Ular xatto hunarisiz kishilarni shogirdlikka qabul qilmaganlar.

Xoja Bahouddin Naqshband "Elning yukini yengillashtiring, elga yuk bo'lmang" degan hikmatli so'zlari insonlarga o'z xalqiga ortiqcha yuk bo'lmaslik aksincha unga madadkor bo'lish kerakligini uqtiradi.

Naqshband faqat yoshligida emas, balki umr bo'yi halol mehnat bilan yashashiga alohida ahamiyat beradi. Naqshbandning talabicha, musulmonlikda iymondan so'ng halollik birinchi o'rinda turadi. Halollik faqat mehnat orqaligina amalga oshirilishi mumkin.

Abu Abdulloh Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy butun dunyo ilm-fanini zabt etgan qomusiy olimdir. Uning riyoziyot va falakiyot faniga asos solgani o'z zamonasida ham, hozir ham barcha olimlar tomonidan tan olinmoqda. Bulg'usi yirik olim oldin mantiqiy fikrlash malakasini oshirgan, asosiy e'tiborni til o'rganishga qaratgan. Natijada Xorazmi o'z tili bilan bir qator turk, arab, fors va yahudiylar tillarini puxta egallagan.

Abu Rayhon Beruniy butun umrini ilmga bag'ishladi, o'zi hayot ekan paytidayoq o'sha davrning eng buyuk olimi va mutafakkiri sifatida tanildi. Beruniy ilm-fan rivojiga g'oyat katta hissa qo'shdi. "Aql va ma'rifatda hali unga o'xshash biror kishini davron yarata olgani yo'q", - deb yozgan edi XIII asr tarixshunosi Yoqut.

Beruniy o'zining ta'lim-tarbiya ishlarida va qarashlarida aniq fanlarni, chunonchi, eng avvalo, matematika, tabiatshunoslik, fizika, kimyo va boshkalarni o'rganish, kolaversa, o'quvchi, albatta, falsafa, mantiq va til ilmini bilish

zarurligini alohida uqtiradi. Buyuk mutafakkirning ta'lim-tarbiya soxasidagi ishlari o'z ichiga akliy va axlokiy, nafasot va mexnat, oilaviy, do'stlik va baynalminal tarbiyani oladi deb ta'kidlagan.

Ibn Sino o'z asarlari bilan Movarounnahrni dunyoga tanitgan qomusiy olim, Sharq xalqlari orasida «Sharafulmulk» va «Shayx ur-rai» kabi martabali unvonga sazovor bo'lgan buyuk shaxs hisoblangan. Ibn Sinoning 450 dan ortiq asar yozgan, lekin bizning davrimizgacha ulardan 242 tasi yetib kelgan Ulardan 80 tasi falsafaga, 43 tasi tabobat, qolganlari mantiq, psixologiya, tibbiyot, astronomiya, matematika, kimyo, musiqa, axloq, adabiyot va tilshunoslikka oiddir. Allomaning birgina «Tib qonunlari» asari keyingi bir necha yuz yillar davomida tibbiyot fani taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini belgilab bergan.

Forobiyning kamolotga intilish xaqidagi fikrlarini rivojlantirib, «Barcha mavjudot kamolotga moyildir, xuddi shu kamolotga moyillikning o'zi yaxshilikdir. Yaxshilikka intilishning o'zi materiya olamiga xosdir»[6] deb yozgan edi.

U o'zining «Axloq», «Axloq fani», «Oila qurilishi» va boshqa asarlarida katta o'rin beradi. Uning axloqiy ta'limoti ijtimoiy-siyosiy va falsafiy g'oyalardan kelib chiqadi. Ibn Sino fikricha, axloqshunoslik yaxshilikni yomonlikdan ajratadigan va kishining baxtli bo'lishi uchun sharoit ta'minlab beradigan fandır. U axloq kategoriyasiga yaxshilik va yomonlik, aqllilik, lazzat, donolik, saxiylik, sevgi-muxabbat, kamtarlik, azob-uqubat, sadoqat, intilish va boshqalarni kiritadi.

Ibn Sino o'z qo'li bilan yozgan tarjimai hoida ilk o'rganish borasidagi qiyinchiliklarni: «Keyin yana bir yarim yil ilm va mutolaaga berildim. Mantiq va falsafaning barcha qismlarini qaytadan o'qib chiqdim. O'sha kezlarda men kechalari kam uxlab, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullanmas edim... Agar bir oz uyquga ketsam tushimda ham o'ngimda o'sha masalalarni ko'rdim, ko'p masalalar yechimi tushimda ayon bo'lar edi. Ana shu zaylda hamma ilmlarni mustahkam egallab oldim va ulardan inson imkoniyati darajasida xabardor bo'ldim» deb ta'riflagan edi[7].

Ibn Sino ta'lim-tarbiya va axloqqa oid «Tadbir al-manozil» («Turar joyni boshqarish choralarini»), «Risola fi ilm al-axloq» («Axloqqa oid risola»), «Risola fi al-ahd» («Burch haqida risola»), «Risola fi tazkiyat an-nafs» («Nafsnii pokiza tutish to'g'risida risola»), (Siyosat al-badan»), («Badanni boshqarish»), («Kitob al-ansof («Adolat haqida kitob»). «Al-urjuza fit-tibb» («Tibbiy urjuza») asarlari mavjud.

Mahmud Zamahshariyning onasi ham g'oyatda taqvodor ayollardan hisoblangan. Asarlaridan birida o'z volidasi haqida benihoya oqila ayol bo'lgan deb aytadi. Mahmud Zamahshariy oilasi mu'taziliiy aqidasisga mansub bo'lib, uning tartibotlariga barcha oila azolari qattiq rioya qilardilar. Mahmud Zamahshariyning dunyoqarashi ilmli bo'lgan ota-onaning ta'sirida shakllandi. Mutafakkir shunday qilib, dastlabki bilimni o'z davrining o'qimishli kishilardan sanalgan ota-onasidan oldi.

Jahon fani uchun Movarounnahrda faoliyat olib borgan olimlar qatorida faqihlarning merosini o'rganish ham katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda islom huquqi tarixiy-ma'naviy meros sifatida baholanib, uni ilmiy o'rganish jarayoni boshlangan. Mazkur jarayonda movarounnahrlik faqihlarning jahon huquqiy tafakkuri taraqqiyotiga qo'shgan hissasi beqiyosdir.

Muhammad ibn Mahmud ibn Husayn ibn Ahmad Majduddin al-Ustrushaniy bo'lib, u XII asrning oxiri va XIII asrning birinchi yarmida Movarounnahrda yashab, yuksak ilmiy salohiyati bilan fiqh ilmining rivojiga munosib hissa qo'shgan allomalardan biridir.

Yetuk musulmon huquqshunosi Imom Majduddin al-Ustrushaniy Ustrushana - hozirgi Jizzaxdan yetishib chiqqan buyuk allomalarimizdan biri. U o'zining XIII asrda yaratilgan

“Jomi’ ahkom as-sig’or” (Bola huquqlari kodeksi) asarida bola huquqlariga oid 1289 ta fatvoni 45 ta muhim masalaga bo’lgan holda tahlil qilgan. Bolaning ona qornida paydo bo’lganidan boshlab to balog’at yoshiga yetgunga qadar bo’lgan davrdagi xaq-xuquqlari aynan shu asarda batafsil bayon etilgan. Jaxonda XIX asrning boshlaridagina Parijda inson xuquqlariga oid kodeks ishlab chiqildi va uning bor yo’g’i 5 ta moddasigina bolalar xuquqiga bag’ishlangan edi. Bu ma’lumotlar yurtimizdagi allomalarning bola tarbiyasi va uning huquqlarini qay darajada muxim masala sifatida qaralganidan dalolat beradi.

Temuriylar davrida ham ilm-fan rivoji, ma’naviy yuksalish va ta’lim tarbiya soxalari o’zining yuksak taraqqiyot cho’qqisiga ko’tarildi. Bu o’rinda Soxibkiron Amir Temur aloxida o’rin egallaydi. Markazlashgan buyuk davlatning barpo etilishi bilan Movarounnaxrda fan va madaniyat qaytadan ravnaq topdi, ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar o’zining yangi yuksak taraqqiyot bosqichiga ko’tarildi.

Soxibkiron Temur yosh avlodni tarbiyalashdagi maorifning beqiyos ahamiyatini anglagan xolda maktablarda va madrasalarga katta ahamiyat berdi. U diniy tarbiyaga o’ziga xos bulgan isloxotchi sifatida yondashdi. Temur mamlakatni odilona boshqarish va uni ximoya kilish sirlarini o’rgatuvchi «Temur Tuzuklari», «Temur o’g’iti» kabi asarlari qo’llanma sifatida uzoq yillar jarayonida xizmat qilib keldi. Ushbu davrda ta’lim tizimini to’g’ri shakllantirilganligi talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan dalolat beradi.

Manbalarda Temuriylar davrida talabalarining ilm olishi uchun barcha sharoitlar va qulayliklar yaratilgani xaqida ko’plab ma’lumotlar uchraydi.

Mirzo Ulug’bek fan xomiysi bulishi bilan birga, mamlakatda ma’rifat rivojiga hamkatta ahamiyat bergan allomadir. U Movarounnaxrda bir emas uch madrasa qurdirgan. Ulardan biri Samarkandda (1417-1420), ikkinchisi Buxoroda (1417) va uchinchisi G’ijduvonda (1433)dir. Xatto Buxorodagi Madrasa peshtokiga hadisdan: «Ilm olish har bir mo’min va musulima uchun farzdir», - deb yozdirib qo’ydi. Samarqanddagi Ulug’bek madrasasi ikki qavatli bo’lib, 100 dan ortiq talabalar taxsil olgan. O’kitish tizimi bo’yicha madrasalar 2 bosqichga bo’lingan. Birinchisi umumiy ta’lim beruvchi madrasa xisoblangan. Bu yerda diniy ilmlar chuqur o’rgatilgan, tabiiy fanlardan esa umumiy ma’lumotlar berilgan. Ushbu umumiy ta’lim madrasasini bitirgan talabalar boshlang’ich maktablarda o’qituvchi, masjidga imom, kozixonalarda mufti bo’lib ishlaganlar. Ikkinchisi esa madrasai oliya deb atalib, unda yuksak martabaga ega allomalar faoliyat ko’rsatgan. Bunday madrasalar asosan katta shaxarlarda mavjud bo’lgan[8]. Ulug’bek talabalarga, mudarrisarga dars berish, baxs-munozara usullariga katta e’tibor bergan. Uning rasadxonasi ko’plab olimlarning malaka oshirishida muhim ahamiyat kasb etgan[9].

Ulug’bek ta’limotida ilm inson ma’naviyatining asosi ekanligi xaqidagi g’oya yetakchi o’rin tutadi. Ilm insonni g’aflat uyqusidan uyg’otadi, fikrni teranlashtiradi, tafakkurni o’tkirlashtiradi. Inson ilm-ma’rifat yordamida ulug’lar darajasiga yetadi. Uning fikricha, odob va axlof inson ma’naviyati va kamolotida katta o’rin egallaydi.

O’zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, ulkan ma’rifatparvar, fan va

madaniyat homiysi Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida ilgari surilgan tarbiyaviy g’oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko’tarilgan. “Boburnoma” juda qimmatli adabiy-tarixiy asar bo’lib, u XV asr oxiri XVI asrning 30 yillarigacha bo’lgan murakkab tarixiy davrni o’z ichiga olgan siyosiy voqealar, o’sha davrning ma’rifiy-madaniy hayotiga batafsil to’xtalib, qimmatli ma’lumotlarni keltirgan.

Bobur insonparvar, ma’rifatparvar shaxs bo’lib, uning asarlarida baxt-saodat, ilm-fan, Vatanni ulug’lash alohida o’rin egallagan. Bobur ma’rifatni xalq orasiga yoyish, ilmi jamiyat ravnaqi yo’lida xizmat qildirishga intilgan.

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda Bexbudiylar, Fitrat, Cho’lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Avloniy, Tavallo, So’fizoda kabi o’nlab ma’rifatparvarlar jamiyatda ilm-fanni tutgan o’rni va ta’lim-tarbiya masalalarini birinchi o’ringa olib chiqdilar. Ularning xar biri o’z asarida yosh avlodni bilimli va ilmi qilish, zamonaviy ta’lim tizimi va xorijiy tajribalarni o’rganish masalalari asosiy maqsad sifatida peshqadamlik qila boshladi.

Bu davrda Turkiston o’lkasida pedagogik fikrlarning rivojlanishida, xalq maorifi ishlarini yuksaltirishda ilg’or ziyolilarining, jumladan, jadid adabiyotining yirik vakili shoir, dramaturg, muallim Abdulla Avloniy (1878-1934)ning xizmatlari beqiyosdir. U maktablar ochib, shaxsan o’zi muallimlik qilish bilan birga maktablarni darsliklar bilan ta’minlash ishiga katta hissa qo’shdi. Uning qalamiga mansub «Turkiy Guliston yoxud axloq», «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» «Maktab Gulistoni» asarlari bir necha bor nashr etildi. Bular ichida «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari o’zbek klassik pedagogikasining ajoyib namunasi hisoblanadi.

Avloniy xazratlari tarbiya xaqida gapirib o’z davrlarining tarbiya qiluvchilari: ota-onalar, muallimlar, mudarrislar, hukumat maktablarining kamchiliklarini ochiq oydin bayon etadi.

Uning “**Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir**” iborasi bejj aytilmagan. U axloqni ikki qismga yaxshi axloq va yomon axloqqa, tarbiyani uchga: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasiga ajratadi va ularning xar birining ahamiyatini tushuntirib beradi.

“Biz sihatimizni saqlamak ila amr o’linganmiz, shuning uchun vujudimizi hifzi-sihatga zid bo’lgan yomon odatlar ila churitmakdan saqlanmakligimiz lozimdur. Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o’ng ila terisi kapidur. Agar jism tozalik ila ziyatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustini qo’yib astarini yuvub ovora bo’lmoq kapidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur”[9]. Ushbu fikrlar qanchalik o’rinli aytilgani va hozirgi kunda hamdolzarbligini yo’qotmagani ahamiyatlidir.

Xulosa va takliflar. Muxtasar qilib aytganda, yurtimizdagi xar bir alloma o’z asarida birinchi o’rinda ta’lim va tarbiyaga katta ahamiyat berganligi, o’zlari ham bu borada barchaga namuna bo’ladigan yetuk olim va inson sifatida tarix sahnasida namoyon bo’lganini ko’rish mumkin. Shuningdek, yuqorida qayd etilgan allomalarning ilmiy nashrlarini yosh avlodga yetkazish, uning mazmun-moxiyati bilan tanishtirib borish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. M.C.Нишанов. Нур Шарқдан таралади. Шарқ уйғониш даври мутафаккирлари қарашларида инсонпарварлик ғояси ва уларнинг миллий тарбия тизғимидаги ўрни” мавзусида Республика илмий-амалий анжуман материаллар. Андижон. 2015й. 67 бет
2. Буюк юрт алломалари. Т.2016 й.13-14 бетлар.
3. У.Уватов. Ал-Ҳаким ат-Термизий. Буюк юрт алломалари. Т.2016. 53 б
4. М.Комилов. Алоуддин ас-Самарқандий. Буюк юрт алломалари. Т.,2016 й. 238 б

5. К.Рахимов. Хожа Бахоуддин Нақшбанд . 294 б
6. Ибн Сино. Ахлоқ фани. Т. 1992. 31-бет
7. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. Т.: “Ўзбекистон”, 1971, 271-бет.
8. У.Долимов. Темурийлар даврида мадраса таълими.. Амир Темур ва Темурийлар даврида илм-фан ва маданият. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Т.2013. 143 б.
9. У.Долимов. Темурийлар даврида мадраса таълими.. Амир Темур ва Темурийлар даврида илм-фан ва маданият. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Т.2013. 143 б.
10. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. Т. 2005. 5 б



Raviyaxon ISMOILOVA,
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: ismoilovaraviyaxon@gmail.com

"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasini mudiri dots. N.M.Quchqorova taqrizi asosida

MONTESSORINING JAHON MAKTABGACHA TALIM TIZIMINING RIVOJLANISHIGA QO'SHGAN HISSASI

Annotatsiya

Ushbu maqola Montessorining tarjimai holi, jahon maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishiga qo'shgan hissasi hamda uning maktabgacha talim tashkilotlarida qo'llaydigan o'yin va metodlari haqida.

Kalit so'zlar: Montessori, aqliy rivojlanish, pedagogika, Casa dei Bambini Montessori usuli, bolalar uyi, ijodiy pedagogika, psixologiya.

ВКЛАД МОНТЕССОРИ В РАЗВИТИЕ МИРОВОЙ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В этой статье рассказывается о биографии Монтессори, ее вкладе в развитие мировой системы дошкольного образования, а также об играх и методах, которые она использует в организациях дошкольного образования.

Ключевые слова: Монтессори, интеллектуальное развитие, педагогика, метод Монтессори Casa dei Bambini, детский дом, творческая педагогика, психология.

CONTRIBUTION OF MONTESSORI TO THE DEVELOPMENT OF THE WORLD PRESCHOOL SYSTEM

Annotation

This article is about Montessori's biography, her contribution to the development of the world preschool education system, and the games and methods she uses in preschool education organizations.

Key words: Montessori, intellectual development, pedagogy, Casa dei Bambini Montessori method, children's home, creative pedagogy, psychology.

Kirish. Nima uchun bu buyuk ayolning tarjimai holi biz uchun juda qiziq?

Har qanday usulni uning yaratilish tarixini bilmasdan turib uni bilish mumkin emas, yaratilish tarixi ijodkorning tarixidir. Mariya 1870-yil 31-avgustda Italiyaning Chiaravalle shahrida badavlat oilada tug'ildi. Mariyaning oilasi yoshligidan unga yaxshi ta'lim berish uchun qulay shart-sharoitlar yaratdi. Yosh qizning orzusi pediatrik kasbi edi. Mariya orzusi yo'lida gimnaziyani tugatgandan so'ng, Rim universitetining tibbiyot fakultetiga o'qishga kiradi va ikki yil ichida tibbiyotni o'rganishga qattiq bel bog'laydi [1]. Lekin o'sha davrlarda Yevropa hozirgidek demokratik va ozodlikdan yiroq edi. Bu davrda Mariyaning ilm-fan yo'lida yuksaklikka erishishi juda qiyin masala bo'ldi. Ammo bunday yengib bo'lmaydigan to'siqlar ham Mariyani orzu sari intilish yo'lidan to'xtata olmadi.

Natijada 26 yoshida Mariya Montessori Italiyadagi birinchi ayol shifokori bo'ldi va universitet psixiatriya klinikasida dotsent bo'lib ishlay boshladi. U har kuni ushbu klinikada ishlagan va aqli zaif bolalarni kuzatgan Itard Jan Mari-Gaspard va Seguin Eduardning bolalar psixologiyasi va pedagogikasi bo'yicha asarlarini o'rgandi. Mariya asarlarini o'rganish jarayonida hayratlanarli xulosaga keldi: aqli zaif bolalarning muammolari tibbiyotning emas balki, pedagogikaning muammolardir va ularni kasalxonada emas balki, bog'cha va maktablarda hal qilish kerak degan xulosaga keldi. Shu paytdan boshlab Mariya Montessorining taqdirida keskin burilish yasaldi va Mariya Italyan pedagogikasiga yangilik kiritish bola qobiliyatini erta aniqlash va rivojlanishiga turtki berishning ilmiy asoslarini obdon o'rganadi va Italiyada ilk maktab "Casa dei Bambini" italyancha "Bolalar uyi" deb nomlanuvchi maktabni ochadi. So'ngra butun dunyoning Montessori pedagogikasiga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi. Jumladan Rossiyada E.A. Xiltunenning

sa'y-harakatlari bilan Montessori maktablari ochildi [2]. So'ngra butun dunyoda "Montessor usuli" qo'llanila boshlandi. 1910-yilda Montessori o'zining "Montessori usuli" nomli kitobini nashr etdi va u darhol dunyoning 20 tiliga tarjima qilindi. Qisqa fursat ichida doktor Montessori nafaqat Italiyaning faxriga balki dunyodagi eng mashhur pedagogiga aylandi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Montessori metodikasidan foydalanish usulining kelib chiqish tarixi hamda Montessorining jahon maktabgacha ta'lim tizimiga qo'shgan hissasi va bolalarning intellektual rivojlanish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq ishlar g'arb va MDH olimlarining tadqiqotlarida ancha keng yoritilgan.

Jumladan o'zbek olimlaridan; D.M.Djumanova, M.G'ulomjonova, D.Gafurova, N.Boboqulova, G.Berdialiyeva, F.Yusupova, Q.Hoshimov, S.Nishonova, F.Qodirova, T.Xurvaliyevlar Montessori usulini bolalarning erkin faoliyatiga intellektual qobiliyatlarining va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida rivojlanishini o'z ilmiy ishlarida tadqiq qilishgan [4]. Uning pedagogik tizim 20-asrning birinchi choragida chet-el olimlaridan P. P. Blonskiy, V. V. Lermontov, E. I. Tixeeva, L. I. Chulitskaya, P. O. Efrussi, Yu. I. Fausek, E. N. Yanjul va boshqalar asarlarida keng o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Montessorining tarjimai holi jahon maktabgacha talim tizimining rivojlanishiga qo'shgan hissasi hamda, uning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llaydigan o'yin va metodlari muhokama qilindi. Xususan, "Akvarium", "Gullar", "Qal'a", "Elmarning katakli fili", "Teatr" o'yinlarning metodik xususiyatlari tavsiflanadi.

Tahlillar va natijalar. Taniqli olim va faylasuf Mariya Montessori bolalarning o'yinlarini kuzatish va o'yinlar

orqali bolalarning mustaqil va erkin fikirlashga o'rgatish g'oyasi asosida bolalarni tarbiyalashning yagona tizimini yaratdi. Har bir bola noyobdir va ular tug'ilishidan mustaqillikka erishish uchun harakat qiladi va biz kattalarning vazifasi ularning mustaqil bo'lishga yo'l ochib berishga yordam berishdir deya ta'kidlaydi Mariya. Montessori bog'cha va maktablari tarbiyachilarga bolalar bilan ishlash prinsipini o'rgatuvchi maktab va bog'chalardir, bundan tashqari ushbu bog'cha va maktablarda Montessori tomonidan ishlab chiqilgan bolalarni mustaqil fikrlash ko'nikmalarini va intellektni rivojlantirish uchun mo'ljallangan didaktik materiallardan foydalaniladi.

Montessori butun bir hayotini o'rganishga ilm olishga bag'ishladi, natijada Mariya sinovlar turli xil tajribalardan so'ng kelajak avlodga eng yaxshi va eng samarali, o'yin, metod va materiallarni tanlab qoldirdi. U hamma narsalarni so'nggi tafsilotlarigacha hisobga oldi. Mebelning qulayligi, joyini to'g'ri tashkil etish, qoidalar va tartibga rioya qilish, bolalarning yoshi barcha-barchasi uning e'tiboridan chetda qolmadi. Bugungi kungacha metodikaning tarafdorlari tomonidan ishlatiladigan "Oltin material Montessori" -o'yin va didaktik rivojlanish materiallari asosan zamonaviy o'yinchoqlar yaratilmoqda. Misol uchun,



2. Gullar

Bu o'yinni o'ynash uchun bizga kerak bo'ladi: shishkalar, paxta tayoqchalari, bo'yoqlar, plastilin.

O'yinning bajarilishi quloq tiqinlarini yarmiga bo'ling uchlaridagi paxtani turli rangdagi bo'yoqlarga botirib ularni


plastilin to'pi ichiga yopishtiring. Tayyor gulni shishka ustiga bog'lab qo'ying.



3. Qal'a

Bu o'yinni o'ynash uchun bizga kerak bo'ladi: bo'yoq, cho'tka va shimgich. O'yinning bajarilishi turli o'lchamdagi shimgichni to'rtburchaklar va uchburchaklarni kesib oling

so'ngra gubkalarni bo'yoqqa botirib oq qog'ozlarda tepalikdagi qal'ani rasmni hosil qiling,



4. Elmerning katakli fili

Bu o'yinni o'ynash uchun bizga kerak bo'ladi: yelim va rangli qog'oz.

O'yinning bajarilishi qog'ozga filni chizib rangli qog'oz varaqlarini mayda bo'laklarga bo'lish. Biz bo'laklarni

qog'ozda chizilgan filga yopishtiramiz, ko'p rangli qog'ozdan bir butun fil hosil qilamiz.



5. Teatr

Biz tez-tez qo'g'irchoq teatriga boramiz, lekin uyda o'z teatringiz bo'lishidan yaxshiroq narsa yo'q. Uyda teatrn yaratishda butun oila ishtirok etishi mumkin. Boshlash uchun bizga juda katta karton bo'lagi kerak. Kartonda biz tomni, yon minoralarni, derazalarni chizamiz. Istaganingizcha kesib oling va bezang. Oldida biz parda bo'lib xizmat qiladigan mato bo'lagini biriktiramiz.

Oq qog'ozda biz spektaklda bo'lishni xohlaydigan qo'g'irchoqlar - qahramonlarning naqshlarini chizamiz- bizda malika, shahzoda va ajdaho bor. Qo'g'irchoqlarni ranglang va kesib oling. Biz ularga tayoqlarni somonlarni orqa tomondan yopishtiramiz va ularni vertikal holda ushlab turish uchun mustahkamlaymiz. Montessori materiallari Mariyaning o'zi tomonidan yaratilgan va bugungi kungacha dolzarbdir. Ularning vazifasi chaqaloqning dunyo haqidagi hali ham bir-biridan farq qiladigan g'oyalarini tartibga solishdir. U o'z-o'zidan o'rganadi, xatolarga yo'l qo'yadi va ularni o'zi tuzatadi, ish jarayonida olingan bilimlarni tizimga soladi. Barcha o'quv buyumlari yog'och yoki matolardan yasalgan bo'lib, ular teginish uchun yoqimli va xilma-xildir.

Xulosalar. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki Mariya Montessori pedagogik usulidan foydalanadigan ta'lim tashkilotni bolalarning kichik bir alohida sayyorasi bilan solishtirish mumkin bu yerda o'rnatilgan qoidalar mavjud va ruxsat berish uchun joy yo'q. Shu bilan birga bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini va his-tuyg'ularini tushunishni mustaqillik va kundalik muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallashni o'rganadilar. Kichkina

odamning qobiliyatlarini rivojlantirishga hech kim va hech narsa xalaqit bermaydi. Tizim bolalar uchun shablonli faoliyatni taklif qilmaydi balki bolani harakatga undaydi va materiallarning katta tanlovini taqdim etadi. Montessori metodologiyasining asosiy xususiyati bola o'zining individual qobiliyatlarini ko'rsatishi mumkin bo'lgan va istaydigan maxsus rivojlanish muhitini yaratishdir. Montessori o'qituvchisining roli o'qitish emas, balki bolaning mustaqil faoliyatiga rahbarlik qilishdir.

Mariya Montessori pedagogik usulidan foydalanadigan ta'lim tashkilotni bolalarning kichik bir alohida sayyorasi bilan solishtirish mumkin, bu yerda o'rnatilgan qoidalar mavjud va ruxsat berish uchun joy yo'q. Shu bilan birga, bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini va his-tuyg'ularini tushunishni, mustaqillik va kundalik muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallashni o'rganadilar. Kichkina odamning qobiliyatlarini rivojlantirishga hech kim va hech narsa xalaqit bermaydi.

Tizim bolalar uchun shablonli faoliyatni taklif qilmaydi, balki bolani harakatga undaydi va materiallarning katta tanlovini taqdim etadi. Bolaning irodasi intellektual qobiliyatlari Montessori g'oyalariga ko'ra, tabiiy qonuniyatlarga asoslanib rivojlanadi. Pedagogning asosiy vazifasi bolaga to'liq erkinlik va mustaqillik berib, bu qonunlarga aralashmaslik va buzmaslikdir. Bolaga tartib, itoatkorlik va tashkilotchilik istagi xosdir. Pedagog bu intilishni qo'llab-quvvatlashi va rivojlantirishi, uni yo'q qilmasligi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Монтессори М. Научная педагогика. В 2-х томах. – М.: «Образовательные проекты», «Речь», «Сфера», 2014. – С. 528.
2. Т. Л. Горностай (Брест, Беларусь) Н. А. Степанова (Магнитогорск, Россия) “История и развитие субъектно-деятельностного подхода м. монтессори в дошкольном образовании” Научный журнал С 56-57
3. Djumanova D.M. “Bola shaxsiga yondashuv” «Zamonaviy ta'lim» ilmiy- amaliy, ommabop jurnali, 2012 yil, 1-son. 50-53b.
4. “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”. 2017-yil 30-sentabr, 5198-sonli farmoni. - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
5. Афанасьева Т.И. Учить по Монтессори (из опыта работы). – М.: МЦМ, 1996. –С. 48.
6. Berdaliyeva G. Montessori pedagogikasining 10 qoidasi. Ma'rifat. T.2.10.2018
7. Lyubina, G. Montessori Harmonik Atmosfera G. Lyubina “Maktabgacha ta'lim.” fg?0 2000. - No 11. - B.47-52.
8. 404 / Про педагогику Марии Монтессори (mariamontessori.ru)



UDK: 796.1:737.1(575.1)

Ulug'bek KARIMOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail: uzmu.ukarimov@mail.ru

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) M.Qirg'izboyev taqrizi asosida

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF PHYSICAL EDUCATION OF STUDENTS WITH THE USE OF UZBEK NATIONAL MOBILE GAMES

Annotation

This article highlights the role and importance of national mobile games in the training of physical education of students in our country. Besides, methods and means of physical education in educational institutions are analyzed.

Key words: physical education, youth, sport, school, mobile games, training, competition, teaching.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩЕЙСЯ МОЛОДЁЖИ С ПРИМЕНЕНИЕМ УЗБЕКСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ПОДВИЖНЫХ ИГР

Аннотация

В данной статье освещены роль и значение национальных подвижных игр в подготовке по физическому воспитанию учащейся молодёжи в нашей стране. Кроме того, проанализированы методы и средства физического воспитания в учебных заведениях.

Ключевые слова: физическое воспитание, молодёжь, спорт, школа, подвижные игры, тренировка, соревнование, обучение.

O‘QUVCHI-YOSHLARNI JISMONIY TARBİYALASHDA O‘ZBEK MILLIY HAKKATLI O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimizda o‘quvchi-yoshlarni jismoniy tarbiyalashda o‘zbek xalqining milliy harakatli o‘yinlarning ahamiyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yoritilgan. Bundan tashqari o‘quvchi-yoshlarni ta‘lim muassasalarida jismoniy madaniyat fania tayyorlash uslublari hamda mashg‘ulotlar jarayoni haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, yoshlar, sport, maktab, harakatli o‘yinlar, mashg‘ulot, musobaqa, ta‘lim.

Kirish. O‘zbek xalqining ming yillar davomida yaratgan, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ijod boyliklarini to‘plash, o‘rganish, bu boy xazinalar asosida yosh avlodni ma‘naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Ayniqsa, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng milliy qadriyatlarimiz, an‘analarimizga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaydi. Bu hayotning hamma jabhalarida turli darajada o‘zini namoyon eta boshladi, jumladan tarbiyaning asosiy qismlaridan biri jismoniy madaniyatda ham. “Jismoniy tarbiya, - deyiladi O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonuni”da, - O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonuni”da, - O‘zbekiston Respublikasi xalqlar milliy madaniyatining ajralmas qismi, jismoniy va madaniy, ma‘naviy kamolatining muhim vositasi” ekanligi ta‘kidlanadi [1].

Bu esa yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy madaniyat oldiga katta ma‘suliyatli vazifalar qo‘yadi. Yosh avlodni jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan jismoniy madaniyatini milliy lashtirishiga, bunda xalqimizning unitilib borayotgan milliy o‘yinlarini to‘plash, hayotga-maktabga tadbiiq etish, rivojlantirish yo‘llari va usullarini qayta ko‘rib chiqish

zaruriyatini keltirib chiqaradi. O‘zbek xalqining ko‘p yillar davomida shakllangan, avlodlariga meros bo‘lib qolgan milliy harakatli o‘yinlaridan foydalanish mustaqillikka erishgan bugungi kunlarimizda juda ham zarur.

O‘zbek xalq milliy harakatli o‘yinlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, ularni maktab, bog‘cha o‘quv dasturlariga kiritish, ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan turlarini sport darajasiga ko‘tarish jismoniy madaniyat fani oldidagi eng dolzarb muammolardan biriga aylanganligini ko‘rsatadi.

Maktabda jismoniy tarbiya darslarida xalq milliy harakatli o‘yinlarini o‘tkazish usullarini to‘liq egallamagan o‘qituvchilar hozircha ko‘pchilikni tashkil etadi. Buning ustiga ijtimoiy voqe‘lik, pedagogik amaliyot va nazariyot keng omma o‘rtasida tug‘ilib, rivojlangan xalq pedagogikasining eng yaxshi yutuqlaridan samarali qo‘llash, xalq pedagogikasi g‘oyalari asosida fikr yuritish o‘quv tarbiyaviy ishning muvaffaqiyatini ta‘minlovchi hal qiluvchi omillardan ekanligiga guvoh beradi. Shu bois tadqiqot natijalaridan amaliyotda keng foydalanish mumkin.

Hozirgi zamon pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri xalq xazinalarini insonparvar pedagogik tarbiya tizimida qo‘llash va ulardan mohirona foydalanish, bu bebaho, xalqchil, ma‘naviy boyliklarni o‘qituvchilarning har kungi ta‘lim-tarbiyaviy ishlariga aylantirishdan iborat.

Shunga ko'ra o'sib borayotgan avlodning tarbiya tizimida xalq pedagogikasi tajribalari yoshlarning xarakteri va ongini boshqaruvchi vosita, asosiy kuch deb hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, o'tkazilgan tadqiqotning maqsadini maktabda jismoniy tarbiya darslarida xalq milliy harakatli o'yinlaridan foydalanish orqali 7-8 yoshli o'quvchilarning jismoniy sifatlarini oshirish yo'llarini aniqlash, rivojlantirish, milliy o'yinlarning rolini oshirishning samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda mana shunday maqsadlarni ko'zda tutgan holda, biz o'z oldimizga quyidagi vazifalarni qo'ydik.

1) jismoniy madaniyatning xalq an'analari bilan bog'liqligini ko'rsatib berish, o'zbek xalq o'yinlarining va respublika ijtimoiy hayotining turli tomonlari bilan bog'liqligini oydinlashtirish;

2) xalq milliy harakatli o'yinlaridan foydalanish orqali umumta'lim maktablarining 7-8 yoshli o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini aniqlab, rivojlanish jarayonini kuzatish orqali ma'lum xulosalar chiqarish;

3) jismoniy tarbiya darslarida o'zbek xalq o'yinlaridan foydalanish orqali bolalarda jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarador usullari, shakllari, yo'llarini aniqlash;

Tadqiqotning obyektini o'zbek xalq milliy o'yinlari, maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanish jarayoni umumta'lim maktablaridagi 7-8 yoshli bolalarning milliy harakatli o'yinlarga asoslangan jismoniy tarbiya darslari tashkil etdi.

Jismoniy madaniyatning komil insonni jismoniy tarbiyalashlik muqaddas vazifalarini bajarishda barcha o'quv yurtlari ta'lim tizimidagi yosh avlodni jismoniy baquvvat, chaqqon, irodali, vatanparvarlik ruxida tarbiyalab voyaga yetkazish uchun jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni va uni bajarish tadbirlariga suyanan xolda yangi usullarni tashkil qilish va o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu ishlar samarali bajarilishi uchun bolalarning eng kichik yoshidan boshlab milliy o'yinlar vositasi bilan jismoniy salomatlik "poydevorini qurish" ni amalga oshirish mumkin.

Shu bilan birga o'zbek xalq milliy o'yinlarini to'plash va ularni hayotga tadbir etish, ulardan oqilona foydalanish bugungi kunda oldimizda turgan ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Ushbu vazifa yosh avlodni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy madaniyat oldiga ham katta ma'suliyat yukladi.

Yoshlarni har tomonlama jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, o'quvchilar jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan bu muammoni umumta'lim maktab o'quvchilari jismoniy madaniyatini tashkiliy va pedagogik jarayonlar bilan birga bir-biriga bog'lab kelgan uzviylikda ko'rib chiqish lozimligini keltirib chiqaradi, bunda milliy xalq o'yinlarining roli katta ekanligini qayta-qayta ta'kidlab o'tmoqchimiz. Shuning uchun xalqimizning asrlardan-asrlarga o'tib kelayotgan milliy o'yinlarini avaylab-asrab keyingi avlodga yetkazish yo'llarini izlash, ishlab chiqish va hayotga tadbir etish bizning maqsadimizdir.

Milliy xalq o'yinlarini xalqimizning bir necha yillik madaniy boylklari haqidagi tasavvurlarini ma'lum darajada

kengaytiradi, hozirgi hayotga singdirish yo'llarini boyitishga yordam beradi.

Milliy harakatli o'yinlar jismoniy tarbiyaning eng ta'sirchan usullaridan bo'lib, o'quvchilarda aqliy, ahloqiy va nafasot tarbiyasini birgalikda muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim vositadir. Shuning uchun bolalar o'yinlarining ruhi, tabiati, saviyasi, ishtirokchilarning hatti-harakatlari kabi jihatlarga ham e'tibor berish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy madaniyatini qiziqarli va foydali o'tkazish uchun biz tavsiya etayotgan ba'zi milliy o'yinlardan foydalanishda ham xuddi shu xususiyatlarga e'tibor berish kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatlarga muhabbat uyg'otish, xalq an'analarini avaylab-asrashga o'rgatish ko'p jihatdan o'zbek xalq milliy o'yinlaridan unumli foydalanib bilishga bog'liq. Chunki milliy o'yinlar orqali bola bir tomondan jismoniy bilimlarni egallasa, ikkinchi tomondan, jismoniy madaniyatga qiziqirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish masalalari ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan. Mazkur olimlarning tadqiqotlarida bolalarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi, harakat faolligi sustligi aniqlangan.

Xalq milliy o'yinlarining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini o'rganish borasida talay ishlar qilindi. Bir qancha olimlar o'z tadqiqotlarida xalq milliy harakatli o'yinlarida foydalanish haqida u yoki bu darajada fikr yuritganlar.

Bolalar va o'smirlarning harakat faolligini oshirishga yordam beradigan omillar: milliy harakatli o'yinlar, milliy mashqlar elementlari, bellashuvlar va sport turlari, jismoniy tarbiyaning an'anaviy vositalaridan foydalanish yo'llari ko'rsatilgan.

So'nggi yillarda professor F.N.Nasriddinov boshchiligidagi bir guruh mutaxassisliklar, yosh tadqiqotchilar milliy o'yinlarni o'rganish, ularni xalq o'rtasida ommalashtirish maqsadida bir qator ilmiy-amaliy ishlarni, nashrlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldilar.

Bu sohada professor A.Q.Atoyevning ilmiy ishlarini ham aytib o'tish o'rinlidir. Uning xalq o'yinlaridan maktabda, oilada, darsdan tashqarida, jamoat joylarida foydalanish haqidagi bolalarni tarbiyalashda chaqqonlik, ephchilik dorkor, kuch-quvvat kabi xususiyatlarining takomili to'g'risidagi tadqiqotlari qiziqish uyg'otadi.

Bulardan tashqari har yili o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjumanlar va shu munosabat bilan nashr etilayotgan to'plamlarda ham xalq milliy o'yinlariga e'tibor kuchaygani, ularni o'rganish, to'plash borasida tadqiqotlar yaratilmoqda.

Shu bilan birga pedagogika fani ham yoshlarning jismoniy tarbiyasi, ularda harakatli sifatlarini rivojlantirish, muntazam olib boriladigan mashg'ulotlar orqali jismoniy madaniyatga extiyoj va qiziqishni uyg'otish muammolariga hamisha diqqat qilib keldi va kelmoqda.

Ko'rinadiki, bir qator ishlarda u yoki bu tarzda mazkur muammo haqida fikrlar yuritilgan bo'lsa-da, o'zbek xalq milliy o'yinlari vositasida 7-8 yoshli o'quvchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash muammosi jismoniy madaniyat tizimida hamda, xalq pedagogikasida to'liq xolda maxsus tadqiqot predmeti bo'lgan emas.

Milliy o'yinlar bilan shug'ullanish jarayonida mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi. Bolalarning salomatligi yaxshilanadi, ularda harakat malakalari shakllanadi, mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan jismoniy fazilatlar rivojlanadi. Bolalarni mehnatga tayyorlashda jismoniy madaniyatning, jumladan, xalq milliy o'yinlarining tutgan o'rni ularga tushuntirish va bu tushunchani ularning ongida shakllantirish g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Xalq milliy o'yinlarini o'rgatish jarayonida o'quvchilar xalqona an'alariga sodiq holda yaxshi tarbiya

ko'radi, o'rgangan narsalarini puxta eslab qoladi. Bolalarda ruhiy jarayonlar (tarbiya, tafakkur, xotira, tasavvur va boshqalar) ning, shuningdek, fikrlash faoliyatlari (kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, sintezlash, umumlashtirish va hakozolar) ning, barchasi rivojlana boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasining quyidagi asosiy vazifalarini bajarishda ham xalq milliy o'yinlarining roli va o'rni nihoyatda katta ekanligi ko'rinadi:

1. Sog'liqni mustahkamlash, o'quvchilarni to'g'ri jismoniy rivojlantirishga va chiniqtirishga yordam berish.

2. O'quvchilarga jismoniy madaniyat va sportga oid maxsus bilimlar berish, ularga gigiyenik bilim va ko'nikmalarini singdirish.

3. O'quvchilarda harakat malakalarini va ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish, yangi harakat turlariga va harakat faoliyatiga o'rgatish.

4. Yoshga muvofiq ravishda asosiy harakat sifatlarini (kuch, tezkorlik, ephillik, chidamlilik va boshqalar) rivojlantirish.

5. Botirlik, qattiylik, nizomlilik, jamoaga birlashish, do'stlik hissini madaniy hulq ko'nikmalarini, mehnatga munosabatini tarbiyalash.

6. Turganda va yurganda qomatni to'g'ri tutish ko'nikmalarini shakllantirish.

7. O'quvchilarda jismoniy madaniyat va sport bo'yicha muntazam mashg'ulotlarga barqaror qiziqish va ko'nikmalarini tarbiyalash.

8. O'quvchilarga tashkilotchilik malakalarini singdirish, jamoatchi jismoniy madaniyat faolini tayyorlash.

Xulosa. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy xarakatli o'yinlarni hamma fazilatlar, qobilyatlar, sifatlarini tarbiyalash bilan bir qatorda aqliy va xarakat ko'nikma hamda malakalarining shakllanishida asosiy o'rnlarni egallaydi. Tajriba xalq milliy o'yinlarni jismoniy tarbiya darslariga kiritish uchun:

-ularni turkumlarga bo'lish;

-jismoniy sifatlarini rivojlantirishiga qarab tanlanishni;

-yilning fasllarida qo'llaniladigan o'yinlarni aniqlash zarurligini isbotladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida 2015 yil 4 sentyabrdagi O'RQ-394-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 avgustdagi "Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O'zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag'batlantirish to'g'risida"gi PQ-3196-sonli Qarori.
3. Ta'lim sohasidagi huquqiy –me'yoriy hujjatlar to'plami (2010-2019 y.y.)
4. Abdumalikov R. Abdullayev A. Xalq milliy o'yinlari mazmunida ma'naviyat masalalari. T.: 1995.14 b.
5. Isakova M T. Komil inson tarbiyasida milliy qadriyatlar. Alpomish. Ilmiy-amaliy anjuman matnlari. Farg'ona 2000. 41-45 b.
6. Usmonxo'jayev T., Xo'jayev F. Harakatli o'yinlar, 1992. 3-4 b.
7. Usmonxo'jayev T.S. Nauchno-pedagogicheskiye osnovi fizicheskogo sovershenstvovaniya detey v svyazi s ix dvigatelnoy aktivnostyu. Avtoref. diss. ...dokt. ped. nauk. – Toshkent 1995.-49b.
8. Xaydarov K.S. Metodika povisheniya fizicheskoy podgatovlennosti uchashixsya v usloviyax shkoli-internata: Avtoref. diss. ...dokt. ped. nauk.-Tashkent,1998, b.5.
9. Xo'jayev F., Adris E.R., Islamov B., Solixov. "Xalq o'yinlari, milliy sport turlarini qayta tiklash va aholini jismoniy tarbiyalashda ulardan keng foydalanish usullari" mavzusiga bag'ishlangan jumhuriyat ilmiy-amaliy anjumanining tezislari. 19-20 aprel 1991 yil, 1-qism, b. 8-10.



Shoxrux QARSHIYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: qarshiyevshoxrux@gmail.com

F.f.n. dots., SH.To'raev taqrizi asosida

FORMATION OF RELIGIOUS VALUES AS THE BASIS OF MORAL VALUES

Аннотация

This article will highlight religious views that have a direct impact on the psyche of modern people, their role in the life of society, as well as moral views. The erosion of religious, spiritual and moral values in the waves of globalization can lead to various tragic consequences. Opinions were also expressed about the formation of religious consciousness and enlightenment among people who are able to make correct scientific conclusions about religion, its various forms, teachings, trends and sects.

Key words: Science, Islam, religious values, education, national-spiritual heritage, nation, teaching, direction, sect, religiosity and secularism.

ФОРМИРОВАНИЕ РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ КАК ОСНОВЫ ПРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация

В данной статье будут подчеркнуты религиозные воззрения, которые оказывают непосредственное влияние на психику современных людей, их роль в жизни общества, а также моральные воззрения. Размывание религиозных, духовно-нравственных ценностей на волнах глобализации может привести к различным трагическим последствиям. Также были высказаны мнения о формировании религиозного сознания и просвещения у людей, способных сделать правильные научные выводы о религии, ее различных формах, учениях, направлениях и сектах.

Ключевые слова: Наука, ислам, религиозные ценности, просвещение, национально-духовное наследие, нация, учение, направление, секта, религиозность и секуляризм.

DINIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH AXLOQIY QADRIYATLARNING POYDEVORI SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqolada, Bugungi kunda kishilar ruhiyatiga bevosita ta'sir o'tkazadigan diniy qarashlar, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni, axloqiy qarashlarga alohida to'xtalib o'tiladi. Diniy, ma'naviy hamda axloqiy qadriyatlarni globallashev to'liqlarida yemirilishi, turli xil fojiali oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuningdek, diniy ong va ma'rifatni shakllantirish insonlarda din, uning turli shakllari, ta'limotlari, yo'nalishlari, mazhablari haqida to'g'ri ilmiy xulosalar chiqara oladigan diniy va dunyoviylik munosabatlarini birdek ushlab turlishi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Ilm, Islom, diniy qadriyatlar, ma'rifat, milliy-ma'naviy meros, millat, ta'limot, yo'nalish, mazhab, diniy va dunyoviylik.

Kirish. Ma'naviy va diniy qadriyatlarimiz tarixan uyg'un holda rivojlanib takomillashib borgan. Ayniqsa, ma'naviy qadriyatlar rivojida an'anaviy islomning o'ziga xos o'rni bor. Insoniy fazilatlarining eng yuqori cho'qqisi, shubhasiz, odob-axloq durdonalari sanaladi. Bugungi kunda barkamol shaxsini kamol toptirishda diniy, axloqiy hamda ma'naviy qadriyatlarining ahamiyati katta.

Biz o'zbek millati ma'naviy qadriyatlari haqida gap ketganda uzoq asrlar qa'rida yuzaga kelgan, vatanparvarlik, do'stlik, tinchliksevarlik, mehmondo'stlik, mehnatsevarlik, muruvvat, andisha, or-nomus, halollik, mehr-oqibat, birodarlik va ahil qo'shnichilik munosabatlari kabi ezgu insoniy fazilatlariga to'xtalib o'tmaslikning iloji yo'q. Yurtimizda o'n asrdan ortiq mavjud bo'lib kelayotgan islom dini xalqimizning ana shunday beqiyos diniy-ma'naviy qadriyatlarida o'z aksini topadi.

Bu borada Islom dini boshqa dinlardan farqli o'laroq ilm xususidagi qarashlari orqali ajralib, "ilm" ya'ni ma'rifat nixoyatda qadrlanadi. Jumladan, Allohning kalomi bo'lmish Qur'oni Karimda «Ilm» so'zi 750 martadan ziyod takrorlanishining o'ziyiq ilm egalash haqidagi tasavvurlarni nechog'lik yuksak darajada ekanligini o'zida namoyon etadi.

Shuningdek, Payg'ambarimiz xadislari ham ilmga chorlov hidoyatga chorlovdek jaranglab turadi. Zero, ilmga chorlov hidoyatga chorlovdir. Tarixiy manbalarga ko'ra 610-yil Rasululloh Hiro tog'idagi g'orda toat-ibodat bilan

mashg'ul paytlarida ul zotning qarshilariga bir farishta kelib: «Iqro» («O'qingiz!») dedi. Rasululloh «Ma ana biqoriyn» («Men o'qiy olmayman») dedilar. Shunda farishta ul zotni ushlab, quchoqlab qattiq qisdilar. Keyin bo'shatib yuqoridagi so'zni takrorlab, yana o'sha javobni oldilar. Shunda farishta: «Ey, Muhammad, butun mavjudotni yaratgan Parvardigor nomi bilan o'qingiz. U insonni lahta qondan yaratdi. O'qingiz. Parvardigoringiz insoniyatga qalam bilan yozishni o'rgatgan zotdir. U zot insonlarga uning bilmaganini o'rgatdi» [1] degan mazmundagi oyatlarni o'qidi. Arabiston diyorida Islom dinining ilk paydo bo'lish davridagi butun insoniyatni xidoyatga chorlovchi «O'qingiz» so'zi bilan boshlangani bejiz emas. Islom dinida ikki dunyo saodatiga erishmoqlikning me'zoni ilmdadur, deya alohida ko'rsatib o'tiladi.

Jumladan, Yevropalik olim Frants Rouzentel o'zining «Sharqdan chiqayotgan quyosh» deb nomlangan kitobining «Madrasaga qatnayotgan xalq» degan bo'limida hali Yevropa hukmdorlari endigina o'rmonlardan chiqib barmoq bilan sanashni o'rganayotgan bir paytda Sharq xalqlari madrasalarga qatnab bu ko'xna dunyo sirlarini tadqiq qilishayotgan, edi deya alohida ta'riflaydi. Bunday fikrlarni ko'plab g'arb olimlari asarlarida uchratish mumkin.

Bundan ko'rinib turibdiki G'arb mamlakatlari endi sanoq va yozuvni o'rgangan mahal, sharq xalqlari madrasada diniy va dunyo ilmlarini egallashga harakat qilganlar.

Darhaqiqat, Islom dini gullab-yashnagan IX-XII asrlarda Movaraunnahr birinchi Uyg'onish davrini boshdan kechirgan. Shu davrda Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Moturudiy, Abul Muin Nasafiy singari o'nlab allomalari ilmi ila dunyoni lol qoldirdilar. Aynan, Movaraunnahr XIU-XU asrlar, ya'ni ikkinchi Uyg'onish davrida Sohibqiron Amir Temur nomi bilan uzviy bog'liq bo'lib bu davrda Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqqan bo'lsa, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko'plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning shuhrati dunyoga yoyildi. Sharqda ma'rifat daraxti gullab yashnashiga sabab bo'lishdi Bu albatta ma'naviy, madaniy, diniy, siyosiy, ma'rifiy jihatdan Sharq olamining ikkinchi uyg'onish davri edi. Buning asosiy me'zoni esa albatta, ilm edi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kundagi kishilar o'rtasidagi tushunmovchiliklar, real hayotdan uzoqlashish va virtual hayotda asosiy vaqtini sarflash oqibatida kishilar o'rtasida shaxsning jamiyatdan begonalashuv muammosi vujudga kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyayev 2020 yil 23 martdagi Ommaviy axborot vositalari xodimlari kuniga bag'ishlangan nutqida shunday deydi "Bugun men aytib o'tgan oilaviy ajrimlar, ma'naviyat, ma'rifat, internet bo'yicha muammolar ko'p. O'zbekiston endi ochildi, orqaga yo'limiz yo'q. Yana bir marta ta'kidlamochiman, ommaviy axborot vositalari to'rtinchi hokimiyat bo'lish nuqtai nazaridan kimgadir yoqmaydi. Ammo oxirgi bir yil ichida jurnalistlar, blogerlar va yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda chiqqan ovozlari bizning islohotlarimiz va qarorlarimizga katta ko'mak beryapti, bu haqiqat. Yoqadimi, yoqmaydimi, ularni eshitishga majburmiz. To'g'risini eshitib, xulosa chiqaramiz, noto'g'risini to'g'ri yo'lga solish — burchimiz, vazifamiz", deya ta'kidlaydi.[2]

Davlat rahbari SH.M.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi nomli asarlaridan foydalanilgan. Islomshunos olim A.Mansur tomonidan tarjima qilingan Islom dini muqaddas kitobi bo'lgan Qur'oni Karimda keltirilgan oyatlar mazmunidan foydalanilgan. Shuningdek, A.Abduraxmonov tomonidan Saodatga eltuvchi bilim nomli kitobi mutolasidan olingan xulosalardan foydalanilgan.

Musosil qism. Islom dinida ilmga chorlov ezgulikka chorlovdek jaranglashi bejiz emas. Chunki, ilmi odam hech qachon yovuzlik qilmaydi, o'zgaralar diliga ozor bermoqlik, yovuzlik qilish kabi g'arazli maqsadlarni ilgari surmaydi. Faqatgina uni egallagan insonning qalbidagi niyati pok yoki nopokligi uni qay yo'ldan borishini belgilab beradi. Shu o'rinda haqiqiy diniy ilmga ega ma'rifatli odam hech qachon to'g'ri yo'ldan adashmaydi. Chunki, islomning maqsadi ezgulikdan iboratdir.

Darhaqiqat, o'z o'tmishini, ajdodlarini, milliy mansubligini, qadriyatlarini, milliy-ma'naviy merosini bilmaydigan millatning ma'naviy suyanchi, milliy g'ururi, kelajakka ishonchi bo'lishi mushkul ish. Bu yo'lda kishining ma'naviy bo'shliqning mavjud bo'lishi esa har qanday g'oyaga ta'sirchan, moyilligi yuqori bo'ladi.

Har bir millat avvalo, o'z milliy taraqqiyoti bosqichlarini, an'alarini, urfodatlarini, ajdodlarining barhayot ma'naviy merosini bilmog'i, uni qadrlamog'i, asrab-avaylamog'i lozim. Shundagina buzg'unchi, yod, nizolarga tashna g'oyalar ma'naviy yetuk millatni chetlab o'tadi. Shu o'rinda bitta nozik nuqtaga e'tiborni qaratish lozim. Markaziy

Osiyo mintaqasi hozirgi vaqtga qadar deyarli ming yildan beri islom dini bilan bog'liq qadriyatlarimiz hanafiy mazhabi asosida shakllanib kelgan. Hanafiy mazhabining bag'rikenglik tamoyillari shariatga zid bo'lmagan milliy urf-odat va an'analarni saqlanib qolishdagi o'rni beqiyos. Biz hozirda faxrlanib yodga oladigan ajdodlarimizning aksariyati mana shu mazhab vakillari bo'lgan.

Demak, ayta olamizki, milliy va diniy qadriyatlarimiz qatorida hanafiy mazhabi an'analari ham o'ziga xos o'ringa ega.

Globalashuv sharoitida bugungi kunda, yurtimizga chetdan kirib kelayotgan, xalqimizning asrlar davomida shakllangan e'tiqodiga zid bo'lgan turli begona diniy oqim va firqalar nafaqat muqaddas dinimizga, balki, bevosita ma'naviy qadriyatlarimizga ham tajovuz ekanini anglab yetishimiz zarur. O'zbekistonda ayni paytda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturudiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari kabi buyuk ajdodlarimizning bebaho ma'naviy merosini, xususan, hanafiy mazhabi ulamolarining merosini hamda moturudiylik aqidaviy ta'limotini o'rganish va targ'ib qilish markazlari faoliyat olib bormoqda.

Demak, ishonch bilan ayta olamizki, hanafiy mazhabi va moturudiylik ta'limoti — xalqimizning ma'naviy qadriyatlarini to'laqonli o'zida mujassam etib, naqafat bizning, balki mintaqimizdagi qardosh va dindosh xalqlarning ham muqaddas qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Hanafiy mazhabi an'alariga zid oqimlar va firqalarning g'oyalarini tarqatish milliy ma'naviyatimiz nafaqat qadriyatlarimizga tahdid, balki axloqiy qarashlarimizga ham qarshi qaratiladi.

Shuni aytish kerakki, ma'naviy axloqiy qadriyatlarimizga aylanib ketgan mehmondo'stlik, o'zaro hurmat-ehitrom, ota-onaning haqlarini ado etish, ijtimoiy hamkorlik, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilar, xususan, jamiyatdagi ehtiyojmand qatlamlarga ko'maklashish, keksalarga hurmat, kichiklarga izzat singari o'zbek xalqiga xos ezuq fazilatiga aylangan. Agar biz g'arbdan kirib kelayotgan egoizm g'oyalariga yon berib, millatimizga xos bo'lgan jamoaviylik, birdamlik kabi tamoyillarini yo'qotib qo'ysak, undan ham xavfli esa oilaviy qadriyatlarimizni yo'qolib ketish holatlariga olib kelishimiz mumkin.

Bugungi rivojlangan o'zbek jamiyatida, xususan, globalashuv davrida ma'naviy-diniy va axloqiy qadriyatlarining o'rni beqiyos hisoblanadi. Bu isbot talab qilmaydigan haqiqat. Ushbu azaliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, targ'ib qilish bugungi jamiyatning dolzarb va ustuvor vazifalaridan ekanligi unitish og'ir oqibatlarini olib kelishi mumkin.

Ammo, kezi kelganda aytish kerak — bugun ijtimoiy hayotda mavjud ayrim illatlarni "o'zbekchilik" deb xaspo'shlanishi mutlaqo o'rinsizdir. Asrlar davomida avloddan avlodga o'tib qadriyat darajasigacha chiqishga ulgurayotgan marosimlarimiz, urf-odatlarimiz, dabdabozlik, har qanday ishda kim o'zarga berilib ketish, riyokorlik, xo'jako'rsinchilik, jinoyat botqog'iga botirib yuboruvchi tanish-bilishchilik va korrupsiya kabi illatlar millatni va xalqni tanazzulga yetaklashi turgan gap. Yuqorida keltirilgan xalqimiz orasidagi salbiy illatlar yuzasidan jamoatchilik nazorati o'rnatilishi fuqarolik jamiyatining muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Odamlar bunday holatlarga befarq va loqayd bo'lmashliklari lozim.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, globalashuv jarayonida texnologik rivojlanish bilan birga diniy-axloqiy va ma'naviy qadriyatlar ham jamiyat a'zolari uchun suv va havodek zarur.

Globalashuv sharoitida moddiy chegaralar tobora nisbiylashib, ma'naviy qadriyatlar asta-sekin umumiy lashib borishi kuzatiladi. Bunday davrda milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish, milliy o'zlikni anglash va qadriga yetish tushunchalari ustuvor maqsadga aylanishi darkor. Milliy

o'zlikni anglash va qadrlash jarayoni esa ma'naviy qadriyatlarimizning mustahkamlanishi bilan erishiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.M. 2020-yil 25-mart "Matbuot va Ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni"ga bag'ishlangan nutqi.
2. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. 2017
3. Qur'oni Karim. Mansur A. tarjimasi. Toshkent. 1992
4. Abduraxmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. Toshkent. O'zbekiston. 2004.
5. To'raev SH. Dunyoning mafkuraviy manzarasi Monografiya, "Muharrir" nashriyoti 2017
6. Falsafa: Qomusiy lug'at. – T.: Sharq, 2004
7. <https://napoleoncat.com> sayti



UDK:930

Kaxramon KAYUMOV,
O‘zJOKU «Ijtimoiy-gumanitar fanlar» kafedrasini mudiri, (PhD)
E-mail: nqayumov@inbox.ru

Sots.fan.dok., dotsent U.Sabirova taqrizi asosida

O‘ZBEKISTONDAGI KICHIK SHAHARLARNI RIVOJLANTIRISHDA TURISTIK DIQQATGA SAZOVOR JOYLARNING IJTIMOY AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kichik shaharlarda sayyohlar oqimini ko‘paytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda maqolada ko‘tarilayotgan masala dolzarblik kasb etadi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-son Farmonlari asos vazifasini bajaradi.

Maqolada aynan bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: kichik shahar, infratuzilma, turizm, taraqqiyot strategiyasi, sayyoh, urbanizatsiya, xizmat ko‘rsatish.

СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ ДОСТОПРИМЕЧАТЕЛЬНОСТЕЙ В РАЗВИТИИ МАЛЫХ ГОРОДОВ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье одним из актуальных вопросов является увеличение потока туристов в малые города, имеющие важное значение в экономико-социальной, политической и культурной жизни развития общества. С этой точки зрения вопрос, рассматриваемый в статье, приобретает актуальность. При этом основой выступают указы Президента Республики Узбекистан от 9 февраля 2021 года № ПФ-6165 “О мерах по дальнейшему развитию внутреннего и паломнического туризма в Республике Узбекистан” и Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 “О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы”.

Также в статье уделяется внимание реформам, проводимым именно в этом направлении.

Ключевые слова: малый город, инфраструктура, туризм, стратегия развития, турист, урбанизация, сервис.

THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF TOURIST ATTRACTIONS IN THE DEVELOPMENT OF SMALL TOWNS IN UZBEKISTAN

Annotation

In this article, one of the topical issues is the increase in the flow of tourists to small towns that are important in the economic, social, political and cultural life of the development of society. From this point of view, the issue raised in the article becomes more relevant. At the same time, the basis is the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 9, 2021 No. PF-6165 “on measures for the further development of domestic and pilgrimage tourism in the Republic of Uzbekistan” and the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 No. PF-60 “on the new development strategy of Uzbekistan for 2022-2026”.

The article focuses on the reforms carried out in this direction.

Key words: small city, infrastructure, tourism, development strategy, tourist, urbanization, service

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti ko‘pgina iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy omillarga bog‘liq bo‘lib, bunda insonlarning mobil harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 81 ta hudud kichik shahar maqomini olgan. Hamda ushbu kichik shaharlar orasida diqqatga sazovor turistik hududlar ham mavjud bo‘lib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy holati boshqa kichik shaharlardan tubdan farq qilmoqda.

Bugungi kunda davlatlarni iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘sib borishida ichki va tashqi turizmni ahamiyati beqiyos. Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida ham aynan xalq manfaatlarini, aholi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, odamlarni rozi qilish kabi ezgu maqsadlar yotadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda ushbu maqolada ko‘tarilayotgan masala dolzarblik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni mamlakatimizni barcha jabhalarda rivojlantirish dasturidir [1]. Jumladan, ushbu strategiyada mamlakatni rivojlantirishning barcha sohalarini qamrab olingan bo‘lib, unda aynan kichik shaharlar bilan birga, mamlakat turizm salohiyatini rivojlantirish uchun etarli darajada asoslar kiritilgan.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 35-maqsadida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga etkazish nazarda tutilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagilarni joriy qilish rejalashtirilgan:

Birinchidan, to‘siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026 yilgacha turizm sohasida band bo‘lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga etkazish; ikkinchidan,

turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish; uchinchi, Zomin, Forish, Baxmal tumanlari va "Aydar-Arnasoy" ko'llar tizimida qo'shimcha turistik zonalar va dam olish maskanlarini barpo etish, 300 million AQSh dollariga teng loyihalarni amalga oshirish, 25 ming ish o'rinini yaratish; to'rtinchi, Samarqandni "turizm darvozasi"ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish; beshinchi turizm sohasida 40 ming kishi bandligini ta'minlash; oltinchi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Orol bo'yida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish; ettinchi, Mo'ynoqning yangi aeroporti imkoniyatlaridan keng foydalanish; sakkizinchi, Xorazm viloyatida turizm yangi ish o'rinlarini yaratishda asosiy drayver soha bo'lishi uchun alohida dastur qabul qilish, to'qqizinchi, Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish; o'ninchi, Navoiy viloyatida ziyorat va ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish, o'n birinchi, Toshkent shahrida turizm infratuzilmasini yanada yaxshilash, Toshkent viloyatida turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish masallari kabi masallar kiritilgan.

Bu nafaqat mamlakat iqtisodiy salohiyatini ko'tarishga, balki, kichik shaharlarni ham har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

2023 yil 4 aprelda qabul qilingan "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-sonli Prezident qarori ham aynan ushbu sohani isloh qilishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi [2]. Jumladan, ushbu qarorda Farg'ona, Namangan yoki Andijondan Buxoro, Samarqand, Termiz, Urganchga, shuningdek, Termiz – Nukus, Samarqand – Urganch, Buxoro – Urganch, Farg'ona – Urganch kabi yo'nalishlar bo'yicha muntazam aviareyslarni yo'lga qo'yish, Toshkentdan Nukus, Urganch, Buxoro, qarshi va Samarqandga aviaqatnovlarni yo'lga qo'yib, amaldagidan ikki baravargacha arzon tariflarni joriy etish, turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan dasturiy ta'minotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSh dollariga etkazish bu mamlakatimiz turizm slohiyatini yanada kengaytirish imkonini beradi. Va bu borada izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Demak, turizmni rivojlantirish uchun huquqiy asos yetarli darajada ishlab chiqilgan. Shu o'rinda e'tiborimizni aynan kichik shaharlarni sotsiologik jihatdan o'rganish tarixga qaratamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sotsiologiya tarixida kichik shaharlarni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Agar kichik shaharlarni sotsiologik jihatdan tadqiq qilinishiga e'tibor qaratsak, bu jarayon aynan Yevropaga to'g'ri keladi. Ammo ulardagi ijtimoiy hayot, madaniyat, qurilish-arxitektura masalalariga Sharq mutafakkirlari ham o'z e'tiborlarini qaratganlar.

Kichik shaharlarning ijtimoiy infratuzilmasiga hamda turizmga oid masalalarni Abu Nasr Forobiyning [3,– 320 B.] o'z asarlarida shaharni boshqarish haqidagi yondashuvlari, Abu Rayhon Beruniyning [4,– 486, 497 B.] asarlarida shaharlarda odamlar jamoa bo'lib yashashining asosiy qoidalari, o'zaro yordam, hamkorlik, tinch-totuv yashash, umumiy manfaat uchun ishlashga asoslangan bo'lishi, Abu Ali

ibn Sinoning [5,– S.200] asarlarida har bir inson xususiy mulkka ega bo'lishi, uni tasarruf etish orqali mamlakatdagi shaharlar obodonchiligiga o'z hissasini qo'shishi, Ibn Xalduinning [6,– 80.B.] asarlarida shaharsozlikning jamiyat rivoji va aholini boshqarishdagi ahamiyati, Amir Temurning [7,– 63.B.] tuzuklarida "Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurishni, musofir yo'lovchilar uchun yo'l ustiga rabotlar bino qilishni, daryolar ustiga ko'priklar qurishni buyurdim" degan g'oyalari ilgari surilgan. Bu o'z navbatida osha davrda qurilgan kichik shaharlarni zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lganligini ifodalaydi. Bu holat ushbu shaharlarga keluvchi sayyohlar o'sha davr uchun yetarli darajada bo'lganligini bildiradi. Demak, tarixda bizda mavjud shaharlarda turizm ma'lum darajada o'z dabrining yetakchi tarmog'iga aylangan.


G'arbda kichik shaharlar XIX asrning o'rtalaridan beri sotsiologlarni ilmiy qiziqish obyekti bo'lib kelmoqda. Kichik shaharlardagi ijtimoiy infratuzilmani boshqarish va kichik shaharlarda turizmning ahamiyati muammolarini o'rganishga doir nazariyalar R.Park, M.Veber, G.Zimmel, E.Dyurkgeym, P.Sorokin [8,9,10,11,12] asarlarida yoritilgan. Bunda kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi, ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni aniqlash, ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy o'sishga ta'siri, aholining ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talab va ehtiyojlarga bog'liqligi, shaharning laboratoriya sifatidagi ahamiyati, shaharlar o'rtasidagi savdo aloqalari hamda shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish mexanizmlariga doir masalalar nazariy asoslantirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Sotsiologiya tarixida ijtimoiy voqelikni aniqlash orqali jamiyatni o'zgartirish muammolarini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu muammolarni o'rganish sotsiolog olimlardan X.Bekker, E.Giddens, P.Burdelarning qarashlari shaharlarni tadqiq qilishda o'ziga xos ijtimoiy muammolarning tahlil qilinganligi hamda kichik shaharlarga kishilarni itilishining sabablari aniqlashga harakat qilganliklari bilan alohida ajralib turadi. MDH olimlarining kichik shaharlarda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish muammolari va istiqbollari T.Arbusova, B.Dudchenko, V.Rutgayzer, J.Totshenkolarning ishlarida ko'rib chiqilgan. Ushbu olimlarning ayrimlari muammoni yagona hukmron partiya orqali ijtimoiy boshqaruv metodologiyasini ishlab chiqish va jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni mustamlaka tuzumga xos tarzda rejalashtirish, mahalliy tub xalqlarni boshqarish kichik shaharlar infratuzilmasi, arxitekturasi, shaharsozlik, iqtisodiy, geografik va urbanizatsiya jarayonlarini va unda migratsiyaning, turizmning o'ziga xos jihatlari va uning oqibatlarini tahlil qilishga harakat qilishgan.

XX asr boshlarida yashagan jadid ma'rifatparvarlaridan Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq", Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" va Abdurauf Fitratning "Oila va oila boshqarish tartiblari" asarlarida shaharlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy-ma'rifiy muammolar va odamlar ijtimoiy madaniy hayotiga ijobiy ta'sir qiluvchi sayyohlikning ahamiyati va uni ma'lum ma'nodagi salbiy jixatlarini ham ochish va uni bartaraf etish yo'llari nazariy asoslashgan [13,14,15].

Tahlil va natijalar. Shu o'rinda mamlakatimiz kichik shaharlarida o'tkazgan sotsiologik so'rovimiz natijalari tahlilini keltirib o'tamiz.

1. Siz istiqomat qilayotgan shaharchada dam olish va xordiq chiqarish maskanlar mavjudmi?



“Siz istiqomat qilayotgan shaharchada dam olish yoki xordiq chiqarish maskanlar mavjudmi?”– degan savolga respondentlarning deyarli yarmi 49%i “Ha” deb javob bergan bo’lsa, 43,4%i esa “yo’q” deb qayd etgan. Qolgan 7,6%i ishtirokchi javob berishga qiynalishini belgilagan. Bunda ko’pchilik respondentlar dam olish maskanlari mavjud, deb e’tirof etgan. Biroq, shunga yaqin foiz respondentlar buning aksini yozgan. Bu, o’z navbatida, kichik shaharlarda istiqomat qiluvchi aholining ijtimoiy kayfiyatiga ta’sir qiluvchi omillar hisoblanadi. Chunki kichik shahar aholisining turmush farovonligi, dam olishni tashkil qilish uchun infratuzilmaning mavjudligi bu ish unimdorligiga bevosita o’z ta’sirini ko’rsatadi. Shu bilan birga sayyohlarni ushbu kichik shaharga tashrifi uchun qisman bo’lsada sabab bo’ladi.

Shu o’rinda mamlakatimizdagi ba’zi tarixiy kichik shaharlarga o’z e’tiborimizni qaratamiz. Rishton Farg’ona vodiysi va O’rta Osiyoning eng qadimiy aholi punktlari va madaniy markazlaridan biri hisoblanadi. Bu hududda sug’oriladigan dehqonchilik ishlari miloddan avvalgi V asrda vujudga kelgan. Manbalarda aholi punkti sifatida IV asrdan, Rishton nomi esa IX asrdan ma’lum. Uzoq tarix davomida shahar bir necha bor sel, zilzila va yot bosqinchilar tomonidan vayron qilingan. Biroq aholi o’zining asl an’anaviy turmush tarzini va xalq hunarmandchiligini saqlab qolgan. VIII asrgacha shahar nomi qayta-qayta o’zgartirilgan va shuning uchun uning kelib chiqish tarixining bir nechta variantlari mavjud. Rishton nomi “Roshidān” (ya’ni, dono, oqilona, to’g’ri yo’ldan yuruvchi) so’zidan kelib chiqqan. Donishmandlarni, odatda, Roshidlar deb atashgan, shahar nomi ham aynan shunga ishora qiladi.

Rivoyatlarga ko’ra, Rishton tumani Farg’ona vodiysidagi tepalikda qal’a yoki istehkom shaklida paydo bo’lgan birinchi aholi punkti yoki shaharlardan biri hisoblanadi. Jadidchi olim Is’hoqxon ibrat o’zining 1916-yildagi “Tarixi Farg’ona” tarixiy kitobida shaharning tashkil topgan vaqti va nomini fors mamlakatidan kelgan ko’chmanchi xalqlar bilan bog’lab, 833-yil, ya’ni IX asrda tashkil topgan deb yozadi [16,– 100. B]. Rishton XVIII asrda yirik harbiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo’lgan qa’la hisoblangan. Bu hududda Xitoy, Hindiston, keyinchalik rus savdogarlari to’xtab o’tganlar. Rishtonda qadimdan kulolchilik san’ati rivoj topgan bo’lib, mashhur Rishton kulollarining mahsulotlari Sharq bozorlarida juda haridorgir bo’lgan. Hozirgi kunda ham Rishton ustalari tomonidan

ishlangan sopol lagan, shokosa, ko’zalar va sopolidan ishlangan badiiy buyumlar respublikadan tashqarida ham juda mashhur hisoblanadi.

Rishton Farg’ona vodiysining madaniy markazlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda Rishtonda yig’iruv to’quv fabrikasi, badiiy kulolchilik buyumlari zavodi va yuzlab kichik xususiy kulolchilik tsexlari, 3 mingdan ziyod yakka tartibdagi hunarmandlar, O’zbekiston badiiy akademiyasi tasarrufida “Usto Abdullo” korxonasi faoliyat olib bormoqda. Rishton o’zining madaniyati va turistlar tashrifi bilan boshqa kichik shaharlarga nisbatan jadal rivojlanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda tarixiy kichik shaharlarga sayyohlar tashrifi yildan yilga ko’payib bormoqda. Bu o’z navbatida ushbu shaharlardagi ijtimoiy infartuzilmalar hizmatini yaxshilash va hizmat ko’rsatish samaradorligini oshirishni talab etadi.

Yana mana shunday kichik shaharlardan biri Zomin shahridir. Zomin havosi tozaligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Ichki turizm ancha rivojlangan bo’lishiga qaramay, tashqi turizm xali yuqori darajada rivojlanmagan. Zomin tumani hokimligi xodimdan olingan eksper so’rovi natijalariga ko’ra Zomin shahrida yetarli imkoniyatlar mavjud. Ammo har bir kichik shaharni mavjud drayverini topish muhim. Horijiy mehmonlar uchun infratuzilma xizmatlarini sifat darajasini yuqori darajaga olib chiqish lozim. Aks holda, arziyas kamchilik tufayli ham turistlarni kelish oqimi keskin kamayib ketadi. Masalan, hojatxona xizmatidagi gigenik holat, sataroshxonalardagi xizmat ko’rsatish sifati, bank xizmati va xokozo. Shunday ekan mana shunday kichik shaharlarimizni rivojlantirishda muhim omil hisoblangan turizimni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlardan foydalanish orqali hududlarni ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, O’zbekiston hududida ko’plab mana shunday kichik shaharlar mavjud bo’lib, ularda turizmni rivojlantirish ushbu shaharlarda samardor infratuzilmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Bu o’z navbatida yangi ish o’rinlarini joriy qilish, ishsizlikni kamaytirish, aholini ma’lum darajada intellektual potentsialini oshirish, turmush tarzini ko’tarish kabi imkoniyatlarga sabab bo’ladi. Shu bilan birga yosh kadrlarni o’zlari tug’ilib o’sgan joyga qaytishga bo’lgan qiziqishni oshiradi. Demak, bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida ulkan imkoniyatlarni vujudga keltirish maqsadi yotadi.

ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to’g’risidagi PF-60-son Farmoni
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 4 aprelda qabul qilingan "respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida" gi PQ-135-sonli qarori
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: yangi asr avlodi, 2018. – B. 320
4. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. I-жилд. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 486; Ҳиндистон. Танланган асарлар. II-жилд. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 497
5. Ибн Сина. Избранные философские произведения. – Москва: Наука, 1980 – С. 200

6. Ибн Халдун. Китоб ул-ибар (Ибратли мисоллар китоби. 1370 й.) – Б. 80.
7. Амир Темур. Темур тузуқлари. – Тошкент: Наврўз, 1992. – Б. 63.
8. Парк Р. Город как социальная лаборатория // Социологическая теория: история, современность, перспективы. – СПб: Владимир Даль, 2008. – С. 31
9. Вебер М. Город // Избранное. Образ общества. Пер. с нем. – М.: Юрист, 1994. – С. 309-446
10. Зиммель Г. Избранное: В 2 т.: Перевод / Гл. ред. и авт. проекта Левит С.Я. – М.: Юристъ, 1996. Т. 1: Философия культуры. Редкол.: Л.Т.Мильская и др. – М., 1996. – С. 670
11. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда / пер. с фр. Гофмана А.Б. – М.: Канон, 1996. – С. 332; 13.
12. Зомбарт В. Строй хозяйственной жизни // Избранные работы. – М.: Издательский дом Территория будущего, 2005. – С. 344
13. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. Пандлар, ибратлар, хикоялар, набийлар хаёти, драмалар, мақолалар, саёхат хотиралари. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 96
14. Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар // Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар: Б.Қосимов. 2 нашр, тузатилган ва тўлдирилган. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 280.
15. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Х.Болтабоев. – Тошкент: Маънавият, 2009. – Б. 317;
16. Исоқхон Тўра Ибрат. “Тарихи Фарғона”. 1916. Тошкент. “Маънавият”. 2005. – Б. 100. Нашрга тайёрловчилар: Улуғбек Долимов, Нурбой Жабборов.



Maxmudjon QODIROV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi, (PhD)

Pedagogika fanlari doktori, dotsent T.Islomov taqrizi asosida

TECHNOLOGIES FOR DIRECTING STUDENTS TO PROFESSION IN TECHNOLOGICAL SUBJECTS OF UNIVERSAL EDUCATION SCHOOLS

Annotation

This article examines the technology of vocational guidance of students in technological subjects of secondary schools. The science of technological education plays an important role in students' choice of future profession, their tasks contribute to the formation of certain skills and qualifications. The direction of technological education is always available in pedagogical higher education institutions and provides the basis for basic pedagogical skills and abilities of future teachers of technological education.

Key words: work, education, profession, school, student, future, process, education.

ТЕХНОЛОГИИ НАПРАВЛЕНИЯ ОБУЧАЮЩИХСЯ ПРОФЕССИИ ПО ТЕХНОЛОГИЧЕСКИМ ПРЕДМЕТАМ УНИВЕРСАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация

В данной статье рассматривается технология профессиональной ориентации учащихся по технологическим предметам общеобразовательной школы. Наука технологического образования играет важную роль в выборе студентами будущей профессии, их задачи способствуют формированию определенных навыков и квалификации. Направление технологического образования всегда доступно в педагогических вузах и дает основу для формирования основных педагогических навыков и умений будущих учителей технологического образования.

Ключевые слова: работа, образование, профессия, школа, ученик, будущее, процесс, образование.

UMUMTA'LIM MAKTABLARINING TEXNOLOGIK FANLARIDA O'QUVCHILARNI KASBGA YO'LLASH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqola umumta'lim maktablarining texnologik fanlarida o'quvchilarni kasbga yo'llash texnologiyasini ko'rib chiqadi. O'quvchilarni bo'lajak kasb tanlashida texnologik ta'lim fani muhim o'rin tutadi, ularning vazifalari ma'lum ko'nikma va malakalarni shakllantirishga hissa qo'shadi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'lim yo'nalishi doim mavjud hamda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini asosiy pedagogik mahorat va qobiliyatlariga zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: mehnat, tarbiya, kasb, maktab, o'quvchi, bo'lajak, jarayon, ta'lim.

Kirish. Mehnatga oid tarbiya – maktab yoshidagi o'quvchilarni pedagog tomonidan tashkillashtirilgan mehnat faoliyat turi, unda o'quvchilarning psixologik jihatdan mehnatga nisbatan ongi shakllanib, bo'lajak kasbini tanlashga ko'mak vazifasini o'taydi. Mehnatga oid tarbiya tizimini biri biri bilan bog'liq bo'lgan to'rtta bloklarda ifodalash mumkin:

1. o'quv jarayonida mehnat tarbiyasi;
2. maktab o'quv darsidan tashqari ishda mehnat tarbiyasi;
3. oilada mehnat tarbiyasi;
4. maktabdan tashqari ishda mehnat tarbiyasi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Har bir inson uchun uzluksiz ta'lim tizimi uni ehtiyojlarini qondiruvchi vosita va shakllanish jarayoni, ma'naviy ozuqa manbayi, ta'limning turli bosqichlarda qobiliyatlarni rivojlantiruvchi omil hamda o'zini-o'zi o'rgatish va o'zini-o'zi tarbiyalash yo'li bo'lishi lozim. Shaxs shakllanishi, uni ijtimoiy psixologik va jismoniy yetilishi, kamolga yetgan hamda barqaror vaqti, jumladan tanasi qarigan paytda ham davom etadi deb takidlagan Ya.A.Komenskiy o'z vaqtida [5].

Yangi O'zbekistonda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, ta'lim sohasini ham chetda qoldirmadi. Shu ma'noda mamlakatimizda ham bu borada, ta'lim sohasini shakllantirish masalariga jiddiy tarzda e'tibor qaratildi.

Ta'lim – bu tabiiy va ijtimoiy-madaniy amaliyotning o'ziga xos sohalidir, ommaviy va shaxsiy o'zlikni anglash

sifatlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir. Aynan ta'lim jarayonida ijtimoiy-madaniy tajriba almashinuvi sodir bo'ladi, ya'ni bu jarayonda yosh avlodga nafaqat bilim va malaka meros bo'lib o'tadi, ularga qanday fikrlash, dunyoni anglash, millatimizning ma'naviy boyligi, milliy qadriyatlarimiz, tarixiy merosimiz, urf-odatlarimiz, an'alarimiz va diniy e'tiqodimiz shular jumlasidan. Ta'lim jarayonida inson shaxs sifatida shakllanadi. Ta'lim sohasi faqatgina ilmiy jarayon bilan bog'liq emas, yuqorida keltirganimiz ijtimoiy, iqtisodiy, hatto siyosiy jarayonni ham keng qamrovli bo'lgani uchun, u bilan ham bog'liqdir. Ta'lim asosida jamiyat rivojlanadi, albatta ta'lim kasbiy faoliyat jabhasida ham o'ziga xos o'ringa ega.

Professional ta'limning rivojlanishi Vatanimizdagi tubdan amalga oshirilayotgan islohatlar natijasi ta'sirida sodir bo'lmoqda, ya'ni fuqorolar jamiyatining shakllanishi oqibatida, iqtisodiy bozor sektorlarini kengayishi, regionlashtirish jarayoni munosabati, ish bilan bandlik sohasidagi o'zgarishlar, ishchi kuchiga talab oshganligi sabablidir.

Shunday qilib, professional ta'lim sohasi tegishli innovatsion rivojlanish tendensiyasi hisobiga, uzluksiz ta'lim g'oyasini kiritish, shu orqali shaxsda ta'limdagi faoliyatini bosqichlar o'rtasidagi izchilligini, ya'ni ketma-ketligini ta'minlaganligini kiritisa bo'ladi. Ta'limdagi uzluksizlik

g'oyasi, ta'lim tizimida bosqichma-bosqich pog'onalardan boshlang'ichdan yuqoriga qarab ko'tarilish imkoniyatini yaratadi, bu o'z navbatida ishtirokchilarning kasbiy va shaxsiy faoliyati jarayonidagi rivojlanishni anglatadi va bir bosqichda berilgan vazifaning o'ziga xos yechimi topiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Umumta'lim maktablari sharoitidan kelib chiqqan holda, quyidagi mehnat ta'limiga oid vazifalariga yechim topiladi:

1. maktab yoshidagi o'quvchilarni zamonaviy ishlab chiqarish mahsulotlari bilan tanishtirish, mehnat faoliyatini ilmiy jihatdan tashkillashtirish, mehnatga oid qonuniyatlarni bilan tanishtirish, texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bilan tanishtirish;

2. o'quvchilarni turli mehnatga oid bilim va ko'nikmalarga o'rgatish, mehnatning jismoniy va aqliy madaniy asoslarini shakllantirish (o'z faoliyatini rejalashtirish; o'z ish joyini tashkillashtirish, o'z mehnati shuning jumlasidan; xarita, chizma va jadvallar bilan ishlash; fikrlash qobiliyatlariga ega bo'lish (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va boshqalar); oddiy dastgoh va asboblarni ishlatish va boshqalar);

3) shaxsda mehnat ahloqlari sifatlarini rivojlantirish: mehnatsevarlik, burch va javobgarlik, maqsad sari intilish va uddabironlik, ishni ko'zini bilish, yetarli darajada malakaga ega bo'lish, rostgo'ylik, vijdonlik, mehnat faoliyatidagi insonlarga nisbatan hurmat va ularning faoliyatidagi natijalariga va boshqalar;

4) maktab o'quvchilarida mehnat faoliyatining sababiyatlarini shakllantirish, anglash va kasbiy qiziqishlarni rivojlantirish, ishtiyoq, qobiliyat, intilishlar va bilimlarni amaliyot vaqtida qo'llash, ijodiy mehnat ehtiyoji davomida ham;

5) o'quvchilarni bilgan holatida kasbga yo'naltirish va kasbiy faoliyatigacha bo'lgan kasbiy tayyorgarlikni olish.

Tahlil va natijalar. Keltirilgan vazifalar maktabdagi o'quvchilarning mehnatga oid tarbiyaning tuzilishini ifodalaydi. Mehnatga oid tarbiya davomida mehnat yetakchi o'rinni egallaydi. Tarbiyani amalga oshirish quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi [2]:

1) ta'lim jarayonini mehnat bilan uzviy bog'lash (mehnatda o'quvchilar o'z bilim va mahoratini amaliyotda ifoda eta olishi lozim);

2) maktab o'quvchisining shaxsiy qiziqishlari mehnat faoliyatida qiladigan harakat bilan mos kelishi (maktab o'quvchilariga mehnatning ahamiyati yaqqol ifoda etilishi kerak, ular qilayotgan ish jamiyatga, oilasiga va o'ziga foydali ekani bilishi lozim va iqror bo'lishi kerak);

3) mehnatni amalga oshira olishi va qila olishi kerak (qilinayotgan mehnat maktab o'quvchisidan kuchni talab etishi kerak, lekin talab etilgan kuch uning kuchidan ortmasligi lozim, ya'ni ularni imkoniyati va qobiliyati darajasida tanlanilishi darkor);

4) maktab o'quvchilarining mehnati rejalashtirilgan holda tashkil etilishi lozim (maktab o'quvchilarini mehnat faoliyatiga qo'shilishi uchun aniq tizim va aniq vazifani ifodalashi kerak, bajarilish ketma ketligi, majburiyatlarni teng taqsimoti, javobgarlikni ajratib ko'rsatmoq, o'zini tutabilish (etiket) shartlarini aniqlashtirish va boshqalar);

5) maktab o'quvchilarini jamoaviy va individual mehnat shakllarini moslashtirish (bir tarafdin maktab o'quvchilari bir biri bilan jamoada hamkorlik qilishi zarur, boshqa tarfdin – har bir maktab o'quvchisi aniq bir vazifani bajarishi lozim va uni qila olishi bilishi kerak, bajarayotgan vazifasining sifati va uni vaqtida tayyorlanishi uchun javobgarlikni his qilishi darkor);

6) maktab o'quvchilarining mehnati natijasining manfati (ahloqiy, moddiy). Mehnatga oid tarbiyani amalga oshirish yo'llari: texnologiyaga oid ta'lim – maaxsus tayyorlangan pedagogik jarayon, ya'ni texnologiya sohasida bilim va mahoratni shakllantirishga yo'naltirilgan. Shakllar: texnologiya darslari, amaliyotlar, ishlab chiqarish hududlariga ekskursiya tashkillashtirish va boshqalar. Maktab o'quvchilarni har xil mehnat ko'rinishlaridagi ishtiroki [3]:

1) o'z o'ziga xizmat qilish. Tuzilishi: o'zining narsalarini ehtiyot qilish va ularga qarash, navbatchilik, maktab xonalarini tozalash va ozoda tutish, kitoblarni, mebellarni ta'minlash v.b.;

2) jamoaviy foydali mehnat. Tuzilishi: rahbarlik, hududni osoyishtaligi, qishloq xo'jalik va sanoat ishlab chiqarish tashkilotlariga ko'maklashish, fermer xo'jaliklariga, dorivor o'simliklarni terishga, makulatura, o'rmon va suvomborlarini nazorat qilishga v.b.;

3) ishlab chiqarish mehnati. Tuzilishi: ishlab chiqarish-o'quv guruhleri, maktab tadbirlari, tashkilotlarning o'quv sexlari, oilaviy ketma ketlik, ferma xo'jaliklari, xizmat ko'rsatuvchi idora v.b.;

4) o'quv mehnati (aqliy va jismoniy). Ta'lim jarayonini tashkillashtirishning barcha ko'rinishlari, ya'ni hozirgi kundagi ta'lim berish sohalarida. Darsdan tashqari tarbiyaviy ish. Tuzilishi: mavzuga oid kechalar, ishlab chiqarish mutaxassislari va yaratuvchilar bilan uchrashuvlar, tadbirkorlar, tadbirkorlar bilan uchrashuvlar, o'quv muassasalarining professor-o'qituvchilari bilan shuning jumlasidan, kasbga oid referat ishlarini himoya qilish v.b.

Mehnatga oid tarbiya ko'rsatkichlari [1]:

- maktab o'quvchilarini mehnatga ehtiyoji;
- mehnatga qiziqish;
- mehnatga oid faollik;
- ishlab chiqarish va tadbirkorlik to'g'risida bilimga ega bo'lish, mehnatga oid ko'nikma shuning jumlasidan;
- kasbni tanlashga tayyor bo'lish;
- mehnat jarayoniga ijodiy munosabatda bo'lish;
- mehnatga oid tartibli bo'lish.

Xulosa. Yuqorida keltirilganlar shaxsda mehnat ahloqlari sifatlarini rivojlantirib, mehnatsevarlik, burch, javobgarlik, maqsad sari intilish va uddabironlik, ishni ko'zini bilish, yetarli darajada malakaga ega bo'lish, rostgo'ylik, vijdonlik, mehnat faoliyatidagi insonlarga nisbatan hurmat va ularning faoliyatidagi natijalariga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi, eng asosiysi bo'lajak kasbi haqida tasavurga ega bo'ladi hamda tanlagan kasbiga qarab oldiga maqsad qo'yadi, shu maqsad sari intiladi, bu o'z navbatida unda mehnatga oid bilim va ko'nikmalarga o'rgatishni taqazo etadi, mehnatning jismoniy va aqliy madaniy asoslarini shakllantiradi, o'z faoliyatini rejalashtirishda katta imkoniyat yaratadi, o'z ish joyini tashkillashtirishda va o'z mehnatini samarasini rivojlantirib, o'z maqsadiga erishadi.

ADABIYOTLAR

1. Muhammadjonovich, Q. M. (2023). The importance of continuing education in training highly qualified technological education teachers. *Frontline Social Sciences and History Journal*, 3(05), 76-86.
2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: «Просвещение», 1995. – 336 с.
3. Кузьмина Н.В., Зимичев А.М. Акмеология - Метод. и методол. проблемы/ Сост. и ред. - СПб.: Акмеол. акад., 2003 - 303 с.
4. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Т.: Фан, 2004.– 126 б.
5. Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения: В 2 т. – М.: Педагогика, 1982. Т.2. - 576 с.



UDK: 9A.65716.

Sardorxon QUVONDIQOV,
TDPU, Jismoniy tarbiya va sport kafedrası professorı v.b(PhD)

TVChDPI Jismoniy tarbiya va sport kafedrası mudiri dotsent, PhD A.Abdulaxatov taqrızı asosida

BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT O‘QITUVCHILARINI O‘QUVCHILARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchilarda fuqarolik va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish mezonlari va ko‘rsatkichlaridan “Uzlyuksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”ni joriy etishda tarbiyalanganlikni baholash indikatorlari sifatida foydalanilgan. Natijada bo‘lajak pedagoglarni talabalarda Vatanga sadoqat kompetensiyasini shakllantirishga tayyorgarligini tashxis etish imkoniyati oshgan. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan vatnparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan interfaol shakl, metod va vositalaridan “Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyasi” qo‘llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan. Mazkur takliflar bo‘lajak pedagoglarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga imkon yaratgan.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik ongi, vatanparvarlik dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy, fuqarolik-vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik, sport va vatanparvarlik, pedagogika, bo‘lajak o‘qituvchilar, tarbiyaviy faoliyat, ta‘lim, tarbiya, kompetensiya, modernizatsiya.

КУЛЬТУРНО-КУЛЬТУРНАЯ КУЛЬТУРА, ЗАНИМАЮЩАЯСЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ, СОГЛОМ ТУРМУШ ЯВЛЯЕТСЯ ОСНОВОЙ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация

Данная статья была использована в качестве показателя оценки воспитанности при введении "концепции непрерывного духовного образования" из критериев и показателей развития гражданско-патриотической компетентности будущих педагогов. В результате возросла возможность диагностики готовности будущих педагогов к формированию у студентов компенсатии лояльности к Родине. Разработанные в рамках исследования интерактивные формы, методы и средства, основанные на компетентностном подходе развития чувства патриотизма, были использованы при разработке учебно-методического пособия "педагогическая наука и технология обучения". Эти предложения позволили подготовить будущих учителей к воспитательной деятельности, развить в них активную гражданскую позицию.

Ключевые слова: Патриотическое сознание, патриотическое мировоззрение, нравственно-нравственный, гражданско-патриотический, военно-патриотический, спортивно-патриотический, педагогика, будущие учителя, воспитательная деятельность, образование, воспитание, компетентность, модернизация

CULTURAL AND CULTURAL CULTURE ENGAGED IN ENTREPRENEURIAL ACTIVITY, SOGLOM TURMUSH IS THE BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL TRAINING

Annotatsiya

This article was used as an indicator of the assessment of upbringing when introducing the "concept of continuous spiritual education" from the criteria and indicators of the development of civil and Patriotic competence of future teachers. As a result, the ability to diagnose the readiness of future teachers to form students' loyalty to the Motherland has increased. The interactive forms, methods and tools developed in the framework of the study, based on the competence-based approach of developing a sense of patriotism, were used in the development of the educational manual "pedagogical science and technology of education". These proposals made it possible to prepare future teachers for educational activities, to develop an active civil position in them.

Key words: Patriotic consciousness, Patriotic Outlook, moral, civil-Patriotic, military-Patriotic, sports-Patriotic, pedagogy, future teachers, educational activities, education, upbringing, competence, modernization.

Kirish. Jahondagi rivojlangan mamlakatlar globallashuv sharoitida ma’naviy-madaniy taraqqiyot yo‘lida o‘z madaniy merosi, madaniy va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Bu o‘z navbatida ta‘lim jarayoniga innovatsion yondashuv va pedagogik texnologiyalarni faol tatbiq etish bilan bog‘liq. Ta‘lim jarayoniga joriy etilayotgan innovatsiyalar samarasi o‘qituvchining kasbiy-pedagogik ijodkorligi va rivojlanganligi darajasiga bevosita bog‘liq. Sarbon deklaratsiyasi, Jahon ta‘lim forumi, Ming yillik rivojlanish maqsadlari, Ta‘lim barcha uchun va Lissabon Konvensiyalarida kompetentli yondashuv asosida malakali kadrlar tayyorlashning innovatsion yo‘nalishlarini ta‘minlashga katta ahamiyat berilgan. Bolonya jarayoni doirasida ta‘limning faol va interfaol shakllari variativligini ta‘minlash, kompetentli

yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik kreativligini rivojlantirish muammosini tadqiq etishga e’tibor kuchaytirilgan.

Dunyo amaliyotida shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, ilmiy-metodik ta‘minot va axborot-ta‘lim muhitini shakllantirish, ta‘lim jarayoni komponentlari diagnostikasi asosida kasbiy-pedagogik kreativlik muammolarini yechish, ta‘lim sifatini kompleks boshqarish, yagona elektron tizim orqali ta‘limni amalga oshirishning talaba-pedagog-talaba munosabati, ta‘limning umumkasbiy va mutaxassislik komponentlariga asoslangan intellektuallashtirilgan tizimlarini takomillashtirish, zamonaviy didaktik vositalarni o‘qitishning bosqichli modeli asosida qo‘llash, ta‘lim oluvchilarning kreativ kompetentligi

(ijodiy tafakkur, mujassamlashtirish qobiliyati, tahlil-sintez-umumlashtirish), innovatsion texnologiyalar visitasida rivojlantirishning yangi metodlari mohiyatini ochib berishda kompetensiyaviy yondashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanish zaruriyatga aylangan.

Ishning maqsadi. Respublikamizda ta'limning yangi paradigmalariga o'tishi nafaqat talabalarining o'zini o'zi natijaviy rivojlantirishga innovatsion yondashuvlarni, balki ushbu jarayonning metodologik asoslarini takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Jumladan, "Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talabalariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda".¹ Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimining nazariy va amaliy mazmunini takomillashtirish, pedagogik kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, kreativ ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida pedagogik madaniyatni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari, shart-sharoitlari va texnologiyalarini takomillashtirish hamda ulardan oliy ta'lim amaliyotida foydalanishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning usullari mavzuga doir ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, sotsiometriya (suhbat, anketa, test, intervyu), pedagogik tajriba-sinov va ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillarini kasbiy ehtiyojlarga mos ravishda pedagogik refleksiya (o'z-o'zini anglash, idrok qilish, baholash, boshqarish) ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. bo'lajak o'qituvchilarida kasbiy madaniyat, pedagogik muloqotini shakllantirishda o'quv materiallarini tizimlashtirishning

ADABIYOTLAR

1. Атаджанова Ш. Оилада ўспирин-ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда миллий кадриятлардан фойдаланишнинг педагогик асослари: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2001. – 136 б.
2. Балагланов А.Р. Патриотическое воспитание младших школьников средствами изобразительного искусства: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Кострома, 2000. – 27 с.
3. Бейсембаева А.А. Патриотическое воспитание старшеклассников средствами казахского героического эпоса. Канд.пед.наук.....автореф. –Алматы: 2004. – 23 с.
4. Галиахметов И.Р. Патриотическое воспитания школьников и пути его совершенствования. – Казан, 2001. – С.61-62.
5. Горбова М.А. Воспитания патриотизма у старших классников игровыми формами турстко-краеведческой деятельности: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – М., 1999. – 24 с.
6. Ильин И.И. Формирование патриотическое отношений у студентов: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Тамбов, 2003. – 24 с.
7. Иброхимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Тошкент, Ўзбекистон, 1996. – 139 б.
8. Каган М.С. Гражданское общество как культурная форма социальной системы // Социально-гуманитарные знания. – М., 2000. - №6. – С.49-50.
9. Калдыбекова А.С. Интернациональное воспитание учащихся в старших классов казахской школе в процессе изучения родной литературы (На меатериале казахских школ Республики Узбекистан): Дисс. ... канд.пед.наук. – Т., 1993. – 136 с.
10. Караковский В.А. Стать человеком. Общечеловеческие ценности – основа целостного учебно-воспитательного процесса. – М., 1993. – 80 с.
11. Каримбеков С. Военно-патриотическое воспитание учащихся старших классов в процессе преподавания литературы (на материале русской литературы): Дисс.канд.пе.наук. – Т., 1991. – 137 с.
12. Кирьякова А.В. Теория ориентации личности в мире ценностей. – Оренбург: Изд-во «Южный Урал», 1996. – 188 с.



Moxigul KURBANOVA,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi, (PhD)

O'zbekiston xalq artisti, professor, Farg'ona davlat universiteti S.Mannopov taqrizi asosida

USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC CULTURE LESSONS OF GENERAL SECONDARY EDUCATION

Annotation

The article describes the development of the intellectual maturity of today's youth, their thirst for learning, their independent thinking and scientific and creative research, their endless interest in innovations and discoveries, and their demand for educational content, the teacher's work on himself, improving his skills and further developing his consciousness, all the innovations in the education system. Opinions were expressed that it should be reported.

Key words: "Musical culture", innovation, interactive method, model, emotional excitement, minimum requirements.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье описывается интеллектуальная зрелость современной молодежи, ее тяга к знаниям, самостоятельное мышление и научно-творческие исследования, их бесконечный интерес к инновациям и открытиям, требовательность к содержанию образования, работа учителя над собой, совершенствование его навыков и дальнейшего развития его сознания, обо всех новациях в системе образования. Высказывались мнения, что об этом следует сообщить.

Ключевые слова: «Музыкальная культура», инновация, интерактивный метод, модель, эмоциональное возбуждение, минимальные требования.

UMUMIY O'RTA TALIM MUSIQA MADANIYATI DARSALARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Аннотация

Maqolada hozirgi zamon yoshlari aqliy kamolotining rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o'rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta'lim mazmuniga talabchanligi, o'qituvchining o'z ustida ishlash, malakasini oshirib borishi va ongini yanada rivojlantirishi, ta'lim tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo'lib borishi kerakligi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: "Musiqqa madaniyati", innovatsiya, interfaol metod, model, emotsional ko'tarinkilik, minimal talablar.

Kirish. Musiqa madaniyati ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan, madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Hozirgi zamon yoshlari aqliy kamolotining rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o'rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta'lim mazmuniga talabchanligi, o'qituvchining o'z ustida ishlash, malakasini oshirib borishi va ongini yanada rivojlantirishi, ta'lim tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo'lib borishi kerakligiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda pedagogika fani, ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar. Bular orasida J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov, N.S.Sayidahmedov, R.H.Jo'rayev, Q.Y.Yo'ldoshev kabi ta'lim-tarbiya jarayonlari fidoiylarining nomlari alohida hurmat va e'tiborga molikdir[3]. Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissor» bo'lishi kerakligini anglashi lozim. U o'z o'quvchilarini musiqa faniga bo'lgan ijodkorlik nuqtai

nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiyadan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchigina ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi bo'ladi [3]. Musiqaning muhim jihati shundaki, u eng avvalo his-tuyg'ular bilan bevosita bog'lanadi, qolaversa o'rganilayotgan har bir musiqiy asar yuksak insoniylik va ma'naviy poklikni namoyish etadi. Musiqa san'ati u bilan shug'ullanuvchilardan yuksak insoniylik, ma'naviy poklik va nihoyatda nozik didni talab etadi.

Bugungi kunda musiqa san'ati va madaniyati darslarini ilmiy metodik jihatdan har tomonlama takomillastirib, zamon talablariga mos ravishda olib borishlik musiqa o'qituvchisi oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bois umumta'lim maktab «Musiqqa madaniyati» darslarining o'qitilishi bilan bog'liq ayrim muammolar va ularning yechimini ta'minlash yo'llarini qisman bo'lsada ko'rib chiqishni lozim topdik. Har bir fanning o'ziga xos xususiyati bo'lishi tabiiydir. Musiqa o'qitishning ham o'ziga xos tomonlari ko'p, albatta. Bu uning tashkiliy tuzilishi va amaliy ijrochilik bilan bog'liq ko'rinishlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun darsning har bir faoliyat turida ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin. Dars mashg'ulotlarida ma'ruza, hikoya, tushuntirish, namoyish qilish, ko'rsatish, musiqa tinglash, suhbat, savol-javob, jamoa bo'lib kuylash, ovoz sozlash

masqularida har birining mazmun-mohiyatiga ko'ra mavjud shart-sharoit, o'qituvchi va o'quvchilar imkoniyatiga muvofiq tarzda texnologiyalarni tatbiq etish mumkin. Bunda musiqa o'qituvchisining ham o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Musiqa san'atiga muhabbat, qiziqish, darsni emotsional ko'tarinki ruhda o'tkazish, pedagogik mahoratni rivojlantirib borish, bolalarni sevis, ulardagi musiqiy qobiliyat, qiziqishlarni e'tiborga olish va ularni ro'yobga chiqarishga intilish shular jumlasidandir. Agar o'qituvchida bu kabi xususiyatlar bo'lmasa, har qanday pedagogik texnologiyalar ham quruq, mazmunsiz va qiziqarsiz, samarasiz bo'lib qolishi hech gapmas. Chunki har qanday ta'lim shakli, modeli, turi o'qituvchining pedagogik mahorati, bilimi, malakasi va pedagogik faoliyatsiz kutilgan natijani bermasligi aniq. Ma'lumki, musiqa o'qituvchisi o'quv-tarbiya ishlarini baravariga olib boradi. O'quvchilarni musiqa san'ati orqali tarbiyalashda o'qituvchining yaxshi sozandalik mahorati, yaxshi ovozga ega bo'lishi, nota o'qish, turli vositalardan oqilona va o'rinni foydalana olishi, so'z mahorati, o'quvchilarning qobiliyatlarini oshira bilishi muhim. O'qituvchining o'zi biror bir cholg'u asbobida kuy ijro etsa yoki qo'shiq kuylab bersa, sinf o'quvchilariga o'zgacha yoqimli ta'sir etadi, ularning kayfiyatlari ko'tariladi. Musiqa o'qituvchisi bulardan tashqari darslarni kuzatib borishi lozim. Doimiy kuzatishlar sababli o'qituvchi pedagogik mahoratini oshirib boradi. U vaziyatni baholash, o'quvchilarni ichki tuyg'u, qiziqish va qobiliyatlarini sezishga o'rganadi. Kuzatish 1-sinfdan 7-sinfga qadar davom etadi. Bunda qo'llanilayotgan usul, shakl va pedagogik texnologiyalarning ham samaradorlik, qulaylik, bolalar uchun qiziqarli va e'tiborli jihatlari aniqlanib boriladi. Musiqa ta'limining o'ziga xosligi tashkiliy tuzilishi, amaliy ijrochilik faoliyatlari, shuningdek, o'qitish usullari, ularning samaradorligini ta'minlovchi omillar, vositalar tahlili va ularning umumiy ijodiy ijobiy jihatlarni umumlashtirish musiqa ta'limini o'ziga xos bo'lgan yangi turlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bular ham o'z maqsadi va bajaradigan vazifasi mazmun va mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya bo'lib, ularni musiqa mashg'ulotlariga tatbiq etish yaxshi natija beradi. Bunday darslar o'quvchilarda yaxshi kayfiyat, jo'shqinlik, ko'tarinki ruh va intilishni kuchaytiradi. Maktab o'quvchilarini musiqa san'atiga qiziqtirish va ta'lim samaradorligini ta'minlashda bir qancha o'yin metodlari va ta'lim usullari mavjud. Ular qatoriga hozirgi kunda ilg'or, tashabbuskor o'qituvchilar tomonidan keng qo'llanilayotgan quyidagi texnologik darslarni alohida ko'rsatishimiz mumkin.

Umumta'lim maktab «Musiqa madaniyati» o'quv fanining mazmuniga bo'lgan minimal talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular boshlang'ich musiqa savodi, musiqiy asarlar ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, xor, ansambl, bastakorlar va kompozitorlar ijodi hamda o'zbek xalq cholg'u asboblari bilish, boshlang'ich musiqiy atama va iboralar, musiqa janrlari, mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o'zlashtirishni nazarda tutadi[5].

Bu mavzular dars jarayonida quyidagi o'quv faoliyatlarida nazariy va amaliy mashg'ulotlar vositasida bajariladi:

1. Musiqa tinglash.
2. Jamoa bo'lib kuylash.
3. Musiqa savodi.
4. Musiqa ijodkorligi.
5. Ritmik harakatlar.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga

o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda o'tkazilishi mumkin bo'lgan dars jarayoni metodikasini har bir o'qituvchi o'z fani (o'quv predmeti) sharoitidan hamda o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'zgartirishi yoki shular asosida o'qitish jarayonida o'zining mualliflik texnologiyalarini yaratishi mumkin. Masalan, darsning musiqa savodi faoliyatida «Baland» va «past» tovushlarni registrlar orqali o'rganish. Registrlar, odatda, baland (yuqori), o'rta va past turlarga bo'linadi. Registrlar haqida o'quvchilarga tushuncha berishda o'qituvchi o'rganilgan yoki bolalarga tanish bo'lgan biror qo'shiqni fortepianoning turli (yuqori, o'rta va past) registrlarida ijro etib beradi. O'quvchilar esa qo'shiq yuqori registrda chalinayotgan bo'lsa, qo'llarini yuqoriga ko'tarishadi, o'rta registrda chalinganda qo'llarini oldinga tushirishadi, pastki registrda chalinganda esa qo'llarini pastga tushirishadi. Bu o'yin-mashqni tikka turib bajarish yaxshi samara beradi va ko'zlangan asosiy maqsadga erishish bilan birga o'quvchilarda jismoniy, ruhiy tetiklik va yuqori kayfiyat hosil bo'ladi. Bundan tashqari, musiqa savodi faoliyati uchun musiqaning ifoda vositalari, ya'ni musiqaning dinamik belgilari va notalarni topish uchun rebuslar tuzib, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Darsning musiqali harakatlar faoliyatida «Raqs tabassumi», «Pantomima», «Mahorat ko'chasi» kabi interfaol usullarni tavsiya qilish mumkin. Bunda kuy tavsifiga mos holda raqs harakatlarini qo'llash mumkin. «Yalamma yorim», «Andijon polkasi», «Lazgi» kuylaridan foydalanilsa, dars sifati yanada quvnoq o'tadi. Qatnashchilar davra shaklida o'tiradilar. Bir o'quvchi yoqimli musiqa ostida barcha o'quvchilarni raqsga taklif etadi.

1. O'quvchilar erkin raqsga tushadilar. Musiqiy kuy tugagach, yonidagi yoki ro'parasida turgan do'stiga tabassum bilan qarab olqishlovchi so'z aytishi kerak.

2. O'quvchilarga tanqid qiluvchi yoki ko'ngilni qoldiruvchi so'zlar aytish qat'iy taqiqlanadi. Ularga quyidagicha murojaat qilish kerak: «Sizni ko'rganimdan xursandman», «Siz juda chiroyli tabassum qilar ekansiz», «Siz juda chiroyli raqsga tushar ekansiz», «Sizni raqsingiz menga zavq bag'ishlayapti» va hokazo.

Mashg'ulot yakunida o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Musiqa sizga qanday ta'sir ko'rsatdi?
2. Atrofdagilarning tabassumini ko'rganda nimalarni his qildingiz?
3. Kimning olqishi sizga ko'proq ma'qul bo'ldi? Nima uchun?

Darsning musiqa ijodkorligi faoliyatida o'zbek xalq cholg'u asboblari to'g'risida bilimga ega bo'lish uchun «Tarmoqlar» (klaster) usulidan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu usul berilgan mavzuni chuqur o'rganish, avvalo o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi nazarga olinadi. O'quvchilarni mavzuga oid tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashga o'rgatadi. Boshlang'ich sinflarda musiqa darslarini o'yin tarzida (qo'shiqlarni o'yin orqali tashkil etish, musiqa, raqsga tushish «chigil yozdi o'yin»lari) olib borilganda o'quvchilarning faolligi oshadi va ular berilgan topshiriqlarni nisbatan oson bajaradilar. Yuqorida aytib o'tilganlarning barchasi ham musiqa darslarini o'z tabiatiga ko'ra yangi-yangi o'ziga xos va zamonaviy interfaol usullardan foydalanishda keng imkoniyatlariga ega ekanligini ko'rsatadi. Yana bir bor shu o'rinda ta'kidlash joizki, musiqa o'qituvchisining zukkoligi, mahorati, ish tajribasi va qanday texnologiyalardan foydalana olishi uning kasbiy mahoratiga bog'liqdir. Musiqa madaniyati o'qituvchisi qanday faoliyat

turlarini qo'llashdan qat'iy nazar, uning dars mavzularini o'tishda pedagogik shart-sharoit mavjudligi va albatta, o'quvchilarning darsga qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda pedagogik texnologiyalarni tanlashi va qo'llashi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Musiqa madaniyati darslarining tashkiliy tuzilishi va shakllariga ko'ra yana keng qo'llaniladigan quyidagi turlarini ham ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Tashkiliy darslar.

2. Aralash darslar.

3. Dominantali (darsdagi biron bir faoliyat turi qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodxonligi, musiqiy ijodkorlik va boshqalardan ustunroq bo'ladi) darslar.

4. Umumlashgan darslar.

5. Intervyu darslar.

6. Yakunlovchi darslar.

Hozirgi vaqtda ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish haqida turli-tuman fikrlar, qarashlar va yondashuvlar mavjud. Bu ham tasodifiy emas, albatta. Zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiya asosida o'qitishni yo'lga qo'yish, ta'lim jarayonini o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli tashkil etish uchun tinimsiz izlanish o'qituvchining muhim vazifasi bo'lib qolmoqda. Dars jarayonida o'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlangan ilg'or pedagogik texnologiyalar o'quvchilarga bilim berish, ularni ma'naviy tarbiyalashda o'z samarasini ko'rsatadi. Qayd etilgan pedagogik texnologiyalar o'qituvchi tomonidan musiqa

madaniyati darslari jarayonida qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'qituvchilar darsda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalansa, musiqa mashg'ulotlarining samarasi yuqori darajada bo'ladi. Zero, o'quvchilar musiqa san'atini butun nafasati bilan qiziqib o'rganishlari zarur. O'quvchilarda musiqa faoliyatlaridan musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa. bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad bo'lib qoladi. Shunday ekan, o'quvchilarda musiqiy iqtidorni rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa san'atiga qiziqtirish, ular uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish, musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu ma'noda biz o'qituvchilar musiqaning ta'sirchan tarbiyaviy kuchidan foydalanib, o'quvchilarning ma'naviy, axloqiy va badiiy madaniyatini o'stirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim tarbiyaning turli mazmun, metod, shakl va vositalari orqali belgilagan maqsadga erishamiz. Ushbu muammolarni ijobiy hal etish, umumta'lim maktablari musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida pedagogik texnologiya, ta'lim usullari bilan o'quvchi-yoshlarni har tomonlama chuqur tanishtirib borish va ularning musiqiy tafakkurini rivojlantirishga hamda shu orqali ularni tarbiyalash ishlarining samarali kechishiga keng imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Абралова М., Галиева Д. «Мусика» 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ф.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008.
2. Гулбоев Т. Янги педагогик технологиялар ва уларни таълим жараёнига татбиқ этиш. – Навоий, 2001.
3. Омонов Х.Т., Хўжаев Н.Х., Мадьярова С.А., Эшчонов Э.У. «Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат». Дарслик. Т. 2007.
4. Саидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. – Т.: «Молия», 2003.
5. мум1 Абралова М., Галиева Д. «Мусика» 2-синф. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ф.Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2008. -4-б.
6. Солиев Н., Умаров А. «Мусика саводи алифбоси»ни ўқитиш бўйича ўқув-услубий қўлланма. – Т., 2003. -17-б.



UDK:94(574)

Bekjon QURBONOV,

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti O'quv-uslubiy bo'lim uslubchisi

ORCID: 0000-0003-4555-6937

E-mail: bekjon@oliymahad.uz

Islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) M.Erkayev taqrizi asosida

MUSTAQILLIK DAVRIDA QOZOG'ISTON MUSULMONLARI IDORASI FAOLIYATI TARIXI

Аннотация

Qozog'iston musulmonlari idorasi dastlab, bosh qarorgohi Toshkent shahrida joylashgan 1943-yilda tashkil etilgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi (SADUM) tarkibidagi hududiy muftiyat (vakolatxona) bo'lib, Qozog'iston muftiyati deb nomlangan. Ushbu diniy boshqarma tarkibidan birinchi bo'lib 1990-yilda Qozog'iston ajralib chiqib, Qozog'iston musulmonlari idorasi tashkil topgan. U mamlakatdagi nufuzi yuksak, nodavlat notijorat tashkilotidir. Mustaqillik yillarida diniy idorani navbatma-navbat 5 nafat muftiy idora etib, xalq va jamiyatga xizmat etdi.

Kalit so'zlar: Qozog'iston musulmonlari idorasi, O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi, Ratbek Nisanbayev, Abdusattor Derbisali, Erjan Mayamerov, Serikboy Oraz, Navro'zbay Otpenov, Nur-Muborak universiteti.

ИСТОРИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ МУСУЛЬМАН КАЗАХСТАНА В ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

Управление мусульман Казахстана первоначально представляло собой региональный муфтият (отдел) в составе Духовного управления мусульман Средней Азии и Казахстана (САДУМ), основанного в 1943 году со штаб-квартирой в Ташкенте, и называлось Муфтиятом Казахстана. В 1990 году Казахстан первым вышел из структуры этого религиозного управления и было создано Управление мусульман Казахстана. Это неправительственная некоммерческая организация с высокой репутацией в стране. За годы независимости он служил народу и обществу, исполняя религиозную должность пять раз подряд муфтием.

Ключевые слова: Управление мусульман Казахстана, Духовное управление мусульман Средней Азии и Казахстана, Ратбек Нисанбаев, Абдусаттор Дербисали, Ержан Маямеров, Серикбой Ораз, Наврузбай Отпенов, Университет Нур-Мубарак.

HISTORY OF THE ACTIVITY OF THE MUSLIM BOARD OF KAZAKHSTAN IN THE PERIOD OF INDEPENDENCE

Annotation

The Muslim Board of Kazakhstan was originally a regional muftiyat (office) within the Religious Administration of Muslims of Central Asia and Kazakhstan (SADUM), which was founded in 1943 with its headquarters in Tashkent, and was called Muftiyat of Kazakhstan. In 1990, Kazakhstan was the first to separate from the structure of this religious administration, and the Muslim Board of Kazakhstan was established. It is a non-governmental non-profit organization with a high reputation in the country. During the years of independence, he served the people and society by serving the religious office for 5 consecutive muftis.

Key words: Muslim Board of Kazakhstan, Religious Administration of Muslims of Central Asia and Kazakhstan, Ratbek Nisanbayev, Abdusattor Derbisali, Erzhan Mayamerov, Serikboy Oraz, Navruzbay Otpenov, Nur-Mubarak University.

Kirish. 1941 yilda Sovet davlati II Jahon urushiga kirgandan keyin ittifoq hududida dinga va dindorlarga munosabat o'zgardi, xususan, musulmonlarga munosabat yangicha tus oldi. Umuman olganda, din Sovet davlatiga bostirib kirgan fashist Germaniyasi uchun ham, o'z yeri mudofaasiga shaylangan Sovet hukumati uchun ham g'oyaviy-mafkuraviy qurolga aylandi. Zero, fashistlar bu urushda qurol-yarog'ning o'zi yetarli bo'lmasligini yaxshi tushunganlari uchun kommunistik tuzum gegemonligi va ateistik siyosatini qoralash orqali ittifoq tarkibidagi turli millat va din vakillari orasida siyosiy tarqoqlikni yuzaga keltirishni ko'zladildilar. Sovet hukumati esa aksincha yo'l tutdi: dinga qarshi zaryiq o'tkazishni vaqtincha to'xtatish yoki yengillashtirish orqali turli millat va turli e'tiqoddagi xalqlarni fashist qo'shinlariga qarshi kurashishga jalb qilish muhimligini tezda tushunib yetdi. Shuningdek, dunyoda o'zini demokratiya uchun kurashuvchi davlat qilib ko'rsatadigan ittifoqchi AQSh va Angliya kabi davlatlarning ham undovi, qolaversa, aholini frontga keng ko'lamlil jalb qilish maqsadida diniy siyosatni keskin yumshatishga majbur bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi ayni qizigan pallada sovet hukumati ittifoqchi mamlakatlarning ikkinchi frontni ochishiga muhtoj bo'ldi. Ammo G'arb davlatlari buning uchun bir nechta shart qo'yishgan edi. Shulardan biri - xalqqa diniy erkinlik berish edi. Sovet davlati rahbari I.V.Stalin britaniyalik mashhur din va jamoat arbobi, Jahon Tinchlik Kengashi a'zosi Xyulet Jonson bilan Moskvadagi uchrashuvlarida uning taklif va tavsiyalarini hisobga olib, fashizmga qarshi kurashda dindor kishilarning xalq orasidagi ta'sir kuchidan ham foydalanish maqsadida bu sohadagi ayovsizlik bilan amalga oshirilayotgan "diniy arboblarni qirib tashlash" siyosatini to'xtatishdan boshqa yo'li qolmadi [1].

1940 yillarda SSSR hukumati tarkibidagi avtonom birliklar hamda 6 ta sotsialistik respublika: Ozarbayjon, Turkmaniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'izistondagi musulmonlarni nazorat qilish hamda yo'naltirish maqsadida 4 ta diniy tashkilot tuzishga ruxsat bergan:

1. Bosh qarorgohi Boshqirdiston poytaxti Ufa shahrida joylashgan Rossiya va Sibir musulmonlari diniy boshqarmasi. (1920)

2. Bosh qarorgohi O'zbekiston poytaxti Toshkent shahrida joylashgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi. (1943)

3. Bosh qarorgohi Dog'istonning Buynask shahrida joylashgan Shimoliy Kavkaz va Dog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi. (1944)

4. Bosh qarorgohi Ozarbayjonning poytaxti Boku shahrida joylashgan Transkavkaz musulmonlari diniy boshqarmasi (1944)

Sovet davlati rahbari I. Stalin bunday qarorga kelishiga ikkinchi jahon urushi boshlanishi va xudosislar tuzumini tobora yolgizlashib qolayotganligi sabab bo'lgan [2: 10].

1943 yil 20 oktyabr kuni Toshkent shahrida mintaqaning ko'zga ko'ringan diniy arboblari ishtirokida bo'lib o'tgan qurultoy O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston hamda Turkmaniston musulmonlarini birlashtirgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi (O'OQMDB) tashkil etilganligi to'g'risida qaror qabul qiladi. Boshqarma raisi, muftiy etib Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon saylanadi. Shu tariqa diniy boshqarma o'z faoliyatini boshlab, mintaqalarda qoziyot (vakillik idora)larini tashkil etib ularga ham qozi (rahbar)lar tayinlandi. Shu o'rinda Qozog'istonga ham qozi etib Qozon madrasasi bitiruvchisi, Olmaota shahri imomi Abdulg'affor Shamsiddinov tayinlanadi. 1952 yildan esa ushbu vazifani Saidvaqqos G'ilmomiy bajaradi. 1972-1979 yillarda Jakiya Baysenbayev qozilik qiladi. U diniy ta'limni Buxorodagi Mir Arab madrasasida keyin esa Suriyaning Damashq universitetida olgan. Qoziyotning so'nggi qozisi Ratbek Nisanbayev bo'ldi. [3: 44]

80 yillar oxiri – 90 yillar boshlari O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi tarixida anchagina murakkab davr bo'ldi. Sovet davlati hali bo'linib ketmasidan respublikalardagi qoziyotlar o'z ishlarini mustaqil ravishda idora eta boshlagan edilar. 1990 yillardan o'zlarining mustaqil diniy idoralari tashkil etishgan. 1991 yil Sovet davlati parchalanganida unda 50 millionga yaqin musulmon aholi yashar edi [4: 249].

Asosiy qism. SSSR parchalanishga yuz tutgan bir pallada O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarma-sidan birinchi bo'lib 1990 yil 12 yanvarda Qozog'iston ajralib chiqib, nomini Qozog'iston musulmonlari idorasiga o'zgartirdi hamda Ratbek Nisanbayev idora raisi va muftiy etib saylanadi [5: 127].

Buxorodagi Mir Arab madrasasida 7 yillik ta'limdan keyin, 1964 yilda Buxoro pedagogika instituti va 1975 yilda Liviyadagi Bengazi universitetini tamomlagan muftiy R. Nisanbayev mamlakat prezidenti-ning diniy masalalarda eng ishongan kishisi edi. Muftiylik faoliyati davomida 60 dan ortiq davlatlarga rasmiy tashrifda bo'lib, hukumat rahbarlari bilan uchrashdi: Yosir Arofat (Falastin), Ayyub Xon (Pokiston), Husni Muborak (Misr), Muammar Kaddafi (Liviya), Muhammad Hasan II (Marokash), Turgut O'zel, Sulaymon Demirel (Turkiya) va Asqar Akaev (Qirg'iziston) shular jumlasidan [6: 166-171].

Muftiy Qur'oni karimni qozoq tiliga tarjima qildi. Minglab talabalarni xorijda ilm olib kelishiga yordam berdi. 1975 yilda Qozog'istonda 25 ta masjid bo'lgan bo'lsa, 1989 yil 59 ta, 1991 yil mustaqil bo'lganida 68 ta bo'ldi, 1997 yilda ularni soni 5500 gacha yetdi [7: 11].

90 yillarda qo'shni davlatlarda islom niqobiga berkingan siyosiy harakatlar sodir etayotgan tartibsizliklar Qozog'istonga tarqalib ketishining oldini olish maqsadida davlat muftiyat orqali avvaliga diniy-siyosiy tashkilotlarga a'zo bo'lish so'ngra rasmiy ruxsatsiz diniy kitoblar tarqatish va diniy targ'ibot qilish taqiqlandi.

2000-yildan muftiy va idora raisi sifatida Abdusattor Derbisali faoliyat olib bora boshladi. Faoliyatini oliy ta'lim dargohida boshlagan muftiy A. Derbisali bunga qadar

Qozog'iston Fanlar akademiyasi professori, Qozog'istonning Saudiya Arabistoni Podshohligidagi elchixonasida mas'ul vazifalarda ham ishlagan. Muftiylik davrida butun diqqat e'tiborini xalqni va diniy xodimlarni ilmiy salohiyatni ko'tarishga qaratadi.

Misr prezidenti Husni Muborak va Qozog'iston prezidenti Nursulton Nazarboyev sharafiga nomlangan Nur-Muborak universitetini tezroq bitkazish masalasi bo'yicha harakat qilib, 1993 yilda Misr bilan hamkorlikda qurilishi boshlangan, 2001 yilda birinchi talabalar qabulini amalga oshirdi. Hozirda, universitet bitiruvchilari oliy diniy martabalarda faoliyat olib bormoqdalar. 2002 yili Islom taraqqiyoti banki ko'magida Imomlarni malakasini oshirish instituti ochildi. 2004 yilda mamlakatdagi masjid imom-xatiblarini imtixon asosida sinovdan o'tkazdi. Masjidlarda vazifasini loyig'i bilan bajaradigan bilimli din xodimlari ishlashi kerakligini aytardi. Ko'plab buzg'unchi oqimlar ham aynan shu muftiy davrida rasman taqiqlandi. Jumladan, 2005-yilda Ostona sudi «Hizb ut-tahrir»ni rasman taqiqladi.

2007-2012 yillarda 9 ta madrasa va 1 ta qorilar tayyorlash markazi ochildi: 2007 yilda Ostona madrasasi, Chimkent madrasasi, 2008 yilda Shamalgan madrasasi, Ural madrasasi, Aktube madrasasi, Abu Bakir Siddiq madrasasi, 2009 yilda Abu Hanifa madrasasi, 2010 yilda Sariog'och madrasasi, Respublika qorilar tayyorlash markazi, 2012 yilda Hibatulloh Taroziy madrasasi shular jumlasidan.

Madrasalar soni va qamroviga qaramasdan, talab o'ta yuqori bo'lgani uchun talabalar Misrning Al-Azhar universitetiga, Pokiston va Turkiya madrasalarida tahsil olib kelishmoqda [8].

2013 yil muftiy etib Misrning Al-Azhar universiteti bitiruvchisi hamda Misr muftiyatining Fatvo bo'limida ikki yil tajriba orttirgan Erjan Mayamerov saylandi [9]. U ham diniy soha xodimlari salohiyatini ko'tarish payida ular bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotlar qilar, idora xodimi etikasi va imomlar imijini rivojlantirish to'g'risida qayg'urdi. Buning uchun bir necha marta respublika imomlar forumi o'tkazdi [6: 198].

Erjan Mayamerov muftiylikka kelgandan keyin diniy idora qoshida diniy-ma'rifiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi Qozog'istonning turli viloyatlaridan kelgan 30 nafar dinshunoslardan iborat axborot-targ'ibot guruhi tuzildi. 2013 yil dekabr oyi holatiga ko'ra, ushbu guruh 62 ta shahar, 122 ta tuman va 1456 ta qishloqda bo'lib, 200 ga yaqin oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari hamda 1654 ta maktabda bo'lib targ'ibot va xalqni diniy savodxonligini ko'tarish uchun harakat qildi [10].

2017 yil Olmaota shahrida o'tkazilgan VIII qurultoyda o'z ixtiyoriga ko'ra vazifani boshqa nomzodga topshirilini so'ragan hamda Serikboy Oraz nomzodini taklif qilgan va bir ovozdan ma'qullangan. Erjan Mayamerovning o'zi Olmaotadagi «Nur-Muborak» universitetiga ishga o'tdi.

Qozog'istonning to'rtinchi muftiyasi, Serikboy Oraz 1992 yilda Toshkentdagi qorilar tayyorlaydigan madrasani tamomlagan. 1992 yildan 1994 yilga qadar Misrdagi «Al-Azhar» universitetida o'qigan. 1995-1996-yillarda Pokistondagi Islomobod universitetida ta'lim olgan. 2016-yilda «Nur-Muborak» universitetini tamomladi. Turli yillarda u noib-imom, imom-xatib, institut rektori, prezident devonida va Qozog'iston Musulmonlari idorasida rahbar lavozimlarda ishlagan.

Serikboy Oraz qozoq tilida Qur'oni karimning 27-28-29-poralari tafsir qilib, nashr ettirdi. Shuningdek, uning tashabbusi bilan savol-javob shaklidagi www.Fatua.kz fatvo platformasi ishga tushirildi [6: 200].

Qozog'iston musulmonlari idorasining amaldagi raisi, muftiy Navrozbay Otopenov 2020-yilda ushbu vazifaga saylab qo'yildi. U 1997-yilda Toshkent islom institutini, 2000-yilda Qozog'iston musulmonlari idorasi tasarrufidagi islom

institutini tamomlagan. 2009 yilda Misrda islomiy ilmlar bo'yicha malaka oshirgan.

2010 yilda Abay nomidagi Qozog'iston milliy universitetining magistratura bosqichini, 2017 yilda Nur-Muborak universitetining tayanch doktorantura bosqichini tamomlagan. Ko'p yilliy imomlik faoliyati tajribasiga ega N.Otpenov 2013-2018 yillarda muftiy noibi bo'lib foliyat yuritgan.

2023 yilning 27 noyabr kuni Turkiy davlatlar tashkiloti musulmon diniy idoralari rahbarlarining IV yig'ilishi doirasida O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Shayx Nuriddin Xoliqnazar hazratlari Qozog'iston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Navro'zbay hoji janoblari bilan uchrashuv o'tkazdilar. Uchrashuvda O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi hamkorlik diniy-ma'rifiy jahdada ham izchil rivojlanib, xalqlarimiz o'rtasidagi birodarlikni yanada

mustahkamlanib borayotgani, ikki davlat rahbarlarining oqilona siyosati tufayli o'zaro munosabatlar yangi bosqichga ko'tarilgani, ikki davlat diniy idoralari hamkorligida amalga oshirilayotgan xayrli ishlar, mo'min-musulmonlarning diniy ehtiyojlarini qondirish, xususan birgalikda global fatvolarni ishlab chiqish, qardosh xalqlarning diniy ehtiyojlarini to'g'ri ta'minlash kabilarga ham alohida to'xtaldilar.

Xulosa va takliflar Hozirgi kunda idoraning qozoq, rus va arab tillarida faoliyat yurituvchi rasmiy sayti www.muftiyat.kz va fatvo sayti www.fatua.kz aholini dindan xabardor qilishda muhim onlayn manba hisoblanadi. So'ngi ma'lumotlarga qaraganda xalqning 70 foizi musulmon qatlam va shu qatlamning 70 foizi hanafiy mazhabiga amal qiladi [11]. Qozog'istonda 2800 ga yaqin masjid [12] faoliyat olib bormoqda. Qolversa, 12 ta oliy va o'rta islom bilim yurtlarida 4 mindan ziyod talaba ta'lim olmoqda [13].

ADABIYOTLAR

1. Религиозные организации и Советское государство накануне Великой Отечественной войны. Москва: Церковно-научный центр «Православная Энциклопедия». 16.04.2009.
2. Саидқосимов С. Улуғ инсонлар маънавияти: Шамсиддинхон Бобохонов – жамоат арбоби, муфтий, дипломат, исломшунос ва арабшунос олим (1937-2003). Тошкент: Бактрия пресс, 2017.
3. Ғафуров У. Ўзбекистонда ислом таълим тизими: шонли тарих, истибод зулмидан омон қолиш ва нурли истиқбол. Тошкент: «Ғафур Ғулом» НМИУ, 2023.
4. Ю.А.Абрамова, А.В.Абрамов. Новейшая история России (1991-2006 гг). Москва: Практикум, 2007.
5. Преодолевая религиозное влияние ислама. Алма-Ата: «Казахстан».1990.
6. Серікбай қажы Ораз. Ұлы дала төсіндегі ислам. Астана: ДҰМ Қазақстана. 2018.
7. К.Смагулов. Современная религиозная ситуация в Казахстане. Религия и общество. 11/3. 2011.
8. Муфтий Ержан Маямеров: Ради благоденствия нашей страны мы должны быть сплоченными // Медина аль-Ислам. Центральная Азия : газета. — 2013. — Вып. №5 (140). 10.11.2014 г.
9. Бас муфтидің жұмыс уақытынан тыс өмірі. — Muslim.kz, 21.02.2014.
10. Құлпара Жұмағали. Наша сила — в проповеди (казах.) = Біздің күшіміз — уағызда // «Түркістан» : газета. — Рауан, 06.12.2013 г.
11. Polina Viktorova, "How the Number of Believers Changed in Kazakhstan," Central Asian Bureau for Analytical Reporting, November 30, 2022.
12. Отчёт о религиозных объединениях на территории РК II квартал 2023 года. (www.gov.kz – [hukumat veb-sayti](http://hukumat.veb-sayti))
13. Отчёт о духовных учебных заведениях в РК II квартал 2023 года. (www.gov.kz – [hukumat veb-sayti](http://hukumat.veb-sayti))



UDK:1.440

Shukrillo QO'RG'ONBOYEV,
Andijon qishloq xojaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti
E-mail: @shukrillohqorgonboyev@gmail.com

ADU dotsenti, falsafa fanlar doktori (PhD) Sh.Q.Amirxo 'jayev taqrizi asosida

ONTOGNOSEOLOGICAL ANALYSIS OF THE PROBLEM OF INDIVIDUAL UNCONSCIOUSNESS

Annotation

In this article, the problem of consciousness and unconsciousness in the historical civilization of philosophy, the ontognoseological analysis of individual unconsciousness, its dialectical contrast with consciousness in subjective reality was studied in the interpretation of literature on the subject. During the research, conclusions based on arguments were given based on certain opinions and considerations, using the methods of comparative analysis and generalization. As a scientific novelty of the article, the ratio of consciousness and unconsciousness in the structure of thinking and unconsciousness as an expression of human spiritual potential were revealed. The direct connection of the individual unconscious with the cosmic ideal has been scientifically substantiated.

Key words: philosophy, psyche, problem, consciousness, unconsciousness, thinking, individual unconsciousness, ontology, epistemology, cosmic ideal, dialectics, metaphysics, psychology, subject, mind.

ОНТОГНОСЕОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ ИНДИВИДУАЛЬНОГО БЕССОЗНАТЕЛЬНОГО

Аннотация

В данной статье в интерпретации литературы по данной теме исследована проблема сознания и бессознательного в исторической цивилизации философии, онтогносеологический анализ индивидуального бессознательного, его диалектическое противопоставление сознанию в субъективной реальности. В ходе исследования на основе определенных мнений и соображений были даны аргументированные выводы с использованием методов сравнительного анализа и обобщения. В качестве научной новизны статьи выявлено соотношение сознания и бессознательного в структуре мышления и бессознательного как выражения духовного потенциала человека. Научно обоснована непосредственная связь индивидуального бессознательного с космическим идеалом.

Ключевые слова: философия, психика, проблема, сознание, бессознательное, мышление, индивидуальное бессознательное, онтология, гносеология, космический идеал, диалектика, метафизика, психология, субъект, разум.

INDIVIDUAL ONGSIZLIK MUAMMOSINI ONTOGNOSEOLOGIK TAHLIL QILISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada falsafaning tarixiy sivilizatsiyasidagi ong va ongsizlik muammosi, individual ongsizlikning ontognoseologik tahlili, uning subyektiv voqelikda ong bilan dialektik qarama-qarshiligi mavzuga oid adabiyotlar talqinida o'rganildi. Tadqiqot davomida ma'lum fikr va mulohazalardan kelib chiqib, qiyosiy tahlil, umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan holda argumentlarga asoslangan xulosalar berildi. Maqolaning ilmiy yangiligi sifatida tafakkur tuzilishidagi ong va ongsizlikning mutanosibligi va ongsizlik – inson ruhiy salohiyatining ifodasi sifatida o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Individual ongsizlikning kosmik ideal bilan bevosita bog'liqligi ilmiy asoslandi.

Kalit so'zlari: falsafa, psixika, muammo, ong, ongsizlik, tafakkur, individual ongsizlik, ontologiya, gnoseologiya, kosmik ideal, dialektika, metafizika, psixologiya, subyekt, aql.

Kirish. Ongsizlik psixikaning eng quyi darajasini tashkil qiladi. Ongsizlik – bu tashqi ta'sirlar natijasida yuzaga keladigan ruhiy jarayonlar, harakatlar va holatlar yig'indisi bo'lib, shu orqali odam o'z o'zini boshqaradi. Ongsizlik bir vaqtning o'zida voqelikni aks ettirish shakli ham bo'lib, unda harakat vaqti va joyi bo'yicha yo'nalishning to'liqligi yo'qoladi. Ongsizlikda, ongdan farqli o'laroq, amalga oshirilgan harakatlarni maqsadli boshqarish mumkin emas va ularning natijalarini baholash ham qiyin.

Shaxsni ijtimoiylashtirish jarayonida ongli tarkibiy qismlardan kelib chiqib xulosa qilsak ba'zi motivlarni, harakatlarini tushunish, ongsizlikning rolini ortiqcha baholash qiyin. Shaxsning yaxlitligini tashkil etuvchi subyektiv voqelikning qarama-qarshi tomonlari sifatida ongli va ongsizlik dialektik birlig hisoblanadi. Hattoki, shaxsning dunyoqarashi, o'z-o'zini anglashi va butun ma'naviy dunyosi ham ana shu dialektika negizida shakllanadi. Buyuk rassom A.Dyurer yosh rassomlarni tarbiyalash bo'yicha ko'plab ilmiy metodologik asarlar yozgan bo'lib, ijod ahlini faqat yaxshi

narsalar o'rab olishi kerakligini qat'iy ta'kidlagan, chunki yaratilgan ijod muqarrar ravishda yaratuvchining ichki dunyosini anglatadi. Ijodkorning ichki dunyosi qanchalik go'zal bo'lsa, uning ijodi ham shunchalik ko'p qirrali, go'zal bo'ladi [6]. Rassomning ma'naviy dunyosi va u yaratgan asar o'rtasidagi bog'liqlik to'g'ridan-to'g'ri, deterministik xususiyatga ega.

Ong – psixik faoliyatning oliy shakli. U fakat insnga xos fenomendir. Ong nima ekanligi haqida har xil fikrlar bildirilgan. Ongni ongsiz jarayonlarga, masalan, avtonom asab tizimida vujudga keladigan, subyektiv voqealar ketma -ketligi sifatida aniqlash mumkin. Ong ko'pincha odamning o'zi bilan nima sodir bo'layotganini yoki nimani anglayotganini bilishi bilan bog'liq. Ong – moddiy olamni inson miyasida aks etishi deb tushunish, uni inson tanasi faoliyati bilan bog'lab talqin etishdir. Ayni vaqtda materialistik yo'nalish nomini olgan bunday yondashuvlar doirasida onging mohiyatini buzib talqin qilish hollari ham paydo bo'ldi [8].

Ko'rib chiqilayotgan mavzuning dolzarbligi umumiy sotsiologik jihat bilan cheklanmaydi. Ongsizlikni falsafiy tushunish muammosi, uning subyektiv voqelikning qarama-qarshi tomonlari sifatida onglik bilan dialektik birligi nafaqat aqliy va ijtimoiy voqelikning xilma-xil hodisalarini o'rganish, bu bilimlardan kundalik hayotda bevosita foydalanish, balki falsafa fanining o'zi uchun ham, uning nazariy va evristik imkoniyatlarini ishga solish uchun ham ahamiyatli. Avvalo, ongning umumiy nazariyasini chuqurlashtirish kerak. Ong bilan qiyosiy xarakteristikasini ochmasdan yaratilgan ongning to'liq adekvat manzarasini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan A. Sheroziya to'g'ri ta'kidlaganidek, "ongning umumiy nazariyasi ham, ongsiz psixikaning umumiy nazariyasi ham alohida va ularning yagona munosabatlar tizimidan tashqarida olib borilganda mohiyatan tuzilishi mumkin emas"[10]. Ongli va ongsiz dialektikasini o'rganish nafaqat ongning adekvat nazariyasini shakllantirish, balki hozirgi kunga qadar amaliy jihatdan ishlab chiqilmagan subyektiv voqelik nazariyasini kengaytirish, shuningdek muammolarni (bilish, faoliyat, shaxs, madaniy va tarixiy rivojlanish va boshqalar) ochib berish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Individual fikrlash sohasidagi ongsizlik muammolarini o'rganishda tadqiqot A.B.Brushlinskogo, M.Bunge, N.K.Vaxtomina, V.R.Irinoi, I.I.Kalnogo, O.Kankelyayta, A.C.Karmina, B.M.Kedrova, V.Lange-Ayxbauma, M.Levi-Bryulya, G.U.Lixosherstnix, I.M.Morozova, A.A.Novikova, J.Piaje, L.D.Pogorleskoy, A.Puankare, S.Stoeva, A.K.Suxotina, V.Furrera, V.I.Xoreva kabi mualliflar kontseptsiyadan foydalanish asosida amalga oshiriladi [4].

Ong va ongsizlikning birligi masalasini ochib berishda subyektiv voqelikning tuzilishi haqida N.S.Avtonomovoy, D.I.Dubrovskogo, N.L.Jukova, E.V.Ilenkova, K.K.Platonova, S.L.Rubinshteyna, V.P.Tugarinovalarning asarlari o'rganildi [7].

Shu bilan birga ongsizlik va ratsionallik o'rtasidagi munosabatlar masalasini yoritish qoidalarga xizmat qiladigan ijtimoiy jarayonlar Sokrat, Platon, Aristotel, B.Spinoza, R.Dekarta, Leybnis, B.S.Gryaznova, V.V.Kizimi, P.V.Kopnina, M.K.Mamardashvili, N.S.Mudrageya, T.I.Oyzermana, N.M.Churina kabi mualliflarning fikr-muloxazalariga va xulosalariga tayanib tadqiqot olib borildi [5].

Ongsizlikni o'rganishda erishilgan sezilarli yutuqlarga qaramay, muammoning etarli darajada e'tiborga olinmaydigan jihatlari saqlanib qolmoqda. Ilmiy tadqiqotda ongsiz, metafizik metodologiyaning tarqalishi haqidagi g'oyalarning uzilishi sharoitida, ongsizlik tushunchaning falsafiy bilim doirasida munosib o'rin egallashiga imkon beradigan ushbu murakkab muammoga nisbatan falsafiy dialektik aks ettirishning ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin. Bu, aslida, ongsizlikni uslubiy tushunish hali ham sust amalga oshirilganligidan dalolat. S.S.Abramov shunday deydi: "mavjud xususiy ilmiy tushunchalarning hech biri ongsizlikning hamma narsani qamrab oluvchi nazariy tavsifi maqomini talab qilishga haqli emas. Bunday muammoni faqat chuqur falsafiy va uslubiy tadqiqotlar darajasida hal qilish mumkin. Ongsizlikni o'rganish sohasidagi zamonaviy ishlarining o'ziga xos xususiyati shunchaki insonning o'zini o'zi bilishida ongsizlik mavzusining falsafiy, uslubiy asoslarini tushuntirishdan iborat" [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida avvalo tarixiylik va o'zaro aloqadorlik tamoyillaridan foydalanilgan. Ma'lum fikr va mulohazalardan kelib chiqib, induktiv va deduktiv xulosalar qilindi. Har bir boshqishda asosiy adabiyotlardan argument va tezislar keltirilib, ular jamiyat va ilm-fan taraqqiyoti davomidagi, ijtimoiy hayotdagi misollar bilan mustahkamlanib, abstraktlikdan konkretlikka o'tish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish metodlaridan keng foydalanilgan. Tadqiqotning uslubiy asosi dialektik-

materialistik nazariyasi qoidalari va tamoyillari hisoblanadi. Tadqiqotda qo'yilgan muammolarni hal qilish fundamental tadqiqot yondashuvlari - ontologik, epistemologik, tizimli, tarkibiy-funksional, aksiologik, praksiologik, shuningdek bilishning umumiy ilmiy usullari va shakllari - tahlil va sintez, idealizatsiya, mantiqiy ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi.

Ongsizlik muammosini o'rganishda ikkita asosiy metodologiya mavjud - metafizik va dialektik. Metafizika uchun bilish nazariyasi voqelikni tasvirlash nazariyasi sifatida etarli, bunda obyektning obyektiv xususiyatlarining aqliy tuzilishidir. Bu tavsifni, ongli va ongsiz narsalarni o'rganishda bir tomonlama bo'lishni, ularning mohiyati va mavjudligini bir-biridan ajratishni o'z ichiga oladi. Metafizik usulning yana bir xususiyati bu ratsionallik standartlaridan mustaqil bo'lgan sxemalarni yaratishga qaratilgan plyuralizmdir [9].

Metafizika subyektiv haqiqatni bir tomonlama talqin qiladi. Ratsional va irratsional metafizikaning o'zaro bog'liqligini tavsiflashda ular bilim jarayonining u yoki bu tomonini mutlaqlashtiradilar. Shu bilan birga, irratsionallik ko'pincha "qorong'i", halokatli, axloqsiz narsani anglatadi, undan odam qutulishi kerak. Ushbu tushuncha natijasida boshqa barcha g'ayritabiiy navlar ko'zdan g'oyib bo'ladi. Umuman olganda, metafizika har bir qurilgan yo'nalishning o'ziga xos to'liqligi bilan mustaqil nazariy tizimlarni anglatadi. Ushbu metodologiya psixoanaliz kabi ongsiz ongning G'arb tushunchalarida aniq ifodalangan (A.Adler, K.Bassiyuni, B.Bettelxeym, M.Klyayn, D.Uinnikot, Z.Freyd), neofreydizm (G.S.Salliven, E.Fromm, K.Xorni), analitik psixologiya (E.Noyman, K.G.Yung, M.Yakobi), strukturaviy psixoanaliz (J.Lakan), ekzistensial tahlil va ekzistensial psixiatriya (A.D.Angersma, L.Binsvanger, M.Boss, G.U.Ollport), gumanistik psixologiya (A.Maslou, K.Rodgers), tranzaksion analiz (E.Bern), transpersonal psixologiya (S.Grof), shizoanaliz (J. Delez), psixoiistoriya (E.Erikson), logoterapiya (V.Frankl), germenevtika (G.Gadamer), neyrolingvistik dasturlash (F. Perlz, M. Erikson) [2].

Dialektik usul nuqtai nazaridan ongsizlik aks ettirish deb tushuniladi, bu erda tasvir prototipni nazarda tutadi, prototip mohiyatining mavjudligi ochib beriladi. Ushbu usulning ratsionallik standartlaridan biri dialektikadir, unga ko'ra bir xil hodisaning turli tomonlari o'rganiladi. Aynan shu nuqtai nazardan subyektiv voqelik uning qarama-qarshi tomonlarining birligi sifatida o'rganiladi, yani, ongli va ongsiz, oqilona va g'ayritabiiy. Irratsional tushunchasini mistik mavjudotdan ozod qilib, dialektiklar aslida subyektiv voqelik mazmunidagi ratsionalning dialektik qarama-qarshiligini ifodalovchi ratsional bo'lmagan tushunchadan foydalanadilar. Bunday tushunchaga ko'ra, har qanday ratsionallik ratsional bo'lmagan elementlarga, shu jumladan irratsional elementlarga ega va har qanday ratsional bo'lmagan elementlar ham ratsional tarkibiy qismlardan xoli emas. Ongsizlikni ongni o'rganishda aniq dialektik chiziqni amalga oshirishning asosi, birinchi navbatda, Vizantiya va nasroniylik an'analariga (Kirill Belozerskiy, Iosif Volotskiy, Dionisiy Glushnitskiy, Maksim Grek, Pavel Obnorskiy, Innokentiy Oxlebinin, Feodosiy Pecherskiy, Antoniy Siyskiy, Nil Sorskiy, Kirill Turovskiy) [3].

Tahlil va natijalar. Dialektik va metafizik tadqiqot usullari haqida gapirganda, shuni ta'kidlash kerakki, aslida ularning sof, benuqson mujassamlanishi emas, balki faqat ketma-ketlikning tabiati, ularning kognitiv printsiplarga muvofiqligi, bu ularning har birida boshqa bilish usulining o'ziga xos xususiyatlarining mavjudligini istisno etmaydi.

Tadqiqot asosan subyektiv voqelikning qarama-qarshi tomonlari sifatida ong bilan dialektik birlikda ongsizlikning mohiyati va mavjudligini ochib berishga qaratilgan.

1. Tadqiqot natijasida ongsizlik muammosi falsafa tarixida metafizik metodologiya asosida o'rganilganligi

aniqlandi. Ta'kidlanishicha, ushbu bilimda alternativ - dialektik metodologiya mavjud.

2. Dialektik pozitsiyadan ongsizlikni samarali o'rganish idrok nazariyasi asosida aks ettirish orqali amalga oshirilishi ko'rsatilgan, bu erda tasvir prototip mohiyatining mavjudligi hisoblanadi.

3. Dialektika qonunyatiga ko'ra, subyektiv haqiqat hissiy va ratsional, ongli va ongsiz birlikni ifodalaydi. Subyektiv voqelikning rivojlanishi inkorni inkor qilish qonuniga muvofiq sodir bo'ladi: boshlang'ich pozitsiyasi his-tuyg'ular, aql va idrok. Ushbu uchta bosqich ongli va ongsiz dialektikani rivojlantirish uchun bir-biri bilan uyg'unlashadi.

4. Nazariylashtirishning metafizik va dialektik tizimlari uning hayotiy amalga oshiriladigan ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan belgilanadigan ma'lum bir tarixiy shaxs turining xususiyatlarini ifodalovchi ongsiz subyektiv turli yo'llar bilan ochib berishga yo'naltirilganligi aniqlandi.

5. Metafizik metodologiyaga ko'ra, ongsiz subyekt G'arb standartining taraqqiyotni utilitaristik tushunish doirasiga mos keladigan erkin shaxs sifatida tushunilishi ko'rsatilgan.

6. Dialektik metodologiya ongsiz subyekt muammosini bartaraf qilishda jamiyatning ma'naviy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan mukammal shaxsning rolini oshirish mexanizmlari aniqlandi.

7. Ongsizlik tushunchasi shaxs va ijtimoiy guruhlar darajasida aks ettirilmagan psixikaning epistemologik munosabatlarida namoyon bo'lishini ifodalovchi subyektiv voqelikning o'ziga xos xususiyati sifatida belgilanadi. Umumlashtirishning yuqori darajasi tufayli ongsizlik tushunchasi universal aloqaning dialektik printsipini to'liq anglaydi, uning evristik qiymati esa oshib boradi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, ongsizlik muammosini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish natijasida biz quyidagi xulosalarga keldik. Ushbu muammoni o'rganishda nazariylashtirishning ikkita asosiy turi mavjud - metafizik va dialektik. Agnostitsizm yoki skeptitsizm sharoitida ehtimoliy bilimlarni o'z ichiga olganligi sababli epistemologik muammoni hal qilish muvaffaqiyatli taxmin sifatida samarali bo'lishi mumkin. Metafizika subyektiv haqiqatni bir tomonlama talqin qiladi, ongsizlikni alohida shaxs sifatida, ongni esa transsendental voqelikning manbai sifatida tushunadi. Hissiyotni begonallashtirish, ongsizlikni inson mohiyatining qorong'u tomoni sifatida tushinish mumkin.

Ongsizlikni dialektik pozitsiyadan o'rganish idrok nazariyasi asosida aks ettirish sifatida amalga oshiriladi, bu

erda tasvir prototip mohiyatining mavjudligi hisoblanadi. Dialektikaga ko'ra, subyektiv voqelik-bu bir-biri bilan uyg'unlashgan hissiy va ratsional, ongli va ongsiz, ongli va o'z-o'zidan paydo bo'ladigan, ratsional va g'ayritabiyy dialektik birlik.

Ongsizlikni o'rganishda uning psixologik tendentsiyasi ham mavjud. Bu ongsizlikning ong bilan bir qatorda subyektiv voqelikning bir tomoni sifatida namoyon bo'lishiga to'sqinlik qiladi, chunki ongning falsafiy tushunchasi ongsizlikning psixologik tushunchasi bilan bog'liq bo'lganda turli kategorik darajalar farqlanmaydi. Shu munosabat bilan ongsizlikni falsafiy aniqlash zarurati tug'iladi. Turli xil kontekstlarda, turli xil bilim sohalarida, shu jumladan falsafada o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ongsizlikning xususiy ilmiy tushunchasidan foydalanish muqarrar ravishda qarama-qarshiliklarga olib keladi, chunki jarayon ongning falsafiy tushunchasi bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Ongsizlik tushunchasi evristik jihatdan tushinarli bo'lishi uchun uni o'ziga xos xususiyatlarga, faktlarga qisqartirish kerak emas, balki qaysi sohada namoyon bo'lishidan qat'i nazar, ongsizlikning mohiyatini ifoda etadigan tarkib bilan to'ldirish kerak. Shu ma'noda, ongsizlikni, uning ong bilan dialektik munosabatlarini tahlil qilish mantiqiy, ontologik va epistemologik jihatlarni birlashtirishi zarur. Mantiqiy tahlil ongsizlikning turli xil ko'rinishlarining o'ziga xos, eng tipik xususiyatlarini ajratib olishga va ongsizlikning umumiy tushunchasida qayd etishga urinishdir. Ontologik tahlil voqelikning turli sohalarida ongsizlikning namoyon bo'lishining xilma-xilligini ochib berishga yordam beradi. Epistemologik jihat bilimning turli sohalarida ongliksiz tushunchasining rolini ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ongsizlik tushunchasidan nafaqat shaxsning psixikasi va xulq-atvorini, balki ijtimoiy hayot jarayonlarini ham o'rganishda foydalanish mumkin. Ushbu haqiqatni tan olish subyektiv voqelik tarkibida individual va umumiy dialektikaga to'liq mos kelishidan dalolat beradi. Ijtimoiy jarayonlarda ongsizlik tushunchasi ijtimoiy-psixologik hodisalarning tashqi-ratsional mazmunini ifodalaydi va ijtimoiy subyektiv haqiqatni his-tuyg'ulari va kayfiyatining ma'lum bir yo'nalishida, shuningdek uning g'oyalari va harakatlarining ongsizligida, faoliyat maqsadlari to'g'risida aniq tushuncha yo'qligida, ularni amalga oshirish vositalari va natijalari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmasligida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Абрамов, С.С. Неявная субъективность: (Опыт философского исследования) /С.С. Абрамов. Томск: Изд-во Том. ун-та, 1991. - 208 с.
2. Алексеев, В.П. Структурный подход к проблеме бессознательного /В.П. Алексеев //Природа. 1974. - № 8. - С. 98-102.
3. Бармашова, Татьяна Ивановна "Проблема бессознательного в основных системах философского теоретизирования" тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 09.00.11, доктор философских наук, Красноярск-2006 -С. 4-6
4. Бойко, А.Н. Проблема бессознательного в философии и конкретных науках /А.Н. Бойко. Киев: Вища школа, 1978. - 135 с.
5. Gunnar Skirbek, Nils Gile. Falsafa tarixi. T.: «SHarq». 2001. 83-97 b
6. Дюрер, А. Дневники. Письма. Трактаты: В 2 т. Т.2. /А. Дюрер. - Л.-М.: Искусство, 1957. - 254 с.
7. Дубровский, Д.И. О диалектических взаимосвязях категорий знания и незнания /Д.И. Дубровский //Филос. науки. 1985. - № 3. - С. 63-73.
8. Фрейд Зигмунд. Введение в психоанализ. Лекции (Авторы очерка о фрейде Ф.В.Бассин и М.Г.Ярошевский) - М. Наука 1991. - 456с
9. Зандкюлер, Х.И. Репрезентация, или Как реальность может быть понята философски /Х.И. Зандкюлер //Вопросы философии. 2002.- №9.- С. 81-90.
10. Шерозия, А.Е. К проблеме сознания и бессознательного психического: В. 2 т. Т. 2 /А.Е. Шерозия. - Тбилиси: Мецниереба, 1973. - 522 с.



UDK:1. 740(30.428)

Natalya LUKASHOVA,

Namangan muhandislik-texnologiya instituti Ijtimoiy fanlar va sport kafedrasida dotsenti, t.f.n.

E-mail: Sotsial.nauki@gmail.com

Gulnoza TOSHBAYEVA,

Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti

E-mail: Gulnozatoshboeva@gmail.com

NamMTI professori, fals.f.d. A.Mirzaxmedov taqrizi asosida

PROBLEMS ABOUT FREEDOM OF CONSCIENCE

Annotation

The article analyzes the strengthening of democratic guarantees of citizens' rights and freedoms in the principles of social justice on the basis of constitutional reforms in the Republic of Uzbekistan. The Government of Uzbekistan assumes the regulation of religious freedoms of citizens by improving the law "Freedom of Conscience and religious organizations".

Key words: Conscience, freedom of conscience, religious organizations, religious freedom of citizens, religious associations.

ПРОБЛЕМЫ СВОБОДЫ СОВЕСТИ

Аннотация

В статье анализируется укрепление демократических гарантии прав и свобод граждан в принципах социальной справедливости на основе конституционных реформ в Республике Узбекистан. Правительства Узбекистана предполагает урегулирование религиозных свобод граждан совершенствованием закона "Свободы совести и религиозных организаций".

Ключевые слова: Совесть, свобода совести, религиозные организации, религиозная свобода граждан, религиозные объединения.

VIJDON ERKINLIGIGA DOIR MUAMMOLAR

Annotatsiya

Maqola O‘zbekiston Respublikasining konstitutsion islohotlari asosida dunyoviy ijtimoiy davlatda fuqarolarning huquq va erkinliklarining demokratik kafolatlari ijtimoiy adolat tamoyillarida mustahkamlanishi ilmiy taxlil etilgan. Ijtimoiy davlatning muhim jihati sifatida O‘zbekiston hukumati fuqarolarning "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqida"gi muammolarning tartibga solish orqali fuqarolarning diniy erkinligining aniq e'tirofini taqozo etadi.

Kalit so'zlar. Vijdon, vijdon erkinligi, diniy tashkilotlar, fuqarolarning diniy erkinligi, diniy birlashmalar

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida insoniyatning taqdiri va taraqqiyotiga doir taklif va tashabbuslari O‘zbekiston Respublikasining mintaqaviy davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy barqarorligi, kelajak avlodga munosib turmush sharoitini yaratishga daxldor o‘ta dolzarb muammolardir. Shu ma'noda fuqarolik jamiyati asoslarining rivojida inson va fuqarolarning huquqlarini ta'minlash masalasida qonunlarimizni mukammallashtirish ijtimoiy davlat qurilishi maqsadiga muvofiqdir.

Dunyoviy ijtimoiy davlat har bir fuqaroga munosib turmush shart-sharoitini yaratish uchun millatlararo, dinlararo tolerantlik tamoyillarining ta'minlashi davlatning dinga, diniy tashkilotlarga munosabatining huquqiy asoslarini mustahkamligi bilan belgilanadi. Zero, O‘zbekiston Konstitutsiyasining 35 maddasida har bir fuqaroga vijdon erkinligining kafolatlanishi, ular hoxlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech bir dinga e'tiqod qilmasligi, diniy g'oyalarni zo'rlab singdirishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yilda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni ilmiy bahs munozara, nazariy-amaliy jihatdan davlatning dinga, dindorlar va diniy tashkilotlarga munosabatini murakkabligini yana bir bora tasdiqladi [6]. Yangi qonun diniy ta'lim, diniy tashkilot, mahalliy diniy tashkilot, missionerlik, prozelitizm, diniy professional ta'lim,

qonunga xilof diniy faoliyatga doir jihatlariga aniqlik kiritishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga yoshlar orasida islom diniga bo'lgan munosabat, dindorlikning faollashuv xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy taxlillari masalani yanada aniqroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili. O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda qonuniylik asosida shaxs, davlat va jamiyat munosabatlarini tartibga solish uchun huquqiy baza yaratilishi davlat va diniy tashkilotlar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini tartibga solish, ijtimoiy boshqaruvda mavhum jihat va xususiyatlarini bartaraf etadi. Fuqarolarning dindorligi diniy vaziyatni sog'lomlashtirish oilaviy tarbiya sohasida ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchilarga diniy tarbiya berish huquqi bilan kafolatlangan. Qonun fuqaroga diniy e'tiqod yuzasidan erkinlik, ibodat, diniy marosim yoki o'zga harakatlarda ishtirok etish, diniy ma'rifatga o'zining munosabatini erkin belgilashi, har qanday majburlovning istisnosi yuridik jihatdan qabul qilingan. Fuqaroning huquqi tolerantlik tamoyillarida qonunda belgilangan tartibdagina cheklanishi mumkin [8].

Jamiyat hayotida ijtimoiy normalar, ayniqsa huquqiy meyorlar shaxs va jamiyat munosabatlarini davlat tomonidan aniq tartibga solish mexanizminishakllantirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda muhokama etilayotgan vijdon erkinligi huquqiy normalarida ijtimoiy-huquqiy

jihatarini falsafiy taxlilini quyidagicha guruhlashtirish mumkin.

Eng avvalo, "Vijdon erkinligi"ga huquqiy nuqtai nazaridan yondoshuv davlat va din, fuqaroning dindorlik munosabatini huquqiy tartibini belgilab beradi. Har bir qonun o'zining predmetini aniq va tiniq ifodalashi, kelib chiqqan muammolarni hal etish bilan birga fuqarolarga qonunning ijrosini ta'minlashda ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, qonundagi "Vijdon erkinligi" kategoriyasiga axloqiy jihatdan yondoshuv maqsadga muvofiqdir:

atamani ilmiy muomalaga kiritilishi Yevropada protestantizm harakati, uning vakillari katolik dini, cherkov xodimlarining beqiyos darajada ma'naviy-axloqiy buzilishi, ularning yolg'ochiligi, xalqni aldash ishi bilan shug'ullanishidan ushbu atamani muomalaga kiritganlar. O'zlariga nisbatan adolatli jamiyat, kapitalistik sanoatlashgan tuzumning "vijdon" trendini taklif etgan. Aslida protestantizm vakillari katolik cherkoviga qarshi kurashda feodal jamiyat mafkurasiga nisbatan ijtimoiy inkor asosida Uyg'onish davriga zamin hozirlagan edi;

Vijdon erkinligi protestantizmida cherkov, poplar xizmatini inkor etib, shaxsning diniy e'tiqodida ularning aralashuvi shart emasligi, katolik dinining dunyoviylik islohotchilari bo'lib maydonga chiqdilar. Gaydn Betxovenni ateist deb atagani, protestantlar orasida ko'plab olimlar, din arboblari ham bo'lsada, lekin ular dualizm pozitsiyasida turgan. Ular fuqaroning dinga munosabatida liberal diniy erkinlik g'oyasini himoya qilganlar [12, b.584];

Tarixiy taraqqiyotning Uyg'onish davrida falsafiy tafakkur davlat va cherkov munosabatlarini shakllantirishda diniy sabr-toqat va diniy erkinlik shiori bilan maydonga chiqqan. Ular bu tabiiy huquq xudodan bandasiga inomi bo'lib, diniy erkinlik ila maktabni cherkovdan ajralishini yoqlab ovoz berganlar. Ularning ilmiy merosida (Djon Lokk) diniy erkinlik, ateistik e'tiqod huquqi protestant fuqaroning shaxsiy huquqi degan nuqtai nazar ilgari surilgan [7; 12, b.583];

Sho'rolar tuzumiga yuqoridagi vijdon erkinligi yondashuvi ma'qul ediki, dinni inkori bilan ateizm, ya'ni materialistik dunyoqarashning ma'naviy-ahloqiy mafkura darajasida ijtimoiy hayotda o'rnatildi. Ittifoqdosh respublikalar umumiy asosda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqida"gi Qonunlarida din taraqqiyotga tormoz, "partiya davrning shon-sharafi, vijdoni" mazmunidagi g'oya hayotiy ta'lim-tarbiya, turmush dasturi qilib olindi. Natijada, mustaqillik yillarida islom fenomeni tabiiy ravishda vujudga keldi [8, b. 93];

Mazkur qonunda vijdon huquqiydan ko'ra axloqiyliigi, axloqiy meyor esa ijtimoiy hodisa sifatida baholanishi axborotlashgan jamiyatga o'tish, ilm-fan iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanishi, informatsion qurilmalarning global darajada tarqalishi, inson huquq va erkinligi, manfaatli oliy qadriyat sifatida tan olinishi bilan ham izohlash mumkin [2, b.245].

Tadqiqot metodologiyasi. Biz yuqoridagi ilmiy qarashlarimizni "vijdon" omili shaxsning dinga yoki ateistik dunyoqarashiga teppa-teng bog'liqligi, shaxsning fe'l-atvoriga nisbatan avtonom, boshqaruv "hokimiyatiga" ega ma'naviy-ruhiy holat bo'lib, huquqiy muhokama va bosimni istisno holatidagiligi yoqlaymiz. Chunki, vijdon o'z mohiyatiga ko'ra qonunga nisbatan mustaqil o'zining "ichki qonuni" bilan mavjud bo'ladi. F. V. G. Gegel "Olamni birinchi sababi odamga nisbatan suveren "mutlaq g'oya" haqidagi mulohazalari bilan "ichki mutlaq g'oya"ni tan olgan. Shu bois biz taniqli olim A. Minchenkning "vijdon erkinligi"ga oid "dinga e'tiqod qilish", "davlatning dunyoviyliigi", "davlatning diniy siyosati", "davlatning diniy birlashmalar bilan munosabati" kabi metodologiyalar bilan fikrlarini qo'llab quvvatlaymiz [3].

Tadqiqot natijalari (Analysis and results). Vijdon shaxsning intellektual ko'rsatkichi bo'lib, oliyanoblik, sofdillik, xalol-poklik kabi ahloqiy fazilatlarini namoyon etishi bilan dindorlik, diniy erkinlik, e'tiqod kabi huquqiy jihatlarga bevosita aloqadordir. Bilaks, ilmiy adabiyotlarda olimlar dindorlik inson shaxsining ma'naviy tuzilmasi bo'lib, unda siyosatga joy yo'q, u shaxsning ta'lim tarbiyasiga daxldor natijaligidan diniy tamoyillar davlatning qurilishida asos bo'lishi mumkin deb hisoblaydilar [5, b.179].

Vijdon insonning o'z hatti-harakatlari ustidan nazorati, ijobiy amalga oshirilganlari uchun rag'bat, salbiy ishlar uchun shaxsiy o'z-o'zini ruhiy qiynoqqa solishidir. Vijdon inson hayoti va faoliyatini boshqarishda amaldagi ezgulik yo'lidan borishga undovchi oliy axloqiy mezon, shaxsni hayoti va faoliyatiga mazmun bag'ishlovchi ruhiy boshqaruv mehanizmidir. Vijdon – insonni o'z-o'zini sud qilishi, ruxiy azobga soluvchi shaxsning tarbiyasi ta'sirida shakllanadigan antropologik ruhiy halol-pok yashash motivi. Vijdon shaxsiy ruhiy kechinma, ma'naviy-ruhiy ta'sir ostida hosil qilinadigan shaxs qadriyatlarini tizimidagi muhim ahloqiy ko'rsatkichdir. Shu o'rinda huquqshunos olim S.A. Buryanovning "Vijdon erkinligi"ni ilmiy tushunishda "vijdon" va "erkinlik" atamalarini mexanik qabul qilish to'g'ri ilmiy xulosa kilishga imkon bermasligidan huquqiy boshqaruvda qo'llash mushkulligini tasdiqlagan [1].

Darhaqiqat, vijdon inson bosh miyasi faoliyatidagi abstrakt hodisa, mutlaq erkin bo'lib, insonning dindorligi va diniy tashkilotga davlatning munosabatini ifodalay olmaydi. Qonunning maqsad mazmuni esa shaxsning dindorligi, dinga, diniy birlashmalarga munosabatining doiralarini belgilar ekan, shaxsning pozitiv va negativ munosabatlarini sanksiyalay olmaydi. Bu hol vijdonning "narsa o'zida"si, yani "insonning ichki nazorati"ni ifodalashi bilan qonundan yuqoriroq turishini tan olishga to'g'ri keladi.

Biz masalaning taxlilida insonning ruxiy emotsional holati, ratsional refleksiv fazilatlarini bilan bog'liq axloqiy falsafa, insonning qadriyatlar tizimiga munosabatini ifodalovchi hissiyot birikmasi, degan fikrdamiz. Bu masala ruxshunoslar tomonidan faol o'rganilib, huquqiy motivlardan holi ekanligiga alohida urg'u berilgan [10]. Chunki inson o'z fe'l-atvorini tartibga solishda ahloqiy qadriyatlar tizimida meyorlashtirishda dinga, Oллоhga tayanishi tabiiy holdir. Dunyo dinlarining diniy qonun-qoida va marosimlari, ijtimoiy qadriyatlarini bevosita dindor bilan xudoning orasidagi mediatsiya (onlayn-aloqa) bo'lib vijdon erkinligini yuridik holatini istisno etadi.

Xulosalar. Biz tadqiqotlarga tayanib xulosa chiqarishda davlatning dinga, dindorlarga, diniy uyushmalarga munosabatining huquqiy asoslarini shakllantirish shaxs, davlat va jamiyat munosbatlarining demokratik taraqqiyotini ifodalovchi ko'rsatkich, degan fikrga keldik. Shu bilan birga dindorlik masalasida fuqaroning huquqiy doiralarini yanada aniqlashtirish lozim, deb hisoblaymiz. Chunki inson huquqi dindorlikni tabiiy huquq sifatida ta'minlashi uchun davlat va dinning nafaqat ajratilishi, balki uning o'zaro hamkorligini ham talab etadi. Zero fuqaroning diniy ma'lumot olishi diniy ta'lim muassalalar bilan birga dunyoviy ta'lim tizimida ham yaratilishi darkor. Davlatning dunyoviyliigi yoshlarning diniy sohada bilimga bo'lgan ehtiyojini qondirishga monelik qilmaydi. Uning mezonni yoshlarning ma'naviy ahloqiy tarbiyasi, jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdir. Boz ustiga yoshlarning din sohasidagi savodxonligi diniy radikalizmga qarshi turishda himoya immuniteti, ekstremizmni oldini olishning muhim sharti hamdir. Ijtimoiy dunyoviy davlat shaxs manfaatlarini optimal yechimida "Fuqarolarning diniy erkinligi va diniy birlashmalar haqida"gi mazmunida qonunni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga bu qonun fuqaroning dindorlik huquqi va diniy uyushmalar bilan bog'liq ijtimoiy sohalarni ham o'zida

mujassam etadi. Vijdon nafaqat diniy meyorlarni buzishda Allohdan qo'rqish, balki ijtimoiy davlatdagi fuqarolik munosabatlarini tartibgva solishda amal qiladigan hatti-harakat erkinligi va tanlovi bo'lishi shart.

Mazkur qonunda "diniy tashkilotlar" atamasini qo'llanishida ham huquqiy g'alizlik mavjudki, amaldagi qonunlarda meyorlashtirilgan "tashkilot"ning iqtisodiy normalariga mos tushmaydi. Diniy tashkilotlar deganda odatda fuqarolarning konfessional asosdagi diniy ibodat va marosimlarni amalga oshirishdagi ixtiyoriy asosdagi fuqarolarning nodavlat, notijorat birlashma, uyushmalari nazarda tutiladi.

Bizning ilmiy tadqiqotlarimiz O'zbekiston Respublikasida mazkur fuqarolik layoqati dindorlik

huquqining meyor va mezonlarini yanada shakllantirish ehtiyoji bilan huquqiy tartibotda ilmiy-amaliy qimmatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va o'zga amaldagi qonunlardagi dinga bo'lgan munosabatni yanada erkinlashtirish, ta'lim va tarbiya sohasida diniy bilimlarni chuqur o'rganilishi ham mamlakatimizda diniy vaziyatni barqarorlashtirish bilan yoshlarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasidagi bo'shliqlarni amaliy to'ldiradi, deb hisoblaymiz. Shu ma'noda yoshlar orasida diniy savodxonlik va ma'rifat etnokonfessional tolerantlik ruhini shakllantirishi bilan buzg'unchi g'oyalarning oldi olinib, ma'naviy-ma'rifiy hayotni yuksaltirishi tayindir.

ADABIYOTLAR

1. Бурьянов С.А. Международно-правовые документы в области свободы совести и практика их реализации в Российской Федерации: теоретико-прикладные исследование. -М.: Моск. Хелсинк. группа. -2012. -244 с.
2. Булавина М.А. Заикина И.В. Развитие представлений о свободе совести и свободе вероисповедания// Инновации и инвестиции. -2015. -№ 5. -С.245-248.
3. Гегель Г. В.Ф. Философия религии в 2 т. -Т.1 -М.: Российская политическая энциклопедия. -2007. -415 с.
4. Доклад о свободе вероисповедания в Эстонии за 2014 год // <https://ee.usembassy.gov/wp-content/uploads/sites/207/2015/12/usuvabadusrus.pdf>
5. Ерышева В.А., Хлысталова Н.Ю. Религиозность и правовые аспекты формирования светскости в системе образования // Ученые записки Орловского государственного университета -2013. -№ 4(53) -С. 179-182
6. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 5 июлдаги ЎРҚ-699-сонли "Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида"ги янги тахрирдаги Қонуни // <https://lex.uz/docs/5491534> (Мурожаат санаси 14.11.2023)
7. Локк Дж. Сочинение в 3 т. -М.: Мысль 1985. -Т. 2. - 125 с.
8. Мирзахмедов А. М. Феномен ислама // Социологические исследование. -2003. -№ 2-3. -С. 93-96
9. Мирзахмедов А. М. Терпимость как правовая культура // Гуманитарий. -2017. -№ 1. -С. 36-44
10. Мирзиёев Ш. М. Доклад 75 сессии генеральной ассамблеи ООН // Народное слово 2020. -20 октябрь
11. Словарь по этике / Под ред. А.А. Гусейнова и И.С. Кона. - М.: Полит. издание. - 1989. -447 с.
12. Шпенглер О. Закат Европы / Вступ.сл. и ком. проф. Г.В. Драча – Ростов н/Д: "Феникс, 1998. -640 с.



UDK: 378.014.15

Hilola MAKSUDOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
E-mail: hilola-19833@mail.ru

TIQXMMI katta o'qituvchisi, PhD, K.Allautdinova taqrizi asosida

LINGUODIDACTIC CHARACTERISTICS OF TEACHING SPECIALIZED SCIENCES IN A FOREIGN LANGUAGE

Annotation

The article theoretically analyzes the needs of teaching branch subjects in English and EMI (English as a medium of instruction) language as an important factor in the internationalization of higher education institutions and the expansion of academic mobility. In addition, the problems and possibilities of applying EMI in the republic's HEIs were discussed.

Key words: English as a medium of instruction, field sciences, QS, academic mobility, language policy.

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКАЯ ОСОБЕННОСТЬ ПРЕПОДАВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ НАУК НА ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В статье теоретически анализируются потребности преподавания отраслевых предметов на английском языке и языке ЕМІ (английский как средство обучения) как важного фактора интернационализации высших учебных заведений и расширения академической мобильности. Кроме того, обсуждались проблемы и возможности применения ЕМІ в вузах республики.

Ключевые слова: английский язык как средство обучения, профильные науки, QS, академическая мобильность, языковая политика.

MUTAXASSISLIK FANLARNI CHET TILIDA O'QITISHNING LINGVODIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitish ehtiyojlari va EMI (English as a medium of instruction) ta'lim tilining oliy ta'lim muassasalarining xalqarolashuvi va akademik mobillikni kengaytirishning muhim omili sifatida nazariy tahlil qilingan. Shuningdek, respublika OTMlarda EMIning qo'llash muammolari va imkoniyatlari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: English as a medium of instruction, sohaviy fanlar, QS, akademik mobillik, til siyosati.

Kirish. Bugungi kunda universitetlarning ta'lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy shart sifatida ko'rmoqda.

Mamlakatimizda 2019 yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish,

innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish sifatini ta'minlash, chet tillarida erkin

so'zlasha oladigan mutaxassislarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu yo'nalishdagi o'quv dasturlarning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash, chet tillarni bilish darajasini baholashning milliy test tizimini rivojlantirish asosida malaka sertifikatiga ega bo'lgan o'qituvchilar, talabalar va pedagoglarga imtiyozlar berish hamda ularni rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublika Moliya vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalikda mutaxassislik fanlaridan chet tilida dars beradigan, B2 va undan yuqori darajadagi malaka sertifikatiga ega bo'lgan ta'lim muassasalari pedagoglarning ish xaqqlariga 100 foizgacha ustamalar belgilash tartibi ishlab chiqilishini amaliyotga joriy etilinishini ta'minlansin" [3]. Ushbu qarorning tasdiqlanganiga qariyb 5 yil bo'lgan bo'lsada, oliy ta'lim muassasalarida xali bu yo'nalishni yetarlicha yo'lga qo'yish uchun aniq rejalar ishlab chiqilmagan.

"2017-2018 o'quv yilidan boshlab har bir oliy ta'lim muassasida barcha kurslarda kamida 2ta guruhda mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish, ingliz tilida dars o'tadigan professor-o'qituvchilarni maqsadli tayyorlash, ularning xorijda tegishli tayyorgarlikdan o'tishini tashkil etish, shuningdek, o'quv mashg'ulotlarini olib borishga xorijiy mutaxassislarini jalb qilish, mashg'ulotlarni rivojlangan davlatlar oliy ta'lim muassasalarida bugungi kunda foydalanilayotgan zamonaviy o'quv adabiyotlari asosida o'tilishini yo'lga qo'yish"[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Xorijiy reyting agentliklarining muhim indikatorlaridan biri, oliy ta'lim muassasalarida xorijiy o'qituvchilar salmog'ini oshirish zarur.


QS yoki THE reyting agentliklarining ro'yxatiga kirgan oliy ta'lim muassasalari tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, xorijiy o'qituvchilar salmog'i kamida asosiy shtat birligining 10 foizini tashkil qiladi, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ushbu ko'rsatkich salmog'i 1 foizga ham yetmaydi. Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy talabalar salmog'ini oshirish tavsiya etiladi, chunki dunyoning yetakchi reyting agentliklari indikatorlarida ushbu ko'rsatkichga yuksak e'tibor beriladi. oliy ta'lim muassasalarida xalqaro e'tirof etilgan nashrlar (Scopus)da maqolalar sonini oshirish lozim. Buning uchun respublikamizdagi jurnallarni xalqaro darajaga olib chiqish, xalqaro nashrlar talablaridan kelib chiqib maqolalar chop qilish zarur. oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish beruvchilar tomonidan baholanishini takomillashtirish kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 467-son qarori bilan ish beruvchilarning fikrlari alohida indikator sifatida kiritilgan va bu internet orqali o'tkazilib kelinmoqda. Iy ta'lim muassasalariga qabulni amalga oshirishda, har bir OTM o'zining yo'nalishidan kelib chiqib, OTMga xujjat topshirish talablarini ishlab chiqish tartibini yo'lga qo'yish. Masalan rivojlangan mamlakatlarda OTMga xujjat topshirish uchun IELTS, TOEFL, GMAT va.h kabi sertifikatlar talab qilinadi. Milliy OTMlarga hujjat topshirish uchun xalqaro darajadagi sertifikatlar yoki OTMning yo'nalishidan kelib chiqib imtixonlar olishni yo'lga qo'yish zarur.

Bu o'z navbatida bilimli abituriyentlarni o'qishga qabul qilish, kelgusida OTM obro'sini oshirish, eng yaxshi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadi, deb hisoblaydi.

Mutaxassislik fanlarni xorijiy tilda o'qitish, bilingvalizm muammolari E.G.Krilov mutaxassislik fanlarni ikki tilda o'qitishda chet tilida kasbiy kommunikativ kompetentlikni (lingvistik blok) va (professionalniy blok) bo'limlarga ajratadi[10]. Bunda til bo'limida kasbga yo'naltirilgan lingvistik, ijtimoiy-madaniy, pragmatik va strategik kompetensiyalarni rivojlantirish. Kasbiy bo'limda esa, kasbiy kognitiv va kasbiy texnologik kompetensiyalardan iborat bo'lishini ta'kidlaydi.

Tahlil va natijalar. Respublikamizda so'ngi yillarda xorijiy davlatlarning OTMlari bilan qo'shma dasturlar deyarli

Dunyo bo'yicha mutaxassis fanlarni ingliz tilida o'qitilishining o'sib borishi:



1-Rasm Ingliz tilida fanlarning o'qitilish holati

Spolskiy fikricha til siyosati 3ta komponentni o'z ichiga oladi:

Language ideology (LI)- til idologiyasi, Language management (LM)-til boshqaruvi, Language rrasitise (LP)-til amaliyoti.

Britaniya Kengashi mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitadigan o'qituvchilarning quyidagi 10 ta kompetensiya maydonlarini aniqlaydi:

1) Rejalashtirish- tilga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash, tilni o'qitish talabalarini aniqlash, mashg'ulotlar soni, soatini belgilash, talabalarining til ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yondashuvlar va metodlarni aniqlash;

2) Talabalarining bilim darajalarini, til bilish darajalari, qanday mavzular o'qitilishini aniqlash;

har bir oliy ta'lim muassasalarida ochildi. Misol tariqasida Toshkent farmatsevtika instituti - Sankt-Piterburg unversiteti, Toshkent stomatoliya instituti - Moskva davlat unversiteti kabilar. Ushbu ta'lim dasturlarida o'qish afzalligi ikkala OTMni tugallanganlik haqidagi diplom (Double degree dirloma) berilishi va ta'limning bir qismi xorijiy OTMda davom etish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ushbu yo'nalishdagi ta'lim oluvchilar qo'shma dasturning yetakchi oliy ta'lim muassasasining ta'lim tilini mukammal bilishi kerak.

So'ngi ilmiy izlanishlar 2050 yilga kelib ingliz tili xitoy, xind va arab tilidan keyin to'rtinchi o'rinni egallashi takidlanadi. Yevropa davlatlarida magistratura va aspirantura ta'lim bosqichlarida fanlarni ingliz tilida o'qitish 60%ni tashkil etmoqda. Universitetlarning xalqaro nufuzini oshirish, dunyoda reytingini ko'tarishda muhim.

English-medium education - ta'lim tili ingliz tilida olib boriladi va bu asosan ingliz tili ona tili bo'lmagan davlatlarda amalga oshiriladi.

Dastlab ushbu ta'lim o'z vatanida Angliya va Shotlandiyada, keyinchalik esa, Irlandiyada 16 asr boshlarida avj oldi. Britaniya imperiyasining yuksalishi tilning Britaniya koloniyalariga tarqalishini kuchaytirdi va ularning ko'pchiligida ingliz tili ularning ko'pchiligida ta'lim tili sifatida saqlanib qoldi.

Ikkinchi jaxon urushidan keyin Amerika Qo'shma Shtatlarning iqtisodiy va madaniy ta'sirining kuchayishi ingliz tilining global tarqalishini yanada kuchaytirdi. Shuningdek, internet va fan-texnologiyalarning tez tarqalishi dunyoning ko'plab davlatlarida ta'lim muassasalari ingliz tilida o'qitish tizimiga o'tdi.

EMI kompetensiyasi aslida 2 ta muhim komponentlarni o'z ichiga oladi: lingvistik kompetensiya va kommunikativ kompetensiya. EMI kontekstida mutaxassislik fani o'qituvchisining kompetensiyasi eng muhim nuqta hisoblanadi.

Mohammad Mosiur Rahman Bangladesh OTMlarida o'tkazgan tadqiqotlar natijasida quyidagilarni aniqlaydi [8]. Aksariyat talabalar mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'rganishlaridan asosiy maqsad mehnat bozorida yaxshi ish o'rinariga ega bo'lish.

3) O'qitish materiallarini tayyorlash, topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

4) O'qituvchining til bilish darajasi, ingliz tilida kommunikativ kompetensiyaga ega ekanligi;

5) Talabalarining gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish, maxsus mutaxassislikka oid terminlarni qo'llay olishga ko'maklashish.

6) Talabalarining yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish;

7) Mutaxassislik fanlarni ingliz tilida o'qitish uchun mo'ljallangan materiallarni ishlab chiqish;

8) Baholash va fidbek berish;

9) Hamkasblar bilan hamkorlikda bo'lish;

10) Kasbiy rivojlanishni doimiy olib borish[2].

Mutaxassislik fanlarni ingliz tilida o'qitishda eng katta muammo mutaxassislik fani o'qituvchilari va talabalarining ingliz tilini bilish darajasi, agar til bilish darajasi yuqori bo'lmas ekan, ushbu ta'lim yondashuvidan foydalanishni yo'lga qo'yib bo'lmaydi.

Xulosa va takliflar. Respublikamizda mutaxassislik fanlarni ingliz tilida o'qitish masalalari E.X. Muhamedov, F.I.Sharipov va O. Tillaboyevalarning ilmiy maqolalarida yoritilgan bo'lib, F.I.Sharipov Toshkent davlat yuridik universitetida EMI o'qitish muammolariga to'xtalib o'tgan[13]. Unversitetda jami 19 moduldan 14 tasi ingliz tilida olib borilishini va aksariyat EMI o'qituvchilarning til bilish darajasi IELTS 7 darajani tashkil etishini ta'kidlaydi. Biroq, 2-bosqich talabalariga mutaxassislik fanlarni ingliz tilida o'qitishda dars jarayonida ba'zi mavzular ona tilida muhokama qilinishi mavzuni yanada kengroq yoritish imkoniyatini beradi, deb hisoblaydi. Shuningdek, F.I.Sharipov EMI ni yo'lga qo'yishda:

talabalar o'rtasida til bilish darajasini aniqlash maqsadida diagnostik testini o'tkazish kerak;

EMI kurs talabalardan xalqaro IELTS sertifikatidan 6 darajaga ega bo'lishlari talab etilishi lozim;

o'qituvchilarni yo'nalish bo'yicha ESR kursi bo'yicha malakalarini oshirish lozim, deb taklif beradi.

Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish xolati bo'yicha tadqiqot olib borgan Angliyalik tadqiqotchi Anastasiya Bezborodova ushbu mamlakatlarda EMI o'qitishning yutuqlari va kamchiliklari bo'yicha ma'lumotlar beradi. Qirg'izistonning xalqaro Alato universiteti xar yili juda ko'p xalqaro talabalarni

ta'lim anchagina arzon bo'lganligi uchun jalb etishini ta'kidlaydi. Shuningdek, O'sh davlat universitetida tibbiyot fanlari ingliz tilida o'qitilishi Xindiston va pokistonlik talabalar ko'pchilikni tashkil etishini aytadi. Tojikistonda esa, 2014-2015 yillarda qo'ni Avg'oniston va xindistonlik talabalar 900 nafarni tashkil etganligini aytadi. O'zining tadqiqotini Qirg'izistonning jami 10 ta OTMlarida, Tojikistonning 18 ta va O'zbekistonning 30 ta OTMlarida so'rovnomalar o'tkazgan va so'rovnomalar natijasida u quyidagi muammolarni va yechimlarini keltiradi:

1) maktab va litseylarda ingliz tilini o'qitish fan dasturlari talabalarining oliy ta'lim muassasasida o'qish uchun yetarli darajaga olib chiqadigan bo'lishi kerak;

2) EMI o'qitish jarayoniga o'tishdan avval EAP va ESP kurslari o'qitilishi lozim;

3) professor o'qituvchilar va talabalarining til bilish darajasini oshirish xukumat va OTM miqyosida qo'llab kuvvatlanishi lozim;

4) oliy ta'lim muassasalari texnik bazalari, o'quv materiallarni ta'minlash uchun iqtisodiy ta'minotga ega bo'lishi kerak;

5) EMI o'qitishdagi muammolar va qiynchiliklar doimo universitet rahbariyati bilan muhokama qilinishi kerak;

6) oliy ta'lim muassasida aynan qaysi mutaxassislik fanlarni ingliz tilida o'qitish bo'yicha aniq qarorga kelinishi kerak.

Ushbu tavsiyalar ko'plab xorijiy OTMlarda amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda va mamlakatimiz OTMlarida ham joriy etilishi ijobiy natijalarga olib keladi deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. "Integrating Content and Language in Higher Education – international association about higher education at the interface of content and languag". iclhe.org. Retrieved 1 January 2021.
2. Retrieved from http://www.slideshare.net/British_Council/
3. "Таълим муассасаларида чет тилларини ўқитишнинг сифатини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси вазирлар маҳкамасининг қарори 32 (792)-сон, 820-модда. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й.
4. Bezborodova A., Radjabzade S. English in higher education in the Kyrgyz Republic, Tajikistan, and Uzbekistan.// World Englishes Wiley -2022. 72-91 p. going-global-2015-48709789
5. <https://review.uz/oz/post/oliy-talim-muassasalarini-dunyoning-etakchi-reyting-agentliklarining-1000-talik-royxatiga-kiritish-masalalari>
6. <https://xs.uz/uzkr/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujgonish-davri-pojdevorini-yaratadi>
7. Macaro, E. (2015). Going global 2015: English medium instruction: Seven key points of controversy.
8. Mohammad Mosiur Rahman, Manjet Kaur Mehar Singh, Monabbir Johan and Zohur Ahmed English Medium Instruction Ideology, management and practices: a Case study of Bagladesh Private University // English Teaching and Learning Volume 44 number 1, 2020, P 61-79.
9. Wenli Tsou Shin-Meikao english as a Medium of Instruction in Higher education. Implementations and classroom practices in Taiwan.2017-Singapore 218 p.
10. Крылов Э.Г. Интегративное билингвальное обучение иностранному языку и инженерным дисциплинам в техническом вузе. Автореферат дисс. ... док. пед.наук. – Екатеринбург, 2016. – 52 с.
11. Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокчини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси вазирлар маҳкамасининг қарори 30 (790)-сон, 729-модда. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й.
12. Поленова А.Ю. Английский язык обучения в университетском экономическом образовании: проблемы и перспективы развития // Journal of economic regulation Vol 7, no.3.2016 -С. 153-162
13. Шарипов Ф.И. The teachers' perception in implementing English language as a medium of instruction in Tashkent state university of law // Вестник науки и образования №9 (112) Часть 3. -2021 С. 42-46.



UDC: (ЎУК, УДК): 372.881.111.1

Nilufar MAMATKULOVA,

Uzbek State University of Foreign Languages Head of the Department of English Applied Sciences №2, PhD

E-mail: mamatkulovanilu@mail.ru

Reviewer: Sh.Rustamova, PhD., Tashkent State Transport University

IMPORTANCE OF CREAM STRATEGY IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING IN HIGHER EDUCATION

Annotation

Teaching and training of future teachers of foreign languages in foreign language competencies based on CREAM strategies is distinguished by effective and productive results. This article discusses one of the effective strategies for language learners, the CREAM strategy, and its importance in language learning.

Key words: CREAM strategy, creativity, reflective, effective, motivation.

OLIV TA'LIMDA HORIJY TIL O'RGANISHDA KREM STRATEGIYASINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining xorijiy til kompetensiyalarini CREAM strategiyalari asosida o'rganishi va o'rgatish samarali va mahsuldor natijalar ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada til o'rganuvchilar uchun samarali bo'lgan strategiyalardan biri, ya'ni CREAM strategiyasi va uning til o'rganishdagi ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: KREAM (CREAM) strategiyasi, kreativlik, reflektivlik, samaradorlik, motivatsiya.

ЗНАЧИМОСТЬ КРЕМ-СТРАТЕГИИ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

Обучение и изучение будущих учителей иностранных языков иноязычным компетенциям на основе стратегий KREAM (CREAM) отличается эффективными и продуктивными результатами. В этой статье обсуждается одна из эффективных стратегий для изучающих язык, стратегия KREAM (CREAM), и ее важность в изучении языка.

Ключевые слова: KREAM (CREAM) стратегия, креативность, рефлексивность, эффективность, мотивация.

Introduction. The independence of the Republic of Uzbekistan encouraged it to become an equal member of the international community, to establish political, economic, scientific-technical, and cultural relations with foreign countries. In order to establish and strengthen such relations, the necessity of perfect mastery of foreign language competences of the person, i.e. the future personnel, is indisputable. Being successful in the educational process is the main goal of students. However, this is not an easy process, especially in language learning.

Each language learner uses a specific learning strategy in the process of language learning. When looking for an answer to the question of what "strategy in education" is, there is no definitive explanation for this, but according to scientists, strategies are a set of actions of a person that are consciously and purposefully aimed at improving learning and help the learner enables efficient use of information [3]. Here, if we talk about the CREAM strategy, this strategy is recommended by Stella Cottrell[1]. It focuses on developing self-directed learning skills and equipping students with the necessary study skills to continue their academic pursuits at university level.

Main part. CREAM is an acronym composed of the initials of the English words creative, reflective, effective, active and motivation. Below is a discussion of each word definition:

- creative learning: effective use of imagination in learning and solving problems;
- reflective learning: a person analyzes, evaluates and learns from the work he has done;
- effective learning: is the arrangement of time, place, state of mind, resources and the use of technologies for maximum benefit. In addition, language learners are expected to connect learning with real life;

- active learning: a person should be physically and mentally active in order to "deeper understanding" of what one has learned;

- motivational learning: the results you want to achieve, what steps to take to achieve them, and the student's knowledge of what to do to form and maintain his enthusiasm [1].

Developing each of these aspects strengthens the others. For example, motivation involves thinking about what you really want. Active learning and creativity require motivation and help to stay motivated.

Creativity is important for generating ideas, especially in the early stages of new assignments. Later logical approaches can be used to evaluate which creative ideas to use. A number of concepts and thoughts that hinder creativity, such as "it's a waste of time", "it's too childish", "I can't", "I'm not creative", "it doesn't make sense". But we need to use some approaches that develop creativity, using each situation correctly and effectively. For example, choose any two random subjects or objects, such as a pen and a plant. Finding as many connections as possible between them (size, color, owner, fracture, rotation method, when purchased, where they came from, etc.). The student can adapt how s/he can use this type of "game" to complete the task given to the student.

In order to promote creativity in learning it is recommended to be confident about using the strategies and styles that work best for a learner. Moreover, encouraging to be creative and using imagination to explore something is one of the fruitful ways to develop one's creativity. It is suggested to be curious and ask and acquire everything. Usually being afraid of making mistakes can hinder creativity, so one should avoid being scared of making mistakes. We learn a lot when we make mistakes.

For reflective learning following tips are suggested:

Take stock of your own performance, assess it, and learn from it.

Evaluate yourself and determine your benefits and drawbacks.

Consider your learning process.

What keeps you from getting knowledge? What areas of knowledge do you still lack?

Make use of the resources that tutors give you.

Jot down your thoughts and feelings to aid in reflection and understanding[5].

According to Cottrell, there are five techniques for developing reflection:

- maintaining a blog or learning journal;
- making use of the self-assessment forms;
- retaining a current portfolio or profile;
- utilizing tutors' feedback constructively;
- consistently completing progress sheets;

How learning journals can be useful? Reflective learning journals are useful as a basis for discussion. It can be helpful to discuss one's journal or blog entries with other students on their course. Another use of reflective learning journals is preparing for tutorials. Students can go through the journal and make a list of issues that they want to discuss in their next tutorial. They arrange these in order of priority. If they have any problems, they think through some possible options, so that the discussion with the tutor will be more focused. Furthermore, keeping a private journal helps to develop students writing. They can experiment with different styles if they want to. They can take risks. The journal is for students' benefit – and for them only. This may make a welcome change from writing to the demands of your course or tutors [4].

In order to become an effective learner, students should be selective about their information. It is recommended to take only what is relevant and necessary as well as challenging and questioning what they see and hear. Moreover, relating their studies to real life and understanding what they are learning could lead them to be more efficient in their studies. Effective learning depends on the ability to optimally organize mental state, space, time, and materials for learning.

There are several tips provided for the effective use of the study leave:

- Plan ahead to make the most of your available time. For example, identify tasks that you can complete during this week's study vacation period so that you will feel a sense of accomplishment at the end of the study period.
- To save travel time, see if your workplace has a quiet room you can use to study.
- If you have negotiated study time at your workstation, make sure you can connect to suitable online learning resources from there. If not, do you learn more effectively on campus?
- Plan to use half-day learning during your entire work week. Sometimes it makes more sense to streamline certain activities at certain times. The specific time designated for study leave can be best used for other his activities, such as when his overall travel time is reduced.
- If you feel that your study leave would be better used for non-study-related purposes, be sure to reserve equivalent study time elsewhere in your plan [2].

Active learning varies from passive learning in several ways. Passive learners wait for to be fed with information and instructions whereas active learners search for methods to participate more fully in what they are discovering. Moreover, in passive learning students receive information; all they have to do is heed what is written or stated, and carry out as they are told, while active learners are involved in the entire learning process.

For passive learners distinct sets of data are handled as distinct units but active learners find connections between various items that they find. Passive learners reiterate details without realizing it. Active learners consciously try to make sense of things of what they learn, and derive meaning from it. Moreover, passive learners might get fatigued and bored easily whereas active ones extended attention span is a result of their mind is working more actively. For passive learners studies may feel pointless at times, however for active learners education is engaging and personalized.

Cottrell suggests following active learning strategies:

“ Summarise a passage in 8–12 words. This makes you think about what you have read.

Make spider diagrams – or other patterned notes.

Think of 3–5 real-life examples of what you have learned. This helps you to apply what you learn.

Work out which is the best example, and why. This will help you to prioritise and evaluate.

List 50 mini-questions about one aspect of the subject ('what, why, who, where, when, how did x happen?') This helps you to explore the subject.

Answer your own mini-questions. This helps you to research in an organised and focused way.

Draw a diagram or a cartoon to illustrate a theory or concept.

Write action plans – of things to do today, or this week, or this term.

'Teach' what you have learned to a real or an imaginary person. Imagine you are giving a lecture or instructions.

Keep a reflective study journal.

Sum up the three most important points of a lecture. Which is the one most important point? This helps you to evaluate and select salient points.

Which section of the book you are reading is the most interesting or useful?

Pretend you disagree with everything you are reading – how would you argue your case? What examples and evidence would you use?

How does what you have learned link with your work or your everyday life?

Invent titles for essays or reports. Give yourself 5 minutes to write a quick outline plan for one of these.

List all the key points for one aspect of study.

Draw a simple picture or symbol to remind you of each aspect.

Discuss your ideas – or your difficulties –with other people.

Contribute to your course chat room, or start one.

Write key points on index cards or sticky labels. Juggle these around to see how many ways you could organise the same information”.

Success is inextricably linked with motivation. Increasing the motivation of students in language learning is one of the important factors of being effective in studying. Motivation is a theoretical device used to explain behavior. It represents the reasons for people's desires, needs and actions. A motive is something that motivates a person to act in a certain way, or at least to develop a tendency to behave in a certain way.

Cottrell suggests some ways to keep students motivated [1]:

be realistic - success requires effort and persistence. There are also moments in life when a person becomes depressed due to obstacles. Although positive thinking has its own merits, unrealistic thinking can lead to failure because a person is not prepared to face obstacles. Preparing to plan and think carefully about how to avoid the difficulties that may arise prepares you to fight for success rather than defeat;

Expectations for higher outcomes: The higher the expectation, the more likely it is to determine outcomes. If one's expectations are low, one's achievements may be very few. If a person aspires to the top, he should make a suitable plan, making sure to create the right opportunity for himself;

setting realistic goals: if goals are realistic, they will be achieved. A person who confuses dreams with goals can become depressed because of the fact that dreams do not come true;

reward success: rewarding yourself after achieving a goal is a good tip to stay motivated. Bonuses can be very valuable at the same time as they are commensurate with the amount of work;

Track your progress: Keeping track of your progress helps you keep track of it. A record of past successes can be motivation for future steps;

"hunting" for interest: if a person is interested in a task at hand, it may seem easier despite its difficulty. Regardless of whether it is difficult or not engaging, there is an opportunity to make every task interesting[2].

Conclusion. In short, "CREAM" is a strategy that leads students to success in language learning and shows effective and productive results. As a general rule of thumb, the "C.R.E.A.M. strategy" invites you to reflect and look for ways to continually improve the way you learn.

REFERENCES

1. Cottrell, S. The Study Skills Handbook, 4th edition, Palgrave Macmillan. 2013
2. Cottrell, S. Skills for Success. The Personal Development Planning Handbook. Palgrave Macmillan. 2003
3. Richards. Jack C. Teaching Listening and Speaking. 32 Avenue of the Americas, New York, NY 10013-2473, USA Cambridge University Press 2008-p.11-14.
4. Milad, Marine. Applying the CREAM Strategy for Coaching Teaching Practices. IAFOR Journal of Education Volume 5 – Issue 1 – Spring 2017
5. <https://slideplayer.com/slide/15344281/>



Erkin MARDONOV,
Termiz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
E.mail:erkinmardonov735@gmail.com

Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti v/b, PhD O.Eshmuradov taqrizi asosida

THEORETICAL ANALYSIS OF STUDYING THE PROBLEM OF THINKING IN STUDENTS.

Annotation

Thinking is the highest form of human mental activity. Through thinking, we represent in our minds things and events that cannot be directly represented by our senses. In general, there are internal relationships and laws between things and events in the external environment that cannot be seen with the eyes or heard with the ears.

Key words: Through contemplation, we have the opportunity to know the essence of things and events in the material world. Therefore, direct perception, perception, imagination and indirect thinking play an important role in knowing the world.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация

Мышление – высшая форма психической деятельности человека. Посредством мышления мы представляем в уме вещи и события, которые не могут быть непосредственно представлены нашими органами чувств. Вообще между вещами и событиями во внешней среде существуют внутренние связи и законы, которые невозможно увидеть глазами или услышать ушами.

Ключевые слова: Благодаря созерцанию у нас есть возможность познать суть вещей и событий материального мира. Поэтому непосредственное восприятие, восприятие, воображение и косвенное мышление играют важную роль в познании мира.

O‘QUVCHILARDA TAFAKKUR MUAMMOSI O‘RGANILISHINING NAZARIY TAHLILI


Annotatsiya

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a‘zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo‘lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o‘rtasida ko‘z bilan ko‘rib, quloq bilan eshitib bo‘lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud.

Kalit so‘zlar: Tafakkur orqali biz moddiy olamdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilish imkoniga ega bo‘lamiz. Shu bois dunyoni bilishda bevosita sezish, idrok, tasavvur va bilvosita tafakkur muhim rol o‘ynaydi.

Kirish. Tafakkur tushunchasining mazmun mohiyati psixologiya darsliklarida olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Jumladan, umumiy psixologiya darsliklarida tafakkurga berilgan ta‘riflar turlicha bo‘lib uning ikkita yoki uchta muhim xususiyati ta‘kidlab o‘tiladi, xolos. Jumladan, P.I.Ivanovning darsligida "tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq, to‘liq, chuqur va (1-rasm):

umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonni taqin ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishiga imkon beradi" deb ta‘riflanadi. Ushbu ta‘rifda tafakkurning to‘la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirishi ta‘kidlab o‘tiladi, xolos, lekin uning xarakterli xususiyatlari bevosita so‘z yordami bilan ifodalanishi muallifning diqqat markazidan chetda qolgan.



Tafakkurning ongimizda aks etishi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. A.V.Petrovskiy tahriri ostidagi darslikda tafakkurga quyidagicha ta‘rif keltiriladi: "Tafakkur – ijtimoiy sababiy, nutq bilan chambarchas bog‘liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilish, uni bavoita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir".

V.V.Bogoslovskiy taqriridagi darslikda ham tafakkurga berilgan ta‘rif uning umumlashgan va bilvosita aks ettirish xususiyatlari yoritilgan, xolos. Xuddi shunga o‘xshash tafakkur xususiyatlari F.N.Gonobolin, K.K.Platonov darsliklarida ham uchraydi.

Keltirilgan ta‘riflar orasida O.K.Tixomirovning darsligidagi ta‘rif nisbatan to‘liqroq deb hisoblanadi. Unda tafakkur predmetiga kiruvchi tarkibiy qismlar mana bunday

ifodalanadi: "Tafakkur - bu o‘z mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib, bavoita aks ettirishni xarakterlaydigan umumlashtirish darajasi va foydalanadigan vositalarga hamda o‘sha umumlashmalar yangiligiga bog‘liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir".

Hozirgi vaqtda tafakkurning predmeti yuzasidan psixologiyada turli-tuman qarash va ta‘riflar mavjuddir. Ularning ayrimlariga tavsifnoma berib o‘tamiz. S.L.Rubinshteyn nazariyasiga binoan tafakkurni psixologik jihatdan o‘rganishning asosiy predmet, jarayon, faoliyat tariqasida namoyon bo‘lishidir. Muallif tafakkur operatsiyalari shakllarini shakllantirishda jarayon, muammoli vaziyatni hal qilishda esa fikr yuritish faoliyati sifatida vujudga kelishini chuqur tahlil qilib beradi. S.L.Rubinshteyn tafakkur

to'g'risidagi g'oyani rivojlantirib, uni subyekt faolligining paydo bo'lishi deb ataydi.


A.N.Leontev tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan mulohaza yuritib, tafakkurni turli ko'rinishlarga ajratadi, fikr yuritish faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni predmetli-amaliy faoliyat deb nomlaydi. Shuning bilan birga tafakkurning tuzilishi, fikr yuritish motivatsiyasi to'g'risidagi nazariy metodologik muammolarni o'rta tashlaydi.

P.Ya.Galperin fikriga ko'ra, tafakkur – bu orientirovka-tadqiqot faoliyati, orientirovka jarayondir, ya'ni orientirovka-jarayon, orientirovka faoliyat. Muallif psixologiya fani intellektual masalalarni yechishda subyektning tafakkuriga orientirovka qilish jarayonini o'rganishga asoslanadi deb tushuntiradi.

Inson tafakkurini o'rganish muammosi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib eng keng targ'ib qilinadigan, tadqiqotlar va tortishuvlarga sabab bo'ladigan muammoga aylangan. G'arb olimlari o'z tadqiqotlarida tafakkur muammosiga har tomonlama yondashishga harakat qilganlar va o'z tadqiqotlari predmetiga aylantirganlar.

Zamonaviy o'zbek psixologiyasi va pedagogikasi fanida ham tafakkur muammosi qator tadqiqotlar obyektiga aylangan. Inson tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish muammolari bilan bog'liq tadqiqotlar, ilmiy risola va maqolalar tahlili shuni ko'rsatdiki, tafakkur yuritish, sog'lom tafakkur va inson tafakkuri ko'rinishlari muammosi munozaralar obyektida olimlar diqqat e'tiboridadir.

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlarning grafik tasvirini quyidagi diagrammalar ko'rinishida ifodalaymiz:



Z.T.Nishonova yoshlarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish bo'yicha turli mashqlar to'plamini ishlab chiqqan. Bundan tashqari u mustaqil fikrlash sifatlarini ham ajratib ko'rsatadi:

1. Elementar tafakkur jarayonlarining shakllanganligi – ya'ni tahlil qilish, analiz, sintez, taqqoslash, muhim jihatini ajratish;

2. Tafakkurning faolligi, uning erkinligi, ya'ni nostandart g'oyalarning tug'ilishi jarayonidagi erkinlik va bir g'oyadan ikkinchisiga o'tishdagi egiluvchanlik;

3. Tafakkurning tashkillanganligi va maqsadga yo'nalganligi, boshqacha qilib aytganda, har bir inson tomonidan o'zi tafakkur qilishi yoki fikrlash jarayonlariga xoslikni anglash va uni nazorat qilish.

Shu o'rinda tafakkur tushunchasiga ta'rif beramiz. Tafakkur – bu inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, real olamni aks ettirishning umumlashgan bevosita usuli bo'lib, obyektlar orasidagi bog'liqlik, bilish jarayoni, yangi bilimlarni ochish, ijodiy, muammoli masalalarni yechishga qaratilgan psixik jarayondir.

J.Musayev o'zining "O'quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish" nomli monografiyasida quyidagi fikrni bildirgan: "o'quvchilarning mustaqil fikrlash

M.G.Davletshin, E.G.G'oziyev, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, Sh.Shodmonova, J.Musayev, S.Ataxanovalar biz ko'targan muammoni ya'ni, fikrni tarbiyalash, mantiqiylik, ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrni ifodalash, mustaqil va sog'lom tafakkurni shakllantirish muammolarini uyg'unlashtirgan holda o'z tadqiqotlarida yoritib berdilar.

M.G.Davletshin o'quvchilarda mustaqil tafakkur rivojlanishiga katta e'tibor beradi. Olimning ta'kidlashicha, «Hozirgi maktablarning asosiy vazifasi ta'lim metodlarini takomillashtirishdir. Maktabning vazifalari haqida gap borganda kishining hozir o'qitilayotgan fanni, hozirgi ijtimoiy – siyosiy munosabatlarni tushunib olishga ancha mos tushadigan tafakkur saviyalari haqida to'xtalib o'tish mumkin. Bu talablarga tafakkurning ilmiy-nazariy (dialektik) saviyasi javob beradi»[13].

Tadqiqot metodologiyasi. E.G.G'oziyev O'zbekistonda tafakkur psixologiyasini keng yoritgan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlarida aqlning eng muhim sifatlaridan – tafakkurning mustaqilligi ajratiladi. Muallif tafakkurning bu muhim sifatini quyidagicha belgilaydi: «Tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga konkret maqsad, ya'ni vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz(gipoteza)lar qilish, natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan vazifani hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasiz, o'zining aqliy izlanishi tufayli turli yo'l usul va vositalar topib mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy jarayonni tushunish kerak».

salohiyatini rivojlantirishda aynan ijtimoiy-gumanitar ta'lim jarayonining imkoniyatlari kengroq hisoblanadi. Shu bois, bu fanlarning o'quvchilarda mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish jarayonidagi ahamiyatini his etgan holda, o'quv jarayonlariga ijodiy yondoshish o'zining samarali natijalarini beradi". Shuningdek o'quvchida mustaqil fikrlashni ta'minlovchi quyidagi omillarga o'z e'tiborini qaratgan:

- o'quvchilarda nazariy bilimlarning mavjudligi;
- mavjud muammolarni tahlil eta olish ko'nikmalarining shakllanganligi;
- o'zgalar fikrini tinglay olish ko'nikmasiga egaligi;
- o'z faoliyatini maqsadli tashkil eta olishi;
- orttirilgan tajribalarga tayana olishi;
- atrof-muhit bilan ishchan muloqot o'rnatish olishi[16].

Tafakkur operatsiyalari. Tafakkur jarayoni insonning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, tevarak-atrofdagi olam va turmush to'g'risidagi o'z bilimlarini kengaytirishga va chuqurlashtirishga intilish sababli vujudga keladi. Fikr qiluvchi kishining tafakkuri-obyektini anglashi, bilishi tafakkur jarayonining xarakterli xususiyatidir. Odam o'zi idrok qilayotgan narsalar to'g'risida fikr qiladi. Bir narsaga tayanmagan quruqdan quruq tafakkur bo'lishi mumkin emas. Tafakkurning operatsiyalari quyidagilardan iborat.



Tafakkur operatsiyalari.

Analiz - shunday bir tafakkur operatsiyasidirki uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy jihatdan xususiyatlarini tahlil qilamiz. Analiz jarayonida butunning uning qismlariga va elementlariga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Tahlil obyektlari amalda ajratib bo'lmaydigan elementlarga yoki belgilarga bo'lishda ifodalanishi mumkin. Dars jarayoni vaqtida tafakkurning analiz qilish faoliyati katta o'rin tutadi. Chunonchi, savodga o'rgatish nutqni tahlil qilishdan, gapni so'zlarga, so'zlarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni tovushlarga ajratishdan boshlanadi. Agarda inson oldiga avtomashina motorining tuzilishini bilish vazifasi qo'yilsa, u holda bu topshiriqni hal qilish u motorni ayrim qismlarga ajratib, har bir qismni o'z navbatida alohida olib tekshirish lozim bo'ladi va hokazo.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib umumlashtirish jarayoni so'z ta'sirida vujudga kelgan ikkinchi signallar tizimiga asoslanadi. Akademik I.P.Pavlov fikricha, nutq signallari tufayli nerv faoliyatining yangi tamoyili abstraksiyalash va shu bilan birga oldingi tizimning behisob signallarini umumlashtirish vujudga keladiki, bunda ham o'z navbatida ana shu umumlashtirilgan yangi signallar tag'in analiz va sintez qilinaveradi. Fikr yuritishning umumlashtirish operatsiyasi har xil asoslarga ko'ra turlarga bo'lib o'rganiladi. Umumlashtirishni mazmuniga ko'ra tushunchali umumlashtirish va yaqqol-ko'rgazmali yoki elementar umumlashtirish turiga ajratish qabul qilingan.

Konkretlashtirish – hodisalarni ichki bog'lanish va munosabatlardan qat'iy nazar bir tomonlama ta'kidlashdan iborat fikr yuritish operatsiyasidir.

Umumiy mavhum belgi va xususiyatlarni yakka yolg'iz obyektlarga tadbiiq qilish bilan ifodalanadigan fikr

yuritish operatsiyasi insonning barcha faoliyatlarida faol ishtirok etadi. Voqelik qanchalik yaqqol shaklda ifodalansa, inson uni shunchalik oson anglab yetadi. Insonlar dastavval tevarak atrofini aniq belgilariga asoslanib, aniq holda aks ettirganlar, yaqqol obrazlarga suyanib tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar, shu boisdan to hozirgi kunga qadar aniqlik belgisi har qanday inson zoti uchun eng yaqin belgi bo'lib isoblanadi.

Psixologlar tadqiqotlarining ko'rsatishiga qaraganda konkretlashtirish odamda ikki xil vazifani bajaradi. Birinchidan, umumiy abstrakt belgining yakka obyektga tadbiiq etish amalga oshiriladi. Masalan, biz "oq" deganimizda ko'z oldimizga qor, qog'oz, paxta va shu kabilar kelishi mumkin. Ikkinchidan, konkretlashtirish umumiy va yakka belgilar kamroq bo'lgan umumiylikni ochishda ifodalanadi. Masalan, biz olma, olxo'ri, uzumni mevalar qatoriga stol-stul, divan va shu kabilarini mebellar qatoriga qo'shamiz. Umumiy fikrlarni bayon qilish va izohlash chog'ida odatda keltiriladigan misollarning hammasi konkretlashtirishning o'zidir.

Klassifikatsiyalash - bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga o'xshashligiga va boshqa turkumdagi narsalardan farq qilishiga qarab narsalarni turkumlarga ajratish tizimidir. D.I.Mendelevni "Elementlarning davriy tizimi" jadvali bunga yorqin misoldir. Bunda olim elementlarni atom og'irligi ortib borishiga, kimyoviy sifatlarning bir tipligiga va boshqa belgi va alomatlariga qarab tartib bilan joylashtirib chiqqan. O'rganish uchun qulaylik tug'dirish maqsadida, shuningdek, amaliy maqsadlarda ko'pchilik narsalarni guruhlarga, turkumlarga bo'lishga to'g'ri keladi.

ADABIYOTLAR

1. Xaydarova F.I., N.I.Xalilova. "Umumiy psixologiya". T.: 2009 yil 191 bet.
2. Davletshin M.G.va boshqalar. Ta'limning psixologik asoslari. O'quv qo'llanma – T.: O'QITUVCHI. 1995y. B.20.
3. G'oziyev E.G'.«Tafakkur psixologiyasi», T.: O'qituvchi. 1990y. 59b.
4. Nishonova Z.T.«Ta'lim jarayonida mustaqil tafakkur rivojlanishi». Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: 2005. B.9-10.
5. Musayev J. O'quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish. Monografiya. 2010y. 10-16b.
6. Usmonova E.Z. O'quvchilarda mustaqil tafakurni qanday qilib rivojlantirish mumkin. – T.: O'zbekiston. 1990y. B.4.
7. David G. Myers "Psychology ninth edition in modules". NY, WORTH PUBLISHER-2010 . 185pages.



UDK: 53:268.3

Sharofiddin MAXMUDOV,
Renasans ta'lim universiteti katta o'qituvchisi
Madina MAXMUDOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasida o'qituvchisi
TVChDPI dotsenti A.Abdulaxatov taqrizi asosida

TALABALARNING JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA AYLANMA MASHGULOTLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ta'limning hozirgi bosqichida o'quvchilar va talabalarning jismoniy tarbiyasida guruhli yondashuvlardan o'quvchilarning individual imkoniyatlari va qobiliyatlariga asoslangan shaxsga yo'naltirilgan o'qitish va tarbiyalash usullariga o'tish salomatlik holatini yaxshilashga yordam beradi. va jismoniy tayyorgarligini oshirish.

Jismoniy tarbiya amaliyotida bu usul aylanma mashq usuli hisoblanadi. Bunday tashkilotning samaradorligi shundan iboratki, sinflar zichligi sezilarli darajada oshadi, chunki barcha talabalar bir vaqtning o'zida va bir vaqtning o'zida mustaqil ravishda, o'z imkoniyatlari va sa'y-harakatlariga mutanosib ravishda mashq qilishadi.

Kalit so'zlar: talaba; aylanma mashqlari; ta'lim-tarbiya, mashg'ulot, sport, jismoniy tarbiya, ijtimoiy qadriyat, harakat qobiliyati, pedagogika, o'quvchilar, talabalar.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБОРОТНЫХ СРЕДСТВ В ПРОЦЕССЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной работе переход от групповых подходов в физическом воспитании учащихся и студентов на современном этапе образования к личности-ориентированным методам обучения и тренировки, основанным на индивидуальных возможностях и способностях учащихся, поможет улучшить состояние здоровья. и увеличите физическую подготовку.

В практике физического воспитания этот метод является методом циркулирующих упражнений. Эффективность такой организации такова, что интенсивность занятий значительно возрастает, потому что все учащиеся тренируются в одно и то же время и в одно и то же время самостоятельно, пропорционально своим возможностям и усилиям.

Ключевые слова: студент; упражнения на подвижность; обучение-тренировка, тренировка, Спорт, Физическое воспитание, Социальная ценность, способность двигаться, педагогика, учащиеся.

EFFECTIVE METHODS OF USING WORKING CAPITAL IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION OF STUDENTS

Annotation

In this paper, the transition from Group approaches in the physical education of students and students at the present stage of Education to personality-oriented teaching and training methods based on the individual capabilities and abilities of the students will help to improve the state of Health. and increase physical training.

In the practice of physical education, this method is the method of circulating exercise. The effectiveness of such an organization is such that the intensity of the classes increases significantly, because all students train at the same time and at the same time independently, in proportion to their capabilities and efforts.

Key words: student; exercises of turnover; education-training, training, Sports, Physical Education, Social Value, ability to move, pedagogy, pupils, students.

Kirish. Jismoniy faollik talaba yoshlar tarbiyasining eng muhim elementidir. U o'z-o'zidan o'quv jarayoni bilan bog'liq bo'lib, ko'plab funktsiyalarga ega bo'lib, ularning asosiysi o'quvchilar salomatligini har tomonlama rivojlantirish va shakllantirishga qaratilgan. Talabaning o'qish davridagi umumiy madaniyati va kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lgan jismoniy madaniyat ta'limning gumanitar tarkibiy qismining majburiy bo'limi bo'lib, uning ahamiyati ma'naviy va jismoniy kuchlarni uyg'unlashtirish, shakllantirish orqali namoyon bo'ladi. salomatlik, jismoniy va ruhiy farovonlik, jismoniy barkamollik kabi ijtimoiy qadriyatlar.

Ta'limning hozirgi bosqichida o'quvchilar va talabalarning jismoniy tarbiyasida guruhli yondashuvlardan o'quvchilarning individual imkoniyatlari va qobiliyatlariga asoslangan shaxsga yo'naltirilgan o'qitish va tarbiyalash

usullariga o'tish salomatlik holatini yaxshilashga yordam beradi. va jismoniy tayyorgarligini oshirish.

Tadqiqot dolzarbligi. Jismoniy tarbiya amaliyotida bu usul aylanma mashq usuli hisoblanadi. Bunday tashkilotning samaradorligi shundan iboratki, sinflar zichligi sezilarli darajada oshadi, chunki barcha talabalar bir vaqtning o'zida va bir vaqtning o'zida mustaqil ravishda, o'z imkoniyatlari va sa'y-harakatlariga mutanosib ravishda mashq qilishadi.

Tadqiqotning maqsadi - oliy o'quv yurti talabalarini jismoniy tarbiya jarayonida doiraviy mashq qilish usulini qo'llash samaradorligini eksperimental asoslash.

Tadqiqot maqsadlari:

1. Universitet talabalarini o'rtasida harakat qobiliyatlarining rivojlanish darajasini ochib berish.

2. Doiraviy mashg'ulot usulini qo'llash asosida oliy ta'lim muassasasi talabalarining umumiy jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish metodikasini ishlab chiqish.

3. Oliy o'quv yurtlari talabalarining umumiy jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish uchun ishlab chiqilgan to'garak mashg'ulotlari komplekslarining samaradorligini asoslash.

Ishda quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanilgan:

- ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik test;
- pedagogik eksperiment;
- matematik statistika usullari.

Xususan, quyidagi pedagogik testlardan foydalanilgan: tik turgan holda uzunlikka sakrash; baland turnikda yuqoriga tortish; oldinga egilib o'tirish; 3 x 10 m masofaga makkisimon yugurish.

Ekspirimental guruh o'quvchilarining harakat qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yuklama va dam olishni aniq taqsimlash bilan tartibga solinadigan mashqlar jarayoni bo'lgan aylana mashqlari tizimi taklif qilindi.

Mavzuning o'rganilgan darajasi. Muallif 8 ta mashqdan iborat 3 ta aylana mashq ishlab chiqdi. Komplekslar tezlik-kuch, kuch va muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni o'z ichiga olgan. Mashqlar standart vaqt ichida (40 soniyada) bajarish sharti bilan tanlangan. 8 ta mashqdan ikkitasi qo'shimcha og'irliklar (to'ldirilgan to'plar va oyoqlarda og'irliklar) bilan bajarildi. Mashqlar orasidagi dam olishning davomiyligi dastlabki ikki haftada 45 soniyani tashkil etdi va keyinchalik har ikki haftada 5 soniyaga qisqardi. Davralar orasidagi dam olish vaqtlari dastlabki ikki haftada 2 daqiqadan 30 soniyagacha bo'lgan, so'ngra har ikki haftada 30 sekundga qisqartirilgan. Doiralari soni 2-3 ta edi.

Birinchi, to'rtinchi va oltinchi stantsiyalarda aylana mashg'ulotlarning uchta kompleksining har biri pastki ekstremitalarning mushaklari uchun mashqlarni o'z ichiga oladi; ikkinchi, beshinchi, sakkizinchi stantsiyalarda - pastki ekstremitalarning mushaklari uchun mashqlar; uchinchi va ettinchi stantsiyalar magistrallarning mushaklari uchun. Aylanma mashg'ulotlarning ishlab chiqilgan komplekslari asosiy qism oxirida har bir darsning tuzilishiga kiritildi va 20-30 daqiqa davom etdi.

Tadqiqot natijalari. O'tkazilgan pedagogik tajribadan so'ng tajriba guruhi o'quvchilarining nuqtadan uzunlikka 9 sm ga sakrashda, yuqoriga ko'tarilishda 2,2 martaga, 3 x 10 m masofaga makkisimon yugurishda tajriba guruhi talabalarining ustunligi aniqlandi.

Tajriba guruhi talabarlari o'rtasida deyarli barcha nazorat mashqlari bo'yicha ko'rsatkichlarning o'sishi nazorat guruhi talabalariga nisbatan yuqori.

Shunday qilib, tajriba guruhida natijalarning o'sishi 3,3% dan 31,1% gacha, nazorat guruhida - 1% dan 25,1% gacha. Shu bilan birga, eksperimental guruhda eng yuqori o'sish sur'atlari yuqoriga ko'tarilishda (31,1%), nazorat guruhida esa - o'tirganda magistrallni oldinga egishda (25,1%), yuqoriga tortishda (17,1%) sodir bo'lishi aniqlandi. %, bu esa qo'llaniladigan metodikaning o'quvchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligiga ijobiy ta'siridan dalolat beradi.

Tadqiqotni ilmiy va amaliy ahamiyati. Demak, ta'lim jarayonida jismoniy tarbiya modelidan aylana mashq usulidan foydalanish pedagogik eksperimentda qatnashgan o'quvchilarda jismoniy sifatlarning yanada jadal rivojlanishiga yordam beradi. Eksperimental va nazorat guruhlari talabalarining boshlang'ich funktsional xususiyatlari va vosita qobiliyatlari ko'rsatkichlari sezilarli farqlarga ega emas edi.

Ishlab chiqilgan aylana mashqlari komplekslari 8 ta usuldan iborat bo'lib, ular tezlik-kuch, tezlik va muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni o'z ichiga olgan; bu mashqlar to'plamlaridagi yuklamalar har ikki haftada stantsiyalar va doiralari orasidagi dam olish oralig'ining qisqarishi tufayli o'zgarib turadi.

Jismoniy tarbiya modelidan o'quv jarayonida aylana mashq usulidan foydalanish pedagogik tajribada qatnashgan o'quvchilarda jismoniy sifatlarning yanada jadal rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari va pedagogik amaliyot jarayonlarida Andijon shahar mashinasozlik kasb-hunar kollejida jismoniy tarbiya va sport, sog'lomlashtirish tadbirlariga talabalarni jalb etish jarayonlari o'rganilgan.

Ta'lim muassasasida olib boriladigan jismoniy tarbiya va sport, sog'lomlashtirish ishlaridan jismoniy tarbiya darslari, sport to'garaklaridagi mashg'ulotlar, sport musobaqalari va sport bayramlari hamda ommaviy tashkil etiladigan turizm mashg'ulotlarini kiritish mumkin.

Ta'lim muassasasidan tashqari jismoniy tarbiya tadbirlariga bolalar va o'smirlar sport maktabidagi sport to'garaklarida sport tayyorgarliklari mashg'ulotlari hamda yashash joylarida, mahallalarda va oilada jismoniy tarbiya tadbirlari kiritildi. Sport to'garaklaridagi mashg'ulotlar sport turlari bo'yicha yuqori malakali sportchi tayyorlash vazifalarini hal etadi. Yashash joylarida va oilada tashkil etiladigan jismoniy tarbiya tadbirlari talabalarni jismoniy rivojlantirishga ma'naviy va ahloqiy barkamol inson qilib tayyorlashga hamda mehnat faoliyatiga tayyorlashga qaratilgan bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Каримов И. Биз куриш, яратиш йўлидан бораверамиз. Тошкент. 1995
2. Каримов И. Ислохотларни амалга оширишда катъатли бўлайлик. Тошкент. 1996
3. Каримов И. Баркамол авлод орзуси. Тошкент. 1998
4. И.Каримов Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Тошкент. 2002
5. И.А.Каримов. Ватан равнаки учун хар биримиз масъулмиз. Тошкент. 2001.
6. И.А.Каримов. Бизнинг бош мақсадимиз жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. Тошкент. 2005.
7. И.Каримов Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш бизнинг олий мақсадимиз. Тошкент. 2008
8. И.А.Каримов. Юксак маънавият энгилмас куч. Тошкент. 2008
9. И.А.Каримов. Иқтисодий инқироз ва унинг салбий оқибатларини юмшатиш чора ва тadbirlari. Тошкент. 2009
10. Бальсевич В. Х., Запорожанов В. А. Физическая активность человека. Киев : Доро-вье, 2007. 242 с.
11. Виленский М. Я., Горшков А. Г. Физическая культура и здоровый образ жизни студента : учеб. пособие. М. : КноРус, 2013. 240 с.
12. Давиденко Д. Н., Карпов В. Ю. Здоровый образ жизни и здоровье студентов : учеб. пособие. Самара : СГПУ, 2004. 112 с.
13. Романенко В. А., Максимович В. А. Круговая тренировка при массовых занятиях фи-зической культурой. М. : Физкультура и спорт, 2008. 143 с.
14. Титова Т. Круговая тренировка с индивидуальным подходом // Спорт в школе. 2006.



Qodirjon MAHKAMOV,
Namangan davlat universiteti dotsenti, (PhD)
E-mail: maxkamov_82@mail.ru

NamMQL professori, f.f.d. M. Ismoilov taqrizi asosida

MILLIY IJTIMOYIY XOTIRANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada milliy ijtimoiy xotiraning rivojlantirishda tarixiy ong, tarixiy xotiraning asos bo'lib hizmat qilishi, uning jamiyat ma'naviy hayotidagi roli va u orqali vujudga keladigan milliy ijtimoiy xotiraning shakllanishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, tarixiy ong va tarixiy xotiraning shakllanishiga asosiy turtki beruvchi sosial omillar, yosh avlodning ijtimoiylashuvi jarayonlarining bugungi ahvoli va shu asosda shakllangan ijtimoiy xotiraning bugungi holati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tarix, vatan, tarixiy ong, dunyoqarash, xotira, globallasuv, qadriyat, vatanparvarlik, ta'lim, ijtimoiy xotira.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF NATIONAL SOCIAL MEMORY DEVELOPMENT

Annotation

The article examines historical consciousness in the development of national social memory, the role of historical memory as a basis, its role in the spiritual life of society and the formation of national social memory through it. It also describes the main social factors that contribute to the formation of historical consciousness and historical memory, the current state of the processes of socialization of the younger generation and the current state of social memory formed on this basis.

Key words: history, homeland, historical consciousness, worldview, memory, globalization, values, patriotism, education, social memory.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ПАМЯТИ

Аннотация

В статье рассматривается историческое сознание в развитии национальной социальной памяти, роль исторической памяти как основы, есть роль в духовной жизни общества, и я формирую через нее национальную социальную память. так описаны основные социальные факторы, способствующие формированию исторического сознания и исторической памяти, текущее состояние процессов социализации подрастающего поколения и текущее состояние социальной памяти, сфокусированной на этой основ.

Ключевые слова: история, родина, историческое сознание, мировоззрение, память, глобализация, сненность, патриотизм, образование, социальная память.

Kirish. O'tmishni qoralashga, kamsitish va soxtalashtirishga qarshilik uni ideallashtirishga ham olib kelmasligi kerak. Bunday hol ham milliy ong o'sishidagi biryoqlamalikni ko'rsatadi. Tarixni, milliy madaniyatni va milliy xususiyatlarni ideallashtirish hayot haqiqatidan uzoqlashishdir. Tarixni ideallashtirish ilmiy haqiqatni izlash yulidagi biryoqlamalikning ikkinchi tomonidir. Milliy uyg'onish jarayoni tezlashayotgan hozirgi kunlarda bunday hollarning kuchayishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ayrim ziyolilar ba'zi hollarda tarixiy voqealarni yoritishda, shaxslar faoliyati va merosiga baho berishda, milliy va diniy an'analar, rasm-rusmlar, urf-odatlarini baholashda bo'rttirishlarga yo'l qo'yayotganliklarini hozir ham ko'rish mumkin. Tarixiy ong, tarixiy xotira va milliy ong o'tmish saboqlarini to'g'ri anglash bilan birga, kelajakni ham ko'ra bilishning ma'naviy zamini bo'ladi [1]. Istiqbol muammolariga o'tmishdagi tajriba, ishlab chiqarish shakllari, turmush tarzi, axloq-odob normalarinigina emas, balki hozirgi davr imkoniyatlari, talab va ehtiyojlarini ham hisobga olib yondashmoq kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Taraqqiyot yo'lidan olg'a qarab borar ekanmiz, bu sharoitda faqat o'z o'tmishimizgagina boqmay, boshqa rivojlangan mamlakatlar va xalqlar orttirgan ijobiy saboqlardan ham o'rnatilmagan zarur. Axloq, odob borasidagi milliy merosimizga qanchalik mehr, e'tiqod bilan qaramaylik, umuminsoniy qadriyatlarini chetlab o'tib, ma'naviy kamolot cho'qqilariga chiqq olmamiz. Bu boradagi milliy qadriyatlarimiz ma'naviyatimizning asosi bo'lsa ham, hozirgi davr talablariga

mos keladigan bilimli, ishbilarmon, yuksak axloq va odobli shaxsni tarbiyalash uchun yetarli bo'lmaydi. O'zbeklar o'tmishda mirishkor dehqon, mohir hunarmand va tijoratchi bo'lgani hammaga ma'lum. Lekin ijtimoiy, iqqisodiy, madaniy taraqqiyotimizning istiqboliga yondashishning davr taqozosi bilan belgilangan yangi mezonlari ham borligini unutib bo'lmaydi. Mustaqil taraqqiyotimizning bosh omili hozirgi zamon fani va texnikasi yutuqlarini to'la egallash, rivojlantirish, hayotga tatbiq qilishdir. Bu yo'l to'g'riligini rivojlangan mamlakatlarning tajribasi ham isbotlamoqda. O'zbekiston uchun malakali, bilimli ishchilar, muhandislar, boshqa mutaxassislar, fan va texnikani rivojlantirishga qodir bo'lgan olimlar kerak. Bularsiz O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirish mushkul. Davr ruhiga mos milliy o'zligini anglash bu muammolarni ham o'z ichiga oladi.

"Ma'lumki, o'zbek xalqi azaldan o'zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turgan. Albatta, farzandga mehr qo'yish, ularning qornini to'q, ustini but qilish o'z yo'li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e'tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko'pgina hayotiy misollarda ko'rish mumkin"[2].

"Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrida olar

ekan. Bolaning ongi asosan 5–7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Xalqimizning “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, degan dono maqoli, o'ylaymanki, mana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi”[2]. Odamzot uchun bir umr zarur bo'ladigan tabiiy ko'nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o'ziga xos va o'ziga mos qobiliyati, atrofidagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o'zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi, kerak bo'lsa, dunyoqarashi – bularning barchasi avvalo uning tug'ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog'liq ekanini hayot tajribasi ko'p misollarda tasdiqlab beradi. “Aynan mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsani tushunib, anglay boshlaydi, uning beg'ubor ongi bamisoli bosma qog'oz singari oiladagi, yon-atrofdagi barcha voqea-hodisalarni, ularning zamiridagi taassurotlarni o'ziga shimib-singdirib oladi. Uning ota-onasiga, bobo va momolariga mehri va hurmati, o'zini o'rab turgan muhitga nisbatan munosabati kundan-kunga takomillashib boradi.” Lekin og'ir larzali vaziyatlar va ijtimoiy hayotda yuz beradigan keskin o'zgarishlar ta'siri ostida shaxs aksilijtimoiylashuv davrlarini ham boshdan kechirishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tarixiy ong va tarixiy xotira o'tmishni har tomonlama nazariy tushunish negizida, tarixiy rivojlanish tamoyillarini aniqlash darajasida shakllanib, rivojlanadi. Tarix hamda boshqa fanlar tomonidan o'tmish to'g'risida to'plangan bilimlar, umumlashtirilgan tarixiy tajriba asosida ilmiy dunyoqarash shakllanadi hamda rivojlanadi, tabiat hamda kishilik jamiyatini rivojlantiruvchi kuchlar, uni davrlashtirish, tarix mazmuni, ijtimoiy rivojlanish tipologiyasi, modellari to'g'risida ozmi-ko'pmi aniq tasavvur hosil qilinadi.

Tahlil va natijalar. Tarixiy ong va tarixiy xotiraning ushbu darajasida insoniyat o'tmishini ham konkret tarixiy, ham nazariy darajadagi butun ziddiyatlari hamda murakkabliklari bilan izohlashga urinishda. Tarixiy ong va tarixiy xotirani nazariy darajada shakllantirish hamda rivojlantirish tarixiy kategoriyalar yordamida fikrlashga, tarixiy jarayonni dinamikada, xronologik izchillikda va zamon nuqtai nazaridan o'zaro bog'liqlikda tushunishga ko'maklashadi. Bu darajadagi tarixiy ong bilan fanlar tizimi, birinchi navbatda, tarix fani shug'ullanadi. Jamiyat tarixi bo'yicha muntazam ilmiy bilimlarni o'z ichiga olgan tarix fani ijtimoiy taraqqiyotning yetakchi tamoyillarini aniqlashi, ayrim prognozlarni ta'riflab berishi mumkin.

Tarix falsafasi doimo tarixiy ong bilan o'zaro bir-birini taqozo etuvchi sharoitda bo'lib kelgan. Tarix falsafasi tarixiy ong kontekstidan tashqarida mavjud bo'lishini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Ayni mahalda, tarixni falsafiy tushunish tarixiy ongga va tegishlicha, ijtimoiy-tarixiy hayotga ko'p jihatdan shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatib kelgan. Tarix geografik, moddiy, ma'naviy va boshqa omillar birikib ketgan murakkab jarayondir. Kishilar uchun tarix ular hayotining ildizi yashiringan xotirotdir.

Ong muammosi va uning tarixiy tarkibi tarix falsafasida rivojlantirildi. Zero tarix falsafasi tarixni “fikrlab ko'rib chiqishdan boshqa narsani bildirmaydi”. Hozirgi paytga kelib “ong” kategoriyasining, uning mohiyatining, kelib chiqishining va evolyusiyasining umume'tirof etilgan yagona ta'rifi yo'q. Lekin bu jarayonlar to'g'risida ko'pdan-ko'p farazlar, nazariyalar, konsepsiyalar hamda tegishli tushunchalarning ta'riflari mavjud [3]. Hozirgi mavjud ilmiy adabiyotlarda ong kategoriyasiga quyidagicha ta'riflar berilgan:

“Ong insonning fikr va hislari, sezgilari, tasavvurlari, iroda va qarashlaridan tashkil topgan” [4]. “Ong in'ikosning oliy shaklidir” [5]. “Ong falsafaning hajman o'ta keng va

chuqur kategoriyasi bo'lib, sub'yektiv reallikni, tashqi olamning inson, uning miyasi va psixikasida ideal darajada in'ikos etishini, insonning ma'naviy dunyosini, uning olamdagi o'z borlig'ini anglab his qilishini, tashqi olamga munosabatini belgilab beradi”[6].

“Ong faqat insonga xos bo'lgan tashqi olamni in'ikos ettirishning oliy shakli (usuli)dir” [7]. Shunday qilib, ong tushunchasining mazmuniga tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta'riflarni umumlashtirib, ong kategoriyasini, bizningcha, quyidagicha ta'riflash mumkin: ong – ob'yektiv reallikni ideal ravishda in'ikos ettirish va aks ettirishning oliy shakli, ob'yektiv olamning sub'yektiv obrazini, hissiy va aqliy obrazlar yig'indisi. Atrof olam to'g'risida xilma-xil ilmiy va noilmiy axborotni o'z ichiga oluvchi bilimlar esa ongning mag'zini tashkil qiladi.

Ijtimoiy ong – ob'yektiv voqealarni aks ettiruvchi g'oyalar, qarashlar, ijtimoiy tuyg'ular, odatlar va axloqning yig'indisidan iborat. Ijtimoiy ong sinfga, ijtimoiy guruhga, xalq, millat va elatga mansub bo'lgan alohida guruhlar ongidir. Bundan tashqari ijtimoiy ong shakllariga siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy, falsafiy, ma'naviy va milliy ong kiradi. Ijtimoiy ong shakllarining bunday xilma-xilligi, ularning asosi va vujudga keltiruvchi borliqning ko'p tomonlama va serqirraligidir. Ijtimoiy ong shakllari ijtimoiy munosabatlar negizida va jarayonida vujudga keladi hamda rivojlanadi. Chunonchi, siyosiy ong – “siyosiy guruhlar, davlatlar, xalqlar, millatlar va elatlarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan siyosiy munosabatlarini aks ettiruvchi siyosiy tasavvur va tushunchalar, g'oyalar va qarashlardan umumlashgan tizimi”[8]. hisoblansa, huquqiy ong – huquqiy munosabatlarni kishilar o'rtasida tartibga soluvchi ong shaklidir. Ijtimoiy ongning shakllanishida diniy ong ham muhim rol o'ynaydi. Boisi, diniy ong dastlab inson dunyoni anglay boshlagandan beri ming yillar davomida mavjud bo'lib kelgan. Shuning uchun jamiyatda kishilarning diniy qarashlari, ishonuvchanligi, dinga nisbatan moyilligi kuchli hisoblanadi. Diniy ongning dunyoqarash funksiyasi muhim bo'lib, diniy dunyoqarash “inson, tabiat va jamiyatning paydo bo'lishi, tuzilishi va kelajagi to'g'risidagi g'ayritabiiy qarashlar va tasavvurlar majmui” [9] hisoblanadi. Avreliy Avgustinning qarashlarida xudo “bilishning sababchisi” hamda “eng oliy darajadagi farovonlikdir va hamma ezguliklarning sababchisi” [10] deb ta'kidlanadi.

Yuqorida keltirilgan ijtimoiy ong shakllari jamiyat taraqqiyotida muhim hisoblansa-da, ularning zamirida milliy ong va tarixiy ong asosiy omil vazifasini bajaradi. Ma'lumki, ong konkret kishining ongi sifatida **individual ong** va konkret jamiyat ongi sifatida **ijtimoiy ong** bo'ladi. Bu jihatdan hozirgi adabiyotlarda ijtimoiy ong kategoriyasining ilmiy asoslangan ta'riflari mavjud: “ijtimoiy ong tabiiy va ijtimoiy voqelikning in'ikosi, jamiyatning muayyan davriga yoki qismiga tegishli bo'lgan umumiy his-tuyg'ular, kayfiyatlar, qarashlar, g'oyalar, nazariyalar majmuidir”[5].

Ijtimoiy ong - konkret tarixiy davrdagi ijtimoiy borliqni in'ikos ettiradigan ijtimoiy kayfiyatlar, kechinmalar, tuyg'ular, hissiyotlar, g'oyalar, qarashlar, farazlar va nazariyalar majmuidir. Ijtimoiy ong mazmunining yuqorida bayon etilgan ta'riflarini umumlashtirib, uni quyidagicha ta'riflash mumkin: ijtimoiy ong – ijtimoiy borliqning ma'naviy in'ikosi sifatida ijtimoiy tuyg'ular, hissiyot, farazlar, nazariyalar, kayfiyatlar, g'oyalar va qarashlar, odatlar va an'analar tizimidir.

“Tarixiy ong jamiyat, uning ijtimoiy guruhlari va individlarning o'z o'tmishi va butun insoniyat o'tmishi to'g'risidagi tasavvurlari majmuidir” degan ta'rif tarixiy ong tushunchasi mazmunini o'ta toraytirib, faqat ruhiy jarayonlarning sezish, idrok, xayol, xotira, tafakkur kabi bir qancha shakllarining bittasi sifatida talqin qiladi. Bu esa, fikrimizcha, mantiqan noto'g'ridir.

“Tarixiy xotira – konkret faktlarga muayyan tarzda yo'naltirilgan, o'tmish haqidagi axborotning alohida ahamiyati va dolzarbligini hozirgi zamon va kelajak bilan jips aloqada aks ettiruvchi ong. Obrazli qilib aytganda, xotira – ijtimoiy ongning barcha shakllaridagi, shu jumladan tarixiy ongdagi eng dolzarb faktlar saqlovxonasi; bunday ta'rif originalda biroz o'zgacha bo'lgani aniq, zero rus tilidagi “xranilishe” so'zi o'zbek tiliga “saqlovxonona” deb tarjima qilinmaydi.

Tarixiy xotirani ijtimoiy ongning barcha shakllaridagi “dolzarb faktlar” omborxonasi deb talqin qilish, fikrimizcha, noaniq va tushunarsiz, zotan har bir ijtimoiy ong shaklining o'z tarixi (mas., falsafa tarixi, din tarixi, san'at tarixi va h.k.) borligi ayon, ammo tarixiy xotira faqat o'tmish, tarixni falsafiy idrok etish va yodda saqlash jabhasiga taalluqli desak, xato bo'lmas. Axloqiy tarbiya orqali o'quvchida ma'naviyat rivojlanadi. Ma'naviyat esa barkamol shaxsning shakllanishda muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa o'quvchilar tarixiy ongi shakllanib boradi. Yevropada tarixni rasional o'rganish, uni falsafiy idrok etish XVIII asrda tarix falsafasini muhim yo'nalishi sifatida falsafadan ajralib chiqishiga sabab bo'ldi. "Tarix falsafasi tushunchasini fanga Anri Fransua Volter kiritgan deb hisoblanadi. Tarix falsafasi taraqqiyotiga Gegel, Kant, N.Danilevskiy, O.Shpengler, A.Toynbi, P.A.Sorokin., K.Popper va boshqa faylasuflar katta hissa qo'shdilar.

Yaspers fikricha, "Tarix bilim emas, balki hissiyotlar, kechinmalardir. Tarix intuisiya, mushohada mahsulidir" [10]. U tarixiy jarayonlarni his qilish orqali anglash kerak deydi. Zero olamni anglash avval o'z-o'zini anglashdan boshlanadi.

Gumanitar fanlar uchun milliy g'oyaning o'rni alohida bo'lib, u uyg'un rivojlangan shaxsni yanada faol shakllantirishga, barkamol avlod orzusini ro'yobga

chiqarishga yo'naltirilgan. Boy madaniy-tarixiy merosimizni hisobga olmasdan, idrok etmasdan va anglamasdan turib bu maqsadlarga erishib bo'lmaydi.

Vatanparvarlik oddiy his-tuyg'u emas, balki yuksak burch va mas'uliyatdir. Vatanni sevaman, deb ko'p gapiradiganlar emas, balki uning istiqboli, manfaati yo'lida fidoyilarcha xizmat qiladigan kishilar haqiqiy vatanparvar bo'ladilar. Vatanparvarlik, birinchi navbatda, insonning el-yurt manfaati yo'lidagi halol mehnatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham bugungi kunda O'zbekiston jamiyatining eng birinchi vazifasi yoshlarning ongiga Vatanni sevish, umuminsoniy axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni singdirish, milliy o'zligini anglatish, mehr-shafqatli, vijdonli, andishali qilib tarbiyalash.

Xulosa. O'zbekiston bizning yakkayu yagona Vatanimiz ekan, uning taqdiri barchamizning ham taqdirimizdir. Shu Vatan tinch bo'lsa, biz ham tinch bo'lamiz, boy bo'lsa - boy bo'lamiz, rivojlansa - barcha orzularimiz ushaladi. O'zbekistonni hurmat qiluvchilar ko'p, lekin uni hech kim o'zbeklar singari sevmaydi, hech kim Vatanimizning istiqbolidan, yurtda ahillik, barqarorlik hukm surishidan biz, o'zbeklarchalik manfaatdor emas. Hadislarda ham "Vatanni sevmog' iymondandir", degan tabarruk so'zlar aytilgan. Demak, vatanparvarlik imon, e'tiqod darajasiga ko'tarilgan ma'naviy fazalatlarning biridir.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy xotira ko'pincha tarixiy shaxslar, o'tmish yetakchilari faoliyatini baholash orqali shaxsiylashtiriladi, biron-bir tarixiy voqea, davrlar, umuman o'z tarixi to'g'risida taassurotlarni, mulohazalarni, fikrlarni shakllantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Kayumov U.K. Rol nasionalnogo samosoznaniya v formirovaniy jiznennoy pozisii molodeji Uzbekistana. // *Obshchestvennyye nauki v Uzbekistane*. Tashkent, 2003. - № 6. - S. 53- 56.
2. Karimov. I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. –B.54.
3. Qarang: Yulina N.S. Tayna soznaniya: alternativnyye strategii issledovaniya. // *Voprosy filosofii*. - Moskva, 2004. - № 10. S.125- 136.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T. 5. — T.:O'ME, 2003.-B.704.
5. Falsafa asoslari. T.:O'zbekiston, 2005. - B.203.
6. Saifnazarov I., Kasshov B., Muxtarov A. *Filosofiya*. - T.:Shark, 2002. - S. 190.
7. Gorbachev V.G. *Osnovy filosofii*. - M.: Vldos, 1998. — S. 110.
8. Falsafa.- T.: "O'qituvchi". 2005. -B.204.
9. *Islom spravochnik*. - T.: "O'zbek sovet ensklopediyasi bosh redaksiyasi". 1989. -B.96.
10. G'arb falsafasi. - T.: "Sharq", 2004.-B.218.



Gavhar MENGLIYEVA,
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti v/b, (PhD) O.Eshmuradov taqrizi asosida

THE ROLE OF COMMUNICATION IN THE SOCIALIZATION OF PRESCHOOL CHILDREN

Annotation

In this article, the driving forces of personality development are the contradictions that arise between the child's needs and the ability to satisfy them. Biological and social factors in a person are not two parallel lines that are not related to each other. In each person, they are so closely combined that their differences are so different that researchers have thought about heredity and environment as two very important factors in the basis of child development.

Key words: biological factor, social environment, cognitive field, intuition, perception, thinking, communication, cognitive activity, individual, society, personality, behavior.

РОЛЬ ОБЩЕНИЯ В СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКА

Аннотация

В данной статье движущими силами развития личности выступают противоречия, возникающие между потребностями ребенка и возможностью их удовлетворения. Биологические и социальные факторы в человеке - это не две параллельные линии, не связанные друг с другом. В каждом человеке они настолько тесно соединены, что их различия настолько различны, что исследователи задумались о наследственности и среде как о двух важнейших факторах, лежащих в основе детского развития.

Ключевая слова: биологический фактор, социальная среда, когнитивное поле, интуиция, восприятие, мышление, общение, познавательная деятельность, индивид, общество, личность, поведение.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJTIMOYLASHUVDA MULOQOTNING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxs rivojlanishi harakatlantiruvchi kuchlari bo'lib bola ehtiyoji va uni qoniqtirish imkoniyati o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar hisoblanadi. Insondagi biologik va ijtimoiy omillar – bu bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki parallel chiziqlar emas. Har bir shaxsda ular shunday chambarchas qo'shilib ketadiki, ularning farqlari shunday turli-tumanki, tadqiqotchilar bola rivojlanishi asosida ikki o'ta muhim bo'lgan omilni irsiyat va muhit xaqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: biologik omil, ijtimoiy muhit, kognitiv soha, sezgi, idrok, fikrlash, muloqot, bilish faoliyati, individ, jamiyat, shaxs, xulq-atvor.

Kirish. O'zbekistonda ko'plab yangi sohalar qatori aholiga psixologik maslahatlar berish hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan tadqiqotlarga bo'lgan muayyan ehtiyoj tobora ko'proq sezilmoqda. Zero, bunday xizmatlarga ehtiyoj bir tomondan maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsini rivojlantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, shu maskanda tarbiyalanayotgan bolalarning ruhiy rivojlanishiga ota-onalar tomonidan ko'rsatiladigan e'tiborning samarasini belgilaydi. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillardan boshlab mamlakatda yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash borasida islohotlar, hayotining barcha sohalar bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Yoshlarimizning barkamol bo'lib yetishishida mahalla, oila, jamiyat tashkilotlari va ta'lim muassasalari alohida o'rin egallaydi. Shu bilan bir qatorda maktabgacha ta'lim yo'nalishiga bizning olijanob Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev katta e'tiborini qaratdi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida juda ko'p yangiliklarni olib kirdi, shu jumladan, yangi qarorlar "Davlat talablari", "Ilk qadam", "Davlat dasturi" va shu bilan bir qatorda farmonlarni olib kirdi va tasdiqladi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi albatta Maktabgacha Ta'lim Tashkiloti bilan uzviy chambarchas bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida esa albatta bizning jaji, kelajagi porloq bolajonlarimizning ta'lim tarbiyasi psixologik rivojlanishi, shu bilan bir qatorda jismonan sog'lom, aqlan yetuk farzandlarni tarbiyalashdir.

Farzand-inson hayotining mazmuni, nasl nasabining davomchisi, oilaning mustahkam zanjiri hamdir. Aqlli, bilimdon, mehnatsevar iymon-e'tiqodli farzand nafaqat o'ta-onaning balki butun jamiyatning eng katta boyligi hisoblanadi. Odatda, farzand oilada ham jismonan, ham ma'nan ulg'ayib shakllanadi. Ularning voyaga yetishi davomida oiladagi ahillik muhim ro'l o'ynaydi.

Bolaning psixik jihatdan o'sishiga o'zlikni anglash, o'zini-o'zi baholash va o'zaro munosabatlar xususiyatlari muhim hisoblanadi. Bu eng avvalo inson shaxsining psixologik asoslarini shakllantiruvchi, uning emosional-hissiy, intellektual, ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga zamin yaratuvchi ontogeneznig dastlabki bosqichlariga taalluqlidir. Bunda oiladagi munosabatlar, xususan ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatning mohiyati, o'zaro shaxslararo muloqot katta rol o'ynaydi.

Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotchanlik sifatlarini rivojlantirish ularni bugungi ijtimoiy – iqtisodiy sharoitda axborot texnologiyalari islohoti davrida madaniyatli, aqlli, ma'naviyatli bo'lishini tashxis qilish istiqbolini belgilash hamda shaxs xususiyatlarini rivojlantirishning samarali shakllari, ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish,

kelajak avlodni boy ma'naviy hamda ilmiy va umuminsoniy kadriyatlar asosida kamol toptirishning ta'sirchan tizimini yaratish; ilg'or pedagogik-psixologik tajribalarni, etnopsixologik va etnopedagogik usul va vositalarini, shaxs kamolotiga qaratilgan ijtimoiy – psixologik omillarni o'rganish, ularni bolalar tarbiyasi jarayoniga tadbiq etish shu kunning dolzarb pedagogik –psixologik muammolaridan hisoblanadi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi zamon psixologiyasida maktabgacha yoshdagi psixik taraqqiyot davri bola o'zligini anglanishi va Menkonsepsiyasi shakllanishining muhim bosqich-laridan biri sifatida qaraladi (B.G.Ananyev, L.S.Vigotskiy, M.I.Lisina, V.S.Muxina, K.Rojers, Z.Freyd, K.Xorni, E.Erikson va b.). Biroq, bola shaxsi shakllanishining mazmun va mohiyati, uning ayrim unsurlari, ularning o'zaro nisbati va ontogenezning turli bosqichlaridagi namoyon bo'lishining mohiyati, shuningdek, ularning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillar yetarli darajada o'rganilmagan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi muammosi yuzasidan xorij va MDH davlatlari tadqiqotchilaridan L.I.Bojovich, B.G.Ananyev, A.N.Leontyev, D.B.Elkonin, Ye.T.Sokolova, A.B.Orlov, M.I.Lisina, V.S.Muxina kabilar ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ammo, klib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida muloqotning hal qiluvchi ijtimoiy - psixologik komponentlari alohida tadqiq etilmagan. Bolaning psixik jihatdan rivojlanishi, shaxs sifatida shakllanishi uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillarga, xususan, oilaviy munosabatlar psixologiyasiga, ota-onaning bolaga ta'siri, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining kasbiy mahorati, pedagogik-psixologik bilimdonligi hamda mahalla a'zolari ta'siri va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar holatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi [2]. Ayniqsa, ularning ma'naviy tarbiyasi bilan jamiyatga xizmatini ifodalaydi. Farzandlarimiz sog'lom, e'tiqodli jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ham ota-ona zimmasizga yuklangan. Rasululloh Sallallohu alayhi vasallam "Farzandlaringizga suvda suzishni, kamondan otishni, nayza uloqtirishni, o'tda choptirishni o'rgatinglar!"-deb, Farzandlaringizni chaqqon, sog'lom, baquvvat, ziyarak qilib tarbiyalashga ummatlarini targ'ib qildilar (Termiziy va Abu Dovid rivoyatlari). Zeroki, sog'lom psixologik tarafdin ham yetuk farzand hamma joyda ham o'z yurtiga naf keltiradi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqqan holda, barcha narsa bola psixologiyasiga bog'liq ekanligini anglab yetsak bo'ladi. Bola psixologiyasi, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bola psixologiyasi juda murakkabdin. Shuning uchun, men o'z bilim va ko'nikmalarimdan kelib chiqqan holda, ko'proq maktabgacha yoshdagi bolalarga etibor qaratish maqsadga muvofiq ish deb o'ylayman.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy pedagogika va psixologiyada shaxs shakllanishiga doir to'rt yondashuv qaror topgan:

1. **Biologik yondashuv** – inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instmkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

2. **Ijtimoiy yondashuv** – inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat

hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta'siri ostida ijtimoiylashadi.

3. **Psixologik yondashuv** - insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi-qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

4. **Yaxlit yondashuv** - shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik jismoniy) va psixolik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli boladi [1].

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi va tarbiyasi ta'lim muassasasi va oilaning to'liq o'zaro ta'sirisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Vazifa oilaning tarbiyaviy salohiyatini oshirishdir.

U bir nechta tarkibiy qismlardan iborat:

Biologik (irsiy omillar natijasida hosil bo'lgan psixikaning holati).

Iqtisodiy (ota-onalarning daromad darajasi, ko'chmas mulk, avtomobil va boshqalar).

Psixologik (oiladagi munosabatlar shakli, ota-onalar ichkarida qanday funktsiyalarni bajaradilar, ularning pedagogik qobiliyatlari va boshqalar).

Ijtimoiy (ota-onalarning ijtimoiy holati, ularning ma'lum bir etnik guruhga mansubligi, ta'lim darajasi va kasbi, madaniy rivojlanish darajasi).

Shunga ko'ra, oilaning tarbiyaviy salohiyati-bu oilaning qaysi ekanligini aniqlaydigan ma'lum omillar ro'yxati. Bu omillarning barchasi ma'lum darajada oilada bolaning shaxsiyatini tarbiyalash va kompleks rivojlantirish muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi [3]. Bolani oilada ijtimoiylashtirish uning to'g'ri tarbiyasida yotadi, shunda u hayotga doimiy kirish uchun asos bo'ladi. U o'zi uchun qaror qabul qilishni o'rganishi va qilayotgan ishi uchun javobgar bo'lishi kerak.

Ta'limning bir nechta noto'g'ri usullari mavjud:

"Rad etish" turi bo'yicha. Bunday holat oilada chaqaloq tug'ilishi rejalashtirilmaganda paydo bo'ladi. "Super ijtimoiylashtirish" turi bo'yicha. Bunday oilalarda bola ikkala ota-ona ham haqiqatan ham xohlagani uchun emas, balki jamiyat bunday ehtiyojni talab qilgani uchun paydo bo'ladi ("shunday qilib kerak"). Natijada, mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizliklardan qo'rqish paydo bo'ladi, bu esa haddan tashqari darajaga yetishi mumkin. Muloqot — shaxslararo munosabatlarning asosiy ko'rinishi bo'lib, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, tushunadilar. Shuning uchun muloqot ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtirok etib, hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlamini maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog'liq bo'lib, shaxslararo munosabat barkamol avlod, komil inson go'yalari qaror topishiga xizmat qiladi. Muloqot muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, xarakter xislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e'tiqodi kabi fazilatlar, sifatlar namoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot tashqi ijobiy ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi. Muloqotning kommunikativ tomoni muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi axborot almashinuvidan, interaktiv jihati muloqot ishtirokchilarining o'zaro ta'sirlashuvidan, perseptiv tomoni esa muloqot ishtirokchilarining muloqot jarayonida bir-birini

idrok etishi va bilishidan iborat. Shuning uchun ham o'quvchilarning muloqot odobini tarbiyalash, tarbiyaning muhim tamonlaridan hisoblanib o'quvchilarda muloqot odobi shakillanishi jamoda va jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim o'rin tutadi. Fanda isbotlangan 7 yoshgacha bola kommunikativ muloqot ko'nikmalarini shakillantirish kichik yoshdan o'rgatib borish pedagogika psixologiyada dolzarb masala hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Tarbiyaviy vositalar orasida tarbiya amallari borki, ularni samarali qo'llash ijobiy natijalarga olib keladi. Tarbiya amallari tarbiya uslublarining tarkibiy elementlari bo'lib, ular bolaga ta'sir samaradorligini ta'minlashga yordam beradi. Biz tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash jarayonda mutaxassislar bir qator tarbiya amallaridan foydalanishlari o'rinlidir deb hisoblaymiz. Biz izlanishlarimiz va kuzatishlarimiz tarbiya amallarini maqsad va yo'nalishidan kelib chiqqan holda ularni quyidagi uch guruhga ajratishdik:

Birinchi guruhga tarbiyachining tarbiyalanuvchiga murojaat etishi orqali uning shaxsiy ehtiyojlarini aniqlash yordamida tashkil etiladigan amallar. Bu amallar toifasiga yordam ko'rsatishga ehtiyojni aniqlash kiradi. Tarbiyachi

tarbiyalanuvchiga maslahat ma'nosida murojaat qilib, o'z muammolari haqida so'zlab berishini so'raydi va shu asnoda muammoning yechish yo'llarini topadi.

Ikkinchi guruhga guruhiy faoliyatni tashkil etishga asoslangan tarbiya amallarini kiritish mumkin. Ushbu toifa tarbiya amallaridan biri fikrlar estafetasi bo'lib, o'quvchilar berilgan mavzu bo'yicha zanjirsimon tarzda biridan keyin ikkinchisi so'zlaydi, bir-birini to'lg'azadi, aniqlik kiritiladi.

Uchinchi guruhga o'qituvchilarning o'quvchilarga atrofidagi muhitni o'zgartirishga yo'naltirilgan tashkiliy faoliyatlariga qaratilgan amallar kiritiladi.

Ko'rsatma berish amali. Tarbiyalanuvchilarga muomalaga va xulq-atvor qoidalariga tayanib, berilgan topshiriqlarni bajarish so'raladi. Tarbiyalanuvchilar o'yin qoidalariga muvofiq o'z mulohazalarini bildirishlari mumkin. Takliflar jarayonida har bir tarbiyalanuvchining mavqeini himoyalash inobatga olinadi.

Umuman bola tarbiyasida har bir kichkintoyga shaxs sifatida qarab, fazilatlaridan kelib chiqib amallarni bajarishga yo'naltirish, har biriga e'tiborni kuchaytirish va amallar doirasini kengaytirish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent-2009
2. Davletshin M.G. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: O'qituvchi, 1997. – 134 b.
3. Eshmuradov, O. (2022). oila mustahkamligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari.
4. М. А. Тилакова, & О. Э. Эшмуратов (2021). Креатив кобилиятларни ривожлантириш механизмлари. Scientific progress, 1 (6), 143-149.
5. Jabborov, X., & Eshmuradov, O. (2023). Шарқ мутафаккирлари ишларида миллий тарбия масаласи. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8394>



UDK:7A..37512.

Fatxulla MIRAXMEDOV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti professori v.b

TVChDPI dotsenti A.Abdulaxatov taqrizi asosida

BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARNING KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA VATANPARVARLIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.

Annotatsiya

Ushbu maqola bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarda fuqarolik va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlaridan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ni joriy etishda tarbiyalanganlikni baholash indikatorlari sifatida foydalanilgan. Natijada bo'lajak pedagoglarni talabalarda Vatanga sadoqat kompetensiyasini shakllantirishga tayyorgarligini tashxis etish imkoniyati oshgan. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan interfaol shakl, metod va vositalaridan "Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi" qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan. Mazkur takliflar bo'lajak pedagoglarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga imkon yaratgan.

Kalit so'zlar: Vatanparvarlik ongi, vatanparvarlik dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy, fuqarolik-vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik, sport va vatanparvarlik, pedagogika, bo'lajak o'qituvchilar, tarbiyaviy faoliyat, ta'lim, tarbiya, kompetensiya, modernizatsiya.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПАТРИОТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ВОСПИТАТЕЛЕЙ ДЕТСКОЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА.

Аннотация

Данная статья была использована в качестве показателя оценки воспитанности при введении "концепции непрерывного духовного образования" из критериев и показателей развития гражданско-патриотической компетентности будущих педагогов. В результате возросла возможность диагностики готовности будущих педагогов к формированию у студентов компенсации лояльности к Родине. Разработанные в рамках исследования интерактивные формы, методы и средства, основанные на компетентностном подходе развития чувства патриотизма, были использованы при разработке учебно-методического пособия "педагогическая наука и технология обучения". Эти предложения позволили подготовить будущих учителей к воспитательной деятельности, развить в них активную гражданскую позицию.

Ключевые слова: Патриотическое сознание, патриотическое мировоззрение, нравственно-нравственный, гражданско-патриотический, военно-патриотический, спортивно-патриотический, педагогика, будущие учителя, воспитательная деятельность, образование, воспитание, компетентность, модернизация.

IMPROVING THE PATRIOTIC COMPETENCE OF TEACHERS OF CHILDREN'S PHYSICAL CULTURE ON THE BASIS OF A COMPETENCE-BASED APPROACH.

Annotatsiya

This article was used as an indicator of the assessment of upbringing when introducing the "concept of continuous spiritual education" from the criteria and indicators of the development of civil and Patriotic competence of future teachers. As a result, the ability to diagnose the readiness of future teachers to form students' loyalty to the Motherland has increased. The interactive forms, methods and tools developed in the framework of the study, based on the competence-based approach of developing a sense of patriotism, were used in the development of the educational manual "pedagogical science and technology of education". These proposals made it possible to prepare future teachers for educational activities, to develop an active civil position in them.

Key words: Patriotic consciousness, Patriotic Outlook, moral, civil-Patriotic, military-Patriotic, sports-Patriotic, pedagogy, future teachers, educational activities, education, upbringing, competence, modernization.

Kirish. Bolajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarning kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida ilmiy yondashuv kasbiy-pedagogik ta'limning zamonaviy talablariga javob beruvchi innovatsion tavsifga ega bo'lib, yangi avlod fuqarolarini shakllantirishda tarbiyaning rolini oshirishga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning mohiyati ta'limni modernizatsiyalashda (ta'lim va tarbiyaning o'zaro uyg'unligi), uning sifat jihatidan o'zgarishi, tarbiyaning ustuvor yo'nalishi sifatida yangi insonparvar qadriyatlar tizimini yaratishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimida tarbiyaga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning yangiligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi: kasbiy tarbiyaning o'ziga xosligi; tarbiya nazariyasi va amaliyotida stereotiplardan voz kechish; oliy ta'limning o'quv, auditoriyadan tashqari, ijtimoiy faoliyati

tizimli tarbiyaning xilma-xil obyekt va subyektlarini yaratish; tarbiyaning an'anaviy shakllari va innovatsion loyihaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirish; media vositalar va texnologiyalardan maksimal darajada foydalanish; natijaviylik ko'rsatkichlari (kompetensiyalar) majmuini ishlab chiqish va ularni har bir ta'lim oluvchining amaliy faoliyatiga tatbiq etish.

Vatanparvarlikning umuminsoniyligi va uning ijtimoiy vazifalari uning ko'p darajaliligidan kelib chiqadi. Shaxsiy vatanparvarlik – Vatanga muhabbat, Vatanga sadoqat, uning manfaatlariga xizmat qilish, hatto fidokorlikka, uni himoya qilishga intilishdir. Vatanparvarlik insonning dunyoqarashi, axloqiy ideallari, xulq-atvor normalarida ifodalangan eng muhim, barqaror xususiyati vazifasini bajaradi. So'l darajada vatanparvarlik jamoatchilik ongining muhim qismi bo'lib, jamoaviy kayfiyatlarda, his-tuyg'ularda,

ularning o'z xalqiga, turmush tarziga, tarixiga, madaniyatiga, davlatiga bo'lgan munosabatiga baho berishda va fundamental qadriyatlar tizimida namoyon bo'ladi.

Ishning maqsadi. Vatanparvarlik integrativ va murakkab shaxsiy xususiyatlar yig'indisi sifatida, quyidagi real vatanparvarlik komponentlarini o'z ichiga oladi: vatanparvarlik ongi; milliy o'zlik; vatanparvarlikka yo'naltirilgan dunyoqarash; vatanparvarlik bilimi; vatanparvarlik e'tiqodi; vatanparvarlik munosabati; vatanparvarlik qadriyat yo'nalishlari; vatanparvarlik pozitsiyalari; vatanparvarlik ideallari; shaxsning ijtimoiy-ijobiy (vatanparvarlik) xulq-atvori; ijtimoiy-ijobiy (vatanparvarlik) faoliyati va boshqalar. Bu ko'rinishlarning ayrimlarini karakterlaylik.

Vatanparvarlik ongi – ongning ajralmas qismi, xususiyatlari:

a) rivojlanayotgan insonning ijtimoiy makoniga o'z hayoti (ontologik jihat) sohasida ta'sir ko'rsatadigan jamiyatda sodir bo'ladigan jarayonlar haqiqatlarini ongda aks ettirish;

b) milliy taraqqiyotning madaniy-tarixiy jarayoni natijalarini madaniy mahsulotlar haqidagi g'oyalari majmui (epistemologik jihat) vazifasini bajaruvchi ideallar, ma'naviy hodisalar, ramzlar shaklida bilish;

v) jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlarga yo'nalganlik, shaxsning ma'naviy qiyofasida sinishi tanlab olinadi va ular hayotining ijtimoiy kontinumida (aksiologik jihat) inson o'z-o'zini anglashni rivojlantirishga qaratilgan. Vatanparvarlik ongi-bu o'z genetik ildizlari, atrofidagi ijtimoiy voqelikni, uning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari tushunish, ijodiy faoliyat va himoya qilish uchun tayyorgarlik ko'rish haqidagi bilimlar majmuini birlashtiradigan murakkab integral ta'limdir. Vatan o'z hayotining istiqbollari nuqtai nazaridan hayot faoliyatining ustuvor sababi sifatida;

Vatanparvarlik dunyoqarashi – dunyo va undagi insonning o'rni, atrofidagilarning dunyoga va o'ziga bo'lgan munosabatiga oid vatanparvarlik qarashlari (e'tiqodi, ideallari, bilim va faoliyat tamoyillari) tizimi.

Vatanparvarlik integrativ shaxsiy tarbiya sifatida bilvosita, ta'limning boshqa (vatanparvarlikdan tashqari) turlari bilan shakllangan boshqa sifatlar bilan integrativ bog'lanishlar orqali shaxsning yaxlit ifodalangan umumiy tarbiyasini tavsiflaydi shaxsning dunyoqarashi, ma'naviyati, axloqiy ideallari, xulq normalari. Yuqorida aytib o'tilganidek, u insonning Vatanga va Ona yurtga bo'lgan qadriyat munosabatini ifodalovchi va uni vatanparvarlik faoliyatiga da'vat yetuvchi ijtimoiy-axloqiy imperativ vazifasini bajaradi. Haqiqiy vatanparvarlik komponenti bilan birga bilvosita shakldagi vatanparvarlik boshqa tarkibiy qismlar bilan tavsiflanadi:

ma'naviy-axloqiy (ma'naviy va vatanparvarlik) komponent: yuqori ma'naviyat yuksak ma'naviy, axloqiy va aqliy yehtiyolarning past kishilar ustidan hukmronligidan iborat qalb mulki sifatida va kundalik; axloqiy sifat sifatida qonunga bo'ysunish; qattiq ish; ma'naviy o'z-o'zini rivojlantirish uchun doimiy ehtiyoj va boshqalar.;

fuqarolik-vatanparvarlik: fuqarolik o'sib borayotgan shaxsning qonuniy his qilishiga imkon beruvchi integrativ sifat sifatida, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy jihatdan qobiliyatli, jamiyatni boshqarishda, muayyan ijtimoiy qimmatli ishlarda, davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotida, madaniyatni saqlash va rivojlantirishda, qonun va tartibni saqlash, mamlakatning mudofaa qobiliyatini, mamlakat manfaatlarini uchun mustaqil tashabbuskor harakatlarga tayyor bo'lish vakolati va qiziqishini nazarda tutadi; demokratik o'z-o'zini boshqarish, mehnatga faol munosabat, siyosiy, axloqiy va huquqiy qarorlar va boshqalar.;

harbiy-vatanparvarlik: mamlakatimiz harbiy tarixi va zamonaviy Qurolli kuchlariga mas'uliyatli va ijobiy munosabat; mamlakat mudofaa qobiliyatini va milliy xavfsizlikni mustahkamlash uchun ijtimoiy mas'uliyat; Qurolli kuchlarning qahramonlik an'analariga sodiqlik hissi, ularni davom ettirish istagi va boshqalar;

sport va vatanparvarlik: jismoniy madaniyat, kuch, qobiliyat, chidamlilik, g'alabaga erishish uchun iroda; sog'lom turmush tarzi turmush tarzi va inson salomatligi o'rtasidagi munosabatlarning jamlangan ifodasi sifatida sog'liq va rivojlanish uchun optimal sharoitlarda professional, ijtimoiy va maishiy funksiyalarni bajarishga hissa qo'shadigan barcha narsalarni birlashtiradi; bolalar va yoshlarda salbiy va zararli odatlarning yo'qligi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Dissertatsiyaning "Bo'lajak pedagoglarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik tizimi" deb nomlangan ikkinchi bobida kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish mazmuni, modeli va pedagogik shart-sharoitlari yoritib berilgan.

Xulosa. Vatanparvarlik tarbiyasi o'z navbatida integrativ asoslangan vatanparvarlik tuzilmasi, yana maqsad qo'yish, mazmun va olingan natijalar darajalarida integratsiyalashgan shaklda ta'limning boshqa ko'pgina turlari elementlarini o'z ichiga oladi: ma'naviy-axloqiy, fuqarolik, huquqiy, ekologik, jismoniy va boshqalar. Bu umuminsoniylik tavsifiga egalik o'z navbatida vatanparvarlik tarbiyasini ma'naviy-vatanparvarlik, fuqarolik-vatanparvarlik, tarixiy-o'lkashunoslik ta'limiga, harbiy-vatanparvarlik, qahramonlik-vatanparvarlik, sport-vatanparvarlik kabi yo'nalishlarga ajratish orqali ko'rib chiqishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR

1. Атаджанова Ш. Оилада ўспирин-ёшларни ватанпарварлик рухида тарбиялашда миллий кадрлардан фойдаланишнинг педагогик асослари: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2001. – 136 б.
2. Балаганов А.Р. Патриотическое воспитание младших школьников средствами изобразительного искусства: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Кострома, 2000. – 27 с.
3. Бейсембаева А.А. Патриотическое воспитание старшеклассников средствами казахского героического эпоса. Канд.пед.наук.....автореф. –Алматы: 2004. – 23 с.
4. Галиахметов И.Р. Патриотическое воспитания школьников и пути его совершенствования. – Казан, 2001. – С.61-62.
5. Горбова М.А. Воспитания патриотизма у старших классников игровыми формами турстко-краеведческой деятельности: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – М., 1999. – 24 с.
6. Ильин И.И. Формирование патриотическое отношений у студентов: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Тамбов, 2003. – 24 с.
7. Иброхимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Тошкент, Ўзбекистон, 1996. – 139 б.
8. Каган М.С. Гражданское общество как культурная форма социальной системы // Социально-гуманитарные знания. – М., 2000. - №6. – С.49-50.
9. Калдыбекова А.С. Интернациональное воспитание учащихся в старших классов казахской школе в процессе изучения родной литературы (На меатериале казахских школ Республики Узбекистан): Дисс. ... канд.пед.наук. – Т., 1993. – 136 с.

10. Караковский В.А. Стать человеком. Общечеловеческие ценности – основа целостного учебно-воспитательного процесса. – М., 1993. – 80 с.
11. Каримбеков С. Военно-патриотическое воспитание учащихся старших классов в процессе преподавания литературы (на материале русской литературы): Дисс.канд.пе.наук. – Т., 1991. – 137 с.
12. Кирьякова А.В. Теория ориентации личности в мире ценностей. – Оренбург: Изд-во «Южный Урал», 1996. – 188 с.
13. Клименко И.М. Формирование патриотизма в процессе обучения истории и внеучебной работы: Автореф. дис. ... канд.пед.наук. – Екатеринбург, 1999. – 22 с.
14. Кривых С.В. Педагогические основы патриотического воспитания младших школьников. – Новокузнецк: Изд. ИПК, 2002. – С.8; С.16.
15. Левина Н.А. Типологические особенности развития чувств патриотизма у младших школьников: Автореф. дис. ...канд.псих.наук. – Тамбов, 2004. – 22 с.
16. Матушкин С.Е, Ипполитова Н.В. Сущность и особенности патриотического воспитания в современных условиях. – Курган, 2001. - №1(7). – С.6.
17. Новые ценности образования: Тезаурус для учителей и школьных психологов. / Под.ред. Н.Б.Крылова. – М., 1995. – 20 с.



Abdurasul MIRZAAKBAROV,
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi
abdurasulmirzaakbarov@gmail.com

Namdu dotsenti., PhD, M.Qo'ldasheva taqrizi asosida

WAYS TO TEACH FUTURE TEACHERS TO LOGICAL THINKING THROUGH COMBINATORY AND CHOICE PROBLEMS

Annotation

This article describes ways to develop logical thinking skills of future teachers through specific subjects. Based on the analysis of cases and situations presented in logical, combinatorial and non-standard problems, students acquire the skills of searching for and separating the necessary information, establish cause-and-effect relationships, build a logical chain of reasoning, and use the most convenient and effective methods of solving the problem based on concrete conditions. Competency of educational activities such as selection and solving is formed and developed.

Key words: logical reasoning, word problem, inverse problem, permutation, combinatorics, grouping, selection, set, element, permutation, algorithm, unique permutations.

ПУТИ НАУЧЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЛОГИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ ЧЕРЕЗ ЗАДАЧИ КОМБИНАТОРНОСТИ И ВЫБОРА

Аннотация

В данной статье описаны способы развития навыков логического мышления у будущих учителей посредством конкретных предметов. На основе анализа случаев и ситуаций, представленных в логических, комбинаторных и нестандартных задачах, учащиеся приобретают навыки поиска и разделения необходимой информации, установления причинно-следственных связей, построения логической цепочки рассуждений, использования наиболее удобные и эффективные способы решения задачи, исходя из конкретных условий. Формируется и развивается компетентность учебной деятельности по выбору и решению.

Ключевые слова: логические рассуждения, проблема слов, обратная задача, перестановка, комбинаторика, группировка, выбор, множество, элемент, перестановка, алгоритм, уникальные перестановки.

KOMBINATORIYA VA TANLANMA MASALALAR ORQALI BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI MANTIQUIY FIKRLASHGA O'RGATISH YO'LLARI

Аннотация

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni aniq fanlar orqali mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish yo'llari bayon etilgan. Mantiqiy, kombinatorik va nostandart masalalarda keltirilgan holatlar, vaziyatlarni tahlil etish asosida talabalar zaruriy axborotni izlash va ajratish ko'nikmalarini egallaydilar, sabab-oqibat bog'lanishlarini o'rnatadilar, mulohaza qilishning mantiqiy zanjirini qurib, konkret shartlarga tayangan holda masalaning eng qulay samarali yechish usullarini tanlash va yechish kabi o'quv faoliyatining kompetensiyasi shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, matnli masala, teskari masala, o'rinashtirish, kombinatorika, guruhlash, tanlanma, to'plam, element, o'rin almashtirish, algoritim, takrorsiz o'rinashtirishlar.

Kirish. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan qaror va farmonlarda belgilangan chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash xususan, oliy ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor shuni ko'rsatmoqdaki [1], bo'lajak kadrlarni kasbiy kompetentligini shakllantirish va ularda malaka, tajribalarini takomillashtirib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, oliy ta'lim muassasalarida matematika fanini o'qitishni takomillashtirishda, jumladan, masalalarni yechish fanni o'qitishning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Zero, masalalarni yechmasdan matematika fanini o'zlashtirishni mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, matematika darslarida masalalar yechish nazariyani amaliyotga tadbiq etishning eng yaxshi va ravon yo'li hisoblanadi. Faqatgina quruq matematik nazariya, uning tadbirlarisiz, maqsadga erishib bo'lmaydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash kerakki matematika fanining har bir mantiqiy qoidasining albatta amaliyotdagi o'rni mavjud bo'lib, bu mavjudlikni tadbirlari faqatgina matematik masalalar yordamida yuzaga chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'rganilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kombinatorika haqidagi tushunchalar dastlab, eramizdan avvalgi II asrda Hindistonda paydo bo'lgan bo'lib, ular hozirda guruhdoshlar deb nomlangan kombinatorik tushunchalardan hamda kombinatorika elementlari birlashmalardan foydalanib, tahlil qilishga uringanlar. B.Paskal, Bernulli, Eylar, Chebishev asarlarida ham kombinatorika qo'llanilgan. Kombinatorikani mustaqil fan sifatida birinchi bo'lib, olmon matematigi G.Leybnis o'rgangan va 1666 yilda "Kombinatorika san'ati haqida" asarini chop etgan. Shuningdek, o'zbek olimlaridan M.K. Mamadjanova "Mantiqiy, kombinatorika va nostandart masalalar" ga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Har bir dars jarayonida ishlatiladigan masala yoki misol darsning maqsadiga mos kelishi kerak. Agar darsda o'qituvchi o'quvchilarga biror yangi matematik tushunchani o'rgatmoqchi bo'lsa, tuziladigan masala yoki misol ana shu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi xarakterda bo'lishi kerak. Murakkab masalalar ham, bilimlarni o'zlashtirish, olgan bilimlarni mustahkamlash va mukammallashtirishga xizmat qiladi. Sodda va murakkab

masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib odatda o'z ichiga yashirin noma'lumni oladi. Bu noma'lumni qidirish, masala yechuvchidan tahlil va sintezga mustaqil murojaat qilish faktlarini taqqoslash, umumlashtirish va boshqalarni talab qilishdan iborat bo'ladi.

Masalalar yechish orqali o'quvchilarda ushbu malakalar tarkib topilishi kerak. Masalani tinglashni o'rganish va uni mustaqil o'qiy olish. Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. Masalani dastlabki analiz qilish (ma'lumni noma'lumdan ajrata olish malakasi). Ma'lumni noma'lumdan, muhimni nomuhimdan ajratish, masalada berilganlar bilan izlanayotganlar orasidagi bog'lanishni ochish - bu eng muhim malakalardan biri. Bunday malakaga ega bo'lmay turib, masalalarni mustaqil yechishga o'rganib bo'lmaydi. Masalani qisqa yozish malakasi. O'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish o'tilgan materiallar yuzasidan og'zaki so'rash yoki yozma ish olish usuli bilan aniqlanadi. Bunday tekshirish darslarini o'tkazish o'qituvchi tomonidan bir hafta oldin e'lon qilinib, o'quvchilarga og'zaki so'raladigan mavzu materiallari va ular asosida o'qituvchi tomonidan tuzilgan savollar ketma - ketligi beriladi [2]. Haqiqatan ham masala shartining qisqa yozuvi o'quvchilar xotirasiga tayanch bo'lib, son ma'lumotlarni tushunish va ajratish imkonini beradi, shu bilan birga ularning ratsional yozilishi masalada nima berilgan va nimani izlash kerakligini bayoniy tushuntirish imkonini yaratadi. Sodda masalalarni yechishda amal tanlashni asoslab berish va murakkab masala tahlilini amalga oshirish, so'ngra yechish rejasini tuzish malakasi. Oldin sodda masalalarni yechishda amal tanlash masalasini qarab chiqishga to'xtalamiz. Bu malaka birinchi sinfdan boshlab tarkib topa boshlaydi, ikkinchi va uchinchi o'quv yillarida yanada rivoj toptiriladi, ya'ni ba'zi tanish masalalarga nisbatan amal tanlash ishini bajarish asosi o'zgartiriladi. Yechimni bajarish, uni o'qituvchi talabiga mos qilib rasmiylashtirish va masala savoliga javob berish malakasi. Sodda masalalardan boshlaymiz. Sodda masalani arifmetik usul bilan ham, algebraik usul bilan ham yechish mumkin. Bu o'rinda masalalarni arifmetik usul bilan yechish haqidagina so'z boradi, masalani algebraik usulda yechish keyinroq alohida qaraladi. Masala yechimini tekshira olish malakasi. Masala yechimining tekshirish quyidagi usullarda qo'llaniladi:

- olingan javob bilan masala sharti o'rtasida moslik o'rnatish;
- teskari masala tuzish va yechish;
- masalani boshqa usullar bilan yechish;
- javobning chegaralarini aniqlash (javobni chamalash);
- grafik tekshirish.

Ma'lumki o'quvchining mantiqiy tafakkurini o'stiradigan izlanish faoliyati bir qancha bosqichlardan iborat. Masalan, har qanday masalani yechish uning sharti va savoli bilan tanishtirishdan boshlanadi. O'quvchi o'zidagi bilim va tajribasiga ko'ra masala shartidagi ma'lumotlarga tayanib masala shartidagi ma'lumotlarning o'zaro munosabatlarni topishga harakat qiladi, ya'ni mantiqiy mushohada yuritiladi. Unda masalani yuritish haqida mulohaza vujudga keladi. Shu bilan o'quvchilar yangi bilim oladilar. Bu bilimlardan shunga o'xshagan masalani yechishda foydalanadilar. Ko'pgina masala va mashqlarda o'quvchilarni mustaqil izlanishga da'vat etadigan, "savol tuzing", «teskari masala tuzing», «taqqoslang», «xulosa yasang» kabi ko'rsatmalari berilgan. Biroq tajribadan ma'lumki bunday ko'rsatmalar umumiy xarakterlarda bo'lgani sababli o'quvchilar mustaqilligini va dars samaradorligini oshirishi uchun yetarli emas.

Tadqiqot ishida quyidagi matematik masalalar yechish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi:

1-masala. Futbol bo'yicha jahon chempionatida oltin, kumush, bronza medallari uchun bo'ladigan o'yinlarda 10 ta

jamoalar qatnashmoqda. Medallar jamoalar orasida necha xil usul bilan taqsimlanishi mumkin? [3]

Yechish: Avvalo masala shartiga ko'ra tuzilayotgan tanlama takrorsiz o'rinlashtirish ekanligini aniqlaymiz.

Bizning holda bosh to'plam 10 ta ($n = 10$) jamoadan iborat va tanlamada 3 ta jamoa tanlanishi lozim ($k = 3$).

Tanlamada bosh to'planning barcha elementlari qatnashmaydi ($3 < 10$);

Tanlamaga kiradigan bosh to'plam elementlari turlicha, ya'ni ular takrorlanmaydi. Tanlamaga kirgan jamoaning qaysi o'rinda bo'lishi, ya'ni tartibi muhim. Demak, bu tanlama – takrorsiz o'rinlashtirish. Unda topilgan takrorsiz

o'rinlashtirishlar sonini aniqlovchi $A_n^k = \frac{n!}{(n-k)!}$

formuladan foydalanamiz (bizning holda $n = 10, k = 3$).

$$A_{10}^3 = \frac{10!}{(10-3)!} = \frac{10!}{7!} = \frac{1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5 \cdot 6 \cdot 7 \cdot 8 \cdot 9 \cdot 10}{1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5 \cdot 6 \cdot 7} = 8 \cdot 9 \cdot 10 = 720$$

Javob: 720 xilda.

2-masala. Futbol musobaqasida o'nta jamoa qatnashmoqda. Musobaqa yakuniga ko'ra uchta 1-, 2- va 3-sovrinli o'rinlar aniqlanadi hamda ikkita oxirgi o'rinni egallagan jamoa quyi pog'onaga tushiriladi. Agar faqat birinchi uchta va oxirgi ikkita jamoalar o'rni hisobga olinsa, musobaqa yakunlari necha xil bo'lishi mumkin? [4]

Yechish: Masala shartiga ko'ra dastlab, 1-, 2- va 3-sovrinli o'rinlar aniqlanadi. Bizning holda bosh to'plam 10 ta ($n = 10$) jamoadan iborat va tanlamada 3 ta jamoa tanlanishi lozim ($k = 3$). Masalani chizmada tasvirlangan algoritmdan foydalanib yechishga harakat qilamiz. Tanlamada elementlarning tartibi muhimmi? Ha, tanlama kirgan jamoaning qaysi o'rinda bo'lishi, ya'ni tartibi muhim. Barcha elementlar tanlamaga kiradimi? Yo'q, tanlamada bosh to'planning barcha elementlari qatnashmaydi ($3 < 10$);

Demak, bu tanlama – takrorsiz o'rinlashtirish (bizning holda $n = 10, k = 3$).

Masalaning keyingi shartiga ko'ra, 1-, 2- va 3-sovrinli o'rinlarni egallagan jamoalardan tashqari qolgan jamoalar ichidan oxirgi 2 ta o'rinni egallagan jamoalarni aniqlash lozim. Buning uchun yana takrorsiz tanlamalarga doir kombinatorika masalalarini yechish algoritmidan foydalanamiz. Tanlamada elementlarning tartibi muhimmi? Yo'q, tanlama kirgan jamoaning qaysi o'rinda bo'lishi, ya'ni tartibi muhim emas (1-chizma). Bu holda bosh to'plam 7 ta ($n = 7$) jamoadan iborat bo'lib, tanlamada 2 ta jamoa tanlanishi lozim ($k = 2$) va tartibi muhim emas. Demak, takrorsiz guruhlash masalasiga ega bo'lamiz va u formula orqali topiladi.

Ko'paytirish qoidasiga ko'ra

Javob: 15 120 xil.

3-masala. Qizil, qora, ko'k va yashil sharlarni bir qatorga necha xil usulda joylashtirish mumkin?

Yechish: Bu masalani ham algoritmdan foydalanib yechish mumkin.

Bizning holda bosh to'plam 4 ta ($n = 4$) sharlardan iborat va tanlamada ham 4 ta shar qatnashishi lozim ($k = 4$).

Tanlamada bosh to'planning barcha elementlari qatnashadi ($n = k$);

Tanlamaga kiradigan bosh to'plam elementlari turlicha, ya'ni ular takrorlanmaydi.

Tanlamaga kirgan raqamning qaysi o'rinda kelayotgani, ya'ni tartibi muhim.

Demak, bu tanlama – takrorsiz o'rin almashtirish.

Takrorsiz o'rinlashtirishlar sonini aniqlovchi

$$P_n = 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot \dots \cdot (n-2) \cdot (n-1) \cdot n = n!$$

formuladan foydalanamiz (bizning holda $n = 4$) va

$P_4 = 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 = 24$ xil usulda sharlarni joylashtirish mumkin ekanligini aniqlaymiz.

Javob: 24 xilda.

4-masala: 8 ta tanganing bittasi qalbaki. Uning massasi boshqa tangalar massasidan og'ir. Toshisiz, pallali tarozida ikki marta tortish orqali qalbaki tangani qanday aniqlash mumkin? [5].

Yechish: 8 ta tangani 3 tadan qilib 2 ta guruhga ajratsak, u holda 3-guruhda 2 ta tanga bo'ladi. Birinchi tortishda 1- va 2- guruhlardagi 3 tadan tangalarni tarozining har bir pallasiga qo'yamiz. Bunda quyidagi ikki hol bo'lishi mumkin:

1- hol. Tarozni pallasiga qo'yilgan tangalar bir xil massaga ega. Bu holda ikkala guruhdagi tangalar haqiqiy bo'lib, qalbaki tanga 3-guruhda bo'ladi. U holda ikkinchi tortishda 3-guruhdagi 2 ta tangani tarozining har bir pallasiga bittadan qo'yamiz. Tarozining qaysi bir pallasiga qo'yilgan tanganing massasi og'ir bo'lsa, u qalbaki bo'ladi.

2- hol. Agar ular bir xil massaga ega bo'lmasa, bu holda qaysi guruhdagi tangalar massasi og'ir bo'lsa, qalbaki tanga o'sha guruhga tegishli bo'ladi va qalbaki tangani aniqlash, yuqoridagi 1-masala yechimiga keltiriladi.

Uning yechimiga ko'ra buni amalga oshirish uchun 1 marta tortish bajarilishi zarur. Demak, biz 2 marta tortish orqali qalbaki tangani aniqlash mumkinligini ko'rsatdik.

5-masala: Sinfdan 30 ta o'quvchi o'qiydi. Ulardan 20 tasi rus tilini biladi. 18 tasi ingliz tilini biladi. Savol: nechitasi har ikkala tilni biladim? [6]

Javob: 12 ta rus, 10 ta ingliz, 8 har ikki tilni biladi.

Tahlil va natijalar. Masalalarni qo'llash orqali o'quvchilarda mantiqiy fikrlashning quyidagi belgilari shakllanishiga erishiladi:

- fikrlash samarali bo'lib, uning davomida inson bilan sodir bo'ladigan barcha narsalardan ijobiy tajriba shakllanadi;
- mustaqil va mas'uliyatli;
- asosli, chunki ishonchli dalillar puxta qaror qabul qilishga imkon beradi;

- ko'p qirrali, chunki u hodisani turli tomonlardan ko'rib chiqish qobiliyatida namoyon bo'ladi;

- individual, chunki u axborot bilan ishlashning shaxsiy madaniyatini shakllantiradi;

- ijtimoiy, chunki ish juftliklar, guruhlarda amalga oshiriladi, o'zaro ta'sirning asosiy usuli munozara hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, matematikani o'qitishning muhim vazifasi bo'lajak mutaxassislarda faol fikrlash, kundalik hayotda uchraydigan turli masalalarni yechish, muammoli vaziyatdan chiqib keta olish ko'nikmasini shakllanishida, turli qiyinchiliklarni yengishda ushbu masalalar yechimining ratsional yo'llarini topish ehtiyojini vujudga keltirishdan iborat bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali nutqidan
2. Alixonov S., Matematika o'qitish metodikasi, o'quv qo'llanma, Toshkent, O'qituvchi, 2011– B. 77
3. Salomov A., Characteristics of integrated teaching in primary schools, World Bulletin of Social Sciences (WBSS) , 2023 – B. 96
4. Mirzaakbarov A.. Bo'lajak o'qituvchilarni aniq fanlar orqali mantiqiy fikrlashga o'rgatish yo'llari. International journal of scientific researchers, 2023. – B. 501-5054.
5. Mamadjanova M.K. Mantiqiy , kombinatorika va nostandart masalalar - Toshkent.: Innovatsion-Ziyo, 2020, – B. 35
6. <https://bilimlar.uz/>



Zokirjon MO'MINOV,
Namangan davlat universiteti Sotsiologiya fanlari bo'yisha falsafa doktori (PhD)

Dots N.Kodirov taqrizi asosida

ZAMONAVIY SOTSILOGIYADA IJTIMOY MOBILLIK NAZARIYASI VA METODOLOGIYASI

Annotatsiya

So'nggi o'n yillikda ijtimoiy fanlarda odamlar, ob'ektlar, ularning munosabatlari va dinamikasidagi ma'lumotlar harakatining birligida mobillikni tahlil qilish yondashuvi ishlab chiqildi. Bu tadqiqotlar globallashuv, kommunikatsiyalar, migratsiya, chegaralar muammolari, turizm, madaniy geografiya, muomalalar antropologiyasini o'rganishning bir qator jihatlar bilan mos keladi, lekin ko'lami, yo'nalishi va metodologiyasi bir-biridan farq qiladi. Mobillikning nazariy tushunchasi uning moddiy amaliyotlariga, kommunikativ mobillikka, harakatga yordam beradigan yoki to'sqinlik qiladigan infratuzilma va boshqaruv tizimlariga, harakat yoki dam olishga berilgan tasavvurlar, mafkuralar va ma'nolarga qaratilgan. Ijtimoiy mobillik nazariyasi va metodologiyasini keng ochib berish hamda mamlakatimiz ravnaqi va kelajak avlod uchun ijtimoiy mobillik konsepsiyasini yaratish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanishi lozim.

Kalit so'zlar: Sotsial, ijtimoiy mobillik, harakat, nazariya, amaliyot, metod, shaxs, stratifikatsiya, marginal, qatlam.

СОЦИАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ В СОВРЕМЕННОЙ СОЦИОЛОГИИ ТЕОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ

Аннотация

В последнее десятилетие в социальных науках получил развитие подход к анализу мобильности в единстве информационного движения людей, объектов, их отношений и динамики. Эти исследования совместимы с рядом аспектов изучения глобализации, коммуникаций, миграции, пограничных проблем, туризма, культурной географии, антропологии транзакций, но различаются по объему, направленности и методологии. Теоретическое понимание мобильности сосредоточено на ее материальных практиках, коммуникативной мобильности, инфраструктуре и системах управления, которые облегчают или препятствуют движению, а также на представлениях, идеологиях и значениях, связанных с движением или отдыхом. Широкое раскрытие теории и методологии социальной мобильности и создание концепции социальной мобильности для развития нашей страны и будущего поколения должны стать одной из актуальных задач сегодняшнего дня.

Ключевые слова: Социальная, социальная мобильность, движение, теория, практика, метод, человек, стратификация, маргинал, слой.

SOCIAL MOBILITY IN MODERN SOCIOLOGY THEORY AND METHODOLOGY

Annotation

In the last decade, the social sciences have developed an approach to the analysis of mobility in the unity of the information movement of people, objects, their relations and dynamics. These studies are compatible with a number of aspects of the study of globalization, communications, migration, border issues, tourism, cultural geography, transaction anthropology, but differ in scope, focus and methodology. The theoretical understanding of mobility focuses on its material practices, communicative mobility, infrastructure and control systems that facilitate or hinder movement, as well as representations, ideologies and meanings associated with movement or recreation. A wide disclosure of the theory and methodology of social mobility and the creation of a concept of social mobility for the development of our country and the future generation should become one of the urgent tasks of today.

Key words: Social, social mobility, movement, theory, practice, method, person, stratification, marginal, layer.

Kirish. Ijtimoiy mobillik - bu shaxsning bir ijtimoiy qatlamdan ikkinchisiga o'tishi yoki bir xil ijtimoiy guruh ichida harakatlanishi hodisasi[1]. Ijtimoiy mobillik hayotning ajralmas qismi bo'lib, ko'plab mashhur e'rtaklarga, shuningdek, filmlar va teleko'rsatuvlarga asos bo'lgan.

Ushbu kontsepsiya 1927 yilda rus va amerikalik sotsiolog P. Sorokin tomonidan ijtimoiy tabaqalanish haqidagi ishida kiritilgan. Bu atama dastlab Amerika ilmiy hamjamiyatida tan olingan, keyin esa butun dunyoga tarqaldi. Shunday bo'ldiki, olim ijtimoiy mobillik nazariyasini o'z misoli bilan tasdiqladi: u Rossiyaning chekkasida ota-onasiz o'sdi va keyinchalik xalqaro ilmiy doiralarda mashhur shaxsga aylandi.

"Mobillikni o'zgarishi" ularning immobillik (harakatsizlik) bilan aloqasini, shuningdek, tengsizliklarning siyosiy, axloqiy o'lchamlarini ta'kidlaydi[2]. Ushbu yondashuv nafaqat mobillik, texnologiya va amaliyotning

tarixiy va zamonaviy jarayonlarini kuzatadi, balki ularning me'yoriy tomonini (barqaror mobillik va mobillanish huquqi uchun mobil) va mobil bo'lish imkoniyatlarini ham tanqid qiladi. Mobillikni o'rganish nazariy an'analarni, metodologik yondashuvlarni, gnoseologiyani va hatto dunyo ontologiyasini birlashtiradi, shuning uchun ham ba'zida "mobillikning yangi paradigmasi" haqida gapiriladi[3]. Sotsiologiyada "mobillik" atamasi shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy sinflar va ijtimoiy guruhlar ierarxiyasidan yuqoriga yoki pastga ko'tarilgan "ijtimoiy mobilligi" sifatida tushunilgan[4]. An'analardan farqli o'laroq, yangi transdisiplinar soha odamlar, ob'ektlar, ma'lumotlar, tasvirlar va kapitalning mobilligi makonini qamrab oldi; infratuzilmalarni, mobillanish vositalarini, dasturiy ta'minotni o'rganish. Shunday qilib, u sotsiologiyaning bir qator sof "ijtimoiy" muammolarini (tengsizliklar, kuchlar, ierarxiyalar), geografiyaning makon muammolarini (hudud, chegaralar, o'lchamlar) antropologiya,

aloqa tadqiqotlari (diskurslar, tasvirlar, sxemalar) muammolari bilan bog'laydi, ularning har birini birgalikdagi ma'nolar, ob'ektlarning o'zaro bog'liq ontologiyasi bilan moslashtiradi. A. de Tokvil va E. Dyurkgeymdan boshlab, sotsiologiya ijtimoiy mobillik, ijtimoiy o'zgarish va ijtimoiy barqarorlikka o'tdi. P.A.Sorokinning "Sotsialnaya mobilnost" kitobida sotsial mobillik AQShda ijtimoiy tuzilma va stratifikatsiyaga katta ta'sir ko'rsatishi ochib berildi.

Ijtimoiy mobillikning asosiy turlari: Gorizontalar va vertikal.

Gorizontalar mobillik bilan ijtimoiy maqom o'zgaribmaydi. Bir kishi bir guruhdan ikkinchisiga o'tadi, obro'si yoki ish haqi jihatidan o'xshash: bir kichik shahardan ikkinchisiga o'tadi, bir xil lavozimga o'tadi. Misol: savdo menejeri bitta reklama agentligini tark etdi va boshqasiga ishga joylashdi.

Gorizontalar mobillikning quyidagi turlari mavjud:

individual – guruhning mustaqil o'zgarishi;

kollektiv – bir nechta odamlarga tegishli, masalan, butun sanoat yo'qolganida;

geografik – ko'chib o'tishda ijtimoiy mavqe saqlanib qoladi, masalan, masofadan turib ishlaydigan dasturchi qish uchun Osiyoga borishga qaror qildi.

Vertikal mobillik gorizontalar mobillikdan farqli o'laroq, ijtimoiy maqomning o'zgarishiga olib keladi. Bu nafaqat ijobiy oqibatlarga olib kelishi mumkin (eng oddiy - ko'tarilish), balki salbiy (maqomni yo'qotish va pastroq lavozimga o'tish).

Bu erda ikkita tur mavjud: ortib borayotgan - masalan, sotuvchi menejer bo'ldi;

pasayish - masalan, menejer sotuvchiga aylandi.

Vertikal mobillik, shuningdek, bir kishi yoki butun guruhga tegishli bo'lishi mumkin. Misol uchun, butun bir bo'lim yuqori lavozimlarga ko'tarilishi mumkin.

Ijtimoiy qatlamlar boshqacha tarzda qatlamlar deb ataladi. Stratifikatsiya - bu jamiyatning biror narsa bilan birlashtirilgan guruhlarga bo'linishi: bu kasb, ta'lim, daromad, hokimiyatga ega bo'lishi mumkin. Qatlamlar vakillari odatda o'xshash turmush tarzini olib boradilar, o'xshash imkoniyatlarga ega. Tarixiy nuqtai nazardan, qatlamlar kastalar, mulklar, sinflardir.

Mobillik va tabaqalanish bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Harakatlanish jarayonida odam qatlamlar orasida harakat qiladi yoki shu guruh ichida bo'ladi. Uchta qatlam darajasi mavjud:

eng yuqori – siyosiy rahbarlar, taniqli olimlar, yirik tadbirkorlar, zavod egalari;

o'rta kompaniya rahbarlari, ishbilarmonlar, mutaxassislar;

eng past marginal, qashshoqlik chegarasidan past bo'lgan odamlardir.

Stratifikatsiya jamiyatda yuzaga kelgan tengsizlikni va ijtimoiy ahamiyatga ega resurslarga turlicha kirishni aks ettiradi.

Marginallik bu, qoida tariqasida: jamiyatdagi avvalgi mavqeyini yo'qotdi;

sharoitga ko'ra o'zi ko'nikkan faoliyat bilan shug'ullana olmaydi;

ular o'zlari yashayotgan muhitga, jamiyatda qabul qilingan madaniyat va me'yorlarga moslasha olmaydi;

ko'pincha o'zini passiv yoki oldindan aytib bo'lmaydigan, ba'zi hollarda hatto tajovuzkor tutadi, ko'pincha ularning xatti-harakati deviant deb ataladi.

Marginallashuv bilan ba'zi odamlar o'zlarini jamiyatdan tashqarida yoki chekkada topadilar. Xavf ostida zaif va, qoida tariqasida, kambag'allar, jamiyat oldiga qo'yadigan qiyinchiliklarni engish qiyin: uysizlar, ishsizlar, nogironlar, giyohvandlar.

Marginallikning eng keng tarqalgan sabablari orasida chet elga ko'chib o'tish, ishdan bo'shatish, pul, mulkni yo'qotish, pul topish imkoniyatlari va jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyatlarini yo'qotish kiradi. Masalan, ozodlikdan mahrum qilish joylarida, mehribonlik uylarida yoki boshpanalarda marginallik tez-tez uchraydi.

S. Lipset va R. Bendiks tomonidan ijtimoiy mobillikni "... jamiyatdagi jarayonlar, bu orqali shaxslar bir pozitsiyadan ikkinchisiga o'tishlari - umumiy konsensus o'ziga xos ierarxik qadriyatlar bilan ta'minlangan pozitsiyalar"[5] deb ta'riflagan. Sotsial mobillikni o'rganishda biz shaxslarning ma'lum darajadagi lavozimlardan ijtimoiy tizimdagi yuqori yoki past lavozimlarga o'tishini tahlil qilamiz. Geografik mobillik tadqiqotlari ma'lum kichik sohalar bilan cheklangan. T. Kressuell o'z asarlarida: Migratsiya, mehnat, shahar jamoalari mobillikni A nuqtadan B nuqtaga o'zaro harakat sifatida ta'riflaydi[6]. Ijtimoiy mobillikka (va barcha pozitivistik empirizmga) tizimli yondashuvlar hali ham mobillik so'zining ma'nosini tushunishga ta'sir qiladi. Ammo boshqa sotsiologik an'analari ijtimoiy tajribaga va fazoviy mobillikning oqibatlariga, ayniqsa Chikago maktabi va ba'zi sotsiologlar asarlariga ko'proq e'tibor beradi. 1920-yillar sotsiologlari shaharlarga ko'chib kelganlarning guruh mobilligini, shahar va shahar atrofi aholisining kunlik mobilligini ko'rib chiqdilar. R. Park, E. Burges va boshqalar shaharlarning o'sishi bilan bog'liq bo'lgan tengsizlik va beqarorlikning salbiy oqibatlarini o'rgandilar. Ular mobillikni o'sishi uchun asosiy turki, odamlarning "moslashish" qobiliyati deb hisoblashgan. G. Simmel nazariy jihatdan «shahar metabolizmi» va muomalaning ahamiyatini zamonaviy shahar hayotining asosiy jihatlari, jumladan, odamlar va pullarning mobilligi sifatida tushundi[7]. Mobillik nazariyasi tanqidiy nazariyaning marginallashuvi va sotsiologiyani amaliy yo'naltirilgan kichik sohalar parchalanishi tufayli Qo'shma Shtatlardagi sotsiologik oqim asosiy oqimdan tashqarida qoldi. Bir qator falsafiy yondashuvlarga asoslangan mobillik nazariyasi jismlarning, mobilning, makonning o'zaro ta'siri jarayonini tubdan qayta ko'rib chiqdi. Hissiyotlar, ob'ektlar va kinetik faktlarning o'zaro bog'liqligi sifatida mujassamlangan amaliyotlar va harakatda bo'lishi ishlab chiqarishni hisobga olgan holda fenomenologiyaga tayanadi. Uning yondashuvi yurish, haydash, yo'lovchi bo'lish, mobil uslublari, turlari va atrof-muhitga qiziqishni o'z ichiga oladi.

Mobillikka ba'zi yondashuvlar mustamlakachilikdan keyingi nazariya va irqning tanqidiy nazariyalari bilan bog'liq. Bu e'tibor antropologlarning migratsiya, diasporalar, transmilliy fuqarolikni o'rganishi[8], irq, millat, etnik kelib chiqish, jamoa, davlatning statik toifalarini keskin postkolonial feministik tanqid qilishdan kelib chiqqan; Tabiiyki, o'ziga xos landshaftlar va g'oyalari bilan yozilgan irqiy, jins, sinf, jinsiy (intim) mobillik yana kalit bo'ldi. Shunday qilib, mobillikni o'rganish nafaqat odamlarning tana harakati, balki xayoliy, vizual, kommunikativ sayohatlar bilan bog'liq bo'lib, (ba'zi) odamlarga "ko'proq mobil hayot" yashashga imkon beradi yoki ularni keltirib chiqaradi[9]. Globallashuvdan tashqari, ko'chmanchilik, oqimlar. Mobilanishning teskari o'zgarishini 1990-yillarning boshidan boshlab ijtimoiy nazariyaning oqim va oqim metaforalaridan foydalanish bilan aralashtirib yubormaslik kerak.

Vujudga kelayotgan ijtimoiy jarayonlar nazariyotchilar e'tiborini tortdi. M. Kastels "joy oradig'i"dan farqli ravishda "oqim oralig'i" nazariyasi bilan mashhur bo'ldi[10]. Z.Bauman "moddaviylik" va "o'zgaruvchanlik"ni zamonaviy tabiatni, ko'p jihatdan zamonaviylik tarixining yangi bosqichini ifodalash uchun mos metafora sifatida ko'rib chiqish mantiqan to'g'ri keladi, deb hisoblagan[11].

Sheller va Urri yozganidek, "Biz mobillik, ravonlik va o'zgarish dunyosida yangi buyuk rivoyatga intilmayapmiz". Yangi mobillik paradigmasi mobil kontekstini, ijtimoiy

olaning o'troq va ko'chmanchi shakllarini belgilab beradi, bu kontekstdan qanday foydalaniladi, ijtimoiy-texnik va madaniy amaliyotlarda qanday amalga oshiriladi, degan savol tug'iladi.

Mobillik tadqiqotchilari bugungi kunda oqimlar, harakat tezligi, kosmopolitizm yoki ko'chmanchi subyektivlikni afzal ko'rish emas, balki harakat yoki dam olish effektini (ta'sirini) yaratishda fikrlar, amaliyotlar, infratuzilmalarning kuchini kuzatish masalasini ko'tarmoqdalar. Mobillikning yangi paradigmasi haqidagi da'vo shunchaki uning yangiligini tasdiqlamaydi, garchi turli oqimlarning tezligi, intensivligi, texnik taqsimoti hozir har qachongidan ham kuchliroqdir. Agar xarakat va o'zaro harakatsizlik doimo o'zaro bog'langan bo'lsa, u holda mobillik - ham tarixiy, ham zamonaviy hayotning markazidir. Ular har doim o'zaro ta'sirlar va aloqalarning turli shakllarini qo'llab-quvvatlovchi murakkab usullarda qayta tashkil etilgan.

Butunjahon mobillik tizimi odamlarni va narsalarni har qachongidan ham dinamik, murakkab va kuzatuvchanroq harakatga keltiradi, deb ishoniladi. Mavzular majburiy mobillanishning yangi muammolari, uning uzilishlari, ekologiya va iqlim o'zgarishi chegaralari, yangi oldindan aytib bo'lmaydigan xavf-xatarlarga duch keladi. Dunyoning ko'p qismlari mavjud ijtimoiy-texnikaviy mobillik va aloqa tizimlarini tubdan o'zgartirishda etakchilik qilmoqda.

Zamonaviy mobillikning bunday o'zgarishlari ijtimoiy fanlar mazmuni uchun yangi muammolarni keltirib chiqaradi va nazariya va metodologiyada yangi yondashuvlarni talab qiladi. Mobillik haqidagi so'nggi tanqidiy tadqiqotlar e'tiborni kuchning roliga qaratib, tezisning asosiy ma'nosini tasdiqlaydi: "mobillik ham, uning ustidan nazorat ham kuchni aks ettiradi va kuchaytiradi. Mobillik hamma uchun birdek muomalada bo'lmaydigan resursdir" (o'sha erda: 49). Savol mobillik subyektining imtiyozlari haqida emas, balki mobil va dam olish uchun mobillanish nutqlari va amaliyotlarining kuchini ochib berish, "tarmoq kapitali" ning tengsiz taqsimlanishi[12].

Tizimlar, mobillik kapitali, mobil-makon. Mobillik tadqiqotchilari "moddiylikning aylanishi" va "fazoning aylanishi"ga jiddiy yondashgan.

J. Urrining ta'kidlashicha, mobillik tizimlarining murakkab tabiati ko'plab to'xtashlar, to'xtashlar, ko'pincha boshqa narsalarning oqishini ta'minlaydigan katta jismoniy shakllar natijasidir. Harakatlanmaydigan moddiy olamlarning o'zaro bog'liq (va uzluksiz) tizimlari (uzatuvchilar, stantsiyalar, aeroportlar, docklar, fabrikalar) mavjud bo'lib, ular ishchi kuchini, kapitalni safarbar qiladi - joylar va masshtablarning o'zgarishini fazoviy ravishda belgilaydi.

Harakatlanish imkoniyatlari "mobillilik" tushunchasi orqali "shaxs tomonidan, mobil bilan bog'liq imkoniyatlar guruhini o'zlashtirish va ulardan foydalanish usuli" sifatida tahlil qilinadi[13]. Harakatlanmasdan yuqori darajadagi mobillikka ega bo'lish mumkin. Ko'chma subyekt ko'plab harakatlarda jismonan ishtirok etishi mumkin, imkoniyatlar, vakolatlar, tanlov nuqtai nazaridan past mobillikka ega, ayniqsa harakat majburiy bo'lsa (bola ajrashgan ota-onalar o'rtasida ko'chib o'tgan bo'lsa). Keling, "mobillik kapitali" tushunchasiga murojaat qilaylik - bunda qobiliyat va malakalarning teng taqsimlanmaganligi, jismoniy, ijtimoiy va siyosiy harakat uchun imkoniyatlar mavjudligi muhim o'rin tutadi. Bu erda huquq tuzilmalari kim va nima harakat qila olishi (yoki qilmasligi) qanday tartibga solinganligi ayniqsa muhimdir. Kapitalning tengsiz mobilligi globallashuv va urbanizatsiya jarayonlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu erda tadqiqotchilar "shahar huquqi", "shaharda yashash huquqi"[14], adolatga utopik umid va odamlarning mobillik huquqining universalligi bilan shakllangan makon va vaqtga yondashuvlarni o'rganadilar.

Urrining fikricha, "barcha tizimlar dinamik va protsessual hisoblanib, favqulodda ta'sirlar va tizimli qarama-qarshiliklarni yaratadi, ayniqsa ijobiy qayta aloqa mexanizmlari orqali"[15]. Ya'ni, mobillik nazariyasi moddiylik bilan chuqur ildiz otgan va ijtimoiy nazariyaning an'analardan uzoqlashib, inson vakolatiga nisbatan tuzilishga yo'naltirilgan holda murakkab tizimlar nazariyasiga aylanib bormoqda. Mobillik tadqiqotlari bizga dunyoni tuzadigan siyosiy va moddiy munosabatlardan tashqari, asosiy e'tibor ijtimoiy fanning o'ziga - biz u bilan nima qilishimiz va u nima qilishiga qaratilganligini ko'rishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Bekmurodov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi: Monografiya.-Toshkent: Yoshlar Nashriyot uyi, 2020. -56 b.
2. Kevin Hannam, Mimi Sheller, John Urry. Editorial: Mobilities, Immobilities and Moorings. *Mobilities* (Taylor & Francis)- Vol. 1, Iss: 1, pp 1-22.
3. Парманов Ф.Я., Сеитов А.П., Пак П.В. и др. Методические рекомендации по проведению социологических исследований. Методическое пособие. - Ташкент: «Fan va texnologiya», 2017
4. M. Sheller, J. Urry *The New Mobilities Paradigm*. *Environment and Planning A* 2006, volume 38, pp 207 – 226.
5. M. Sheller. *The new mobilities paradigm for a live sociology*. Sage Journals Home. Volume 62, Issue 6. First published online May 23, 2014
6. Lipset S. M. *Some Social Requisites of Democracy. Economic Development and Political Legitimacy* // *American Political Science Review*. 1959. 53 (1). P. 69–105.
7. T. Cresswell. *Mobility in the Modern Western World.. Edition 1st Edition. First Published 2006. eBook Published 18 May 2006. Pub.*
8. Georg Simmel. *First Sociologist of Modernity*. Sage Publications. 1997 pp.1-323
9. Ong, A. (1999). *Flexible Citizenship: The Cultural Logics of Transnationality*. Durham: Duke University Press.
10. A. Elliott, J. Urry. *International library of sociology*. Routledge, 2010. ISBN0415480205,9780415480208. P-27
11. M. Castells. *The Rise of the Network Society, The Information Age: Economy, Society and Culture, Vol. I*. Cambridge, MA; Oxford, UK: Blackwell (1996)
12. Z. Bauman. *Liquid Modernity and Beyond*. *Acta Sociologica* Vol. 44, No. 3 (2001), pp. 267-275 (9 pages) Published By: Sage Publications, Ltd.
13. A. Elliott, J. Urry. *International library of sociology*. Routledge, 2010. ISBN0415480205,9780415480208. P-49
14. Kaufmann, V and Montulet, B (2008) "Between Social and Spatial Mobilities: The Issue of Social Fluidity." In: Canzler, W, Kaufmann, V and Kesselring, S (eds) *Tracing Mobilities: Towards a Cosmopolitan Perspective*. Farnham and Burlington: Ashgate, pp-37–56.
15. Harvey, D. (2008). *The Right to the City*. *New Left Review*, 53, p-23-40



UDK:370.2

Mansur NABIYEV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchi
E-mail: mansur.n@gmail.com

NamOI f.f.f.d.(PhD) N.Farxodjonova taqrizi ostida

IJTIMOY G'OYALAR TRANSFORMATSIYASINING MILLIY G'OYA BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI

Annotatsiya

Insoniyat tarixining ko'p asrlik tajribasi ezgu g'oyalar va sog'lom mafkuradan mahrum biron-bir jamiyatning rivojlana olmasligini ko'rsatadi. Mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonlarda milliy g'oyaning salohiyati o'z ifodasini topadi. Ushbu maqolada ijtimoiy g'oyalar transformatsiyasining milliy g'oya bilan o'zaro bog'liqligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: G'oya, mafkura, ijtimoiy g'oya, milliy g'oya, demokratik jarayonlar, transformatsiya, zamonaviy jamiyat.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБЩЕСТВЕННЫХ ИДЕЙ С НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕЕЙ

Аннотация

Многовековой опыт истории человечества показывает, что ни одно общество, лишенное благородных идей и здоровой идеологии, не может развиваться. В демократических процессах общественной жизни нашей страны находит свое выражение потенциал национальной идеи. В данной статье освещается взаимосвязь трансформации общественных идей с национальной идеей.

Ключевые слова: Идея, идеология, социальная идея, национальная идея, демократические процессы, трансформация, современное общество.

THE RELATIONSHIP OF THE TRANSFORMATION OF SOCIAL IDEAS WITH THE NATIONAL IDEA

Annotation

The centuries-old experience of human history shows the inability of any society to develop, devoid of noble ideas and healthy ideology. In the democratic processes of the social life of our country, the potential of the National idea is expressed. This article covers the transformation of social ideas, which is related to the national idea.

Key words: Idea, ideology, social idea, national idea, democratic processes, transformation, modern society.

Kirish. Zamonaviy jamiyatning shakllanishi va takomillashishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar, ayni paytda, ijtimoiy g'oyalar transformatsiyasi, milliy g'oya, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqorolik jamiyati barpo etishning asosiy vositalaridan biri ekanligini ham e'tirof etmoq lozim. Shuning uchun ham milliy g'oyaning vujudga kelishining xalqimiz ruhiyati, mafkuraviy, siyosiy jarayonlar bilan bog'liq jihatlarni tahlil qilish faqatgina nazariy emas, balki amaliy ahamiyatga molikdir. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda barpo etilayotgan huquqiy demokratik jamiyatning o'ziga xosligi, milliy g'oya, xalqimiz tarixiy xotirasi, madaniy merosi, qadriyatlarini, an'ana, urf-odatlarini, orzu-umidlari namoyon bo'lishini o'rganishni muayyan zaruriyatga aylantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy g'oyalar transformatsiyasi va milliy g'oya har bir jamiyat ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini ta'minlovchi milliy omil sifatida namoyo bo'ladi. Olim S.Otamurotovning fikricha, "Milliy g'oya – milliy uyg'otuvchi, millatning o'zligini anglatuvchi, o'ziga xoslikka, mentalitetga "qiyofa" baxsh etuvchi, milliy ruhiyat, g'urur, iftixor, e'tiqod va mas'ullik tuyg'ularini shakllantiruvchi fikrdir"[1]. Albatta, bu fikrga qo'shilar ekanmiz, "milliy g'oya" tushunchasi ijtimoiy falsafiy jihatdan keng ma'noga egadir. Ijtimoiy g'oyalar transformatsiyasi natijasida milliy g'oya tizimida milliy ong, milliy o'zlikni anglash va milliy mentalitet yetakchi o'rinni egallaydi. Chunki milliy ong bo'lmasa, u rivojlanmasa, har bir millat o'zligini anglamasa, o'z millatiga oid urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarga amal qilmasa milliy g'oya rivojlanmaydi. Milliy ong va milliy o'zlikni anglash milliy g'oyaga turtki beradi, uning shakllanishidagi asosiy omil sifatida milliy taraqqiyotga ruhiyat bag'ishlab, uni harakatga keltiradi.

O'zlikni anglash – insonning o'zini alohida vujud sifatida butun borliqdan ajrata bilishi, baholashi va qadriyat sifatida anglashini ifodalovchi tushunchadir[2]. O'zlikni anglashning muayyan darajasi milliy o'zlikni anglashdir. "Milliy o'zlikni anglash – millat va har bir millat vakilining umumiy madaniy negizga, til, madaniyat, tarixiy meros, ruhiyatga, urf-odat va an'analarga mansubligini va o'z o'rmini idrok etishdir"[3]. Ya'ni milliy o'zlikni anglash muayyan millatga, muayyan mamlakat va davlatga mansublikni anglatadi.

Olim S.Otamurotov fikrini davom ettirar ekan, "insonning o'z-o'zini anglashi, bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, xayrixoxlik, imonlilik, xalollik, e'tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, or-nomuslik, sharm-hayollilik, mehr – shafqatlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik kabi va boshqa tuyg'ularda aks etadi"[4]. Demak, milliy o'zlikni anglash milliy g'urur, adolatparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik, millat taqdiriga nisbatan mas'uliyat, jamiyatda sodir bo'layotgan salbiy jarayonlarga befarq bo'lmaslik shaxs sifatida faol olib borishi kerak.

S.Mamashokirov va Sh.Tog'ayevlar fikricha "g'oya o'z sub'yektining ishonch-e'tiqodi, manfaat ehtiyoji va maqsadlarini qanchalik to'liq, aniq, mukammal ifodalasa, uning asosida hosil bo'lgan mafkura shunchalik kuchli, hayotiy bo'ladi"[5]. Mamlakatimizda erkin, huquqiy – demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash, milliy g'oyani jamiyatimiz a'zolari ongiga singdirishda madaniy-ma'rifiy muassasalar zni beqiyosdir.

Ma'lumki, g'oya jamiyat a'zolarining umumiy maqsadi sifatida ilgari surilib, ushbu maqsadni bajarishda milliy faoliyat boshlanadi. I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek,

“Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa – ana shu yuksak qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi tamoyillarning ma‘no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy, ta‘lim tarbiya ishlarining markaziga qo‘yish, ularni yangi bosqichga ko‘tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat” [6]. Shu o‘rinda professor I.Ergashev esa, “milliy g‘oya va mafkura jamiyatda insonlar, xalqlar, millatlarni umumiy maqsad va manfaat yo‘lida birlashtirib turish uchun zarur. Shuningdek, bu xalqlarning o‘zlarini xalq yoki millat millat sifatida anglashi uchun, yashashga qodir bo‘lish, tanlangan taraqqiyot yo‘lidan erkin rivojlanishi uchun, dunyo madaniyatini yangi mazmun bilan boyitishga xizmat qiladigan, shunga safarbar etadigan, ma‘naviy kuch- qudrat manbai hamdir”[7]

Mafkurada manfaatlar ifodalanayotgan kuch va qatlamlarning o‘tmishi, bugungi kuni va istiqboli o‘z ifodasini topadi. Mafkura – turli guruhlar, toifa va qatlamlardagi kishilarning manfaatlarini ifodalab, ijtimoiy hayoti va faoliyatini tartibga solib. Xarakterga keltiradi, g‘oyalarning ro‘yobga chiqishiga xizmat qiladi. G‘oya – maqsad bo‘lsa, mafkura uni amalga oshirish usuli – vositasidir. Boshqacha aytganda, inson yoki millatning asosiy maqsadlari g‘oyalarda namoyon bo‘lsa, uni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ishlarning mazmuni - mohiyati mafkurani tashkil etadi. Mafkuralar o‘z mohiyati va ta‘sir kuchiga ko‘ra, jamiyatni birlashtirishi yoki uni qarama-qarshi taraflarga bo‘lib yuborishi, xalqlarni yuksaklikka ko‘tarishi yoki tanazzulga duchor etishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy g‘oyalar transformatsiyasining milliy g‘oya bilan o‘zaro bog‘liqligi va milliy g‘oya asoslarini ma‘naviy merosimiz, tarixiy jarayonlarimiz tashkil qilargan ekan uni yanada yuksak bosqichga ko‘tarish, zamon va davr talablariga moslashdan iboratdir. Demak, ma‘naviyat miliy g‘oyaning shu quroli sifatida jamiyat ijtimoiy hayotini, maqsad va rejalarini, ularni amalga oshirish usul va tamoyillarini aks ettiradi. Biz jamiyatni ma‘naviyat va milliy g‘oyaning uyg‘unligini ta‘minlagan holda haqiqiy demokratik, fuqarolik jamiyatiga aylantirishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy g‘oyalar transformatsiyasi va milliy g‘oyaning uyg‘unligini o‘rganishda prezidentiz Shavkat Mirziyoyevning ijtimoiy g‘oyalar va milliy g‘oya bo‘yicha ta‘limotlari nazariy metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Milliy g‘oya va ma‘naviyat ajralmas umumiylikka ega bo‘lib, bir- birini to‘ldiradi, birgalikda rivojlanadi va ijtimoiy hayotning ma‘naviy- ma‘rifiy ehtiyojini qondiradi. Milliy g‘oyasiz ma‘naviy hayot jozibasiz, xarakatsiz. Ta‘sirchanligi yo‘q ma‘naviy bo‘liqqa aylanib qoladi. Ma‘naviyat va milliy g‘oyaning uyg‘unlashuvi qonunlarni ishlashida, iqtisodiyotning rivojlanishida, siyosatni samaradorligida, fuqarolarning faollashuvi va birlashuvida harakatga undovchi kuch sifatida ijtimoiy jarayonlarda katta rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy g‘oyalar transformatsiyasining milliy g‘oya bilan o‘zaro bog‘liqligi ma‘lumki ma‘naviyat bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lib, ma‘naviyat inson ruhida azaldan yaxshilikka, ezgulikka va go‘zallikka bo‘lgan intilish tuyg‘ularini shakllantirib kelgan. Ayni paytda ma‘naviyat nafaqat insonning ichki botiniy ruhiy salohiyati bilan birga, u insonni, jamiyatni harakatga keltiruvchi, yaratuvchilikka undovchi, insonning ruhiy-axloqiy ehtiyoji hamdir. Tarbiya jarayonida bu tuyg‘u qancha ko‘p rag‘batlantirilsa, kuchaytirilsa, insonning ma‘naviy dunyoqarashi shunchalik kamol topib boraveradi. I.Karimov ta‘kidlaganlaridek, “O‘llohning o‘zi bizga buyurgan komil inson bo‘lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarining

ma‘no – mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lish, ularga amal qilib yashash – odamzotning ma‘naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi” [8].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 9 sentyabrda “Ma‘naviyat va ma‘rifat jamoatchilik markazi faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2006 yil 25 avgustdagi “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qarori bu borada olib borilayotgan islohotlarning davomiyligini ta‘minlash va ularni yanada takomillashtirish maqsadida mamlakatimizda demokratik jamiyat qurishda amalga oshirilayotgan islohotlarda uning nechog‘lik ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir.

Shuningdek, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi huzurida “Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti” tashkil etilib, ularga quyidagi vazifalar yuklatildi:

- milliy g‘oya va mafkura masalasi bilan bog‘liq dolzarb muammolarni, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish va baholash, ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, ularning aholi turli qatlamlariga ta‘sirini o‘rganish, milliy manfaatlarimiz, hayot tarzimizga zid zararli g‘oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish;

- bugungi kunda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, keng ko‘lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini sharhlash va tushuntirish, yurtimizga qarshi qaratilgan g‘oyaviy va informasion xurujlar, ularning ortida turgan kuchlarning g‘arazli maqsadlarini fosh qilish, odamlarni hushyorlikka va ogohlikka da‘vat etish, olimlar, siyosatchilar, ijodkor ziyolilar ishtirokida joylarda samarali targ‘ibot tizimini yo‘lga qo‘yish;

- sog‘lom turmush tarzi, millatlararo totuvlik, o‘zaro mehr- oqibat muhitini mustahkamlash bo‘yicha ma‘naviy-ma‘rifiy dasturlarni amalga oshirish[9].

Ta‘kidlash lozimki, ijtimoiy-g‘oyaviy va ma‘naviy-ma‘rifiy sohadagi islohotlarni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e‘tirof etilishi, ma‘naviyat va ma‘rifatning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohadagi barcha muammolarni hal etishdagi roli va o‘rning ortib borishi, milliy ma‘naviyatning milliy g‘oya va mafkura bilan uyg‘unligi kabi masalalar istiqbol davri ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida sifat jahatdan yangilanish, poklanish va barqarorlashuvning shakllanayotganligidan dalolat beradi. Xalqimizning ijtimoiy g‘oyalar transformatsiyasi taraqqiyotida qadimiy madaniy meros va milliy ma‘naviy qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Shunga ko‘ra, milliy g‘oyaning rivojlanish darajasi va ko‘lami boy tarixiy merosimizni kishilarimiz tomonidan nechog‘lik o‘zlashtirishiga bog‘liq. Bu boradagi ishlarda mamlakatimizdagi g‘oyaviy ta‘lim-tarbiya, targ‘ibot-tashviqot sohasi mutaxassillarining nazariy va amaliy faoliyatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ijtimoiy g‘oyalar transformatsiyasi milliy g‘oya va mafkuramiz nazariy qoidalarining shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy tarixiy tayanch nuqta, u kuch-quvvat olib turadigan maskan, real zamin –o‘zimizning jonajon O‘zbekistonimizdir. Milliy g‘oyalar, nazariy qoida va xulosalarning Vatanimiz, xalqimiz va davlatimiz taraqqiyotiga qanchalik ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mafkuramizning xalqni-xalq millatni-millat qilishdagi, odamlarni jiplashtirish, safarbar qilishdagi roli va ahamiyatining asosiy yo‘li va birdan bir sharoiti ularni keng jamoatchilik tomonidan qanchalik chuqur va mukammal o‘zlashtirilib olinib hayotga oqilona tadbir etilishidir. Ijtimoiy g‘oyalar yig‘indisi bo‘lgan milliy g‘oya axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Har qanday axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiya muayyan g‘oyani himoya qilish, targ‘ib etish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Shunday ekan, barkamol avlodni tarbiyalashda milliy

g'oyani xalq ongiga singdirish bevosita ma'naviyat bilan ham bog'liqdir. Ana shu milliy g'oyani amalga oshirishda ma'naviy sohasida bajaradigan vazifalarni belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Xususan, an'anaviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o'zligimizni chuqurroq anglash. Milliy g'oya va milliy mafkurasi tamoyillarini o'zligimizni chuqurroq anglash, milliy g'oya va milliy mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni sohtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yimaslik – bu boradagi asosiy vazifalarimizdandir. Ijtimoiy-ma'naviy yangilanishdan, asosiy muddaomiz, barkamol insonni tarbiyalash, xalqlar, millatlar o'rtasida totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi qator ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy masalalardan iboratdir.

Xalqning ma'naviyati yuksalishi, ijtimoiy faolligi kuchayib borishi, ijtimoiy g'oyalar transformatsiyasining shakllanishi milliy g'oyaning jamiyat hayoti va taraqqiyotiga ta'siri ortib borishiga imkon yaratgan sub'yektiv omildir. Bu omil tarixiy xotirani tiklash, vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish, milliy meros, qadriyatlar, an'analar va urf-odatlarini rivojlantirish, fuqarolarda milliy burch va mas'uliyat tuyg'usini kuchaytirish, rivojlangan demokratik davlatlarning yutuqlarini o'rganish va hayotda ijobiy qo'llash, madaniy. Tarbiyaviy, ma'rifiy tadbirlarni keng yo'lga qo'yish asosida amalga oshadi. Bu esa milliy g'oyani anglash, uning asosida yotgan vazifalarni bajarishni tezlashtiradi.

Milliy g'oya bir millat – o'zbeklarning manfaati bilangina bog'langan emas, balki O'zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millat xalqlarini respublikamizni o'zining jonajon Vatani deb bilgan, u bilan faxrlanadigan barcha millatlarning teng huquqliligini, qadr-qimmatini, or – nomusi va milliy g'ururini himoya qilish milliy g'oya rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Milliy g'oyaning asosiy tayanch nuqtasi ham, harakatga keltiruvchi, uyg'otuvchi kuchi ham milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy g'oyalardir. Millat o'zini xalq sifatida, millat sifatida, el sifatida anglamagunicha uning obrui, qadr-qimmatini, or-nomusi haqida qayg'urishi, milliy faxr va g'ururi haqida kurashishi mumkin emas. O'zlikni anglash xalqni g'aflatdan uyg'otuvchi, faol harakatga keltiruvchi, ijtimoiy uyushtiruvchi kuch ijtimoiy g'oyalardir.

Xulosa qilganda, milliy g'oya insonlarda milliy ma'naviyat, madaniyatning, milliy ongning, milliy g'urning o'sishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, u xalqimiz va millatimizning kuch-qudrati va imkoniyatlariga, g'oyaviy-siyosiy jihatdan bir butun va yaxlitligiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan mahalliylik, guruhbozlik, kabila – urug'chilik munosabatlariga qarshi murosasiz kurash olib borishga keng jamoatchilikni da'vat etadi. Milliy g'oya milliy hamkorlik, milliy hamjihatlikning kuchayishiga ko'maklashadi.

ADABIYOTLAR

1. Отамуратов С. Миллий ривожланиш фалсафаси –Т.:Адолат, 2005. – Б. 24.
2. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси –Т.:Ўзбекистон, 2014. – Б. 22-23.
3. Хўжамуродов И., Суванов И. Миллий ғоя ва ўзликни англаш –Т.: Чашма-Принт МЧЖ, 2014. – Б. 7.
4. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик – Т.:Ўзбекистон, 2013. – Б. 154.
5. Мамашокиров С., Тоғаев Ш. Эркин ва фаровон ҳаёт қурилишининг ғоявий - мафқуравий масалалари – Т.:Маънавият, 2007. – Б. 10.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч –Т.:Маънавият, 2013. – Б.75.
7. Эргашев И. Сиёсат фалсафаси –Т.: Академия, 2004. – Б. 75.
8. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч –Т.:Маънавият, 2013. – Б. 25.
9. Тўраев Ш. Демократик жараёнлар ва миллий ғоя – Т.:Маънавият, 2008. – Б. 89.



*Shavkat NORMO‘MINOV,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*

Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti v/b, (PhD) O.Eshmuradov taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE ACTIVITY IN EDUCATION AND COGNITIVE ACTIVITY

Annotation

This article discusses the possibility of developing students' creative activity, independent search for information, analytical skills, and the elimination of interference factors that prevent the development of listening comprehension skills in accordance with the content of educational goals.

Key words: Higher education, quality, cognitive sphere, development of creative activity, creativity, creative activity, cognitive activity, creative abilities.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАНИИ И ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье рассматривается возможность развития творческой активности учащихся, самостоятельного поиска информации, аналитических способностей, а также устранение мешающих факторов, мешающих развитию навыков понимания на слух в соответствии с содержанием образовательных целей.

Ключевые слова: Высшее образование, качество, познавательная сфера, развитие творческой активности, креативность, творческая деятельность, познавательная деятельность, творческие способности.

TA'LIM VA KOGNITIV FAOLIYATDA TALABANING IJODIY FAOLLIQI RIVOJLANISH

Аннотация

Ushbu maqolada talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirish imkoniyatlari axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish ko'nikmalari hamda tinglab tushunish malakalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi interferension omillarni ta'limiy maqsadlar mazmuniga mos ravishda bartaraf etish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, sifat, kognitiv soha, ijodiy faolligini rivojlantirish, ijodkorlik, ijodiy faoliyat, bilish faoliyati, ijodkorlik qobiliyatlari.

Kirish: Oliy ta'lim tizimida qanday o'zgarishlar ro'y bermasin, uning asosiy muammoci – jamiyatda talab etiladigan kadrlarni tayyorlash, shuningdek, yoshlarning ta'lim, ma'naviy kamolot hamda intellektual kacbiiy ehtiyojlarini taminlashdan iboratdir. Har doim har qanday sharoitda ijodiy, nostandart yondashishga qodir bo'lgan mutaxassislar taqdirlangan, shu sababli ijodiy faol talabani shakllantirish ma'alacii dolzarb bo'lib kelgan hamda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Har qanday pedagogik hodici uning muhim xususiyatlarini tushunish uchun ko'rib chiqishda uni dialektik taraqqiyotda taqdim etish lozim. Oliy o'quv yurti muassasalarida ta'lim mazmunini qayta qurish, mutaxassislar tayyorlashning yangi, samarali shakllarini izlab topish bevosita talabalarning bilish faoliyatini jonlantirish bilan bog'langandir. Hozirgi davrda talabalarning bilish faoliyatini jonlantirish muammosi o'z mohiyatiga ko'ra falsafa, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, xususiy metodika fanlari vakillarining dolzarb ilmiy-tadqiqot obyeki bo'lib qolmoqda [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek olimi X.X.Tlashevning tadqiqotlarida o'rta asr olimlarining didaktik qarashlari umumlantirilgan holda tahlil qilib berilgan. Xorazmiy, Kindiy, Farobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom va ularning boshqa zamondoshlarining ilmiy dunyoqarashi hamda bilimlar manbai va obyeki tahlilidan ayon bo'ladi. Bilish jarayoni qanday bosqichlardan tashkil topgan hamda bilish va amaliy faoliyat o'rtasida qanday munosabatlar mavjud degan savol ularni doimo qiziqtirib kelgan.

Sh.S.Sharipov "Talabalar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi hamda amaliyoti" nomli

doktorlik dissertatsiyasida "Talabalar ijodiy faoliyatini tashkil etishda ikki o'zaro bog'liq vazifani e'tiborga olish kerak. Ularning birinchisi – ilmiy dunyoqarashini shakllantirishi bilan, talabalar ijodiy faoliyatida mustaqil fikrlashni takomillashtirish, bilim egallashdagi intiluvchanligi, ikkinchisi – o'zlashtirgan bilimlarni ta'limda hamda amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish bilan belgilanadi" – deb ta'kidlaydi. Sh.S.Sharipovning keltirib o'tgan vazifalariga tayangan holda talabalarning nafaqat kacbiiy ijodkorligini, balki ijodiy faoliyat jarayonini bolalarning kichik yoshidan boshlab shakllantirish, boshlang'ich cinfdi o'qish davri mobaynida ularning tacavvurini boyitish orqali aqliy ko'nikmalarini takomillashtirib borish, o'z oldiga qo'yan maqsadiga erishishlarida turli echimlarni topib, to'g'ri qaror chiqarish ko'nikmalariga odatlantirish orqali tashkil etish mumkin degan xulosaga kelgan [2].

Ba'zi tadqiqotchilar, bunday vazifalarning didaktik maqsadi, ularning yordami bilan, muammoli o'qitish uslubini yaratish asosida uning kognitiv faolligini faollashtirishda, deb hisoblaydilar.

Boshqalar yesa, ikkinchi turdagi kognitiv vazifalarning didaktik maqsadini o'qitishda muammolikning didaktik tamoyilini amalga oshiradi.

Ikkinchi turdagi kognitiv vazifalarning maqsadini aniqlashga biroz boshqacha yondashuvlarga qaramay, ularning ba'zi umumiy xususiyatlari ajratilgan va shakllangan [2].

1.Kognitiv vazifalarni hal qilish haqiqiy obyektarni o'rganish bilan bog'liq, aniq aloqalar, bog'liqliklar va o'zaro ta'sirlarni aniqlash va ko'rib chiqish to'g'ridan -to'g'ri kuzatiladigan xususiyatlar chegarasidan chiqib ketishni o'z ichiga oladi.

2. Kognitiv vazifalarni shakllantirishda, har qanday faktni tushuntirish, oxir -oqibat, ba'zi bir aniq hodisalar, jarayonlar xususiyatlariga bog'liq bo'lishi kerak.

Kognitiv vazifalarni shakllantirish shunday tuzilganki, bu yechim mavjud bilimlarning maksimal miqdorini yangilashni talab qiladi.

Uchinchi turdagi kognitiv vazifalarning mohiyati shundan iboratki, o'zlarining kognitiv harakatlarini ma'lum tarzda tashkil yetish zarurati bilan duch keladilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Kognitiv faoliyatning asosiy motivi kognitiv qiziqish bo'lishi lozim, uning paydo bo'lishi nafaqat dactur materialining muvaffaqiyatli o'zlashtirilishini ta'minlash vocitaci, balki o'rganish maqsadi hamdir. Shuningdek, kognitiv qiziqishning etarlicha kuchli bo'lishi juda muhimdir. Kognitiv qiziqishning intencivligini aniqlash birinchi qarashda ko'rinadigan darajada oson emas. O'qituvchining talabalarning "uy laboratoriyasiga" kirishga imkoni yo'q, guruhda hamda dars jarayonidan tashqari mashg'ulotlarda passivlik yuz berishi ba'zan talaba fazilatlarining natijasi bo'lishi mumkin: uyatchanlik, kamtarlik hamda boshqalar.

Kognitiv qiziqishni ijodiy faoliyatni takomillashtirish elementi sifatida ko'rib chiqib, quyidagi xulocalarga kelish lozim.


kognitiv qiziqish paydo bo'lganda, ta'lim jarayoni yaqin, hayotiy faoliyatga aylanadi, bunda talabani o'zi bevocita qiziqadi;

faol kognitiv qiziqish – bu talabani muctahkam hamda ishonchli asosini yaratadigan ta'limning eng muhim motivlaridan biridir;

talabalarning bilimga bo'lgan qiziqishi ularning faol faolligi uchun ichki manbalar bo'lib sanaladi. Demak, o'qituvchining oldidagi acociy vazifalaridan biri – o'quv jarayonida talabalarning kognitiv, ijodiy faol qiziqishlarini takomillashtirishdir [1].

Kognitiv qiziqish - bu qiziquvchanlik, o'rganilayotgan mavzuga chuqur kirib borish ictagi, uni boshqa o'quv fanlari bilan solishtirish, xulosalar chiqarish, yangi savollarning paydo bo'lish jarayonidir. Agar bu fazilatlar etarli darajada takomillashmaga, muvaffaqiyatli ta'lim haqida gap bo'lishi mumkin emas. Bu kognitiv qiziqish dunyoga, bilish jarayoniga bo'lgan faol munosabatni belgilaydi. Olimlarning fikricha, qiziqish shaxcning qoniqish keltiradigan muayyan faoliyat bilan shug'ullanishning zarurati sifatida namoyon bo'ladi; qiziqish, talabani faolligini rag'batlantiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi, bunda barcha psixologik jarayonlar jadallik bilan rivojlanadi hamda bu faoliyat ijodiy xarakterga ega bo'ladi, ayniqsa samarali bo'ladi. Qiziqish hamma psixologik jarayonlar hamda vazifalarga katta ta'sir ko'rsatadi: e'tibor, xotira, idrok, iroda kognitiv faoliyat psixologik hamda pedagogik materiallarda talabani ijtimoiy faoliyati sifatida qaraladi [2].

Когнитив фаолият талабанинн ижтимоий фаолиятининг бир тури сифатида куйидагича тавсифланади:



Kognitiv faoliyatning mualliflar tomonidan ko'rsatilgan individual holatlari bir-biriga zid emas, balki konsepsiyaning muhim jihatlarini to'ldiradi. Bu yondashuvlarning integratsiyasi kognitiv jarayonning manbai talabani bilim olish, mavjudlarini takomillashtirish, o'zini namoyon etish, jamiyatning ma'naviy madaniyatini anglash hamda o'zini anglash zarurati ekanligini ta'ciqlash asosida amalga oshadi. Ehtiyoj – bu mavzuni faol bo'lishga chaqiradigan boshlang'ich jarayondir. Biroq, ba'zi bilim ehtiyojlarini qondirish yangilarining paydo bo'lishiga olib keladi, ammo bu ehtiyojlar ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi.

Afsuski, tabiat hech qanday bilim, amaliy ish ko'nikmalari, faoliyat ucullari bilan taqdir lamagan. Ular, har xil darajada bo'lishi mumkin, ma'lum bir faoliyat turi uchun potensial tabiat tomonidan mukofotlanadi. Masalan, moyilliklarning shaxciy tug'ma farqlari bor, shu cababli

kimdir bir faoliyatni egallash qobiliyati jihatidan boshqalardan uctun bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, boshqa faoliyatni egallash qobiliyati bo'yicha ulardan past bo'lishi ham mumkin. Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay moyillikka ega bo'lgan shaxc, hamma narsa teng bo'lsa ham, muciqaga qaraganda tezroq takomillashadi hamda bunday qobiliyati bo'lmaganlarga qaraganda katta yutuqlarga erishishi yuqori bo'ladi [3].

Ta'lim kognitiv faoliyatining boshqaruvi talabarni ma'lum operatsion tafakkur turlarini shakllantirish va ularning asosida tahlil, sintez, umumlashtirish kabi asosiy aqliy funksiyalarni rivojlantirish orqali kognitiv harakatlar tizimlarini hal qilish jarayonida aktualizatsiya qilishni ta'minlaydi.

Kognitiv vazifalarning mohiyati va mumkin bo'lgan mazmunini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ular talabani o'rganish obyektidan o'z mavzusiga o'tkazish shartlarini aniqlaydi. talabani ta'lim ma'lumotlari bilan bevosita

aloqasini nazarda tutadi. Shu bilan birga, bu o'zaro ta'sirning ko'pchilik didaktistlar ta'kidlaganidek, ko'p jihatdan ta'limiy ma'lumotni bilish vazifasida taqdim yetish uslubiga bog'liq [4].

Shu munosabat bilan shuni ta'kidlash joizki, bilishda axborotni taqdim yetishning deduktiv va induktiv usullari ajratiladi. Mantiqan, induksiya va deduksiya xulosaning shakllari sifatida tushuniladi, ular orqali ma'lum xulosalar chiqariladi, oqibatlari, mavjud yangi bilimlarni olish shakllari belgilanadi.

Xulosa va takliflar. Biz Kovalevaning "moyillik qanchalik hayratlanarli bo'lmacin, ular o'z-o'zidan rivojlana olmaydi, faoliyatdan tashqari, ta'limdan tashqari, qobiliyat faqat ishda namoyon bo'lmaydi, ular "harakatcizlikda" shakllanadi, rivojlanadi, faollikda gullab-yashnaydi hamda halok bo'ladi" degan qarashlariga qo'shilamiz.

Ammo, biz ishonamizki, insonning ma'lum bir faoliyatini bajarish qobiliyati har doim ham yoshlik paytida mavjud bo'lmaydi. Shuning uchun uni bir yo'nalishda takomillashtirish juda xavflidir, chunki u qandaydir jarayonni ko'rsatadi. Shunday qilib, biz boshqa faoliyat sohalarini bilan shug'ullanish uchun vaqt hamda kuch sarflaymiz. Qobiliyatlarni har tomonlama rivojlantirish lozim, bu juda chuqur qobiliyatlarni yashirishga imkon beradigan holat [3].

Talaba har doim biror narcani bilmaydi, "nimadir" bilmaca, qanday qilib "buni" o'rganishi mumkin degan savol paydo bo'ladi? Shuningdek, talaba o'z-o'zini tarbiyalash rejacini tuzishi mumkin, agar u bu sohada zarur bilimlar zahirasiga ega bo'lsa, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha eng kam, ammo etarli umumiy tacavvurga ega bo'lsa natijaga erishadi. Intellektual qobiliyatlarning rivojlanishi talabani rivojlantirish psixologiyacining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. O'qituvchi buni faqat etarli darajadagi malakaga ega bo'lsagina amalga oshirishi mumkin: talabalarning ijodiy rivojlanishining umumiy psixologik, pedagogik muammolarini anglash, ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish ucullari hamda texnikacini egallash, bunday ishga tayyorlik, o'z intellektual salohiyatining rivojlanish darajasi hisoblanadi [6]. Mahalliy pedagoglarning ishiga asoslanib, biz intellektual qobiliyatni talabani ajralmas qismi deb hisoblaymiz, bu uning yo'nalishida namoyon bo'ladi (kognitiv qiziqishning namoyon bo'lishi, kognitiv motivasiyaning uctunligi, bilimga intilish, qiziquvchanlik); qobiliyatlarda (muammolarni his qilish qobiliyati, ravonlik, stereotiplarni engish qobiliyati, fikrlashning moslashuvchanligi); xarakterda (tashabbuskorlik, noaniqlikka bag'rikenglik, o'ziga xoslik, tushuncha).

ADABIYOTLAR

1. Ergashev P, Gozibekova G, Baykunusova G. Talabalarda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning uslubiy jihatlari (uslubiy qo'llanma). – T., 2013
2. Sharipov Sh.S. Kasb-hunar ta'limida talabalar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya. –Toshkent: Fan, 2005. –140 b.;
3. Davletshin M.G. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: O'qituvchi, 1997. – 134 b.
4. Eshmurodov, O. (2022). Oila mustahkamligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari.
5. М. А. Тилакова, & О. Э. Эшмуратов (2021). Креатив кобилиятларни ривожлантириш механизмлари. Scientific progress, 1 (6), 143-149.
6. Jabborov, X., & Eshmuradov, O. (2023). Шарқ мутафаккирлари ишларида миллий тарбия масаласи. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8394>



UDK:37.013.46

Raviyajan NURADDINOVA,
Urganch davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti.
E-mail: ravyajon.n@urdu.uz.

Urganch davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD) Q. Karimova taqrizi asosida

THE ISSUE OF SCIENCE'S ETHICAL STANDARDS IN THE PEDAGOGICAL VIEWS OF ABU RAYHAN BERUNI

Annotation

This article explores the pedagogical aspects of the moral ideas of Abu Rayhan Beruni about the structure of human self-awareness in social existence, self-education, etiquette of a teacher and student, the process of acquiring new knowledge, and new scientific discoveries.

Key words: Moral and intellectual activity, feelings, self-defense, instincts, science, hatred and envy, scientific discoveries, culture of high tolerance, conflict and hostility, irrationality.

ПРОБЛЕМА ЭТИЧЕСКИХ НОРМ НАУКИ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогические аспекты нравственных идей Абу Райхана Беруни о структуре самосознания человека в социальном существовании, самовоспитании, этикете учителя и ученика, процессе приобретения новых знаний, новых научных открытиях.

Ключевые слова: Моральная и интеллектуальная деятельность, чувства, осамозащита, инстинкты, наука, ненависть и зависть, научные открытия, культура высокой толерантности, конфликтность и вражда, иррациональность.

ABU RAYHON BERUNIYNING PEDAGOGIK QARASHLARIDA ILM VA FAN AXLOQI ME'YORLARI MASALASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Abu Rayhon Beruniyning inson kamoloti bosqichlari, ijtimoiy borliqda insonning o'z-o'zini anglash strukturasi, o'z-o'zini tarbiyalash, ustoz va shogird odobi, ilm-fan bilan shug'ullanuvchi kishilarga cheksiz xazinaga ega bo'lish, yangi ilmiy kashfiyotlarni qo'lga kiritish hamda ilm egallash borasidagi axloqiy g'oyalarning pedagogik jihatlarini ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Axloqiy va aqliy faoliyati, sezgilar o'ljani ovlash, o'zini himoya qilish, instinktlar, ilm-fan, nafrat va hasad, ilmiy kashfiyotlar, yuksak bag'rikenglik madaniyati, nizo va adovat, aqlsizlik.

Kirish. O'zbek halqining ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining takomillashuvida pedagogik, ilmiy, gumanistik muammolarni o'rganishga, bugungi axborot rivojlangan davrda jamiyat a'zolarini, ayniqsa, yoshlarni bunyodkorlik g'oyalar orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan pozitiv munosabatini mustahkamlashga doimiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Abu Rayhon Beruniy kamolot bosqichlari, ijtimoiy borliqda insonning o'z-o'zini anglash strukturasi, o'z-o'zini tarbiyalash, ustoz va shogird odobi, ilm egallash borasidagi axloqiy g'oyalarni pedagogik jihatdan tahlil qilish bugungi kunda globallashuv jarayonida keng ildiz otgan "egoizm", "axloqiy buzuqlik", "ksenofobiya" kabi illatlarga qarshi kurashishda konstruktiv ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ilmiy, ma'naviy, madaniy sohalaridagi islohotlar natijasida jahonga mashhur allomalarimiz, mutafakkirlarimiz ilmiy-ma'naviy merosini, ularning pedagogik g'oyalarni o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim"[1]. SHu jihatdan ham, ajdodlarimiz ma'naviy merosining o'rganish va uni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Abu Rayhon Beruniyning serqirra ilmiy merosida uning axloqiy qarashlari alohida o'rin egallaydi. Alloma ba'zi asarlarining muayyan qismigina bizgacha etib kelgani tufayli allomaning qalamiga

mansub axloqqa bag'ishlangan alohida asarlari bo'lgan yoki yo'qligini aniq aytish imkonsizdir.

Beruniyning fikricha, inson – tabiatdagi mavjudodlar ichida oliy mavjudot xisoblanadi, "odam zoti barcha hayvonlardan fikrlashi, va ba'zi bir xususiyatlari bilan yuqori darajada ustundir, unga iltifot ko'rsatilgan – aql kuchi in'om etilgan, Erni gullab-yashnatish va unda boshqaruvni o'rnatish uchun"[2]. Shu boisdan ham, inson eng avvalo yuksak axloqli, ta'lim ko'rgan bo'lishi, uning ma'naviy qiyofasi o'zining bilimi va ma'naviyatlilik maqomiga muvofiq bo'lishi zarur. Alloma inson axloqiy va aqliy faoliyati, jihatlarini uning o'zidan izlagan va mutafakkirlar kabi inson shaxsining ba'zi bir xususiyatlarini tabiatidan keltirib chiqargan. "Hayvonlarda sezgilar o'ljani ovlash va o'zini himoya qilishda vosita sifatida yaratilgan bo'lsa, inson zoti barcha hayvonotdan ustun turadi. Chunki unga yuksak sharaf ato etilgan. Unga mukofot etib aql kuchi berilgan. Chunki inson ana shu kuchning makoni bo'lib izzat topgan".[3] Mutafakkirni ta'kidlashicha, odamlar qiyofasiga ko'ra bir-biriga ba'zi bir o'xshash, ayni bir paytda, o'zaro farqli jihatlanish holatlari ham uchraydi. Bunday farqlar ularning ba'zi bir instinktlari, ularning xarakteri va xususiyatlari va fe'l-atvorlaridan kelib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shaxsning qiyofasi ya'ni ahloqiy-ma'naviy jihatlarini uni yashayotgan oila yoki ijtimoiy muhitdan va boshqa odamlar bilan munosabat va muloqotlar asosida shakllanadi va rivojlanadi. Beruniy ilm-fan bilan shug'ullanuvchi kishilarga cheksiz xazinaga ega bo'lish, yangi ilmiy kashfiyotlarni qo'lga kiritish uchun qimmatli maslahat va tavsiyalar bergan. Beruniy bu borada shunday deydi:

Haqiqiy ilm bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan olim yomon ishlardan, nafrat va hasaddan uzoq bo'lishi kerak. O'zgalarga havas qiladigan, kasbdoshining ilmdagi yutug'idan xursand bo'lmagan odam, hech qachon ilm cho'qqisiga chiqa olmaydi va cheksiz bilimga ega bo'lmaydi. Ilm bilan shug'ullangan odam ma'naviyatlidir. Ma'naviy-ruhiy kasallar haqiqatni tushuna olmaydi. Ularning qalblari yopiq, quloqlari esa kar. Shu yo'l bilan o'zgalardan ustun bo'lishga urinib, nafsining quliga aylanganlar har qancha ilm bilan shug'ullanmasin, hech narsaga erisha olmaydi. Binobarin, hamma ham olim bo'lavermaydi, ilm-fanning nozik tomonlarini o'zlashtira olish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Ilm bilan shug'ullanish mashaqqatli ish. Olim haqiqatni o'rganayotganda eng to'g'risini tanlab, avvalgi olimlarning ishlarini o'rganib, ular bilan solishtirib, to'g'ri yoki noto'g'ri yo'lda ekanligini aniqlashi kerak. Olim chala izlanishdan yiroq bo'lishi, izlayotgan narsasini oxirigacha tadqiq qilishi va o'sha paytda o'zi to'g'ri deb bilganidan to'g'risini tanlab, jamiyatga foyda keltiradigan ilmiy yangiliklarni taqdim etishi kerak. Beruniy asarlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ularning barchasida uning Allohga bo'lgan muhabbatiga guvoh bo'lamiz. Uning ilmiy izlanishlari va diniy bilimlari bir-biri bilan birlikni tashkil qiladi. Beruniyning diniy bilimlarni ilmiy bilimlar va tabiiy fanlar bilan uyg'unlashtira olishi Beruniyning eng yirik ilmiy kashfiyotlarida muhim o'rin tutgan. Diniy sevgi bilan u tortishish kuchini topdi va dunyo ekvatorining uzunligini hisobladi.

Axloq - bu inson irodasini o'rganadigan inson tarbiyasining amaliy qismidir. Axloq nafaqat mumkin bo'lgan maqsadlar bilan shug'ullanadi va balki bunday maqsadga muvofiq faoliyat olib borishga undaydi. Beruniyning fikriga ko'ra, axloq bu ma'naviy-ruhiy tarbiyaning amalda samarali texnologiyasini yaratish qobiliyatidir.

Tahlil va natijalar. Beruniy insonning xatti-harakatlari zaminida ehtiyojlarga katta o'rin bergan. Inson o'zining yalang'ochligi va ojizligi tufayli, himoya organlarining yo'qligi tufayli, boshqalar tomonidan sinovga tortilib, doimo himoyaga zarurat sezib yashaydi va doimo ehtiyojlarini qondirish uchun zarurat sezadi. Olinga ko'ra, bunday ehtiyojlar xilma-xil va ko'p, faqat bir qancha insonlarning jamoasigina uni qondirishi mumkin. Buning uchun odamlar shaharlar tuzishga zarurat sezadilar. Gap shundaki, odam ehtiyojlarning ko'pligi, himoya vositalarining cheklangani sharoitida tiyilmaslik va dushmanlarining ko'pligi oqibatida o'z tug'ishganlari bilan o'zaro qo'llab-quvvatlash maqsadida jamiyatga birlashishga majbur bo'lgan. Beruniy odamlarni bilim, qobiliyat va axloqiga ko'ra o'zlari munosib bo'lmagan yuqori joylarni egallashga intilishlari kabilarni og'ir illatlar sifatida talqin etgan. "Xushmuomalalik, mehr, qat'iyatlik, toqatlilik va kamtarinlik" [4] kabilarni alloma yuksak axloqli inson fazilatlarini deb bilgan. Mutafakkir o'g'irlik bilan boylik orttirib, barcha axloqiy me'yorlarga bepisand bo'lib yangi yuqori lavozimlarga intilgan kishilarni nafrat bilan muhokama qilgan. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida faylasuf o'zi yashagan davrdagi muhitga nisbatan salbiy munosabatini ochiq bayon qilgan, dushmanlik, o'zaro nafrat keltiradigan pul va boylik inson qadrini o'lchaydigan asosiy mezon bo'lib qolayotganidan nadomat qilgan.

Beruniy mulkiy tengsizlik va uning oqibatlari xususida ham mustaqil qarashlariga ega bo'lgan. Alloma o'z shaxsiy hayotida sodir bo'lgan, uning o'zi saroydan quvib yuborilgan og'ir kunlardagi holatini eslab shunday yozgan: "Yuksak poytaxtdan ajralib oliyjanob xizmat baxtidan mahrum bo'lgan kunlarimda, men yulduzlar haqidagi ilm sohasi olimi deb qaraladigan bir odamni ko'rib qoldim. Biroq uning qarashlari voqelikka zid edi. SHunday bo'lsa-da, u odam menga bepisandlik bilan qarab, burnini ko'tardi, garchand, u bilimiga

ko'ra men turgan bosqichdan quyida edi; u mening so'zlarimni yolg'on deb e'lon qildi, meni toptashga kirishdi va mendan ustunlik qilishga urindi. Bizning o'rta zamonda boylik va qashshoqlik borasida shunday farq bor ediki, axloqiy fazilatlar illatlarga, maqtanishga arzigulik narsalar tahqirga nishon bo'lar edi; binobarin, men u vaqtda barcha munosabatlarida sinovlarga tortilgan va ko'nglim g'ash holatda edim. Oxir-oqibatda u odam sinovlarim birmuncha engillashganidan so'ng mening haqligimni tan oldi"[5].

Alloma o'z muhitiga mos ravishda hukmdorlar, hokimiyatning vorisiyligi, xususiy mulk va bunday kelib chiqadigan oylik va kambag'al qatlamlarning mavjud bo'lishini tan olgan. Ammo, ayni paytda, bunday bo'linish insonga nisbatan zo'rlikni oqlamasligini ta'kidlagan va qashshoq qatlamni turli ne'matlar bilan rag'batlantirish zarurligini talab qilgan. "Biri boshqasini ishchi qilib olsin, ya'ni u doim adolatli shartnoma asosida munosib haq evaziga uning uchun mehnat qilsin".[6]

Xulosa va takliflar. Beruniy har qanday ko'rinishdagi zo'ravonlik, shafqatsizlik, nafaqat ijtimoiy, balki axloqiy nuqtai nazardan ham hokimiyatni suiiste'mol qilish shakllarining ashaddiy dushmani bo'lgan. "Zo'rlik va yollash orqali amalga oshiriladigan majburiy mehnat vaqtincha va beqarordir"[7], - deb ta'kidlagan faylasuf.

Insonlar o'z ehtiyojlari va manfaatlariga ko'ra turlichadir, shuning uchun, ular u yoki bu ijtimoiy hodisalarni turlicha tushunadilar. Eng avvalo, bu insonning pirovard maqsadi bo'lgan rohatlanishga taalluqlidir. "Aqlli kishi faqatgina vaqtinchalik bo'lmagan ma'naviy ishlardan huzurlanadi; aqlsiz kishi esa, chinakam qadriyatlarini tushunmagani bois o'z nigohini so'zsiz hayvonni ham quvontirishga qodir turli bezaklar va yaltiroq jihozlar bilan bezatilgan erga qaratadi. Aqlli kishi esa bularning barchasini aql va tafakkur nigohi bilan mushohada qilgandagina ma'naviy qoniqish his qiladi, ayni paytda, beparvo kishi faqat jismoniy rohatnigina his qiladi"[8].

Rohat o'z me'yorlariga ega deb ta'lim beradi mutafakkir. Faqat axloqiy jihatdan etuk inson unga amal qiladi va rohatni chinakam his qiladi. Dunyodan cheksiz ko'p talab qiladigan odamlar uchun esa, "dunyo ajoyibotlari – xunuk, uning go'zalliklari esa – bema'nilikdir" [9]. Haqiqiy inson bunday bo'lmasligi kerak; shaxsiy hayotini ham, ijtimoiy hayotini ham, u aql va adolat talablariga muvofiq qurishi zarur.

Yuksak axloqli va madaniyatli bo'lish insonning o'ziga bog'liq, zero, "o'z xohishlari ustidan hukmron bo'la olgan inson, ularning salbiylarini ijobiy tomonga o'zgartira oladi, u o'z qalbini tarbiyalab, uni ma'naviy muolajalar bilan davolab va sekin-asta axloqiy kitoblarda ko'rsatilgan vositalar orqali illatlardan tozalab boradi".[10]

Ayni paytda, Beruniy oliyjanob, mehr-muruvvatli inson qiyofasiga doir o'zining shaxsiy qarashlarini ishlab chiqqani e'tiborga molik. Uning fikricha, oliyjanoblik musulmonlar uchun shart bo'lgan qoidalarga amal qilishdangina iborat emas, balki uning mazmuni har bir inson boshqa insonga nisbatan faqat yaxshilikni ravo ko'rishida hamdir. "Yaxshilik umuman hamma odamlarga, xususan qarindoshlarga ezgulikni ravo ko'rishda, imkonsizlikda - yaxshi tilaklar bilan, imkoni bo'lganda - ish bilan" [11]. Ushbu fikrda qomusiy olim Beruniy etikasining bosh tamoyili o'z ifodasini topgan, deb dadil aytishga asoslar etarli.

Alloma har bir kishida xudbin jihatlar mavjudligini inkor etmagan. "Insonga eng yaqin o'zining qalbi turadi. U birinchi navbatda ezgulikka munosibdir, undan so'ng esa, uni yaqin atrofidagilardir", - deb yozadi Beruniy. Biroq bunday holat haqiqiy baxt poydevori bo'lgan do'stlikni izlashga monelik qilmaydi. Mutafakkirning ta'lim berishicha, chinakam do'stliksiz haqiqiy baxt bo'lmaydi. "Uning (inson) baxti – munosib hayot kechiradigan, maqtovga loyiq fe'l-

atvoriga ega bo'lgan samimiy do'stadir" [12] Demak, har qanday odam ham do'st bo'lavermaydi, balki o'z davri axloqiy qoidalariga muvofiq hayot kechiradigan, ma'naviy boy, axloqiy tarbiya ko'rgan insongina do'st bo'lishga munosibdir.

Yuksak bag'rikenglik madaniyatiga ega bo'lgan Beruniy xalqlar o'rtasida hech qanday nizo va adovatlar bo'lmasligi kerakligiga urg'u berib, ularga xalqlarning o'zlariga barham berishi zarurligini uqtirgan. Insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar haqida noto'g'ri tasavvurlar bir yoqlama va tor fikrlar, milliy takabburlikdan kelib chiqadi.

"Bu haqiqiy aqlsizlik, aqlsizlik esa dorisi yo'q kasallikdir"[13], - deb ta'kidlaydi alloma.

Xulosa qilib aytadigan bulsak, Beruniy asarlari nafaqat nazariy-amaliy ahamiyatga ega, balki ular yuksak axloq kishilari hamdir. Mutafakkir olimlarni jamiyatdagi yuksak maqomga munosib bo'lishga, jamiyatning boshqa a'zolari uchun o'rnatilgan bo'lishga da'vat etgan, fanda g'arazgo'ylikka yo'l qo'ymaslikka chaqirib, bunday qilmish fanlarning inkor etilishiga va ularning xizmatchilariga nisbatan nafrat uyg'onishiga olib kelishi mumkinligidan ogohlantirgan.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Ўқитувчи ва мураббийлар-янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир.// Халқ сўзи. 1 октябрь 2020 йил. №207 (7709).
2. Абу Райхон Беруний. Қимматбаҳо жавохирлар ҳақида билимлар китоби. "Китоб ал-Жамоҳир ри-Маърират ал-Жавоҳир" (Минералогия) китобидан. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 12
3. Абу Райхон Беруний. Қимматбаҳо жавохирлар ҳақида билимлар китоби. "Китоб ал-Жамоҳир ри-Маърират ал-Жавоҳир" (Минералогия) китобидан. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 8.
4. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар // Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 50
5. Ўша асар. – Б. 53.
6. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 44.
7. Ўша асар. – Б. 222.
8. Ўша асар. – Б. 223.
9. Машарипова Г. Абу Райхон Берунийнинг илмий мероси ва фалсафий қарашлари. Мерос журналі, 2019, № 2. – Б. 28
10. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 333.
11. Ўша асар.– Б. 274.
12. Хандамова М. Абу Райхон Берунийнинг маърифатли жамият ҳақидаги қарашлари // Имом Бухорий сабоқлари журналі, 2022, № 2. – Б. 125.



UDK:371.035:370.

Anvar NURMURATOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: nurmuratov.a.y@gmail.com

SamDCHTI dotsenti, p.f.d (PhD), Lutfilloyeva F.M. taqrizi asosida

O'ZBEKISTON SHAROITIDA MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISH MEKANIZMLARI

Annotatsiya

Maqola yurtimizda masofaviy ta'lim olish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, shuningdek, jahon masofaviy ta'lim tajribasini o'rgangish va bu boradagi tajribalarni jadallashtirish, ushbu sohaning samaradorlik ko'rsatkichlarni ilmiy tahliliga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, masofaviy ta'lim, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, ta'lim texnologiyasi, masofaviy va an'anaviy ta'lim.

МЕХАНИЗМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье основное внимание уделяется условиям, созданным для дистанционного образования в нашей стране, а также изучению мирового опыта дистанционного образования и ускорению экспериментов в этом направлении, научному анализу показателей эффективности этой сферы.

Ключевые слова: Система образования, дистанционное образование, информационно-коммуникационные технологии, образовательные технологии, дистанционное и традиционное образование.

MECHANISMS OF ORGANIZING DISTANCE EDUCATION IN UZBEKISTAN

Annotation

The article focuses on the conditions created for distance education in our country, as well as the study of the world experience of distance education and the acceleration of experiments in this regard, the scientific analysis of the efficiency indicators of this field.

Key words: Educational system, distance education, information and communication technologies, educational technology, distance and traditional education.

Kirish. O'zbekistonning masofaviy ta'lim uchun axborot-kommunikatsion sharoitning yaratilishi va uni amalga oshirish uchun ehtiyojning mavjudligi namoyondir. Mazkur jihat 2000-yillar boshlaridayoq yaxshi tushunilgan, ammo bu jarayonga birdan o'tish imkonsiz edi. Mamlakatimizning maydoni kattaligi va markazdan geografik uzoqlashgan tumanlar mavjudligi elektron ta'limni rivojlanishiga turtki beradi. Hozirgi kunda global o'zgarishlar, yashab turgan asrimizda axborot-telekommunikatsiya yutuqlari qadriyat darajasiga ko'tarilib turgan bir paytda masofaviy ta'limga panja ortidan qarash, keyingi ta'lim tizimimizda oqsashga olib keladi. To'g'ri, masofaviy ta'limni joriy qilish bilan bog'liq ayrim muammolarning kelib chiqishi tabiiy. Shu kunga qadar yurtimizda masofaviy ta'limning jadal rivojlanmaganligining o'ziga yarasha sabablari bo'lgan. Bular, asosan, texnika ta'minoti va shu sohada malakali muhandis hamda pedagog kadrlar yetishmovchiligi va boshqalar. Ammo, bu masalalar yillar kesimida o'z yechimini topib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston o'z masofaviy ta'lim tizimini yaratishdan avval, shu soha bo'yicha keng mutxassislar sinfiga ehtiyoj sezmoqda edi. Ayni maqsadni ko'zlab, asos solinish tarixi 1955 yilga borib taqaladigan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) 2002 yilda Toshkent axborot texnologiyalar universiteti tarzida tashkil qilinib, shu yildan boshlab bu universitet kompyuter va kommunikatsiyalar, radiotelefon va axborot tarmoqlari, dasturiy ta'minot va elektron kommuniya sohasiga zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni yo'lga qo'ydi. 2005 yil 2 iyun kundan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-91 Qarori bilan TATUning Qarshi, Samarqand, Urganch va Farg'onada mintaqaviy

filiallari tashkil qilindi[1]. Shu davrdan boshlab TATU tomonidan elektron darsliklar yaratish, ta'limni axborotlashirish istiqbollari yuzasidan kadrlar tayyorlana boshlandi.

2000-yildan o'z ishini boshlagan AQSh Davlat Departamentining Ta'lim va Ma'daniyat masalalari bo'yicha byurosi (ECA) va Xalqaro Ilmiy Tadqiqotlar va Olimlarni Tayyorlash Kengashi (IREX) tomonidan tashkil qilingan "Internetdan foydalanish va o'qitish programmasi" (<http://www.iitp.uz>) va "O'zbekiston maktablarida Internet" (<http://www.connect.uz>) programmalarini [2] elektron ta'limdagi dastlabki bosqichlarga kiritish o'rinni.

Tadqiqot metodologiyasi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatda kechayotgan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatib, islohotlar samaradorligini oshiradi, aholi manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi, yangidan-yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston o'z strategik yo'lini belgilab bo'lgan va ushbu yo'lda ko'pdan ko'p ishlar amalga oshirilmogda. Shu ma'noda, maqola mavzusining yoritilishida adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan nazariy (tahliliy-sintetik, chog'ishtirma tahlil), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish), prognostik (umumlashtirish, baholash), pedagogik eksperiment va matematik metodlar (ma'lumotlarga statistik ishlav berish), natijalarni grafik tasvirlash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston sharoitida masofaviy ta'limni rivojlantirish uchun axborot va telekommunikatsion texnologiyalarning rivojlantirish zaruratini aytib o'tdik. Quyida bu borada qilingan ishlar, yaratilgan huquqiy asoslar

bilan tanishib chiqamiz. 2019 yil 31 oktabr kuni Oliy Majlis Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining majlisi bo'lib o'tdi. Unda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan 2019 yilning 9 oyida amalga oshirilgan ishlar natijalari bo'yicha hisobot eshitildi. Ta'kidlanganidek, 2019 yil davomida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi zimmasiga 40 ta maqsadli vazifa yuklatilgan. Ularni amalga oshirish borasida vazirlik tomonidan izchil ishlar olib borilgan. Jumladan, chet el investorlarini dasturiy mahsulotlar sohasida qo'shimcha loyihalarni amalga oshirishga jalb qilish maqsadida joriy yilning sentabr oyida "ICTWEEK Uzbekistan 2019" AKT haftaligi o'tkazildi. Mazkur tadbir doirasida "DIGITAL UZBEKISTAN" AKT forumi, "ICTEXPO" ko'rgazmasi, "Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarda axborot texnologiyalari va innovatsion rivojlanish" forumi tashkil etilib, Birlashgan Arab Amirliklari bilan birgalikda "mGOWAward" respublika tanlovi e'lon qilindi.

Aloqa va axborot texnologiyalari sohasidagi yetakchi xorijiy mamlakatlar (Belarus va Hindiston) oliy o'quv yurtlari bilan qo'shma fakultetlarni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining "Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tuzilmasida O'zbek-Belarus qo'shma fakultetini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, 2019/2020 o'quv yilida yangi yo'nalish bo'yicha 505 nafar yigit-qizlar talaba bo'ldi.

Bundan tashqari, I-band bo'yicha investitsiya dasturi doirasida III-IV choraklarda bajarilishi lozim bo'lgan "Optik tolali aloqa liniyalarini qurish", "Radiochastota spektri monitoringi tizimini kengaytirish va rivojlantirish", "Magistral va multiservis transport tarmog'ini kengaytirish" loyihalari amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda, vazirlik faoliyatidagi kamchiliklar ham tahlil qilindi va shundan kelib chiqib, bir qator tavsiyalar bildirildi. Xususan, magistralk telekommunikatsiya transport tarmoqlarini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyiha doirasida qurilmalarni respublikaga keltirish va joylarda o'rnatish ishlarini jadallashtirish lozimligi ta'kidlandi. Shuningdek, joriy yilda optik tolali aloqa liniyalari qurilishini 10 ming kilometr ga yetkazish choralari ko'rish zarurligi, bunda olis qishloq aholi maskanlari va ijtimoiy infratuzilma obyektlariga alohida e'tibor qaratish kerakligi qayd etildi.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida O'zbekiston Respublikasi hamda Yaponiya hukumatlari kelishuviga muvofiq mamlakatimizdagi OTMlar orasida yagona bo'lgan, qiymati 1,6 mln. AQSh dollarini tashkil etuvchi o'quv media-markazi ochildi. Ochildish marosimidan so'ng tadbir ishtirokchilari va mehmonlarga media-markazning barcha imkoniyatlari, eng ilg'or texnologiyalar, uning faoliyati to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan O'zbekistonni 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar Strategiyasi"ning 5 ta ustuvor yo'nalishida ham axborot-kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirish zarurati kun tartibiga qo'yildi. Har bir yo'nalish doirasida belgilab olingan vazifalarni bajarish yuzasidan tuzilgan komissiya tarkibiga Axborot texnologiyalari vazirligi jalb qilindi [3]. Belgilangan vazifa ijrosi o'laroq, 2017-yildan boshlab O'zbekistonda Xalq qabulxonalar va Prezidentning Virtual qabulxonalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ular aholi bilan bevosita muloqotni, tezkor javob berishni va joylarda muammolar hal etilishini ta'minlab kelmoqda [4]. Ko'rinib turganidek, prezident, hukumat, davlat tashkilotlari va fuqarolar o'rtasidagi aloqalar raqamlashtirildi. Bir so'z bilan aytganda, Vatanimizda global axborot-kommunikatsiya taraqqiyoti bilan hisoblashish boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoniga [5] muvofiq, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida, 2022 yil 22 avgust kuni Prezidenting "2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori imzolandi [6]. Unga ko'ra, 2022 yil yakuniga qadar aholi yashash maskanlarining keng polosali mobil aloqa tarmog'i bilan qamrovini 98 foizga, xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo'llari bo'yab yuqori tezlikdagi mobil internet qamrovini 60 foizga yetkazish; 40 ming km optik tolali aloqa liniyalarini qurish hamda qo'shimcha 800 ming xonadonni yuqori tezlikdagi internetga ulash imkoniyatini yaratish orqali optik tolali aloqa qamrovini 80 foizga yetkazish; elektron davlat xizmatlari ko'rsatilishiga xususiy sektorni jalb qilish orqali foydalanuvchilar sonini 2 barobar oshirib, 4 millionga yetkazish; hududlarda yoshlar uchun zarur ko'nikmalar va kafolatlangan buyurtmalar bilan ta'minlaydigan markazlarni yaratish orqali ATxizmatlar eksporti hajmini 100 mln dollarga yetkazish vazifasi qo'yilgan [6].

2023 yil yakuniga qadar esa, raqamli texnologiyalar sohasida masofaviy ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash faoliyatini rivojlantirish orqali yiliga 6,5 ming nafardan ortiq yoshlarning axborot texnologiyalari yo'nalishida ta'lim olishini yo'lga qo'yish; davlat organlari, shu jumladan mahalliy hokimlik organlarida hamda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda 214dan ortiq axborot tizimi va dasturiy mahsulotlarni joriy etish rejalashtirilgan bo'lib, 2022-2023 yillar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yanada takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi; davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo'yicha ustuvor loyihalar ro'yxati; iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini raqamlashtirish bo'yicha ustuvor loyihalar ro'yxatiga muvofiq; ayrim davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining idoraviy raqamli transformatsiya jarayonlarini kompleks jadallashtirish bo'yicha "yo'l xaritalari"; hududlarni raqamli transformatsiya qilish bo'yicha ustuvor loyihalar ro'yxati tasdiqlandi.

2022-yil 1-oktabrdan boshlab operator va provayderlarga telekommunikatsiya obyektlarida texnik vositalarni o'rnatish uchun loyiha-smeta hujjatlari ekspertizaga topshirilgan sanadan boshlab qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishga ruxsat beriladi, bunda loyiha-smeta hujjatlari 15 kunlik muddatda ekspertizadan o'tkaziladi. 2022-yil 1-sentabrdan boshlab respublikaning barcha hududlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali masofaviy xizmatlar eksporti markazlari bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Aholi va tadbirkorlik subyektlariga elektron davlat xizmatlaridan foydalanish bo'yicha yanada qulayliklar yaratish maqsadida 2022-yil 1-noyabrdan mobil aloqa operatorlari, tijorat banklari hamda to'lov tizimlari operatorlariga axborot xavfsizligi talablariga rioya etgan holda, o'zlarining mobil ilovalari orqali Yagona portalidagi elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishga; identifikatsiyalovchi ID-kartaga joylashtirilgan elektron raqamli imzo kalitlari orqali Yagona portalning mobil ilovasida joriy etilgan elektron davlat xizmatlaridan foydalanishga ruxsat beriladi [6].

Yuqoridagi ko'rib o'tganidek masofaviy ta'lim uchun keng huquqiy baza hamda asos yaratildi va yaratilmoqda. Qator amaliy ishlar ham qilindi, Respublikamizning olis hududlari ham internet tarmog'i bilan bog'landi.

Yaratilgan shart-sharoitlardan kelib chiqib, Covid-19 pandemiyasidan olingan tajriba natijasida O'zbekiston faol masofaviy ta'limga o'tish fursati kelganligi tushunildi. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy

etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlandi [7]. Unga ko'ra, Nizom bilan masofaviy ta'lim orqali oliy ta'lim tashkilotlarida bakalaviat va magistratura bosqichlarida kadrlarni tayyorlashni tashkil etish tartibi belgilandi. Buning uchun ta'lim tashkilotida quyidagilar bo'lishi talab etiladi:

- masofaviy ta'limni boshqarish uchun Learning Management System platformasi;
- internetga ulanish va foydalanish uchun axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi;
- o'quv yili uchun mo'ljallangan o'quv kontenti;
- fanlarning elektron o'quv-metodik majmualari hamda ilmiy va o'quv adabiyotlarining elektron bazasi;
- kompyuter texnikasi bilan jihozlangan alohida bino yoki auditoriyalar;
- texnik va dasturiy komponentlar ishlashini ta'minlaydigan muhandis-texnik xodimlar;
- ta'lim tashkilotiga tegishli bo'lgan, mamlakat hududida joylashgan server qurilmasi;

- ta'lim tashkiloti to'g'risidagi barcha axborotlar joylashtirilgan rasmiy veb-sahifa [7].

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Xulosa. Covid-19 pandemiyasi davrida O'zbekistondagi ta'lim muassasalari majburlikdan, karantin talablari sabab masofadan ta'lim berishni yo'lga qo'ygan bo'lsalar, ko'plab oliygohlar 2022-2023-o'quv yilidan boshlab masofaviy ta'limni pandemiyasiz sharoitda taqdim etmoqdalar. Lekin hozirgi paytda masofaviy ta'lim oliygohlar tomonidan iqtisod va axborot texnologiyalari yo'nalishlarida taklif qilinmoqda. Negaki, ularda raqamli texnologiyalar an'anaviy ta'limda ham ko'p ishlatiladi. Eng muhimi, hozirgi vaqtda kelib masofaviy ta'limni taqdim etish uchun texnik va texnologik vositalar shakllandi. Endigi vazifa UzEDL singari muayyan sohani chuqur o'rganishga ixtisoslashgan platformalar orqali, jahon va mahalliy tajribani chuqur o'rgangan holda masofaviy talimni ijtimoiy-gumanitar sohaga ham kiritib olishdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 2-iyundagi "Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ — 91-son Qarori. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005-y., 22-con, 157-modda. // <https://lex.uz/docs/-610974>)
2. Dusienov N., Ahmedov B. Masofaviy ta'lim tizimi. // ResearchGate, 2021. – B. 10-11.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" PF-4947-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son // <https://lex.uz/docs/-3107036#-3108187>
4. Harakatlar strategiyasi: besh yillik natijalar sarhisob qilindi // <https://yuz.uz/uz/news/harakatlar-strategiyasi-besh-yillik-natijalar-sarhisob-qilindi>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son // <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-357-son Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.08.2022-y., 07/22/357/0763-son. // <https://lex.uz/uz/docs/-6166539#-6170927>
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 03 oktabrdagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-559-son Qarori // <https://lex.uz/docs/-6221502>
8. Chimpolatova S. Chet tillarini masofaviy o'qitishda interfaollik muammosi // *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. Vol. 1. Iss. 7. – 2021. – P. 164-170.
9. Ризаев И. И., Хаккулов Н. К. Влияние цифровой культуры на неприкосновенность жизни человека в обществе // *Оргкомитет*. – 2023. – С. 342.
10. ХАККУЛОВ Н. К., РИЗАЕВ И. И. Цифровая культура и неприкосновенность личности // *Новые технологии в учебном процессе и производстве*. – 2023. – С. 605-606.
11. Махмудова М. Таълим самарадорлигини оширишда педагогик технологияларни интеграциялаш // *ученый ххi века Международный научный журнал*. – 2017.
12. Махмудова М. Чет тилларни ўқитишнинг педагогик тамойиллари // *Иностранная филология: язык, литература, образование*. – 2017. – Т. 2. – №. 3. – С. 64.
13. Saida Y. The difference between pedagogical technology and methodology // *Involta Scientific Journal*. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 124-128.



Nilufar RAJABOVA,
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

O'zbekiston Milliy universiteti tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) O.Radjabov taqrizi asosida

CREATION OF KHOREZMIAN SAINTS UNDER THE VIEWS OF ALISHER NAVOI

Annotation

The article depicts about the role of Alisher Navoi's creativity in the study of the pilgrimages of Khorezm region as an educational tool. In particular, in the lessons of the "History of Uzbek classical literature" in higher educational institutions, it is confirmed by the facts that important to educate in the spirit of patriotism

Key words: Education, pilgrimage, guardians, tazkirah, spiritual education.

ТВОРЧЕСТВО ХОРЕЗМСКИХ СВЯТЫХ ВО ВЗГЛЯДАХ АЛИШЕРА НАОИ

Аннотация

В статье рассматривается роль творчества Алишера Навои в изучении святых Хорезмской области как образовательного пособия. В частности, на уроках «Истории узбекской классической литературы» в высших учебных заведениях подтверждается фактами, что очень важно воспитывать в духе патриотизма и информация об этом очень важна для воспитания молодежи в духе патриотизма.

Ключевые слова: Образование, паломничество, хранители, tazkira, духовное образование.

XORAZMLIK VALIYLAR IJODI ALISHER NAVOIY NIGOHIDA

Annotatsiya

Maqolada Xorazm viloyati ziyoratgohlarini ta'lim-tarbiya vositasi sifatida o'rganish asnosida Alisher Navoiy ijodining o'rni masalasi yoritilgan. Xususan, oliy maktablardagi "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" darslarida bu haqdagi ma'lumotlar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda juda muhimligi faktlar bilan asoslanilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, ziyoratgoh, valiylar, tazkira, ruhiy tarbiya.

Kirish. Vohamizdagi ziyoratgohlarni o'rganish asnosida ularning ma'naviyat va madaniyatimiz tarixi, jahon ma'rifiy hayotida tutgan o'rini ham bilib borish imkoniyati kengaydi. Masalan, oliy maktablardagi "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" darslari bu borada nihoyatda katta ahamiyatga ega. Quyida Alisher Navoiy ijodi va Xorazm vohasidan yetishib chiqqan valiylarning ayrimlari hayoti va ijodi misolida fikrimizni ma'lum ma'noda asoslashga harakat qilamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alisher Navoiyning 750 dan ortiq aziz-avliyolar yodi zikr etilgan "Nasoyim ul-muhabbat" asarida eng ko'p o'rin (hajman) Shayx Najmiddin Kubroga ajratilgan e'tiborga loyiq. Shuningdek, Navoiy tazkiralarda Pahlavon Mahmud, Shayx Husayn Xorazmiy, Xoja Abulvafoiy Xorazmiy, Shayx Alouddin Xorazmiy, Hubbi Xo'ja, Shayx Abulhasan Ishqiy, Muqriy Mahmud kabi vatandoshlarimiz alohida ehtirom bilan tilga olingani bejiz emas. Bu kabi ulug' azizlar ayollar orasidan ham yetishib chiqqan. Yuqorida qayd etilgan 750 ortiq aziz-avliyoning 33 nafari ayollar bo'lgan. Shulardan Imra'atun Xorazmiya bizning voha vakilasidir [1].

Alisher Navoiyning Xoja Abulvafo Xorazmiyga e'tibori alohida ekani ham ko'zga tashlanadi. Alisher Navoiy Xoja Abulvafoiy Xorazmiyning "Nasoyim ul-muhabbat"da asarning muhim bir qismi – avliyolar odobi, axloqi, boshqacha aytganda ularning kamolot sirlari haqida so'z ketganda ham zikr etadi. Navoiy nazdida "Ul adabdurki, yaxshiyu yomong'a va ulug'u kichikka bajo keltirurlar. Andoqki, borcha xaloyiqdin o'zlarin kichik va kamroq tutorlar va barchag'a xizmat huzurida bo'lurlar". Misol tariqasida sallasini o'g'ri urgan Xoja Abulvafoiy Xorazmiy hikoyati keltiriladi [1]. Xorazmliklar "Yer farishtasi" deb e'zozlagan ushbu aziz inson haqida Alisher Navoiy "Majolis un-nafoiyis" asarida ham ma'lumot beradi, "Xoja avsofini har kishi bitar bo'lsa, alohida

bir kitob bitmak kerak" – deya ta'kidlaydi [3]. Hazrat Alisher Navoiy "alohida kitob bitmak kerak" deya ta'kidlagan Xoja Abulvafoiy Xorazmiy ijodining asosiy qismini ruboiylar tashkil qiladi. Uning 188 sahifadan iborat "Ruboiyoti Xoja Abulvafoiy Xorazmiy – Piri farishta" nomli kitobi 2017-yilda Sayyid Ahmad Behishtiyi Sheroziy tashih va sharhi bilan Eronda "Ravzana" nashriyotida bosilib chiqqan.

Abulvafoiy Xorazmiy haqida 1851-yilda Xorazmga Eron shohi elchisi sifatida tashrif buyurgan, Ogahiy tomonidan "Ravzatu-s-safoiy Nosiriy" asari tarjima qilingan Rizoqulixon Hidoyat (1800 – 1871) "Tazkiryai riyozu-l-orifin" asarining birinchi ravzasi 15-bo'limida quyidagilarni yozadi: "Xorazmning ulug' shayxlaridan. Xorazm xalqi uning go'zal xulqi bois Yer yuzining farishtasi der edilar. U zot ilm-u amal va maqtoqli sifatlarini o'zida jamlagan edi. Uni bir necha vosita bilan Shayx Najmiddin Kubroga murib bo'lmish Shayx Abulfath tarbiya qilganlar. "Masnaviyi ma'naviy" muallifi Mavlaviy nomi ila mashhur janob Jaloliddin Muhammad Rumiy u zotning zuhuridan xabar bermishlar. "Masnaviy"ning sharhi bo'lmish "Javohiru-l-asror" asari muallifi Husayn bin Hasan Xorazmiy ularning muridlaridir. "Kanzu-l-javohir" (Gavharlar xazinasi) asari shayx qalamiga mansubdir. Vafoti 735-hijriyda [4]" (Iqtisbos asliyatdan tarjima qilindi)

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asosini obyektivlik va tarixiylik prinsipi tashkil etadi. Shuningdek, maqoladagi ma'lumotlarni tahlil etishda statistik usuldan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Alisher Navoiyning har ikkala asarda zikr etilgan yurtdoshlarimizdan biri Shayx Husayn Xorazmiy bo'lib, o'zbek filologiyasida uning hayoti va ijodi hali alohida o'rganilmagan. Vaholanki, Husayn Xorazmiyning hayoti va ijodi haqida uning o'z o'g'li va shogirdi Sharafuddin Husayn Xorazmiyning "Jodat ul-oshiqin" ("Oshiqlar uchun

keng yo'l") asari mavjud. I.Bekchon bu asarning bir nusxasi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida mavjudligi haqida xabar beradi [12]. Asarning nomi ayni paytda uning ta'rixi ham hisoblanadi. Mazkur asarning katta bir qismi Rasuli Ja'fariyon so'z boshisi bilan "Payomi bahoriston" jurnalida bosilib chiqqan [6]. Maqolaning birinchi qismi muallifning otasi Husayn Xorazmiy tarjimai holiga bag'ishlangan bo'lib, ayrim adabiyotlardagi chalkash masala – Tojiddin Husayn Xorazmiy va Kamoliddin Husayn Xorazmiy bir shaxs emasligi haqida xulosa berilgan. bu haqda M.Hasaniy ham mufassal ma'lumot beradi [8].

Shu munosabat bilan aytib o'tishimiz lozimki, Husayn Xorazmiy ig'tishoshiya tariqatining oxirgi piridir. U haqida mo'tabar manbalardan biri Kamoliddin Mahmud G'ijdivoniyning "Miftoh ut-tolibin" asaridir. "Miftoh ut-tolibin" Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan asarlardan biri bo'lib, F.G'anixo'jayev tomonidan tuzilgan "Ogahiy asarlari tavsifi (Katalog)"da uning muallifi Joniy Mahmud Ali ibn Imodiddin G'ijdivoniy deb ko'rsatilgan [7]. Demak, ushbu asar tarjimasiga qo'l urgani bejiz emas. Asarning Ogahiy tomonidan qilingan tarjimasining yagona nusxasi Toshkentda saqlanadi. Joniy Mahmud G'ijdivoniy qalamiga mansub "Miftohu-tolibin" asari Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan [9]. Mahmud G'ijdivoniyning (XVI asr) "Miftohu-tolibin" (Toliblar kaliti) asari Kamoliddin Husayn Xorazmiy (1466-1551) hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan. Muallifning to'liq nomi Joni Mahmud ibn Shayx Ali ibn Imomiddin al-G'ijdivoniy bo'lib, buxorolik sayyoh va tarixchi olim. U ustozlari – Shayx Hoji Muhammad al-Xabushoniy va Shayx Kamoliddin Husayn Xorazmiy sayohatlarida qatnashgan, ba'zan o'zi ham sayohatlar qilgan. Ushbu sayohatlar "Miftohu-tolibin" asarida ham aks etgan. Muallif o'z asarida XVI asr boshlarida Xorazm, Buxoro, Samarqand, Mashhad, Marv, Hirot shaharlari, tabiat va xo'jaligi, o'sha davrdagi tarixiy voqe'alar va ayrim shaxslar hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Shunday bo'lsa ham asarning asosiy mavzusi Husayn Xorazmiyning hayoti va faoliyatidir.

Alisher Navoiy tilga olgan xorazmlik shayxlardan biri Majiddin Bag'dodiy bo'lib, ko'pchiligimiz ushbu nufuzli shayx va shoir haqida E.E.Bertels ma'lumotlari bilan cheklanamiz [5]. E.E.Bertes turli tazzkiralardan Bag'dodiy qalamiga mansub 14 ta ruboiy keltirilgan. Eron olimi Zabihulloh Safo E.Braun shayxning to'la ismi Abu Sa'id Majiddin Sharaf ibn Muayyad Abulfath Bag'dodiy deb keltirishini qayd etib, uning asarlari haqida umumiy ma'lumotlarni beradi [10]. Olim tomonidan keltirilgan shayx qalamiga mansub ruboiylardan biri E.Bertelsda uchramaydi:

Devona naboshad on, ki az zar tarsad,
Oshiq nabuvad har, ki zi xanjar tarsad.
To chand zi sar buridanam biym kuni,
On kas, ki siri tu dorad az sar tarsad?

Tarjimasi: "Oltindan qo'rqqan telba bo'lmaydi, xanjardan hadiksiragan oshiq bo'lolmas. Mening boshim ketishidan tokay qo'rqasan, Sening siringni anglagan o'z boshin g'amin ermidi?"

Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da tilga olgan xorazmlik valiyulardan biri Hakim otadir: "Hakim ota rahimahullohu taolo oti Sulaymondur va Xoja Ahmad Yassaviy qaddasallohu sirrahuning murididir. Hamonoki bir kun Xoja tabxe buyurg'ondurlarki, mutbixe o'tun yetmaydur, deb kelgandur. Alar ashobg'a degandurlarki, yozidin o'tun terib kelturung! Va ul zamon yog'in yog'adur ekandur. Ashobkim o'tun teribdurlar, alar xizmatig'a kelguncha yog'in jihatidin o'tunlar xo'l bo'lg'ondur. Hakim ato tergan o'tinlarni to'nig'a chirmab, quruq kelturgandur. Xoja Hazratlari degandurlarki, ey farzand, hakimona ish qilding va alarg'a bu laqab ondin qolg'ondur va Hakim atog'a hikmat tili go'yo

bo'lubdur. Andoqki, oning favoidi atrok orosida mashhurdur. Ul jumladin biri

Tiki turg'on butadur,
Borgonlarni yutadur.
Borg'onlar kelmas bo'ldi,
Magar manzil andadur" [12].

U.Embergenov va J.Shomurodovlar yozishicha, "Ushbu misralardan ham anglash mumkinki, Boqirg'oniya she'rlarining tili sodda, ifodasi xalqona bo'lgan. Lekin bu so'fiy shoir ijodiyotinin tub mohiyatini tasavvufiy goyalar, ilohiy ishq jazbasi va yuksak so'fiyona axloq tashkil etadi" [11].

O'zbekistonda tasavvuf tarixini Yusuf Hamadoniya hayoti va faoliyatisiz o'rganish qiyin. Yusuf Hamadoniya haqida, birinchi navbatda, yoshlarni tarixiy o'lkashunoslikka oid ma'lumotlar bilan tanishtirish asnosida ma'lumot beriladi. S.Davletov va Z.Rajabovalar Shovot tumanida obodonlashtirilgan tarixiy turistik obyektlar qatorida "Yusuf Hamadoniya ramziy maqbarasi"ni ham sanab o'tadilar.

Yoshlarda ekani yozilgan holda unga atab Xorazmda maqbara bunyod etilishini tushuntirish uchun qabr va qadamjo tushunchalarini o'rtasida farqni anglatishimiz kerak. Bunday holat boshqa ba'zi aziz avliyolar qabri va qadamjolari haqida ma'lumot berilganda ham eslanadi. Masalan, Xoja Ali Romitaniyning haqiqiy qabri Xorazmdagi Toshhovuzning Ko'hna Urganchida. Romitandagi maqbarasi esa qadamjodir.

S.Sayfulloh va N.Hasanlar ilmiy faoliyati Yusuf Hamadoniya shaxsiyatini, asarlarini o'rganishda muhim bosqich bo'ldi. Olimlar Avhaduddin Kirmoniyning "Hamadoniya hazratlari hayotining oltin yilini irshod ishiga bag'ishladi va u zot paydevorini qo'ygan bino vafotidan keyin aslo shikast topmadi" – degan so'zlarini keltiradilar.

Yusuf Hamadoniya "Rutbat ul-hayot" asari Eronda Muhammad Amin Riyohiy nashrga tayyorlangan. Asarni turk tiliga Najdat To'sunlar tarjima qilganlar. Yusuf Hamadoniya bundan tashqari "Kashf", "Risola dar odobi tariqat", "Risola fi annalkavna musaxxarun lilinson", "Risola dar axloq va munjo'ot" kabi kitoblar yozgan bo'lib, bu bebaho ma'naviy meros ichida "Kashf" asari bizgacha yetib kelmagan. Hamadoniya risolalarining hajm jihatidan ham, mazmun jihatidan ham salmoqlisi "Rutbat ul-hayot"dir. Qolganlari kichik hajmli asarlardan iborat. "Rutbat ul-hayot" risolasi inson hayotining farqli darajalari to'g'risida savol-javob tarzida yozilgan. Shayxdan o'ndan ortiq nozik savollar so'ralgan va shayx ularga javob bergan.

Muallif bu asarida savollarga javob berishda Qur'oni karim oyatlari va hadisi sharifdan dalil keltiradi, adabiy tashbehlar, shoirona ifodalar, falsafiy xulosalardan keng foydalanadi. Maxluqot ichida insonning eng ulug' xilqat ekanini ta'kidlab, undagi hayvoniylik va insoniylik sifatlariga, belgi va xususiyatlariga to'xtaladi. Dastlabki shart sifatida nafsni jilovlashga, u bilan mujohada etishga undaydi.

Xulosa. Shu o'rinda talabalar zehninga ta'sir qiladigan vositalar biri sifatida Sulaymon Boqirg'oniya ziyoratgohi hamda unga taalluqli ma'lumotlarni foto va animatsiya shaklida namoyish qilishdir. Bu borada U.Embergenov va J.Shomurodovlarning qayd etilgan kitobidagi fotolardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga Sulaymon Boqirg'oniya "Oxiri zamon kitobi" 1934-yilda Tokioda eski o'zbek yozuvida nashr qilingani aytib kitobning ayrim sahifalari, xususan, titul varag'ini namoyish qilib, asliy matndan parcha o'qib eshittirish talabalar zehninga o'zgacha ta'sir qiladi. Chunki katta ko'pchilikda 1934-yilda Tokioda o'zbek adibi kitobi nashr qilingani hayrat uyg'otsa, bora-bora bu hayrat faxr hissiga aylanadi.

Demakki, ziyoratgohlar haqida ma'lumotlardan ta'lim-tarbiya vositasi sifatida foydalanishda yosh cheklovlari yo'q. Aksincha, ulardan har qanday yoshdagi insonlar ruhiy

dunyosini boyitish, ularda vatanparvarlik hissini yanada mustahkamlashda foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн еттинчи том. – Тошкент: Фан, 2001. 496-б.
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн еттинчи том. – Тошкент: Фан, 2001. 18 – 19-б.
3. مجالس النفايس. على شير نوائى. Илмий-танкидий матни тайёрловчи Суюма Ғаниева. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1961. 9-б.
4. <https://ganjooor.net/rhedayat/riazolarefin/rowze1/sh15>
5. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: 1965. – С. 335 – 339.
6. شرف البين حسين خوارزمى. جادةالعاشقين گزترش سفر حج شيخ حسين خوارزمى. به كوشش رسول جعفریان. پیام بهارستان. پاییز ۱۳۹۰ ص ۸۸-۱۱.
7. Ғаниҳўжаев Ф. Огаҳий асарлари тавсифи (Каталог). – Тошкент: Ҳ.Сулаймонов номидаги кўлғезмалар институти. 1986. 42-43-б.
8. Ҳасаний М. Шайх Камолиддин Ҳусайн ал-Хоразмий – хоразмлик улуғ аллома // Хоразм тарихи. – Тошкент-Урганч: Navro'z. 2019. – Б. 326 – 333.
9. Муҳаммад Ризо Эрнӣзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 10-жилд. Мифтоҳу-т-толибин (Толиблар калити). Табдил, сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Эркин Миркомиллов. Масъул муҳаррир Маҳмуд Ҳасаний. Тақризчилар: Абдулла Ўрозбоев, Ҳилола Назирова. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти, 2019. 400 бет.
10. ضبيح الله صفا. تاريخ ادبيات در ايران. جلد دوم. تهران. انتشارات فردوس. ۱۳۷۳ ص ۱۰۱۵ – ۱۰۱۲.
11. Ембергенов У. Шомуродов Ж. Сулаймон Боқирғоний (Ҳаким ота) – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 6.
12. Ҳасанхожа Нисорий. Музақкири аҳбоб. Форс тилидан Исмоил Бекчон таржимаси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993. 331.



Umidjon SALIEV,
Andijon davlat universiteti tadqiqotchisi

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent Jaloliddin Yusubov taqrizi asosida

VOYAGA ETMAGANLAR ORASIDA JINOYATCHILIK VA HUQUQBUZARLIKNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISHNING IJTIMOY OMILLARI

Аннотация

Mazkur maqolada voyaga etmagan yoshlar orasida huquqbuzarliklarning kelib chiqishi va uni oldini olishgan qaratilgan profilaktik tadbirlar, huquqbuzarlikka moyil bo'lgan yoshlar bilan ishlashda yangicha yondashuv, yoshlarda intellektual, axloqiy rivojlani omillari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Voyaga etmaganlar, huquqbuzarlik, "huquqbuzarlikka moyil bo'lgan" yoshlar, deviant harakat, agressivlik, profilaktika, reabilitatsiya.

ПРИЧИНЫ ПРЕСТУПНОСТИ И ПРАВОНАРУШЕНИЙ СРЕДИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ И СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ИХ ПРОФИЛАКТИКИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы возникновения преступности среди несовершеннолетних и профилактические меры, направленные на ее предотвращение, новый подход в работе с правонарушительной молодежью, а также факторы интеллектуально-нравственного развития молодежи.

Ключевые слова: Несовершеннолетние, преступность, молодежь, «склонная к правонарушениям», девиантное поведение, агрессивность, профилактика, реабилитация.

CAUSES OF CRIME AND DELINQUENCY AMONG MINORS AND SOCIAL FACTORS OF THEIR PREVENTION

Annotation

This article talks about the origin of delinquency among minors and preventive measures aimed at preventing it, a new approach to work with delinquent youth, factors of intellectual and moral development of young people.

Key words: Juveniles, delinquency, youth "prone to delinquency", deviant behavior, aggressiveness, prevention, rehabilitation.

Voyaga etmaganlar orasida huquqbuzarliklar kelib chiqishini ijtimoiy omillarini o'rganish, shuningdek ularning xulqidagi turli salbiy illatlarni bartaraf etishning innovatsion mexanizmlarini yaratish va takomillashtirish oid muayayn tizimni yaratish bugungi kunning maqsad muddosidir. Jamiyatimizda uchraydigan "huquqbuzarlikka moyil bo'lgan" yoshlar bilan ishlashda ularning onggi, tafakkuri, hissiyoti, irodasi va ijtimoiy qarashlari ozgina e'tibordan chetda qoldirilsa, u holda bu masalani korreksiya qilish kundan kunga murakkablashib boradi. Jamiyatdagi ma'nau etuk insonlar tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlar, mezon-qoidalar va me'yorlardan "o'zgacha" chekingan yoshlarni deviant xulqi bolalar deb nomlaymiz. Deviant harakat bu psixologik normal yoshlar tomonidan o'rnatilgan ahloqiy va huquqiy qoidalarni buzish xollari demakdir. Deviatatsiya - bu ijtimoiy muammo bo'lib, inson ruxiy olami, uning atrof-muhitining o'zgarishi bilan yuzaga keladigan muammodir. Bu ayniqsa, yoshlarning ayni o'smir yoki ilk o'spirin yoshida uchraydi. Chunki bu vaqtda yoshlarda intellektual, axloqiy va boshqa jihatlarida turli o'zgarishlar yuzaga keladigan davrdir. Bu o'zgarishlarni vaqtida to'g'rilikka yo'naltirilmasa yoshlarda anomol psixik holatining yuzaga kelishiga zamin hozirlashi mumkin. Voyaga etmaganlar - ijtimoiy munosabatlar (oilada, ta'lim muassasalari)da ijtimoiy me'yorlardan, xatti-harakatlar va qoidalardan chekinishi natijasida biz ularning bu turdagi harakatini intizomsizlik, deb ham qaraymiz. Huquqbuzarlikka moyil voyaga etmagan yoshdagilarning agressivligi, ta'lim muassasasida o'rnatilgan ichki tartib qoidalarni pisand qilmaslik holatlari va boshqa faoliyatida o'zbiarmonlikka yo'l qo'yishi, alkogollik ichimliklar, assotsial harakatlarga moyilligi kuzatiladi.

YUqoridagilardan tashqari, voyaga etmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning kelib chiqishining boshqa bir qator sabablari ham mavjud. Ularni o'rganib, bartaraf etish huquqni muhofaza qilish organlari yoki pedagoglarning emas balki, keng jamoatchilik yangi O'zbekiston jamiyati oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. YOshlar orasida huquqbuzarlikka moyillik harakatlarni keltirib chiqaruvchi bir qator omillar ham mavjud. Jumladan:

- biologik omillar, ya'ni bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvini murakkablashtiruvchi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, zaif ko'ruvchi, ko'rish imkoniyati cheklangan, zaif eshituvchi va x.k);

- ijtimoiy-pedagogik omillar, ya'ni bolalik davridan boshlab maktab, oila va jamoatchilikning bolani tarbiyalashdagi hatoliklari ortidan yuzaga keluvchi omillar;

- ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ya'ni bu jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik natijasida oylik maoshining ozligi, ishsizlik va boshqalar;

- ma'naviy-axloqiy omillar, ya'ni jamiyatdagi ma'naviy kadriyatlarining toptalishi, insonlarning ma'naviy kambag'alligi yoki muyyan jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning deviant harakatlarga sodir etayotgan yoshlarga bafarq yoki loqaydligi kiradi.

Voyaga etmaganlar orasida profilaktik tadbirlarni yana ko'proq amalga oshirish jamiyatimizda yoshlarning o'qishga qiziqishini oshirish, ishsizligini oldini olish, sog'lom jamiyatga yo'naltirish va jamiyatimiz a'zolarining teng huquqli vakili sifatida faoliyatini yo'lga qo'yishiga zamin hozirlanadi.

“Reabilitatsiya” - bu shaxsning huquqi, ijtimoiy nufuzini, sog'ligi, layoqatsizligini tiklashga yo'naltirilgan

kompleks, ko'p tarmoqli, bir necha bosqichli va dinamik rivojlanib boruvchi tizim bo'lib, u profilaktik va korreksiya aspektlarni o'zida mujassa etadi. Profilaktika – bu tizimdagi shaxsning rivojlanishida u yoki bu anomal chekinishlar va og'ishlarga shart-sharoitlar yaratishni yo'q qilishga qaratilgan tadbirdir. Bu ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq jarayondir"[1].

Shu sababli, YA'ngi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan hamnafas bo'lib jamiyatning har bir a'zosi barkamol insonni kamol toptirishga, uning natijasi, mahsulida sog'lom mustaqil fikrga ega, innovatsion izlanuvchi, mustahkam e'tiqodli, yuksak ma'naviyatli, pok vijdonli yoshlarni voyaga etkazishga o'z xissasini qo'shmoq dardir. CHunki, barkamol avlodsiz Uchinchi Renessansni qurib bo'lmaydi. Prezident SH.Mirziyoev ta'kidlab o'tkanidek, "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga etishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat"[2]

Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida inson kamoloti haqida qimmatli falsafiy ta'limotlar keltirilib, "Janobi Haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin, bu insondagi qobiliyatni kamolga etkazmoq tarbiya vositasida bo'ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni kulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil bir rasvoi odam bo'lib chiqadi"[3] -deb ta'kidlaydi.

YOshlarda huquqiy madaniyat va ma'naviyat axloqiy, huquqiy va siyosiy bilimlar zamirida vujudga keladi. YA'ngilanayotgan jamiyatimizning asosiy maqsadi ham yoshlarni milliy g'urur, iftihar, muloqot odobi, O'zbekiston va jahonda ro'y berayotgan globalashuv jarayonlarida yuksak ilm-fan yutuqlarini egallash, madaniyat, san'at, xalq yodgorliklarini asrab avaylash, ardoqlash kabi yuksak insoniy fazilatlarini rivojlantirish, yoshlarning milliy dunyoqarashini bukilmaz darajada kamol toptirishdir.

Hozirgi kunda esa mamlakatimizda o'smir yoshdagi o'quvchilarning xulqidagi anomal nuqsonlarni to'g'rilash va profilaktika ishlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan tizimli vazifalarni amalga oshirishda yoshlar, o'quvchi va talabalar qobiliyatlari, iste'dodlari, ichki imkoniyatlari, o'ziga xos ijtimoiy xususiyatlarini tadqiq etish uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. YOsh avlodning inson sifatida shakllanib borishi, aqliy kamoloti jamiyat tomonidan ma'qullangan axloq normalariga mos bo'lishi ularni millat ustuni bo'lib etishishlariga zamin yaratadi.

YUqoridagilardan kelib chiqib, jamiyatimizda yoshlar bilan shug'ullanuvchi har sohani nufuzini yanada oshirish, yoshlar orasida jinoyatchilikning kelib chiqish sabablarini erta aniqlash va o'z vaqtida profilaktik choralarini ko'rish, bola yashayotgan kichik sayyoradagi turli salbiy illatlarni keltirib chiqaruvchi omillariga to'sqinlik qilish shart. Muhtaram YUrtboshimiz mamlakatimiz yoshlariga qarata "Siz axir osmonni olmoq bo'lsangiz, ne uchun elkamni tutib bermayin?" [4] degan iborani qo'llashi bejiz emas va biz har birimiz G'ofur G'ulomning mazkur jumllarini hayotiy shior qilib olishimiz shart. Chunki mamlakatimiz taqdiri yoshlar qo'lidadir.

Bunda jamiyatning har bir a'zosi huquqni muhofaza qilish organlari bilan birgalikda narkotik moddalar savdasiga, iste'moliga, agressivlikka, boqimandalikka, mas'uliyatsizlikka, suitsidga, erta nikoh holatlariga to'sqinlik qilishi lozim. O'smir yoshlarni ta'lim olishlari, o'ziga bo'lgan ishonchini barqaror qilish, davlat tomonidan ijtimoiy himoyalanganligiga ishonch hissini oshirish va ta'lim olishga

ishtiyosini kuchaytirish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Ayrimlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabablari qatoriga quyidagilarni kiritadi: o'smirning kayfiyati va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi hayotdagi muvaffaqiyatsizliklar; ma'naviy va axloqiy mo'ljallarning beqarorligi; shaxslar jinoiy guruhi bilan yaqin aloqada bo'lish yoki muayyan sharoitda ular o'smirlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi; ruhiyatining ayrim xususiyatlari; oila yoki jamoadagi noqulay shart-sharoitlar.S.S.Ostroumov va N.F.Kuznetsova fikriga ko'ra, oiladagi tarbiyada yo'l qo'yilgan xatolar huquqbuzarliklar sodir etishning sabablari emas, balki omillaridir. I.I.Karpets nazoratsizlikka ichkilikbozlik bilan bir qatorda jinoyatga shart-sharoit yaratuvchi omil sifatida qaraydi[1]. Huquqbuzarliklarning sabablari va omillari tushunchalari materialistik dialektika kategoriyalarining muayyanlashtirilgan ko'rinishlari hisoblanadi. Demak, «sabab» va «omil» falsafiy kategoriyalarini tushunib yetmasdan kriminologiyada ularni ilmiy talqin qilish va qo'llash mumkin emas.Sababiy aloqalar –determinatsiya munosabatlari turlaridan biri. Determinatsiya –bu hodisalar o'zaro aloqasining shundan bir usuliki, bunda bir hodisaning yuzaga kelishi boshqa hodisalar

bilan belgilanadi. Determinatsiya munosabati bir tomondan belgilovchi omillar (determinantlar)ni nazarda tutsa, boshqa tomondan –belgilangan natija (hosila)ni nazarda tutadi. Determinizm umumiy printsipiga ko'ra, voqealar muayyan tarzda yuz beradi va ular yuzaga kelishi mobaynida kechadigan jarayonlar belgilovchi omillar majmuidan tarkib topadi.Falsafiy adabiyotlarda determinatsiya jarayonining quyidagi tarkibiy qismlari farqlanadi: 1) shart-sharoit; 2) faoliyat;3) harakat (oqibat, natija). Shart-sharoit deganda mazkur hodisa yoki uning xossalari yuzaga kelishi, mavjud bo'lishi, o'zgarishi yoki yo'qolishini belgilovchi muhim omillar majmui tushuniladi. U yoki bu hodisa ma'lum joyda tegishli shart-sharoit yuzaga kelgan holdagina yuz berishi mumkin va muayyan shart-sharoit mavjudligi tufayli mavjud bo'lishi mumkin.«Shart-sharoit» tushunchasidan «muhit» tushunchasini farqlash lozim. So'nggi zikr etilgan tushuncha nafaqat shart-sharoit sifatida amal qiladigan omillarni, balki mazkur hodisada ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan bilvosita omillarni ham o'z ichiga oladi. Bu qoida kriminologik tadqiqotlar uchun ayniqsa muhim, chunki ijtimoiy muhitda jinoyat sodir etilishiga imkoniyat kriminogen omillarni ham, bilvosita omillarni yoki kriminogen omillarga qarshi omillarni ham e'tiborga olish lozim. Shart-sharoitga aylanuvchi omillar belgilangan hodisa yuz bergunga qadar tasodifiy holatlarmajmui sifatida mavjud bo'ladi.Shunday qilib, o'z holicha mavjud bo'lgan muayyan omillar determinatsiya jarayonida o'zlarini belgilayotgan hodisaga nisbatan shart-sharoitga aylanadi. Shart-sharoitning mavjudligi hodisa yuz berishi mumkinligini anglatadi. Qanday qilib imkoniyat borliqqa aylanadi, nimaning ta'sirida harakat (oqibat) paydo bo'ladi? Determinatsiya jarayonining mazkur unsuriga xos bo'lgan faoliyat –sabab ta'sirida. Demak, sabab shart-sharoitni harakatga aylantiruvchi faol asosdir. Sababni faqat uning oqibati orqali tushunish mumkin va aksincha, oqibatning tabiatini faqat uning sababi orqali aniqlash mumkin, chunki ular bir-birini taqozo etadi [2]. Sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashga nisbatan to'rt xil yondashuvni farqlash mumkin:1)«Kanditsionalistik» (shartli) yondashuv sabab deganda mazkur oqibat uchun zarur va yetarli bo'lgan holatlar majmuini tushuniladi[3].

2) An'anaviy yondashuv. Bunda tashqi ta'sir mazkur oqibatning sababi hisoblanadi. Kriminologiyada jinoyatlar ular sodir etilgan sharoit hamda boshqa shaxslar, shu jumladan jabrlanuvchilar xulq-atvori bilan bevosita bog'lanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, kriminologiyada

sababiyatning «an'anaviy» talqini tor xususiyatga ega bo'lib, deyarli hech qachon yakka holda qo'llanilmaydi, balkidoim boshqacha yondashuvlar bilan to'ldiriladi.3) An'anaviy-dialektik yondashuv keng tarqalgan va kriminologik adabiyotlarda ancha puxta ishlab chiqilgan yondashuv hisoblanadi. Unga ko'ra, mazkur oqibatni yuzaga keltiruvchi hamma narsa sababdir. Muayyan tashqi holatlar ta'sirida obyektida o'zgarishlar yuz berishi mumkin. Ayrim mualliflar salbiy ijtimoiy-ruhiy hodisalar va jarayonlarni jinoyatchilik va jinoyatning «bevosita» sababi deb hisoblaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytamizki, respublika miqyosida har bir tumanda voyaga etmaganlar orasida jinoyatchilik va

shunga o'xshash salbiy illatlarni oldini olishga qaratilgan diagnostik, korreksion, profilaktik va rehabilitatsion markazlari tashkil qilish. Turli vazirliklar va mutasaddi idoralar tomonidan mazkur markazlar faoliyatini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, voyaga etmaganlarning huquqlari, ijtimoiy nufuzi, o'qishga layoqatsizligini tiklashga qaratilgan kompleks, ko'p darajali, bosqichli va dinamik tizimni jamiyat, mahalla faollari bilan birgalikda innovatsion yondashgan holda yaratish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva SH.A. O'spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etish. Monografiya. - Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari, 2010. - 157-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 2019 yil 20 sentyabrdagi 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan.
3. A.Avloniy. Tanlangan asarlar 2 jildlik, 2- jild. T., "Ma'anviyat" 2006 yil 35-bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 2022 yil 30 iyun "YOshlar kuni" munosabati bilan mamlakat yoshlariga yo'llagan tabrik nutqidan.



Nizom TANGIROV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, (PhD)
E-mail: nizom3686@gmail.com

(PhD) M.Nurtulashev taqrizi asosida

NOOSFERA KONSEPSIYASINING MAZMUNI VA MOHIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada noosfera konsepsiyasining ontologik mazmun va mohiyati falsafiy-metodologik jihatdan ochib berilgan. Shuningdek, noosfera konsepsiyasiga oid falsafiy qarashlarning rivojlanish tarixi dialektik nuqtai nazardan tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Noosfera, borliq, paradigma, evolyusiya, biosfera, aql, nazariya, amaliyot, bilish, hayot, nosferaviy tizim, uyg'unlik.

СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ КОНЦЕПЦИИ НООСФЕРЫ

Аннотация

В данной статье онтологическое содержание и сущность концепции ноосферы раскрываются с философско-методологической точки зрения. Также с диалектической точки зрения изучается история развития философских взглядов на концепции ноосферы.

Ключевые слова: Ноосфера, существование, парадигма, эволюция, биосфера, разум, теория, практика, познание, жизнь, носферная система, гармония.

CONTENT AND ESSENCE OF NOOSPHERE CONCEPT

Annotation

In this article, the ontological content and essence of the concept of the noosphere is revealed from a philosophical and methodological point of view. Also, the history of the development of philosophical views on the concept of the noosphere is studied from a dialectical point of view.

Key words: Noosphere, existence, paradigm, evolution, biosphere, mind, theory, practice, cognition, life, nospheric system, harmony.

Kirish. Bugun jahonda ilmiy bilimlarning bemisl darajada o'sishi, texnika taraqqiyoti – inson aql sferasi (Noosfera)ni kengayishiga, uni har tomonlama rivojlanishiga olib keldi. Shu jihatdan, inson aql sferasi imkoniyatlarini alohida tadqiqot sohasi sifatida o'rganadigan noosferologiya fani shakllandi. Bugungi kunda jahonda noosfera tadqiqotlariga doir turli institut va tadqiqot markazlari, jumladan, Rossiya Federatsiyasining Moskva, Sank-Peterburg va boshqa shaharlarida joylashgan Noosferaviy ma'naviy-ekologik Butunjahon assambleyasi, Noosferaviy Jamiyat Fanlar Akademiyasi hamda Noosferaviy ishlab chiqarish va tadqiqotlar institutlari faoliyat yuritib kelmoqda. Mazkur tadqiqot markazlarida noosfera konsepsiyasining inson, jamiyat, tabiat va kosmos taraqqiyoti bilan bog'liq nazariya va amaliy masalalari har tomonlama chuqur o'rganilmoqda. Shu jihatdan, respublikamizda ham Noosfera konsepsiyasining mazmun-mohiyatini, asosiy g'oyalarini tadqiq etish, uni keng jamoatchilikka yetkazish bugungi kundagi dolzarb hal etilishi lozim bo'lgan va o'z yechimini kutayotgan – yangi ilmiy soha sifatida ahamiyatli.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Noosferaning tarixiy genezesi avvalo, insonning stixiyali ong faoliyatida aql va ratsionallashuv ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bunda intellekt masalasi falsafa va fan tarixida qadimdan dolzarb muammo bo'lib kelgan. Har bir falsafiy maktab o'z ta'limotidan kelib chiqqan holda intellekt muammosiga turli nuqtai nazardan yondashadi. Noosfera tushunchasining mazmun-mohiyati va ilmiy tasnifi falsafiy-metodologik jihatdan asoslangan, uning substansional negizlari (tabiiy-geografik sharoit, ijtimoiy muhit va antropogen ta'sir) ahamiyatlidir.

O'z navbatida intellektning rivojlanishi tug'ma iste'dod, miya imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq[1]. Intellekt olamni hissiy va ratsional bilishning vositasi sifatida insonni kundalik amaliy faoliyatidagi bilim va tajribalarning boyib borishi natijasida moddiy va ma'naviy madaniyatni vujudga keltirdi. Bu Vernadskiy ta'kidlaganidek, Inson tafakkuri o'z ijtimoiy borlig'i, makonida biosferadagi yana bir ulkan geologik hodisa sifatida Aql sohasi – noosferani namoyon qildi. Shu ma'noda, noosfera to'g'risidagi ta'limotlarning shakllanishiga ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy shart-sharoitlar, albatta o'zining muhim ta'sirini o'tkazgan.

Buni biz tan olgan holda, ushbu konsepsiyalarning vujudga kelishida o'sha davr dunyoqarashi va tabiiy-ilmiy fanlar rivoji ham alohida o'rin tutganligini hisobga olishimiz va mazkur masalalar doirasidagi konseptual yondashuvlarni tizimli ravishda tadqiq qilish lozim. Avvalo, noosfera inson bilishining mahsuli, ong taraqqiyotining kosmik darajasi. Bunda noosfera insonning o'z tafakkuri va amaliyotini qamrab oladi. Aql va uning geologik xarakterini E.Lerua va L.Teyyar de Shardenlar yaxlit kompleks holda o'rganib, buni "Noosfera" (Aql-idrok sferasi) deb atashdi. Yer kurrasidagi biosferani antropogen ta'sirda o'zgartirish darajasi – Noosferani namoyon qiladi. Per Teyyar de Sharden fikricha, dastlab Tafakkur fazosi yer hayotida kuchni keltirib chiqargan holda bunda uning o'z qobiliyatini tanqid qilish va ularga baho berishiga to'xtalib o'tgan. Bu esa, bizdan global doiradagi muammolarni hal etishdagi munosib fikrlashni, dunyoga bir butun birlik sifatida yondashishni talab etadi.[2]

O'z navbatida aql "inson tabiati"dagi nuqsonlarni bartaraf etib, uning tabiatda tur sifatida saqlanib qolishini ta'minladi. Buni sodda mehnat qurollarini kashf etish orqali

amaliy tajribasi boyib borishida ko'rishimiz mumkin. Inson aqliy intellektining obyektiv olamni bilish funksiyasi fan qonunlari, kategoriyalar tizimini kengayishiga olib keldi. Aqlning ilmiy ratsional rivoji fan-texnikaning imkoniyatlarini oshirdi va yangicha madaniy sivilizatsiyaviy hayotni barpo qildi.

Insonning tabiiy muhitga ta'siri qadimgi davrlarda o'ta kuchsiz bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan inson qo'lida qudratli kuch va quvvat manbalari to'plangach, uning tabiatga ta'siri sezilarli darajada o'zgarib boshladi. Inson atrof-muhitni ifloslantirib, biosferadagi tabiiy muvozanatni izdan chiqara boshladi. Noosfera konsepsiyasi o'z ichiga bugungi kun sivilizatsiyasi va global tabiiy jarayonlarning o'zaro munosabati tizimidagi muammolarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu masalaning yechilishi bevosita insonning aql-idrok kuchi bilan bog'langandir. Inson o'zligini anglamas ekan, uning sayyoramizga halokatli ta'siri kuchaygandan kuchayib, oxir-oqibatda uning o'zini ham halokatga olib borishi mumkin, degan ilmiy bashoratlar bor. Haqiqatan ham inson faoliyati aql-idrok bilan oqilona boshqarilmas ekan, u Yer yuzining halokatini tezlashtirishi muqarrar.

Noosfera konsepsiyasi doirasida fanlararo tadqiqot metodlarining integratsiyalashuvi namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham noosferaga oid tadqiqotlarni olib borishning o'zida har bir ongli insonni qiziqtirayotgan savollarga javob izlanmoqda. Bunday savollar jumlasiga koinot nima, koinotning o'lchami qachon sodir bo'ladi, hayot qanday paydo bo'lgan, koinotda inson yagona mavjudotmi, yer yuzidagi aholi qanchagacha ko'payib borishi mumkin, insoniyat xavfli kasalliklarni yenga oladimi, insonni o'zi qanday paydo bo'lgan, ong nima degani, iqlimni nima boshqaradi, qanday qilib bir hujayra butunbir organizmga aylanadi, sun'iy intellektni shakllantirishdan maqsad nima, nanofan va nano texnologiyani istiqbolli qanday bo'lishi mumkin, fuqarolik jamiyatining imperativlari nimalar bilan belgilanadi, texnosfera va informatsion jamiyatning asosiy taraqqiyot tendensiyalari nimalar bilan bog'liq, bioetika va noosfera g'oyalarning strategik yo'nalishlari ishlab chiqishdan maqsad nima va boshqalarni kiritishimiz mumkin.[3]

Noosfera konsepsiyasiga oid qarashlarni nazariy o'rganishda fransuz faylasufi E.Leruaning izlanishlari katta ahamiyatga ega. Uning fikricha, noosfera olam taraqqiyoti va rivojlanishining alohida bosqichi, deb tushungan. E.Leruaning noosfera nazariyasi yunon faylasufi Plotinning (205-270) yagona (yaxshilik bilan birlashtirilgan noma'lum asosiy mohiyat) onga va dunyoga ruhga chiqishi, keyinchalik ikkinchisining yana o'zgarishi haqidagi g'oyalarga asoslanadi. Plotinning fikricha, avval o'z-o'zidan g'oyalar olamini o'zida mujassam etgan aql (nous) dunyosini chiqaradi, so'ngra aql o'zidan alohida ruhlarga bo'lingan va hissiy dunyoni yaratuvchi dunyo ruhini hosil qiladi.

Boshqa mutafakkir, evolyusionist olim Per Teyyar de Sharden esa noosferani olamning aql cho'qqisi - teosfera tomon og'ishmay harakat qilishidagi oraliqdagi bosqich, deb hisoblagan. E.Lerua va Teyyar de Shardenning evolyutsion modeli neoplatonizmning asosiy qoidalarini takrorlaydi. Albatta, koinotning paydo bo'lishi, yerda hayotning paydo bo'lishi va rivojlanishi zamonaviy ilm-fan nuqtai nazaridan tasvirlangan, ammo kontsepsiyaning asosiy konturi neoplatonistlar tamoyillariga mos keladi. Yunon faylasufi Plotinning so'zlariga ko'ra, inson tafakkur chegarasidan chiqib, aql doirasiga o'tishga intiladi, shunda ekstaz orqali yagonalikka birikadi. Teyyar de Sharden fikricha, inson ham aql doirasiga o'tishga va Xudoga tomon intiladi.

Lekin, akademik V.Vernadskiy tomonidan ifoda etilgan noosfera konsepsiyasi mazmun va mohiyatida fan va ishlab chiqarish taraqqiyoti doirasi dialektik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Masalan, A.D.Ursulning fikriga ko'ra, global sayyoraviy jarayonlarni, shu jumladan noosfera jarayonlarini

o'rganishning kelib chiqishi aynan shu mutafakkirga borib taqaladi, u aql sohasini (noosfera) yaratish uchun fanga alohida ahamiyat bergan va uning zamonaviy rivojlanishi bu bashoratni tasdiqladi. V.I.Vernadskiyning asarlarida noosfera haqidagi ta'limoti boshidanoq sayyoraviy nuqtai nazardan shakllangan, ya'ni, noosferaviy globalizm (nooglobalizm) dunyoqarashi sifatida, bunda globalizm va noosferaning shakllanishi g'oyalari dunyoqarashning yaxlit shakliga birlashtirilgan[4].

Jamiyat ijtimoiy hayotida kun tartibiga qo'yilgan noosferaviy intilishlar (maqsadlar) strategiyasi biosferani buzmaydigan, inson tomonidan boshqariladigan rivojlanishni ifodalaydi. Akademik N.N.Moiseev fikricha, biosfera va noosfera tizimida evolyutsiya tamoyilini amalga oshirish kelajakni ta'minlashning asosiy sharti bo'ladi va fundamental ekologiya fani insoniyatning buyuk ensiklopediyasi va yordamchisi bo'lib chiqadi.[5] Akademikning fikricha, ekologiya kabi fanning rivojlanishini kechiktirib bo'lmaydi, chunki biosfera o'z imkoniyatlari chegarasida asrab va avaylanishga, e'tiborga muhtoj.

Noosfera rivojlanishi jarayonini modelini yaratish insoniyat sivilizatsiyalari (10 ming yilga yaqin) tajribasiga asoslangan. Ushbu vaqt bo'lagi (qismi) kelajakka ishonarli darajada ekstrapolyatsiya qilish uchun juda kam (qisqa)dir, shuning uchun inson hayoti mazmuni, rivojlanish maqsadlari va "keyin nima qilish kerak bo'ladi" kabi savollarga bag'ishlangan munozaralarning oxiri yo'q. Strategik boshqarish nazariyasi rivojlanish maqsadini tanlashda qilingan xato taqdiriy (fatalny) bo'lishi mumkin, deb ta'kidlaydi. Qo'yilgan savollarni javobsiz qoldirish mumkin emas, chunki xatoning bahosi juda baland.

Noosferaning bir bo'lagi sifatida sun'iy infosfera (axborotlashgan qobiq) kompyuterlarning "yadrosi"da paydo bo'ladi. Shu o'rinda aytish mumkinki, tabiiy intellekt tizimining yaxlit holga kelishida bilimni saqlash va o'zlashtirish jarayoni ahamiyatli. Shu jihatdan, sof ekologik faoliyat "tabiat-jamiyat-inson" koevolyutsiyasini uyg'unligi asosida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim hodisadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Fan tarixi muayyan davr talablari va ehtiyojlari asosida ilmiy tushunchalar, g'oyalar va nazariyalar rivojlanib borishi bilan bog'liq bo'lgan obyektiv jarayon. Jumladan, tabiiy va ijtimoiy fanlar tizimida Noosfera va unga oid qarashlar nazariy-konseptual ahamiyatga ega. Noosfera tushunchasini anglash bevosita olamning ilmiy manzarasini falsafiy-metodlar yordamida tushunish va o'rganish bilan bog'liq.

Noosferani ob'yekt sifatida tushunish, avvalo, unga nisbatan yondashuvlarni klassifikatsiyalashda yaxlit namoyon bo'ladi. Noosferologiya - bu kosmos, hayot va ong yevolyutsiyasini ongli hayot evolyutsiyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqadigan ilmiy va falsafiy fanlarning sintetik majmuasidir.[6]

Energiya va noosferologiyaning birlashuvida yangi murakkab ilmiy va falsafiy tartib - kosmos, sayyora, insoniyat evolyutsiyasini ong evolyutsiyasi deb hisoblaydigan, ammo energiya va energiya-axborot pozitsiyalaridan, shu jumladan energiyaning butun spektridan - sub'yektiv va ob'yektiv ravishda shakllanishi mumkin.

Nosferaning ontologiyasi, uning dinamikasi ko'p jihatdan nosferani tashkil qilish orqali aniqlanadi (biosferani tashkil qilish bilan o'xshashligi - V.I.Vernadskiy atamasi). Noosferani vujudga kelishi bevosita inson miyasining tabiiy rivojlanishi bilan bog'liq. Homo sapiens miya faoliyati natijasi sifatida unda xotira, rivojlangan nutq va mehnat bilan bog'liq faoliyat jarayonida ijtimoiylashib bordi.

Inson va insoniyat jamiyati yuzaga kelishi va rivojlanishi bilan biosfera qonuniyatli suratda Noosferaga o'tadi, chunki, insoniyat tabiat qonunlarini egallab va

texnikani rivojlantirib, tabiatni o'z ehtiyojlariga muvofiq ravishda tobora ko'proq o'zlashtirib boradi. Noosfera insonning kosmosga chiqishi va planetaning bag'riga kirib borishi hisobiga uzluksiz kengayishga moyilligi ilk fan kurtaklarining paydo bo'lishi va faoliyat sohasi sifatida ajralib chiqishi va fanning texnikaga tadbiq etilishi bilan bog'liq. Shu o'rinda N.N.Moiseev "Noosfera tushunchasida tabiat taraqqiyoti mantig'ini, Yerning ustki qobig'ida uning kelajagini ko'rish mumkin"[7].

Noosfera rivojlanishi endilikda ijtimoiy tizimdan tabiiy tizimga ko'chadi va bunda noosferaning tabiiy ekosistemalarni ta'minlanishda koevolutsiya nazariyasi ilgari surilmoqda. Hozirda progressiv rivojlanish falsafasi barqarorlik uyg'unlik falsafasiga o'tmoqda. Insoniyat o'z aql-zakovati bilan turli darajadagi tizimlarni muvozanatga keltirish, tabiat va jamiyatni uyg'unlashtirish yo'llarini izlaydi. Butun biosferani yoki uning ayrim tarkibiy qismlarini uyg'unlashtirish (bunda ichki, tabiiy uyg'unlik nazarda tutiladi) va tabiiy omillar va texnikaviy omillar muvozonatini saqlash nazarda tutilmoqda. Bioevolutsiya bilan texnoevolutsiya tezligi o'rtasidagi farq katta (taxminan 30 baravar) bo'lganida tabiat va jamiyatning koevolutsiyasi to'g'risida gap yuritish noo'rin[8].

Noosferani holat sifatida talqin qilishda unga nisbatan dinamik va statik jihatlar namoyon bo'ladi. Bunda Noosferaning dinamik holati jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti yo'nalishini aniqlashga yordam beradi. Noosferaning statik holatida kosmos-tabiat-jamiyat tizimidagi o'zaro zaruriy va ehtimoliy jarayonlar namoyon bo'ladi.

Noosferani natija sifatida tushunishda uning jamiyat hayotidagi ijobiy (konstruktiv) va salbiy (desktruktiv) holat va imkoniyatlarini aytish mumkin. Demak, Noosfera tabiiy taraqqiyotning ham obyektiv, ham subyektiv imkoniyati va natijasi sifatida vujudga keldi. Endilikda falsafa va fanlar tizimida Noosfera g'oyasi va konsepsiyasini tushuntirishda mana shu tizimli yondashuvlardan o'rinli foydalanish, uni utopik-hayoliylikdan ko'ra, aniq va adekvat mohiyatini tushunishimizga yordam beradi.

Jamiyat ilmiy potentsiali kuchayishida bilimlar to'planib borishi va olam qonunlarining kashf qilinishi, o'z navbatida, noosferani xavf ostiga qoldiradi. Darhaqiqat, noosfera rivojlanishi haqidagi bashoratlarda tabiatning xavf ostida qolganligi, agar inson amalda o'zini anglamasa, tabiat bilan birgalikda xavf ostida qolishi aytilmoqda. Shuning uchun hozirgi ekologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy sivilizatsiyalar taraqqiyoti xavfli tus olganligi haqidagi ta'limotlar ilgari surilib, unda insoniyatning o'zi bosh sababchi ekanligi, unga qarshi jahon hamjamiyati birgalikda kurashi zarurligi ko'rsatilgan. Umuman, ekologik noosferaviy harakat guruhlari faoliyatining mustahkam g'oyaviy-mafkuraviy mavqega ega bo'lishida, ularning ma'naviy-axloqiy pozitsiyasi bilan aqliy intellektual salohiyati uyg'unlashuvi asosiy rol o'ynamoqda.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda Noosfera jamiyat moddiy va ma'naviy hayotida va inson intellekti imkoniyatlarida moddiylashadi va o'z-o'zini tashkillashtiradi. Noosfera ta'limotida "tabiat-jamiyat-inson" munosabatlari koevolutsiyasini ta'minlashdagi rolini oshirish muammolari mavzuni konkret va atroflicha tadqiq etish vazifalaridan kelib chiqadi. Shu jihatdan, noosfera

konsepsiyasining markaziy tushunchasi hisoblangan noosfera tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Noosfera insoniyat ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning muayyan zaruriy bosqichi bo'lib, unda inson va tabiat dialogi yangicha mazmun kasb etadi va barqaror rivojlanish g'oyasiga muvofiqligi taqozolanadigan fenomen.

Noosfera konsepsiyasining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Sintetik funksiyasi - ayrim shubhasiz to'g'ri, ishonchli bilimlarni yaxlit, butun sintetik tarzda birlashtiradi:

2. Tushuntirish funksiyasi - sababli va boshqa bog'lanishlarni, ushbu voqelikni turli-tuman aloqadorligini, uning kelib chiqishi va rivojlanishining mohiyatini aniqlaydi.

3. Metodologik funksiyasi - nazariya asosida xilma-xil usullar, tadqiqotchi faoliyatining usullari va yo'llari shakllanadi.

4. Bashorat funksiyasi - oldindan aytib borish. Ma'lum mavjud xodisalar to'g'risida nazariy tasavvurlar asosida ilgari no'malum, o'rganilmagan obyektlar yoki ularning xususiyatlari, hodisalar to'g'risidagi bog'lanishlar asosida xulosa chiqariladi. Hodisalarning kelajakdagi holatini oldindan aytib berishni ilmiy bashorat deb atash mumkin.

5. Amaliyot funksiyasi. Har qanday nazariyaning oxir-pirovarid maqsadi amaliyotga joriy etilishi, nazariya obyektini hozirgi ahvolda, ko'rinishida aks ettiradi, shu bilan bir vaqtda uning o'tmishdan hozirgi zamonga, undan keyin kelajakda rivojlanishining muhim yo'nalishlarini, tendensiyalarini aniqlab beradi. Shuning uchun nazariya o'zgaraydigan, abadiy bo'lishi mumkin emas, hamma vaqt rivojlanish darajasi oshib takomillashadi va voqeylikning rivojlanishini aks ettiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, noosfera har qanday (hatto shakllanayotgan) ko'rinishdagi "insoniyashtirilgan" tabiatni qamrab oladi, shuningdek, har doim tabiat va jamiyat uyg'unligining o'zaro-biriga o'tishi va o'zaro ta'siri doirasini ham taqozo qiladi. Noosfera konsepsiyasiga doir bilimlarni o'rganishda Noosfera g'oyasi rivojlanishining tarixiy shart-sharoiti va asoslarini o'rganish muhim masaladir. Zero, har qanday bilim taraqqiyoti avvalo, muayyan shart-sharoit, ehtiyoj, ijtimoiy-tarixiy vaziyat va unga oid g'oyalar mantig'ida paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Shu jihatdan Noosferani tushunishda uning jamiyat hayotidagi ijobiy (konstruktiv) va salbiy (desktruktiv) holat va imkoniyatlarini aytish mumkin. Bu esa noosfera taraqqiyotiga nisbatan optimistik, pessimistik, alarmistik yondashuvlar ham vujudga kelishiga olib keldi. Demak, Noosfera tabiiy taraqqiyotning ham obyektiv, ham subyektiv imkoniyati va natijasi sifatida vujudga keldi. Endilikda falsafa va fanlar tizimida Noosfera g'oyasi va konsepsiyasini tushuntirishda mana shu tizimli yondashuvlardan o'rinli foydalanish, uni utopik-hayoliylikdan ko'ra, aniq va adekvat mohiyatini tushunishimizga yordam beradi. Hozirgi zamondagi ekologik muammolar, inson tomonidan tabiiy atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va halokatini to'xtatib qolishdan iborat. Bu insonning olamni qay darajada bilishiga va o'z hayotini saqlab qolish mas'uliyatini anglashiga bog'liqdir. Zero, inson tabiatda va jamiyatda tutgan o'z o'rmini to'g'ri anglasa, o'zini ham, atrof-muhitni ham, avaylab-asraydi, Yer yuzini yanada gullatib yashnatadi.

ADABIYOTLAR

1. Falsafa ensiklopedik lug'at / O'zR FA, I.Mo'minov nomidagi falsafa va huquq instituti. – Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. –B. 139.
2. Синергетическая парадигма. –М.: Прогресс-Традиция, 2000. –С. 536.
3. Bozarov D.M. Sinergetika paradigmasining falsafiy-metodologik tahlili / 09.00.01 – Ontologiya va bilish nazariyasi ixtisosligi Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi/–Toshkent, 2010. –B. 32.
4. Урсул А.Д. Феномен ноосферы: глобальная эволюция и ноосферогенез. -Москва: Ленанд 2015. -С.6.
5. Моисеев Н.Н. Думая о будущем // Экология и жизнь. 2002. URL: www. ecolife.ru (дата обращения: 29.03.2017).

6. Жульков М.В. Ноосферный энергетизм: фундаментальная онтология // *Философская мысль*. 2017. № 9. – С. 23 - 45. DOI: 10.25136/2409-8728.2017.9.24066 URL:https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=24066
7. Моисеев Н.Н. Человек и ноосфера. – Москва, Молодая гвардия, 1990. -С. 11.
8. Xoshimova I.S. Ekologiyaga oid g'oyalar tizimi // *G'oyalar falsafasining nazariy-metodologik asoslari*. (O'quv qo'llanma) / M.N.Abdullaeva, N.O.Safarova, I.S.Xoshimova va boshqalar. – T.: O'zMU, 2013. -B.48.



Ma'ruf TEMIROV,
Qarshi Xalqaro innovatsion universitet o'qituvchisi
E-mail: temirov@mail.ru

SHDPI professori P.M.Jalolova taqrizi asosida

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR IMPROVING SELF-DEVELOPMENT SKILLS IN FUTURE TEACHERS

Annotation

Pedagogy consists in improving the methodology of developing design competence of students of higher educational institutions. Development of a model of didactic-pedagogical conditions for the development of pedagogical design competence in order to prepare students of higher educational institutions of pedagogy for professional and pedagogical activities, innovative education aimed at effective conducting of training sessions in general and specialized subjects in higher educational institutions of pedagogy to expand the opportunities to develop design competence of students by developing lim technologies and methods.

Key words: Design, competence, innovative educational technology, ethical, professional activity, intelligence, Cognitive activity.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАВЫКОВ САМОРАЗВИТИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

Педагогика заключается в совершенствовании методики развития проектной компетентности студентов высших учебных заведений. Разработка модели дидактико-педагогических условий развития педагогической проектной компетентности в целях подготовки студентов педагогических вузов к профессиональной и педагогической деятельности, инновационному образованию, направленному на эффективное проведение учебных занятий по общим и профильным предметам в высшем учебном заведении. педагогических учреждений расширить возможности развития проектной компетентности студентов путем разработки технологий и методов ЛИМ.

Ключевые слова: Дизайн, компетентность, инновационная образовательная технология, этика, профессиональная деятельность, интеллект, Познавательная деятельность.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH KO'NIKMASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Bo'lajak o'qituvchilarda o'qitish samaradorligini oshirish o'z ustida mustaqil ishlab o'zlarining mahoratini va malakalarini doimiy oshirib borish, o'z-o'zini rivojlantirish kompetentligini ko'nikmasini takomillashtirishdan iborat.

Bugungi davrda globallashtayotgan insoniyat hamda yosh avlodlar oldida yuksak imkoniyatlar ochmoqda. Shuningdek, ularni avval ko'rmagan har xil xatarlar bilan duch kelmoqda. Yovuz niyatli shaxslar tomonidan sodda, g'o'r, ishonuvchan yoshlarni o'z ota-onasiga, o'z mahalasiga o'z yurtiga qarshi amallar, ularning umriga, oilalarning yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'lmoqda

Kalit so'zlar: Dizayn, kompetentsiya, innovatsion ta'lim texnologiyasi, axloqiy, kasbiy faoliyat, intellekt, Kognitiv faoliyat.

Kirish. O'qitish samaradorligini oshirish ko'p jihatdan, o'qituvchilarning o'z ustida mustaqil ishlab o'zlarining mahoratini va malakalarini doimiy oshirib borish bilan bog'liq. Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan har bir o'qituvchidan doimiy o'z ustida mustaqil ishlash ish rejasi bo'lishi talab qilinadi. Bu ish rejasi quyidagi bo'limlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq:

siyosiy-g'oyaviy darajasini doimiy oshirib, siyosiy adabiyotlar o'qishi, muammoli tadbirlarda, bahs-munozaralarda faol qatnasha olishadi;

kasbiy malakasini doimiy ravishda oshirish, fanlar bo'yicha ilmiy-nazariy, ilmiy- uslubiy materiallarni o'qish, dokladlar taqdim etish hamda uni muhokamadan o'tkazish, shu bilan birga ochiq darslarda faol qatnashish;

kasbiy bilim, malaka hamda uslubiy tayyorgarligini oshirish;

ma'naviyat, nafosat ko'rsatkichlarini rivojlantirish [24].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchi N.A.Yuldashevaning ilmiy ishida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda ta'lim oluvchilar yosh va ruhiy xususiyatlarini e'tiborga olishning deduktiv va induktiv metodlari orqali milliy tafakkurni o'stirish, mustaqil o'qish, turli xil ijodiy

asarlarni tahlil qilish, taqqoslash solishtirish, kerakli maqsadni qo'ya olish kabi mustaqil individual tafakkur bilimlarni shakllantirish qaratilgan pedagogik-psixologik jihatlarining shu jarayonga kreativ, konstruktiv, axborot-kommunikativ, reflektiv hamda ijtimoiy-didaktik tomonlarni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Identiklik muammosi ko'p qirralidir. Bu nafaqat har bir shaxs va har bir madaniyat uchun ma'no shakllantirishda «Biz kimmiz?» degan savolni o'z ichiga oladi, shu bilan birga uning yakuniy asosi sifatida chuqur metafizik savol bor: «Inson bu nima?». Globallashtayotgan insonning haqiqiy mavjudligining chuqur asoslari masalasini dolzarblashtirmoqda, ya'ni globallashtayotgan milliy-etnik va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmasi ning roli o'zgarishi yuzasidan global jarayonda identifikatsiya masalasini ko'taradi.

Xalqaro Nobel mukofati sohibi J.Stiglis o'zining «Globallashtayotgan davlatlar» kitobida shunday yozadi: «u yoki bu xalqning globallashtayotgan jarayonidan qanday ne'matlarni tatib ko'rishi asosan milliy hukumatning samarali faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Ko'pchilik bozor iqtisodiyoti jarayonida davlatning rolini oshirishni yetakchi g'oya deb hisoblaydi. Ular bir narsani hisobga olishni istamaydilar, «bozor munosabati qonuniyatining o'zi jamiyatimizdagi

barcha ijtimoiy muammolar yechimini o'z joyiga qo'yadi. Davlatning zimmasida esa ijtimoiy tengsizlik, ishsizlik, global darajada atrof-muhitning ifloslanishi kabi muammolarni hal etish asosiy bo'lib qolishi kerak».

Tadqiqot metodologiyasi. Xalqimizning yosh avlodni ijtimoiy maishiy hayotga tayyorlashdagi milliy urf-odati va an'analari, ta'lim-tarbiya sohasidagi ko'p asrlar qo'llagan usul va vositalari, ibratli tajribalari, dostonlar, ertaklar, askiyalar, latifalar, naqlar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, hikmatlar, allalar va boshqalardan iborat xalq pedagogikasida mujassamlashgandir. Shu jihatdan xalq pedagogikasi buyuk donishmandlarning yoshlarni davr talablariga muvofiq inson qilib yetirishda, ta'lim-tarbiya ishlarini samarali amalga oshirishda, milliy o'zligini anglashda qo'llagan usul, vosita va tajribalar yig'indisidan iboratdir [1].

Mohiyatiga ko'ra innovatsion jarayon ilmiy izlanishlar, ishlanmalar ishlab chiqish, tajriba-sinov tadbirlarini olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalana olish asosida yangi rivojlantirilgan mahsulotni yaratishdan iboratdir. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy identiklikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirishda innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o'ziga xos yondashuvlar kuzatiladi, ular [3]:

1. Gnostik-dinamik yondashuv – unga ko'ra o'qituvchilar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg'or pedagogik innovatsiyalar va ularni o'rganish, ularni mahalliy lashtirib pedagogik amaliyotda ulardan samarali foydalanishga doir nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malakasini izchil o'zlashtirish, bo'lajak o'z kasbiy faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni mashg'ulot jarayonida faol qo'llash tajribasini o'zlashtiradilar.

2. Individual faoliyatli yondashuv – bunda o'qituvchilar o'zlarining individual intellektual imkoniyatlari, qobiliyatlarini va pedagogik tajribalariga tayangan holda amaliy

faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni mashg'ulot jarayonida samarali qo'llashda muayyan izchillikka erishadilar.

3. Dialogik yondashuv – bu pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o'zaro, xususan, ko'p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega o'qituvchilarning faoliyatlarini bilan yaqindan tanishish, ularning pedagogik innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzluksiz qo'llashga doir tavsiya hamda ko'rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi 4; 38-44-b].

4. Insonparvarlik yondashuvi – yondashuv pedagogik vaziyatda innovatsiyalarni qo'llay olishda o'qituvchilarning intellektual imkoniyatlari, qiziqishlari, nazariy bilim, xohish-istaklari, amaliy ko'nikma hamda malakalari darajasini inobatga olinib maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat ko'rsatadi.

5. Individual-ijodiy yondashuv – bunga ko'ra barcha o'qituvchi faoliyatida o'rganilayotgan yangi mavzu, o'quv materialining mohiyati, o'z imkoniyatlari, intellektual salohiyati, kasbiy mahorati hamda malaka amaliyotidan foydalangan holda ta'lim-tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida loyihalashtirish tashkil etiladi [5].

Tahlil va natijalar. Talabalarda milliy identiklikni rivojlantirishda milliy-ma'naviy qadriyatlardan samarali foydalanish yuqori natija beradi. Buning uchun guruhli ishlash yo'li qo'l keladi. Guruhli ishlashda barcha o'qituvchining shaxsiy, g'oyaviy, axloqiy, mafkuraviy fikr, qarashlari e'tiborga olinib ular ustida munozara muhokamalarning olib borilishi keng ko'lamdagi fikrlar – qarashlarning qo'shimcha manbasini hosil qilib, buya kuniy jamoaviy yechimga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi [6].

Shulardan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida talabalarining o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmasi ni rivojlantirishning mexanizmi va uning ahamiyatini tasdiqlash uchun «Talabalarining o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmasi ni rivojlantirish» dasturini ishlab chiqish bo'yicha quyidagi ijtimoiy loyihani tavsiya etamiz.

Talabalarining o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmasi ni rivojlantirish

№	Loyiha tuzilmasi	Bajariladigan ishlar izohi
1	Loyiha nomi	Talabalarining o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmasi ni rivojlantirish
2	Amaliy loyiha	Muammoning qo'yilishi, muammoli vaziyat bayoni
3	Loyiha maqsadi	O'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmasi ni takomillashtirish bo'yicha dasturlarni yaratish
4	Loyiha vazifasi	- loyihani bajarish hamda rejalashtirish; - jarayonni amalga oshirishda shart-sharoitlarni yaratish olish; - milliy identiklikni hamda g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini oshirish; - intellektual hamda tadqiqotchilik madaniyatini, o'zini o'zi tashkil qilish madaniyatini takomillashtirish; - loyihani amalga oshirish; - o'qituvchilarning kommunikativ madaniyatini takomillashtirish
5	Loyiha obekti	Oliy ta'lim tashkilotlari o'qituvchilari
6	Loyiha predmeti	OTMda ma'naviy-axloqiy, g'oyaviy-mafkuraviy qadriyatlar sifatida milliy identiklikni rivojlantirish
7	Loyihaning me'yoriy-huquqiy asoslari	- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; - O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim haqida»gi Qonuni; - davlat ta'lim standartlari va ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlar
8	Loyihaning asosiy qatnashchilari	- kafedra professor-o'qituvchilari; - talabalar va magistrantlar
9	Shakllantiriladigan kompetensiyalar	- milliy identiklik, ma'naviy-axloqiy hamda g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan o'zini rivojlantirishga qobiliylik; - shaxsiy dunyoqarashga asoslanadigan pozitsiyani paydo bo'lishi uchun falsafiy bilimlardan foydalana olish qobiliyati; - shaxslararo hamda madaniyatlararo kommunikatsiyaga qobiliylik; - jamoa bilan hamkorlik qilish qobiliyati, ijtimoiy-etnik hamda madaniy farqlarni tolerant ravishda qabul etish; - zamonaviy ta'lim tizimida o'z kelajagini o'zi belgilash qobiliyati.

Jamiyatimizni axborotlashuvi natijasida vujudga keladigan har qil tahdidlar harbiy xususiyatdan ko'ra ko'proq ijtimoiy xususiyatga ega etganligi borasidagi xulosaga keldik. Birinchi navbatda gap axborot urushlari va son jihatdan ijtimoiy notenglik haqida bormoqda. Birinchi holatda kishilar sezdirmay boshqarish texnologiyalarining asirlariga aylanmoqda. Ikkinchi holatda ijtimoiy kamsitishning yangi turi axborotga kirish darajasi bo'yicha kamsitish vujudga kelmoqda, bulardan tashqari kiberterrorizm; tarmoqdagi faol foydalanuvchilarning da'voli hatti-harakatlarini boshqarish, vazifalarni bajaruvchi apparatli va dasturiy buyumlarga ushbu buyum hujjatlarida ko'zda tutilmagan bo'g'inlarni kiritish; axborot telekommunikatsion tizimlarining shu jumladan, axborotni himoyalash tizimlarining me'yordagi faoliyatini izdan chiqaruvchi dasturlarni ishlab chiqish va tarqatish; saviyasiz ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarida hamda aloqa

yo'llarida axborotni tutib qolish, ushbu axborotning ma'nisiga yetish hamda boshqa davlatlar tomonidan soxta axborotni tiqishtirish singari ma'lumotlar mavjud. Xulosa va takliflar.

1. Zamonaviy yoshlarda insoniyatning milliy va etnik xilma-xilligi, bebaho madaniy boylik bo'lib, turlicha an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar sifatida ularni asrab-avaylash, saqlash zarurligini, bu boylik har bir xalqning tarixiy merosi sifatida avlodlarga yetkazib berish shart ekanligini anglatmoqda zarur. Shu tariqa yoshlarning millatlararo munosabatiga muomila madaniyatini singdirish mumkin. Tarbiyaning bu jihati, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida keng miqyosda olib borilishi shart deb hisoblaymiz.

2. «Ommaviy madaniyat»ning turli xil ko'rinishlarining yoshlar orasida tobora keng tarqalishi natijasida, zamonaviy kiyinishda, qiziqishlarda, bo'sh vaqtini samarasiz o'tkazishida, didlarning sayozlashuvida, milliy va

umuminsoniy qadriyatlarga bepisandlik munosabatda namoyon bo'lmoqda. G'arb madaniyati qadriyatlarini o'zida ifoda etayotgan «ommaviy madaniyat» yoshlarimizda g'arbona individualizm, egotsentrizm, nigilizm, andishasizlik, behayolik va zo'ravonlik, milliy qadriyatlarga va ijtimoiy manfaatlariga bepisandlik bilan munosabatda bo'lish kabi illatlarni keltirib chiqarmoqda.

3. Talabalarimizni bilimli, teran taffakur sohiblari qilib tarbiyalash orqali o'tmish ma'naviy merosidan ijodiy foydalanish imkoniyatlari ulardagi ichki ehtiyojlar, xohish-iroda bilan uyg'unlashib ketmog'i lozim. Ana shundagina

yoshlarimiz milliy identiklikni bilish – o'tmishni anglashdan boshlanishini chuqur his etgan holda bugungi kun masuliyati va kelajak istiqbolini aniq-ravshan tasavvur qila oldilar. Bir so'z bilan aytganda, «tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» tamoyilining hayotiy isboti qaror topishi asoslandi.

4. Odob-axloqli, madaniyatli sog'lom avlod avvalo o'z Vatanini, milliy tili, urf-odatlarini, tarixi, marosimlarini sevishi, avlod-ajdodlari yaratgan ilmu-hunar javohirlarini egallamog'i, umuminsoniy qadriyatlardan xabardor bo'lmog'i, ularning mohiyatini chuqur anglab, ular bilan faxrlanmog'i, milliy identiklik tuyg'usini tuymog'i lozim.

ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadarlikning metodologik didaktik asoslari. Ped. fan. dokt. diss.- Toshkent, 2006.- 263 b.
2. Adilova D.N. Pedagogika oliy ta'lim muassasi talabalarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish (Zahridin Muhammad Bobur asarlari misolida). Ped.fan.bo'y.fals.dokt. (PhD) diss.avtoreferati. –Toshkent, 2022. –B. 8.
3. Алеуов У. Становление и развитие педагогической мысли в Каракалпакстане (С древнейших времен до 30-х годов XX века). Автореф.дисс.докт.пед.наук. –Т.: ТГПИ, 1995. -53 б.
4. Баришева Р.А. Киберпространство и проблема отчуждения. Автореферат дисс....канд.филос.наук. –Красноярск, 2009. –С.9.
5. Батырев Д.Н. Проблема национальной идентичности в глобализирующемся мире (социально-философский анализ): Автореф. дисс....канд.филос.наук. –Ростов-на-Дону, 2009. –С. 11.
6. Bekniyazov B.S. Tarixiy-madaniy meros vositasida o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish (Qoraqalpog'iston misolida). Ped.fan.bo'y.fals.dokt. (PhD) diss.avtoreferati. –Nukus, 2021. –B. 7-8.



Sevara TOGAYMURODOVA,
Teacher at the Alfraganus University
E-mail: validaravshan@gmail.com

UrDU dotsenti, PhD Q.Olloyorov taqrizi asosida

THE USE OF ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES ON PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL DEVELOPMENT OF STUDENTS

Annotation

This article explores the crucial role of education in preparing students for dual responsibilities: professional and pedagogical roles. The professional domain demands a skill set essential for success across diverse life facets, encompassing both professional and business arenas. In contrast, pedagogical roles focus on fostering competencies vital for effective teaching, mentoring, and guidance within educational settings.

Key words: Digital education, professional development, pedagogical roles, online learning, electronic educational resources, covid-19 pandemic, educational transformation, e-books, simulations, online courses.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ ПО ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОМУ РАЗВИТИЮ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В этой статье исследуется решающая роль образования в подготовке студентов к двойной ответственности: профессиональной и педагогической роли. Профессиональная сфера требует набора навыков, необходимых для достижения успеха в различных сферах жизни, охватывающих как профессиональную, так и деловую сферу. Напротив, педагогические роли сосредоточены на развитии компетенций, жизненно важных для эффективного преподавания, наставничества и руководства в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: Цифровое образование, профессиональное развитие, педагогические роли, онлайн-обучение, электронные образовательные ресурсы, пандемия Covid-19, трансформация образования, электронные книги, симуляции, онлайн-курсы.

TALABALARNIN KASBIY VA PEDAGOGIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH

Annatsiya

Ushbu maqola talabalarni ikki tomonlama: kasbiy va pedagogik jihatdan rivojlantirishda ta'limning hal qiluvchi roli haqida so'z boradi. Kasbiy soha hayotning turli jabhalarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirishni qamrab oladi. Pedagogik soha esa ta'lim muassasalarida samarali o'qitish, maslahat berish va yo'l-yo'riq ko'rsatish uchun muhim bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim, kasbiy rivojlanish, pedagogik rollar, onlayn ta'lim, elektron ta'lim resurslari, covid-19 pandemiyasi, ta'lim transformatsiyasi, elektron kitoblar, simulyatsiyalar, onlayn kurslar.

Introduction. Educational endeavors encompass a pivotal dimension, namely the preparation of students for dual roles: professional and pedagogical. Professional roles necessitate the acquisition of a skill set indispensable for success across multifaceted life domains, encompassing both the professional sphere and the business milieu. In contrast, pedagogical roles involve the cultivation of proficiencies essential for effective teaching, mentoring, and guidance within the educational setting. The cultivation of both these roles assumes significance in shaping students into successful adults.

Professional roles are inherently concerned with imparting students with the skills imperative for thriving in the professional realm. These skills encompass a spectrum, including adeptness in writing, public speaking, problem-solving, and critical thinking. Proficiency in effective communication, technological utilization in the workplace, teamwork, time management, and project oversight constitutes an integral facet of these skills. Mastery of these competencies is deemed essential for students to thrive in the dynamic landscape of the professional world.

Conversely, pedagogical roles encompass the instructive processes integral to transforming students into

effective educators. This paradigm involves an understanding of diverse learning styles among students, the creation of a conducive learning milieu, and the imparting of knowledge regarding various educational theories such as constructivism, along with their practical applications in the classroom setting. Additionally, the pedagogical domain entails equipping students with the capability to assess student learning effectively, providing constructive feedback, and offering guidance. These competencies are pivotal for students aspiring to become accomplished educators.

The holistic preparation of students for both professional and pedagogical roles stands as an indispensable facet of education. It is incumbent upon students to develop a skill set that ensures success not only in the professional arena but also within the educational domain. The provision of instruction in these skills is imperative, ensuring that students are aptly equipped to confront the challenges that the future may proffer.

Literature review. Empirical evidence suggests a substantial surge in global social media usage amid the Covid-19 pandemic, with a particular emphasis on its application in the educational domain [1]. According to Sh.A. Aljawarneh, digital tools, specifically social media platforms, have

assumed a pivotal role in facilitating remote teaching and learning during the pandemic. The statistical analysis of social media utilization during this period yields valuable insights into the widespread integration of digital tools within the educational landscape [1].

A comprehensive study conducted by M. Bond et al. on emergency remote teaching in higher education sheds light on the extensive shift towards online learning globally during the pandemic [2]. This research delineates the experiences of both educators and students during the inaugural global online semester, providing nuanced insights into the challenges and opportunities associated with the incorporation of digital tools in education. In the realm of nursing education, U. Langegard et al. delved into the pedagogical transition from campus-based learning to distance learning through the utilization of digital tools [5]. This study, focusing on the experiences of nursing students, contributes valuable insights into the adoption and efficacy of digital tools within this specific educational domain. A.W. Muzaffar et al. conducted a systematic review scrutinizing online e-learning solutions in e-learning, offering comprehensive insights into the methodologies, tools, and the global prevalence of digital assessment methods [6]. The research findings present statistical data on the worldwide adoption of online e-learning solutions, emphasizing the escalating reliance on digital tools for assessment in the realm of education. Research conducted by Ch. Greenhow and A.L. Chapman explores the utilization of digital tools, especially social media, in connecting students, teachers, and citizens during emergency situations [7]. This research underscores the potential of digital tools to bridge the gap between educators, students, and the broader community, fostering a sense of interconnectedness and support.

Results. The integration of electronic educational resources has significantly transformed the learning landscape for students. In the contemporary era, students are no longer confined to traditional classroom settings for accessing educational materials. The proliferation of online learning platforms has granted students access to a diverse array of educational resources, ranging from virtual classrooms to e-books and educational videos. These resources afford students the flexibility to engage in self-paced learning, with materials tailored to address their individual needs and interests. Moreover, the advent of digital learning facilitates universal access to educational materials, transcending geographical constraints and presenting a myriad of educational possibilities.

The accessibility of digital educational resources has precipitated a paradigm shift in instructional methodologies employed by teachers. Through the strategic utilization of technology, educators can customize their lessons to accommodate the unique needs of individual students, thereby delivering personalized instruction. Additionally, teachers can enhance the learning experience by incorporating multimedia resources, rendering lessons more engaging and interactive. This dynamic instructional approach provides educators with a comprehensive and dynamic toolkit, enabling them to offer students a more engaging and meaningful educational experience.

The deployment of digital educational resources has not only transformed instructional practices but has also engendered heightened collaboration between teachers and students. Utilizing online discussion boards and various digital tools, educators and students engage collaboratively in problem-solving, idea exchange, and resource sharing. This collaborative learning environment fosters a sense of

connectedness among students, instilling a community spirit and empowering them to assume ownership of their educational journey.

In summary, the utilization of electronic educational resources has positively influenced the learning methodologies of students, providing them with diverse and accessible educational materials. Simultaneously, educators benefit from enhanced instructional tools, fostering more engaging lessons and collaborative learning environments. The integration of digital learning represents a revolutionary shift in both student learning and teaching methodologies.

Discussion. In recent times, the educational landscape has undergone a profound transformation due to technological advancements, leading to the increasing prevalence of digital educational tools. Electronic educational resources, including e-books, simulations, and online courses, have rapidly emerged as the preferred mode of learning for students. This section outlines the various electronic educational resources along with their respective advantages and disadvantages.

E-Books: Among the prominent electronic educational resources, e-books stand out as a popular choice. E-books are digital renditions of textbooks, accessible on computers, tablets, or other electronic devices. Their popularity stems from being cost-effective compared to traditional textbooks, coupled with ease of accessibility and portability. E-books can be promptly updated to reflect the latest advancements in a particular field. While their primary advantages include affordability and convenience, drawbacks may arise, such as challenges in concentration, navigation, and annotation for some students.

Simulations: Another noteworthy electronic educational resource is simulations, interactive digital tools facilitating students' exploration of specific concepts or processes. Simulations cover a broad spectrum of subjects, from fundamental math and science concepts to intricate engineering and medical procedures. Particularly beneficial for visual learners, simulations provide an interactive and visual approach to understanding concepts and offer a platform for skill practice without the need for physical materials. Despite these advantages, the use of simulations may pose challenges in terms of cost, time, and user complexity.

Online Courses: Online courses represent an increasingly popular mode of learning, allowing students to engage in digital courses from any location with internet connectivity. These courses span a diverse range of subjects, from fundamental academic topics to specialized skills and certifications. The primary advantages of online courses include accessibility and convenience, enabling students to proceed at their own pace. Additionally, online courses often provide personalized instruction. However, potential drawbacks include higher costs compared to traditional courses and potential difficulties in maintaining focus for some students.

Conclusion. The integration of electronic educational resources delineates a paradigmatic shift within the domain of education, endowing students with flexibility, accessibility, and diverse learning modalities. While acknowledging the existence of challenges, the pronounced advantages associated with these resources markedly outweigh their drawbacks, contributing substantively to the establishment of a dynamic and inclusive educational milieu. The embracement of these transformative advancements is deemed imperative for educators and educational institutions to efficaciously prepare students for both professional and pedagogical roles within the evolving landscape of education.

REFERENCES

1. Aljawarneh, Shadi A.. (2020). Reviewing and exploring innovative ubiquitous learning tools in higher education. *Journal of Computing in Higher Education* , 32 , 57-73 . <http://doi.org/10.1007/S12528-019-09207-0>
2. Bond, Melissa., Bedenlier, S., Marín, Victoria I., & Händel, M.. (2021). Emergency remote teaching in higher education: mapping the first global online semester. *International Journal of Educational Technology in Higher Education* , 18 . <http://doi.org/10.1186/s41239-021-00282-x>
3. Ferguson, Rebecca., Brasher, Andrew., Clow, D., Cooper, A., Hillaire, Garron., Mittelmeier, Jenna., Rienties, B., Ullmann, T., & Vuorikari, Riina. (2016). Research Evidence on the Use of Learning Analytics: Implications for Education Policy. . <http://doi.org/10.2791/955210>
4. Stacey, M.. (2014). The FAB LAB Network: A Global Platform for Digital Invention, Education and Entrepreneurship. *Innovations: Technology, Governance, Globalization* , 9 , 221-238 . http://doi.org/10.1162/inov_a_00211
5. Långegård, U., Kiani, Kiana., Nielsen, Susanne., & Svensson, P.. (2021). Nursing students' experiences of a pedagogical transition from campus learning to distance learning using digital tools. *BMC Nursing* , 20 . <http://doi.org/10.1186/s12912-021-00542-1>
6. Muzaffar, A. W., Tahir, Muhammad., Anwar, Muhammad Waseem., Chaudry, Qaiser., & Mir, S.. (2020). A Systematic Review of Online E-learning Solutions in E-Learning: Techniques, Tools, and Global Adoption. *IEEE Access* , 9 , 32689-32712 . <http://doi.org/10.1109/ACCESS.2021.3060192>
7. Greenhow, Christine., & Chapman, Amy L.. (2020). Social distancing meet social media: digital tools for connecting students, teachers, and citizens in an emergency. , 121 , 341-352 . <http://doi.org/10.1108/ils-04-2020-0134>



UDK: 327

Jamshid TURAEV,
Doctorate student in Namangan State University
E-mail: Jamturaeff@gmail.com

P.f.d. prof. S.Turg'unov taqrizi asosida

MAKTABGA TA'LIMDA MOSLASHGAN TA'LIM KONTEKSTIDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN QO'LLAB- QUVVATNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Erta yoshdagi bolalar ta'limida adaptiv ta'lim kontekstida individuallashtirilgan yordam har bir bolaning o'ziga xos ehtiyojlari va rivojlanishini hisobga oladigan o'ziga xos xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv bolaning taraqqiyoti va faoliyatining ma'lumotlarga asoslangan tahliliga asoslangan shaxsiylashtirilgan ko'rsatmalar va tadbirlarni taqdim etish orqali o'rganishni moslashtiradi. Individuallashtirilgan adaptiv ta'lim yordamlarining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan ta'lim yo'llari, maqsadli aralashuv, tabaqalashtirilgan ko'rsatma, zudlik bilan qayta aloqa, taraqqiyot monitoringi, individual boyitish, moslashuvchanlik va moslashuvchanlik, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikdagi harakatlar kiradi. Bu xususiyatlar har bir bolaning qobiliyati, qiziqishlari va o'rganish uslubiga mos keladigan ko'rsatma va yordam olishini ta'minlaydi. Moslashuvchan ta'lim texnologiyasidan foydalangan holda, erta bolalik o'qituvchilari optimal ta'lim natijalarini qo'llab-quvvatlovchi va kelajakdagi ta'lim muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevor qo'yadigan qo'llab-quvvatlovchi va inklyuziv muhitni yaratishi mumkin.

Kalit so'zlar: Individual qo'llab-quvvatlash, moslashuvchan ta'lim, maqsadli aralashuv, tabaqalashtirilgan ko'rsatma, zudlik bilan qayta aloqa, taraqqiyot monitoringi, individual boyitish, moslashuvchanlik va moslashuvchanlik, hamkorlikdagi harakat.

ОСОБЕННОСТИ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ В КОНТЕКСТЕ АДАПТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

Индивидуализированная поддержка в контексте адаптивного обучения в дошкольном образовании включает в себя отличительные характеристики, которые учитывают уникальные потребности и развитие каждого ребенка. Этот подход адаптирует процесс обучения, обеспечивая персонализированные инструкции и вмешательства на основе анализа прогресса и успеваемости ребенка на основе данных. Отличительные характеристики индивидуальной поддержки в адаптивном обучении включают адаптированные траектории обучения, целевое вмешательство, дифференцированное обучение, немедленную обратную связь, мониторинг прогресса, индивидуальное обогащение, гибкость и адаптируемость, а также совместные усилия педагогов и родителей. Эти характеристики гарантируют, что каждый ребенок получит обучение и поддержку, соответствующие его способностям, интересам и стилю обучения. Используя технологию адаптивного обучения, преподаватели дошкольных учреждений могут создать благоприятную и инклюзивную среду, которая способствует оптимальным результатам обучения и закладывает прочную основу для будущего успеха в образовании.

Ключевые слова: Индивидуализированная поддержка, адаптивное обучение, целевое вмешательство, дифференцированное обучение, немедленная обратная связь, мониторинг прогресса, индивидуальное обогащение, гибкость и адаптируемость, совместные усилия.

THE DISTINCTIVE CHARACTERISTICS OF INDIVIDUALIZED SUPPORT WITHIN THE CONTEXT OF ADAPTIVE LEARNING IN PRE-SCHOOL EDUCATION

Annotation

The provision of personalized assistance within the framework of adaptive learning in early childhood education involves diverse attributes that address the specific requirements and growth of every individual child. This methodology customizes the educational process by offering individualized instruction and interventions that are informed by data-driven analysis of the child's growth and performance. The salient features of personalized assistance in adaptive learning encompass customized learning trajectories, focused remediation, differentiated pedagogy, prompt feedback, ongoing progress assessment, individualized enrichment opportunities, flexibility and adaptability, and collaborative endeavors between educators and parents. These aforementioned attributes guarantee that every child is provided with education and assistance that are in accordance with their individual abilities, interests, and learning preferences. Through the utilization of adaptive learning technology, instructors in the pre-school setting have the ability to establish an environment that fosters both inclusivity and nurturing, thereby facilitating the attainment of optimal learning outcomes and establishing a solid groundwork for subsequent educational achievements.

Key words: Individualized support, adaptive learning, targeted intervention, differentiated instruction, immediate feedback, progress monitoring, individualized enrichment, flexibility and adaptability, collaborative efforts.

Introduction. The unique attributes of individualized support in the realm of adaptive learning in early childhood education signify a transition towards customized and tailored

learning encounters for young students. Adaptive learning utilizes technological advancements to deliver personalized education, interventions, and resources tailored to the

individualized requirements, capabilities, and cognitive preferences of each student. This approach acknowledges the existence of varying developmental disparities among children in pre-school environments and emphasizes the need for tailored assistance to foster their academic and social well-being.

The primary attributes of personalized assistance in adaptive learning encompass customized learning trajectories, focused interventions, differentiated pedagogy, prompt feedback, ongoing progress assessment, personalized enrichment, flexibility and adaptability, and collaborative endeavors between educators and parents. The combination of these attributes synergistically contributes to the establishment of an educational setting that cultivates active participation, drive, and the attainment of ideal educational achievements for every individual student.

By incorporating personalized assistance within the framework of adaptive learning, educators in early childhood education can effectively cater to the unique learning requirements of each individual child, so ensuring that they receive appropriate instruction and support that is tailored to their capabilities and areas of interest. This strategy facilitates the promotion of diversity, enables personalized growth, and establishes a robust basis for subsequent educational achievements.

In the subsequent sections, a comprehensive examination will be conducted on each of these unique attributes, emphasizing their significance and influence on early childhood education within the adaptive learning paradigm.

Literature review. The concept of adaptive learning in preschool education, particularly focusing on individualized support, is a growing area of interest in educational research. The following analysis synthesizes findings from recent literature, highlighting the unique aspects and effectiveness of this approach.

Study by Hardy, Meschede, and Mannel (2022) emphasizes the importance of adaptive teaching, particularly in the context of elementary science education. The article "Adaptive Teaching in Elementary Science Education" highlights how teachers adjust their instruction to meet diverse student needs and levels of understanding. The study introduces a reliable measurement approach for adaptive classroom discourse, including diagnostic strategies, instructional support, and student understanding. It was found that adaptive classroom discourse positively impacts long-term student learning, with diagnostic strategies playing a significant role in conceptual restructuring.

Research by Otto et al. (2023) titled "AI-Based Adaptive Study Support System for Higher Education" focused on higher education, but this study provides insights into the use of AI-based technologies for adaptive learning. It proposes a systems-oriented approach for AI in education, emphasizing the need for holistic solutions that integrate teaching, research, and administration. This approach can be adapted for preschool settings to enhance individualized learning experiences.

Case Study by Liu (2022) explores the use of the Taiwan Adaptive Learning Platform (TALP) in elementary education. TALP, as a form of precision education, helps identify students' learning deficits and provides tailored feedback. The study "Precision Education in a Taiwanese Elementary School" suggests that such platforms can enhance learning by addressing individual challenges, a concept that can be translated into preschool education for individualized support.

Study by Van der Merwe (2022) focuses on preparing pre-service teachers to support learning in diverse school contexts. The article "Preparing Pre-Service Teachers in South

African Schools" underscores the importance of understanding the science of learning and developing competencies for a fast-changing world. The findings are relevant for preschool educators, highlighting the need for training in adaptive and individualized teaching strategies.

The literature indicates a growing recognition of the need for adaptive and individualized learning approaches in preschool education. These studies collectively underscore the importance of tailored instructional strategies, the potential role of AI and technology in enhancing individualized learning, and the need for specialized training for educators. This approach not only caters to the diverse needs of young learners but also significantly contributes to their long-term educational development.

Research methods. Various research methodologies can be employed to investigate the unique attributes of tailored support in the context of adaptive learning in early childhood education. Several research approaches can be utilized in investigating this particular subject matter.

Experimental research can be employed to examine the effects of personalized support within adaptive learning on the educational achievements of preschool-aged children. Researchers have the ability to employ random assignment techniques to allocate individuals into various groups, such as an experimental group that receives personalized support and a control group that undergoes typical instructional methods. The measurement and comparison of learning outcomes, such as academic success or developmental growth, can be conducted across different groups.

Observational research approaches, such as case studies or naturalistic observations, can be employed to collect qualitative data pertaining to the implementation of tailored support and its impact on the learning experiences of preschool children. The observation and documentation of the interactions among educators, children, and adaptive learning systems enable researchers to gain insights into the process of personalizing and tailoring specialized support to fit the unique needs of each kid.

Surveys and questionnaires are commonly utilized tools for gathering data on the perspectives and experiences of educators, parents, and pre-school children in relation to the provision of tailored support within the context of adaptive learning. These instruments have the capability to assess the efficacy of several aspects of personalized support, including customized learning trajectories, focused intervention, and differentiated pedagogy.

Interviews and focus groups can be utilized as research methods to gather comprehensive insights from educators, experts in pre-school education, and parents regarding their viewpoints on the unique attributes of personalized assistance within the context of adaptive learning. Qualitative methodologies facilitate the acquisition of comprehensive and intricate understandings pertaining to the advantages, obstacles, and optimal approaches linked to the implementation of personalized assistance.

The utilization of a mixed methods approach involves the integration of both quantitative and qualitative research methodologies in order to obtain a full comprehension of the unique attributes associated with personalized assistance in adaptive learning. This methodology entails the gathering of quantitative data pertaining to educational achievements, with the utilization of qualitative techniques to investigate the experiences, perceptions, and contextual elements that impact the efficacy of personalized assistance.

Longitudinal studies are a valuable research method that can be employed to investigate the enduring impacts of personalized assistance within adaptive learning on the academic and socio-emotional development of young children attending preschool. Researchers have the capacity to evaluate

the durability and consistency of the advantages linked to personalized assistance by tracking a group of youngsters over a prolonged duration.

When conducting research on this topic, it is crucial to take into account ethical considerations, obtain participant agreement, and employ an appropriate research design. It is imperative for researchers to prioritize the verification of validity and reliability of the research instruments employed, as well as carefully evaluate the practical feasibility of implementing the research methodologies within pre-school settings.

Results and discussions. The unique attributes of personalized assistance in the realm of adaptive learning in early childhood education carry substantial ramifications for the educational encounters and achievements of young students. Below are several potential debates pertaining to these characteristics:

The capacity to generate personalized learning routes that are tailored to the unique abilities and development of each student is a fundamental aspect of individualized support within the context of adaptive learning. The focus of this discourse centers on the difficulties and advantages associated with customizing educational instruction to accommodate the varied requirements of preschool-aged children. Additionally, it explores how adaptive learning platforms can proficiently modify material and activities to enhance the overall learning encounters.

Targeted interventions are a crucial component of adaptive learning, as they effectively address the individual learning gaps and obstacles encountered by pre-school children. Discussions may center around the significance of identifying areas of deficiency and delivering prompt assistance to guarantee that youngsters obtain the requisite treatments to surmount challenges and advance in their educational development.

The implementation of differentiated teaching, which involves tailoring instruction to accommodate the unique requirements and learning preferences of each individual, is an essential element of providing personalized support. Discussions may go into the examination of efficacious approaches in modifying instructional methodologies, materials, and resources to cater to the many learning preferences and strengths exhibited by pre-school children, hence facilitating active participation and cultivating a conducive learning milieu.

Immediate Feedback: Adaptive learning platforms provide prompt feedback, enabling preschool-aged children to obtain current information regarding their performance. The focal point of discussions can revolve around the advantages of prompt feedback in facilitating the development of metacognitive abilities, self-reflection, and self-correction. Additionally, the role of educators in understanding and effectively utilizing feedback to inform subsequent instructional practices can be examined.

Progress monitoring is a crucial aspect of adaptive learning systems, as it enables the collection of significant data pertaining to the growth and learning pathways of pre-school children. The discourse may center around the ethical implications and privacy issues associated with the gathering and examination of data, in addition to the manner in which progress monitoring can contribute to making informed instructional choices and facilitating personalized learning experiences.

The implementation of individualized support within adaptive learning necessitates the collaboration of educators, parents, and children in order to achieve optimal outcomes. Discussions may delve into the significance of proficient communication, mutual objectives, and collaboration among stakeholders to guarantee the consistent and harmonious

implementation of personalized support, both within the pre-school environment and in the home setting.

The potential impact of individualized support within adaptive learning on the motivation and engagement of pre-school children is significant. The personalized nature of this approach has the ability to boost their motivation and engagement in the learning process. Discussions may explore the potential of adaptive learning platforms to utilize gamification, interactive elements, and individualized content in order to cultivate intrinsic motivation, curiosity, and a passion for education.

The topic of discussion may encompass the difficulties that arise when adopting personalized support in adaptive learning, including issues related to technology accessibility, allocation of resources, and educator training. Consideration should be directed towards the promotion of fair and equal opportunities for accessing adaptive learning platforms and receiving support, with a specific focus on children from different backgrounds or those with minimal resources.

It is imperative to thoroughly examine the long-term consequences of implementing personalized assistance in adaptive learning. The topic of discussion revolves around the potential long-term effects of personalized assistance, specifically examining if its advantages extend beyond the early childhood period and positively impact academic achievements, socio-emotional growth, and lifelong acquisition of knowledge and skills.

These conversations can offer valuable perspectives on the potential advantages, difficulties, and factors to be taken into account regarding the unique features of personalized assistance in the realm of adaptive learning in early childhood education. Additional study and collaboration among educators, researchers, and policymakers is imperative in order to enhance practices and maximize the effective implementation of personalized assistance for the comprehensive advancement of preschool-aged children.

Conclusion. In summary, the unique attributes of personalized assistance in the realm of adaptive learning in early childhood education has the capacity to significantly augment the educational experiences and achievements of young students. The individualized characteristics of adaptive learning platforms provide customized learning trajectories, focused interventions, and differentiated pedagogy, accommodating the heterogeneous needs and cognitive preferences of every student. The prompt and ongoing assessment provided by these platforms facilitates timely interventions and assistance, fostering a continuous process of growth and advancement. The efficient implementation of tailored support necessitates the collaborative efforts of educators, parents, and children. The consistent delivery and alignment of tailored care with the needs and goals of each child are facilitated by effective communication, common goals, and a collaborative relationship among stakeholders. Furthermore, the utilization of adaptive learning platforms has the potential to enhance motivation, engagement, and cultivate a favorable disposition towards the learning process. This can be achieved through the incorporation of gamification, interactive elements, and tailored content.

Nevertheless, it is imperative to acknowledge and tackle certain obstacles, including but not limited to issues surrounding technological accessibility and fairness, allocation of resources, and provision of adequate training for educators. These challenges must be effectively dealt with in order to guarantee a just and unbiased implementation of personalized assistance. Discussions should prioritize ethical questions pertaining to data collecting, privacy, and the proper utilization of technology. Additional investigation and cooperation are required to enhance our comprehension of the enduring consequences of personalized assistance within the

context of adaptive learning. Longitudinal studies have the potential to provide valuable insights into the enduring effects of personalized assistance, as well as its role in enhancing academic achievement, socio-emotional growth, and the acquisition of lifetime learning abilities. In the realm of pre-school education, the potential of tailored support within the

framework of adaptive learning is highly promising. By adopting these attributes and confronting the corresponding obstacles, it is possible to establish a learning environment that is more comprehensive, captivating, and efficient for pre-school children, thereby initiating a trajectory towards continuous education and achievement.

LITERATURE

1. Iriskulov A., Aslanov, A., & Subhonova, A. (2021). WHY DO WE NEED A GLOBAL LANGUAGE?. Збірник наукових праць ЛОГОС.
2. Aslanov A. S., Subhonova, A. A., Avilova, K. H., & Saydullayeva, M. A. (2021). Impacts Of Language Learning On The Development Of Cognition. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(09), 56-59.
3. Subxanovich A. A. (2023). Communication Features of a Qualified Doctor with Different Patients. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 17, 52-56.
4. Turaev J., Aslanov, A., & Subhonova, A. (2022). Suggestions aimed at the development of the pre-school education system in uzbekistan. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(11), 335-338.
5. Manesis Dionysios. "Barriers to the Use of Games-Based Learning in Pre-School Settings." **International Journal of Game-Based Learning** (2020): 10.4018/ijgbl.2020070103. (<https://dx.doi.org/10.4018/ijgbl.2020070103>)
6. Xiang Wenjing, and Zeng, Shulan. "Current Situation and Development Trend of Pre-school Education in Europe." **Journal of Educational Research and Essays** (2023): 10.54097/jeer.v3i3.9543. (<https://drpress.org/ojs/index.php/jeer/article/download/9543/9295>)
7. Mwangi Caroline Wambui, Koross, Rachael, and Cheruiyot, B. "Pre-School Teacher Support and Retention of Pupils in Public ECDE Centres Kenya." **East African Journal of Education and Social Sciences** (2021): 10.37284/eajes.4.1.507. (<https://journals.eanso.org/index.php/eajes/article/download/507/596>)
8. D'Intino Joseph, and Wang, Lifang. "Differentiated Instruction: A Review of Teacher Education Practices for Canadian Pre-service Elementary School Teachers." **Journal of Education for Teaching** (2021): 10.1080/02607476.2021.1951603. (<https://dx.doi.org/10.1080/02607476.2021.1951603>)



UDK:324

Lolaxon TURAYEVA,

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent “Temurbeklar maktabi”

harbiy-akademik litseyi fizika fani bosh o‘qituvchisi

E-mail: Munisabonu@mail.ru

TVChDPU dotsenti v.b., (PhD) M.Dusmuratov taqrizi asosida

USING THE CAPABILITIES OF THE PHET INTERACTIVE SIMULATIONS APPLICATION WHEN TEACHING PHYSICS AT ACADEMIC LYCEUMS

Annotation

This article describes the importance and capabilities of simulation platforms that are actively used on the Internet for teaching and studying exact and natural sciences on the Internet, in teaching physics in academic lyceums.

Key words: Internet; exact sciences; natural sciences; modeling; online use; simulation platform; software tool; simulator, illyustratsiya.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ПРИЛОЖЕНИЕ PHET INTERACTIVE SIMULATIONS ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ

Аннотация

В этой статье рассказывается о важности и возможностях симуляционных платформ, которые активно используются в интернете для преподавания и изучения точных и естественных наук в интернете, в преподавании физики в академических лицеях.

Ключевые слова: Интернет, точные науки, естественные науки, моделирование, онлайн-использование, симуляционная платформа, программный инструмент, симулятор, иллюстрация.

AKADEMIK LITSEYLARDA FIZIKA FANINI O‘QITISHDA PHET INTERACTIVE SIMULATIONS ILOVASI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada internet tizimida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda va o‘rganishda on-layn ravishda faol foydalaniladigan simulyatsion platformalarining akademik litseylarida fizika fanini o‘qitishdagi ahamiyati va uning imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Intetet tarmog‘i; aniq fan; tabiiy fan; modellashtirish; on-layn foydalanish; simulyatsion platforma; dastiriy vosita; simulyator, illyustratsiya.

Kirish. Ta‘lim tizimini axborotlashtirish, dars jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan hamda turli dasturiy vositalaridan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Jumladan akademik litseylarda fizika fanini o‘qitishda virtual modellardan foydalanish o‘qitish samaradorligini oshirish va o‘quvchining ilmiy dunyoqarashi shakllanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quv jarayonida modellardan foydalanish hozirgi kun davr talabidir. Simulyatorlar haqiqiy asbob-uskuna va jihozlarsiz virtual holatda biror bir fizik jarayonni modellashtirish hamda virtual laboratoriya ishlarini o‘tkazishga imkoniyat yaratadi. Simulyatorlarning qariyb hech qanday moliyaviy mablag‘lar talab etmasligi ma‘lum tadqiqotlarni o‘quvchilar tomonidan yuzlab, kerak bo‘lsa minglab marotaba qayta-qayta amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Simulyatorlardan foydalanish jarayonida o‘quvchilar ma‘ruza darsida o‘rgangan bilimlarini virtual bo‘lsada hayotga tadbiiq etadilar[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta‘lim jarayonida turli modellardan foydalanish qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lib, uning hozirgi kundagi eng zamonaviy ko‘rinishi – bu simulyatorlardir.

E. B.Moore, J. M.Chamberlain, R. Parson and K.K.Perkinslarning Journal of Chemical Education jurnalida “PhET Interactive Simulations” nomli maqolasida ta’kidlaganlaridek, simulyatorlardan foydalanishning asosiy sabablaridan biri ularning real obyektlarga nisbatan juda ham

arzon muqobil ekanligidadir. Simulyatorlar esa shunday haqiqiy asbob-uskuna va jihozlarsiz virtual holatda biror fizik jarayonni modellashtirish hamda virtual laboratoriya ishlarini o‘tkazishga imkoniyat yaratadi. Bu esa o‘z-o‘zidan katta miqdorda mablag‘lar tejaliishiga olib keladi. Simulyatorlardan foydalanish jarayonida o‘quvchilar ma‘ruza vaqtida o‘rgangan bilimlarini virtual bo‘lsada hayotga tadbiiq qiladilar.

Axmedov Sh.B., Dusmuratov M.B. Fizika (II-qism). Akademik litsey o‘quvchilari uchun darslikda Rezerford α -zarralarning sochilish nazariyasini, sochilgan zarralarning α burchak bo‘yicha taqsimlanish formulasini keltirib chiqardi. α -zarralar atom yadrolarining ta’siri tufayli og‘ganligini va elektronlar bilan o‘zaro ta’sir natijasida katta og‘ish yuzaga kelish mumkin emasligini ta’kidladi[3].

Ushbu tadqiqotlar jarayonida bilimlarini yanada mustahkamlash bilan bir qatorda nazariya hamda hayotiy tadqiqotlarning rivojlanishiga bevosita hissa qo‘shadilar. O‘quvchilarning mustaqil ta‘lim jarayonida ham simulyatsiyalarga oid turli dasturiy vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.


Tadqiqot metodologiyasi. Kompyuter dasturlari deganda fizikaviy hodisalarni, tajribalarni simulyatsiya qilishga imkon beradigan kompyuter dasturlari tushuniladi. Avvalo, kompyuterda modellashtirish fizik tajribalar va hodisalarning vizual dinamik illyustratsiyalarini olish, ularning nozik detallarini aks ettirishga imkon beradi. Modellardan foydalanishda kompyuter o‘ziga xos, haqiqiy

fizik eksperimentda erishib bo'lmaydigan, tabiatning haqiqiy hodisasini emas, balki uning soddalashtirilgan modelini tasavvur qilish qobiliyatini beradi. Bunday holda, ko'rib chiqishga modelni asta-sekin murakkablashtiradigan va uni haqiqiy fizikaviy hodisaga yaqinlashtiradigan qo'shimcha omillarni bosqichma-bosqich kiritish mumkin. Hozirgi kunda dunyo tan olgan va butun dunyo ta'lim tizimida on-layn foydalaniladigan simulyatsiyalar borki, ularda tabiiy va aniq fanlarning ko'plab mavzularini qamrab olgan tayyor modellashgan tarkibiy dasturlar mujassam. Ulardan dars jarayonida to'g'ridan-to'g'ri, maxsus tayyorgarliklarsiz foydalanish mumkin [2].



1-rasm. PhET Physics Interactive Simulations platformasi sahifasidagi simulyatsiyalar ro'yxati

PhET simulyatsiyasida fizika faniga tegishli jami 200 dan ortiq turli mavzularga tegishli eksperiment va laboratoriyalarni on-layn bajarish imkonini beradigan tayyor simulyatsiyalar to'plami mavjud bo'lib, 2-rasmda mana shunday simulyatsiyalardan ba'zi namunalar tasvirlangan[1].




2-rasm. PhET platformasidagi fizik eksperiment va laboratoriyaga oid simulyatsiyalaridan ba'zi namunalar

Yuqoridagi 1-va 2-raslarda simulyatsiyalar va kontekstdagi yozuvlar ingliz tilida berilgan. PhET simulyatsion daturining yana bir ajoyib imkoniyati shundaki, unda dunyoning 120 dan ortiq tillarda ishlash mumkin. Sozlamalardan o'zimiz hohlagan tilni, masalan rus yoki o'zbek tilini tanlasak, dasturdagi barcha so'zlar (simulyatsiyalar nomlari, kontekstdagi yozuvlar va boshqalar) biz tanlagan tilga almashadi. Shunday mavzulardan biri sifatida o'quvchilarda tasavvur uyg'otish qiyin va qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan mikrodunyoga tegishli hodisa – "Rezerford sochilishi" yoki "Rezerford tajribasi" deb nomlanadigan mavzuni tanladik.

Tajriba quyidagicha amalga oshirildi (3-rasm). Qo'rg'oshin parchasidagi kovakga R radioaktiv modda

kiritilgan bo'lib, u α -zarralarning manbai bo'lib xizmat qiladi. α -zarralar tashqariga faqat kichkina tirqish orqali chiqqa oladi. α -zarralarning ingichka dastasi yo'lga F yupqa metal zar (oltin folga) qo'yilgan. α -zarrachalar folgadan o'tganlarida turli α burchaklarga og'adi. Sochilgan zarralar rux sulfid surtilgan E ekranga borib urilib ssintillyasiyalar (chaqnashlar) hosil qiladi. Bu chaqnashlar M mikroskop orqali kuzatiladi. Mikroskop bilan ekranni sochuvchi zar markazidan o'tuvchi o'q atrofida aylantirish va istalgan α burchakka o'rnatish mumkin. α -zarralar havo molekullari bilan to'qnashmasligi uchun butun qurilma havosi so'rib olingan g'ilof ichiga joylashtirilgan.



3-rasm


Ma'lum miqdordagi α -zarrachalar juda katta (deyarli 1800) burchakka sochilganligi ma'lum bo'ldi. Tajriba natijalarini tahlil qilib, Rezerford quyidagi xulosaga keldi: α -

zarralarning bunday katta burchakka og'ishi faqat atomning ichida juda kichik hajmda to'plangan, juda katta massali zaryadning haddan tashqari kuchli elektr maydoni tufaylidir.

Bu xulosaga asoslanib, 1911 yil Rezerford atomning yadro modelini taklif etadi. Uning tasavvuri bo'yicha atom markazida Ze musbat zaryadli, o'lchami 10-14 m dan oshmaydigan og'ir yadro joylashgan, yadro atrofida atom egallagan butun hajm bo'yicha z dona elektron bo'lgan zaryadlar sistemasidan iborat. Atomning deyarli barcha massasi yadroda mujassamlashgan[4].

Rezerford bu tasavvurlarga ko'ra α -zarralarning sochilish nazariyasini ishlab chiqdi, sochilgan zarralarning α burchak bo'yicha taqsimlanish formulasini keltirib chiqardi. α -zarralar atom yadrolarining ta'siri tufayli og'gan. Elektronlar

bilan o'zaro ta'sir natijasida katta og'ish yuzaga kelish mumkin emas, chunki elektronning massasi α -zarranikidan taxminan 7500 marta kichik. Zarra yadro yaqinidan uchib o'tayotganida unga quyidagi Kulon kuchi ta'sir qiladi. Zarraning bu holdagi trayektoriyasi asimptotalari o'zaro α burchak hosil qiluvchi giperboladan iborat bo'ladi. Yadrodan α -zarralarning boshlang'ich yo'nalishigacha bo'lgan b masofa nishonga olish parametri deyiladi. Zarra yadroga qanchalik yaqin o'tsa, (b qanchalik kichik bo'lsa), uning shunchalik kuchli og'ishi (α ning shunchalik katta bo'lishi) tabiiy.



4-rasm

Impulsning saqlanish qonuniga ko'ra zarraning yadroda sochilishidan avvalgi impulsi p_0 , sochilib yadrodan uzoqlashgandagi impulsi p ga teng, ya'ni $p=p_0$ (4-a,b rasm). Rezerford impulsning saqlanish qonunidan foydalani, b va α lar orasidagi bog'lanishni quyidagicha aniqladi, ya'ni α -zarraning sochilish burchagini aniqladi[5].

$$\operatorname{ctg} \frac{\alpha}{2} = \frac{m_{\alpha} \mathcal{G}^2}{2Z k e^2} \cdot b$$

Sochuvchi modda qatlamini shunchalik yupqa deb qaraylikki, har bir zarra undan o'tayotganida faqat bitta yadro yaqinidan uchib o'tsin, ya'ni har bir zarra faqat bir marta sochilsin.

Zarra α va α -da oralig'idagi burchakka sochilishi uchun yadrolardan birining yaqinidan shunday trayektoriya bilan uchib o'tsinki, uning nishonga olish parametri b va $b+db$ oralig'iga to'g'ri kelsin. Bunda da va db lar yuqoridagi formulaga ko'ra quyidagicha bog'langan:

$$-\frac{1}{\sin^2 \frac{\alpha}{2}} \cdot \frac{d\alpha}{2} = \frac{m_{\alpha} \mathcal{G}^2}{2Z k e^2} \cdot db$$

α -zarralar dastasining ko'ndalang kesim yuzini S harfi bilan belgilaymiz. Unda sochuvchi folganing dasta yo'lidagi atomlar soni $N_{at}=nSd$ bo'ladi. n – atomlar konsen-tratsiyasi, d – folganing qalinligi. Agar α -zarralar dastasining qalinligi dastasining kesimi bo'yicha bir tekis taqsimlangan bo'lsa, yadrolarning birining yaqinidan b dan $b+db$ gacha nishonga olish parametrlari trayektoriya bo'yicha uchib o'tuvchi (demak, $\alpha-d\alpha$ dan α gacha burchakka og'uvchi) α -zarralarning nisbiy soni quyidagicha:

$$\frac{dN_{\alpha}}{N_{\alpha}} = \frac{N_{at} \cdot S_0}{S} = \frac{nSd \cdot 2\pi b db}{S} = nd 2\pi b db$$

Bu yerda: N_{α} – dastadagi jami α -zarralar soni;

dN_{α} – $\alpha-d\alpha$ dan α gacha burchak ostida sochiluvchi zarralar soni.

Hisob-kitoblar natijasida yuqoridagi formulani ushbu

$$\frac{dN_{\alpha}}{N_{\alpha}} = nd \cdot \left(\frac{2Z k e^2}{m_{\alpha} \mathcal{G}^2} \right)^2 \cdot \frac{2\pi \sin \alpha d\alpha}{4 \sin^4 \frac{\alpha}{2}}$$

ko'rinishga keltiramiz.

Nihoyat, elementar fazoviy burchak


$$d\Omega = \frac{dS}{r^2} = \frac{2\pi b db}{r^2} = \frac{2\pi (r \sin \alpha) \cdot (r d\alpha)}{r^2} = 2\pi \sin \alpha d\alpha$$

ekanligini hisobga olsak, α -zarralarning nisbiy soni quyidagicha bo'ladi:


$$\frac{dN_{\alpha}}{N_{\alpha}} = nd \cdot \left(\frac{2Z k e^2}{m_{\alpha} \mathcal{G}^2} \right)^2 \cdot \frac{d\Omega}{4 \sin^4 \frac{\alpha}{2}}$$

Bu ifoda α -zarralarning sochilishi uchun Rezerford formulasi deyiladi[3].

Bu mavzuga Internet tarmog'da to'g'ridan-to'g'ri kirish uchun <https://phet.colorado.edu/>. havolasini bosishimiz lozim. Shunda virtual laboratoriyasi darchasi hosil bo'ladi. Bu darchada "Rezerford atomi (Rutherford Atom)" va "Nishon atom (Plum Pudding Atom)" degan tanlovlarni ko'rishimiz mumkin. Shulardan birinchisini bosganimizda (5-rasm) da tasvirlangan Rezerford sochilishini o'rganish bo'yicha virtual laboratoriyaga duch kelamiz. Bu virtual tajribada nishon yadroning tartib raqamini (rasmda $Z=79$ deb berilgan), bombardimon qiluvchi zarraning turini (proton, nytron, a-zarra) va energiyasini o'zgartirish orqali trayektoriya ko'rinishining nishonga olish parametriga bog'liqlik tasvirlarini olishimiz mumkin. 5-a,rasmda bombardimon qiluvchi zarralarning faqat yadro maydonidagi harakatini, 5-b,rasmda esa bombardimon qiluvchi zarralarning qanday qilib elektron qobiqlari orasidan o'tib yadro yaqinida trayektoriya yo'nalishini o'zgartirayotganini ko'rishimiz mumkin.




5-a.rasm. Rezerford sochilishini o'rganish-yadro va sochilish



5-b.rasm. PhET platformasidagi atom elektron qobiqlari va sochilishi

Bunda bombordimon qiluvchi zarralar moddada atomlar oralab sochilish jarayoni animatsion kuzatish mumkin. Bunda ham zarralarning turini va energiyasini o'zgartirish orqali sochilish trayektoriyasidagi o'zgarishlarni animatsion holda kuzatish mumkin bo'ladi.

Shunday qilib 5–6-rasmlarda inernedagi Phet on-layn platformasida Rezerford tajribasini, Rezerfordning planetar modelini va undagi sochilish jarayonini, jarayonning qanday parametrlarga bog'liq ekanini virtual ravishda o'quvchilarga ko'rsatib berish mumkin bo'ladi.



6-rasm. PhET platformasidagi Rezerford sochilishini o'rganish. Bunda zarralar modda atomlari oralab sochilmoqda.

Bu esa o'quvchilarda atomning ichki tuzilishi hamda mikroduyo haqidagi tasavvurlarning to'g'ri shakllanishi va mikroduyo haqida bilimlar hosil bo'lishiga olib keladi. Biz mazkur virtual laboratoriyani namumuna sifatida ko'rsatib berdik.

Ammo Phet on-layn platformasida fizikaning barcha bo'lim va boblariga tegishli bunday virtual laboratoriya, virtual eksperiment hamda virtual namoyishli tajribalardan yuzlab namunalar keltirish mumkin.

Tahlil va natijalar. Yuqorida ta'kidlanganidek, interfaol dasturiy ilovalarni zamonaviy o'qitish uslublari bilan

birgalikda qo'llash fizika fanini o'qitish jarayonida ijobiy natijalarga olib kelishi bayon qilingan. Ta'lim jarayonida interfaol dasturiy ilovalardan foydalanish o'quvchilarning aqliy faolligini rivojlantiradi, ta'lim jarayonini o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli qilish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Fizika darslarida internetda PhET Interactive Simulations platformalaridan va undagi turli zamonaviy dasturiy vositalar yordamida o'qitishning afzalliklari:

– o'quvchilarning fizik jarayonlar haqidagi fikrlash va tasavvurni kengaytirishga xizmat qiladi;

– o'quvchilarni axborot texnologiyalaridan foydalanishda bilim, ko'nikma va malakalari shakllanadi;

– internetdan foydalanish ko'nikmasi oshadi;

– ko'rgazmalilik hisobiga aniq tushuncha va tasavvurlar hosil bo'ladi.

– o'quvchilarni dastur tuzishga dastur imkoniyatlaridan fizika fani masalalarini yechishda va geometrik optika qonunlarini o'rganishda ko'nikma va malaka shakllanadi;

– zamonaviy bilimlarni olishga va keyinchalik oliy ta'limda ham uni qo'llashga va hosil bo'lgan kompetentlikni hayot bilan bog'lashga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. PhET Interactive Simulations: Transformative Tools for Teaching Chemistry, Moore, E. B., Chamberlain, J. M., Parson, R., & Perkins, K. K., Journal of Chemical Education, 91(8), 1191-1197, 2014.
2. Умарова Г.А. Разработка методов оптимального обучения моделированию виртуальных лабораторных работ по физике / Science and education scientific journal volume 3 issue 4, 2022, -1554 с.
3. Ахмедов Ш.В., Dusmuratov M.B. Fizika (II-qism). Akademik litsey o'quvchilari uchun darslik. – Toshkent: Navro'z, 2020. 14-20 bet.
4. Т. М. Оплачко, К. А. Турмунметов. Физика часть II . «Электродинамика. Оптика. Атомная физика». “Ilm ziyo” T:2009. 38-40 стр.
5. Н.Ш. Турдиев [и др.]. Физика. 11 класс: учебник /– Т.: «Niso Poligraf», 2018. 141-145 bet.
6. <https://phet.colorado.edu>



Mohinur TO'RAXONOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: rustamkhurramo@mail.ru

TDPI dotsenti, p.f.n M. Norbosheva taqrizi asosida

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY O'Z-O'ZINI ANGLASH KOMPONENTINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotsatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy pedagog shaxsi va uning obrazi, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar, uning psixologik xususiyatlari va hozirgi zamon o'qituvchisi qanday bo'lishi kerakligi yoritib berilgan. Pedagogik mahorat o'qituvchi sifatining muhim tarkibiy qism, o'quvchi bilan ishlash texnikasi kabi masalalar ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy o'qituvchi, psixologiya, pedagogik mahorat, pedagogik muloqot ijodkor, notiq, kompetentlik, pedagogik – psixologik qonuniyatlar, innovatsion ta'lim.

PROFESSIONAL SELF-CONCEPTION OF FUTURE EDUCATORS SOCIO-PSYCHOLOGICAL COMPONENT OF FORMATION CHARACTERISTICS

Annotation

This article describes the personality of a modern pedagogue and his image, the requirements for a teacher, his psychological characteristics, and what a modern teacher should be. Pedagogical skill is an important component of the teacher's quality, issues such as the technique of working with students are also covered.

Key words: Modern teacher, psychology, pedagogical skill, creative pedagogical communication, speaker, competence, pedagogical-psychological laws, innovative education.

ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ САМОКОНЦЕПЦИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГИ СОЦИАЛЬНО ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ КОМПОНЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Аннотация

В данной статье описывается личность современного педагога и его образ, требования к учителю, его психологические особенности, а также то, каким должен быть современный педагог. Педагогическое мастерство является важной составляющей качества учителя, также освещаются такие вопросы, как техника работы с учениками.

Ключевые слова: Современный педагог, психология, педагогическое мастерство, творческое педагогическое общение, оратор, компетентность, педагогико-психологические закономерности, инновационное образование.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"1 kabi vazifalar belgilangan. Oliy ta'lim tizimida ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak psixologlarning amaliy kompetentligini shakllantirishga erishish"2 va rivojlantirishning amaldagi metodikasi va o'quv – uslubiy ta'minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish zarur, sifatli pedagogik xizmatlar imkoniyatini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq pedagoglar shtatini ko'paytirish, yuqori malakali pedagog kadrlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyun 2018 yildagi PQ-3775 sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida" gi Qarorlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2019 yil 12 iyuldan, "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab- quvvatlash ishlarini yanada takomillashti-

rish to'g'risida"gi Qarori hamda 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasida "O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga borib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha ustuvor vazifa etib belgilangan.

Tahlil va natijalar. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda mutaxassislarning innovatsion amaliy kompetentligi rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Demak bo'lajak pedagoglarning amaliy kompetentligini shakllantirish jarayoni pedagogik jarayonda samarali faoliyat ko'rsatishning didaktik asosidan iborat ekan. Shuningdek, Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'zligini oshirishda Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning amaliy kompetentligini takomillashtirish jarayoniga yondashuv,

mutaxassislar tayyorlashning me'yoriy, tashkiliy, o'quv uslubiy, axborot va moddiy texnik sharoitlari tizimining monitoring qilish barcha fanlarni o'qitishda e'tiborni yanada kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda pedagogik ilmining o'ziga xos qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim oluvchilarda ilmiy munosabat va xususiyatlarni shakllantirish maqsadini ko'zlash zarur:

talabalarga o'z sohasiga bo'lgan qiziqish (bilish hoxishi) va faoliyat (biror narsani aniqlash uchun amaliy faoliyat yuritish hoxishini uyg'otish.

Moyillik ya'ni yangi bilimlarni olish natijasida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'zini pedagogik – psixologik qonuniyatlar, tamoyil, faktlar haqidagi ma'lumotlarni bir

tizimga joylashtira olish va amaliyotda qo'llay olish kompetentligini shakllantirish lozim.

Shu o'rinda innovatsion ta'lim texnologiyalariga to'xtalib o'tish lozim. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari deganda o'qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish tushunilmaydi, balki bu oliy ta'lim tizimida o'qitish samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, hamda usul va materiallarni qo'llash, qo'llanilayotgan usullarni monitoring qilish yo'li orqali ta'lim jarayonini loyihalashtirish yo'llarini ishlab chiqish demakdir.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari ta'limning belgilangan maqsadi va bo'lajak pedagoglarning bilim darajasiga ko'ra o'quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi va pedagogik tizimining amalda bo'lishini ta'minlovchi zarur vositalar tizimidir. Bu vositalar kasbiy o'zlikni anglashda xodimning o'z kasbiy tajribasi, kasbi, olam, jamiyat haqidagi bilimlarini o'z ichiga oluvchi murakkab jarayon sifatida namoyon bo'ladi, Ular asosida muayyan muammolarni bartaraf etish, kasbiy faoliyatdagi vazifalarni hal qilish, shuningdek, o'zidan malakali mutaxassis obrazini yaratishning o'ziga xos usullari shakllanadi. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda respublikamizda o'z-o'zini boshqarishga doir ko'plab psixologik tadqiqotlar olib borilganligiga qaramasdan, bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida kreativ o'z-o'zini boshqarishni shakllantirish va rivojlantirish masalasi maxsus tadqiqot predmeti bo'lmagan. Bo'lajak pedagogning kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishning ichki sharoitlarini hisobga olgan holda, ular mutaxassisning kasbiy ahamiyatli shaxsi bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlaymiz. Bo'lajak pedagogning kasbiy jihatdan o'zini o'zi rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy kasbiy ahamiyatli fazilatlaridan biri bu uning kasbiy jihatdan tengligi hisoblanadi. Asosiy motiv faoliyat mazmuniga qiziqish bo'lgan haqiqiy ijtimoiy-pedagogik yo'nalishning mavjudligi, kasbiy faoliyat shaklida yuqori natijalarga erishishga, doimiy o'z - o'zini takomillashtirishga va o'zini o'zi rivojlantirishga yordam beradi. Ammo Bo'lajak pedagog shaxsining kasbiy yo'nalishining haqiqiy ijtimoiy-pedagogik turi, bizning fikrimizcha, axloqiy - kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarlik muvaffaqiyatli rivojlana olmaydi. Bugungi kunda ijtimoiy o'qituvchilarning ma'naviy - psixologik tayyorgarligi muammosi ko'p jihatdan bo'lajak mutaxassisning ijtimoiy-pedagogik faoliyatining samaradorligini belgilaydigan va natijada uning kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishiga hissa qo'shmoqda. Axloqiy va psixologik tayyorgarlikning bir qismi bo'lgan munosabatlar, qiziqishlar, intilishlar, e'tiqodlar, tamoyillar birgalikda ijtimoiy-pedagogik sohalarning qadriyat yo'nalishlarini ifodalaydi. Ijtimoiy pedagogning qadriyat yo'nalishlari kasb talablariga adekvat bo'lishi uchun uning qadriyatlar tizimi mazmunan insonparvar bo'lishi kerak. Binobarin, o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni uchun zarur shart-sharoitlarga o'z-o'zini tarbiyalash uchun shaxsiy tafakkurni rivojlantirish; "jamiyat mutaxassisidan kasbiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish uchun o'z ustida doimiy ishlashni talab qiladigan shunday vaziyatning mavjudligi" kiradi. Talabalar orasida kasbiy o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishining eng umumiy sharti - bu talabalik pozitsiyasidan ("Men talabaman, menga o'qiting") mutaxassis lavozimiga ("Men kelajakman"), ijtimoiy pedagogga "Men o'zimni ushbu mas'uliyatli lavozimga tayyorlayapman") o'tishdir. Bunday ehtiyojning shakllanishi kasbiy kompetensiyani saqlash vositasi va shaxsning faol shaxs sifatida ishlashining eng muhim shartidir.

Tanlangan tashqi va ichki sharoitlar yig'indisi bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini amalga oshirishni hisobga olish ularning kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishiga foydali ta'sir ko'rsatadi, bu inson faoliyatining ko'p komponentli shaxsiy va kasbiy ahamiyatga ega jarayoni bo'lib, u o'z mustaqil faoliyatini idrok etishga yordam beradigan, shuningdek, o'z-o'zini takomillashtirish va professional bo'lish vositasi bo'lgan shaxsiy kasbiy faoliyat uslubini shakllantirish zarur bo'ladi.

Shuningdek, psixologiyada kreativ o'z-o'zini boshqarish strukturasi, mazkur hodisani shakllantirish va rivojlantirish usullarini ochib beradigan tadqiqotlar deyarli uchramaydi. Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifa etib belgilandi.

Xulosa. Xulosa o'rinda shuni takidlash joizki, Oliy ta'limda faol usullardan foydalanish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning zaruriy sharti bo'lib, ijibiy ko'plab natijalarga olib keladi. Shu bilan birga, bunday shart-sharoit bo'lajak o'qituvchilarni faol o'quv-bilish faoliyatiga jalb qilish orqali bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga keng imkon beradi. Oxir - oqibat sohaga oid barcha ma'lumotlar talabalarning shaxsiy bilimlariga aylanadi. Hozirgi zamon o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi va uning shaxsiy hamda kasbiy kamolotiga (psixologiyasiga) yuksak talablar qo'yadi:

a) mamlakatimiz ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida o'qituvchining shaxsi yuksak ijtimoiy mavqega ega bo'lib, xalqning etnik ongi va tafakkuri namunasi sifatida e'zozlangan. Zamonaviy o'qituvchi ham ana shunday yuksak ijtimoiy mavqeni egallashi nazarda tutilgan.

b) ilmiy psixologiyaning tahlillariga ko'ra ta'lim va tarbiya shakli, mazmuni va mohiyatiga binoan milliy-etnik hodisa bo'lib, xalqning ongi, qarashlari, qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

c) hozirgi zamon o'qituvchisi kasbiy faoliyatga moslashuvining samarali kechishi zamonaviy o'qitish metodlarining o'ziga xos xususiyatlarini mukammal egallaganligi, amaldagi ta'lim va tarbiya tamoyillariga qat'iy rioya qilishi, zamonaviy o'qituvchi uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim, shaxsiy hamda kasbiy xislatlarni o'zida mujassamlashtirganligi va undan kasbiy faoliyatida oqilona foydalana olishi bilan belgilanadi.

d) Zamonaviy o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida, o'qituvchi egallashi zarur bo'lgan psixologik-pedagogik tarbiyaviy ta'sirlarning majmui mazkur etnik jamoaga xos axloqiy, ijtimoiy-huquqiy va ishlab chiqarish mehnati me'yorlarining evolyusiyasiga mos tushishi hamda tarbiyalanuvchilarning mazkur psixologik-pedagogik ta'sirlarga moslasha olish imkoniyatlarini ham e'tiborga olishi zarur. Shu bilan bir qatorda, O'qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirishi zaruriy shartlardandir. Sharq mutafakkirlari: " o'qituvchi o'zi o'qib tursagina - o'qituvchi bo'la oladi, agar o'qishni to'xtatib qo'yar ekan, unda o'qituvchilik ham so'nadi, deb haqqoniy aytganlar. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'zini o'zi takomillashtirish motivatsiyasi - bu mutaxassislarning kasbiy o'zini o'zi takomillashtirish jarayonini belgilaydigan, yo'naltiradigan va tartibga soladigan barcha motivlar va shart-sharoitlar majmuidir.

ADABIYOTLAR

1. "Bo'lajak pedagoglarda kreativ o'z-o'zini boshqarishni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" Musinova Ruxshona Yunusovna Toshkent:2019.
2. Kizi M. T. A. (2022). Solutions to the problem in the development of intellectual property of modern educational technologies.

3. Narbasheva M. A. (2021). The importance of pedagogical and psychological literacy of parents in preparing children for school education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(1), 728-732.
4. Нарбашева М. А.(2021). Оилавий муносабатларнинг таълим-тарбия самарадорлигига таъсири. Таълим ва инновацион тадқиқотлар. (maxsus son) 165-169.
5. То'рахонова М. (2023). Во 'lajak o 'qituvchilarning kasbiy o'zligini anglashining psixologik omillari. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(3), 54-59.
6. Бозорова М.,& Турахонова,М.(2021).Роль этнопедагогика в процессе совершенствования национальной системы образования. Энигма, (32), 82-86.



UDK: 316.334.56(575.1)

Shuxrat TURDIKULOV,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi tadqiqotchisi, (PhD)

E-mail: txshuhrat65@mail.ru

Sots.fan.dok., professor Matibayev T.B. taqrizi asosida

KORRUPSIYANI SOTSIAL HODISA SIFATIDAGI TAHLILIGA DOIR ILMIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Korrupsiya bizga uzoq davrlardan ma'lum bo'lgan hodisa bo'lib, dunyoning ayrim mamlakatlarida u odatiy hol sifatida qabul qilingan. Biroq, u XX asrning ikkinchi yarimida ijtimoiy hodisa sifatida tan olindi. Hozirgi davrga kelsak, u korrupsiyaga qiziqishning portlashi bilan tavsiflanadi. Korrupsiyaning tabiati, uning kelib chiqish sabablari va oqibatlari, korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bugungi kunning eng muhim muhokama mavzularidan biridir. O'zbekistonda korrupsiya muammosining dolzarbligi va uning salbiy oqibatlarini cheklash bo'yicha bir qancha islohotlar olib borilmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonda ushbu ijtimoiy hodisani turli yondashuvlar doirasida o'rganish imkoniyatlarini ko'rib chiqishdir. Maqolada jamiyatdagi korrupsiya, shuningdek, korrupsiyaning xususiy va davlat sohalarida o'rtasidagi chegarasi haqida so'z boradi va ularning o'zaro ta'siri muhokama qilinadi. Shuningdek korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirish sohasida bir qator tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, poraxo'rlik, ta'magirlik belgilari, davlat boshqaruvi, murosasiz munosabat, qonun.

ОБЩЕСТВЕННЫЙ КОНТРОЛЬ В СФЕРЕ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Коррупция – явление, известное нам давно, а в некоторых странах мира оно воспринималось как нормальное явление. Однако во второй половине XX века оно было признано социальным явлением. Что касается нынешнего периода, то он характеризуется взрывом интереса к коррупции. Природа коррупции, ее причины и последствия, вопросы борьбы с коррупцией на сегодняшний день являются одной из важнейших тем обсуждения. В Узбекистане проводится ряд реформ, призванных ограничить остроту проблемы коррупции и ее негативных последствий. Цель данной статьи – рассмотреть возможности изучения этого социального явления в Узбекистане в рамках разных подходов. В статье рассматривается о коррупции в обществе, а также о границе между частной и государственной сферами коррупции и обсуждается их совместные воздействия. Также дается ряд рекомендаций в сфере повышения эффективности борьбы с коррупцией.

Ключевые слова: Коррупция, взяточничество, признаки взяточничества, государственное управление, непримиримость, закон.

PUBLIC CONTROL IN THE FIGHT AGAINST CORRUPTION IN THE NEW UZBEKISTAN

Annotation

Corruption is a phenomenon that has been known to us for a long time, and in some countries of the world it was perceived as a normal phenomenon. However, in the second half of the twentieth century it was recognized as a social phenomenon. As for the current period, it is characterized by an explosion of interest in corruption. The nature of corruption, its causes and consequences, and issues of combating corruption are one of the most important topics of discussion today. A number of reforms are being carried out in Uzbekistan to limit the severity of the problem of corruption and its negative consequences. The purpose of this article is to consider the possibilities of studying this social phenomenon in Uzbekistan within the framework of different approaches. The article examines corruption in society, as well as the boundary between the private and public spheres of corruption, and discusses their combined impacts. A number of recommendations are also given in the area of increasing the effectiveness of the fight against corruption.

Key words: Corruption, bribery, signs of bribery, public administration, intransigence, law.

Kirish. Korrupsiyaning rivojlanishi ayniqsa o'tish davrida mavjud bo'lgan eng muhim buz'unchi tizimli omillardan biridir. Korrupsiya iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni orqaga tortadi, davlatning siyosiy irodasini merkantil mansabdor shaxslarning tor guruh manfaatlariga bo'ysundiradi va o'zining barcha amaliyotlari bilan davlat boshqaruviga putur etkazadi, oddiy fuqarolarning hukumatga ishonchini yo'qotadi. Korrupsiya kriminologik, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jihatlarini o'zida ifodalovchi tushunchadir. Shu sababli korrupsiyaga qarshi keng ko'lami kurash olib borishda bu illatning barcha jihatlarini va ulardan kelib chiqadigan salbiy oqibatlarni nazarda tutish talab etiladi.

Davlat boshqaruv organlaridagi korrupsiya – mansabdor shaxslarning o'z shaxsiy manfaatlarini qondirish yo'lidagi qonunga zid xatti-harakati natijasi bo'lib, u o'zining

ko'lami, uni sodir etishdagi ishtirokchi shaxslar yoki guruhlarining mavqei jihatidan umumiy jinoyatchilikdan farq qiladi. Xususan, jinoyatchilik jamiyatdagi qonunlarga itoat etmaydigan har qanday fuqaro tomonidan sodir etilishi mumkin, lekin korrupsiya asosan davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan sodir etilishi tufayli nihoyatda xatarli hisoblanadi. Eng achinarlisi shundaki, korrupsiyani sodir etayotgan shaxslar davlat xizmati tizimining boshqa sohalarida ishlayotgan mansabdor shaxslar bilan til birlashtirish orqali mamlakatni halokat yoqasiga olib boruvchi o'ta xavfli jinoyatlardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Shu o'rinda biz uchun dolzarb muammo bo'lgan korrupsiya masalasiga

alohida to'xtalib o'tmoqchiman. O'tgan ikki yilda 5 mingga yaqin mansabdor korrupsiyaga doir jinoyatlar bo'yicha javobgarlikka tortildi. Lekin, ochiq aytilish kerak, bu – masalaning sababi bilan emas, oqibati bilan kurashish. Deputat va senatorlar, mahalliy kengashlar ham bong urib, aniq sohalarni tahlil qilib, korrupsiyani bartaraf etish bo'yicha faol bo'lishlari kerak emasmi? Har bir deputat o'zining okrugidagi budjet hisobidan bo'layotgan qurilishlar, yo'llarni, har oyda borib ko'rsa, buyurtmachi va pudratchidan sifatni talab qilsa, bilasizlarmi, ahvol qanday o'zgaradi? Buning uchun sizlarda yetarli vakolat ham, shijoat ham bor. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida alohida qonunlar qabul qilinib, huquqiy asoslar yaratildi. Endi amaliy ishlarni kuchaytirish kerak. Sun'iy monopoliyaga, yopiq sxemalarga, umuman korrupsiyaga imkon yaratadigan barcha bo'shliqlarga barham beriladi" deb ta'kidlab o'tgan edi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Transparency International xalqaro tashkilotining 2022 yil uchun Korrupsiyani qabul qilish indeksida O'zbekiston 180 ta mamlakat orasida 14 pog'ona yuqorilab, 126-o'rinni egalladi (2021 yilda 140-o'rin). Bu albatta Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tizimli ravishda tashkil qilingan ijobiy ishlarning natijasidir.

«Ijtimoiy fikr» jamoatchilik Markazi tahlillariga ko'ra, mamlakatimizda korrupsiyani oldini olish va bartaraf etish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish maqsadida olib borilayotgan tegishli choratadbirlarga qaramay, poraho'rlik, tanish-bilishchilik, manfaatlar to'qnashuvi kabi korrupsiya illatlari davom etayotganligidan dalolat beradi.

Korrupsiya odamlar hayotini, mamlakatni boshqaradigan qadimiy ijtimoiy hodisalardan biridir. Shuning uchun qadimgi davrlardan beri odamlar korrupsiya sabablarini va uni cheklash yo'llarini topishga harakat qilmoqdalar. Xitoyning atqoli davlat arbobi, iqtisodchi, islohotchi Van Anshi (1021-1086) korrupsiya haqidagi asarlarida uning ikkita manbasi borligini qayd etgan: "yomon qonunlar" va "yomon odamlar". Yomon deb ataladiganlar odamlar o'zlariga tegishli bo'lmagan resurslarni boshqarish imkoniyatlariga ega bo'lsa, albatta usha yerda korrupsiya mavjud bo'ladi. Bunday resurslarga odatda davlat mulki, davlat buyurtmalari, imtiyozlar va budjet mablag'lari va boshqalar kiradi. Har qanday davlat xizmatchisi Konstitutsiyaga, qonunlarga, boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga amal qilishi va ularga rioya qilishi shart bo'lsada, ularning ko'pchiligi berilgan imkoniyatlardan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanishga moyil bo'ladi. Yomon qonunlar deganda, chiqarilgan qonunlar, farmonlar va qarorlarning ishlamasligi, bajarilmasligi yoki ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlarda chetlab o'tishi mumkin bo'lgan bo'shliklarning (lazeyka) mavjudligi tushuniladi [3].

XIV asr olimi Ibn Xaldun nafaqat ilmiy nazariya va sotsiologiyaning asoschisi, balki korrupsiyaning tergovchisi sifatida ham tanilgan. U korrupsiya tamoyillarini mansabdor shaxslarning dabdabali hayotga bo'lgan qiziqishida ko'rdi, o'z navbatida, dabdabali hayotga qiziqish korrupsiyaning kuchayishiga yordam beradi. Uning ta'kidlashicha, korrupsiya har qanday mamlakatda iqtisodiy qiyinchiliklarga olib keladi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Har qanday murakkab ijtimoiy hodisa singari, korrupsiya ham yagona ta'rifga ega emas. 2017 yil 3 yanvardan qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida korrupsiyaga shunday ta'rif berilgan: «korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish» [5]. Sodaroq aytganda,

korrupsiya davlat idoralarida ishlovchi shaxslarning o'z amalidan foydalanib, shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yishlari, pora evaziga sotilishlari yoki sotib olinishlari, noqonuniy moddiy yoki nomoddiy boylik orttirishlaridir.

Davlat fuqarolik xizmatchisi qonunda (konstitutsiyada va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda) belgilangan maqsadlarga hamda jamiyat tomonidan tasdiqlangan madaniy-axloqiy me'yorlarga asoslanib qaror qabul qilishi shart. Bu maqsadlar mansabdor shaxsning aniq xatti-harakatlarida mujassamlangan g'arazli manfaatlar bilan almashtirilganda korrupsiya boshlanadi. Bu holat mansab mavqeini shaxsiy manfaat uchun suiiste'mol qilish kabi hodisani tavsiflash uchun yetarli. Korrupsiya asosan bir guruh shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Juda kamdan-kam hollarda, mansabdor shaxs davlat mulkini "o'zlashtirish" uchun boshqa shaxslarni aralashirmay, yakka holda harakat qilib, o'z xizmat lavozimidan noqonuniy foyda ko'rishi mumkin.

Quyida "korrupsiya" atamasi bilan tavsiflangan holatlar bo'yicha bir nechta misollar keltiramiz.

1. Mansabdor shaxs davlat mablag'lari hisobidan o'zi uchun dacha qurganda, u yolg'iz harakat qilmaydi. Uni qo'llab-quvvatlashda ishtirok etgan boshqa shaxslarga ma'lum darajada qaram bo'lib qoladi. Ya'ni mansabdor shaxs jinoyiy sheriklariga ham davlat mablag'larni o'zlashtirishda yo'l ochib beradi. Bu holat korrupsiyaning an'anaviy tushunchasiga yaqinroqdir, chunki u nafaqat bir shaxsni, balki qonunni buzishda birgalikda harakat qilgan shaxslarning butun guruhini qamrab oladi.

2. Qonun qabul qilish bo'yicha muayyan mansabdor shaxs, unga berilgan vakolatdan (masalan, litsenziya berish) foydalanib, ruxsat berishda sun'iy to'siqlar yaratib, mijozini pora berishga majbur qiladi. Bu holat ham korrupsiyaning an'anaviy tushunchasiga yaqinroqdir, chunki u pora berish va olishni o'z ichiga oladi.

3. Ayrim holatlarda korrupsiya deganda, mansabdor shaxsning noqonuniy qaror qabul qilishi ham tushuniladi. Bunda mansabdor shaxs ham, ikkinchi tomon ham noqonuniy foyda va afzalliklarga ega bo'ladi. Bu holatda har ikki tomon o'zaro kelishuv asosida harakat qilib, ijtimoiy normalarni buzadigan qaror qabul qilinadi.

4. Mansabdor shaxs shantaj orqali noqonuniy qaror qabul qilishga majburlanadigan holatlarni ham ko'rishimiz mumkin. Bu odatda mansabdor shaxsning yashirin jinoyiy faoliligi haqida biladigan guruh yoki shaxs tomonidan bosim ostida sodir bo'ladi. Bu yerda mansabdor shaxs bitta foyda oladi - u fosh qilinmaydi.

Ya.I.Kuzminov o'zining "Korrupsiya to'g'risida tezislar" asarida "korrupsiya"ning ma'nosini, "Korrupsiya tor ma'noda mansabdor shaxslarning ma'lum bir moddiy mukofot evaziga o'z vazifalariga qasddan beparvolik qilishlari yoki bu majburiyatlarga zid harakat qilishlaridir" deb o'ziga xos tarzda tushuntirib berdi. Poraxo'rlikning korrupsiyadan farqi shundaki, mansabdor shaxs o'z vazifasini buzgani uchun emas, balki uni bajarish uchun pora oladi. Poraxo'rlik mansabdor shaxsning majburiyatlarining noaniqligi, davlatning ma'muriy va moliyaviy imkoniyatlarining tanqisligi (ko'pincha sun'iy ravishda yaratiladi) natijasida yuzaga keladi [6].

Tahlil va natijalar. Korrupsiya deganda davlat mansabdor shaxslari tomonidan fuqarolardan shaxsiy boyish maqsadida oladigan poralari tushuniladi. Lekin, korrupsiya munosabatlarining ishtirokchilari nafaqat davlat amaldorlari, balki, tijorat tashkilotlari menejerlari ham bo'lishi mumkin. Pora pul bilan emas, balki boshqa shaklda berilishi mumkin. Korrupsiya munosabatlarining tashabbuskorlari ayrim holatlarda tadbirkorlar ham bo'lishi mumkin. Mansab mavqeini suiiste'mol qilish shakllari juda xilma-xil bo'lganligi

sababli, korrupsiyaning har xil turlari turli mezonlarga ko'ra farqlanadi:

1. O'z mansab mavqeini suiisteomol qilish: davlat amaldorlari, tijorat tashkilotlari rahbarlari, siyosiy arboblari;

2. Korrupsiya munosabatlarining boshlanishi: mansabdor shaxs yoki mijoz tashabbusi bilan boshlanadi;

3. Pora beruvchi vazifasini bajarish: oddiy fuqaro, yuridik tashkilot yoki jinoiy guruh;

4. Korrupsiyadan olingan foyda shakli: naqd pul yoki xizmatlar almashinuvi;

5. Pora berishning asosiy maqsadlari: ma'lum bir ishni tezlashtirish, foyda ko'rish, mansabdor shaxsga yaxshi ko'rinish yoki qilayotgan qonunga xilof ishlarini yashirish, jazodan qutilish va hokozo.;

6. Korrupsiyaga oid munosabatlarni markazlashtirish darajasi: markazlashtirilmagan korrupsiya (pora beruvchi o'z tashabbusi bilan harakat qiladi), markazlashtirilgan "pastdan yuqoriga" korrupsiya (pastki mansabdor shaxslar tomonidan olinadigan pora yuqori lavozimli shaxslar bilan bo'linadi), markazlashtirilgan "yuqoridan pastga" korrupsiya (yuqori mansabdor shaxslar tomonidan olinadigan pora qisman ularning qo'l ostidagilarga o'tadi yoki ularning ham pora olishlariga sharoit yaratiladi);

7. Korrupsiya munosabatlarining tarqalish darajasi: umumiy korrupsiya (davlat tashkilotlarining quyi va o'rta bo'g'inlarida keng tarqalgan), yuqori korrupsiya (yuqori mansabdor shaxslar va siyosatchilar orasida keng tarqalgan), xalqaro korrupsiya (jahon iqtisodiy munosabatlari sohasida tarqalgan);

8. Korrupsion aloqalarning muntazamlik darajasi: epizodik korrupsiya, tizimli korrupsiya.

M. Izotovning ta'kidlashicha, korrupsiya va korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning asosiy obyektiv sabablari quyidagilardan iborat:

- jamiyatdagi keskin ijtimoiy tabaqalanish;
- boyliklarni asosan jinoiy daromad manbalaridan to'plash, korrupsiyani rag'batlantirish;
- qonunga bo'ysunuvchi fuqarolarning ko'pchiligi uchun huquqlarning yo'qligi;
- aholi o'rtasida moddiy va ma'naviy ne'matlarni taqsimlashda ochiq-oydin adolatsizlik;
- ishlab chiqarishning keskin pasayishi va ish topishdagi qiyinchiliklarning kuchayishi;
- uyushgan va iqtisodiy jinoyatchilikka asoslangan "yashirin" iqtisodiyotning gullab-yashnashi;
- barcha darajadagi hokimiyat strukturasi "klanlashtirish" darajasining oshishi;
- hokimiyat va uyushgan jinoiy tuzilmalar rahbarlari o'rtasidagi yaqin aloqalar;
- muayyan lavozimlarga nomzodlarni tanlashda, qoida tariqasida, tajribasi, kasbiy mahorati va shaxsining axloqiy fazilatlaridan qat'i nazar, qarindosh-urug'chilik, nepotizm va boshqalarga asoslangan kadrlar siyosati [7].

Taxlillar shuni qo'rsatadiki, davlat boshqaruv organlaridagi korrupsiyaning sodir etilishi natijasida

ADABIYOTLAR

1. Горта А. Минимизация коррупции: применение уроков литературы по предупреждению преступности. Москва. 1998. Том. 30.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Jamiyat va boshqaruv" jurnali. Toshkent. 2022. 4 (98).
3. Лапина З. Г. Политическая борьба в средневековом Китае (40-70-е годы XI в.). Москва. 1970.
4. В. Смирнов "ал-Мукаддима". Историко-философский ежегодник 2007. М.: Наука, 2008, стр.187-217.
5. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi to'g'risida qonuni O'RB-419-son. – Toshkent. 2017.
6. Кузминов Я.И. "Тезисы о Коррупции". Москва. 2000. стр. 4-5
7. "Понятие коррупции: основные подходы. Журнал «Философия». Москва. 2004. Стр. 134.
8. Turdikulov Sh.X «Korrupsiyaga qarshi kurash jamiyat muammosi» Monografiya. –Toshkent: «Bilim va intellektual salohiyat», 2022.

iqtisodiyot sohasiga eng katta zarar yetkaziladi. Xalqaro ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, dunyo mamlakatlarida korrupsiyaning sodir etilishi natijasida tovar va xizmatlarning bahosi har yili o'rtacha 5-15 foizga oshar ekan.

Masalan, AQSHda korrupsiya muammosi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, korrupsiyaga ketgan mablag'lar mamlakatda ishlab chiqarishni kengaytirishga sarflanganida 12 million kishi qo'shimcha ish o'rinlari bilan ta'minlanishi mumkinligi aniqlandi. Shuningdek, ishchi-xizmatchilarning o'rtacha daromadi 10 %ga oshgan, yalpi milliy mahsulotning o'rtacha yillik o'sishi qo'shimcha 5 %ga ortgan bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Korrupsiya jamoat munosabatlari tizimidagi eng qadimiy hodisalardan biridir. Tabiiyki, tarixiy jarayon davomida bu hodisaning ko'rinishlari muttasil o'zgarib bordi, hamda siyosiy – iqtisodiy tartiblar murakkablashib borgani sari, yangi shakllarining namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha turli xil ijtimoiy me'yorlar, rasmiy qonunchilik hujjatlari mavjud bo'lsa-da, ulardan chetga chiqish xolatining tez-tez uchrab turishi qoralangan lekin bu borada o'tkazilgan tadqiqotlar aslida davlat darajasida ham namoyon bo'lganligini ko'rsatadi.

Poraxo'rlik va korrupsiya o'zbek jamiyatining rivojlanishiga, xususan, demokratik yangilanish hamda modernizatsiyalash jarayoniga har jihatdan xalaqit bermoqda. Garchi bu masala uzoq yillardan beri ta'kidlanib, qo'lg'a tushgan amaldorlar televideniye va matbuotda namoyish etilganiga qaramasdan, oddiy fuqarolarning qon-qoniga singib ketgan feodalizm sarqitlari, tamagirlik, byurokratiya jamiyatimiz hayotidan yo'qolib ketmayapti.

Barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi. Fuqarolarning huquqiy onggi hamda huquqiy madaniyatining yetarli darajada emasligi, o'z haq-huquqini himoya qila olmasligi, jamiyatda adolat mezonining buzilishini ko'paytirdi.

Davlat va jamiyatda inson ongi, dunyoqarashi bilan bog'liq muammolar tahlilidan kelib chiqsak, sobiq ittifoqdan meros qolgan korrupsiya illatiga qarshi kurashda hali ancha aziyat chekishga to'g'ri keladi. Sababi, diniy-madaniy, axloqiy-ma'naviy qadriyat, me'yorlar doirasidan sezilarli darajada uzoqlashib, ijtimoiy jihatdan uzilish paydo bo'lgan hamda yuqoridan quyigacha qat'iy ishlaydigan iyerarxiya tizimi hali to'liq ishga tushmagan.

Bugungi kunda korrupsiyaning jadal rivojlanib ketishiga asosiy sabablardan biri, bu davlat idoralaridagi oylik ish haqqilarning kamligi va tashkilot idora xodimlari shu korrupsiya balosiga o'rganib qolishganligidadir. Shuning uchun korrupsiya balosiga tubdan chek qo'yish maqsadida barcha shaxslarda korrupsiyaga nisbatan illat sifatida qarash, undan jirkanish va hech qachon uni qabul qilmaslik kabi bilim va malakani shakllantirish, unga qarshi milliy, ma'naviy, madaniy immunitetni shakllantirishimiz zarur va shart.



UDK :378.147.227.

Vazira UBAYDULLAEVA,

Assistant of Biomedical Engineering, Informatics and Biophysics, Tashkent medical academy

E-mail: vaziraubaydullayeva1@gmail.com

Toshkent tibbiyot akademiyasi mustakil izlanuvchisi V.P.Ubaydullayeva taqrizi asosida

MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF PRACTICAL-PROCESS COMPETENCE OF MEDICAL STUDENTS IN THE PRIORITY OF THE TECHNICAL APPLICATION OF PHYSICS

Annotation

This article discusses a model for the development of practical-process competence of medical students with priority to the technical application of physics. The work pays special attention to the principles of using modern pedagogical technologies for the development of practical-process competence of students.

Key words: Competence, competency, modeling, methodological, practice-process, element of pedagogical technology, program, modeling, technical.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПРАКТИКО-ПРОЦЕССНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ В ПРИОРИТЕТЕ ТЕХНИЧЕСКОГО ПРИМЕНЕНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается модель развития практико-процессной компетентности студентов-медиков с приоритетом технического применения физики. В работе особое внимание уделяется принципам использования современных педагогических технологий для развития практико-процессной компетентности студентов.

Ключевые слова: Компетенция, компетентность, моделирование, методический, практико-процессный, элемент, педагогической технологии, программа, моделирование, технический.

FIZIKANING TEXNIK QO'LLANILISHI USTUVORLIGIDA TIBBIYOT YO'NALISHLARI TALABALARNING AMALIY-JARAYONLI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Annotatsiya

Ushbu maqolada fizikaning texnik qo'llanilishi ustuvorligida tibbiyot yo'nalishlari talabalarning amaliy-jarayonli kompetentligini rivojlantirish modeli ko'rib chiqilgan. Ishda talabalarning amaliy-jarayonli kompetentligini rivojlantirishga zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish tamoyillariga ham alohida e'tibor berilgan

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kompetentlik, modellashtirish, metodologik, amaliy-jarayonli, pedagogik texnologiya element, dastur, modellashtirish, texnik.

Kirish. Jamiyat rivojlanishining hozirgi zamon bosqichida o'zgarayotgan ijtimoiy – iqtisodiy sharoitda ta'lim sohasiga ilg'or innovatsiyalar kirib keldi. Ta'limni axborotlashtirish, texnologiyalashtirish, uning globalashuvi, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi sharoitida jamiyatimizda bilimli va malakali mutaxassislariga talab ortib bormoqda. Bugungi kunda mutaxassislardan nafaqat yuqori malakaga ega bo'lish, erishilayotgan natijalarni o'zaro taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirib xulosa chiqarish, hamda o'zlashtirgan bilimlarni amaliyotga qo'llashni talab etmoqda.

Respublikamizda ta'limning barcha bo'g'inlarida, jumladan umumta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi (malaka oshirish kurslarida) ta'limda talabalarga o'quv va kasbiy yo'nalishlariga mos holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'quv mashg'ulotlari olib boriladi. Demak, fizika ta'limining barcha bosqichlarida talabalarga o'quv darajalariga ko'ra zaruriy bilimlar taqdim etiladi. Shu borada, o'rinli savol tug'iladi, talabalar erishilgan bilimlarini amaliyotga qanday qo'llay oladi?

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'tgan asrning ikkinchi yarmida Yevropa mamlakatlarida "Kompetensiya" va "kompetentlik" atamalarini falsafa faniga kategoriya sifatida kirib keldi. Bu termin fanga Angliyalik olim D.Xayms tomonidan kiritilgan. Amerikalik lingvist N.Xomskiy

kompetensiya atamasini shaxsning nutq va so'zlashuvga ko'ra o'quv, kasbiy faoliyati mazmunida talqin qilgan [1].

Talabalarda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan (jami oltita) tayanch kompetensiyalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187 – son Qarori bilan tasdiqlangan [2].

Respublikamiz ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limda talabalarda shakllangan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni baholash bo'yicha respublikamiz olimlari tadqiqot ishlarini olib borishgan. J.Usarov tomonidan umumta'lim maktab talabalaridagi tayanch kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini aniqlashda "darajali yondashuv" tamoyiliga asoslangan shkaladan foydalanish taklifi berilgan [3].

U.Inoyatov va B.Xodjaev kompetensiya va kompetentlik kategoriyalarini ta'limdagi an'anaviy qo'llanib kelayotgan uch element (triada), ya'ni – "Bilim – Ko'nikma – Malaka" ni oltita element (sektet) – "Bilim – Ko'nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi–Kompetensiya–Kompetentlik" tarzida talqin qilgan [4].

T.N.Lukina tadqiqot ishida bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning funksional modelini ishlab chiqqan hamda bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning sifatini

ko'rsatkichi (maxsus kasbiy kompetentlikni) shakllantirish aniqlashtirilgan [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Modellashtirish terminini pedagogika faniga birinchi bo'lib Shtoff kiritgan. Modellashtirish – bu nazariy anglash jarayoni bo'lib, mantiqiy fikrlash asosida amalga oshiriladigan empirik yoki nazariy bilimlar majmuasidir. Modelning ta'rifi turli soha vakillari tomonidan turlicha talqin qilingan. Masalan, tadqiqotchilardan B.A.Glinskiy., Ye.P.Nikitinlar ham ko'rib chiqishgan. Ular modelni “o'rganilayot-gan obyekt bilan mos keladigan (aynan ham emas, mutlaqo farqli ham emas) va ba'zi jihatlari bilan obyektning o'rnini bosa oladigan hamda o'rganish jarayonida ma'lum darajada obyekt haqida axborot beradigan mustaqil obyekt” sifatida ta'riflaydilar [6].

V.P.Simonovning ta'kidlashicha, model - bu “real jarayon yoki hodisani yiriklashtirilgan yoki kichiklashtirilgan ko'rinishda yoki kompyuter yordamida virtual borliq holida uning xususiyatlarining qayta aks ettirilishidir”.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimizning maqsadidan kelib chiqib, biz yuqorida modelga berilgan tasniflarga tayanib fizikaning texnik qo'llanilishi ustuvorligida tibbiyot yo'nalishlari talabalarining amaliy-jarayonli kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqdik. Mazkur modelning yaratilishi va uning tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida joriy etilishi, fizika fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazishda hamda mustaqil ta'limda talabalarni ijodiy faollikka yo'naltirib, erishilgan bilim, ko'nikma va malakalaridan yangi vaziyatlarda qo'llay olishi, fizik hodisa va jarayonlari orasidagi o'zaro bog'lanish qonuniyatlarini bilishi, ularda loyiha va konstruktorlik ishlarini bajarishda eng maqbul usullarni taklif qilish ko'nikmalarining shakllanishiga imkon beradi (1-rasm). Modeldagi nazariy – metodologik komponent o'z ichiga zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish tamoyillarini va yondashuvlarini o'z ichiga


oladi. Talabalarining amaliy-jarayonli kompetentligini rivojlantirishga zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish tamoyillari sifatida quyidagilar olingan: psixologik, didaktik, texnologik va tashkiliy kommunikativlik.

Biz talabalarining amaliy-jarayonli kompetentligini rivojlantirishning psixologik tamoyili tarkibiy qismida: manfaatdorlik, izlanuvchanlik, moslashish, refleksiya kabi sifatlarni kiritdik. Ta'lim olish - bu didaktik jarayondir.

Axborot muhiti sharoitida dunyo ta'limi tez rivojlanib bormoqda. Shuningdek, ta'limning ochiqlik tamoyili o'quv jarayoniga turli interfaol metodlarning kirib kelishiga imkon bermoqda. Endilikda turli sohalarda tayyorlangan mutaxassislardan erishilgan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash va xulosa chiqarish, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror chiqarishga qodir kompetentli kadrlarni tayyorlash zaruriyatga aylanmoqda[8].

Mazkur yondashuvga ko'ra loyiha ishlarini bajarishda talabalar har biri o'ziga tegishli bo'lgan qismlarni mustaqil o'zlari bajaradilar va natijalar guruh ichida muhokama qilinadi hamda ijobiy natijalarga erishadi.

Modelning tashkiliy-jarayon komponenti, ya'ni tibbiyot yo'nalishlari talabalarining amaliy-jarayonli kompetentligini rivojlantirishda axborot va amaliy bloklari orqali amalga oshiriladi. Axborot blokining Microsoft Office paketiga kiruvchi MS Word, MS Excel, MS Power Point dasturlari bilan talabalar erkin ishlay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi fanga oid berilgan topshiriqlarni bajarishda (referat, hisob-kitob ishlarini bajarishda, taqdimot tayyorlashda) o'z samarasini beradi. Shuningdek, axborot bloki NI Multisim dasturi, Virtual Breadboard, Proteus Professional, ARDUINO platasi, Projest board maket platasi to'g'risida nazariy ma'lumotlar va mazkur dasturlar asosida bajariladigan torshiriqlar bazasini tashkil etadi.



1-rasm. Tibbiyot yo'nalishlari talabalarining amaliy-jarayonli kompetentligini rivojlantirish modeli

Modelning tashkiliy-jarayon komponentining amaliy bloki orqali tibbiyot yo'nalishlari talabalarining amaliy-jarayonli kompetentligini rivojlantirish, bo'lajak shifokorlarda kasbiy kompetensiyalarni, ularda o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda kognitiv kompetensiyalarni shakllantiriladi. ARDUINO platasi, Projest board maket platasi talabalarga elektr zanjirini o'rganish bo'yicha keng imkoniyatlarni beradi va buning natijasida bo'lajak shifokorlarda kasbiy (texnik) ko'nikmalar shakllanadi. NI Multisim dasturi bilan ishlash orqali talabalarda dasturlash ko'nikmalari bosqichma-bosqich shakllanib boradi hamda ularda mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Elektron dasturlar amaliyotda ACCESS – ma'lumotlarni to'plashda, MATHCAD - jarayonlarni matematik modellashtirishda, ELECTRONICS WORKBENCH - sxemateknik modellashtirishda qo'llaniladi. O'quv mavzularini samarali o'zlashtirishda faoliyatli yondashuv, ya'ni o'quv materialini amaliyotda qo'llay olishi muhimdir. Fizika fanini o'qitishda kompetentli yondashuv orqali talabalarda MS Excel, NI Multisim dasturlaridan muhandislik hisob ishlarini va muhadislik yo'nalishida loyiha ishlarini bajarish orqali ularda amaliy-jarayonli kompetensiyalar shakllanadi. Talabalarda amaliy-jarayonli kompetensiyalar shakllantirilishi ularning kelajakda yetuk malakali shifokor bo'lishlarini ta'minlaydi.

Amaliy blokida esa, amaliy-jarayonli kompetentligini rivojlantirish (o'quv- bilish faoliyati), kasbiy kompetensiyani shakllantirish (amaliy mashg'ulotlar) hamda kognitiv kompetensiyani shakllantirish kabi qismlardan tashkil topgan.

Baholash komponentida fizikaning texnik qo'llanilishi ustuvorligida tibbiyot yo'nalishlari talabalarining amaliy-jarayonli kompetentligini rivojlantirish jarayoni, uning tuzilmasi va metodlari haqida bilimlarini kengaytirish;

refleksiv-baholash qobiliyati va talabalarining individual qobiliyatlarini hisobga olish; o'zini-o'zi rivojlantirish jarayonida metodik yordam berish kabilar nazarda tutiladi hamda ularda zaruriy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha erishilgan natijalar baholanadi. Talabada shakllangan tayanch kompetensiyalarni ballik tizimda baholab bo'lmaydi. Sababi bu kompetensiyalar tibbiyot yo'nalishi talabalarining insoniy sifatleri, hayot faoliyati davomida olgan bilim va ko'nikmalar in'kosi, o'zida genetik va orttirilgan moyilliklarni namoyon qila olish qobiliyati kabi bir qator komponentlarni o'z ichiga oladi. Oltita tayanch kompetensiyadan ixtiyoriy bittasi shakllanganligi jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatishiga yetarli bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, tayanch kompetensiyalarni past, o'rta va yuqori daraja bo'yicha (talabalar xulqini baholagani kabi) baholash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar. Amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-metodik ta'minotini zamonaviy axborot-kommunikatsion va pedagogik texnologiyalar yordamida takomillashtirishning innovatsion yondashuvi talabalarda fizika faniga qiziqishlarining yanada kuchayishi, fanga doir bilimlarni yanada to'liq va chuqur egallashlarini hamda egallagan bilimlarni kasbiy faoliyatda mustaqil qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Mazkur modelning yaratilishi va tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida joriy etilishi, fanning amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish hamda mustaqil ta'limda talabalarni ijodiy faollikka yo'naltirib, erishilgan bilim, ko'nikma va malakalaridan yangi vaziyatlarda qo'llay olish, fizik hodisa va jarayonlari orasidagi o'zaro bog'lanish qonuniyatlarini bilishi, ularda loyiha va konstruktorlik ishlarini bajarishda eng maqbul usullarni taklif qilish ko'nikmalarining shakllanishiga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Хомский Н. О природе и языке. Москва, 2005 // URL: <http://www>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020 й., 06/20/5987/0521-сон).
3. J.E.Usarov “Тayanch va fanga oid kompetensiyalar asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish” Toshkent -2019 yil -89b.
4. Иноятов У.И. Замонавий электрон дидактик воситаларни яратиш, таълим жараёнида ахборот-коммуникацион технологияларни қўллаш долзарб ижтимоий-педагогик муаммо. Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: инновация ва истиқболлар. Халқаро илмий конференция. – Тошкент. – 2018. – Б.3.
5. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. - М.: Изд-во Института профессионального образования МО России, 1995.
6. Мавлянов А., ва б.қ. Педагогик технология тамойиллари асосида дарс машғулотларини олиб бориш технологияси. Ўқув-методий қўлланма. Тошкент. Ворис. - 2010. - 117 б.
7. Шишов, С. Е. Компетентностный подход к образованию как необходимость [Текст] / С.Е. Шишов // Мир образования. - 2005. - № 4. - С. 41-43.
8. Лебедев, О.В. Компетентностный подход в образовании [Текст] / О.В. Лебедев // Школьные технологии. -2004. - №5. - С. 3 - 12.
9. Татур, Ю. Г. Компетентность в структуре модели качества подготовки специалистов Текст. / Ю. Г. Татур // ВО сегодня. - 2004. -№ 3.- С. 20-26.
10. Ермаков Д.С. Компетентный подход в образовании // Ж. Педагогика. № 4.-М.,2011.- С. 8-15.
11. Убайдуллаева В.П. Замонавий таълим сифатини аниқловчи компетенцияларнинг назарий асослари. // «Таълим ва инновацион тадқиқотлар» Халқаро илмий-методик журнал. Тошкент-2023. Б-307-314.



UDK:37.013.04.02

Gulchexra UMAROVA,
Andijon mashinasozlik instituti erkin izlanuvchisi, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
E-mail: gulchexra.u@mail.ru

JizPI dotsenti, p.f.f.d., (PhD) D.Kulmurodov taqrizi ostida

BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENTSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISH

Аннотация

O‘qitishning interfaol usullari yordamida bo‘ljak muhandislar o‘rtasida kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayoni quyidagicha: hamkorlikdagi faoliyatga asoslangan hamkorlik; subyektivlik; guruhdagi har bir talabning rivojlanish birligi; ishtirokchilar o‘rtasidagi dialogli aloqa; ta‘lim makonida erkinlik, tanlov va muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish; intellektual tadbirkorlik pedagogik o‘zaro ta‘sir tamoyillarga asoslangan.

Kalit so‘zlar: Vizualizatsiyalashgan, kooperativ, aralash ta‘lim strategiyasi, texnologik-jarayoniy va diagnostik-natijaviy komponentlar, metodologik yondashuvlar, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik strategiyasi.

РАЗРАБОТКА ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СТРАТЕГИИ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ

Аннотация

Процесс формирования профессиональной компетентности будущих инженеров с помощью интерактивных методов обучения осуществляется следующим образом: сотрудничество, основанное на совместной деятельности; субъективность; блок развития каждого студента в группе; диалогическое общение между участниками; создание ситуаций свободы, выбора и успеха в образовательном пространстве; интеллектуальное предпринимательство основано на принципах педагогического взаимодействия.

Ключевые слова: Визуальная, кооперативная, смешанная стратегия обучения, технолого-процессуальный и диагностически - результативный компоненты, методические подходы, профессиональная подготовка, педагогическая стратегия.

DEVELOPMENT OF A PEDAGOGICAL STRATEGY FOR INCREASING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE ENGINEERS

Annotation

The process of developing the professional competence of future engineers using interactive teaching methods is carried out as follows: cooperation based on joint activities; subjectivity; development block for each student in the group; dialogical communication between participants; creating situations of freedom, choice and success in the educational space; intellectual entrepreneurship is based on the principles of pedagogical interaction.

Key words: Visual, cooperative, mixed learning strategy, technological-procedural and diagnostic-effective components, methodological approaches, professional training, pedagogical strategy.

Как известно, педагогика, определяемая как теория и практика обучения, относится к методологии и процессу, с помощью которого преподаватели подходят к преподаванию и обучению с использованием определенной учебной программы с конкретными целями. Традиционная педагогика в основном относится к концептуальным основам среды очного обучения и того, как люди учатся в этом пространстве. За последние несколько десятилетий традиционная педагогика эволюционировала, включив в нее и другие методы; в частности, онлайн-среда. На сегодняшний день традиционное очное обучение-это педагогическое занятие, используемое в классе большинство практик можно эффективно применить к другим методам обучения, таким как онлайн, гибридная или смешанная среда обучения, и наоборот.

Ниже приведены стратегии педагогического образования, которые оказались наиболее эффективными в последние годы (2022-2023 гг.). Они состоят из сложных:

1. Стратегия визуализированного обучения;
2. Стратегия совместного обучения;

3. Стратегия смешанного обучения;
4. Стратегия обучения на основе технологий;
5. Стратегия обучения, ориентированная на учащихся;
6. Образовательная стратегия, направленная на профессиональное развитие.

Переключение между стратегиями обучения в соответствии с потребностями студентов - отличный способ обеспечить активное и значимое участие студентов в аудитории.

Практика каждого преподавателя в аудитории уникальна, поэтому хотелось бы представить 7 эффективных стратегий обучения, которые вы можете использовать для вдохновения, чтобы дать своим студентам полный образовательный опыт [1].

1. Стратегия визуализированного обучения. Проще говоря, визуализация - это способность создавать мысленные образы на основе слов, которые мы слышим, или текста, который мы читаем.

Эта стратегия при правильном применении может помочь студентам сосредоточиться на концепции или

теме. Он воплощает концепции в жизнь и побуждает студентов общаться с реальным миром.

Вот несколько способов реализации этой стратегии в аудитории:

Использование аудиовизуальных носителей, таких как изображения, видео, аудиоклипы, песни и т. д., а также активное применение в процессе обучения схем, диаграмм и ментальных карт.

Это включает в себя моделирование при обучении визуальных обучаемых, которым, возможно, потребуется увидеть визуальный образ, а не слышать новые знания, которые преподаются.

2. Стратегия совместного обучения. Виртуальное обучение привело преподавателей к пониманию важности фундаментальной части процесса обучения - сотрудничества.

Совместное обучение - это образовательная стратегия, при которой студенты первых курсов совместно работают над поставленной задачей. Задача может быть такой же простой, как решение викторины, или такой же сложной, как написание рассказа.

На таких занятиях студенты с разными способностями к обучению объединяются и помогают максимизировать возможности друг друга. Это накладывает ответственность за успешное выполнение задачи. Это также побуждает студентов поддерживать друг друга и действовать там, где это необходимо для достижения конечной цели.

Командная работа и сотрудничество - это стратегии активного обучения, при которых студенты работают и учатся вместе в небольших группах для достижения общих целей. Эффективная командная работа и сотрудничество важны для процесса обучения студентов.

3. Стратегия смешанного обучения. Каждая группа представляет собой динамичное учебное пространство со студентами разного уровня способностей и характера.

Смешанное обучение - это стратегия обучения, которая учитывает, что студенты первого курса могут находиться в разных начальных точках своего образовательного процесса.

Дифференцированное обучение означает не только разнообразный контент, соответствующий индивидуальным потребностям, но и интеграцию различного контента, продуктов, учебных пособий, методов или даже другой среды обучения, чтобы помочь студентам добиться успеха.

Например, на занятиях по информатике преподаватель может разделить студентов на две группы в зависимости от их способности декодировать и понимать.

Каждая группа может получить текст, соответствующий способности группы справиться с этим. В то время как одна группа может читать и обсуждать свой текст самостоятельно, преподаватель может работать со второй группой, чтобы помочь им в чтении. Две группы также могут получить дифференцированные инструменты оценки, такие как рабочие листы разной сложности [2].

Это помогает взглянуть на разнообразие опыта обучения и одинаково интересно обратиться ко всем студентам.

4. Стратегия обучения на основе технологий. Технологии в аудитории - отличный способ активно вовлекать студентов, особенно в недавнем прошлом, когда образование резко изменилось с ростом дистанционного обучения.

Внедрение интерактивных онлайн - игр поощряет участие студентов, что, в свою очередь, обеспечивает

полноценный образовательный опыт. Развивающие игры служат платформой для обучения через игру.

5. Стратегия обучения, ориентированная на студента. Обучение, ориентированное на студента, - это метод, направленный на роль будущего инженера в процессе обучения. Таким образом, в аудитории, основанном на опросах, можно увидеть, как студенты изучают материал или концепцию, понимают ее, обмениваются идеями и идеями и задают вопросы, а не преподаватель устно объясняет концепцию.

Эта стратегия - отличный способ заинтересовать молодых студентов и привлечь неактивный класс. Благодаря такому подходу у студентов формируются навыки исследования информации, совместного обучения и рассуждений посредством самостоятельного исследования и взаимодействия с содержанием.

6. Образовательная стратегия, направленная на профессиональное развитие. Педагогика-динамичная и востребованная профессия. Потратьте некоторое время на прохождение курсов профессионального развития - отличный способ быть в курсе новых исследований и методов, относящихся к группе студентов.

Поскольку образовательная практика и политика постоянно обновляются, такие курсы предлагают идеи, которые можно применить в педагогической практике (их собственная версия совместного обучения!) идеально подходит для общения с преподавателями - единомышленниками, чтобы поделиться!

Используя комбинацию стратегий обучения и периодически меняя сочетание, ваш класс становится обогащенной средой для вас и ваших студентов. Мы разработали педагогическую стратегию развития профессиональной подготовки: определение педагогической цели, выбор педагогического содержания, выбор педагогических технологий, планирование ведения процесса, разработка критериев оценки, достижение образовательного результата.

Учитывая вышесказанное, мы пришли к выводу о необходимости разработки модели формирования коммуникативной компетентности будущих инженеров на основе интерактивных методов обучения, а также на основе кластерной модели и педагогической стратегии. Действительно, педагогическая стратегия приобрела важное значение при разработке модели [5].

Педагогическая стратегия - это совокупность тех или иных приемов, которые использует педагог, чтобы помочь студентам достичь поставленных целей. В ее основе лежит учет интересов учащихся, его сильных и слабых сторон, стиля обучения, возрастных особенностей и личностных качеств.

Кроме того, под педагогической стратегией понимается совокупность тех или иных приемов, применяемых педагогом, позволяющих достичь ожидаемых целей студентов [8].

При разработке педагогической стратегии развития профессиональной подготовки посредством комплексного подхода и методических подходов и формулирования принципов мы систематизировали организационно-управленческие, технологические условия подготовки и интегрируем информационно-коммуникационные компетенции студентов в аудиторную и внеаудиторную деятельность. В результате обеспечивается участие студентов в производственных, исследовательских проектах. Содержание развития информационно-коммуникативных компетенций студентов вместе с содержанием подготовки обучающихся к профессиональной деятельности переносится (трансформируются) из одного состояния в

другое и обеспечивают непрерывность и непрерывность развития профессиональных навыков (рис.1).



Рис. 1. Педагогическая стратегия развития информационно-коммуникативных компетенций студентов

Создание данной модели представляет собой целостную, открытую динамическую модель, позволяющую целенаправленно направлять процесс развития своих профессиональных компетенций у будущих инженеров.

Процесс развития профессиональных компетенций у будущих инженеров осуществляется на основе программы дополнительного специального курса;

организация учебного процесса с учетом возможности совмещения учебной, научной и производственной деятельности; разработка и реализация инновационных проектов студентов; создание индивидуальных учебных программ и методов обучения с возможностью проведения практических и фундаментальных исследований.

ЛИТЕРАТУРА

1. Умарова Г.А. Разработка методов оптимального обучения моделированию виртуальных лабораторных работ по физике / Science and education scientific journal volume 3 issue 4, 2022, -1554 с.
2. Umarova G. A. Improving the method of effective teaching for modelling and performing virtual laboratory works in physics / Current research journal of pedagogics, vol.3 no.11(2022), pp.06–18,
3. <https://masterjournals.com/index.php/crjp/article/view/1065>
4. Kasimakhunova A.M., Umarova G. A. Development of methods for effective learning in modeling the properties of semiconductors for research works // Scientific Bulletin of NamSU 2022 № 7 pp 320-327.
5. Умарова Г.А., Сулейманов Р.Н. Виртуальные лабораторные работы: принципы разработки / НамМТИ, Илмий-техника журналы Том 6, Махсус сон (2), 2021, - 433 б.
6. Умарова Г.А. Совершенствование методики эффективного обучения моделированию отдельных тем по квантовой физике / АндМИ, “Машинасозлик” илмий журналы. 2022 й., №5 (Махсус сон) I том, ,538-538 б.
7. Умарова Г.А. Проблемы, методы и задачи обучения моделированию в курсе общей физики / “Yarimo’tkazgichlar fizikasi va ular asosidagi qurilmalarning zamonaviy muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Namangan, 12-aprel, 2023-yil. 278-280 b.
8. Умарова Г.А. Использование принципов и методов математического моделирования при решении физических задач в технических вузах /Журнал академических исследований и тенденций в области образования / Том. 2 № 1 (2023): (jartes). 112-119 бет.
9. Umarova G.A. The use of the principles and methods of mathematical modeling in solving physical problems in technical universities / Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 2023/2/1, 112–119.
10. Kasimahunova A., Umarova G. (2023). Issues of Effective Study of Semiconductor Device Properties in Engineering Educational Institutions. Journal of Higher Education Theory and Practice, 23(12).



Sarvinoz UMAROVA,
Urganch davlat universiteti doktoranti
E-mail: sarvinozumarova@gmail.com

UrDU professori, DSc, M.Xajiyeva taqrizi asosida

TOLERANTLIK TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada tolerantlik tushunchasi va uning ma'no, mazmuni, mohiyati hamda lug'aviy ma'nosi pedagogik jihatdan tahlil etiladi. Shu bilan birga tolerantlik pedagogikasi, yoshlarni bir-biriga inoqlik, do'stlik, mehr-muhabbat va ijtimoiy muhitda bag'rikenglik g'oyalari targ'ib qilishga undash kabi xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Tolerantlik, genotsid, rasizm, ksenofobiya, etnotsentrizm, ekstremizm, terrorizm, iqtisodiy, ma'naviy va mafkuraviy, sabr, toqat, mehr-muhabbat.

THE CONCEPT OF TOLERANCE AND ITS THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS

Annotation

This article analyzes the concept of tolerance and its interpretations, pedagogical meaning, content and essence. At the same time, the author researches the features of the pedagogy of tolerance which are encouraging young people to help spread the ideas of goodness, friendship, love and tolerance in the social environment.

Key words: Tolerance, genocide, racism, xenophobia, ethnocentrism, extremism, terrorism, economic, spiritual and ideological, patience, tolerance, love.

ПОНЯТИЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ И ЕГО ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Аннотация

В данной статье будет проведен педагогический анализ понятия толерантности и его значения, содержания, сущности, а также лексического значения. При этом раскрываются такие особенности педагогики толерантности, как умение побуждать молодежь к пропаганде идей толерантности в социальной среде, дружбе, привязанности друг к другу.

Ключевые слова: Толерантность, геноцид, расизм, ксенофобия, этноцентризм, экстремизм, терроризм, экономические, духовные и идеологические, терпение, терпимость, привязанность.

Kirish. Jahon ilm-fanida gumanistik g'oyalarni namoyon etishda jamiyat taraqqiyotining yangilanishlar va islohotlar samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, ta'lim tizimining ma'naviy-axloqiy va g'oyaviy mazmunini kuchaytirishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Yoshlarda yuksak ma'naviyat va insonparvarlik an'analarga sadoqat tuyg'usini chuqur singdirish, mustahkam mafkuraviy immunitet va tanqidiy munosabatni shakllantirish ularda tolerantlik g'oyalarni rivojlantirish hamda milliy o'zlikni anglash va qadrlash tuyg'ularini qaror toptirishni hamda ularning innovatsion usul hamda vositalarini optimallashtirishni talab etmoqda.

Tolerantlik (lotincha "tolerantiya" – sabrlilik, toqatlilik) – o'ziga hayot tarzi, nuqtai nazar, g'oyalar va e'tiqodlarga toqatlilik, bag'rikenglikdir [1].

Rossiyada chop qilingan sotsiologik lug'atda tolerantlikka quyidagicha ta'rif beriladi:

a) yot odamning turmush tarzi, xulqi, urf-odati, xissiyoti, fikri, g'oyasi, e'tiqodiga chidamlilik bilan yondashuv;

b) noqulay omillarni sezmay qolish natijasida sodir bo'lgan xodisalarga bog'rikenglik bilan yondashuv;

c) noqulay, nomaqbul xissiy omillar ta'siriga hamchidam bilan yondashuv [2].

Lekin Mark Natturmo o'z fikrini davom ettirib: "Mening fikrimcha, biz erkin va ongli mavjudot bo'lganligimiz sababli-aybni atrofdagilarga ag'darishdek bid'atlardan xoli bo'lishimiz kerak. Alolxusus, bu tolerantlikka aloqador bo'lib, ushbu tolerantlikka aloqador bo'lib, ushbu tolerantlikni uzoq muddat erkinlikka to'siq bo'lib kelgan

diniy, etnik va irqiy xurofatlarni yengib o'tish yo'lidagi urinishlarimiz sifatida tafsivlash mumkin" [1] -deydi.

Adabiyotlar tahlili. Mark Natturmo fikrlaridan ayonki "Tolerantlik – bu yoqmaydigan, hatto yovuz deb xisoblanuvchi narsalarga toqat bilan munosabatda bo'lishdir." Munosabatning bo'nday turini ma'rifat faylasuflari bo'lmish Volter va Jon Lokk diniy ta'birlarga qarshi chora sifatida talqin etishgan va bu XVIII asrdan boshlab axloqiy ideal sifatida qadrlangan. Ahloqiy ideallik bu ta'lim-tarbiya nazariyasini rivojlantirishga undaydi. Bular asosan tolerantlik pedagogikasi negizida shakllana boradi.

Hozirgacha mavjud adabiyotlarda bu tushuncha, asosan, tibbiyot sohasida qo'llanilib kelingan. Masalan, "Tolerantlik" termini ingliz olimi P. Medavar (1953) tomonidan ko'chirib o'tqazilgan begona to'qimaga nisbatan organizm immun sistemasi "chidamliligi"ni ko'rsatish maqsadida taklif etilgan" [3]. Abdukurim Zikiryojev fikricha, "tolerantlik (immunologik tolerantlik) barcha antigen immunologik xususiyatini saqlagan holda organizmning muayyan antigenga nisbatan immunologik javobining yo'qolishi yoki susayishidir. Xuddi shunday ta'rif "Sotsiologik ensiklopedik lug'at"da ham keltiriladi, ya'ni tolerantlik (lot. – "chidamoq") – a) o'zgalarni turmush tarziga, xatti-harakatiga, urf-odatlariga, his-tuyg'ulariga nisbatan chidamlilik; b) noqulay emotsional omillarga nisbatan chidamlilikdir [4].

Keyinchalik bu tushuncha ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda ham qo'llanila boshlagan. Masalan, Rossiyada chop etilgan lug'atda: "Tolerantlik ijtimoiy ishning boshqaruv tamoyili, individlar, guruhlar va ijtimoiy jamiyatlar o'rtasidagi madaniy, irqiy va boshqa tafovutlarni tan olish, kishilarning tashqi qiyofasi, xatti-harakatlari, qadriyatlar yo'nalishi va

ulardagi farqlarga nisbatan bag'rikenglikdir" [2], degan ta'rif berilgan. Fikrimizcha, bu ta'rifda muayyan noaniqliklar mavjud. Xususan, "tafovutlarni tan olish"ni bag'rikenglik deb hisoblaydigan bo'lsak, bu tushunchaning "harakat, faoliyat va amaliyot" ekanligi haqidagi ma'no chiqmay qolmoqda. Yana bir jihatdan "tolerantlik" bilan "bag'rikenglik" bir-biridan farq qiluvchi tushunchalar ko'rinishida, ya'ni "tolerantlik" "bag'rikenglik"ni ifodalovchi tushunchaga o'xshab qolgan. Aslida esa bunga faoliyat va amaliyotdagi munosabatlarda namoyon bo'ladigan "holat" sifatida qaralganda to'g'ri bo'lar edi.

Polshalik olim V.Visnevskiy fikricha, tolerantlik o'zga kishilarning turli nuqtai nazarlariga ega bo'lish huquqini tan olish bo'lib, bunda "nuqtai nazarlarini birlashtirishning uddasidan chiqish: insonlar yoki butun bir guruhlarining salbiy baholash va ayni paytda ularga nisbatan cheklovlar yoki sanksiyalarni (jazolarni) qo'llashga hohishning bo'lmasligi"dir[5].

Keltirilgan bu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, muallif tolerantlikni inson va guruhlar munosabatlarida namoyon bo'lish g'oyasi sifatida ilgari surmoqda. Tolerantlikni yoshlar faoliyati bilan bog'lab o'rganishga harakat qilgan Z.R.Qodirova, A.J.Sharipov, V.A.Alimasov, E.G.Karimova, SH.Madayeva hammualliflikda yozgan kitoblarida quyidagi ta'rifni berganlar: "Tolerantlik – bu xilma-xillikdagi uyg'unlikdir. Bu jahon madaniyatining xilma-xilligi, o'zligimizni namoyon qilish shakllari va insoniy fazilatlarini ifodalash usullariga hurmat va uni qabul qilishdir" [6]. Berilgan bu ta'rifga qo'shilgan holda, fikrimizcha, unda bir qadar munazorabop masalalar borligini ham aytish mumkin.

Natijalar va muhokamalar. Tolerantlik pedagogikasi yoshlarni bir-biriga inoqlik, do'stlik, mehr-muhabbat va ijtimoiy muhitda bag'rikenglik g'oyalarini targ'ib qilishga undaydi. Tolerantlik genotsid, rasizm, ksenofobiya, etnotsentrizm, ekstrimizm, terrorizm kabi yot qarash va tushunchalarga qarshi bo'lib, falsafiy-ijtimoiy ong va tafakkur tarkibidan o'rin oladi. Tolerantlik dunyoviy davlatning eng zarur va ustuvor ijtimoiy talabi bo'lib, dunyoviy davlat tolerantiksiz yashay olmasligi uqtiliradi. Tolerantlik – insonning jamiyatda turli iqtisodiy, ma'naviy va mafkuraviy, diniy munosabatlarga kirishishining zamonaviy qonun-qoidalari majmui sifatida talqin qilinadi. Shunga ko'ra, insonni rivojlangan demokratik va fuqarolik jamiyatida yashashga o'rgatish - uni tolerantlikka o'rgatishga barobar keladi.

"Har qanday ta'kiblar noxak ish bo'lsa, demak tolerantlik muayyan oqilona va adolatli ishdur. Biroq, bularning bari unchalik oddiy emas. Tolerantlik foydasiga uning barcha dalillarini xisobga oladigan bo'lsak ham, Lokkning fikricha erkin jamiyati uning alohida a'zolari tomonidan bo'ladigan alohida diniy e'tiqodlarga bog'liq bo'lishi mumkin emas. Biroq, bu bizning qandaydir darajada xudoga ishonchimizga bog'liq (chunonchi, xudoga ishonmaydiganlar buzilmaydigan qasam ichishlari mumkin emas) Siz tomoningizdan ishonchingizga kiritilgandan ko'ra, sizni otib tashlashni istovchi kishi bilan to'loqonli bahs-munozarani olib borish mumkin emas. Boshqacha aytganda, oqilona munosabatlarning, o'z chegaralari bor. Biroq, xuddi shunday o'zini tolerantlikka nisbatan aytish adolatlidir. Tegishli tayyorgarliksiz barcha toqatsizlarga tolerantlik tamoiyli munosabatida bo'lish joiz emas; agarda siz shunda hambunday harkatni amalga oshiradigan bo'lsangiz, siz nafaqat o'ziningizni, balki tolerantlik munosabatini hambarbod qilasiz" [1]. Shuni ta'kidlash kerakki, insonlarning totuvligi individual axloqiy dunyoqarashning takomillashuviga bog'liq. Chunki turli millat vakillarining o'zaro munosabatlarda samimiyligi, hurmat-ehtiroim bilan munosabatga kirishishi o'sha millatlarning taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir. Shu sababdan,

har bir millat vakili milliy o'zlikni anglash ruhiyati bilan kamol topishi lozim.

Ma'lum bo'lishicha, tolerantlik tushunchasining adekvat (o'ziga mos) izohini anglash uchun, uning konkret (aniq) kontekstdagi ma'nosiga e'tibor qilish kerak. Dinlararo munosabatlar tizimida tolerantlik bir ma'no kasb etsa, shaxslararo, millatlararo, davlatlararo kabi yoki g'oyaviy-siyosiy, tarbiyaviy kabi yo'nalishlarda o'zgacha ma'noni anglatadi. Ilm-fan, ta'lim-tarbiya sohasida tolerantlik muammosi e'tiqodga xos masaladir. Turli qarashlar va fikr-mulohazalarning aralashib ketishi fojeaviy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, dinlar va siyosatlar bir xil ma'noli yechimda ega bo'lmagan savollarga o'ziga xos javob topa olsa, ilm-fan, ta'lim-tarbiyada bir savollga ikkita, bir-biriga zid javob topish noma'qul xodisadir. Turli xil mentaletet, hamda turli shakldagi tolerantlikka mos(o'xshash) yechim munosabat topishgan taqdirda, jamiyatda shunday ijtimoiy va siyosiy munosabatlar shakllanadiki, ular demokratiya, barqarorlik va farovon hayot garovi bo'lib xizmat qiladi.

Tolerantlik kompromisga (kelishuvga) kelish va majarolarni xal qilishning muhim sharti bo'lib, sabrsizlik insoniyatni jahannamga yetaklaydi-degan iboralardan tolerantlikning tabiati qanday?-degan savolni to'g'ri yechimini topish katta ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi fikrlardan shuni izohlash mumkinki, ya'ni tolerantlik turli xil dunyoqarashlar asnosida yuzaga kelgan, hamda, diniy urushlar uchun zotini yaratayotgan mojarolarga ma'naviy aks ta'sir tarzida vujudga keladi. Davlat ximoyasidagi tolerantlik har qanday ijtimoiy xodisa va xatti-harakatga nisbatan sabr-toqatli bo'lishni qonuniy deb topmaydi. Tolerantlikka davlat miqyosida qonuniy tus berishni, demokratik boshqaruv shaklining o'rnatish uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Bugungi kunda kuchli extiros bilan targ'ib qilinayotgan tolerantlik-o'zga xalq va dinga mansub kishilarga nisbatan hamdarlik bildirish yoki ma'lum davlatda inson xuquqlarini paymol etish xollarini aniqlash bilan chegaralanib qolmaydi. Bunday empirik yondashuv tolerantlikning diskriminatsiya tushunchasi bilan aralashib ketishiga olib keladi. Tolerantlik ijtimoiy hayotining ijobiy yaxlit xodisasi sifatida qaralishni talab etadi. Ana shu yaxlitlikni tushunish orqali tom ma'nodagi tolerantlikka erishish mumkindir[7]. Demak, biz ilgari uqtilirib o'tkanimiz kabi tolerantlik bu xilma-xillik, o'zgacha fazilat, hamda, xususiyatlarni bir butun borliqning ajralmas, muhim qismi sifatida chuqur anglashdir. Sabrsizlik bu ijtimoiy hayot haqiqatini nazar-pisand qilmaslikdir[8]...

Tolerantlikni ma'nosini yechishning o'z mexanizmi mavjud. Har bir fuqaro o'zga subyekti izzat-xurmatini joyiga qo'yish orqali shaxsiy qadr-qimmatini, mavqeiini anglaydi va shu orqali siyosiy madaniyatini belgilaydi. Bu muammoni axloqiy tomoni ham mavjud: ijtimoiy mavqaida, obro'-e'tibor oilada o'qitilmaydi, ta'lim tizimida ham shakllanmaydi. Natijada fuqaro o'z tabiiy va ijtimoiy tafovutidan kelib chiqqan xulosa qiladi va shunga qarab ish ko'radi. Inson ongida qaysi ijtimoiy ong domiantlik (yuqori darajada) qilishiga qarab, tolerantlikning har-xil tiplari shakllanadi. Erkin, sotsial va madaniy tarkibi, kelib chiqishi bir xil bo'lmagan ixtiyoriy jamiat, o'z barqarorligini ta'minlash uchun tolerantlikka muxtojdir. Tolerantlikning samaradorligi esa, undagi xukumron mifologik, diniy va ilmiy-ommaviy ong bilan qay darajada mos kelishiga bog'liq.

Tolerantlik ijtimoiy xodisa sifatida kishilarning o'zaro ijtimoiy muloqatlar hamda davlat va jamiyat tashkilotlariga munosabat izhor etishlarida namoyon bo'ladi. Bunday munosabatlar mazmun talabiga ko'ra, masalaga tazviqiy yondashuv bo'lmasdan, biror bir muhim masalaga davlat va jamiyat tashkilotlari e'tiqodini jalb etish, muammoga adolat yoki tezkorlik tarafdori asosida ahamiyat berish xususidagi xalq tashvishidan yaralgan taklif tavsiyalardan iboratdir.

Tolerantlik xususiyatini o'rganishda milliy an'analarga, milliy qadriyatlarga va milliy madaniyatga e'tibor berish kerak.

Xalqimiz tolerantligi O'zbekistonda milliy hamjihatlilik ruhini tarkib topdirdi. Turli millat vakillari O'zbekistonni o'z vatani deb his eta boshlab, milliy madaniy, an'anasi, diniy munosabatlari va e'tiqodini namoyish etishga keng imkoniyatlarga ega bo'ldilar. Bu esa hamjihatlik, bag'rikenglik kabi tolerantlik xususiyatlarini shakllantirish imkonini yaratdi.

Xulosa. Talaba-yoshlarda tolerantlikni shakllanishiga va qaror topishiga bilimlar, aniq maqsadni ko'zlab tarbiyalash, muloqat-munosabat hamda fikr, vijdon va e'tiqodlar erkinligi yordam beradi. Tolerantlikni tarbiyaviy xususiyatlari bu yetuk shaxs shakllantirishning muhim shartlaridan biridir. Yoshlarning tolerantlik tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari, xususiyatlari, funktsionalligi,

samaradorligi va o'ziga xosligi, zamonaviy va ilmiy asoslarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayangan bilim va ko'nikmalar majmuini shakllantirishdan iboratdir. Jaxonda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, yoshlarda birdamlik, hamjihatlik, dustona munosabatlari yuksaltira borish, mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish albatta katta ahamiyatga molikdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talaba-yoshlarning tolerantlik tarbiyasini rivojlantirishda, talaba-yoshlarni, ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi va yuqori bosqichga ko'tarish muhimligi ta'kidlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Марк Нотурно. Толерантность, свобода и истина: фалибализм и откытие «закрытых обществ».Ижтимоий фикр.1998й.,№2.,89-бет
2. Российская социологическая энциклопедия. М.,»Наука»,1998й.,278-бет
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. Т. 8. –Б.486.
4. Социологик энциклопедик луғат. – М., 1998, Б. - 370. / Таржима З.Р.Қодирова, А.Ж.Шарипов, В.А.Алимасов, Э.Г.Каримова, Ш.Мадиева – Ёшлар фаоллиги ва толерантлигини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. Тошкент, 2006.- Б13.
5. Wisneueski W/ Wizje szkoly przyszlosci. – Worszawa, 1985.– P.38.
6. Қодирова З.Р., Шарипов А.Ж., Алимасов В.А., Каримова Э.Г., Мадаева Ш. Ёшлар фаоллиги ва толерантлигини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. – Б.22.
7. Каримова Э. Ўзбек толерантлигининг ўзига хос хусусиятлари.Т., Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси.2006й.,9 бет
8. Скворцов Л.В. Абсолютная истина и толерантность. Человек: образ и сущность. М.,Акад. Наук, 1998й.,11-бет



UDK: 37.013.41

Zoxida USMONOVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: uz_kimyo@rambler.ru

TDPU dotsenti, ped.f.d. I.E.Shernazarov taqrizi asosida

ORGANIZATIONAL ISSUES OF INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Аннотация

This article presents the fundamental reforms being implemented in higher education in our country, the processes of independent learning of students and some of its problems, the existing basis for organizing independent education of students in current regulatory documents.

Key words: Independent education, innovation, innovative educational environment, credit-module system, modern education.

ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ВОПРОСЫ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация

В данной статье представлены фундаментальные реформы, реализуемые в высшем образовании нашей страны, процессы самостоятельного обучения студентов и некоторые его проблемы, существующие основы организации независимого образования студентов в действующих нормативных документах.

Ключевые слова: Самостоятельное образование, инновации, инновационная образовательная среда, кредитно-модульная система, современное образование.

INNOVATION TA'LIM MUHITIDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINING TASHKILY MASALALARI

Аннотация

Mazkur maqolada mamlakatimiz oliy ta'limida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, talabalarning mustaqil ta'lim olish jarayonlari va undagi ayrim muammolar, amaldagi meyoriy hujjatlarda talabalarning mustaqil ta'limlarini tashkil etishning mavjud asoslari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lim, innovatsiya, innovatsion ta'lim muhiti, kredit-modul tizimi, zamonaviy ta'lim.

Kirish. Mamlakatimizda na'lim tizimini tubdan islox qilish, ta'limni rivojlantirish, o'qitishning innovatsion metodlarini amaliyotga joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limdagi innovatsiyalar ba nazariy asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan hamda yakunda amaliy natijadorlikni ta'minlashi lozim hisoblanadi. Har qanday innovatsiya ta'lim oluvchilardan yuqori darajadagi emotsionallik hamda intellektuallikni talab etadi.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda milliy ta'lim tizimining huquqiy asoslarini shakllantirish uchun keng sharoit yaratildi. O'z navbatida, islohotlar ta'lim tuzilmasi va mazmun-mohiyatini takomillashtirish imkonini berdi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Z.T.Rahimovning fikricha, hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarining kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalari(OTM)dagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadqiq qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish innovatsion ta'lim muhitidagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi [5].

D.B. Xolsingerning fikricha, har qanday o'zgarish va rivojlanishlarni tadqiq etish uchun turli xil nazariy-metodologik yondashuvlar mavjud. Bu borada hozirgi davrda innovatsion ta'lim jarayoni muhim ahamiyatga ega. Innovatsion ta'lim muhitidagi o'zgarishlar, yangilanishlar inson va jamiyat hayotining barcha jabhalarida ro'y beradi.

O'zgarishlar natijasida yangicha qarashlar va yondashuvlar shakllanadi [6].

T.X.Tashmetovning "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o'rni" nomli maqolasida jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo'layotgan o'zgarishlar mamlakatimizning intellektual imkoniyatlarini belgilab beruvchi va uni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblangan ta'lim tizimiga ham bog'liqligi to'g'risida fikr bildirilgan [7].

Innovatsion ta'lim muhitiga xizmat qiluvchi meyoriy-huquqiy asoslar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 31 dekabrda 824-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar" O'zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 2021 yil 19 oktabrdagi 35-2021-son buyrug'i hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xuquqiy meyoriy asos bo'lib xizmat qiladi [2, 3, 4].


Tadqiqot metodologiyasi. Innovatsion ta'lim muhitining maqsadi - ta'lim, fan va ishlab chiqarish hamkorligidan kelib chiqib, "kadrlar bozori"ga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash; ijtimoiy ehtiyoj, ta'lim oluvchilarning talablari, mintaq va hududning manfaatlarini inobatga olish;

ta'lim-tarbiya shakli va metodlari, psixologik-pedagogik shart-sharoitlar, omillar, vositalarining o'zaro nisbatini, uyg'unligini va hamkorligini ta'minlash; o'qituvchining kasbiy kompetentligi, kreativligi, mahorati, ilm-fanning ilg'or yutuqlaridan xabardorligi va xorijiy til savodxonligini oshirish; ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning DTS, Malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini davr talabi asosida takomillashtirishning muntazamligi, moddiy-texnika negizni

mustahkamlash, innovatsiyalarni keng joriy etish va xorij tajribalari asosida yanada boyitish hisoblanadi.

Innovatsion ta'lim muhitining asosiy masalalari sifatida quyidagilarga ahamiyat berilishi lozim bo'ladi:

Ta'lim natijasi va uning sifati qay darajada bo'ladi? Qanday tartibda va qaysi tizimda o'qitish kerak? Nimani o'qitish kerak? Qanday o'qitish kerak? Qanday moddiy texnika baza asosida o'qitiladi? kabilar.




1-sxema. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim muhitining mohiyati.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va zamonaviylashtirish, ma'naviy yetuk va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda ta'limda deduktiv yondashuvga asoslanishning o'rni beqiyos. Chunki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti barcha turlari sifati va takomillashuvi bevosita oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatning samarali tashkil etilishi mustaqil ta'lim olish ko'nikmalariga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash bilan bog'liq. Raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda yangiliklarning o'ta muhimligi, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat samaradorligi va natijaviyligi bevosita innovatsion faoliyat bilan chambarchas bog'liqligi, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta'minlash asosiy dastaklardan biri ekanligi kabi

ko'rsatkichlar ta'limda mustaqil ta'lim olishga yondashuv qay darajada muhimligidan dalolat beradi [8].

Ayrim o'qituvchilarda kasbiy faoliyatiga yangiliklarni olib kirishlarida quyidagicha ichki qarshiliklarni kiritish mumkin:

o'qituvchilarning muvaffaqiyatga intilishlari emas, balki mag'lubiyatlardan qo'rqishlari; o'rni kelganda, rejadan chetga chiqish va mustaqil qaror chiqara olmaslik; "boshqalar tajribasini qo'llash osonroq", "har qanday yangi tashabbus jazolanadi" deganga o'xshash fikrlarning bo'lishi; o'zini o'zi rivojlantirishga motivatsiyaning yo'qligi; stereotiplikka bog'lanib qolish; o'qituvchilik vazifalarini (o'zining o'qituvchilik missiyasini) tushunmaslik, natijada, mehnatdagi faollkning to'liq bo'lmasligi.



1-rasm. Stereotip ta'lim.

O'qituvchi mehnatining mahsulдорligini va uning optimal ijodiy salohiyatini nafaqat obyektiv yoki subyektiv tavsiflari, balki pedagogning kasbiy mehnatining ana shu

tarkibiy qismlari ham (akmeologik invariantlar) belgilab beradi.

Fikrimizcha, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarda kelajakka mas'uliyat hissini va o'z-o'ziga ishonchni shakllantirish bo'lib, buning uchun quyidagi vazifalarning amalga oshirilishi lozim:

talabning yuqori darajadagi intellektual, shaxsiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash; ilmiylik prinsipiga asoslangan fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lish uchun sharoitlarni yaratish; ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy sohalarida yangiliklar kiritishga o'rgatish.

OTMdagi an'anaviy ta'lim jarayoni talabaga fanlar bo'yicha bilim beradi va talabalar "kuchli himoyalangan nazariya qo'rg'oni"da "qamal" qilinadi. Bunda aksariyat hollarda reproduktiv o'qitish asosiy o'rinda qolmoqda va talabalar o'rganishni "ta'lim stereotipi"dan qabul qilmoqda. Shuningdek, bilimlarni aniq kasbiy faoliyatga bog'lanishi faqatgina kurs ishlarini bajarish, ishlab chiqarish va bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyotini o'tash vaqtidagina yuzaga keladi. Bunday sharoitda talabaga aniq kasbiy bilimlar berish va uning sifatini ta'minlash ancha qiyin.

O'rganishda mustaqil ta'lim olish bo'yicha yondashuv talabada birinchidan, o'qishga faol motivatsiya qilinadi, o'zining hayotda oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun shaxsiy o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlarini ishga soladi; ikkinchidan, o'quv jarayoni kasbiy faoliyatning butun hayotiy siklini uning yangiliklari va qarama-qarshiliklari bilan aks etiladi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida aytilganlardan quyidagicha xulosalarni chiqarish mumkin:

talaba-talaba, talaba-pedagog o'rtasidagi munosabatni jadal rivojlantirish; talaba-kitob-o'qituvchi-talaba turkumini rivojlantirish; o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish; o'qitishga ijodiy yondashish va faol o'qish, talabada o'zini bo'lg'usi mutaxassis sifatida shakllanishiga bo'lgan tashabbusni oshirish; o'qitishning bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion hamda mustaqil fikrlashni shakllantirishga imkon beradigan vositalar, usullar, texnologiyalar va moddiy-texnik negizini boyitish.

Quyidagilar bo'lajak mutaxassislar kompetentligi o'sishining tashkiliy-pedagogik shartlari hisoblanadi:

o'qituvchi tomonidan o'qitish texnologiyasining psixologik-pedagogik asoslarini anglash; o'quv jarayoni tizimini tashkil etuvchi tarkibiy qismlarni anglay olish; o'z faoliyatidagi samarasiz ish usullarini anglash, tahlil qilish va yo'qotish; amaliy faoliyatda innovatsion texnologiyalar shakllarini, metodlarini va vositalarini qo'llash; o'qitish sifatini tahlil qilish, auditoriyada eski, qoloq ish usullarini aniqlash va ularni yo'qotish; kasbiy faoliyatdagi stereotiplikni anglash va yo'qotish.

Zamonaviy soha mutaxassisi har qanday sharoitda ham o'z burchini, o'zining kasbiy missiyasini bajara olishi kerak. Bu esa bo'lajak mutaxassisning o'zini o'zi takomillashtirishida, ta'limiy imkoniyatlarning yaratib berilishida o'z aksini topadi. Bugungi kunda ta'limning yuqori sifatini faqatgina yuqori pedagogik kasbiy mahoratga ega shaxslargina ta'minlay oladilar. Zamonaviy o'qituvchilardan o'zini o'zi rivojlantira oladigan, ta'limning ochiq ijtimoiy buyurtmalari doimiy o'zgarib turadigan sharoitda o'zgarishlarga tez moslasha oladigan, o'zining kasbiy ishini yaxshi tushunadigan, ustuvor pedagogik faoliyat olib bora oladigan, doimiy qayta tayyorlanish va yangilanishga tayyor va shunga qodir bo'lish talab etilmoqda [8].

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish, bo'lajak mutaxassislarning kompetentligini yuqori darajada shakllantirish, mustaqil ta'lim olishni rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarning yangi vaziyatlarda optimal qaror chiqarishga o'rgatish uchun ta'lim tizimida mutlaq innovatsion ta'lim muhiti yaratilmoqda va bunda kredit modul tizimining kirib kelishi va amaliyotga joriy etilishi nazarda

tutilgan natijalarning amaliy ahamiyatini kafolatlashi kutilmoqda.

Ta'lim jarayonini tashkil etishning kredit-modul tizimi modulli ta'lim texnologiyalari va ta'lim bo'linmalarining kreditlari yoki kreditlari kombinatsiyasiga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etish modelidir. Ta'lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirish ko'p qirrali va murakkab harakat va o'zaro ta'sir tizimidir.

Kredit-modul tizimida e'tibor uning ikkita xususiyatiga qaratiladi:

– talabalarning mustaqil ta'limi;

– o'quv jarayonini tashkil etishda talabalarning o'quv yutuqlarini baholashning tanqidiy tizimi yaratish;

Shuni ta'kidlash kerakki, Boloniya jarayoni sharoitida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) o'quv materialining asosiy qismi mustaqil o'rganish;

2) mustaqil ta'lim uchun maxsus didaktik materiallar yaratish;

3) o'quv ishining individual rejimi va individual fanlarni o'rganish;

4) o'qituvchining funktsiyalarini o'zgartirish (tashkilot, rahbarlik, maslahat, nazorat);

5) talabning o'rganishga nisbatan pozitsiyasini o'zgartirish (o'quv materialini ustida ishlash rejimida tashabbus, o'z ishini mustaqil rejalashtirish, rejalashtirilgan individual rejani amalga oshirish uchun javobgarlik va boshqalar).

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil ta'limlarini tashkil etish muammosiga katta e'tibor qaralishiga qaramay, ko'rib chiqilishi va hal etilishi lozim bo'lgan muhim masalalar hamon saqlanib qolmoqda. Jumladan, oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish maqsadi va uni amalga oshirish yo'llari o'rtasidagi ochilmagan aloqalar va munosabatlar; ta'limning kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishni yaxlit nazariy tushunish va asoslash; o'z mustaqil ta'lim faoliyati samaradorligini oshirish sharoitida talabalarni rag'batlantirish masalalari; talabalar tomonidan tarbiyaviy ishning oqilona usullarini o'zlashtirish; mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish

Talabalarning aloqali ta'limi – bu talabning o'ziga xos o'quv faoliyati bo'lib, u didaktik topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarish, o'qishga qiziqirish va muayyan fan sohasida bilimlarni oshirishga yo'naltirilgan. Mustaqil ta'lim mazmuni mantiqiy fikrlashni, ijodiy faollikni, o'quv materialini o'zlashtirishda tadqiqotchilik yondashuvini shakllantirishga imkon beruvchi amaliy topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi. Uning mazmuni fanning xususiyatidan, oliy ta'lim muassasasining moddiy-texnik imkoniyatlaridan va kutubxonaning o'quv-uslubiy ta'minlanganidan kelib chiqib aniqlanadi. Odatda talabning mustaqil ta'limi bilan birgalikda auditoriyadan tashqarida bajariladigan o'qituvchi rahbarligidagi talabning mustaqil ta'limini ham o'z ichiga oladi[9].

Mustaqil ta'limni quyidagi shakllarda joriy etilishi mumkin:

- talabning bevosita o'zi tomonidan (AKT orqali) amalga oshiriladigan mustaqil ta'lim turlari;

- an'anaviy shakldagi o'qituvchi rahbarligidagi talabning mustaqil ta'limi;

- elektron shakldagi (AKT orqali) o'qituvchi rahbarligidagi talabning mustaqil ta'lim olishi.

Talabning bevosita o'zi tomonidan AKT orqali amalga oshiriladigan mustaqil ta'limiga quyidagilarni kiritish mumkin[10]:

- darsga tayyorlanish – ma'ruza matnlari, video materiallar, amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari bayonlari bilan tanishish va o'rganish;

- axborot izlash – o'z qiziqishlaridan kelib chiqib taqdim qilingan ta'lim tizimiga tegishli hujjatlar, maqolalar, yangiliklar yuzasidan qisqacha ma'lumotlar to'plami orqali internet materiallarini o'rganish;

- FAQ (ko'p so'raladigan savollar) – o'zini qiziqirgan muammolarga o'rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash;

- Forum – fan mavzulari bo'yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta'lim platformalarida fikr almashish;

- Test yechish – o'rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliga oid materiallarni mustahkamlash;

- Nazorat ishiga tayyorlanish – fan bo'yicha kutilayotgan oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko'rish.

Barcha mustaqil ta'lim olish jarayoni innovatsion texnologiyalarga asoslangan bo'lishi kerak. O'qituvchi rahbarligidagi mustaqil ta'limning auditoriyadagi shakli berilgan topshiriq doirasida talabalarning darslik va birlamchi manbalar, guruhli topshiriqlarni bajarish, yakka tartibdagi tahliliy faoliyatlarini ko'zda tutadi. O'qituvchi rahbarligidagi mustaqil ta'lim olish har bir fan bo'yicha butun akademik o'qish davrida sana, vaqti, auditoriyasi ko'rsatilgan holda grafik bo'yicha o'tkaziladi. O'qituvchi rahbarligidagi mustaqil ta'limi doirasidagi mashg'ulotlar maslahat va interfaol shakllarda bo'lishi mumkin, ularning nisbati o'rganilayotgan fanning murakkabligi, ularni o'rganishga ajratilgan auditoriya soatlari hajmi, talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan aniqlanadi.

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ish turlarining hajmi 50-60% gacha oshadi, 2020-yilgacha bo'lgan davrdagi aksariyat ta'lim muassasalaridagi ta'lim tizimida bu ko'rsatkich deyarli 40% ni tashkil etar edi. Shu sababli, mustaqil ta'limga yetarlicha e'tiborni qaratmasdan, uning uslubiy turlarini shakllantirmasdan kredit-modul tizimini to'laqonli tatbiq qilib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining "Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlarini belgilash qoidalarini

tasdiqlash to'g'risida" 2018 yil 10-sentabrdagi 20-2018-sonli buyrug'ining ilovasi "Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlarini belgilash qoidalariga ko'ra o'qituvchi rahbarligidagi talabning mustaqil ta'lim olishi turlari meyorlab qo'yilgan:

Kurs ishlari va kurs loyihalariga rahbarlik qilish, ular bo'yicha maslahatlar berish. Bunda bir professor-o'qituvchi bir semestr davomida, odatda, 50 nafargacha talabaga kurs ishi rahbari sifatida faoliyat olib borishi belgilangan.

namunaviy o'quv dasturlarida ko'zda tutilgan nazorat, hisoblash va hisob-grafik ishlarini tekshirish, maslahatlar berish, taqriz yozish va qabul qilish. Bunda bir professor-o'qituvchiga kafedra qaroriga asosan ko'pi bilan 3 tagacha akademik guruh talabalari birkiritilishi mumkin. Mazkur ishlarning bajarilishi talabalarni baholash jurnallarida aks ettiriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari amaliyotiga rahbarlik qilish, ularning hisobotlarini tekshirish va baholash. Bunda professor-o'qituvchining soatlari hajmi o'quv ishlari yuklamasining 20% idan oshmasligi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining bitiruv malakaviy ishiga (diplom loyihasi, diplom ishi) rahbarlik qilish, xulosalar yozish. Bunda bir o'quv yilida bitta professor-o'qituvchiga 7 nafargacha talaba birkiritilishi, professor-o'qituvchining bitiruv malakaviy ishiga (diplom loyihasi, diplom ishi) rahbarlik qilganligi, xulosalar yozganligi oliy ta'lim muassasasi buyrug'i, yozilgan xulosa va ishning himoyaga taqdim etilganligi asosida aniqlanishi nazarda tutilgan.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirib o'tilgan o'qituvchi rahbarligidagi mustaqil ta'lim turlaridan masala yechish, referat yozish, kollokvium, esse, taqdimot, keys-stadi, ish o'yinlari, glossariy, guruh loyihasi va boshqalar uchun vaqt meyorlari ko'zda tutilmagan. Buning uchun ular bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi va maslahatlarni auditoriya mashg'ulotlarida (ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya) amalga oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: "Ўзбекистон", 2017. -22 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида"ги ПФ-5847-сон фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон; 30.04.2020 й., 06/20/5987/0521-сон
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 31 dekabrda 824-sonli qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar" O'zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 2021 yil 19 oktabrdagi 35-2021-son buyrug'i
5. Рахимов З.Т. Педагогик компетентлик таълим жараёни ривожланишининг муҳим омили сифатида. // Замоновий таълим. -Тошкент: -2019. №7(80). 3-8 -б.
6. Holsinger D. B. Modernization and education // Economics of Education. – Research and Studies, -1987. 107-110 – с.
7. Ташметов Т.Х. Ёшлар маънавиятини юксалтиришда инновацион технологиялардан фойдаланишнинг ўрни. // "Ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш стратегияси: мавжуд вазият ва ривожлантириш истиқболлари" мавзусидаги илмий-амалий конференцияси мақолалар тўплами. Тафаккур бўстони, нашриёти. Тошкент: -2019. 116-120 -б.
8. Хайитмиров Ш. Олий таълим тизимида инновацияларни жорий этиш хусусиятлари. // «Biznes-Эксперт». -2018. - №9(129). <http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/61216--olij-talim-tizimida-innovatsiyalarni-joriy-etish-xususiyatlari>
9. Isakovna, M. N., Shavkatovich, B. R., & Yusupovich, M. F. (2022). Methods of independent learning in the credit-module system. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(1), 126-130.
10. Berdikulov R. S., Shernazarov, I. E., Ismailov, S. A., Iskandarov, A. Y., & Usmanova, Z. S. (2023). The Use of Problematic Teaching to form Deductive Analysis Skills in the Independent Education of Students. Telematique, 22(01), 2861-2867.



UDK:378.81

Mohiraxon USMONXODJAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
E-mail: moxira1929@gmail.com

P.f.d., professor U.Xodjamqulov taqrizi asosida

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA NEMIS TILINI O‘QITISHDA LOYIHALASH METODI

Annotatsiya

Ushbu maqola pedagogika sohasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga nemis tilini o‘qitishda loyihalash metodi orqali ularning motivatsiyasini oshirish va samaradorligiga erishish borasida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Loyihalash metodi, o‘quvchilarning kognitiv qobiliyati, o‘quvchilarning tadqiqot qilish qobiliyatlari, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlash.

МЕТОД ДИЗАЙНА В ОБУЧЕНИИ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

Данная статья посвящена области педагогики, в которой рассматривается повышение мотивации и эффективности учащихся начальных классов с помощью метода проектирования в обучении немецкому языку.

Ключевые слова: Метод проектирования, познавательные способности студентов, исследовательские способности студентов, работа с современными информационными технологиями.

METHOD OF DESIGN IN TEACHING GERMAN LANGUAGE TO PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation

This article is devoted to the field of pedagogy, which considers increasing the motivation and effectiveness of primary school students using the design method in teaching the German language.

Key words: Design method, cognitive abilities of students, research abilities of students, work with modern information technologies.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda loyihalash metodi turli aspektlarda o‘rganilgan bo‘lib, u grekcha “tadqiqot yo‘li” degan ma‘noni anglatadi. Loyihalash metodida o‘quvchilar bosqichma-bosqich murakkablashib boradigan amaliy topshiriq/vazifalarni rejalashtirish va bajarish jarayonida bilimlarni o‘zlashtiradigan ta‘lim tizimidir[1].

Pedagogika tarixidan ma‘lumki, loyihalash metodi dastavval o‘tgan asrning yigirmanchi yillarida Amerika Qo‘shma Shtatlarida paydo bo‘lganligi uning jahon pedagogikasida butunlay yangi metod emasligini ko‘rsatadi. Amerikalik faylasuf-pedagog J.Dyui va B.Kilpatrik tomonidan ishlab chiqilgan mazkur metod falsafa va ta‘limdagi gumanistik g‘oyalari bilan bog‘langan bo‘lib, uni muammoli metod deb ham atashgan. Buning sababi shundaki, maktab o‘quvchilari o‘z qiziqishlari doirasida o‘qituvchisi rahbarligida biron-bir amaliy muammo ustida ishlaydilar va hal etadilar. Shu tarzda amaliy va tadqiqot bilan bog‘liq faoliyatni olib borgan o‘quvchilar yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar[2]. Shu bilan birga, o‘quvchining maqsadiga muvofiq, uning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda interaktiv faoliyatga asoslanib o‘qitishni va shu tarzda yangi bilimlarni egallashni amerikalik olim J.Dyui taklif etadi. Bunda shaxsiy qiziqishlari asosida o‘rganiladigan bilimlar aynan o‘quvchi hayotida qo‘l keladigan muhim bilimlar ekanligini ko‘rsatish joiz sanaladi[3]. Demak, o‘quvchi uchun muhim sanalgan va unga tanish bo‘lgan hayotiy vaziyatdan iborat muammo/masalani tanlab olish hamda ushbu muammoni hal etish uchun o‘quvchi yangi bilimlarni o‘zlashtirishi zarur ekanligi ko‘rinib turishi lozim. Bu jarayonda o‘qituvchining roli o‘zgacha bo‘ladi: u o‘quvchilarni yangi ma‘lumotlar olish manbalarini taklif qiladi yoki o‘zlari mustaqil qidirishlari uchun kerakli ko‘rsatmalar berib, ularning fikrlarini to‘g‘ri yo‘naltiradi. Ammo shuni unutmaslik lozimki, bunda o‘quvchilar mustaqil ravishda va hamkorlikda kerakli bilimlarini qo‘llagan holda muammoga

yechim topishlari hamda hayotiy va aniq natijaga erishishlari zarur.

Y.S.Polatning fikriga ko‘ra, loyihalash metodining mohiyati o‘quvchilar u yoki bu bilimlarni o‘zlashtirishini talab qiladigan muayyan muammolarga qiziqishlarini rag‘batlantirish va bir yoki bir nechta muammolarni hal qilishni o‘z ichiga olgan loyiha faoliyati orqali olingan bilimlarning amaliy qo‘llanishini ko‘rsatishdan iboratdir[4].

Sohaviy adabiyotlar tahlilidan ayon bo‘ladiki, dunyoning rivojlangan davlatlari, jumladan, AQSH, Angliya, Belgiya, Germaniya, Finlandiya, Italiya, Gollandiya va boshqa mamlakatlarda J.Dyuning ta‘limga gumanistik yondashuvi va shu bilan birga uning loyihalash metodi keng tarqalib, maktab o‘quvchilari birgalikda muayyan muammoni hal etishi uchun nazariy bilimlarni oqilona qo‘llash imkoniyati mavjudligi bilan shuhrat qozondi.

Tubdan o‘zgarib va zamonaviylashib borayotgan mahalliy ta‘lim tizimimiz, xususan, milliy pedagogikamizda loyihalash metodi kundan kunga maktab ta‘limida eng keng qo‘llanayotgan texnologiyalardan biriga aylanib bormoqda. Bu jarayonda guruh bo‘lib bajariladigan loyihalar juda samarali sanaladi. Chunki bunda bir guruh(cha) o‘quvchilar hamkorlikda umumiy bir natija uchun birgalashib harakat qilishadi. Chunonchi, guruhda ishlash jarayonida o‘quvchilar ijtimoiy me‘yorlarni o‘zlashtiribgina qolmay, balki ularda shaxsiy nuqtai nazar ham shakllanadi. Zero, “ta‘limiy loyihalar bilan shug‘ullanish – maktab o‘quvchisining ijtimoiy standartlashtirilgan faoliyatga kirishining usullaridan biri bo‘lib, unda o‘quvchi o‘z erkinligi, mustaqilligi va mas‘uliyati chegaralarini aniqlashni o‘rganadi”[5].

Loyihalash metodi yordamida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z qobiliyatlarini mustaqil boshqarish, axborot va ma‘lumotlar bilan to‘g‘ri ishlash va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoni tug‘iladi.

Mazkur metod o'quvchilardan mustaqil faoliyatga asoslangan yakka tartibda, juft bo'lib yoki guruhlarda muayyan vaqt davomida ishlashni talab etadi. U ta'limdagi hamkorlikda ishlash (cooperative learning) yondashuvi bilan uyg'unlikda birlashtirilgan. Loyihalash metodi, bir tomondan, ta'limdagi turli usullar va vositalardan foydalanishni, boshqa tomondan esa fan, texnika, texnologiya va ijodiy sohalaridagi bilim va ko'nikmalarni birlashtirishni o'z ichiga olgan muammoni hal qilishdan iborat bo'ladi[6]. Maktab o'quvchilarining mustaqil o'quv faoliyati natijasida ma'lum muammoni hal qilishga imkon beradigan va ushbu natijalarni namoyish etishga imkon beradigan ma'lum bir ta'limiy va kognitiv texnikalar majmuasini aynan loyihalash metodi o'z ichiga oladi. Mazkur metod pedagogik texnologiya sifatida qaraladigan bo'lsa, unda ushbu texnologiya "o'z mohiyatiga ko'ra tadqiqot, izlanish, muammoli usullar majmuasini o'z ichiga oladi"[7].

O'rganishlarimizdan ayon bo'ladi, loyihalash metodini samarali qo'llash muayyan talablarni nazarda tutiladi:

ijodiy yonshaduv va tadqiq etish imkoniyati borligi, qo'yilgan muammo/topshiriqni hal qilish uchun yaxlit bilim va izlanishlarning talab etilishi;

erishiladigan natijalarning ham nazariy-amaliy, ham kognitiv nuqtai nazardan ahamiyatligi;

o'quvchilarning mustaqil, yakka, juft bo'lib va guruhlarda ishlashi uchun imkoniyat yaratilganligi;

loyihaning mazmuniy-mantiqiy ketma-ketligi;

tadqiqot olib borish usullaridan foydalanish: dastavval muammoni, uni hal qilish uchun talab etiladigan tadqiqot vazifalarini niqlash, vazifalarni bajarish uchun dastlabki mulohazani belgilab olish, qo'llanadigan metodlarni muhokama qilish, yakuniy natijalarni qayd etish, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, kerakli o'rinlarni tuzatish va yajuniy xulosalar chiqarish.

Rus olimi A.S.Sidenkoning yozishicha, boshlang'ich sinflarda loyihalash metodini qo'llashning pedagogik ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

bunda boshlang'ich sinf o'quvchisining yosh xususiyatlari, individual o'ziga xosliklari, qiziqish va talablariga tayaniladi;

u maktab o'quvchisining uni o'rab turgan tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatlarida o'z hayotiy tajribasini shakllantirish imkoniyatini yaratadi;

kichik yoshli o'quvchilarning mustaqilligini rag'batlantiradi[8]. Bulardan tashqari, loyiha metodi yordamida o'quvchilarning izlanish, tadqiqot olib borish ko'nikmasini rivojlantirish mumkinki, loyihani tayyorlashda ular nafaqat maktab darsliklarini o'rganishadi, ulardagi ma'lumotlardan foydalanishadi, balki mustaqil tarzda kerakli ma'lumotlarni boshqa adabiyotlardan, onlayn manbalardan qidirishadi: hatto maktab, yaqin masofada joylashgan boshqa kutubxonalarga tashrif buyurishib, berilgan muammo bo'yicha bosma jurnallar, turli tuman ensiklopedik manbalar bilan tanishadilar. Bu jarayonda ular bilib-bilmay, anglab-anglamay katta ma'lumotlardan o'zlariga kerakli ma'lumotni topish ko'nikmasini shakllantiradilar. Shuningdek, kompyuterda ishlash, internetdan ma'lumot topish bu – ularda yangi axborot texnologiyalari bilan ishlay olish ko'nikmasini o'zlashtirishadi.

Pedagogik-psixologik manbalarga asoslanib shuni ham qayd etish lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga murakkab loyihalarni vazifa qilib berish ularning motivatsiyasiga salbiy ta'sir qiladi. Chunki murakkab muammoni hal qilish ulardan bir vaqtning o'zida bir nechta fanlarni qamrab olish va boshqa ko'plab material, manbalarga murojaat qilishni talab qiladi. Bu esa ularda motivatsiyaning yo'qolishiga va natijada muvaffaqiyatsiz loyihaga sabab bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga nemis tilini o'qitishda loyihalash metodidan odatiy tematik mavzularni o'zlashtirishda foydalanish samarali sanaladi. Masalan, "Uy hayvonlari", "Mening semivli uy hayvonim", "Yovvoyi hayvonlar" va shu kabi mavzular kichik yoshli o'quvchilar qiziqishlariga mos bo'ladi, sababi ularning ko'pchiligi oz uylarida semivli hayvoniga g'amxo'rlik qilishadi. Bundan tashqari, "Hayvonot olami" bu – fanlararo mavzu sanalib, qator fanlar doirasida o'rganiladi. Maktab o'quvchilari o'z uy hayvonlari haqida mamnuniyat va ishtiyok bilan suhbatlashishadi. Dastavval "Mening sevimli uy hayvonim", "Yovvoyi hayvonlar" kabi mavzular o'zlashtirilgach, ya'ni ushbu mavzularga oid yangi so'zlarni, so'z birikmalari va kerakli grammatik qoidalar o'rganilgach, loyiha uchun "Uy va yovvoyi hayvonlar: o'xshash va farqli jihatlar" degan mavzuni tavsiya etish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur mavzuda loyihani quyidagicha tashkil etish, o'tkazish samarali sanalishi tadqiqotimiz davomida ayon bo'ldi:

Dastavval sinf o'quvchilari ikki guruhga teng miqdorda bo'linadi. Guruhlarning biri uy hayvonlari, ikkinchisi es yovvoyi hayvonlarni tadqiq etishadi.

Izlanish olib borishda har ikkala guruhga "Wer ist das? Wie sieht das Tier aus? Wo lebt das Tier? Welche Farbe ist das Tier?-Bu hayvonning nomi nima? U qanday ko'rinishga ega? U qayerda yashaydi? Uning ranggi qanaqa?" kabi savollar orqali topshiriq berish tavsiya etiladi. Har bir guruh o'z tadqiqotini kichik ma'lumotlar shaklida taqdim etishadi. Bunda o'quvchilarning so'z boyligi, o'z g'oyalarni yetkazib berishda qo'llaydigan gaplarning sintaktik qurilmasi, otlarning turlanishi, fe'llarning tuslanishi kabi an'anaviy bilimlarni mustaqil tarzda mustahkamlaydilar. Shular bilan birga, bu jarayonda o'quvchilarda ijodiy fikrlash, mustaqil va hamkorlikda ishlash, o'z nuqtai nazarini shakllantirish, baho uchun emas, balki natija uchun ishlash shakli zamonaviy ko'nikmalar shakllanadi. Har ikki guruh tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni mustahkamlash maqsadida topishmoq-savollardan foydalanish darsning qiziqarli davom etishini ta'minlaydi. Masalan, quyidagicha shakllantirilgan krossvordlar bunga misol bo'la oladi:

Dieses Tier ist grau und hat die langen Ohren (der Hase).

Dieses Tier ist rot und schlau, hat den wolligen Schwanz (der Fuchs).

Wer ist der König der Tierwelt (der Löwe).

Es ist das Haustier. Es mag den Fisch (die Katze).

Loyihaning uchinchi bosqichida o'quvchilar o'z guruhlarida ishlashni davom ettirib, darsliklarda keltirilmagan uy yoki yovvoyi hayvonlar haqida taqdimot/prezentatsiya yoki devoriy gazeta tayyorlab, flipchart doskada yoki proyektor yordamida namoyish etish orqali jonli muloqotga kirishishadi. Bunda o'qituvchi faqat kuzatuvchi sifatida jarayonni boshqarib turishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, topshiriqni bajarishda o'quvchilarda qiyinchilik kuzatilsa, o'qituvchi namunali tematik hikoyalarni tinglashni, videolarni ko'rishni yoki tematik o'xshash prezentatsiyalarni qo'shimcha material sifatida o'quvchilar e'tiboriga havola etishi maqsadga muvofiq sanaladi. Masalan, quyidagi matnda ekzotik hayvon turi – panda haqidagi ma'lumot yoshi kichik o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi tayin:

"Der Große Panda oder Pandabär genannt, gehört zur Familie der Bären und zu den Raubtieren. Ausgewachsene Tiere werden 120 bis 150 Zentimeter lang und wiegen zwischen 75 und 160 Kilogramm. Der Körper des Pandas ist weiß, Ohren, Hinterbeine, Vorderbeine sind schwarz. Heute lebt der Große Panda nur noch in einem sehr kleinen, knapp 6000 Quadratkilometer großen Gebiet im Westen Chinas. Das Klima dort ist im Sommer kühl und im Winter kalt. Der Große Panda ist das Raubtier, aber er frisst Bambus, Eier, Insekten"

(Mazku matnni yozuv taxtasiga yozish, proyektor yoki samrt doskada namoyish etish tavsiya etiladi. Matnni 4-sinf o'quvchilari darajasiga mos keladi. Joiz bo'lsa, matnni o'quvchilar bilim darajasiga mos tarzda adaptatsiya qilish talab etiladi).

Ushbu matn guruhlar doirasida muhokama qilib, shunga o'xshash mazmun yoki shaklda devoriy gazeta yoki prezentatsiya tayyorlash tavsiya etiladi: bunda guruh ichida har bir a'zo uchun muayyan vazifalar belgilanadi; har bir a'zo o'z vazifasini bajarish uchun kerakli, qo'shimcha ma'lumotlarni qidiradi; guruh doirasida natija muhokama qilinadi; so'zga chiquvchilar aniqlanadi.

Guvohi bo'lamizki, ushbu topshiriqni bajarish davomida o'quvchilarning so'z boyligi oshadi, grammatik bilimlari mustahkamlanishi bilan birga o'quvchilar elektron lug'atlardan foydalanishdi hamda devoriy gazeta va prezentatsiyalarni tayyorlashda tasviriy san'at fanidan olgan bilimlarini amaliy qo'lladilar.

Loyihani bajarish davomidagi do'stona muhit nafaqat uning muvaffaqiyatli yakunlanishi, balki o'quvchilarga

qulaylik tuyg'usini his etish va muloqotga kirishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy fikr-mulohazalarga tayanib shunday xulosa qilish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tillarni o'qitishda loyiha metodidan foydalanish ularning hamkorlikda ishlash, kreativ fikrlash, izlanish, (kichik bo'lsa-da) tadqiqot olib borish ko'nikmasini shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ular qo'shimcha manbalardan ma'lumotlar qidirish va kompyuter bilan ishlash, xususan, internetdan foydalanishni o'rganadi. Bulardan tashqari, loyihalsh metodi kichik yoshli maktab o'quvchilariga muallif, ijodkor sifatida harakat qilish imkonini yarartadi, chet tilni o'rganishga motivatsiyasini oshiradi, bilimlarini yanada kengaytirishga xizmat qilib, ularning dunyoqarashini kengaytiradi. Shu tarzda o'quvchilar ta'limiy loyihalar bu – o'quvchilarning o'zlari tomonidan maqsad va vazifalar shaklida shakllanadigan qiziqarli muammoni hal qilishga qaratilgan faoliyat ekanligini hamda bu faoliyatning natijasi – muammoni hal qilishning topilgan yo'li ekanligini tushuna boshlaydi. Bu esa keyingi harakatlari uchun rag'bat bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Скандарова Н.Б. Метод проектов на уроке технологии (трудового обучения в начальной школе) // Начальная школа плюс до и после. – 2005. – №4. – С. 48.
2. Савенков А.И. Маленький исследователь. Как научить дошкольника приобретать знания. – Ярославль: «Академия развития», 2002. – С.53.
3. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: «Академия», 2005. – С. 65.
4. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: «Академия», 2005. – С. 66.
5. Сиденко А.С. Виды проектов и этапы проектирования // Муниципальное образование: инновации и эксперимент. – 2008. -№2. – С. 5.
6. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: «Академия», 2005. – С. 67.
7. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: «Академия», 2005. – С.67.
8. Сиденко А.С. Педагогическая мастерская: от теории к практике проектно-ориентированного обучения // Инновационные проекты и программы в образовании. – 2008. – №1. –С. 10.



UDK: 37.013

Yoqubjon FAXRIDDINOV,
Guliston davlat pedagogika instituti O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i
E-mail: magguldu2013@mail.ru

P.f.b.f.d. (PhD), dotsent Yo.Nurumbekova taqrizi asosida

IMPROVING THE DIAGNOSTICS OF PROFESSIONAL READINESS OF FUTURE TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation

In this article, the general qualification requirements for the main types of professional activities of graduates of the pedagogical profile include editorial, research, spiritual and educational, organizational and managerial activities. Learning was analyzed.

Key words: Diagnostics, tool, task, pedagogical activity, professional activity.

ТЕКСТ НАУЧНОЙ РАБОТЫ НА ТЕМУ «СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДИАГНОСТИКИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ГОТОВНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация

В данной статье общие квалификационные требования к основным видам профессиональной деятельности выпускников педагогического профиля включают редакционную, научно-исследовательскую, духовно-просветительскую, организационно-управленческую деятельность. Обучение было проанализировано.

Ключевые слова: Диагностика, инструмент, задача, педагогическая деятельность, профессиональная деятельность.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI DIAGNOSTIKA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagogika ta'lim soxasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari kasbiy faoliyatining asosiy turlariga qo'yiladigan umumiy malaka talablar pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-marifiy, tashkiliy-boshqaruv faoliyat yo'nalishlarini qamrab olib bo'lg'usi o'qituvchilar tayyorgarlik darajasini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirilishi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Diagnostika, vosita, vazifa, pedagogic faoliyat, kasbiy faoliyat.

Kirish. Ta'lim va tarbiya jarayonining uzviyligi va uzluksizligi printsiplarga muvofiq, qadim ajdodlarimizdan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan, an'anaga aylangan marosim, udum va hulq atvor tarzi qadriyat darajasida ezozlanib kelinmoqda. Shunga asosan milliy tarbiya tizimining o'ziga xos ijtimoiy, pedagogik, psixologik omillari mavjud bo'lib, biz uni har bir millatga xos bo'lgan milliy xarakter xususiyatlarida ko'rishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qadim zamonlardan o'zbek xalqining pedagogik fikr tarixi va taraqqiyotida vatanparvarlik, insonparvarlik va mehnatsevarlik fazilatlarini barcha davr tarbiyasining asosini tashkil etib kelgan. Baxouddin Naqshbandiyning mashhur "Dil ba yoru, dast ba kor" shiorida ham asosiy g'oya-qalbing Olohda, qo'ling mehnatda bo'lsin deyilgan, yani insonning kasb-hunar bilan band bo'lishi, uni qadriga etishi yuksak sharafli xarakter xususiyatlarida ko'rishimiz mumkin. [Oshibka! Isteqonik sсылki ne найден.,3].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-yanvardagi 3-sonli Qarori asosida, "Oliy ta'lim yo'nalishlari mutaxassislarini Klassifikatori"dagi 110000-Pedagogika ta'lim soxasi bo'yicha Davlat ta'lim standartining 1-bo'lim: 110000-Pedagogika ta'lim soxasining umumiy tasnifi bo'limining 1.4-band: 110000-Pedagogika ta'lim soxasi bitiruvchilarining kasbiy faoliyatlari tasnifida, II-bo'lim: 110000-Pedagogika ta'lim soxasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablarining 2.1. Pedagogika ta'lim soxasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy malaka talablari; 2.2. 110000-Pedagogika ta'lim soxasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari kasbiy faoliyatining asosiy turlariga qo'yiladigan umumiy malaka talablari bo'limida bakalavriat ta'lim

yo'nalishlari bitiruvchilari kasbiy faoliyatining asosiy turlari sifatida pedagogik; ilmiy-tadqiqot; ma'naviy-marifiy; tashkiliy-boshqaruv faoliyati va shu kabilarni o'z ichiga oladi, deb belgilab qo'yilgan[1].

110000-Pedagogika ta'lim soxasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari kasbiy faoliyatining asosiy turlariga qo'yiladigan umumiy malaka talablar pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-marifiy, tashkiliy-boshqaruv faoliyat yo'nalishlarini qamrab oladi [Oshibka! Isteqonik sсылki ne найден.].

Tadqiqot metodologiyasi. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini diagnostika qilish yuqorida ko'rsatilganidek, aynan davlat ta'lim standarti va malaka talablarida belgilangan pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-marifiy, tashkiliy-boshqaruv faoliyat yo'nalishlarini o'zida qamrab oladi.

Bu esa, oliy ta'lim muassasalarining pedagogik ta'lim soxasi bitiruvchilarining kasbiy faoliyatga: pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-marifiy, tashkiliy-boshqaruv faoliyat yo'nalishlariga tayyorgarlik darajasini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tizimli tayyorlashning ilmiy-pedagogik asoslarini takomillashtirish fenomeni murakkab va keng qamrovli tushuncha bo'lib, unga bo'lgan yondashuvda pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-marifiy, tashkiliy-boshqaruv faoliyat yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi.

Tahlil va natijalar. Xususan: Pedagogik faoliyatida: ta'lim mazmunini o'ziga xos xususiyatlarini belgilash tamoyillari va mezonlarga rioya etish, o'quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga tegishli zamonaviy yondashuvlarni xisobga olish, o'quv materiallarini modellashtirish;

ta'lim va tarbiya jarayonlarining tarkibiy qismlari xisoblangan maqsad, natija, mazmun, shakl, metod, vositalarning bir-biri bilan o'zaro aloqadorligi va umumiyligini xisobga olish;

ya'xlit pedagogik jarayonga tegishli umumiy qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida gnosiologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik qonuniyatlarining o'zaro uyg'unligiga erishish;

ta'lim menejmenti bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish;

ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish, ta'lim oluvchilarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish va o'tkazish;

ta'lim va tarbiyaning turli xil metodlarini, ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetimizga mosligini taminlash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida: ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga doir mavzularda tadqiqotlarni olib borishda ishtirok etish;

ta'lim yo'nalishidagi fanlarga doir ilmiy to'plamlar, maxalliy va chet el ilmiy tadqiqot yutuqlarini izlab topish va o'qib o'rganish;

xalqaro internet tizimi tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalganlarini qidirish va topish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soxaga tegishli adabiyotlar ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

ma'lumotlar bazasini tuzish, qayta tayyorlash, mavzuga doir ilmiy ma'lumotlarni tizimli taxlil qilishda ishtirok etish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq qilishda ishtirok etish qobiliyatlariga ega bo'lish.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida: ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni rejalashtira olish, uni tashkil etish metodikasini chuqur egallash, o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish; o'quvchilar ongiga milliy istiqloq g'oyasini singdirish; globallashtirish va mobillashtirish sharoitida kechayotgan jarayonlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida zaruriy tushuntirish ishlarini olib borish; maxallalarda yoshlar bilan ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbatlarni tashkil etish va o'tkazish; milliy urf-odat, marosimlarni o'tkazishda umuminsoniy qadriyatlar, bag'rikenglik, mehr-muruvvat, vatanparvarlik kabi yuksak insoniy fazilatlarini ochib berish qobiliyatlariga ega bo'lishi.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida: zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalangan holda, ishlab chiqarish jarayonlarining monitoringi va sifatini baxolash mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamoada ijtimoiy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va jarayonlarni boshqarish;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va kasbiy faoliyatini mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

bajarayotgan ish faoliyati bo'yicha reja tuzish, monitoring va nazorat qilish, amalga oshirilgan ishning natijalarini baxolash qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim deb belgilab qo'yilgan.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, pedagogik jarayon ta'lim va tarbiya birligi tamoyili asosida muvaffaqiyatli

amalga oshadi. Ushbu jarayonda ta'lim insonni ulug'lab, uning aqliy kamolotiga xizmat qilsa, tarbiya esa uning hulq-atvori hamda xarakter xususiyatlarini yuqori darajada rivojlantiradi.

Ta'lim va tarbiya birligi integrativ xarakterga ega bo'lib, aql bilan qalbning kamoloti tashxislash, diagnostikada o'z ifodasini topadi. Oliy ta'lim tizimida talabalarni pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy, tashkiliy-boshqaruv faoliyatiga innovatsion texnologiyalar asosida tayyorlash bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning asosini tashkil etadi. O'qituvchilarni kasbiy faoliyatida, uning kasbiy tayyorgarligini diagnostikasi pedagogik faoliyatning muxim komponenti xisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimida talabalarining fanlarni o'zlashtirish va shaxsiy-kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogik diagnostika imkoniyatlaridan unumli foydalanish mumkin. Pedagogik diagnostika natijalariga asoslanib, talabalarining ta'lim-tarbiyasidagi muammolarini aniqlashda, ularning shaxsiy sifat va fazilatlarini, ijtimoiy va kasbiy zarur sifatlarining shakllanganlik darajalarini muayyan miqdorlarda o'lchash hamda baxolashda, ta'lim-tarbiya tadbirlarining maqsad va yo'nalishlarini belgilashda aniq va maqsadli foydalanish mumkin.

Pedagoglar o'z faoliyatlarini jarayonida har bir talabaning individual xususiyatlarini inobatga olib, kasbiy tayyorgarlikni ta'lim va tarbiyani asosiy tamoyillari va barcha talabalarini xisobga olgan holda, amalga oshirishlari kerak bo'ladi. Bu esa, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni maxsus o'quv-uslubiy dasturlar asosida, mantiqiy izchil ketma-ketlikda tashkil etilishini talab etadi. Noto'g'ri qo'yilgan tashxis nafaqat mutaxassisning barcha harakatlarining bekor ketishiga balki mavjud muammoni bartaraf qilish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi va boshqa, yanada og'irroq muammoni, yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Pedagogik diagnostika asosida aniqlangan salbiy omillarni bartaraf etish, o'qituvchining pedagogik korrektsiya faoliyati jarayonida ham muxim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogikada ta'limning samarasi, ko'p jihatdan, ta'sir ob'ekti xisoblangan talaba shaxsiga qaratilgan, maqsadga yunaltilgan ta'lim va tarbiyaviy ta'sirga bog'liq bo'lib, bu ta'sirning samaradorligi va ta'lim-tarbiya jarayonining jadal sur'atlar bilan borishi esa, pedagogning talabani qay darajada bilishi hamda ular o'rtasidagi o'zaro munosabat bilan belgilanadi. Bunda pedagog tomonidan amalga oshiriladigan yoki qilinishi rejalashtirilgan ta'sirni talaba qabul qilishga qay darajada tayyor ekanligi muxim ahamiyatga ega bo'ladi.

Pedagogik diagnostika: avvalo, individual ta'lim jarayonini qulaylashtiradi ikkinchidan, jamiyat talabidan kelib chiqqan holda, ta'lim-tarbiya natijalarini to'g'ri aniqlashni taminlaydi hamda kafolatlaydi; uchinchidan esa, o'ziga xos ta'lim yo'nalishi va mutaxassislikni oqilona tanlashga katta yordam beradi. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagogni mutaxassislikni qanday egallaganliklarini aniqlashga yordam beradi. Pedagogik diagnostika yordamida amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlarida kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallaganlik jarayoni taxlil qilinadi va ta'lim-tarbiya natijalari yani, kasbiy tayyorgarlik aniqlanadi. Bunda ta'lim-tarbiya natijalarini, kasbiy tayyorgarlik nafaqat sarxisob qilish, balki ularning o'zgarish dinamikasini ham nazarda tutishi lozim.

Pedagogik tadqiqotlarimiz jarayonida pedagogik diagnostikaning mazmuni – ta'lim-tarbiya jarayonida kasbiy tayyorgarlikning samaradorligini, talabaning ta'lim olganlik va tarbiyalanganlik darajalarini hamda ijtimoiy va kasbiy zarur sifatlarining shakllanganligini o'rganishni o'z ichiga olishi aniqlandi. Uning mazmunini qaysi kasbni egallayotganiga qarab kasbning maqsadi va vazifalari asosida kimni tayyorlash: unda qanday sifat va fazilatlar bo'lishi, uni qanday kasbiy vaziyatlarga tayyorlash; bunday vaziyatlarda kim nima

qilishi va qanday vazifalarni bajarishi; pedagog qanday shakl, metod va vositalar orqali yoshlarga ta'sir qilishi kerakligi aniqlanadi.

Oliy ta'lim muassasasida pedagogik diagnostikaning asosiy maqsadi – talabalarni kelajak hayotga kasbga tayyorlash, ularni mustaqil bo'lishga o'rgatish, ijtimoiy muhitda, faoliyatda o'zlarini to'g'ri tuta bilishlari va yaqin istiqboldagi faoliyatlarini maqsadga muvofiq ravishda rejalashtirishlariga yordam berish, barkamol bo'lishga intilish ehtiyojini shakllantirish, zarur bo'lganda esa, ta'lim-tarbiya hamda talabalarining ijtimoiy va kasbiy zarur sifatlarining

rivojlanishi jarayoniga salbiy ta'sir etayotgan yoki ta'sir etishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlashdir.

Xulosa va takliflar. O'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik diagnostika har bir rejali o'quv jarayonining ajralmas qismi xisoblanib, tahsil oluvchi o'quv materialini qanday o'zlashtirayotganini doimo kuzatib boradi, tarbiyaviy jarayondagi muammolarning yechimini topishga harakat qiladi. Mohir pedagog o'quv jarayonida tug'iladigan qiyinchiliklarni boshqalardan ko'ra yaxshiroq tushunadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-yanvardagi 3-sonli Qarori asosida, "Oliy ta'lim yo'nalishlari mutaxassislari Klassifikatori"dagi 110000- Pedagogika ta'lim sohasi bo'yicha Davlat ta'lim standarti 4-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi "Oliy ta'lim davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli qaroriga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar haqida"gi 3-son Qarori, 5-9b.
3. Ashurov M. O. Milliy tarbiya asoslari.-Samarqand: SamDU nashri, 2004.-100 b.
4. Абдуҳакимова М.К. Органи-педагогические основы развития системы дошкольного образования в республике Узбекистан (1991- 2000гг.). ТДПУ-2004; 174с. Дисс. на соис. учен. степ. кан. пед. наук.
5. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik didaktik asoslari. Ped.fan.dok.diss. Toshkent.: TDPU,2006. 263 bet.
6. Valixo'jayeva F.B. Talabalarni MTMda bolalarga estetik tarbiya berishga tayyorlash. //Dissertatsiya. Samarqand – 2005 y., -139 b.



UDK: 373.61.9:371

Latofat XALIKOVA,
Toshkent davlat transport universiteti o‘qituvchisi
E-mail: khalikova.latofat74@gmail.com

TDTrU professori, fals.f.d. Ramatov J.S. taqrizi asosida

EDUCATION SYSTEM THE USE OF INNOVATIVE-INTERACTIVE TEACHING TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS

Annotation

This article highlights the content of improving the mechanics of students use of innovative and interactive teaching technologies in the development of creativeness abilities in educational institutions, the scientific ideas of scientists on communicative competence, as well as the importance of forming communicative competence in students in professional educational institutions. The quality education of students in turn depends on the professional skills of the teacher. The article talks about the professional competence, the skill of the educator, which has a special place in the educational process and should be occupied by a modern teacher.

Key words: Education, creativity ability, Innovation-Interactive, competence, communicative competence, interoperability, communication, professionalism, autocompetence, extreme professional competence.

В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННО-ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье освещаются сущность совершенствования механизмов использования инновационно-интерактивных технологий обучения в развитии творческих способностей учащихся в образовательных учреждениях, научные идеи ученых о характере коммуникативной компетентности, а также Значение формирования коммуникативной компетентности у обучающихся в профессиональных образовательных учреждениях. Получение учащимися качественного образования в свою очередь зависит от профессионального мастерства учителя. В статье говорилось о профессиональной компетентности, мастерстве педагога, которое образование занимает особое место в процессе воспитания и которое должен приобрести современный учитель.

Ключевые слова: Образование, креативность способности, инновационно-интерактивный, компетентность, коммуникативная компетентность, взаимодействие, общение, профессионализм, автокомпонентность, экстремальная профессиональная компетентность.

TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARNING KREATIVLIK QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATION-INTERFAOL O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirishda innovatsion-interfaol o'qitish texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish mazmun-mohiyati, olimlarning kommunikativ kompetentsiya xususidagi ilmiy g'oyalari, shuningdek professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishning ahamiyati yoritib o'tilgan. Talabalarning sifatli ta'lim olishi o'z navbatida o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq. Maqolada ta'lim tarbiya jarayonida alohida o'rin tutgan hamda hozirgi zamon o'qituvchisi egallashi kerak bo'lgan kasbiy kompetentlik, pedagogning mahorati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, kreativlik qobiliyat, innovatsion-interfaol, kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, o'zaro hamkorlik, muloqot, kasbiy mahorat, avtokompetentlik, ekstremal kasbiy kompetentlik.

Kirish. Bugungi kunda jahonda hamda mamlakatimizda ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida judayam keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, ta'lim va uning jamiyatda kechayotgan islohotlardagi o'zni va ishtirokini ta'minlamay turib, taraqqiyotga yuz tutish mushkul. Shu ma'noda, yurtimizda xalqaro talablarga javob beradigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotir. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida professional ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida bir qator amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi PF 4947 "Harakatlar strategiyasi"ning

ustuvor yo'nalishlarida belgilab berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel PQ – 2909 – sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qarorida Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqib, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta qurish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida rivojlantirish chora – tadbirlari belgilash va amalga oshirish bugungi kundagi asosiy vazifalarimizdan biridir.

Yuqoridagi belgilangan vazifalardan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish, ta'lim samaradorligiga erishishda bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

Respublikamiz ta'lim sohasidagi islohatlar ta'lim-tarbiyaning samarali omillaridan keng ko'lamda foydalanish, bu jarayon qatnashchilari orasida ongli hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish, bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishni taqozo qiladi.

Ta'lim jarayonida pedagogik hamkorlikning mohiyati – o'qituvchi hamda talabning birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog o'qituvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati pedagogik jarayonning tavsifi, uning ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi.

Interfaol darslarda o'qituvchining asosiy diqqati talabalarning faoliyatini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

talabning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;

talabalarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiylikni ta'minlanishi;

talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;

pedagog va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi.

O'qituvchining ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyati, dars tizimi doirasida, ta'limni tashkilashtirish shakllarining quyidagilarida o'z ifodasini topadi:

frontal ish barcha ta'lim oluvchilar bilan bir vaqtda ishlash;

guruhlarda ishlash: – statik juftliklarda ishlash; – guruhlarda ishlash; – guruhlararo ish; – individual ishlash

Ushbu tashkiliy shakllarning har biri jamoaviy va individual ta'limni birgalikdagi olib borishni turliligi, ta'lim oluvchilarning mustaqillik darajasini turliligi o'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini boshqarishni turliligi va boshqalar bilan tavsiflanadi. Amaliyotdagi oddiy qoida shu haqda guvohlik beradiki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida talabalarga yangi bilimlarni berish amalga oshiriladi, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirish orqali berilgan bilim mustahkamlanishi lozim.

Har qanday ta'limning maqsadi – bilimni hamda uni amalda qo'llay bilish ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatleri va ko'rsatmalarni ishlab chiqishdir.

Demak, ta'lim jarayonida pedagogik hamkorlik asosiy elementlardan biri hisoblanib, talabalarni faollashtirishga, mustaqil fikrlashga imkon beradigan interaktiv ta'lim metodlarini o'zlashtirish va o'quv jarayoniga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Eng avvalo, talabalar faolligini oshirishda "ta'lim beruvchi - ta'lim oluvchi" dialogidan voz kechishini va "ta'lim beruvchi -guruh - ta'lim oluvchi" ko'rinishidagi uch tomonlama o'zaro munosabatga o'tishni nazarda tutadi. O'quv guruhi, tarkibi bo'yicha harakatchan kichik guruhlar bo'linadi va ularning har biri o'zicha o'quv materialini o'zlashtiradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, shu tufayli biz bilan ta'lim oluvchilar o'rtasida ancha mustahkam aloqa o'rnatiladi, shaxsiy va bir vaqtning o'zida ta'lim jamoaviy ruhiy holat kuchayadi. Ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakati shakllanadi, bu esa o'quv- bilish jarayonini faollashtirishga, ularda empatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko'maklashadi: – vazifani hamkorlikda bajarish jarayonida ta'lim oluvchilarda, o'rtoqlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga motivatsiya paydo bo'ladi; – ta'lim oluvchilar bir-biriga

savollar beradilar, shuning uchun ular savollarni aniq shakllantirishni bilishlari zarur, javoblarni argumentlashtirishni, tushunishga erishish uchun esa, ular bir-birlarini diqqat bilan eshitishlari kerak; - guruhlarda ishlash paytida, zarurati bo'lganda ta'lim oluvchilar yordam berishlarini so'raydilar va boshqalarga yordam berishni o'rganadilar.

Kichik guruhlarda ishlash, ularni stress holatlardan xalos etadi, ya'ni noto'g'ri javob berganda butun jamoa oldida izza bo'lishdan, qo'rqishdan xoli bo'ladi. Guruh a'zolari, javobni do'stona baholab, ularda o'ziga ishonch tuyg'usini uyg'otish imkonini beradilar. 4-5 kishidan iborat guruhda, qo'rqoq kishi, 25 kishilik guruh oldida o'zini tutishga nisbatan, o'zini ancha erkin his etadi. Ta'limning ushbu shakli, ta'lim oluvchilar bilimni o'zaro hamkorlikda boyitishni ta'minlaydi: faqatgina kooperatsiya va harakatlar (bilish) usullari bilan o'zaro almashish, umumiy mahsulot olish - muammoni yechish imkonini beradi.

Ta'lim tarbiya tizimining umumiy maqsadi jamiyatimizga teng huquqli demokratik davlat talablariga javob bera oladigan mas'uliyatli barkamol jamiyat a'zolarini tabiiylab berishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni bugungi kunda pedagoglarning ta'lim berish samaradorligini oshirish va amalga oshirishi kerak bo'lgan bir qator talablar qo'ydi. Ular quyidagilarni tashkil etishi lozim:

1.Dars berish mahorati

2.Tarbiyalash mahorati

3.O'quv-tarbiyaviy jarayonlarda insonparvarlik tamoyillariga yondashuvni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlar

4.Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati

Kasbiy faoliyat jarayonida zamonaviy o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish orqali shaxs hayotiga hamda uning ijtimoiy rivojlanishiga ma'lum bir darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishning bosh go'yasi – shaxsning turli hil sohalarda maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellektual va axloqiy- ma'naviy rivojlanishidir. Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan avval ushbu tushunchaning asl mohiyatini, shundan so'ng esa uni takomillashtirish yo'llarini bilish lozim.

Ilmiy adabiyotlarda kompetentsiya so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi:

Kompetentsiya (lotincha Competentio dan Competoga erishaman, uchrashaman, mos kelaman) - bu mutaxassisning ma'lum darajadagi kasbiy muammolari hal qilishdagi shaxsiy bilish qobiliyatidir. Shuningdek, kompetentsiya deganda ma'lum bir tashkilot, kompaniya xodimlarining (yoki ayrim xodimlar guruhining) shaxsiy, kasbiy va hokazo fazilatlariga rasmiy ravishda tavsiflangan talablar tushuniladi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni oshirish uchun kerak bo'lgan bilimlarning, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni o'z faoliyati davomida munosib qo'llay olishidir. O'qituvchi albatta, alohida bilim ko'nikmalarni egallashi bilan birga, ma'lum bir mustaqil yo'nalish bo'yicha bilimlar va harakatlarni o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Demak, kasbiy kompetentlik pedagogdan mutaxassislik bilimlarini boyitib borish, yangi axborotlarni kuzatib ularni qo'llay bilish, izlanuvchanlik va yangi bilimlarni qayta ishlash o'z faoliyatiga qo'llay olish mahoratini ham talab etadi.

K. Angelovski o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasi tuzilishini pedagogik mahorat orqali aniqlaydi

Pedagogik mahorat bu yerda to'rt guruhga ajratiladi:

1.Ta'limning obyektiv jarayoni mazmunini aniq pedagogik vazifalarga "tarjima qilish" qobiliyati: shaxs va

jamoani o'rganish, shu asosda yangi bilim va dizaynni faol o'zlashtirishga tayyorligini aniqlash, jamoani rivojlantirish va alohida talabalar; ta'lim, tarbiya va rivojlantirish vazifalari kompleksini aniqlash, ularni konkretlashtirish va ustun vazifani belgilash.

2. Mantiqan tugallangan pedagogik tizimni qurish va yo'lga qo'yish qobiliyati: o'quv vazifalarini kompleks rejalashtirish; uni tashkil etish shakllari, usullari va vositalarini asosli tanlash.

3. Ta'limning tarkibiy qismlari va omillari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash va o'rnatish, ularni amalda qo'llash qobiliyati: zarur sharoitlarni yaratish (moddiy, axloqiy, psixologik, tashkiliy va boshqalar); talaba shaxsini faollashtirish, uning faoliyatini rivojlantirish;

4. Pedagogik faoliyat natijalarini qayd etish va baholash qobiliyati: o'quv jarayoni va o'qituvchi faoliyati natijalarini introspektiya qilish va tahlil qilish; dominant va bo'ysunuvchi vazifalarning yangi to'plamini belgilash.

O'zbekistonda o'qituvchining kasbiy kompetentligi va uning o'ziga xos jihatlari to'g'risida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. B. Nazarova olib brogan tadqiqotlarga ko'ra kasbiy kompetentlik quyidagi tarkibiy asoslardan tashkil topadi:

- Maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish).
- Ijtimoiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni hamkorlikda tashkil etish, ijtimoiy mas'ullik).
- Autokompetentlik (o'zini ijtimoiy-kasbiy rivojlantira olish).

Ekstremal kasbiy kompetentlik (kutilmagan vaziyatlarda ishlay olish).

Yuqoridagi tadqiqot natijalarini umumlashtirib aytganda mutaxassis ta'limni tashkil etish jarayonida yuqori darajada bilimga ega bo'lishi, o'zini ustida ishlab rivojlantira olishi va har qanday kutilmagan holatlarda ulardan chiqish yo'lini bilishi zarur ekan.

Demak o'qituvchi, shaxs va uning ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin tutuvchi, murakkab inson qiyofasiga ega bo'lgan, kasbiy sifatlarni o'zida mujassam etgan, shaxsdir. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erishilgan yutuqlarning zahirida o'qituvchi va uning mehnati yotadi. O'qituvchining ta'lim jarayoniga pedagogik, psixologik yondashuvi, bilimlarni puhta darajada o'zlashtirganligi, muloqot jarayonida o'zini tuta bilish qobiliyati va turli vaziyatlardan chiqqa olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Xulosa o'rmida shuni aytish mumkinki, har tomonlama yetuk intellektual rivojlangan, ijtimoiy sifatlarga bilan tarbiyalangan, milliy va ma'naviy qadriyatlarga sadoqatli, yangicha fikrlaydigan, o'z shaxsiy va fuqarolik pozitsiyasiga ega, milliy mafkuraning barcha sifatlarini o'zida mujassamlashtirgan barkamol shaxsni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Yuqorida keltirib o'tilgan ko'nikmalarning barchasi o'quvchilarni, ya'ni bo'lajak kichik mutaxassislarni kelajakda o'z faoliyatlarini tashkil qilishlari, mustaqil ravishda ish boshqarishlari, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishlari, jamoada o'z o'rnlariga ega bo'lishlarida po'ydevor bo'lib xizmat qilad

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni asosida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/>
2. Mirziyoyev Sh.M. 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalarini tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qarori.
3. Afanasyeva I.V. Voprosi integratsii nauki i obrazovaniy. Ta'lim texnologiyalari. – № 4. Toshkent, 2007. – S. 24-25.
4. Yensh E.R. Zur Eidetik und Integration Typologie, 1941. Filosofskiy ensklopedicheskiy slovar red.-sost. YE.F. Gubskiy i dr, 2003. – S.128.
5. Ochilov M. "O'qitish usuli-pedagogik texnologiyaning asosiy komponenti" // "Xalq ta'limi" 1999-y, 6-son 32-35 betlar
6. Imomnazarov M, Eshmuhammedova M, "Milliy manaviyatimiz asoslari: (Oliy o'quv yurtlari uchun ma'ruza matnlari)"// Tahrir hay'ati: H.S.Karomatov, N.Ibrohimov va b.; - T.: «Toshkent islom universiteti», 2001. -432 bet.



UDK: 159.9(575,1)

Fariza HAMIDOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi
E-mail: hamidovafariza@gmail.com

Profi University dotsenti, Psixologiya fanlari doktori (DSc)N.Dalimova taqrizi asosida

THE QUESTION OF THE SPECIFIC IMPORTANCE OF FAMILY UPBRINGING IN THE FORMATION OF A CHILD IN THE THEORETICAL VIEWS OF FOREIGN SCIENTISTS

Аннотация

The issue of upbringing has not always been at the center of family interests. In the era of the medieval feudal system, childhood was not considered as the main social issue as it is today. Children, like adults, were involved in everyday life with mutual assistance, at the same time embodied in themselves the necessary abilities, for which they did not need a separate doctrine.

Key words: Yutta Ekarius theory, family, upbringing process, parent-child relationships.

ВОПРОС ОБ ОСОБОЙ ЗНАЧИМОСТИ СЕМЕЙНОГО ВОСПИТАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ РЕБЕНКА В ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ ЗАРУБЕЖНЫХ УЧЕНЫХ

Аннотация

Вопрос воспитания не всегда был в центре семейных интересов. В эпоху средневековой феодальной системы детство не рассматривалось как главный социальный вопрос, как это происходит сегодня. Дети, как и взрослые, были вовлечены в повседневную жизнь с помощью взаимопомощи, в то же время воплощали в себе необходимые способности, для которых им не требовалось отдельного учения.

Ключевые слова: Теория Ютты Экариус, семья, воспитательный процесс, детско-родительские отношения.

OILAVIY TARBIYANING BOLA SHAKLLANISHIDAGI O‘ZIGA XOS AHAMIYATI MASALASI XORJIY OLIMLARNING NAZARIY QARASHLARIDA

Аннотация

Tarbiya masalasi har doim ham oilaviy qiziqishlarning markazida turmagan. O‘rta asrlar feodal tuzumi davrida bolalikka bugungi kundagi singari asosiy ijtimoiy masala sifatida qaralmagan. Bolalar ham kattalar singari kundalik hayotda ishtirok etishgan o‘zaro yordam berishgan, shu bilan birga zarur bo‘lgan qobiliyatlarni o‘zlarida mujassam etishgan, buning uchun esa ularga alohida ta‘limot shart bo‘lmagan.

Kalit so‘zlar: Yutta Ekarius nazariyasi, oila, tarbiya jarayoni, ota-ona va bola munosabatlari.

Kirish. Tarixda oila va tarbiya masalalari bitta tushuncha bo‘lmagan va “Bolalar qattiqqo‘llik bilan kelajakka tayyorlanilmagan, kelajak tushunchasi ham o‘ta mavhum sanalgan”.

Xo‘sh, oilada tarbiya qay ko‘rinishda bo‘lishi zarur bu savolga nemis olimi Yutta Ekarius nazariyasidan javoblar qidiramiz. Y. Ekariusning nazariyasiga ko‘ra, oiladagi tarbiya ijtimoiy shakl kasb etmay aksincha, pedagogik mazmun kasb etishi dardkor. Oilada tarbiya ma‘lum bir ko‘zda tutilgan aniq faktorlarga asoslanib ishlab chiqilmaydi. Shunga ko‘ra, tarbiya degani “Tarbiya bu avlodlar o‘rtasidagi interaktiv faoliyat hisoblanib u yosh avlodning katta avlodga nisbatan maxsus munosabatlarini shakllantiradi, shunga ko‘ra yosh avlod o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan strukturalarga ko‘ra katta avlodni inkor etadi yoki qo‘llab-quvvatlaydi”.

“Oilaviy tarbiya avlodlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmatni ya‘ni katta avlodlar tomonidan amalga oshirib kelingan munosabat va ushbu munosabatning yosh avlodga nouzviy biroq faol tarzda aks etishi natijasida ikkala avlodning bir biriga ta‘siri deganidir”.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Y. Ekariusning fikricha, oilaviy tarbiya bir tomondan aniq strukturaga asoslansa boshqa tomondan munosabatlar uzviyligiga asoslangan. Aniq strukturaga tarbiyadagi qoidalar, ta‘lim va tarbiya masalalariga doir aniq ko‘rsatmalar kirsam, munosabatlar uzviyligiga esa quyidagi munosabat shakllari masalan, yaqin munosabatlar va masofadagi munosabatlar, avlodlar o‘rtasidagi yakka hokimlik masalasi turadi. Tarbiyada tarbiya beruvchining shaxsiy tajribasi asosiy tarbiya mavzusi

bo‘lib u avloddan avlodga yetkazib berilgan. Biroq bu masala kattalar tomonidan ijobiy yoki salbiy qismlarga bo‘linmay oila tomonidan to‘g‘ri deb belgilanib avlodlarga huddi shu tarzda yetkaziladi. [1]

Nemis olimi Kurt Shnayder Oiladagi kundalik hayotga ijtimoiy tizim ta‘sir etib, bu bolalarni kattalarga munosabatini qay darajada bo‘lishini ta‘minlaydi degan fikrni ilgari surgan.

Mixa Brumlik,[2] tarbiyaning vazifasi o‘qish jarayonlaridagi ma‘lum bir vazifani ham o‘z ichiga olishidir. Bunga ko‘ra ma‘lum maqsadlar ko‘zda tutilishi va bu maqsadlarni amalga oshishi uchun tarbiyadagi ideallik tushunchasidagi chegarani ko‘ra bilish kerak.

Albert Fridrix Byorner [3]“Ma‘lum maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya aniq vazifalarni o‘z oldiga qo‘yadi va bu vazifalar shaxsning ruhiy holatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bunday ruhiy holatlarga bilim, imkon, qobiliyat, munosabat kabi tushunchalar ko‘zda tutilmog‘i kerak”.

Frits Xopmayer, oilada inson tarbiyasi ma‘lum bir tamoyillarga asoslanib bu tamoyillar oiladagi katta avlodning dunyoqarashi, siyosiy yoki iqtisodiy mustaqilligiga bog‘liq bo‘ladi. Demokratik jamiyatda bola tarbiyasi asosan erkin fikrlash hamda o‘ziga ma‘qul bo‘lgan maqsadga tomon intilishga asoslangan. F. Xopmayerning nazariyasi ota-onalar uchun qiyinchilik tug‘dirgan chunki bunda o‘zaro kelishmovchilik kelib chiqqan. Shuning uchun ham tarbiya eng avvalo qiziqishlar, ilmiy yondashuvlar, tarbiya beruvchining shaxsiy xususiyatlari nazarda tutilishi kerak. [6]

Karl-Xaynts Roybandning [4] ta'kidlashicha, tarbiya jamiyatdan mustaqil bo'lishi kerak. Tarbiya jamiyatdagi ijtimoiy strukturaviy va madaniy jihatlarinigina o'z ichiga qamrab olishi kerak. Misol sifatida bolaning kasb tanlash imkoniyati yoki yashash tarzini mustaqil tanlash, bunga ko'ra kasb tanlash borasidagi ehtiyojni o'ta qattiqqo'llik bilan amalga oshirish jamiyatdagi fojeaning bir qismidir.

Rozemarie Xertsning fikricha, [5] har bir oilaning o'z tarbiya usullari bo'lishi kerak va bu usul boshqalarniki bilan bir xil bo'lishi har doim ham to'g'ri ekanini bildirmaydi. Tarbiya vositasi aynan ma'lum bir voqealarga baho berish chora-tadbirlari emas aksincha o'sha voqea-hodisaga nisbatan munosabat va motivdir.

Oila tushunchasining qanday mazmun kasb etishiga doir munosabatlar ham ilmiy tadqiqotlarda katta o'rin tutadi. Oila o'zi nima va yaxshi oila qanday ko'rinishda bo'ladi degan savolga Emil Lents quyidagicha javob beradi. Oila tarixiy va ijtimoiy normalar va qadriyatlarga tayangan holda shakllangan tushuncha va biz bu tushunchani eng to'g'ri bo'lishi kerak degan mazmunida qabul qilishimiz har doim ham to'g'ri bo'lmaydi. E. Lentsning nazariyasiga ko'ra oila ko'proq iqtisodiy mazmun kasb etadi. Oilaga ilmiy tushuncha sifatida ham qaralganda edi, muammolar yechimi murakkab bo'lmadi. Oiladagi ilmiy diskurs qay tariqa bo'lishin kerak Vilgelm Treyye Preyerning fikricha [9], oiladagi psixologiya, sotsiologiya tarbiyashunoslik baravar yo'lga qo'yilishi kerak va shundaygina intizom masalasi turli ilmiy nazariy jihatdan to'g'ri yo'lga qoyiladi.

E. Lents [6] oila tushunchasini ko'plik ma'nosida ishlatishni to'g'ri deb biladi. Ya'ni bitta oiladagi emas bir necha oilalar misolida muammolarni yechish mazmunida. Tarbiyashunoslik fani oilalardagi tarbiya masalasidagi yutuqlarga moslashgan bo'lishi kerak. Bolalarning o'sishi va ularning tarbiyasi oilalarning markaziy vazifasi bo'lishi va tadqiq etilishi lozim. Bundan tashqari, oilashunoslik fani jamiyat uchun birdek muhimdir, Oila atamasi XVII-XVIII asrlarda lotin tilidan o'zlashgan. Avvaliga bub atama "uy" degan mazmunni bergan. Ma'lum bir uyga tegishli barcha shaxslarga nisbatan "oila" atamasi ishlatilgan.

Detlev Poykertning aytishicha, oila kamida bitta farzand va hech bo'lmasa ota-onalardan bittasidan iborat bo'lgan ichki birlamlik va shaxsiy bog'liqlik bo'lgan ijtimoiy shakl deb hisoblaydi.

70 – yillar oxirida tarbiyada antiavtoritar uslub hukm surgan. Bu uslubga ko'ra oilada tazyiq ustun bo'lgan.

Tarbiya ijtimoiylashtiruvchi ta'limning bir qismidir. Tarbiya –bu ijtimoiy ma'qullangan qadriyatlarni, me'yoriy shaxsiy xususiyatlarni va xulq-atvor namunalarni taqdim etishning maxsus tashkil etilgan jarayoni, ya'ni bu shaxsni umumiy va to'g'ri narsalar bilan tanishtirish jarayonidir.

Oiladagi tarbiya jarayoni avlodlar davomiyligini ta'minlovchi eng muhim vosita bo'lib, u yosh avlodning jamiyat hayotiga kirib kelishining tarixiy jarayonidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy "men"ning asosi maktab jamoasida umuman qo'yilmaydi – ular faqat o'sha yerda juda erta yoshdan rivojlanadi. Bugungi kunda oila shaxs kamolotining eng muhim omili sifatida harakat qiladi. Bu yerda bola tug'iladi, bu yerda u dunyo haqida dastlabki bilimlarni va birinchi hayotiy tajribani oladi. Oila - bu tuyg'ularning birinchi maktabi, hayotning to'fonli dengizida yashash joyi va himoyasidir. Oila tarbiyasining o'ziga xos xususiyati shundaki, oila turli yoshdagi ijtimoiy guruhdir: unda ikki, uch va ba'zan to'rt avlod vakillari mavjud. Va bu ma'lum an'analarni yaratishga imkon beradigan turli xil qiymat yo'nalishlari, hayot hodisalarini baholashning turli mezonlari, turli ideallar, nuqtai nazarlar, e'tiqodlarni anglatadi.

Oila tarbiyasi psixologiyasi ota – onaning optimal pozitsiyasiga bo'lgan talabni ilgari suradi. Ota-onalar bolani qanday bo'lsa, shunday qabul qilsa, unga iliq munosabatda

bo'lsa, unga xolisona baho bersa va shu baho asosida tarbiyani qursa, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi pozitsiyasi maqbuldir; agar ular bola hayotining o'zgaruvchan sharoitlariga mos ravishda ta'sir qilish usullari va shakllarini o'zgartirishga qodir bo'lsa; agar ta'limning sa'y-harakatlari kelajakka qaratilgan bo'lsa kelajakdagi hayot bola oldiga qo'yadigan talablar bilan bog'liq. Ota-onaning optimal pozitsiyasi bolaning farovonligiga qaratilgan. Bu ota-onalarning xatolariga tanqidiy munosabatini o'z ichiga oladi. Oiladagi barcha tarbiya bolalarga mehr-muhabbatga asoslanadi. Ota-onalarning mehri bolalarning har tomonlama rivojlanishi va baxtini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar. Pedagogik psixologlar nafaqat maktablar va boshqa ta'lim muassasalari bilan, balki turli xil tibbiy yordam ko'rsatadigan kasalxonalar va muassasalar bilan hamkorlik qilishlari mumkin, ularda psixologik tadqiqotlar o'tkazadilar, individual va guruh testlari natijalarini sharhlaydilar, turli muammolar bo'yicha individual maslahatlar beradilar.

Ta'lim psixologiyasi eksperimental ilmiy fan sifatida 19-20-asrlar bo'yida psixologlarning tadqiqotlarida paydo bo'ldi. Hermann Ebbinghaus xotira tajribalari natijalarini 1885 yilda nashr etdi.

Jeyms Kettell 1890 yilda nashr etilgan maqolasida birinchi bo'lib hozirda keng tarqalgan "aqliy (psixologik) test" atamasini ishlatgan. U Kolumbiya universiteti birinchi kurs talabalariga tasvir ketma-ketligi, rangni ko'rish, ohangni idrok etish, og'riq sezuvchanligi, rangni afzal ko'rish, vaqt va harakatni idrok etish, harakat aniqligi, tasavvur va xotira testlaridan foydalangan holda tadqiqot o'tkazdi.

Alfred Binet turli topshiriqlardan foydalanib, aqliy zaif bolalarni aniqlash imkoniyatlarini o'rgandi. U aql-zakovatni yaxshi tushunish, yaxshi fikr yuritish va yaxshi hukm qilish qobiliyati deb ta'riflagan; 1895 yilda Binet o'zining birinchi sinovlar to'plamini taklif qildi.

1898 yilda Eduard Torndik labirintda (tovuqlar bilan) va muammoli qutida (mushukchalar bilan) o'rganish bo'yicha birinchi tajribalar seriyasini o'tkazdi. Stenli Xollning ikki jildlik "Yoshlik" fundamental asari 1904 yilda nashr etilgan.

Jeyms Sulli "Ta'lim nazariyasi nuqtai nazaridan psixologiyaga kirish" (1884), Uilyam Jeyms, "Psixologiya bo'yicha o'qituvchilar bilan suhbatlar" (1890) va Eduard Klapared, "Bolalar psixologiyasi va eksperimental pedagogika" (1905) kitoblarini nashr etdi. Ta'lim psixologiyasi bo'yicha birinchi qo'llanma 1903 yilda Torndike tomonidan nashr etilgan. 1910-yillarda kamida beshta, 1920-yillarda esa o'nga yaqin darslik paydo bo'lgan. Geynrix Buxgolz 1910 yilda ta'lim psixologiyasi bo'yicha birinchi jurnalga asos solgan. Binet shkalasining oxirgi versiyasi 1911 yilda paydo bo'lgan.

Psixologiyaning quyidagi bo'limlari ta'lim psixologiyasi uchun eng katta ahamiyatga ega: bolaning o'sishi va rivojlanishi, o'rganish, ruhiy salomatlik, guruh jarayonlari va individual farqlar.

Bolaning o'sishi va rivojlanishi. O'quv jarayoni o'quvchilarning yoshi, kamolot va rivojlanish darajasiga mos ravishda olib borilishi kerakligi azaldan ma'lum. Nemis o'qituvchisi va faylasufi Iogann Gerbart (1776-1841) izdoshlari boshlagan takrorlash tamoyiliga muvofiq, har bir bolaning rivojlanishi insoniyatning tarixiy rivojlanishini takrorlaydi. Ushbu yondashuv kutilmaganda "oddiydan murakkabga o'tish" nazariyasi tomonidan qo'llab-quvvatlandi, bu uy qurishdan oldin vigvamlarni o'rganish kerakligi haqida gap ketganda juda yaxshi ishladi, lekin bolaga ona tilini o'rgatishda uning to'g'riligi endi yo'q edi. juda aniq, chunki bu dargumon bolalarga butun so'zlarni emas, balki harflar va bo'g'inlarni gapira oladigan bolalarni o'rgatish kerakmi? Bolaning rivojlanayotgan organizm emas, balki kichik kattalar ekanligi haqidagi g'oya Jan-Jak Russo o'zining "Emil" (1762)

asarida e'lon qilgan inqilobiy o'zgarishlarga olib keldi. Keyinchalik buyuk pedagoglar Iogan Pestalozsi (1746-1827) va Fridrix Frobel (1782-1852) tomonidan chuqur mushohadalar olib borildi. Fiziologik tadqiqotlar asosida turli yosh davrlarida bolaning xatti-harakatini tavsiflash, anketa va kuzatishlardan foydalanish asta-sekin aniqroq bo'lib bormoqda. Shveysariyalik psixolog Jan Piaget tomonidan o'tkazilgan bolalarning mohirona ishlab chiqilgan so'rovlari bolaning tafakkurining rivojlanish jarayonini tushunish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni aniqladi. Bularning barchasi nafaqat nazariy ahamiyatga ega edi, balki o'qituvchilar va otanalarga amaliy foyda keltirdi. Bola rivojlanishiga oid eng mashhur ishlar orasida Yel universitetidan Arnold Gesell, Kaliforniya universitetidan Xarold Jons va Meri Jons, Michigan universitetidan Uillard Olson va uning hamkorlari asarlari bor. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kattalarning turli yoshdagi bolalarning qobiliyatlari haqidagi umidlari ko'pincha ortiqcha baholanadi va ulardan kelib chiqadigan reyting tizimi ma'nosiz va, ehtimol, zararlidir. Bolalarga hali fiziologik jihatdan tayyor bo'lmagan narsalarni o'rgatishning ma'nosi yo'q - o'quvchining mustaqil tanlovi o'quv dasturini

shakllantirishda muhim (hal qiluvchi bo'lmasa ham) omil hisoblanadi; Bundan tashqari, bosqichma-bosqichlik tamoyili, ya'ni bolalarga ularning rivojlanish darajasiga mos ravishda topshiriq berish kerakligi g'oyasi juda muhimdir.

Xulosa va takliflar. Ta'lim psixologiyasi nuqtai nazaridan ta'limning vazifasi madaniy merosni avloddan-avlodga oddiy o'tkazishdan ko'ra ancha kengroqdir. Ta'lim odamlarga turli vaziyatlarga to'g'ri yoki hech bo'lmaganda adekvat munosabatda bo'lishni o'rganishga yordam beradi, bu javoblar vosita qobiliyatlari, so'zlar va jumlarlar yoki ifoda etilmagan fikrlar va g'oyalarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi uning mexanizmlari bilan tanishsa, ta'lim samaraliroq bo'lishiga ishongan holda, ta'lim psixologiyasi bilan shug'ullanuvchilar doimiy ravishda o'quv muammolari bo'yicha tadqiqot materiallarini tahlil qiladilar, shuningdek, o'z tadqiqotlarini olib boradilar. Torndik ingliz assotsiatsion faylasuflarining ishlariga asoslanib, assotsiativ siljish kontseptsiyasini ishlab chiqdi va xulq-atvorni o'rganishda qo'shnilik, takrorlash va mukofotlash tamoyillari qanday qo'llanilishini ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Ecarius, Jutta (2002a): *Familienerziehung im historischen Wandel. Eine qualitative Studie.* 155-bet
2. Brumlik, Micha (2006): *Erziehungsziel.* In: Lenzen, Dieter (Hrsg.): *Pädagogische Grundbegriffe.* Band 1: *Aggression bis Interdisziplinarität.* 8. Auflage. Reinbek bei Hamburg: Rowohlt Taschenbuch Verlag, S. 535-543. bet
3. *Kinderleben. Modernisierung von Kindheit im interkulturellen Vergleich.* Opladen: Leske und Budrich, S. 13-26. bet
4. *Kinderleben. Modernisierung von Kindheit im interkulturellen Vergleich.* Opladen: Leske und Budrich, S. 137-220. bet
5. Nave-Herz, Rosemarie (2000): *Kapitel 1. Wandel der Familie: eine familiensoziologische Perspektive.* In: Schneewind, Klaus A. (Hrsg.): *Familienpsychologie im Aufwind. Brückenschläge zwischen Forschung und Praxis.* Göttingen/Bern/Toronto/Seattle: Hogrefe Verlag für Psychologie, S. 19-31. bet
6. *Familien. Eine interdisziplinäre Einführung.* 2., korrigierte uflage. Weinheim und München: Juventa Verlag, S. 129-153. bet



Bekzod XOLIQULOV,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti dotsenti v.b. (PhD)
E-mail: finaledition2@mail.ru

QarMII professori v.b., p.f.f.d. N.Ergashev taqrizi asosida

MATEMATIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA DASTURIY METODIK MAJMUALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada matematik modellashtirish asosida dasturlash amaliyotida ham talabning algoritmik fikrlashini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda talabalar dasturlashga oid berilgan masalaning mohiyatini tushunishga hamda dasturiy modellashtirish oid ko'nikmasi va malakasi shakllanadi. Bundan tashqari, obyekt xossalari ifodalovchi o'zgaruvchi parametrlar o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlangan va qaysi omillar masalaning yechimiga yetarlicha ta'sir etishi hamda bu omillarning matematik modellashtirishda ahamiyati e'tiborga olingan holda tavsifi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Matematik modellashtirish, obyekt, hisoblash usullari, algoritm, dastur, dasturiy metodik majmua va boshqalar.

ДИДАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОГРАММНО-МЕТОДИЧЕСКИХ КОМПЛЕКСОВ НА ОСНОВЕ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается развитие алгоритмического мышления студента даже в практике программирования на основе математического моделирования. При этом у студентов формируются навыки и компетенции, связанные с программированием, а также с программным моделированием. Кроме того, определены связи между переменными параметрами, представляющими свойства объекта, и дается описание того, какие факторы адекватно влияют на решение задачи, а также с учетом важности этих факторов в математическом моделировании.

Ключевые слова: Математическое моделирование, объект, методы расчета, алгоритм, программа, программно-методический комплекс и др.

DIDACTIC ANALYSIS OF THE IMPROVEMENT OF SOFTWARE METHODOLOGICAL COMPLEXES BASED ON MATHEMATICAL MODELING

Annotation

In this article, the development of algorithmic thinking of a student is also important in the practice of programming based on mathematical modeling. In this, students will be able to understand the essence of a given issue regarding programming, as well as develop skills and qualifications related to software modeling. In addition, links between variable parameters representing object properties have been identified and described with regard to which factors sufficiently influence the solution of the problem and the importance of these factors in mathematical modeling.

Key words: Mathematical modeling, object, methods of calculation, algorithm, program, software methodological complex, etc.

Kirish. Tabiiy fanlarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi hamda shaxsiy kompyuterlar yangi avlodlarining hayotga jdal ravishda kirib klishi, har bir mutaxassis oldiga zamon talablarini o'z ichiga olgan yangi-yangi vazifalarni qo'ymokda. Keyingi paytlarda har sohada obyektlarni o'rganishda matematik modellashtirish usuli keng qo'llanib kelinmoqda. Bunga asosiy sabab, birinchidan bu usulning afzalligi bo'lsa, ikkinchidan esa tezkor shaxsiy kompyuterlardan keng foydalanish imkoni tug'ilganligidir.

Hozirgi paytgacha qo'llanib kelingan matematik modellashtirish usuli endilikda oliy ta'lim yo'nalishida asosiy fan matematik modellashtirish faniga aylanib ulgurdi. Oliy ta'limning davlat standartiga asosan har bir bakalavr va magistrdan o'z sohasida uchraydigan asosiy jarayonlarni chuqur tahlil qilib berish talab etiladi. Bu esa matematik modellashtirish fani orqaligina amalga oshiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz olimlari tomonidan: ta'limni axborotlashtirish jarayonlarini o'rganish va ta'limda kompyuter texnologiyalari muammosini hal etish mamlakatimizda A.A.Abdiqodirov, M.M.Aripov, A.D.Asqarov U.SH.Begimqulov, F.I.Zakirova, N.I.Taylaqov, R.D.Shodiyev, N.G.Ergashev kabi olimlar izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

Matematik va kompyuter modellashtirish bilan bog'liq tadqiqot ishlarida U.Bek, A.A.Boguslavskiy, V.Volterra, V.A.Oxorzina, B.C.Simakov, I.Y.Shecheglovalar, shuningdek, ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir tadqiqot ishlarida A.A.Andreyev, Ye.P.Velixon va boshqa shu kabi olimlarning xizmatlari katta.

Xorijiy mamlakatlarda modellashtirishni o'qitish metodikasi muammolariga M.L.Lapchik, N.V.Makarova, K.I.Pak, Ye.K.Xennerning tadqiqot ishlarida alohida e'tibor qaratilgan. Kompyuterli modellashtirish bilan bog'liq fanlarni o'rganishda Python, Java, C++, Delphi kabi maxsus dasturlardan foydalanish yuzasidan V.N.Govoruxin, V.P.Dyakonov, L.A.Mironovskiy, S.V.Porshnevning tadqiqot ishlarini e'tiborga loyiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Obyektning matematik modelini qurish bir necha murakkab bosqichlar asosida olib boriladi. Matematik modellashtirish fani matematika, mexanika, fizika, informatika, kimyo, biologiya, ekologiya va boshqa fanlarni o'z ichida mujassamlashtirib, u har bir soha mutaxassisidan chuqur bilimlarni egallashni taqozo etadi.

Ushbu maqolada matematik modellashtirish fanining asosiy tushuncha va maqsadlari keltirilishi bilan birga, texnik yo'nalishda foydalaniladigan ba'zi bir obyektlarning matematik modellari kurib ko'rsatilgan. Modellashtirishning

asosiy bosqichi - yechish usullari hamda ularga mos keluvchi Python dasturlash tilida kompyuter dasturlari keltirilgan.

Maqoladan matematik modellashtirish fanidan ta'lim berayotgan o'qituvchilar, shu fanni o'rganuvchi talabalar va ushbu fan bilan mustaqil shug'ullanayotgan keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

Tahlil va natijalar. Har qanday aniq qo'yilgan masalani bir necha usulda yechish mumkin. Agar qaralayotgan masaladagi haqiqiy jarayonni yetarlicha aniqlik bilan matematik munosabatlar orqali ifodalash mumkin bo'lsa, bu masalani matematik model qurish yordamida yechish mumkin bo'ladi. Masalani bu usulda yechish matematik modellashtirish jarayoni deb ataladi.

Obyekt deganda har xil xossa va xususiyatlarga ega bo'lgan hamda biror soha jarayonini ifoda etuvchi, tabiatning biror elementi tushuniladi. Suv yoki gaz oqayotgan truba,

paxta terish mashinasining shpendeli, elektr toki o'tkazuvchisi, qurilishda ishlatiladigan temir-beton plitalar obyektga misol bo'la oladi. Turli xil soha mutaxassislarining asosiy vazifasi o'z obyektlarining xossa va xususiyatlarini o'rganish hamda shu asosda ishni tashkil etishdan iborat. Obyektning o'rganish o'ta murakkab jarayon bo'lib, u bir necha xil usul yordamida amalga oshiriladi. Shu bilan birga obyektning o'rganish shu soha mutaxassisidan yetarlicha bilim va ko'nikmalarni talab etadi.

Tekshirilayotgan obyektning xossa va xususiyatlarini matematik munosabatlar orqali ifodalashga shu obyektning matematik modeli deb ataladi. Matematik model qurish va uni yechish jarayoni esa matematik modellashtirish deyiladi. Matematik modellashtirish jarayonini sxematik ravishda quyidagicha ifodalash mumkin.



1-rasm. Matematik modellashtirish jarayonini sxematik ifodasi.

Har qanday obyektning matematik modeli tuzilayotganda eng avval bu obyekt xossalari mutaxassislar tomonidan chuqur o'rganib chiqiladi. Obyekt xossalari ifodalovchi o'zgaruvchi parametrlar o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlanadi. Shundan keyin ayrim cheklanishlar qilinadi va qaysi omil(faktor)lar masalaning yechimiga yetarlicha ta'sir etish aniqlanadi va bu omillar matematik modellashtirishda e'tiborga olinadi. Buning uchun har xil faraz(gipoteza)larga asoslanadi. Obyektlarni matematik modellashtirish davomida turli xil farazlarga asoslanganligi sababli har xil matematik modellar hosil bo'ladi. Obyektning matematik modellashtirish natijasida asosan uch xil model hosil bo'ladi: statik modellar, dinamik modellar va tarqoq modellar.

Statik modellarda tekshirilayotgan obyekt xususiyatlari vaqtga bog'liq bo'lmagan holda qaraladi, ya'ni masalaning yechimi vaqtga umuman bog'liq emas yoki vaqt o'zgarishi masalaning yechimiga yetarlicha kam ta'sir etadi. Bu holda obyekt fazoviy koordinatalarga bog'liq ravishda o'rganiladi.

Dinamik modelda esa aksincha, obyekt xossalari faqat vaqtga bog'liq ravishda modellashtiriladi. Bu masalalarning yechimi fazoviy koordinatalarining o'zgarishiga bog'liq bo'lmaydi. Agar biz bu masalalarda vaqtni hisobga olmasak, tuzilgan matematik model noto'g'ri bo'ladi va tekshirishlar natijasida biz boshqa masalaning yechimiga ega bo'lib qolamiz.

Bir vaqtning o'zida ham fazoviy koordinatalar hamda vaqt o'zgarishiga bog'liq bo'lgan obyektlar tarqoq model ko'rinishida modellashtiriladi. Bu holda o'rganilayotgan obyekt xossa va xususiyatlariga vaqt o'zgarishi hamda bu obyektning fazoda joylashishi katta ta'sir qiladi.

Matematik modellashtirishning asosiy bosqichlari har qanday obyektning matematik modellashtirish bir necha bosqichga bo'lib olib boriladi. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

Obyektning o'rganish.

Obyektning matematik modelini qurish.

Masalaning yechish (usuli) algoritmini tanlash yoki ishlab chiqish.

Tanlangan yoki ishlab chiqilgan algoritmi asosida kompyuter dasturini tuzish.

Berilgan boshlang'ich qiymatlarni dasturga kiritib, kompyuterda sonli va grafik ko'rinishda natijalar olish.

Olingan natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

Birinchii bosqichda qaralayotgan obyektning xossa va xususiyatlari har taraflama chuqur tahlil qilinadi. Qaralayotgan obyektning mexanik, biologik, geometrik, ekologik va boshqa xususiyatlari hamda ular orasidagi bog'lanishlar batafsil o'rganiladi. Obyekt xossa va xususiyatlariga qaysi omillar birlamchi va qaysi omillar esa kam ta'sir etishligi aniqlanadi. Kam ta'sir etuvchi omillar modellashtirish jarayonida asosan e'tiborga olinmaydi.

Obyektning matematik modelini tuzishda shu obyektning barcha xossa va xususiyatlari matematik munosabatlar yordamida yozib chiqiladi. Boshqacha qilib aytganda obyektning o'rganish jarayonida unga ta'sir etuvchi barcha omillar matematik munosabat(tenglama, tengsizlik, mantiqiy ifoda yoki ularning sistemalari)lar orqali ifodalanadi. Bu bosqichda shuni e'tiborga olish kerakki, matematik formulalar imkoni boricha sodda va shu bilan birga obyektning birlamchi, asosiy xossalari to'la o'z ichiga olgan bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki matematik formulalar qanchalik sodda bo'lsa, obyektning matematik modeli va ularni yechish algoritmi ham shunchalik ixcham hamda ularni yechishda yo'l qo'yiladigan hatoliklar shunchalik kam bo'ladi.

Algoritm - berilgan masalani yechishda bajarilishi lozim bo'lgan amallarning qat'iy ketma-ketligidir. Algoritm bir necha analitik (jumladan yoki matn, biror algoritmik til yoki grafik) ko'rinishlarda beriladi. Algoritmning grafik ko'rinishida ifodalanishi blok-sxema deb ataladi. Algoritmning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular chiziqli, tarmoqlanuvchi hamda takrorlanuvchi algoritmldir. Ko'pgina injenerlik masalalarining yechish algoritmi bir necha minglab, hatto millionlab amallarni o'z ichiga oladi. Masalaning yechish algoritmini tanlash - bu mavjud bo'lgan yechish algoritmlari orasidan eng sodda va qulayini tanlashdir. Ba'zi hollarda masalani yechish uchun yangi hisoblash algoritmi ishlab chiqishga ham to'g'ri keladi. Yechish algoritmi tanlanayotganda yoki yangisi ishlab chiqilayotganda uning natijaviyligiga, aniqlik darajasiga, universalligiga hamda vaqt bo'yicha tejamlorligiga e'tibor berish zarur bo'ladi.

Dastur tuzish bosqichida tanlangan yoki ishlab chiqilgan algoritmi biror algoritmi til (Paskal, Fortran, Si+, Beysik, Assembler va h.z.) yordamida ifodalanadi. Dasturlash deganda masalaning yechish algoritmini biror algoritmik til orqali ifodalashga aytiladi. Odatda dastur tuzish uchun tanlangan algoritmik til keng imkoniyatlarga ega va uning operatorlari sodda hamda tushunarli bo'lishi, tuziladigan

dastur ixcham ko'rinishga ega bo'lishi talab etiladi. Ayrim hollarda masala xususiyatiga qarab ham algoritmik til tanlanadi. Bu bosqichda tuzilgan dasturdagi sintaksis va algoritmik xatolar aniqlanib ular bartaraf etiladi. Modellashtirishning bu bosqichi o'ta murakkab bosqich hisoblanib, dasturchidan juda yuqori bilim hamda ko'p mehnat va ehtiyotkorlikni talab etadi.

Xulosa va takliflar. Modellashtirishning oxirgi bosqichida qaralayotgan obyektning har xil birlamchi xossa va xususiyatlarini ifodalab beruvchi berilgan sonli qiymatlar tuzilgan dasturga kiritilib bir qator natijalar olinadi hamda ular mutaxassislar tomonidan atroflicha tahlil qilinib, turli xil xulosalar qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Gayratovich, E. N., & Jovliyevich, K. B. (2023). Theory and Methodology of Software Modeling Using the Web Platform. Eurasian Scientific Herald, 16, 59-63.
2. Xoliqulov B.J., Panjiyev S .A. Transport masalasi va uni vizual dasturlash tilida potentsiallar usulida yechish // Innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnal. –Qarshi, 2020. –№ 1/37. –B.43–49.
3. Xoliqulov B.J. Dasturiy ta'minotni ishlab chiqishda modellashtirishdan foydalanish metodikasining o'rni // QarDU xabarlari. – Qarshi, 2022. – № 2/1(52). – B. 138-141.
4. Xoliqulov B.J. Obyektga yo'naltirilgan dasturlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish // Ijtimoiy fanlar jurnali. – Qarshi, 2022. – №3. – B. 95-98.
5. Xoliqulov B.J., Panjiyev S.A., Z.E.Chorshanbiyev., Z.A.Abdusamatov. "Axborot texnologiyalari va jarayonlarni matematik modellashtirish" o'quv qo'llanmasi // Qarshi. "Intellekt" nashriyot 2021. – 300 b.
6. Xoliqulov B.J., Panjiyev C.A., Eshmurodov A.G'. Zamonaviy dasturlash tillarini o'qitishda qiyosiy tahlillardan foydalanish // Mug'allim hem uzliksiz bilimlendirio'. Nukus, 2019 –№ 3. –B. 86–80.
7. Kholikulov B.J. General analysis and problems of mathematical modeling theory // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. London. Vol.8 12, 2020 ISSN 2056-5852. P.124–129 (13.00.00; №3).
8. Kholikulov B.J. Teaching creating software in solving integral models // Academic Research in Educational Sciences ISSN 2181-1385. Vol. 2 Issue 12, 2021/12. Cite Factor: SJIF 2021 = 5.723. P 423-426.
9. Kholikulov B.J. Teaching line models and solutions with their programming systems //Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. ISSN 2181-1784, Vol. 1 Issue 11 December, 2021. Impact Factor: SJIF 2021=5.423, P. 851–857.



UDK: 796:371.3

Бобомурод ХУЖОМОВ,

Профессор Ташкентского государственного педагогического университета В.Б.

E-mail: Bobomurod1404@gmail.com

К.т.н., доцент Под рецензией О. Утенова

КУРАШ ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ФАКТОРОВ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

В статье сделан анализ целей и задач применения вида спорта кураш в физическом воспитании школьников. Установлены характерные черты в формировании движений в ходе физкультурных занятий, где происходит одновременно с физическим развитием школьников. Эти процессы пребывают в непростом взаимодействии, стимулируют и дополняют друг друга. Последовательное накопление двигательного опыта содействует расширению потенциала целью хорошего воздействия на функции и формы организма детей. Кроме того, целью исследования явилось экспериментальная проверка эффективности применения элементов кураша в системе физкультурно-оздоровительной работы с детьми 7 лет в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: Дети, физическое развитие, физические упражнения, кураш, здоровье, формирование, движений.

KURASH MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY RIVOJLANISHINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI

Annotatsiya

Maqolada kurash sportidan bolalarni jismoniy tarbiyalashda foydalanishning maqsad va vazifalari tahlil qilingan. Jismoniy tarbiya darslarida bolalarning jismoniy rivojlanishi bilan bir vaqtda amalga oshiriladigan harakatlarni shakllantirishning xarakterli xususiyatlari aniqlangan. Bu jarayonlar murakkab o'zaro ta'sirda bo'lib, bir-birini rag'batlantiradi va to'ldiradi. Harakat tajribasining izchil to'planishi bolalar tanasining funktsiyalari va shakllariga yaxshi ta'sir ko'rsatish uchun potentsialni kengaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, tadqiqot maqsadi umumta'lim maktablarida 7 yoshli bolalar bilan jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlari tizimida kurash elementlaridan foydalanish samaradorligini tadqiqotal tekshirishdan iborat bo'ldi.

Kalit so'zlar: Bolalar, jismoniy rivojlanish, jismoniy mashqlar, kurash, salomatlik, shakllanish, harakatlar.

KURASH IS ONE OF THE IMPORTANT FACTORS OF PHYSICAL DEVELOPMENT OF SCHOOLCHILDREN

Annotation

The article analyzes the goals and objectives of using the sport of kurash in the physical education of children. The characteristic features in the formation of movements during physical education classes, where they take place simultaneously with the physical development of children, have been established. These processes are in complex interaction, stimulate and complement each other. Consistent accumulation of motor experience contributes to the expansion of potential in order to have a good impact on the functions and forms of the children's body. In addition, the purpose of the study was to experimentally test the effectiveness of using kurash elements in the system of physical education and health work with children 7 years old in secondary schools.

Key words: Children, physical development, physical exercises, kurash, health, formation, movements.

Забота о здоровье детей, формирование здорового образа жизни, безусловно, является одной из приоритетных педагогических задач. Сегодня здоровье человека рассматривается как самостоятельная социально-медицинская категория, фундамент которой можно формировать, управлять, укреплять и поддерживать. Существует значительная разница в показателях здоровья мальчиков и девочек. В процессе физического воспитания в образовательном учреждении мы определили своевременное развитие жизненно важных двигательных навыков детей, формирование действий и простых знаний, связанных с ними. Установлено, что в первые семь лет жизни дети проходят долгий и очень важный путь развития движений, которые дети впервые осваивают в дошкольном возрасте. При этом формирование движений происходит одновременно с физическим развитием. Эти процессы находятся в сложном взаимодействии, стимулируя и дополняя друг друга. Последовательное накопление двигательного опыта способствует расширению возможностей хорошего воздействия на функции и формы детского организма. С другой стороны, отклонения от нормы физического

развития и задержка задерживают формирование жизненных навыков. Правильно созданные и своевременное использование средств физического воспитания в соответствии с образовательной программой, сна, питания и т. д. способствуют и активизируют формирование двигательных навыков у школьников. При этом количество и качество осваиваемых различных движений и действий существенно зависят от круга контактов с реальной действительностью, а значит и психического формирования детей [1,3,5].

Вариативность физических упражнений, в том числе использование элементов кураша в физическом воспитании, укрепляет и развивает опорно-двигательный аппарат ребенка, а также является мерой профилактики нарушений осанки и деформации скелета. Тренировочный процесс, включающий в себя элементы кураша, носит не только оздоровительный, но и познавательный характер. У школьников развиваются волевые качества, развивается внимание и наблюдательность, формируется характер. Здесь стоит отметить, что при внедрении этих упражнений в педагогический процесс необходимо

учитывать низкий уровень резистентности организма, незрелость, высокую гибкость скелета, слабую мускулатуру, а также необходимо будьте осторожны с такими эффектами. Детские способности и поэтому вызывают различные избыточные стрессы, нарушают и тормозят естественный процесс развития [1,2,6].

Узбекский кураш признан одним из важных средств в формировании личности учеников. В процессе тренировок и занятии курашом, ученики не только подрастают физически крепкими и здоровыми, но и формируют свои личностные, волевые качества.

Узбекский кураш имеет большое значение в жизни узбекского народа как один из видов спорта. Этот вид спорта имеет свою интересную историю, как и все другие единоборства. В X-XI веках у узбекского народа кураш занимал основное место в деле сохранения физической подготовленности и укреплении здоровья. Абу Али ибн Сина в своей книге «Китаб ал-конун фит-тиб» («Канон медицины») писал о положительном влиянии физических упражнений и воспитания на здоровье человека. Для того чтобы стать сильными воинами, войска Амира Темура проводили тренировки по копьеметанию, фехтованию и единоборству. Фирдавсий в своем произведении «Шахнама» обращает особое внимание на борьбу, поскольку для победы от бойца требуются ловкость, терпение и воля. В старинных рукописях упоминается о том, что Амир Темур когда объявил поход против государства Хорезм, он предложил Хусейну решить судьбу войны с помощью «кураша». Еще великий мыслитель узбекского народа Алишер Навои писал в своих произведениях «Хамса», «Садди Искандарий» об узбекской борьбе. В «Бабурнаме» отмечается, что Бабур развивал борьбу среди своих войск и уделял большое внимание на физической занятии. По данным Бабура, в XV-XVI веках борьба получила весьма широкое распространение на территории нынешнего Узбекистана. Узбекский народ использовал борьбу в качестве средства физической закалки человека. Историки и учёные нашей страны доказывают, что кураш как вид спорта занимает важное место в жизни узбекского народа. [4]


Исследование проводилось с детьми 7 лет на базе общеобразовательной школы № 18 г. Ташкента. Первоначально мы выделили экспериментальную группу (ЭГ) и контрольную группу (КГ) без медицинских ограничений по занятиям физической культурой. В эксперименте приняли участие 48 детей. В обеих группах учебно-физкультурный процесс осуществлялся на основе «Комплексной программы воспитания и обучения в общеобразовательных школьных учреждениях». В контрольной и экспериментальных группах занятия по физическому воспитанию проводились с одинаковой периодичностью (два раза в неделю) и продолжительностью 30 минут, исходя из санитарно-гигиенических требований к детям школьного возраста. В


течение четырех месяцев проводился педагогический эксперимент, целью которого было изучение влияния уроков физкультуры с элементами кураш на физическое развитие детей 7 лет.

Учитывая результаты, полученные в процессе получения результатов тестирования на начальном этапе педагогического исследования, мы установили следующее: школьники в обеих группах исследования имели одинаковый уровень исходных знаний. Так, средний результат в тесте «Прыжок в длину с места» составил в опытной группе 98,6 см, в контрольной группе - 99,1 см, а в контрольном тесте «Бросок медицинбола, см» в ЭГ - 178,6 см, у КГ и 181,2 см соответственно. Несмотря на превосходство школьников контрольной группы по всем двигательным тестам, оно было статистически недостоверным ($p>0,05$).

Здесь важно учитывать тот факт, что процессе подготовки молодых спортсменов характеризуется выбором различных средств и способов, внедрением игрового способа, широким применением элементов разных видов спорта в том числе подвижных игр. Это можно увидеть в многих исследований в этой сфере. В исследованиях твердится что в этапе начальной подготовки специалисты, тренера должны избегать планирования тренировочных занятий со значительными психическими и физическими нагрузками, допускающими применение монотонного материала. Специалисты в этой области утверждают, что на начальном этапе занятия кураша больше следует ориентироваться на необходимость усвоения разнообразных подготовительных упражнений.

По окончании педагогического исследования сравнение результатов двигательных тестов показало, что упражнения, проведенные по методике исследования, в том числе и борьба в процессе физического воспитания, показали значительное увеличение результатов тестирования в школе. Результаты, полученные по итогам нашего эксперимента, показали, что мы наблюдали положительную динамику по всем двигательным тестам в исследуемой группе. В тесте по прыжкам в длину с места рост варьировался от 98,6 до 106,4 см, а в контрольном тесте по броску медицинбола см составил от 178,6 до 196,4 см соответственно. Занятия физкультурой для школьников контрольной группы также привели к повышению физической подготовленности детей школьного возраста. У школьников контрольной группы, как и у испытуемых экспериментальной группы, за период исследования увеличилась подвижность, что отразилось на результате теста «Прыжок в длину с места», превышающем 99,1 см. 101,8 см. а результаты теста «Бросок медицинбола, см» также показали положительную динамику от 181,2 до 183,7 см, что оказалось статистически недостоверным ($p>0,05$) (рис.).





На основании полученных результатов делаем вывод, что об эффективности методики исследования, результативности включения элементов кураша в процесс физического воспитания школьников достоверно свидетельствует положительная динамика результатов по сравнению с испытуемыми контрольная группа.

Кроме того можно сказать что значение кураша в формировании гармонично развитого поколения, в целом

нации, его всестороннего совершенствования. Занятия национальном узбекским курашом способствуют формированию всех физических качеств школьников. Эти занятия могут давать соответствующий эффект в воспитании индивидуально-психологических и волевых качеств школьников.

ЛИТЕРАТУРА

1. Arzibayev Q.O. Sport faoliyati motivlarining namoyon bo'lishi tahlillarda. Zamonaviy fan va tadqiqotlar, (2023).2(10), 694-704.
2. Арзибаев К.О. Применение электронного тренировочного оборудования в учебно-тренировочном процессе юных каратистов. «Fan Sportga» Ilmiy-nazariy Jurnal 2/2021, 78-80.
3. Arzibayev K.O., Rakhimov V.Sh. Effects On Performance By Electronic Training Equipment For Young Karatists. Psychology and education (2021) 58(2): 11488-11490
4. Абдурасулов Р. А. Психологическое влияние узбекского кураша на формирование личностных качеств / Р. А. Абдурасулов, Темур Убайдуллаев. – Текст: непосредственный // Психология: традиции и инновации : материалы II Междунар. науч. конф. (г. Самара, март 2016 г.). – Самара : ООО "Издательство АСГАРД", 2016. – С. 55-57.
5. Казакова Ю.С. Роль и значение секции дзюдо в физическом развитии детей дошкольного возраста // Вопросы дошкольной педагогики. - 2018. - № 2 (12). - С. 16-18.
6. Морозов А.М., Бахарев Ю.А., Устюхова Н.Н., Беляева М.А., Щуров С.В. Применение элементов спортивной борьбы в физическом воспитании детей старшего дошкольного возраста // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. -2021. - № 10 (200). - С. 236-241.
7. Семянникова В.В., Шахов А.А. Дзюдо как средства физического воспитания старшего дошкольного возраста. Ученые записки университета имени П.Ф.Лесгафта 2023. № 3 (217)
8. Хужомов Б.Х. Подготовка борцов на начальном этапе обучения. Проблемы педагогики. (1(33)), 47-49



UDK: 37:327

Shuhrat HAYDARALIYEV,
Namangan davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi.
E-mail: shuxrathaydaraliyev@gmail.com,

Siyosiy fanlar doktori, professor R.Jo'rayev taqrizi asosida

THE SOCIAL NEED FOR THE DEVELOPMENT OF REGIONAL COOPERATION IN CENTRAL ASIA

Аннотация

This article shows the theoretical foundations of the social necessity of developing regional cooperation in Central Asia. The efforts of Uzbekistan in recent years in the development of this cooperation are presented.

Key words: Central Asia, regional cooperation, political system, development models, political elite, regional security.

СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация

В данной статье показаны теоретические основы социальной необходимости развития регионального сотрудничества в Центральной Азии. Представлены усилия Узбекистана в последние годы по развитию этого сотрудничества.

Ключевые слова: Центральная Азия, региональное сотрудничество, политическая система, модели развития, политическая элита, региональная безопасность.

MARKAZIY OSIYODA MINTAQAVIY HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOVIY ZARURAT EKANLIGI

Аннотация

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy zarurat ekanligining nazariy asoslar ko'rsatilib. Ushbu hamkorlikni rivojlantirishda O'zbekistonning so'ngi yillardagi sa'y-harakatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, mintaqaviy hamkorlik, siyosiy tizim, taraqqiyot modellari, siyosiy elita, mintaqaviy xavfsizlik.

Kirish. XX asr insoniyat tarixida muhim ahamiyat kasb etgan turli ijobiy va salbiy jarayonlarning sodir bo'lganligi bilan iz qoldirdi. Bularning biri barqarorlikni, taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qilsa, boshqasi bashariyat uchun ulkan muammolar tug'dirgan bo'ldi. Ana shunday ijobiy jarayonlardan biri mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichga ko'tarilishidir. Mintaqaviy hamkorlik jarayonlari tom ma'noda dunyoda tinchlikni, tenglikni, taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qilib, yangi xalqaro tartibotning shakllanishiga imkoniyat tug'diradi.

Asrlar mobaynida urushlar o'chog'i, jahon urushlarining asosiy ishtirokchisiga aylangan Yevropa davlatlari mintaqaviy hamkorlik tufayli 70 yildirki, urushsiz yashamoqda. Bugungi kunda aynan hamkorlik natijasida ushbu davlatlar dunyoning eng yetakchi davlatlari safidan o'rin egalladi. Ularning tarixiy tajribasidan kelib chiqib, dunyoning boshqa mintaqalarida joylashgan mamlakatlar ham mintaqaviy hamkorlik jarayonlarini shakllantirishga intilmoqda. Jumladan, mintaqamizda ham bu jarayon o'ziga xos tarzda kechmoqda. Ana shunday sharoitda mintaqaviy hamkorlikning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, tahlil qilish, uni amaliyotga tadbiiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, 2022-2026 yillarda O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham O'zbekistonning tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish masalasi ustivor vazifa sifatida belgilangan.

Ana shulardan kelib chiqib Markaziy Osiyoda mintaqaviy o'zaro hamkorlik masalalarining mazmun va mohiyatini, mintaqaviy hamkorlik tizimi, unga xos murakkab munosabatlar, mintaqaviy hamkorlik jarayonining asoslari va ularni rivojlantirish zaruriyati, unga ta'sir etuvchi omillar haqida to'xtalamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mintaqaviy hamkorlik asoslari haqida tadqiqotchilar turli fikrlarni, konsepsiyalarni ilgari suradilar. Jumladan, R.Alimov Markaziy Osiyo misolida ushbu masalaga to'xtalib tarixiy-madaniy birlik mintaqaviy hamkorlikning rivojlanishi uchun asos bo'lishini qayd etadi [1]. F.Tolipov mintaqaviy hamkorlik asoslarini mintaqamiz misolida o'rganib "Umumiy geografik makon, etnik jihatdan umumiy kelib chiqish, madaniyat va urf-odatlar yaqinligi kabi qadriyatlar birligi Markaziy Osiyoni hamkorligi uchun poydevor bo'ladi"[2], degan fikrni ilgari surgan.

Yoki qozog'istonlik tadqiqotchi Ye.J.Yeshanova fikricha, umumiy tarix, madaniyat, til, e'tiqod, iqtisod, ta'lim va moliya standartlari hamkorlik negizlari bo'la oladi [3]. Yana bir qozog'istonlik tadqiqotchi G.T.Telebayev esa mentalitetda mavjud bag'rikenglik va mehmondo'stlik fazilatlarini ham hamkorlikning asosi bo'lishini qayd etadi [4]. Yuqoridagi tadqiqotchilar hamkorlik asosi sifatida ko'proq tarixiy-madaniy yaqinlikka urg'u beradilar. Shu bilan birga, olim M.Sh.Gubaydullina hamkorlik jarayonlarining asosini ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy va kooperatsion hamkorlik zarurligini anglab yetish o'zini-o'zi ta'minlaydigan, himoyalangan umumiy bozorni tashkil qilinishi bilan bog'laydi [5]. Lekin bunday yondashuv mintaqaviy hamkorlikning barcha asoslarini qamrab olmaydi.

Asosni mohiyatidan kelib chiqib tarixiy-madaniy yaqinlik yoki umumiy bozordan tashqari ham mintaqaviy hamkorlikni asoslari mavjudligini qayd etish mumkin.

Avvalo, "asos" termini haqida to'xtaladigan bo'lsak, asos – bu shunday hodisaki, u boshqa biron hodisaning (natijaning) zarur sharti sifatida yuzaga keladi va uning izohi bo'lib xizmat qiladi. Aniqrog'i, asossiz hodisani falsafiy izohlab bo'lmaydi. Siyosat falsafasida ham asoslarni topish

ular orqali jamiyat hodisalarini izohlab berish muhim ahamiyatga ega. Mintaqaviy hamkorlikning asoslarini umummanfaatdorlik, rivojlangan sanoat va to'ldiruvchi milliy xo'jaliklar, bozor iqtisodi, demokratik jamiyat, siyosiy tizim, taraqqiyot modellari va darajalari mutanosibligi, geosiyosiy jihatdan mintaqaning yaxlitligi, mintaq halqlarining umumiy tarixi, madaniyati, mentaliteti, xo'jalik yuritish uslubi va boshqa vositalar tashkil qiladi. Bizningcha, yuqoridagi zarur asoslarsiz hamkorlik rivojlanmaydi.

Mintaqaviy hamkorlik asoslarini ko'rib chiqamiz. Avvalo umummanfaatdorlik ushbu jarayonning asosini tashkil etishini hisobga olish lozim. Zero, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "... hamkorlik, eng avvalo, o'z salohiyati, o'z kuchi va imkoniyatlariga suyanagan holdagina, o'zaro sheriklik qilishga qurbi yetgandagina ... vujudga kelib, bundan barcha manfaatdor tomonlar naf ko'rgandagina amaliy natija berishi mumkin"[6], deb ta'kidlaydilar. Buni Markaziy Osiyo misolida ko'rsak, jahon bozoriga yo'l ochish, arzon ishlab chiqarish kuchlari va vositasiga ega bo'lish, savdo imkoniyatini kengaytirish, barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishish, mintaqada xavfsizlik, barqarorlikni ta'minlash, geosiyosiy harakatlanuvchi kuchlarga javob qaytarish, mintaqaviy muammolarni bartaraf etish, xalqaro maydonda o'z o'miga ega bo'lish masalalarini hal qilish zaruriyati hamkorlikka turtki beradi.

Mintaqa davlatlarining demokratik jamiyat qurish yo'lidan borishi, demokratik tamoyillar ustuvor bo'lishi mintaqaviy hamkorlikning eng muhim negizi hisoblanadi. Totalitarizm yoki avtoritarizm hukmron bo'lgan jamiyatda integratsion jarayonlar amalga oshmaydi. Sababi, mintaqaviy hamkorlikda qonun ustuvorligi va erkinlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaviy hamkorlik jarayonida ishtirok etuvchi davlatlarning siyosiy tizimi, milliy taraqqiyot modellari va darajalari bir-biriga mutanosib bo'lishi manfaatlarining muvozanatini uyg'unligini ta'minlaydi. Manfaatlarni muvozanati va umummanfaatlar uyg'unlashuvi esa mintaqaviy hamkorlikning asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi.

Mintaqaning geosiyosiy nuqtai nazardan yaxlitligi hamkorlik uchun asos bo'ladi. Bunday sharoitda umumiy muammolar va imkoniyatlar davlatlarning yaqinlashishiga undaydi. Masalan, xavfsizlik, ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar har bir hududda o'ziga xos xarakter kasb etib, uning yechimi mintaqaning imkoniyati va geosiyosiy yaxlitligidan kelib chiqib hal etiladi. Jumladan, dunyo chorrahasida joylashgan Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosiy jihatdan muhim hudud va Sharqni G'arb bilan bog'lab turuvchi "ko'priki" hisoblanadi. Bu maskan doimo fothlarni, dunyoga hukmronlik qilishni xohlovchilarning asosiy nishoniga aylangan. Shu sababdan ham mintaq tarixida tinch kunlardan ko'ra notinch kunlar, bosqinchilarning istibdodi ko'proq bo'lgan. Bu ham mintaq xalqlarini bunday kuchlarga qarshi birlashishga majbur qilib kelgan. Zero, tarixning achchiq saboqlari birlashmasdan kuchli dushmanlarga qarshi samarali kurashish mumkin emasligini ko'rsatadi.

Mintaqa xalqlarining umumiy tarixi, madaniyati, mentaliteti, xo'jalik yuritish uslubi va mintaq xalqlarini birlashtirib turuvchi boshqa vositalar ham mintaqaviy hamkorlik uchun poydevor vazifasini bajaradi. Masalan, mintaq xalqlari mentalitetidagi bag'rikenglik, mehmondo'stlik kabi fazilatlar hamkorlikning asosiy tamoyillari bo'lgan o'zaro ishonch, ma'suliyat uchun zamin yaratadi. Jumladan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek Bizning mintaqamiz xalqlarini ming yillik qardoshlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalari bog'lab turadi. Bizni tarix, din, umumiy madaniyat va an'analar birlashtiradi [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagilarni umumlashtirib hamkorlikni tarixiy-madaniy, huquqiy, iqtisodiy,

xavfsizlik, geografik, g'oyaviy asoslarga bo'lish mumkin. Jumladan:

Tarixiy-madaniy asos haqida to'xtalsak. Uzoq vaqt mobaynida mintaq yaxlitligi saqlab qolganligi, o'tmishda yagona davlat tarkibida, bir xalq bo'lib yashaganligi omillari mintaqaviy hamkorlikning tarixiy asosi hisoblanadi. Xususan, Ahmoniyalar davlati, Aleksandr Makedonskiy davlati, Kushon davlati, Eftalitlar davlati, Turk hoqonligi, Somoniylar davlati, Xorazmshohlar davlati, Mo'g'ullar davlati, Shayboniyalar davlatini va uchta xonlik, yana Rossiya imperiyasi tarkibiga kirishi, keyinchalik sovetlar davlatini qayd etish mumkin. To'g'ri, mazkur davlatlarning ko'pchiligi zo'rlik asosida barpo etilgan bo'lib, mintaq taraqqiyoti uchun ijtimoiy-iqtisodiy, ulkan ma'naviy zararlarni ham yetkazgan. Bu o'z navbatida o'zaro aloqalarni tiklash, jipslashish, bir so'z bilan aytganda, umumiy madaniyat va sivilizatsiyani shakllantirish uchun majburiyatni ham yuzaga keltirgan. Ya'ni, mintaq xalqlari yuqoridagi istilolarga qarshi kurashish uchun ham birlashishga majbur bo'lishgan.

Umuman, tarixiy-madaniy asos mintaqaviy hamkorlik uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, hindistonlik taniqli olim Sengupta mintaqamiz hamkorlik asoslari haqida to'xtalib, uchta negizini keltirib o'tadi. "Birinchi, Markaziy Osiyoda istiqomat qilayotgan turli-tuman etnogeografik guruhlar, xalqlar ongida muhrlanib qolgan tarixiy xotira va taqdir sinovlarining mushtarakligi; ikkinchi, asrlar osha mintaqaga xos geografik "yopiqlik" holatining u yerdagi millatlarda hamjihatlikka bo'lgan ehtiyojini kuchaytirishi; uchinchi, zamon va makonda ro'y bergan ayrim jarayonlar oqibatida vaqtincha yiroqlashishdan so'ng mintaq davlatlari orasida o'zaro hamkorlikka bo'lgan intilish kuchayganligi kabilar"[8]. Bu asos tarixiy birlikning shakllanishiga, ajdodlar faoliyatidan xulosa chiqarib, o'zaro yaqinlashishga imkon beradi. Zero, har qanday avlod ajdodlarining an'anasini davom ettirishga intiladi. Bu asos tarixiy xotira orqali rivojlanadi.

Mintaqaviy hamkorlik jarayonlarini rivojlantirishning asosiy shartlaridan yana biri – davlatlararo va jamiyatlararo o'zaro munosabatni, muloqotni tadjiriy tarzda rivojlantirib borishdir. Ya'ni, o'zaro muloqot faqatgina ma'lum bir doiralarda (siyosiy elita, tadbirkorlar) o'rtasida emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari: madaniyat ahli, ilm-fan ahli, dehqonlar, tadbirkorlarning kasbdoshlari bilan bevosita muloqotga kirishishi, o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishi o'ta muhim. Aynan ana shu jarayonning vujudga kelishida tarixiy birlik asosi muhim rol o'ynaydi. Zero, bu jarayonni tarixiy birliksiz muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi.

Huquqiy asos ham mintaqaviy hamkorlikka mutanosib ravishda rivojlanib boradi. Davlatlar o'rtasidagi o'zaro do'stlik, hamkorlik shartnomalari, kelishuvlar mintaqaviy hamkorlik jarayonlarining huquqiy asoslarini yaratib beradi. Aynan ana shu shartnoma va kelishuvlarning amaliyotga tadjiq etilishi hamkorlikni mustahkamlaydi.

Xavfsizlik asosi. Ta'kidlash lozimki, hamkorlik subyektlari faqat iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qilmasdan mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni o'rnatishga ham yordam beradi. Misol uchun, Yevropaning harbiyxavfsizlik masalasi mintaq davlatlarining birlashishiga asos yaratdi. Professor Sh.Arifxanov to'g'ri ta'kidlaganidek, "Yevropada xavfsizlik muammosini hal qilish imkoniyati hamkorlik jarayonlarini rivojlanishi orqali vujudga keldi. Ikkinchi jahon urushi tugaganidan besh yil o'tib Fransiya rahbari (Sharl de Gol) va Germaniya yetakchisi (Konrad Adenauer) xavfsizlikni o'zaro ishonch va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish orqali amalga oshirish mumkin degan xulosaga kelib, shuni amaliyotga tadjiq etishga kirishdilar"[9]. Bizningcha, Markaziy Osiyoda ham mintaq davlatlari faqat hamkorlikda harbiy tajovuzlarga qarshi tura olishi mumkin.

G'oyaviy asos. Tabiiyki, har qanday mintaqani birlashtirishga doir bir qancha g'oyalar dunyoga keladi. Ana shu g'oyalarning ma'lum bir qismini amaliyotga tadbiiq etish orqali mintaqaviy hamkorlik jarayonlari shakllanib, rivojlanib boradi. Bu g'oyalar majmuasi mintaqaviy hamkorlikning g'oyaviy negizlarini tashkil etadi. Albatta, bu g'oyalar obyektiv qonuniyatlarga asoslangan bo'lib, mavjud imkoniyatlar va boshqa negizlarga suyanganda yaratiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligi g'oyalari tarixi ham ancha uzoqqa borib taqaladi. Jumladan, XIX asrda shakllangan ziyoli ajdodlarimiz ilgari surgan turkiy zaminni birlashtirish g'oyasi, birinchi Prezidentimiz o'rtaga tashlagan "Turkiston – umumiy uyimiz" g'oyasi, Nursulton Nazarboyev tomonidan olg'ani surilgan Yevroosiyo konfederatsiyasini shakllantirish g'oyalari misol keltirish mumkin.

- **Tahlil va natijalar.** Hamkorlik asoslari har bir mintaqada o'ziga xos tarzda, bir-biriga o'xshamagan holda mavjud bo'ladi. Chunki, bular ma'lum bir mintaqaning imkoniyat va ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Ammo bu uzoqni ko'zlagan hamkorlikni asoslarga tayanmasdan rivojlantirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, yuqoridagi asoslarni rivojlantirishni zamon, makon, vaziyat talabidan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Mintaqaviy hamkorlik asoslari imkoniyat va ehtiyoj asosida vujudga kelgan bo'lsa, zarurat asosida rivojlantiriladi.

Mamlakatimizda Shavkat Mirziyoyev Prezident bo'lganidan so'ng birinchi o'rinda mamlakat tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari ustuvor vazifaga aylandi. Ikki tomonlama va ko'ptomonlama muloqotlarning asosiy mavzusi – barcha sohalarida, xususan, iqtisodiy sohadagi hamkorlikni kuchaytirish bo'ldi, desak yangilishmaymiz.

O'zbekiston hukumati Markaziy Osiyo mintaqasida faol integratsiya siyosatini yuritib kelmoqda. Uzoqni o'ylab amalga oshirilgan siyosatning muhim xususiyatlari va afzalliklari hozirdan bilinmoqda. Jumladan: birinchisi, mintaqaviy integratsiya juda foydali va zarur imkoniyat; ikkinchisi, Markaziy Osiyo davlatlariga mintaqalararo mehnat taqsimotidan qo'shimcha daromad olish imkonini beradi, bu jarayon esa milliy mahsulotlarini o'tkazish bozorini kengaytirib, raqobatbardosh ishlab chiqarish korxonalarini o'sishiga zamin hozirlaydi. Uchinchisi, bunday iliq integratsiya davlatlarimizni xorijiy investorlar uchun yanada jozibador qilib qo'yadi.

Markaziy Osiyo integratsion jarayonida O'zbekiston peshqadamlik qilishi uchun barcha shart-sharoit yetarli va ko'plab nomdagi tovar va xizmatlarni tavsiya etishga tayyor turibdi. Xizmatlar (turizm, logistika, transport, konsalting) sohasida ham sezilarli qadamlar tashlanmoqda.

2019 yilda Samarqand shahrida tashkil etilgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiya jahon hamjamiyati, dunyo siyosiy doiralarda katta qiziqish bilan kutib olindi. Forum ishtirokchilari mazkur tadbir haqli ravishda tarixiy ahamiyatga ega ekanligini hamda mintaqaviy hamkorlikda prinsipial jihatdan yangi sahifa ochganini alohida ta'kidlashdi.

Xalqaro anjumanda BMT, YXHT, Yevropa ittifoqi, ShHT, MDH rahbariyati, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Afg'oniston, AQSh, Yevropa davlatlari, Rossiya, XXR, Turkiya, Eron, Hindiston, Pokiston, Yaponiya, Janubiy Koreya delegatsiyalari, olimlar, jamoatchilik va davlat arboblari qatnashdi.

Mintaqada xavfsizlik hamda barqaror taraqqiyot, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiyaviy, suv-energetika, ekologik va madaniy-gumanitar sohalarida hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan 70 dan ziyod ma'ruzalar tinglandi.

ADABIYOTLAR

1. Алимов Р.М. Центральная Азия: общность интересов. – Т.: 2005. Шарқ –С.25.

Davlatimiz rahbari konferensiya ochilishidagi nutqida mintaqada tinchlik, o'zaro manfaatli hamkorlik hamda xavfsizlik muhitini qaror toptirishning ahamiyati nechog'li katta ekanligini yana bir marta ta'kidladi. "Umumiy aholisi 70 milliondan ortiq bo'lgan mintaqamizning kelajagi bugungi kunda Markaziy Osiyoning har bir davlati tomonidan barpo etilmoqda, — dedi Prezidentimiz. — Bizning bosh maqsadimiz — umumiy sa'y-harakatlarimiz bilan Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiyot etgan mintaqaga aylantirishdan iborat".

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar xalqaro hamjamiyat, eng muhimi, qardosh qo'shnilarimiz — Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlandi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining doimiy maslahatlashuv uchrashuvlarini tashkil qilishga doir taklif, xalqaro anjuman ishtirokchilari fikricha, eng dolzarb masalalar bo'yicha "soatlarni to'g'rilab olish" hamda hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirish bo'yicha istiqboldagi qadamlarni belgilash imkonini beradi.

Forum qatnashchilari Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida muloqotni rivojlantirish va hamkorlikni faollashtirish bo'yicha yuzaga kelgan jarayonlarni yanada mustahkamlashga tayyorligini ma'lum qilishdi. Bunda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, savdo hamda chegaralararo hamkorlikni rivojlantirish, transport-kommunikatsiya tarmoqlarini, shu jumladan, yangi ko'priklar, avtomobil va temir yo'llari qurish hamda aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish bo'yicha birgalikdagi tashabbuslarni ilgari surish muhim ahamiyatga ega. Ishtirokchilar yaqin qo'shnilik hamda do'stona munosabatlarni yanada mustahkamlash, ilm-fan, ta'lim, texnologiyalar, innovatsiyalar, turizm, madaniyat, san'at va sport sohalarida hamkorlik aloqalarini chuqurlashtirishga ko'maklashishga sodiqligini namoyish etishdi.

Xalqaro konferensiya qatnashchilari BMT tizimidagi barcha muassasani va boshqa xalqaro tashkilotlarni hamda Markaziy Osiyoning hamkor davlatlariga mintaqalararo mamlakatlari bilan umumiy xavfsizlik va barqaror taraqqiyot masalalari bo'yicha hamkorlikni kengaytirish hamda mustahkamlashga chaqirishdi.

Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasiga Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlik va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga doir maxsus rezolyutsiya qabul qilish to'g'risidagi taklifini qo'llab-quvvatladilar.

- **Xulosa va takliflar.** Mintaqaviy hamkorlik uchinchi ming yillik xalqaro siyosatida yetakchi mavqeni egallaydi. U global taraqqiyot zarurati sifatida shakllanadi. Ana shu haqiqatni o'z vaqtida tushunib yetish va uni rivojlantirish uchun amaliy sa'y-harakatlarga o'tish vaqti yetib keldi. Uni nazariy jihatdan o'rganish bugungi kunning eng dolzarb muammosi bo'lgan insoniyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida qanday o'zgarishlar kechishini aniqlashda yetakchi omil vazifasini o'taydi.

Umuman olganda mintaqaviy hamkorlikka tizimli yondashuv bir-biriga ta'sir etuvchi turli hamkorlik sohalarining o'ziga xos xususiyatini qismlarga bo'lib emas, balki yaxlit tasavvur qilish imkonini beradi. Tizimli yondashuv tadqiqotning juda ko'p uslublaridan foydalanishga yordam beradi. Ba'zi uslublar orqali olingan natijalarni boshqalariga qarama-qarshi qo'ymasdan va mutloqlashtirmasdan xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, biz mintaqaviy hamkorlikni tizimlashtirish muhim deb hisoblaymiz.

2. Толипов Ф. Теория и практика региональной интеграции в Центральной Азии. <http://www://analyticaphp.story>
3. Ешанова Е.Ж. К вопросу об эволюции интеграционных процессов в Центральной Азии. 160. <http://www.cac.org/journal/cac-06-1999>.
4. Телебаев Г.Т. Центральноазиатская интеграция: объективные и субъективные параметры// Аналитик, №6,2002./ - С.41.
5. Губайдуллина М.Ш. Опыт европейской интеграции и его применение на территории Центральной Азии. <https://scholar.google.ru/citations?user=yMKbfbcAAAAJ&hl=ru>
6. Каримов И.А. Ватан саждағоҳ каби муқаддасдир 3-том. – Т.: Ўзбекистон 1996. 299-б.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Самарқанд шаҳрида ўтган “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқи. <http://www.prezident.uz/uz/lists/view/1227>.
8. Голунов С. Постсоветские границы ЦА контексте безопасности и сотрудничества.// «Центральная Азия Кавказ» №5(17) 2001.–С.169.
9. Арифхонов Ш.Р. Центральная Азия: региональная интеграция и безопасность. – Т.: 2007. – С. 44-45.



UDK: 378.091.33:741/744

Baxtiyor HAQBERDIYEV,
Alfraganus universiteti, Umumkasbiy fanlar kafedrasida (PhD), dotsenti
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
Tel.: +998901090970
Sodiqjon MIRZAYEV,
Andijon davlat pedagogika instituti kafedrasida v.b.dotsenti

MTU muhandislik kompyuter grafikasi kafedrasida mudiri (PhD) J.A.Qosimov taqrizi asosida

INVOLVEMENT OF INSTRUCTIONAL DESIGN IN THE INTEGRATION OF ENGINEERING GRAPHICS AND DESIGN

Annotation

The article discusses the role of pedagogical design in the integration of engineering graphics and design sciences, the principles of integrated education, the relationship of these two subjects, as well as information about sections and general second-order geometric properties. The article discusses surfaces in comparison to other complex surfaces.

Key words: Engineering graphics, design, integration, pedagogical design, approach, descriptive geometry, kinematics, surface, element, educational technology, innovation, vertical, horizontal, optimal, context, differentiation, modeling, personality.

УЧАСТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ДИЗАЙНА В ИНТЕГРАЦИИ ИНЖЕНЕРНОЙ ГРАФИКИ И ДИЗАЙНЕ

Аннотация

В статье рассмотрены роль педагогического проектирования в интеграции инженерной графики и наук о дизайне, принципы интегрированного образования, взаимосвязь этих двух предметов, а также сведения о сечениях и геометрических свойствах общего порядка второго порядка. В статье обсуждаются поверхности по сравнению с другими сложными поверхностями

Ключевые слова: Инженерная графика, дизайн, интеграция, педагогическое дизайн, подход, начертательного геометрия, кинематика, поверхность, элемент, образовательные технологии, инновация, вертикаль, горизонталь, оптимальный, контекст, дифференциация, моделирование, личность.

MUHANDISLIK GRAFIKASI VA DIZAYN FANLARINI INTEGRATSIYALASHDA PEDAGOGIK DIZAYNNI ISHTIROKI

Annotatsiya

Maqolada muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini integratsiyalashda pedagogik dizaynni roli, integratsiyalashgan ta'limda tamoyillar, bu ikki fan mavzulari bir-biri bilan bog'liqliklarini hamda integrativ yondashuvlar hadida ma'lumotlar ikkinchi tartibli umumiy sirtlarning kesimlari va geometrik xossalari boshqa murakkab sirtlarga nisbatan ko'proq o'rganilganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Muhandislik grafikasi, dizayn, integratsiya, pedagogik dizayn, yondashuv, chizma geometriya, kinematik, sirt, element, ta'lim texnologiyalari, innovatsiyon, vertical, gorizontal, optimal, kontekst, differensiya, modellashtirish, individual.

Kirish. Rivojlanishda jadallashi borayotgan ilm-fan texnikaning taraqqiyoti integrativ yondashuvlarni yana ham rolini kengayishga olib kelmoqda. Yana muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirish, turdosh fanlar asoslari mazmunini integratsiyalashga doir ilmiy ishlar qilinmoqda. Bu esa o'z navbatida talabalarni muhandislik grafikasi va dizayn fanlaridan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini loyihalashda qo'llay olish, mazmunini anglab yetish hamda badiiy obrazli tasavvurlarini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarini amalga oshirish imkonini bermoqda.

Mazuga oid adabiyotlar tahlili. Mahalliy va xorijiy pedagogika fanida integratsiya muammolarini o'rganish bo'yicha boy tajriba to'plangan. Turli davrlarda ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish vazifasini Ya.A.Komenskiy, I.G.Pestalotsi, J.Russo, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiy ilmiy surdilar. Integratsiya jarayoni (lotincha integration-bog'lanish, tiklash) tizimning ilgari bir-biridan ajralib turuvchi qismlari va elementlarining o'zaro bog'liqligi va bir-birini to'ldiruvchiligiga ko'ra yagona yaxlitlikka yig'ilishidir.

Xorijiy olimlardan J.W.Gray, M.Trott, F.Cochran, J.Gilbert, R.J.Gaylordlarning ishlarida integrativ ta'lim texnologiyalarini qo'llashning afzalliklari va imkoniyatlari yoritib berilgan. Mazkur ilmiy izlanishlarda pedagog kadrlarni tayyorlashning turli jihatlari, ya'ni innovatsion va pedagogik faoliyatga tayyorlash, ta'limda axborot-kommunikatsiy texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, integrativ muhitni tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Integratsiyalashgan o'qitish orqali ta'lim samaradorligini baholash mezonlari (tayanch tushunchalarni oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib borish, muammoli vaziyatlar va uyg'unlashgan usullarni qo'llash, mavzular bo'yicha tavsiya qilingan ilmiy manbalar bo'yicha ixcham, mukammal ma'lumotlar majmuasining ifodalanishi) fanlarning vertikal va gorizontal integratsiyasini qo'llash asosida ishlab chiqish, ta'limda integratsiyalashgan o'qitish jarayonlarini tashkilotishga doir didaktik modelning metodik komponenti o'quv harakatlari izchilligining (tayyorlov, loyihalash, amalga oshiruvchi, yakuniy) integrallashgan dars tuzilmasi (adaptiv, amaliy, umumlashtirish, refleksiya) bilan qayta aloqasini intensivlash darajasiga muvofiq takomillashtirish, integratsiyalashgan ta'lim natijalariga erishishning mezonlari va parametrlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik jarayonga integratsiyalashgan holda tadqiqotchilar rivojlanish jarayonining ilgari bir-biridan ajralib turuvchi qismlarning integratsiyalashuvi bilan bog'liq jihatlaridan birini tushunadilar. Bu jarayon allaqachon tuzilgan tizim doirasida ham, yangi tizim doirasida ham amalga oshishi mumkin Ta'limdagi integratsiya - bu ta'lim oluvchining shaxsini rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan dunyoning yaxlit ko'rinishini shakllantirish uchun ma'lum bir ta'lim tizimi doirasida tarkibning tarkibiy qismlari o'rtasida aloqalarni o'rnatish jarayoni. Integratsiya ta'limdagi murakkablikni yengillashtirishga, tizimlilikka o'rgatadigan jarayondir. Zamonaviy ta'limda fanlarni integratsiyalashuvi yangi pedagogik yechimlarni faol izlash, ta'lim oluvchilarga samarali va asosli ta'sir ko'rsatish uchun pedagogik xodimlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish yo'nalishlaridan biridir. Integratsion yondashuv talabalarni o'z kasbini mutaxassisi qilib tayyorlashga yordam beradigan yondashuv hisoblanadi

Integratsiya talabalarni tarqoq bilim olishlarini, bilimlarni parchalanishini oldini oladi, ularning yaxlit bilimlarni, umuminsoniy qadriyatlar majmuini egallashini ta'minlaydi. Bugungi kundagi zamon talabiga mos ta'lim tizimini yo'lga qo'yar ekanmiz biz uchun yangi kirib kelgan pedagogik dizayn rolini ham ko'rib chiqishimiz lozim. Pedagogik dizayn bir xil mohiyatga ega o'quv mavzularini integratsiyalashda loyihalashni tizimli yondashuvdir. Muhandislik va dizayn sohalari, shuningdek, pedagogik dizaynda globallashuv jarayonining sur'ati, xalqaro miqyosida innovatsiyalarning tezkor harakati ta'lim tizimini modernizatsiyalash va uni shaxs imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirish kabi asosiy vazifalar bilan bir qatorda, ta'lim oluvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, liderlik va kreativlik sifatlarini qaror toptirish hamda rivojlantirish zaruratini asoslaydi.

Pedagogik dizayn zamonaviy fanlararo ilmiy soha sifatida talabalarni, integrativ ta'lim yo'nalishlarini o'qitishda tayyor bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyalash uchun ergonomik, pedagogik jihatdan asoslangan, jozibador sharoitlar yaratish, kasbiy faoliyatda individual yondashuvni amalga oshirish masalalarini ko'rib chiqish imkonini beradi. Muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini integratsiya orqali o'qitishda bu ikki fanning ushbu sohasi strategiyalarni, o'rganish senariylarini o'rganish va ishlab chiqish, muvaffaqiyatli o'rganish va maqsadga erishishni ta'minlaydigan integrativ vositalardan foydalangan holda o'quv jarayonini boshqarish uchun sharoit yaratish bilan bog'liq.

Muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini integratsiyalash asosida o'qitishda vujudga kelayotgan ba'zi muammolarni pedagogik tomondan optimal kontekstli yechimlarini ishlab chiqishga qaratiladigan rivojlantiruvchi pedagogik dizayn algoritmlarini ta'minlaydigan texnologik yechimlarni bartaraf etish kerak Muhandislik grafikasi fani keng qamrovli bo'lib, bu fan insonni fikrlashini va fazoviy tasavvurini oshiradi. Muhandislik grafikasi fani boshqa fanlarga nisbatan murakkabligi va qiziqarliligi bilan ham ajralib turadi. Shu boisdan ham bir qator fanlarni muhandislik grafikasi fani bilan bog'liqligi bejiz emas. Lekin muhandislik grafikasi tarkibidagi fanlar va dizayn tarkibidagi fanlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lsada, dizayn fanlari o'quv rejasida muhandislik grafikasi fanlari aksariyat hollarda kam o'qitiladi. E'tiborli tomoni shundaki, bu ikki fanni bog'liqligi yoritilganida ularning asosi eng avvalo chizma hisoblanadi. Chizma bu muhandislik grafikasi fanlarining muhim elementi hisoblanadi.

Chizma geometriyada, ko'pincha, sirtlarning kinematik usulda hosil bo'lishidan foydalaniladi. Kinematik sirtlarning ko'rinishi uning yasovchisining shakliga va

fazodagi harakat qonuniga bog'liq bo'ladi. Masalan, chiziqli sirtlarda yasovchining shakli to'g'ri chiziq bo'ylab, uning fazodagi harakat qonunini sirtning yo'naltiruvchisi belgilaydi. Aylanish sirtlarida yasovchining shakli ixtiyoriy chiziq bo'lib, hosil bo'lish qonuni uning ma'lum o'q atrofida aylanishidir. Vint sirtlarda yasovchining shakli to'g'ri yoki egri chiziq bo'lib, hosil bo'lish qonuni vintsimon (aylanma va ilgari) harakatdir. Ba'zi bir sirtlarini aniq geometrik qonuniyatlar bilan berib bo'lmaydi. Bunday sirtlar shu sirt ustida yotuvchi bir nechta nuqtalar yoki chiziq bilan beriladi. Ikkinchi tartibli umumiy sirtlar muhandislik grafikasi va dizayn fanlari amaliyotda keng qo'llaniladi. Shuning uchun bu sirtlarning chizma geometriyada grafik jihatdan qulay tasvirlanishi o'rganiladi.

Tahlil va natijalar. Ikkinchi tartibli umumiy sirtlarning kesimlari va geometrik xossalari boshqa murakkab sirtlarga nisbatan ko'proq o'rganilgan. Chunki bu sirtlarning hosil bo'lishi ma'lum matematik qonunga asoslangan. Shuning uchun ikkinchi tartibli umumiy sirtlar yoki ularning ayrim bo'laklari libos, avtomobil, samolyotsozlik, arxitektura-qurilish, mebel, interer, texnik, sanoat dizaynida, tibbiyot asboblari yasashda va boshqa sohalarda keng foydalaniladi. Bu ikki fanni integratsiyalash jarayonida "Zargarlik buyumlari dizayni" fanida ko'p hollarda zargarlik buyumlarini dizaynini yaratishda geometrik yasashlar, ya'ni aylanani teng bo'laklarga bo'lishdan foydalaniladi. Muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini integrativ o'qitish jarayonlarini alohida bog'liqlik sifatlarini to'liq tushinish talab etiladi. Shu bilan birga dars jarayonida mavzularni turiligi, ularni yaxlitlash, bog'lash, birlashtirishlarga muvofiq tizim ishlab chiqib amaliyotga tadbiiq etish kerak bo'ladi.

Integratsiyalashgan ta'limda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

-tizimli bilim berish tamoyili, ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyili, pedagogik hamkorlikka tayanish tamoyili; -integratsiyaning differensiya bilan uzviyligi; -ta'lim-tarbiya jarayonining aniq maqsadga yo'naltirilganligi; -integratsiyalashgan ta'limning ta'limberuvchi shaxsiga qaratilganligi; -ta'lim oluvchilarni faollashtirishga va komil insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi.

Muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini integratsiyalash jarayonlarini loyihalash mavjud mavzularni o'z ichiga oladi, lekin butunligicha emas qisman bo'lishi mumkin va natijasi sifat darajasida bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun mavzular aralashishini takomillashtirishda prototiplarini yaratish uchun yaxshi imkon sifatida muhandislik kompyuter grafikasidan foydalanish afzal. Prototip bu —kompyuter grafikasi mahsulotlarini simulyatsiyasi. Prototipni maqsadi mavzular bog'liqligida ularni sinov qilib ko'rishdan iborat. Prototiplar bu ikki fan mavzularini qaysidir yechimini ko'tayotgan muammolarni topib ularga yechim ishlab chiqish va uni hal etishdan iborat.

Muhandislik grafikasi va dizayn fanlari mavzularini integratsiyasini va darsga bu ikki fanni mavzularini aloqadorligini ishlab chiqishda pedagogik usullardan va kompyuter grafikasidan foydalanish lozim. Buning samarasi o'laroq pedagogik dizayn konsepsiyasini ishlab chiqish integratsiyasini yaratish, undan tizimli foydalanish uni perspektivasini qurishva haqiqiy integrativ muhitni yaratishga asoslanadi. Dizayn esa — bu yuqori badiiy saviyadagi muhandislik grafikasidir. Estetik obrazga yo'g'rilmagan muhandis fikri o'zining tashqi ko'rinishida shakllar xaosi va rang anemiyasi ko'rinishiga ega loyihalashtirilgan ishlab chiqarish korxonasini eslatadi.

Jahon dizayni oldingi qatorlarida Italiya dizayni hisoblanadi. Italiya dizaynining boshqa davlatlar dizaynidan farqli sifatleri va rivojlanish strategiyasi — loyihalash faoliyatida mualliflik tamoyili (o'z ishiga egalik hissi),

shaklga e'tibor, kundalik turmush muhitida komplekslik, yaqqol namoyon bo'luvchi insonparavarlik, ya'ni insonga xizmat qilishga qaratilgani, dizayner-rassomlar faoliyatining ekologik strategiyasida namoyon bo'ladi. Dizaynning shakllanishini qisqa tahlili uning rivojlanishining bir nechta davrlarga bo'linishini ko'rsatib, har bir davr uchun ma'lum maqsad va vazifalar belgilangan.

Dizayn tarixi inson tarixi boshlanishiga qarab ketgan deyish mumkin. Insonning o'zining buyumlari shakli haqida qayg'urgan sharoitlarda dizayn elementlari shakllana boshlangan. Dizayni zamonaviy tushunishda ma'lum sharoitlar, ehtiyojlar va uskunalar zarur bo'ladi. XIX asr oxirida loyihalash madaniyatining ikki tashkil etuvchisi – texnika va san'at bir-biridan uzoqlasha boshladi. Faqat XX asrda ularni birlashtirishga urinishlar boshlandi va bu urinishlar samarali bo'lib, ular rag'batlantirila boshlandi.

Masalan, ingliz pedagoglarining asosiy tarbiyaviy ta'siri dizayn ta'limi o'quvchilarni olamga moslashishi emas, balki tez o'zgarib borayotgan olamni hisobga olgan holda tayyorlashga qaratilgan edi. Bunda e'tibor dizayn ta'limi maktabida olingan umumiy va maxsus bilimlarni integrallashgana emas, balki dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni faol qabul qilishga qaratilgan shaxs sifatlarini shakllantirishga qaratildi. Ingliz maktablarida bu jarayon maqsadli, o'qituvchilarning faol va ijodiy ishtirokida olib boriladi. Ingliz mutaxassislari dizayn ixtisosligi bo'yicha quyidagi kreativ xarakter jihatlarni sanab o'tishadi:

- moddiy olam, uning xilma-xilligi va birligiga qiziqish;
- tushunish va umumlashtira olish;
- xarakterning avtonomligi va mustaqilligi;
- keng doiradagi odamlar bilan nafaqat nutq orqali, balki yozma matnlar, rasmlar, chizmalar, sxemalar yordamida ham muloqot qila olish;
- analitik va tadqiqot ishiga layoqat;
- intizomlilik, tirishqoqlik;
- mental faollik, muammoni quyish va uni echishga tayyorlik;
- o'z faoliyatini rejalashtirish ko'nikmasi mavjudligi;
- o'z natijalarini tanqidiy baholay olish;
- boshqalar tomonidan bajarilgan loyihalarga tanqidiy munosabat;
- o'z g'oya va fikrini boshqalarga uqtira bilish;
- o'zi bajarayotgan ishi uchun jamiyat oldida javobgar ekanligini his etish

Integratsiyalashda pedagogik dizayni ishtirokida o'quv jarayoni bu xolatda quyidagi psixologik-pedagogik tamoyillar asosida amalga oshiradi:

- kasbiy faoliyat mazmunini dizayn fanlari mazmuni bilan integratsiyalashni modellashtirish tamoyili;
- muamoli vaziyatlarni, qarama-qarshiliklar saqlovchi topshiriqlar orqali badiiy-obrazli va muhandislik-loyihaviy faoliyatni uzviyligini ta'minlash tamoyili;
- qayta tiklanuvchi loyiha vazifalari o'zaro ta'siri sharoitida talabalarning individual va hamkorlikdagi faoliyatini uyg'unlashtirish tamoyili;
- guruhda talabalarning dialogik muloqot va hamkorligi tamoyili;
- muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini o'zaro integratsiyasi asosida shahsning ijodiy faoliyatini shakllantirishga yo'naltirish tamoyili.

Dars davomida har qanday yangilalayotgan yoki ikki mavzu bir-biri bilan aloqadorligida yangi manbalarni idrok etishda mutaxassislik o'qituvchisini psixologik mahoratiga bog'liq. Talabalarni diqqatlarini grafik masalalarniyechishga qaratadigan va uni asosiy yechimini sodda va qo'lay shaklda yetkazishda muhandislik kompyuter grafikasi dasturlaridan foydalanishni samarali yo'llarini ishlab chiqish kerak.

Xulosa va takliflar. Muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini integratsiyalashdagi yondashuvlar fanlarni zarur jihat va xususiyatlarini, mos holda yaxlitlashni hamda ularni mazmunini, mohiyatini aniqlab olish vazifasini bajaradi. Pedagogik dizaynda esa o'quv-uslubiy tamoyillar va yondashuvlarga asoslangan muhandislik grafikasi va dizayn fanlari mavzularini mazmunini loyihalashdan iboratdir. Pedagogik dizaynda bu ikki fanni aloqadorlik mavzulari mazmunini yengillik darajasida yaxlitlanayotgan mavzular ketma-ketligi va grafik masalalarni yechimlariga qanchalik oz vaqt sarflanishi, qiyin bo'lmasligi, ishonch hosil qilish lozim.

Pedagogik dizayn bu - muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini integratsiya orqali o'qitishda pedagogik natijalarga erishish uchun aniq integrativ harakatlar buyuriladigan soha deb hisoblasak muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini integratsiya orqali o'qitishning aniq mazmuni va ta'lim oluvchilarni hisobga olgan holda ularning bilim va ko'nikmalarida kutilgan o'zgarishlarni amalga oshirish uchun eng yaxshi yondashuvlar yuzasidan pedagogik metodlar to'g'risida qaror qabul qilish jarayonidan iborat. Pedagogik dizayn, odatda, tizimli o'qitishning dastlabki bosqichidan iborat bo'ladi. Pedagogik jarayonning borgan sari, ayniqsa, texnologiyalardan foydalanish natijasida, murakkablashib borishi bilan muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini integratsiya orqali o'qitishda ham pedagogik dizaynning ahamiyati ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR

1. Haqberdiyev, B. (2022). Интеграция в дизайне: важная роль. O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 1(10).
2. Haqberdiyev, B. R. (2022). Integration of engineering graphics and design science in a comparative description of methodological approaches. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(7), 67-70.
3. Haqberdiyev, B. R. (2022). Integration of design and engineering graphic sciences to increase educational efficiency. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(1), 162-164.
4. Haqberdiyev, B. R., & Otakhonova, S. F. (2022). See the integration of education in creativ design and engineering. International Bulletin of Applied Science and Technology, 2(10), 107-109.
5. Haqberdiyev, B. R., & Abbasov, I. Chizmachilik va dizayn fanini tarixi nazariy va amaliy ahamiyati. Андижанский государственный университет имени З.М. Бабура конференция: 12 апреля 2022 г.
6. Курбаниязов, III. K., & Haqberdiyev, B. P. (2023). Таълим ва амалиёт интеграцияси. Results of National Scientific Research International Journal, 2(2), 11-19.
7. Haqberdiyev, B. R. Projection method in the integration of design elements and engineering graphics and design sciences. НАУКА и ОБЩЕСТВО, 110.
8. Haqberdiyev, B. R. The Role of Engineering Graphics and Design Sciences in the Study of the Analysis of Patterns in the Ancient Monuments of Uzbekistan. International Journal on Integrated Education, 4(7), 49-53.
9. Valiyev, A. N., Haqberdiyev, B. R., Gulomova, N. X., & Boboyeva, Z. A. (2020). Drawing. mechanical drawing) Tashkent.



Ирина ЧЕРГИНСКАЯ,

Преподаватель Узбекский государственный университет мировых языков

E-mail: i_cherginskaya@mail.ru

По отзыву доцента Ферганского политехнического института М.А. Шаходжаева, к.т.н.

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ В СРЕДСТВАМИ ВЫРАЖЕНИЯ УСЛОВНЫХ ОТНОШЕНИЙ (РУССКИЙ ЯЗЫК)

Аннотация

Условные отношения в простом предложении служат для выражения добавочного высказывания – указания на условие совершения действия, названного в остальной части высказывания. В данной статье освещены методы обучения иностранному языку в общеобразовательных учреждениях средствами выражения условных отношений. Предложены способы организации учебного материала и виды упражнений для обучения выражению условных отношений.

Ключевые слова: Методы обучения, русский язык, выражения условных отношений, образования, эффективность урока, педагогическое мастерство.

METHODS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE BY MEANS OF EXPRESSING CONDITIONAL RELATIONS(RUSSIAN)

Annotation

Conditional relations in a simple sentence serve to express an additional statement – an indication of the condition for performing an action named in the rest of the statement. This article highlights the methods of teaching a foreign language in general education institutions by means of expressing conditional relations. The methods of organizing educational material and types of exercises for teaching the expression of conditional relations are proposed.

Key words: Teaching methods, Russian language, expressions of conditional relations, education, the effectiveness of the lesson, pedagogical skills.

SHARTLI MUNOSABATLARNI IFODALASH VOSITALARI YORDAMIDA CHET TILINI O‘QITISH USULLARI(RUS TILI)

Annotatsiya

Oddiy jumladagi shartli munosabatlar qo‘shimcha bayonotni ifodalashga xizmat qiladi, bayonotning qolgan qismida ko‘rsatilgan harakatni bajarish shartini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada umumta‘lim muassasalarida shartli munosabatlarni ifoda etish orqali chet tilini o‘qitish usullari yoritilgan. Shartli munosabatlarni ifoda etishni o‘rgatish uchun o‘quv materialini tashkil etish usullari va mashqlar turlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: O‘qitish usullari, rus tili, shartli munosabatlarning ifodalari, ta‘lim, dars samaradorligi, pedagogik mahorat.

Введение. Изучение второго языка - это долгое и сложное мероприятие. Это затрагивает всю вашу личность, поскольку вы изо всех сил пытаетесь выйти за рамки своего родного языка и освоить новый язык, новую культуру, новый образ мышления, чувств и действий. Для успешной отправки и получения сообщений на втором языке необходимы полная самоотдача, тотальная вовлеченность, полная физическая, интеллектуальная и эмоциональная реакция. В процессе усвоения задействовано множество переменных. Изучение языка - это не набор простых шагов, которые можно запрограммировать в наборе “сделай сам”. На карту поставлено так много, что курсы иностранных языков часто сами по себе не являются подходящей тренировочной площадкой для успешного изучения второго языка. Немногие люди, если таковые вообще есть, достигают свободного владения иностранным языком исключительно в рамках аудитории.

Специфика иностранного языка как учебного предмета определяется тем, что он, характеризуясь чертами, присущими языку как знаковой системе, в то же время обозначается отличными от родных языков особенностями владения и усвоения. В то же время по ряду характеристик иностранный язык существенно отличается от любого другого учебного предмета. Эта образовательная особенность иностранного языка как

учебного предмета интуитивно ощущается студентами и понимается преподавателями. Это может послужить основой для формирования предвзятого отношения к предмету.

Анализ литературы по теме. Иностранный язык, как и любая языковая система, является социально-историческим продуктом, в котором отражены история нации, культура, система социальных отношений, традиции.

Рассматривая особенности иностранных языков, мы поговорим об этом через анализ особенностей овладения иностранным языком в сравнении с родным языком. Овладение иностранным языком отличается от родного языка следующими пунктами:

- 1) в соответствии с направлением овладения языком;
- 2) по плотности коммуникации;
- 3) по наличию языка в субъективно-коммуникативной деятельности;
- 4) по совокупности функций, реализуемых языком;
- 5) в соответствии с совпадением овладения иностранным языком с сенситивным периодом речевого развития.

Теперь мы подробно рассмотрим особенности овладения иностранным языком в соответствии со следующими пунктами.

Л.С. Выготский был первым ученым, который охарактеризовал различные пути или направления овладения иностранным языком и овладение родным языком. Он определил этот путь к родному языку как “снизу вверх”, а к иностранному языку наоборот “сверху вниз”. “Мы можем сказать, что овладение иностранным языком идет путем, противоположным овладению родным языком. Ребенок овладевает родным языком неосознанно и без какой-либо цели, но иностранный язык начинается с цели и постановки задач. Из-за этого мы можем сказать, что овладение родным языком происходит по направлению “снизу вверх”, а овладение иностранным языком - “сверху вниз”. Концепция о различном направлении овладения языком должна быть в первую очередь принята во внимание при преподавании иностранного языка в школьном образовании[1]. Но осознание студентами, изучающими иностранные языки, того, что способы формулирования мыслей на иностранном языке должны быть обязательным компонентом, не означает, что они всегда должны существовать до использования языка. Главный вопрос заключается в том, какое место в процессе занимает осознание лингвистических ресурсов. В процессе общения на иностранных языках сознанием контролируется только план речевого содержания, т.е. что и в каком порядке говорить. Форма выражения мысли реализуется на уровне фоновых механизмов, автоматически она практически не осознается. Потребность в осознании языковых средств не противоречит утверждению, что в процессе иноязычного общения сознание контролируется только планом содержания, то есть тем, что и в каком порядке говорить.

В условных предложениях значение обусловленности конкретизировано как взаимная связь ситуаций предопределяющей (в придаточной части) и предопределенной, т.е. ситуации-следствия (в главной части). При отношениях обратной обусловленности (обратной мотивации), связанных со смысловым осложнением конструкции, обуславливающая ситуация может быть представлена в главной части. Специфика условной связи в ряду других видов обусловленности заключается в том, что условность всегда предполагает гипотетичность предопределяющего. Из трех возможных квалификаций явления:

- 1) как реального (соответствующего действительности),
- 2) как нереального (не соответствующего действительности)
- 3) как потенциального (соответствие и несоответствие действительности допустимы в равной мере) в условных предложениях, не осложненных никакими другими элементами значения, допустима только вторая и третья.

Условные предложения оформляются при помощи союзов *если, если бы, в случае если, в том случае если, на случай если, на тот случай если, при условии что, при том условии если, при том условии что, а также при помощи стилистически окрашенных союзов *ежели, ежели бы (устар. и прост.), когда бы (устар. И книжн.), коли (коль), коли бы (устар. и прост.), добро бы (разг.), диви бы (устар. И прост.), кабы (прост.), как бы (прост.), коль скоро (устар.), буде (устар.)*[2].*

Признаком повторяемости (неединичности) связи характеризуются предложения, в которых представлена неоднократная, периодически воспроизводимая связь ситуаций. Этот признак опирается на грамматические, лексико-семантические и контекстуальные факторы и может быть конкретизирован как многократность,

регулярность, обобщенность, временная неопределенность, узуальность. Различаются условно-потенциальные предложения со значениями повторяемости в прошлом и с абстрактным (обобщенно-временным) значением.

Методология исследования. В условных предложениях индикативного типа выделяются предложения со значением потенциальности в собственном смысле слова и предложения с осложненным значением. Это противопоставление основывается на признаке “единичность – повторяемость” (“одноактность – неодноактность”, “необобщенность – обобщенность”) в его взаимодействии с временными значениями[3].

Анализ и результаты. В различиях между овладением иностранным и родным языком заключается в том, что плотность общения сильно отличается. Плотность общения ребенка со взрослыми и другими людьми на родном языке, которую можно измерить количеством речевых контактов и объемом экспрессии в родной речи, несравнимо выше, чем на иностранном языке в условиях школьного образования. Это необходимо учитывать при сравнительном анализе способов овладения языком. При этом в условиях иноязычного общения сфера общения сужается, уменьшается количество партнеров. В условиях общения на иностранном языке также сужается сфера общения, сокращается (часто до одного человека - преподавателя иностранных языков) количество партнеров, общение фиксируется достаточно свободно, накладываются свои мысли и понимание незнакомца, в связи с небольшим количеством уже выученных, являются обновленные лингвистические ресурсы (лексические, грамматические, фонетические) и скованность из-за недостаточных методов формирования и формулирования идей по использованию этих средств. В русском языке существует несколько типов условных отношений. Для выражения каждого из них используются определенные предложно-падежные формы.

Упражнение 1. Замените простые предложения с предлогом ПРИ сложными с союзом ЕСЛИ... (ТО).

Образец: При полном взаимопонимании они достигнут больших успехов. → Если они понимают друг друга, они достигнут больших успехов (записывается на доске).

1. При точном выполнении всех условий эксперимента он получит интересные результаты.
2. При совместном решении экологических проблем люди смогут найти выход из экологического кризиса.
3. При внимательном чтении вы можете найти в статье нужную информацию.
4. При серьезном отношении к учёбе он станет отличником.
5. При помощи друзей ты сдашь этот экзамен.

Вышеизложенное соответствует такой особенности, как возможность реализации на иностранном языке всего набора функций, которые реализует родной язык. “Изучение родного языка - это спонтанный процесс, которым человек овладевает не потому, что он сознательно хочет знать язык, а в результате спонтанного процесса психического развития в онтогенезе”[4]. Родной язык, выступающий в единстве функций коммуникации и синтеза, сначала является основным средством “присвоения” ребенком социального опыта, и только потом, и вместе с реализацией этой функции, - средством выражения, создания и формулирования его собственных мыслей. “Овладевая родным языком, человек “присваивает” себе инструмент познания действительности. В этом процессе естественным образом удовлетворяются и формируются

его специфические человеческие (познавательные, следовательно, коммуникативные и другие социальные) потребности”.

В русском языке существует несколько типов условных отношений. Для выражения каждого из них используются определенные предложно-падежные формы. В книжном стиле с предлогом без используются абстрактные существительные образованные от глаголов реже – существительные обозначающие конкретные предметы и лица. Предложно-падежная форма |”в случае чего-нибудь” употребляется для обозначения какого-либо неожиданного незапланированного обстоятельства случая и поэтому имеет значение “если случится ...”. В отличие от других условных конструкций в ней используются только отглагольные существительные. Местоположение условного компонента может изменяться в зависимости от структуры и смысла предложения. Например в случае экономического роста государству легче найти средства для решения проблемы бедности[5].

Творческий подход учителей к подготовке и проведению уроков может многое изменить в положительном отношении к детям. Чтобы активизировать учащихся, развить интерес, побудить их к приобретению знаний, учитель должен внедрять в практику работу и другие формы занятий - их интересные разновидности и, как следствие, создавать авторские нетрадиционные уроки. Учитель русского языка не может руководствоваться только формальными требованиями к уроку. Для совершенствования методической деятельности педагог должен знать традиционные и

нетрадиционные формы уроков русского языка, их типологию, специфику уроков в системе образования. Урок-форма организации обучения с целью усвоения учащимися изучаемого материала (знаний, умений, мировоззрительных и нравственно-эстетических представлений). По основному дидактическому назначению такие занятия выделяют:

- урок ознакомления с новым материалом;
- урок закрепления усвоенного;
- урок применения знаний и умений;
- урок обобщения и систематизации знаний;
- урок проверки и коррекции знаний и умений;
- комбинированный (смешанный) урок.

По основному способу проведения занятий: беседа, лекция, самостоятельная работа учащихся, лабораторная и практическая работа, совмещение различных форм занятий.

Заключения. Средствами выражения уступительных отношений являются вводные слова союзы предлоги наречия частицы структура предложения комбинации разных элементов. Условные отношения в простом предложении служат для выражения добавочного высказывания – указания на условие совершения действия названного в остальной части высказывания. Выполнив работу я выработал новые навыки различения и правильного использования условных и уступительных отношений и средств их выражения привел примеры рассмотрел типы отношения и углубил знания в области грамматики развил и активизировал навыки грамотного общения на актуальные общественно значимые темы.

ЛИТЕРАТУРА

1. Выготский Л. С. Педагогическая психология / под ред. В. В. Давыдова. М.: Педагогика, 1991. 480 с.
2. Выражение условных и уступительных отношений в русском языке (xn--d1aigtgr.xn--plai)
3. Нестандартные формы и методы обучения на уроках русского языка / Д. К. Джуманизова. - Текст: непосвященный // молодой ученый. - 2022. - № 22 (417). - С. 673-675.
4. Чергинская И. А. Препозитивная придаточная условия как культураносный компонент поэтического текста //Русский язык в глобальном научном и образовательном пространстве. – 2021. – С. 435-439.
5. Чергинская И. А. К вопросу о формировании личности педагога высшего образовательного учреждения //Национальная ассоциация ученых. – 2015. – №. 3-2 (8). – С. 37-39.



Muborak SHODMONQULOVA,
Guliston davlat universiteti dotsenti
E-mail: shodmonqulova70@gmail.com

Falsafa fanlar nomzodi, dotsent, S. Ismoilov taqrizi asosida

THE ROLE OF LIBERALISM IDEAS IN THE FORMATION OF THE MIDDLE CLASS IN UZBEKISTAN

Annotation

The article focuses on the ideas of liberalism in the formation of the middle class in Uzbekistan. The policy of the state's development of the owners' stratum, as well as the issues of building a civil society in the country are presented and analyzed from a scientific and practical point of view. Further deepening of the democratic market reforms and the liberalization of the economy is shown as the main factor in ensuring the effectiveness of the economic reforms carried out in our country.

Key words: Private property, liberalism, civil society, "middle class", "owning class", "middle class", small business, entrepreneurship, market reforms and economic liberalization.

РОЛЬ ИДЕЙ ЛИБЕРАЛИЗМА В ФОРМИРОВАНИИ СРЕДНЕГО КЛАССА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье основное внимание уделяется идеям либерализма в формировании среднего класса в Узбекистане. Представлена и проанализирована с научной и практической точки зрения политика государства по развитию слоя собственников, а также вопросы построения гражданского общества в стране. Экономика показана как главный фактор обеспечения эффективности экономических реформ, проводимых в нашей стране.

Ключевые слова: Частная собственность, либерализм, гражданское общество, «средний класс», «класс собственников», «средний класс», малый бизнес, предпринимательство, рыночные реформы и либерализация экономики.

O‘ZBEKISTONDA O‘RTA SINFINI SHAKLLANTIRISH LIBERALIZM G‘OYALARINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda o‘rta sinfini shakllantirishda liberalizm g‘oyalari asoslangan. Mamlakatda davlatning mulkdorlar qatlamini rivojlantirish siyosati, hamda fuqarolik jamiyati qurish masalalari keltirilgan va ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarasini ta‘minlashda asosiy omil sifatida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Xususiy mulk, liberalizm, fuqarolik jamiyati, “o‘rta sinf”, “mulkdorlar sinfi”, “o‘rta qatlam”, kichik biznes, tadbirkorlik, bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli farmonida belgilab berilganidek, aholi va tadbirkorlarni o‘ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o‘rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti va ilg‘or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadigan 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Unda xususiy mulk huquqini himoya qilish va uni ustuvor mavqei yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivojiga to‘liq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va «Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi» degan prinsipni amalga oshirish belgilab berildi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Insoniyatning keyingi asrlardagi taraqqiyoti zamirida to‘plangan ilmiy nazariy talqinlar asosida fuqarolik jamiyati deganda, birinchi navbatda, davlatdan xoli bo‘lgan mulkiy, bozor tartiblari, oilaviy, axloqiy-ma‘naviy munosabatlar sohasi tushuniladigan bo‘ldi. Shu ma‘noda, ma‘rifiy, xususiy, g‘ayrirasmiy, nosiyosiy hayot sohasi majmuyi tarzida talqin etiladigan fuqarolik jamiyati tovar ishlab chiqaruvchilar va

iste‘molchilarning davlat nazorat qilmaydigan manfaatlarini amalga oshirish olami sifatida ta‘riflanadi. Masalan, Gegelning ta‘biriga ko‘ra, fuqarolik jamiyati – bu eng avvalo, xususiy mulkka asoslangan manfaat (ehtiyoj) lar tizimi, shuningdek din, oila, tabaqalar, davlat tuzumi, huquq, axloq, burch, madaniyat, ta‘lim, qonunlar va subyekt (inson) larning ulardan kelib chiquvchi o‘zaro uzviy yuridik aloqalari majmuidir. Insonlar tabiiy, «nomadaniy» holatdan «fuqarolik jamiyatiga o‘tishlari lozim, zero aynan shu jamiyatda huquqiy munosabatlar asl voqelikka aylanadi» [2]. Gegel bu jamiyatni burjuacha ishlab chiqarish munosabatlari majmui sifatida tushungan, shu bilan birga, uning ikki asosiy prinsipini alohida ajratib ko‘rsatgan: birinchidan, shaxslar o‘z xususiy manfaatlaridan kelib chiqib harakat qiladilar; ikkinchidan, insonlar shunday ijtimoiy munosabatlar tizimini vujudga keltiradilarki, bunda har kim boshqa kimsaga bog‘liq bo‘ladi, ular o‘rtasida o‘zaro hamkorlik mavjud bo‘ladi.

Fuqarolik jamiyati nazariyasining eng yorqin namoyondalari F.Xayyek va D.Mizeslarning hisoblashicha, har qanday iqtisodiy rejalashtirish siyosiy diktaturaga olib keladi, ijtimoiy rivojlanishning asosiy dilemmasini esa rejalashtirish (tiraniya shakli) va raqobat (erkinlik ramzi) o‘rtasidagi munosabatlarda ko‘rish kerak. Qaysiki jamoachilik (kollektivizm) totalitar bo‘lsa, g‘aroyib jamiyat erkin bozor va diktaturaga olib keladigan kaos o‘rtasidagi ziddiyatlarga duch kelishi mumkin. Xususiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy tuzilma bo‘lmish fuqarolik jamiyati aslida bozor iqtisodiyoti munosabatlari tizimidan iboratdir. Bunday munosabatlarga

ishlab chiqarish sohasidagi erkin raqobat va iqtisodiyot sohasiga davlatning ma'muriy aralashuvini cheklash orqali erishiladi [3].

Mutaxassislar fuqarolik jamiyatidagi o'zini o'zi boshqarishning asosiy mexanizm (murvat)lari borasida fikr yuritganida ham erkin bozor (iqtisodiy mexanizm)ni alohida ta'kidlaydilar. Buning boshqacha shakli sifatida fuqarolik jamiyatining qaror topishi va zohir bo'lishining umumiy g'oya va prinsiplari borasida iqtisodiy erkinlik, turli mulk shakllari va bozor munosabatlarining mavjudligini ta'kidlash joiz[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, fuqarolik jamiyati – erkin insonlarning hamjamiyatidir. Bu iqtisodiy jihatdan shuni anglatadiki, bunda individ mulkdor sifatida maydonga chiqadi. U insonning bemaol yashashi va faoliyat ko'rsatishi uchun zarur mablag'larga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 23 iyundagi 107-sonli qarorida ta'kidlanganidek, «faqat erkin, mustaqil, yetarlicha moliyaviy mablag'larga hamda mustaqil moliyalashtirish manbalariga ega bo'lgan fuqarolik institutlariga o'z zimmlaridagi vazifalarini samarali bajara olishi mumkin» [5]. Xususiy mulk – bu jamiyatning o'zagini, tub negizini tashkil etadi. Shaxs mulk shakli va faoliyat (mehnat) turini tanlashda erkindir. Shuningdek, inson (fuqaro) barcha siyosiy huquqlar (shu jumladan saylov huquqi) sohibi hisoblanadi. U siyosiy partiyalar va birlashmalarga erkin uyushish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, mamlakatda davlatning mulkdorlar qatlamini rivojlantirish siyosati mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish masalasi bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Zero, mulkdorlar sinfi fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asosidir. Albatta, jamiyatda mulkdorlar qatlamining hissasi ko'payib borgani sari farovonlik va demokratik o'zgarishlar uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki davridan boshlab o'rta sinfni shakllantirish va rivojlantirishga ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralib, bu sohadagi o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotining turli jabhalarini rivojlantirish bilan uzviy bog'liq holdagi maqsadlardan biri sifatida yondashildi. Shu bilan birga, jamiyat ijtimoiy tuzilmasida o'rta sinfni rivojlantirishga ustuvorlik berish masalasi bir vaqtning o'zida demokratik o'zgarishlar hamda mamlakat rivojlanish darajasini rivojlangan mamlakatlar miqyosiga olib chiqish vazifalari bilan uyg'unlikda ekanligiga muhim e'tibor berildi. Shuningdek, mamlakatda "o'rta sinf", "mulkdorlar sinfi" va "o'rta qatlam" tushunchalari bir hil mazmun-mohiyat kasb eta boshladi.

Mamlakatimizda 2011 yilning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi davlatning mulkdorlar sinfini shakllantirishga nisbatan yuksak e'tibor berayotganligini anglatadi. U bu boradagi quyidagi fikrini keltirish mumkin: "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Shu munosabat bilan tadbirkorlik faoliyati muhitining qanday hoatda ekani, buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va bu faoliyatning amaldagi rivojlanish sur'atlari barcha darajadagi hokimlar faoliyatini baholashning asosiy mezoniga aylanishi darkor" [6].

So'nggi yillarda demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish maqsadida taklif etilayotgan qonunchilikni takomillashtirish va yangi qonunlarni qabul qilish natijasida quyidagi demokratik qadriyatlarga xos bo'lgan o'zgarishlar amalga oshirildi:

-mulkdorlar sinfining shakllanish jarayoni o'z nihoyasiga yetkaziladi, uning jamiyatdagi o'rni yanada yuksaldi;

-mulkdorlar sinfini ishlab chiqarish va yaratuvchilik faoliyati erkinlashadi, mulkdorlar xo'jaliklari erkin va mustaqil subyektlar sifatida faoliyat yuritita boshladi;

-mulkdorlar sinfi davlat iqtisodiy salohiyatini oshirish, xalq farovonligini yuksaltirishning asosiy omiliga aylandi;

-mulkdorlar sinfi bir tomondan, nodavlat sektorga taaalluqli bo'lganligi, ikkinchi tomondan, fuqarolik jamiyatining iqtisodiy bazasi bo'lganligi uchun ham bu sinfning yuksalishi va mustahkamlanishi fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga kuchli ta'sir eta boshladi;

-jamiyatda turli ijtimoiy qatlamlar bilan bir qatorda mulkdorlar sinfni rivojlanishi va mustahkamlanishi natijasida jamiyatdagi sinfiy ziddiyatlarga barham beriladi, jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlar o'zaro konstruktiv mulqotlarga kirishadigan yangi muhit yaratiladi, jamiyat barqarorligini doimiy tarzda muttasil ta'minlab turishga qobil bo'lgan yangi ijtimoiy tizimlar – fuqarolik jamiyatining institutlari shakllandi.

Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda xo'jalik yurituvchi subyektlarning vijdonan raqobatchilik qilishlari, mol-mulk orttirishlari uchun har tomonlama keng sharoitlar yaratib berilmoqda. Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilar huquqlari ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-barobar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Bu 2012 yil 5 mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining O'RQ-328-son "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni bilan mustahkamlangan [8].

Ma'lumki, liberalizm xususiy mulkka egalik qilish va uni ko'paytirishga qaratilgan barcha faoliyat turlarining erkinligini o'z himoyasi va homiyligi ostiga oladi. Liberalizm mol-mulkka egalik qilishga olib keluvchi xususiy tashabbuskorlik va xususiy tadbirkorlikni cheklaydigan xatti-harakatlarni bartaraf qilishga intiladi va unga erishish chora-tadbirlarini ko'radi. Biroq, shuni ham ta'kidlash joizki, liberalizm nafaqat daromadli korxonalarini o'z himoyasiga oladi, balki u har qanday tashabbusni, ijtimoiy korxonalarining barcha turlarini qo'llab-quvvatlaydi, chunki ularda u inson shaxsining ifodasi va boy-badavlat bo'lishi omilini, inson salohiyati va qobiliyatlarining rivojini ko'radi. "Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilgan «Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli» hamda «Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida» degan normalarni amalda ro'yobga chiqarish maqsadida yangi institut - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil instituti ta'sis etildi" [9].

Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarasini ta'minlashda asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Yurtimizda tadbirkor va ishbilarmonlarning emin-erkin faoliyat yuritishlari uchun yaratib berilayotgan qonuniy imkoniyat va imtiyozlar, qulay investitsiyaviy muhit tufayli jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini bartaraf etish va barcha sohalarida iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlanmoqda.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda xo'jalik yurituvchi subyektlarning vijdonan raqobatchilik qilishlari, mol-mulk orttirishlari uchun har tomonlama keng sharoitlar yaratib berilmoqda. Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston

iqtisodiyotining negizini hilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilar huquqlari ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-barobar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yuqori texnologiyaga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarishga texnologiyalar joriy etilishini rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bu boradagi masalalardan yana biri – bu Konstitutsiyamizga muvofiq ko'p tarmoqli iqtisodiyotimizning ustuvor sohalari bo'lmish xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni tez sur'atlar bilan rivojlantirish yo'lidan barcha g'ov va to'siqlarni yo'q qilish, ularning erkinligini ta'minlashdir.

Mamlakatimizda demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirish, xususan, o'rta sinf – mulkdorlar sinfini shakllantirish borasidagi amalga oshirilgan ishlar:

-xususiy mulkchilik yetakchi o'rin tutgan ko'p qirrali iqtisodiyotni shakllantirish, ya'ni, davlatda yirik mulkdorlar qatlamining mavjudligi jamiyatda barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi;

-tadbirkorlar erkinliklarini ta'minlash uchun iqtisodiy, tashkiliy, xuquqiy sharoit va kafolatlar yaratilishi, mazkur qatlam faoliyatining har tomonlama rag'batlantirilishi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy mustaqil bo'lishi, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdagi mavjud to'siqlarning bartaraf etilishi;

-xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, ko'p qirrali bozor iqtisodiyotini rivojlantirish orqali haqiqiy mulkdorlar qatlamining shakllantirilishi. Chunki, mulkdorlar qatlami jamiyat hayotini va davlat tizimini demokratik asoslarda yangilash va yangi iqtisodiy tizimni taraqqiy ettirishda harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi.

-yangi ish o'rinlarini yaratish, ishsizlikka qarshi kurashish. Bu masalani yechishning asosiy yo'nalishlari sifatida aholining o'zini o'zi ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, ijtimoiy ahamiyatga ega sohalarda mehnatga bo'lgan iqtisodiy manfaatdorlikni oshirish, o'zgaruvchan bozor konyukturasiga moslashtirilgan malaka oshirish va professional kadrlar tayyorlash tizimini yaratish, shuningdek qo'shimcha ta'lim olish va kasb o'rganish sohasini tubdan yaxshilash;

Liberallashtirish tendensiyasi huquqiy tizimning barcha elementlarini, shuningdek, huquq va qonunchilikning barcha sohalarini qamrab olayotgani mantiqiy holdir. Fikrimizni tasdiqlash uchun quyidagi misollar kifoya qiladi: 1995 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va 1995–1996 yillarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 1998 yilda kuchga kiritilgan Oila kodeksi va boshqa salmoqli sohaviy qonunlar xalqaro huquqiy standartlarga mos holda, shuningdek, inson huquqlarini to'la-to'kis ta'minlashga yo'naltirilgan demokratiya, insonparvarlik hamda adolat prinsiplariga tayanib ishlab chiqildi va qabul qilindi. Mehnat munosabatlari sohasida ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi

shartnoma munosabatlarining erkinlashuvi, fuqarolik qonunchiligida shartnomaga kirishuvchi subyektlarning tengligi, mustaqilligi, xususiy mulkning daxilsizligi; oila qonunchiligida nikoh tuzishning ixtiyoriy va erkinligi, nikoh shartnomasi asosida er va xotin munosabatlarining tartibga solinishi ushbu sohalarning liberallashtirishga oid yorqin misollardir. Liberallashtirish shabadasi ma'muriy, bojxona, soliq qonunchiligini ham qamrab oldi. Jumladan, biznes muhitini yanada yaxshilash biz uchun eng muhim masalalardan biri bo'lib qoldi.

Jahon bankining "Biznes yuritish" reytingida eng yaxshi 50 ta mamlakat qatoriga kirish bo'yicha barcha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni qabul qildik. Hukumat ushbu tadbirlarning amaliy ijrosini samarali tashkil etishi zarur. Yaqinda qabul qilingan yangi Soliq kodeksiga muvofiq, bu yildan boshlab ko'plab yangiliklar amaliyotga joriy etilmoqda.

Xususiy mulkchilik zamonaviy liberal dunyoqarashning asosiy qadriyati sifatida qolmoqda. Bugungi kunda hech bir neoliberal yoki ushbu g'oyaviy asosda paydo bo'lgan ko'p sonli siyosiy ishtirok etish nazariyalari (partitsipativ demokratiya), shuningdek «umumiy baxt-saodat davlatlari» doktrinalari (faol ijtimoiy siyosat amalga oshirishni nazarda tutgan. Xususan, nafaqalar ajratish amaliyotini prinsipial jihatdan kengaytirish, manzilli ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, iste'molchini ayaydigan soliqqa tortish tizimini joriy etish va hokozolar) o'z mohiyatiga kura siyosiy va iqtisodiy liberalizmning maqsadlariga, hattoki uning klassik variantiga ham zid kelmaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, demokratik va bozor islohotlari yo'lidagi izchil harakatlarimizning mantiqi bizdan doimo ilgari lab borishni talab etayotganini ta'kidlash lozim. Bu borada jahon bozorida keskin raqobat kuchayib borayotgani ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bunday vaziyat O'zbekistonda xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun ularning yo'lidagi, shuni yana ta'kidlash kerak, har qanday qarshilikni olib tashlashni dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda. Bu vazifalarni amalga oshirish, o'z navbatida, biz mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining ishonchli tayanchi va poydevori deb biladigan o'rta sinf – mulkdorlar sinfini shakllantirish va uning mavqeini mustahkamlash uchun yangi rag'batlantiruvchi omillar va istiqbollarni yaratib beradi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Xususiy mulkchilik zamonaviy liberal dunyoqarashning asosiy qadriyati sifatida qolmoqda. Bugungi kunda hech bir neoliberal yoki ushbu g'oyaviy asosda paydo bo'lgan ko'p sonli siyosiy ishtirok etish nazariyalari (partitsipativ demokratiya), Shuningdek «umumiy baxt-saodat davlatlari» doktrinalari (faol ijtimoiy siyosat amalga oshirishni nazarda tutgan. Xususan, nafaqalar ajratish amaliyotini prinsipial jihatdan kengaytirish, manzilli ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, iste'molchini ayaydigan soliqqa tortish tizimini joriy etish va hokozolar) o'z mohiyatiga kura siyosiy va iqtisodiy liberalizmning maqsadlariga, hattoki uning klassik variantiga ham zid kelmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги фармони «Халқ сўзи», 2017 йил 8 февраль, 28 (6722)-сон
2. Гегель. Работы разных лет. Т.2. – Москва., 1973. – С.50.
3. Одиқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Тошкент.,2002. Б.166.
4. Теория государства и права / Под. ред. Н.И.Матузова и А.В.Малько. – Москва., 2000. – С. 206.
5. Халқ сўзи. 2005 йил, 24 июнь.
6. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади.-Тошкент: Ўзбекистон, 2011, 39-40-б.

7. Мирзиёев Ш.М. «Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз» 1-жилд, - Тошкент, «Ўзбекистон» 2019 йил. -Б. 147-148.
8. Ўзбекистон Республикасининг ЎРҚ-328-сон “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги янги таҳрири <https://lex.uz/>
9. Мирзиёев Ш.М. «Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолитимизга берилган энг олий баҳодир» 2-жилд - Тошкент, «Ўзбекистон» 2019 йил 592 бет.
10. Мирзиёев Ш.М. «Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз» 1-жилд, - Тошкент, «Ўзбекистон» 2019.-Б.147.



UDK:02:004.9

Akmal SHUKUROV,

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti dotsenti v.b., (PhD)

E-mail: specialist0202@mail.ru

Xojiakbar EGAMBERDIYEV,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti v.b., (PhD)

Ilyos JO‘RAYEV,

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali magistranti

QarMII pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professori v.b., N.Ergashev taqrizi asosida

DJANGO FREYMVORKI VA REACT KUTUBXONASI ORQALI AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH

Аннотация

Django bepul va ochiq manbali, Pythonga asoslangan web-ilovani ishlab chiqishni tezlashtirishi mumkin bo‘lgan bepul, ochiq manbali freymvork. U AQSHda notijorat tashkilot sifatida tashkil etilgan mustaqil tashkilot Django Software Foundation (DSF) tomonidan yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Django, Freymvork, react, kutubxona, avtomatlashtirish, boshqaruv, tizim, Python, web, ilova, URL, HTML, MySQL, farq, dastur, kod, component.

DEVELOPMENT OF AN AUTOMATED CONTROL SYSTEM THROUGH DJANGO FREYMVORKI AND REACT LIBRARY

Annotation

Django is a free, open-source framework that can accelerate the development of a free and open-source, Python-based web application. It is run by the Django Software Foundation (DSF), an independent organization established as a non-profit organization in the United States.

Key words: Django, Freymvork, react, library, automation, management, system, Python, web, application, URL, HTML, MySQL, difference, application, code, component.

РАЗРАБОТКА АВТОМАТИЗИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ФРЕЙМВОРК DJANGO И БИБЛИОТЕКУ REACT

Аннотация

Django-это бесплатный фреймворк с открытым исходным кодом, который может ускорить разработку веб-приложений на основе Python. Он поддерживается Django Software Foundation (DSF), независимой организацией, созданной в США как некоммерческая организация.

Ключевые слова: Django, фреймворк, реакт, библиотека, Автоматизация, управление, система, Python, web, приложение, URL, HTML, MySQL, разница, приложение, код, компонент.

Kirish. Djangoning asosiy maqsadi murakkab, ma'lumotlar bazasiga asoslangan veb-saytlarni yaratishni osonlashtirishdir. Freymvork komponentlarning qayta ishlatilishi va "ulanish imkoniyati", kamroq kod, past ulanish, tez rivojlanish va o'zingizni takrorlamang tamoyiliga urg'u beradi. Python hatto sozlamalar, fayllar va ma'lumotlar modellari uchun ham qo'llaniladi. Django shuningdek, introspeksiya orqali dinamik ravishda yaratilgan va administrator modellari orqali sozlanadigan ixtiyoriy ma'muriy yaratish, o'qish, yangilash va o'chirish interfeysini taqdim etadi.

Masshtablik va qayta foydalanish imkoniyati: Django kodni qayta ishlatish va modullikni targ'ib qiladi, bu esa dasturchilarga ularni qayta foydalanish mumkin bo'lgan modullar yoki ilovalarga bo'lish orqali kengaytiriladigan ilovalarni yaratishga imkon beradi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Django-bu 2003 yilda Adrian Xolovati va Simon Uillison tomonidan AQShning Kanzas shtatidagi Lawrence Journal-World gazetasida ishlayotganda ishlab chiqilgan yuqori darajadagi veb-ramka. Ramka jurnalistlarga murakkab yangiliklar veb-saytlari va veb-ilovalarni tez va oson yaratishda yordam berish uchun yaratilgan. "Django" nomi belgiyalik jazz gitarachisi Django Reynxardtndan kelib chiqqan va ramkaning soddaligi

va foydalanish qulayligiga urg'u berishini aks ettirish uchun tanlangan.

Djangoning birinchi versiyasi 2005 yilda BSD litsenziyasida chiqarilgan va uni ochiq ramkaga aylantirgan. Dastlabki yillarda Django soddaligi, foydalanish qulayligi va tez rivojlanish qobiliyati bilan obro'ga ega bo'ldi. Bu tezda ishlab chiquvchilar orasida, ayniqsa veb-ishlab chiqishni boshlagan yoki sifatni yo'qotmasdan tezda veb-ilovalarni yaratmoqchi bo'lganlar orasida mashhur bo'ldi.

Vaqt o'tishi bilan Django bir nechta yirik yangilanishlar va yaxshilanishlarni boshdan kechirdi, shu jumladan yangi xususiyatlarni qo'hish, xavfsizlik va ishlashni yaxshilash va yangi texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash. Django-ning modulli dizayni, shuningdek, ishlab chiquvchilar uchun yangi xususiyatlarni qo'shish va biznesning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun dasturlarni sozlash vazifasini osonlashtirdi.

Django mashhurligi o'sishda davom etmoqda va hozirda butun dunyo bo'ylab ishlab chiquvchilar tomonidan keng qo'llanilmoqda. U kichik shaxsiy loyihalardan tortib yirik korporativ yechimlargacha bo'lgan keng ko'lamli veb-ilovalarni yaratish uchun ishlatiladi. Bugungi kunda Django uning rivojlanishiga hissa qo'shadigan va boshqalarga yordam

beradigan katta va faol ishlab chiquvchilar jamoasi tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda[12].

Tadqiqot metodologiyasi. ORM va ma'lumotlar bazasini abstraksiya qilish: Django'ning obyekt bilan bog'liq xaritalash (ORM) qatlami ma'lumotlar bazasini boshqarishning murakkabliklarini mavhumlashtiradi, bu esa dasturchilarga Python obyektlari va so'rovlari yordamida ma'lumotlar bazalari bilan ishlash imkonini beradi.

URL yo'naltirish: Django moslashuvchan URL marshrutlash tizimini taqdim etadi, bu esa ishlab chiquvchilarga ilovaning turli qismlari uchun toza va foydalanuvchilar uchun qulay URL manzillarini aniqlash imkonini beradi.

Template Engine: Django shablon mexanizmi HTML shablonlarini loyihalash va renderlash jarayonini soddalashtiradi, bu esa dinamik veb-sahifalarni yaratishni osonlashtiradi.

Autentifikatsiya va avtorizatsiya: Django foydalanuvchi autentifikatsiyasi va avtorizatsiyasi uchun mustahkam o'rnatilgan vositalarni taklif etadi, bu esa ilovaning turli qismlariga xavfsiz kirishni nazorat qilishni ta'minlaydi.

Administrator interfeysi: Django ishlab chiquvchilarga qo'shimcha kod yozmasdan ilova ma'lumotlarini boshqarish imkonini beruvchi intuitiv boshqaruv interfeysini taqdim etadi.

Django loyihasini ishga tushirish SQL-dan foydalanmasdan Python-da ilovangizning butun ma'lumotlar modelini yaratishga imkon beradi. Obyektga aloqador xaritalash vositasidan (ORM) foydalanib, Django to'liq Python muhitida ishlashni osonlashtirish uchun an'anaviy ma'lumotlar bazasi strukturasi Python sinflariga aylantiradi. Django-MySQL JSON ma'lumotlar turini va tegishli funksiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Django'da ma'lumotlar bazasi jadvalari Python sinflariga aylanadi. Veb-ilovalar Django modellari orqali ma'lumotlarga kirish va boshqarish. Ma'lumotlar bazasi maydonlari oddiygina sinf atributlariga aylantiriladi. Agar siz Python-da sinf atributlari ta'rifi bilan tanish bo'lsangiz, Django ma'lumotlar bazasini osongina loyihalashingiz va boshqarishingiz mumkin.

Django Web Framework ilovangiz ma'lumotlar bazasi bilan to'liq integratsiya qilish uchun yorliqni taklif qiladi. U CRUD (yaratish, o'qish, yangilash, o'chirish) funksiyalarini, HttpResponse va saytlararo skriptlarni taqdim etadi, foydalanuvchilarni boshqarish imkoniyatlarini ta'minlaydi, dasturiy ta'minotni boshqarish funksiyalarini taklif qiladi va boshqalar. Siz paketlarni import qilasiz, ma'lumotlar bazasiga ulanasiz va so'ngra mahsulotingizni noyob qiladigan ilovangiz qismlarini ishlab chiqishga qaytasiz.

Kutubxona uyingizni boshidan qurishga o'xshaydi. Uy o'zingiz yoqtirgan har qanday uslubda tayyorlanishi mumkin va xonalar siz xohlagan tarzda tartibga solinishi va bezatilgan bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan, freymvork yangi uy sotib olishga o'xshaydi. Uy allaqachon qurilgan, shuning uchun siz qurilish muammolari haqida qayg'urmasligingiz kerak, lekin siz xonalarni qanday tartibga solishni tanlay olmaysiz.

Aksariyat dasturchilar o'zlarining kareralari davomida yuzlab freymvorklar va kutubxonalardan foydalanadilar, ammo bu savolga ular javob berishadi: "Freymvork shunchaki kutubxonalar to'plamidir", lekin bu mutlaqo to'g'ri emas.

Ilovalarni ishlab chiqishda kutubxonalar va freymvorklar asosiy rol o'ynaydi. Aslida, kutubxona ham, freymvork ham murakkab muammolarni hal qilish uchun dasturchilar tomonidan yozilgan qayta foydalanish mumkin bo'lgan kod qismlaridir. Ikki atamani ajratib turadigan narsa

"Kim kimga qo'ng'iroq qilmoqda". Kutubxonalar va freymvorklar qanday farq qilishini batafsil ko'rib chiqishdan oldin, keling, ikkala atamani ham batafsil ko'rib chiqaylik[1].

Tahlil va natijalar. Dasturchilar Freymvork kabi ularga yordam beradigan vositalarga ega bo'lsa, noldan boshlashlari shart emas. Freymvork dasturchilar muayyan platformalar uchun ilovalarni yaratadigan poydevorga o'xshaydi. U umumiy vazifalarni bajarish uchun yozilgan qayta foydalanish mumkin bo'lgan kod qismlarini o'z ichiga oladi va maxsus funktsionallik uchun dasturchi tomonidan taqdim etilgan koddan foydalanadi. freymvork dasturchilar ilovalarni yaratishda foydalanishi mumkin bo'lgan aniqlangan va aniqlanmagan obyektlar va funktsiyalarni o'z ichiga olishi mumkin. Shunday qilib, tuzilma atrofida mavjud koddan foydalangan holda tizimga muhim funktsiyalarni qo'shishimiz mumkin[2].


Frameworklardan foydalanish. Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish murakkab jarayondir. Bu kodlash, loyihalash, sinovdan o'tkazish va hokazo kabi ko'plab iboralarni o'z ichiga oladi. Kodlash haqida gap ketganda, dasturchilar sintaksis, deklaratsiyalar, bayonotlar, istisnalar va boshqalar haqida tashvishlanishlari kerak. Dasturiy ta'minot freymvorklar dasturchilar dasturiy ta'minotni ishlab chiqish jarayonining to'liq yoki ko'p qismini boshqarishi mumkin bo'lgan umumiy platformani taqdim etish orqali ishlab chiqishni osonlashtiradi[1].

Kutubxona - bu vazifalarni soddalashtirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan oldindan yozilgan kodlar to'plami. Kutubxona atamasi shunchaki qayta-qayta ishlatiladigan kodlar to'plamini anglatadi. Bu mohiyatan dasturchilar o'z ishini soddalashtirish va rivojlanish jarayonini tezlashtirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan oldindan belgilangan funksiyalar va sinflar to'plamidir. Shunday qilib, dasturchilar muayyan funktsiyalarni bajarish uchun kod yozishlari shart emas, chunki kutubxona allaqachon ushbu funktsiyalar uchun kodni o'z ichiga oladi. Ko'pgina dasturlash tillarida standart kutubxonalar mavjud, ammo dasturchilar o'zlarining shaxsiy kutubxonalarini ham yaratishlari mumkin[11].

Odatda, aksariyat kutubxonalar katta hajmga ega emas. Umuman olganda, kutubxonalar qatorlar, rozetkalar va IO va boshqalar kabi tor doiralarga qaratilgan, shuning uchun ularning API'lari ham kichik va kamroq bog'liqlikni talab qiladi.

Bu savolga faqat bitta javob bor, u allaqachon boshqa biron (yoki boshqa dasturchi) tomonidan yozilgan kodni qayta ishlatishdir. Dasturchilar kutubxonada allaqachon yozilgan funktsiyalar uchun kod yozishdan qochishlari mumkin. Natijada ko'proq samaradorlik va kodlash uchun kamroq vaqt sarflanadi. Boshqa odamlar ham undan foydalanish ehtimoli ko'proq bo'lganligi sababli, siz ulardan har qanday xatolarni topish va tuzatishdan foyda ko'rasiz.

Asosiy farqlar. Oddiy qilib aytganda, "Boshqaruvning inversiyasi" (IoC) kutubxona va freymvork o'rtasidagi farqni tavsiflaydi. Qaysidir ma'noda siz freymvorkni kutubxonalar to'plami deb o'ylashingiz mumkin, ammo u butunlay boshqacha. Kutubxonadan foydalanib, siz dastur oqimini boshqarasiz. Kutubxonani xohlagan vaqtda va xohlagan joyda chaqirish mumkin. Buning aksincha, siz freymvorkdan foydalanganda, oqim freymvork tomonidan boshqariladi. Ramka sizga kodingizni qaerga qo'yishni ko'rsatib beradi, lekin kerak bo'lganda kodingizni chaqiradi. Oddiy qilib aytganda, bizning kodimiz kutubxona kodini chaqiradi, ammo freymvorkda bu bizning kodimizni quyidagi diagrammada ko'rsatilganidek chaqiradigan freymvork kodi 1-rasm[1].



1-rasm. Freymvork kodi.

Djangoda web-sayt yaratish. Djangodan asosan web saytlarning backend ya'ni asosiy logikasini ishlatib beruchi qismini yaratishda foydalaniladi. Django ni o'rnatish uchun, kompyuterga birinchi navbatda python o'rnatilgan bo'lishi kerak. Shundan so'ng quyidagi buyruq orqali django o'rnatiladi[2]:

`pip install Django`. Shundan so'ng, bemaolol yangi loyiha yaratishni boshlash mumkin. Buning uchun, quyidagi buyruqdan foydalanamiz:

`django-admin startproject` proyektni yaratish uchun. Shunda proyektni yaratish avtomatik tarzda yaratiladi. Uning ichida `manage.py` fayli va proyektni yaratish uchun deb nomlangan yana bitta papka hosil bo'ladi. Aynan `manage.py` fayli django bilan

ishlashda eng muhim fayl hisoblanadi. U orqali eng muhim buyruqlar bajariladi. Masalan, yaratgan projektimizni ishga tushirib ko'raylik. Buning uchun:

```

cd proyektni-yaratish
python manage.py runserver
  
```

Xulosa va takliflar. Dasturchilar komponentlar, sinflar va usullardan foydalangan holda muayyan vazifalarni bajarish uchun kutubxonalarni chaqirishlari mumkin. Biroq, freymvork umumiy vazifalarni bajarish uchun kodni taqdim etadi va maxsus funksiyalar uchun dasturchi tomonidan taqdim etilgan koddan foydalanadi[2].

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev H. Django. Разработка веб-приложений на. образование наука и инновационные идеи в мире. 2023. Page 458. newjournal.org часть 9 .
2. Shukurov Akmal O'ktamovich1 , Jo'rayev Ilyos Baxromovich2. Python dasturlash tilining Django muhitida web dastur yaratish. "Amaliy va ijtimoiy fanlarning boshqa fanlar bilan integratsiyasi: dolzarb muammolar, yangi yondashuvlar, innovatsiyalar va istiqbollar" konferensiyasi 2023. 43-47 b.
3. Ergashev Nuriddin Gayratovich, Shukurov Akmal Uktamovich, Jabborov Elbek Erkin o'g'li. Using the capabilities of modern programming languages in solving problems of technical specialties. *academicia An International Multidisciplinary Research Journal*. 2019. 686-696. <https://saarj.com/>
4. Shukurov A. Its features and use in the educational process of web-technologies Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические, 2021. <https://www.internauka.org/>
5. Shukurov A.U. Didactic opportunities for the introduction of cloud technologies // *Electronic journal of actual problems of modern science, education and training*. № 10/2. Урганч, 2021. 29-35. <http://khorezmscience.uz>
6. Uktamovich S.A. Stages of development of cloud technology in education *Eurasian Scientific Herald* 5, 48-51. 2022. <http://www.geniusjournals.org/>
7. SA Uktamovich. The role of digital technologies in the development of the new Uzbekistan. *Models and methods in modern science* 1 (18), 35-38.
8. Nurbekov A., U Aksoy, H Muminjanov, A Shukurov. Organic agriculture in Uzbekistan: status, practices and prospects. Food and Agriculture Organization of the United Nations, Tashkent.
9. Nurbekov A., U Aksoy, H Muminjanov, A Khujabekov, R Nurbekova, A Shukurov. Organic agriculture in Uzbekistan. XXX International Horticultural Congress IHC2018: II International Symposium.
10. <https://zavod-it.ru/blog/useful/history-of-django-framework/>.



UDK: 378.125.

To'liqinjon ESHQUVVATOV,
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali,
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, sport kafedrasini mudiri, (PhD)
E-mail: t.eshquvvatov@mail.ru

Nukus innovatsion instituti dotsenti Dilnoza Karshiyeva Utkirjonovning taqrizi asosida

OLIIY TA'LIM MUASSASALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA NIZOLAR PROFILAKTIKASIGA ASOSLANGAN TASHKILYIY MODEL

Аннотация

Maqolada pedagogik jarayondagi innovatsion nizolar, Oliy ta'lim muassasalarining innovatsion rivojlantirish, OTMda innovatsion nizolarning mohiyati, ularning bevosita sabablari va ularning tahlili, innovatsion nizolarning tashkiliy va boshqaruv tipidagi ko'rinishlari, innovatsion rivojlanishida nizolarning subyektiv muhiti, ularni oldini olish san'atini o'rganishlarni o'z ichiga olgan bo'lib, ular oliy maktabga psixologik xizmat ko'rsatish maqsadida bajarilgan va bo'lajak pedagoglarga metodik yordam qiladi deb o'ylaymiz

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim tizimi, innovatsiya, innovatsion rivojlantirish, innovatsion rivojlanish nizolari, nizolar profilaktikasi

ОРГАНИЗАЦИОННАЯ МОДЕЛЬ, ОСНОВАННАЯ НА ПРОФИЛАКТИКЕ КОНФЛИКТОВ В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация

В статье инновационные конфликты в педагогическом процессе, инновационное развитие вузов, сущность инновационных конфликтов в вузах, их непосредственные причины и их анализ, организационно-управленческие виды инновационных конфликтов, субъективная среда конфликтов в инновационном развитии, искусство их профилактики включает в себя исследования, они проводились с целью оказания психологических услуг высшей школе и мы думаем, что они будут методично помогать будущим педагогам.

Ключевые слова: Система высшего образования, инновации, инновационное развитие, конфликты инновационного развития, предотвращение конфликтов.

ORGANIZATIONAL MODEL BASED ON CONFLICT PREVENTION IN THE INNOVATIVE DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

In the article, innovative conflicts in the pedagogical process, innovative development of universities, the essence of innovative conflicts in universities, their immediate causes and their analysis, organizational and managerial types of innovative conflicts, the subjective environment of conflicts in innovative development, the art of their prevention includes research, they were carried out with the purpose of providing psychological services to higher schools and we think that they will methodically help future teachers

Key word: Higher education system, innovation, innovative development, conflicts of innovative development, conflict prevention.

Kirish. Jahonda ta'limning nafaqat intellektuallik darajasini namoyon etishi, shu bilan birga shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi ijtimoiy madaniyat omili ekanligidan kelib chiqib, ta'lim jarayonlarini nizolardan xoli tarzda tashkil etish va olib borish, ta'lim oluvchilarning mutaxassislik bo'yicha tegishli kompetensiyalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Bugungi kunda innovatsiyani ta'lim jarayonlarining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlariga integratsiyalash, jumladan, oliy ta'lim muassasalarini innovatsion tendensiyalar asosida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Oliy ta'lim tizimi, boshqa ta'lim muassasalariga qaraganda, vazifalari jihatidan, shaxslararo va guruhlararo munosabatlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ushbu munosabatlarning murakkabligi va noaniqligi pedagogik, ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy, huquqiy va hayotning boshqa ko'plab sohalarini qamrab olishida ko'rinadi. Bunday xilma-xillik manfaatlar, munosabatlar, fikrlar, pozitsiyalar va insonning ehtiyojlari to'qnashuvini yuzaga keltirishi tabiiydir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O.A.Danilevichning fikricha, oliy ta'limning asosiy vazifasi – nostandart muammolarni hal etish, ustuvor yo'nalishlarni aniqlash, yangiliklarni idrok etish va to'g'ri qaror qabul qilishga tayyor bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash sifati darajasini oshirishdan iborat bo'lib, innovatsion universitetda ta'lim tizimi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy iqtisodiyot uchun ochiq bo'lishi kerak, o'quv jarayonini texnologik jihozlash ilg'or fan darajasiga mos kelishi zarur [4; 134-140 b].

O.Yu.Gordashnikova oliy ta'lim muassasalarining innovatsion rivojlanishini baholash va tahlil qilishni tashkil etish bo'yicha tavsiyalarida tegishli mezonlarning qiyosiy ko'rsatkichlarini uzluksizlik, ishonchlilik, obyektivlik, optimallik va to'liqlikni ta'minlovchi tamoyillar asosida tanlash lozimligiga e'tibor qaratadi [2].

T.P.Gorelovaning fikriga ko'ra universitetning innovatsion salohiyati ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: ilmiy-innovatsion faoliyat samaradorligi; o'qitish holati; universitetning intellektual salohiyati; moddiy va axborot bazasining mavjudligi [3].

Adabiyotlarda ta'lim innovatsiyalari sifatida o'qituvchi ishining samaradorligini oshirish, konstruktiv

yondashuv, bilimlarni samarali boshqarish, o'qituvchi ishiga ko'maklashish, onlayn o'qitish, noformal uslub, ijtimoiy media, ta'limiy o'yinlar, pedagogik mahorat, Hemis platformasi, kridet-modul tizimida o'qitish, mobil rejimida o'qitish kabilar keltiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarini innovatsion infratuzilmasini tashkil etish bo'yicha izlanishlar olib borgan A.A.Engovatovanning tadqiqotlarida Forsayd markazi, loyihalash faoliyatini boshqarish, intellektual mulkni boshqarish, marketing, biznes inkubator, uskunalar va prototiplardan jamoaviy foydalanish, texnopark, biznes maktabi, moliyalashtirish fondi yo'nalishlariga innovatsion rivojlanish elementlari sifatida qaraladi [8].

Oliy ta'lim muassasalarining innovatsion rivojlantirishda ichki va tashqi muhitni chuqur o'rganish qaratilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish, tashkiliy barqarorlikni ta'minlash va innovatsion jarayonlarning zarur dinamikasiga erishish, barcha subyektlarining ichki tashkiliy

integratsiyasiga asoslanish, innovatsion infratuzilma va axborot tizimlari muhim rol o'ynaydi [1].

Ta'lim sifati monitoringiga innovatsiyalarni joriy etishda mavjud holatni tezkor baholash va natijalarni puxta tahlil qilish orqali taraqqiyotning kelgusi yo'nalishlarini asosli ravishda belgilash nazarda tutiladi.

Yuqoridagilar oliy ta'lim muassasalarini innovatsion rivojlantirish modeli chuqur integratsiyalashuvni taqozo etishi, ushbu model ta'lim va innovatsion faoliyatni sifatini yaxshilash asosida real raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini amalga oshirishi nazarda tutilganligidan dalolat beradi. Oliy ta'lim muassasalarining innovatsiyaga asoslangan modellari milliy iqtisodiyotlarni rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tajriba-sinov jarayonida nizoli vaziyatlar profilaktikasining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga oid holatlarga e'tibor qarotildi. Jumladan, subyektlar o'rtasida nizolarning yuzaga kelishi sabablarini o'rganish maqsadida talabalar, professor

-o'qituvchilar hamda Universitet boshqaruvi (rektorat) xodimlari o'rtasida maxsus anketa-so'rovnomalari o'tkazildi.

Quyidagi jadvalda "OTM innovatsiyalarni qo'llash jarayonida nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishi sabablarini o'rganish" yunalish buyicha tajriba-sinov ishlarining dastlabki aniqlovchi bosqichida o'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan respondentlar soni to'g'risida ma'lumot aks ettirilgan (1-jadval).

OTM professor-o'qituvlar va talabalariga beriladigan anketa so'rovnomasida quyidagi savollar o'rin olgan: OTM innovatsiyalarni qo'llash jarayonida nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishi sabablarini o'rganish uchun anketa-so'rovnomasi ishtirokchilar soni 136 nafar

Indikatorlar	Javoblar (ijobiy, xa)	%da
1. Sizningcha oliy talim muassasalarida ta'limga innovatsiyalarni tadbir etish bilan bog'liq nizolariga sabab nima?		
-innovatsiyalarning tushunarsizligi yoki etarli darajada tushuntirib bera olmaslik (instruksiya (yo'riqnomaga) bilan bog'liq)	73	53,6%
-innovatsiyalar mazmunining talim jarayoniga mos emasligi	45	33%
-innovatsiyalar qo'llanishni tashkiliy jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi	76	55,8%
-talabalarining innovatsiyalarni qabul qilishni istamasligi	32	23,5%
-moddiy texnik baza bilan bog'liq muammolar	64	59,4%
-innovatsiyalarni qabul qilish uchun psixologik tayyorgarlikning yo'qligi;	41	30,1 %
-innovatsiyalarning ko'pchiligini "yuqoridan" joylashtirilishi, yondashuvning rasmiyligi, -innovatsiyalarning mazmunini zaif ishlab chiqilganligi;	34	25%
-umuman OTM iga tadbir etilgan innovatsiyalar samaradorligi sizni qoniqtiradimi?	64	47%
-o'qituvchilarning "dogma"ligi ya'ni ta'limdagi innovatsiyalarni qabul qilishga tayyor emasligi	47	34,5%
-universitet rahbariyati va xodimlari o'rtasida o'zaro tushunishning yo'qligi kabi.	24	17,6%

Mazkur tadqiqot yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan yeksperimentlar natijalari, OTM subektlari (talabalar, professor-o'qituvchilar, rahbar xodimlar)ning o'zoro munosabatlari va faoliyatini o'rganish, o'rovnomalavr va anketalar o'tkazish maboynida shuni aytish mumkinki, OTMlarda zamonaviy talimni amalga oshirishda maqsadga muvofiq tarzda olib borilgan innovatsiyalarning o'rni juda kattadir.

Ta'lim tizimini isloh qilish, innovatsion rivojlanish talablari oliy ta'lim muassasalaridagi pedagogik munosabatlarda turli nizoli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini ham e'tiborga olish zarur. Innovatsion rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlar murakkabligi shundaki, uni an'anaviy nizolar xususiyati bilan muvofiqlashtirish qiyin kechadi. Innovatsion rivojlanish nizolarini tahlil qilishda uning vujudga kelish shart-sharoitlari tarkibi alohida o'rin tutadi.

Bu holatni texnologik o'zgarishlar va yangilanishlar sur'ati juda yuqori bo'lganligi sababli avvalgi o'ziga xos bilim va ko'nikmalar ancha tez eskirib qolayotganligi bilan izohlash mumkin. Ta'limdagi an'anaviy yondashuvlar va yangi texnologiyalar ta'siri ostida o'z tabiatini o'zgartirayotgan funksiyalarni amalga oshirishda subyektlar nafaqat an'anaviy bilimlar, balki yuqori murakkab uskunalar va tahlil usullari, texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerakligi talabi ortib boradi.


Olimlarning fikricha, "o'qituvchini zamonaviy tayyorlash vazifasining innovatsion yo'naltirilganligi" unga o'qitish, rivojlantirish va tarbiyalash funksiyalarining amalda qo'llanilishini ifodalovchi integrativ ta'lim sifatida qaralishini taqozo etadi.

Zamonaviy dunyoda ta'lim olish va o'qitish sohasidagi rivojlanish har qachongidan ham keskin ravishda o'sib borayotgani sababli yangiliklarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu esa, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida innovatsiyalarni joriy etishga bo'lgan qiziqishning kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Mutaxassislar innovatsion rivojlanish nizolarining yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo'lishini ta'kidlaydilar [7]:

- tajribaning yetishmasligi va innovatsiyalarni amalga oshirishda muayyan oqibatlarini hisobga olinmasligi;
- innovatsiyalarni joriy etishdan oldin obyektiv usullar yordamida innovatsiyalarni amalga oshirish samaradorligini baholay olmaslik;
- innovatsiyalarning ko'pchiligini "yuqoridan" joylashtirilishi, yondashuvning rasmiyligi, innovatsiyalarning mazmunini zaif ishlab chiqilganligi;
- innovatsiyalarni qabul qilish uchun fikrlash va psixologik tayyorgarlikning konservativligi;
- universitet rahbariyati va xodimlari o'rtasida o'zaro tushunishning yo'qligi kabi.

Quyida biz oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishning nizolar profilaktikasiga asoslangan tashkiliy modelini ishlab chiqdik.



1-rasm. Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishning nizolar profilaktikasiga asoslangan tashkiliy modeli

Ushbu ishlab chiqilgan nizo profilaktikasini amalga oshirishning tashkiliy modeli oliy ta'lim muassasalarini innovatsion rivojlanish natijalariga bo'lgan ishonchli harakatlar majmuini yuzaga keltirishi ko'zda tutilgan.

Xulosa va takliflar. Innovatsion rivojlantirish natijalari amalga oshirilgan ishlarning yakuniy majmui hisoblanish bilan bir qatorda jarayon ishtirokchilarining faoliyatiga nisbatan konstruktiv munosabatlarni bildirish xotimasi ham hisoblanadi. Natijalarni e'lon qilishda tabiiyki, ortiqcha bosim qilmaslik, vaziyatga nisbatan real, shu bilan birgalikda ehtiyotkorana ish ko'rish talab etiladi. Uning o'ziga xos yopiq, ogohlantiruvchi, sub'eklar faoliyatini davom ettirishga yo'naltirilgan istiqbolli belgilash ruhidagi usullari mavjud bo'lib, nizolarni oldini olishga qaratilgan qarorlarni qabul qilishda amaliy natijalarni belgilaydi. Har qanday natija tayyorlangan xulosa va ma'lumotlarga nisbatan innovatsion rivojlantirish jarayoni ishtirokchilari tomonidan rad etilishi, qiyinchilik bilan qabul qilinishi, "qo'shilmaslik" hamda qabul qilish qabi nuqtai nazardan iborat bo'ladi. Mazkur holatda oliy ta'lim muassasasi rahbariyati, innovatorlar natijalarga bildiriladigan munosabatlarning nizolarni keltirib chiqadigan omillarni yuzaga keltirib chiqaradigan vaziyatlarga avvaldan tayyor bo'lishlari lozim.

Bizningcha, oliy ta'limda innovatsion faoliyatning holati va istiqbollari katta darajada kadrlarning innovatsion kompetentligiga hamda innovatsion jarayonda ishtirok etishga tayyorligiga bog'liq. Innovatsion rivojlanishning ziddiyatlari innovatsion xulq-atvorning turli modellari, innovatsion tayyorgarlikning turlari, innovatsion jarayonlarda yuzaga keladigan turli to'qnashuv tufayli yuzaga keladi.

Shunday qilib, oliy ta'limda integratsiya jarayoni sifatida innovatsiya jarayonini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlar sifatida:

- 1) oliy ta'lim muassasalari subyektlarining innovatsiyalar va innovatsion qadriyatlariga munosabati;
- 2) innovatsiyalarni rejalashtirish, tahlil qilish va nazorat;

- 3) subyektlarning innovatsion faoliyati darajasi;
- 4) yangiliklarni ishlab chiqish va qabul qilishga tayyorlik;

5) oliy ta'lim muassasasi rahbariyati, innovator va subyektlarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini ko'rsatib o'tamiz.

Bizning fikrimizcha, professor-o'qituvchilar va mutaxassislarning o'z kasbiy mahoratini, mutaxassisliklariga oid malakalarini doimiy ravishda kengaytirib borish bilan bir qatorda nizolarni oldini olishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik treninglar, muloqot va munozara treninglari, psixologlar hamda konfliktoglar bilan davra suhbatlari tashkil etish, talabalarni innovatsiyalar yaratish hamda innovatsion rivojlanish davrida yuzaga keladigan turli ziddiyat va to'qnashuvlarning oldini olishga qaratilgan profilaktikaga tayyorlashda o'z samarasini beradi.

Innovatsiyalarni jamoaviy qo'llab-quvvatlashga erishish uchun, avvalo, pedagog xodimlar va talabalarning yangiliklarga bo'lgan ijobiy munosabatlarni shakllantirish, ularga xissiy ta'sir ko'rsatish va motivatsiyalarni samarali natijalarga nisbatan yo'naltirish zaruratini belgilaydi. Bu esa birinchi navbatda innovatsiyalarning ishtirokchilari sanalgan subyektlarning oliy ta'lim muassasasini umumiy rivojlantirish maqsadlari doirasida birlashtirish, muassasa rahbariyatining nizolarni boshqarish malakalarini rivojlanishi, ish jarayonida muzokaralar olib borish metodlari, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish jarayonida professor-o'qituvchilar va talabalarning yangiliklarga bo'lgan qiziqishlarini hisobga olish hamda innovatsiyalarni boshqarishga vakolatli guruhlariga bevosita ko'mak berish kabi bir qator vazifalarning yechimini topish imkonini beradi [6, 236-b].

Demak, innovatsion rivojlanish muammolari ko'p sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. Sabablarning xarakteri ham turlicha bo'lishi mumkin va tashkilotchilik madaniyati, tashkilotdagi ichki iqlim hamda boshqaruv uslubi oliy ta'lim muassasasining innovatsion rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Белокрылова О. С., Погосян Н. М. Инновационное развитие вузов: организационно-экономический подход // JOURNAL OF ECONOMIC REGULATION (Вопросы регулирования экономики). -Ростов-на-Дону. 2015. Том 6, №2. С.6-17.
2. Гордашникова О.Ю. Инновационное развитие вуза как эффективная форма повышения качества образования //Журнал. Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета. – Саратов, 2017. – с.60-64.
3. Горелова Т.П. Развитие инновационной образовательной деятельности вуза на современном этапе // Университетский комплекс как региональный центр образования, науки и культуры: Сборник по материалам Всероссийская научно-методическая конференция (с международным участием). – Оренбург.: 2020. – с.38-39.
4. Данилевич О. А. Стратегия инновационного развития вуза // Наукові записки. Серія “Економіка”. Киев.:2010. Випуск 14. – с.134-140.
5. Зеленков, М. Ю. Социальная конфликтология (базовый курс) – М.: Юридический институт МИИТа, 2011 – 272 с.
6. Сюй Цзин-Ли Управление инновационными конфликтами в Российский организациях., Автореф. дис. канд. соц. наук. – М.: 2010. стр.19
7. Тарабаева В.Б. Организационные механизмы управления конфликтами инновационного развития в вузах: учебное пособие. – Белгород: Изд-во БелГУ, 2010. – 249 с.
8. Энговатова А. А. Модели организации инновационной инфраструктуры российских вузов. Автореф. дис. ... кан. экон. наук. – М., 2013. –26с.
9. Eshquvvatov T.E. Konfliktlar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. –Samarqand,- 2020. ISBN 978-9943-5943-5-7. 204 b.
10. Eshquvvatov T.E. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni nizolari profilaktikasi tizimini takomilashtirish (Pedagogik hamkorlik asosida).//SamDU axborotnomasi. -Samarqand, 2021, 2-son. B.105-112.



UDK:7A.416.11.

Jamshid ESHPULATOV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b.

TVChDPI Jismoniy tarbiya va sport kafedrasini mudiri dotsent, PhD A.Abdulaxatov taqrizi asosida

YENGIL ATLETIKA TURLARIGA O'QUVCHI YOSHLARNI SARALASHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Yosh avlodni sog'lom va barkamol inson qilib tarbiyalashda "bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi" ning tashkil yetilishi katta amaliy ahamiyatga ega. Bugungi kunda mamlakatimizda 2 millionga yaqin bola sportning 30 dan ortiq turi bilan shug'ullanmoqda. Ular sog'lom, kuchli, jasur va qat'iyatli bo'lishadi. Bolalar sportini rivojlantirish mamlakatimiz yoshlarining jismoniy va ma'naviy yetuklikka yerishishida muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Olimpiya dasturiga kiritilgan yengil atletika sport turi mamlakatimizda tobora rivojlanib, o'g'il-qizlar o'rtasida ommalashib bormoqda.

Kalit so'zlar: Bolalar va o'smirlar sport maktablari, yengil atletika mashg'ulotlarini tashkil etish, tayyorlov bosqichiga qisqa masofaga yuguruvchilarni saralash.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОТБОРА ШКОЛЬНИКОВ ПО ВИДАМ ЛЕГКОЙ АТЛЕТИКИ

Аннотация

Оздание "Фонда развития детского спорта" имеет важное практическое значение для воспитания подрастающего поколения здоровым и гармоничным человеком. На сегодняшний день в нашей стране около 2 миллионов детей занимаются более 30 видами спорта. Они становятся здоровыми, сильными, смелыми и настойчивыми. Развитие детского спорта служит важным инструментом в достижении физической и духовной зрелости молодежи нашей страны. Легкоатлетический вид спорта, вошедший в олимпийскую программу, в нашей стране все более развивается и становится популярным среди мальчиков и девочек.

Ключевые слова: Детские и подростковые спортивные школы, Организация занятий легкой атлетикой, отбор бегунов на короткие дистанции на подготовительный этап.

PEDAGOGICAL TECHNOLOGY OF SELECTION OF SCHOOLCHILDREN BY TYPES OF ATHLETICS

Annotation

The creation of the "Children's Sports Development Fund" is of great practical importance for the upbringing of the younger generation as a healthy and harmonious person. Today, about 2 million children in our country are engaged in more than 30 sports. They become healthy, strong, brave and persistent. The development of children's sports serves as an important tool in achieving physical and spiritual maturity of the youth of our country. The athletics sport included in the Olympic program is developing more and more in our country and is becoming popular among boys and girls.

Key words: Children's and adolescent sports schools, Organization of athletics classes, selection of short-distance runners for the preparatory stage.

Kirish. Respublikamiz istiqloqligiga erishgandan so'ng yurtimizda jismoniy tarbiya va sportga davlat siyosati miqiyosida e'tibor qaratilishi ayniqsa "Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi" ni tashkil etilishi yosh o'sib kelayotgan avlodni sog'lom va komil inson qilib voyaga yetkazishda muxim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot dolzarbligi. Bugungi kunda yurtimizdagi 225 dan ortiq BO'SM va 54 ta dan ziyod ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar sport maktablarining yengil atletika seksiyalarida, respublikamizda 9 ta va oliy sport mahorati maktablari, 15 ta olimpiya zaxiralari kollejlari, Ularga 400 nafarga yaqin yuqori malakali murabbiylar yengil atletika sirlarini puxta o'rgatmoqda. Ammo ularning hammasi ham yengil atletika sport turlariga iqtidorli emasligini tadqiqot jarayonida aniqladik. Chunki o'quvchi yoshlarni yengil atletika sport turlariga o'ziga xos kamchiliklarga yo'l qo'rganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Murabbiylar guruhlarini shakillantirishda umumtalim maktabi o'quvchisining tavsiyalari asosida ko'p hollarda guruhlarini shakillantiradi. Shuning uchun ham guruhlar 2-3 oy ichida tarqalib ketishlari kuzatilsa, ikkinchidan saralash mezonlariga etibor qaratilmaydi. 1 yoki 2 ta ko'rsatgichga asoslanib guruh o'akillanmaydi bu esa sportchilarni samarali tayyorlashga salbiy ta'sir etadi. Natijada 2-3 yil o'quvchi yoshlar o'zini qimmatli vaqtini bekorga ketkazadi. Shuning uchun saralash

mezonlarini ishlab chiqish va shu mezonlar asosida o'quvchilarni guruhlariga saralab olish yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimini samaradorligini oshiradi. Shu boisdan, biz tanlagan "Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichida yengil atletika turlariga o'quvchi yoshlarni saralashning pedagogik texnologiyasi" mavzusidagi bajarilgan dissertatsiya ishi sportchilarni saralab olishdagi dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Yengil atletika hayotiy zarur va keng tarqalgan mashqlarni – yurish, yugurish, sakrash va uloqtirish mashqlarini birlashtirib, eng ommaviy sport turi hisoblanadi. Yengil atletika mashqlarining aksariyati umumiy omma – eng kichik yoshdagi bolalardan boshlab to kattalargacha bajara oladigan va kundalik turmushda uchraydigan mashqlardan iborat. Yengil atletika bilan yil davomida shug'ullansa bo'ladi. Shu sababga ko'ra yengil atletika mashqlari (yurish, yugurish, sakrash va uloqtirish) «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlar majmuasining katta qismini tashkil etadi. Yengil atletikaning «sport malikasi» deb atalishi bejiz emas. U respublika, xalqaro musobaqalar, Olimpiya o'yinlari dasturlaridan munosib o'rin egallagan hamda o'ynaladigan medallar majmuasi va soniga ko'ra eng ko'p hisoblanadi¹⁹. Jismoniy tarbiya instituti, universitetlar va pedagogik institutlarning jismoniy tarbiya fakultetlari uchun mo'ljallangan o'quv dasturlarida yengil atletika asosiy o'quv fani bo'lib,

sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha), kasbiy ta'lim (faoliyat turlari bo'yicha), sport psixologiyasi yo'nalishlarida bakalavrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Yengil atletika musobaqa mashqlarining turli-tumanligi bilan tavsiflanadi va ularni bajarishning turli usullari hamda variantlari mavjud. Yengil atletika mashqlarini aniq tasnifga tushirish uchun uni besh bo'limga ajratib (yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, ko'pkurash) tavsiflash maqsadga muvofiqdir.

Ular, o'z navbatida, turlarga, turning xillariga hamda variantlar va masofalarga ajratiladi. Hozirgi vaqtda yengil atletikaning 24 turi erkaklar uchun, 22 turi ayollar uchun Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan.

Qotibiyat hakamlari turlar bo'yicha bayonnomalarni qayta ishlab chiqadilar, keyingi musobaqa davralarida qatnashish uchun qatnashchilar tarkibini aniqlaydilar, qatnashchilarning o'rinlarini taqsimlaydilar, ochkolar jadvaliga asosan qatnashchilarning natijalarini baholaydilar, jamoaviy kurashda ochkolarni hisoblab boradilar, maxsus devorchalarga axborotlar iladilar, musobaqalashayotgan jamoalar o'rinlarini aniqlaydilar, mukofotlash bo'limiga qatnashchilar, g'oliblar va sovrindorlar to'g'risida, ularning murabbiylari haqida barcha ma'dumotlarni beradilar, qatnashchilar ko'rsatgan natijalarning razryadlarini baholaydilar.

Turlardagi kotiblar musobaqalar bayonnomasiga qatnashchilar ko'rsatgan natijalarini yozib boradilar (uzunlikka sakrashlar, uch hatlab sakrash, uloqtirishlarning hamma turlari), yakuniy natijani aniqlaydilar va bayonnomalarni kotibiyatga topshiradilar. Marradagi kotib bayonnomaga qatnashchilarning yugurishlarda marraga yetib kelish tartibini va uning vaqtini yozadi. Yakuniy bosqich. Bosh hakam jamoalar vakillari ishtirokida hakamlar hay'ati bilan yakuniy kengash o'tkazadi va bu yerda musobaqalar natijalari uzil-kesil tasdiqlanadi; musobaqalar to'g'risida hisobot tuzadi, bu yerda qatnashchilar soni, ishtirokchilar malakasi, jamoalarning egallagan o'rinlari, musobaqalar g'oliblari va sovrindorlari ko'rsatiladi; hakamlar brigadasi va hay'ati ishini baholaydi. 159 Bosh kotib hakamlar hay'ati kengashida qatnashadi, musobaqalarning barcha hujjatlarini va hisobot uchun

materiallarni tayyorlaydi, bosh hakam bilan birga bo'lib o'tgan musobaqalar to'g'risida matbuot uchun axborot tayyorlaydi

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda sport turlari bilan shug'ullanuvchi yoshlarning soni kun sayin oshib bormoqda. Albatta bu yurtimizda yo'lga qo'yilgan isloxtarlarni to'g'riligidan dalolatdir. Hozirgi yosh sportchilarni ichidan iqtidorli istiqboli bor sportchilarni izlab topish va saralash bo'yicha ko'plab mutaxassislar ish olib borishgan ulardan V.B.Zelichenik, V.G.Verxoshanskiy, M.N.Umarov, F.A.Kerimov, K.T.Shakirjanova, O.V.Goncharovalar o'z faoliyatini olib bormoqdalar.

Tadqiqotning maqsadi. Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichida yengil atletika turlariga pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchi yoshlarni saralash samaradorligini oshirish.

Tadqiqotning vazifalari. Mavzuning maqsadidan kelib chiqib oldimizga quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

Mavzuga oid ilmiy uslubiy adabiyotlarni o'rganish, taxlil etish va umumlashtirish.

Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichida yengil atletika turlariga saralash mezonlarini o'rganish.

O'quvchilarni yoshi bo'yicha jismoniy rivojlanganligi, tayyorgarligi darajasi, funksional xolatlarini aniqlash.

Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlariga saralash mavzularini yoshi va tayyorgarlik darajasi bo'yicha ishlab chiqish va pedagogik tajribada samaradorligini aniqlash.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqotda biz tomondan tashkil etilgan IAAFning qiziqarli o'yin va musobaqalari maktab o'quvchilarini tadqiqotga jalb qilishda juda oson bo'ldi, chunki bu maktab o'quvchilari uchun yangilik edi.

Tajribada biz xar bir o'yin va musobaqada qatnashgan o'quvchilarni kuzatdik va natijalarini taxlil qilish orqali ularni yengil atletikani turlariga saraladik va bu o'z samarasini berdi.

Xulosa shuki IAAFning qiziqarli o'yin va musobaqalari maktab o'quvchilarini ushbu dastur

orqali yengil atletika turlariga qiziqish uyg'otishda ularni saralashga, yo'naltirishga va eng asosiysi shu sport turiga yoshligidan mexr qo'yishiga amaliy ahamiyat kasb etishiga va kelajakda ular orasidan jaxon va olimpiada chempionlari chiqishiga ishonamiz.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси “Болалар спортини ривожлантириш” (2002 йил 24 октябр) Маърифат газетаси 2002 йил 31 октябр 2 б.
2. Андрис Е.Р., Қудратов Р.Қ. енгил атлетика. Ўқув қўлланма. Тошкент 1998й.
3. “Ёш спортчиларни жисмоний қобилиятларини ривожлантириш” О.В.Ганчарова. Тошкент 2005 й, 91-100б..
4. Шакиржонова К.“Енгил атлетикачиларнинг жисмоний сифатлари ва тезкорлигини ривожлантириш тамойиллари ва усулияти” (маъруза) Тошкент 2008й.
5. М.У.Тўйчибойев “Спортда биокимёвий назорат” (услубий қўлланма) Т; 2011й.
6. К.Т.Шакиржонова “Енгил атлетикада бошқарув ва педагогик назорат” (маъруза) Т: 2009й.
7. Айрапетьянц Л.Р., Годик М.А. Спортивные игры. – Т.: Ибн Сино, 1991.-160 с.
8. Баскетбол: 100 упражнений и советов для юных игроков: пер с англ. Ник Сортел/-М.: АСТ: Астрел, 2005.- 237 с.
9. Баскетбол. Теория и методика обучения / под общ. ред. Д.С.Нестеровского.-М.: Академия, 2004.-336с.
10. Ганийева Ф.В. Баскетбол ўйинининг расмий қоидалари. –Т., 2007.
11. Краузе Д., Мейер Д. Баскетбол-навыки и упражнение. –М.: АСТ, Астрел, 2006.-216 с.
12. Официальные правила баскетбола ФИБА 2015. Утвержденная ТСБ ФИБА 2015.
13. Портнов Ю.М. Баскетбол.// Учебник для ВУЗов физической культуры.-М: Астрел семь, 1997.-480 с.
14. Расулев А.Т. Баскетбол. // Олий ўқув юртлари учун дарслик. ЎДЖТИ насхрийот боълими, 1998.-278 б.
15. Усмонхоъжайе Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари” Т-2005йил.
16. Қосимов Ч. “Баскетбол” Т 1982.
17. Хўжаев Ф..”Спорт ўйинлари” Т 2007.
18. Изаак В.И. Набиев Т.И. Гандбол в вузе Т., 2005.
19. Павлов Ч, Ф.Абдурахманов, Ж.Акрамов Гандбол Т., 2005.



UDK: 373.24

Gulnora YULDASHEVA,

Urganch davlat universiteti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedra o'qituvchisi

E-mail: gulnora_yuldasheva@gmail.com

Namangan davlat universiteti, "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida dotsenti, Sh.K.Xujamberdiyeva taqrizi asosida

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF THE CONCEPT OF "I" IN PRESCHOOL CHILDREN

Annotation

In this article, the definitions of the "I-Concept", the structure of the "I" emphasized the issue of self-awareness, the general processes of communication of the individual with other people, as well as "I-representations", self-relations.

Key words: "I" Concept i-symbols, Social, Social Environment, childhood, imagination, demand and need, behavior, self-esteem.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПОНЯТИЯ " Я " У ДОШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

В данной статье делается акцент на вопросе определения "Я-концепции", структуры "я" самосознания, общих процессов общения индивида с другими людьми, а также "я-образов", отношений к самому себе.

Ключевые слова: Понятие " я " я-воплощение, социальное, социальная среда, детство, воображение, потребность и потребность, поведение, самооценка.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA "MEN" KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Аннотация

Mazkur maqolada "Men-konsepsiya"si ta'riflari, "Men" ning tuzilishi o'zini o'zi anglash, shaxsning boshqa odamlar bilan muloqot qilishning umumiy jarayonlari hamda "men-timsollari", o'ziga bo'lgan munosabatlar masalasiga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: "Men" konsepsiyasi men-timsollari, ijtimoiy, ijtimoiy muhit, bolalik, tasavvur, talab va ehtiyoj, xulq-atvor, o'zini hurmat qilish.

Kirish. Bugungi kunda "Men" muammosi dolzarb muammolardan biridir. Bolani ijtimoiy dunyo bilan tanishtirish, boshqa odamlar bilan munosabatlarni o'rnatish, aksariyat psixologlarning fikriga ko'ra, o'zi haqida g'oyalarni shakllantirishdan boshlanadi.

Psixologiyada o'z-o'zini anglash psixik hodisa sifatida, shaxsning o'zini faoliyat subyekti sifatida anglashi tushuniladi, buning natijasida shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlari ruhiy "obraz-men" da shakllanadi.

Turli psixologik manbalarda "Men-konsepsiya"si ta'riflari bir - biridan unchalik farq qilmaydi. Zamonaviy "Psixologiya" lug'ati o'z-o'zini konsepsiyasini nisbatan barqaror, ko'proq yoki kamroq ongli, shaxsning o'zi haqidagi noyob g'oyalar tizimi sifatida boshdan kechirgan, uning asosida u boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarini quradigan va o'zi bilan bog'laydigan tushuncha sifatida belgilaydi[1].

O'z-o'zini his qilish va o'z-o'ziga ta'sir o'tkazish o'zlikni anglashning hissiy-emotsional tomoni sifatida namoyon bo'ladi. O'zlikni anglashning hissiy-emotsional tomoni qiziqishlar, istaklar, kayfiyat ularni boshqara bilish kabi komponentlar, tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi o'z hissiyotlari va fikrlari, xatti-harakatlarini boshqarishga, asoslashga, o'z-o'zini tarbiyalashda u yoki bu darajada namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Psixologiyada o'z-o'zini anglash psixik hodisa sifatida, shaxsning o'zini faoliyat subyekti sifatida anglashi tushuniladi, buning natijasida shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlari ruhiy "obraz-men" da shakllanadi.

Turli psixologik manbalarda "Men-konsepsiya"si ta'riflari bir - biridan unchalik farq qilmaydi. Zamonaviy

"Psixologiya" lug'ati o'z-o'zini konsepsiyasini nisbatan barqaror, ko'proq yoki kamroq ongli, shaxsning o'zi haqidagi noyob g'oyalar tizimi sifatida boshdan kechirgan, uning asosida u boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarini quradigan va o'zi bilan bog'laydigan tushuncha sifatida belgilaydi[2].

S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, inson o'zining "men" iga ko'proq darajada ichki tarkibni anglatadi (u o'zlashtirgan tanadan tashqari, organlar dunyoga ta'sir qiluvchi birinchi vositaga aylanadi). Aqliy sohadan odam o'zining "men"iga asosan o'zining qobiliyatlarini va ayniqsa uning fe'l-atvori va temperamentini - uning xulq-atvorini belgilaydigan, unga o'ziga xoslikni beradigan shaxsiy xususiyatlarni nazarda tutadi. "Men-konsepsiyasi" ning mazmuni shaxsning ichki mazmuniga aylanadi, u xulq-atvor va faoliyatda (xarakter, temperament, qobiliyat, motivlar, qiziqishlar, moyillik, ideallar va boshqalar) tashqi ko'rinishga ega bo'ladi. O'z-o'zini anglash Rubinshteynga ko'ra, bu boshlang'ich berilgan narsa emas, bu shaxsiyat rivojlanishining natijasi bo'lib, uning davomida inson nafaqat hayotiy tajribaga ega bo'ladi, balki o'z hayotini bir butun sifatida qayta ko'rib chiqadi. "Men" ning asosiy ichki mazmunini tashkil qiladi[3].

T.G.Volkovning "Психология самосознания" darsligida "Men qiyofasi" vaziyatga bog'liq bo'lgan narsani anglatadi va "Men tushunchasi" o'zini o'zi anglashning barqaror tuzilishi sifatida[4]. - ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

I.S.Kon o'z-o'zini anglashning asosiy funksiyalari - tartibga soluvchi-tashkiliy va ego-himoyaning o'zaro bog'liqligi muammosi bilan bog'liq holda, shaxs o'zini adekvat idrok etishi va baholashi mumkinmi degan savolni ko'taradi. o'z xatti-harakatlarini to'g'ri nazorat qilish uchun

subyekt atrof-muhit haqida ham, uning shaxsiyatining holati va xususiyatlari to'g'risida ham yetarli ma'lumotga ega bo'lishi kerak, ammo ego-himoya funksiyasi asosan o'zini o'zi qadrlash va imidjining barqarorligini saqlashga asoslanadi. "Men", ba'zida ma'lumotni buzadi. Shunga qarab, bir xil mavzu ham adekvat, ham noto'g'ri o'z-o'zini baholashni berishi mumkin.

"Men" ning tuzilishi o'zini o'zi anglash jarayoniga bog'liq bo'lib, shu bilan birga, o'z-o'zini anglash shaxsning boshqa odamlar bilan muloqot qilishning umumiyroq jarayonlariga, subyekt faoliyati jarayonlarini ham qamrab oladi. Binobarin, bu jarayonlarning hammasi uning o'zi haqidagi g'oyalari, "men-timsollari", o'ziga bo'lgan munosabati tuzilishini tahlil qilish natijalari hisoblanadi[5].

Ijtimoiy psixologiya sohasida tadqiqot olib boradigan mutaxassislarining aksariyati o'z tadqiqotlarining asosiy yadrosi sifatida G.Olport, S.Meddi, Uilyam Jeysms kabi psixologlarning nazariyalariga tayanadi[6].

Ulardan biri U.Jeymsning shaxs nazariyasida shaxs "Men"i haqidagi fikrlarini to'liq ifodalay olgan, desak bo'ladi. U.Jeyms shaxs "Men"iga xos ikki aspektni ajratib ko'rsatdi: empirik "Men" va haqiqiy "Men". Empirik "Men" inson nimaniki "o'zimmiki" deb atay olgan barcha narsalar yigindisidir[7]. Uning ichiga:

Material "Men" — o'z ichiga shaxsning tana tuzilishi va shaxsan uning o'zigagina tegishli bo'lgan barcha narsalarini oluvchi "Men" bo'lsa;

Ijtimoiy "Men" — shaxsdagi uning atrofida tan olgan "Men", har bir shaxsni o'zi haqida uning atrofida fikri qiziqtiradi, albatta. Demak, shaxsning atrofida qancha alohida ijtimoiy guruhlar mavjud bo'lsa, uning uchun shuncha ijtimoiy "Men"i mavjud bo'ladi;

Psixik "Men" — individning ijtimoiy muhitda uning kimligini namoyon qilishga yordam beruvchi qobiliyat va iqtidorlarining yig'indisi hisoblanadi;

Haqiqiy yoki axloqiy "Men" — shaxsning o'zini anglashi, o'z-o'ziga baho berishi doirasidan iboratdir. Zamonaviy psixologiyada bunday "Men"ni shaxsning markaziy bo'g'ini sifatida qaraladi va "Men" konsepsiya (bu ilmiy atama fanga amerikalik psixolog K.Rodgers[8] tomonidan kiritilgan) tushunchasi orqali ifodalanadi.

Sotsiolog olimlardan biri Charlz Kuli "Shaxs oynasi"[9] tushunchasini ishlatgan bo'lib, bu orqali shaxs atrofida odamlarning unga nisbatan berayotgan bahosi va fikriga aynan oynaga qaraganday qaraydi, degan fikrni asoslagan. Uning fikricha, har qanday shaxs o'ziga nisbatan atrofda odamlarning berayotgan bahosi va fikrini qabul qilar ekan, o'zini oynaga solgandek bo'ladi. Bu fikrni keyinchalik Jorj Gerbert Mid va Garri Stek Sallivanlar ham rivojlantirgan. J.G.Midning fikricha, shaxsning o'zini anglashi uning ijtimoiy munosabatlarining hosilasi bo'lib, bu jarayonda u o'ziga tashqi tomondan, go'yoki obyektga qaragandek qarashni o'rganadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, bunda atrofda butun bir ijtimoiy guruh yoki jamoa a'zolarining fikri – jamoaviy ustanovka sifatida rol o'ynaydi. Aynan shu holat tufayli biz o'zimizni boshqalar qanday ko'rsa o'shanday ko'rishga o'rganamiz, o'zimizga boshqalar ko'zi bilan qarashga o'rganamiz. Lekin o'sha jamoadan aynan kimningdir fikri nima uchundir bizga ko'proq ta'sir ko'rsatadi, degan savol barchani qiziqtiradi. Bu savolga javob aynan jamoa a'zolarining barchasi ham biz haqimizda bir xilda fikr yuritmasligi va bizga bir xilda baho beravermasliklari bilan bog'liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar

uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni "bolalikning hamrohi" deb atash qabul qilingan. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat subyekt sifatida shakllana boshlaydi. O'yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog psixologlar faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelingan dolzarb mavzudagi muammolardan biridir.

Bolalar o'yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o'yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemali tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi.

Shunday qilib MTT ning pedagogik jarayonda o'yinning tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi. Zero: o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;

o'yin maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar hayotini tashqil etish shaklidir;

o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;

o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;

o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o'yinning mazmuni, tashqil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o'yinining rivojlanish darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatdi.

Bolalar o'yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilish "MTT ta'lim va tarbiya dasturi"da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

O'yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtog'lariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin.


Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yiniga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashqil etilgan bolalar jamoasi zarur bo'ladi. O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, MTMning ta'lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomonlama tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

O'yinda bola organizmiga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o'yin munosib o'rin egallaydi. O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o'yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurini, hayolini, diqqatini, xotirani faollashtirishni talab qiladi, bola masalalarni mustaqil hal qilishga o'rganadi, o'ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o'ylab topadi, o'z bilimlaridan foydalanish va uni so'z bilan ifodalashga o'rganadi.

Tahlil va natijalar. Bundan tashqari atrofda odamlarning fikrini inobatga olishimizda qanday omillar rol o'ynaydi, degan savol ham muhimdir. Dastlabki omil sifatida fikrlarni

qabul qiluvchining yoshi muhim rol o'ynaydi. Masalan, bolalar uchun ota-onasi, tarbiyachisining fikri muhimdir. Katta yoshdagilar uchun esa oila a'zolaridan biri, do'sti, hamkasbi kabilar ta'sir ko'rsatuvchi shaxs bo'lishi mumkin. Bu borada jins xususiyati ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Amerikalik Jon Xoelter amerikalik o'smir — o'quvchilar bilan tadqiqot o'tkazib, shuni aniqlaganki, o'smir qizlar o'zining o'g'il bola tengdoshlarining fikrlarini ko'proq inobatga olar ekan, o'smir o'g'il bolalar esa o'z ota-onalarining fikrlarini ko'proq inobatga olishi aniqlangan.

Shaxs "Men" ining tuzilishiga doir turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ular orasida eng ko'p tarqalgani, o'z ichiga "Men" ning uch tarkibini qamrab oladi: kognitiv (o'zi haqida bilimlar), emotsional (o'z-o'ziga baho) va xulqiy (o'ziga munosabat). Shaxsning o'z-o'zini anglashning tuzilishi haqida boshqa bir yondashuv V.V. Stolinga tegishli bo'lib, u o'z-o'zini anglashni tadqiq etishda eng asosiysi shaxsning oddiy tavsiflari majmuasida emas, balki ma'lum yaxlitlikda o'zini tushunishi, o'z identivligini aniqlashida aks etadi[10], degan fikrni ilgari suradi.



Ijtimoiy psixologiyada ko'proq aynan shu yaxlitlikdagi ma'lum strukturaviy elementlar haqida gapirish mumkin. O'z-o'zini anglashning boshqa xususiyati shundan iboratki, uning ijtimoiylashuv jarayonida rivojlanishi — bu nazorat etiladigan, faoliyat va muloqot diapazonining kengayishi sharoitida ijtimoiy tajribani muntazam egallash orqali aniqlashtirilib boriladigan jarayondir. Uning rivojlanishi faoliyatdan tashqarida amalga oshmaydi: faqat faoliyat jarayonidagina shaxs o'zi haqidagi tasavvurlar bilan atrofda g'irlarning u haqidagi tasavvurlarini taqqoslab boradi, kerak bo'lsa, tuzatadi.

Shaxsning o'z-o'zini anglash sohasi — bu "Men" obrazining yil sayin o'zgarib borish jarayoni bo'lib, bu jarayon davomida shaxs dastlab o'zining boshqalardan farqliligini anglash bilan birga, o'zini ko'rsatishga harakat qilish, mustaqil fikr yuritish qobiliyatini ham anglashga harakat qiladi. Undan so'ng shaxsda o'z-o'zini baholash, anglash, nazorat qilish xususiyatlari rivojlanadiki, bular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Umumiy o'z-o'zini hurmat qilishdan tashqari, har bir kishi o'z qobiliyatlarini muayyan sohalarida o'ziga xos, qisman baholashga ega.

"Men-konsepsiya"ni shakllantirishning asosiy mexanizmi - bu o'z faoliyati asoslarini anglash va amalga oshirish, o'zini chetdan ko'rish, o'z imkoniyatlarini tanqidiy tahlil qilish va shu asosda ularni kengaytirishga intilish qobiliyati sifatida aks ettirishdir. O'ziga bo'lgan refleksiv munosabat boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatda, boshqa birovning fikrlari va harakatlarini tushunishga asoslangan holda shakllanadi. Fikrlashning rivojlanishi uchun sezgir

davrlar o'smirlik davriga o'tish, shuningdek, o'smirlik va o'smirlik davridir. Aynan shu davrda refleksiv maydonni kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi, chunki o'smirlar uchun o'zini o'zi bilish va o'zini o'zi tasdiqlash, o'z taqdirini o'zi belgilash zarurati dolzarb bo'lib qoladi. Ana shu nuqtai nazardan olib qaraganda yuqoridagi shaxsni o'z-o'zini anglash bo'yicha aytib o'tilgan qarashlarni amalga oshirishda o'yin faoliyatining ahamiyati katta.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, "Men" konsepsiyasi- bu shaxsning o'zi haqidagi barcha yaqinlari, ularni baholashlari bilan bog'liq. "Men" konsepsiyasi mohiyatiga ko'ra, nafaqat shaxsning kim ekanligini, balki uning o'zi haqida nima deb o'ylashini, uning faol printsiplari va kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlariga qanday qarashini belgilaydi. "Men" konsepsiyasining tuzilishi quyidagi elementlar bilan ifodalanadi: Tana tasviri yoki tanadagi "Men"; Hozirgi yoki dolzarb "men"; Dinamik "men"; Haqiqiy "men"; Ideal "men"; Kelajakdagi yoki mumkin bo'lgan "men"; Ideallashtirilgan "men"; "Men" bilan ifodalangan; Soxta "men".

2. Bolani har tomonlama rivojlantirishda ijtimoiy-hissiy rivojlanish nuqtai nazaridan "Men" konsepsiyasini shakllantirishda hissiyotlar va ularni boshqarish, ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqotni to'g'ri tashkil qilinishi katta ahamiyatga ega. Bu davrda "Men" konsepsiyasini shakllanishida o'z-o'zini anglashning rivojlanish bosqichlari, o'z-o'zini anglashning mazmuni, o'z-o'zini anglash funktsiyalari, o'z-o'zini anglash komponentlari, o'z-o'zini anglashning shakllanishi va jinsni aniqlash bilan tavsiflanadi.

ADABIYOTLAR

1. Петровский А. В. Возрастная и педагогическая психология / А. В. Петровский. – М. : Прогресс, 1985. – 325 с.
2. Петровский А. В. Возрастная и педагогическая психология / А. В. Петровский. – М. : Прогресс, 1985. – 325 с.
3. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии / С. Л. Рубинштейн. – СПб : Питер, 2003. - 713 с.
4. Волков. Т.Г. Психология самосознания учебное пособие /- Барнаул, ул. Димитрова, 66 -2014. – 342 с.

5. Кон И. С. Открытие «Я» / И. С. Кон. – М. : Политиздат, 1978. – 368с.
6. Ismoilova N., D. Abdullayeva N. “Ijtimoiy psixologiya” o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2013. y - 8 b.
7. Uilyam Jeymz. en.wikipedia.org [2019 yil 8-dekabr].
8. Rojers K.. Shaxs bo‘lish to‘g‘risida: psixoterapiya psixoterapevt M nigohida: Progress, 1994 yil. <https://eurodomik.ru>
9. Ismoilova N., Abdullayeva D. “Ijtimoiy psixologiya” o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2013. y - 9 b.
10. Stolin V.V. Vestn. Moskva un.ta. Shaxsning o‘zini o‘zi anglashi. M., 1983; 256-bet



UDK: 374.3:001.1

Xalimjon YUNUSOV,
Toshkent davlat texnika universiteti erkin tadqiqotchisi
E-mail: yuhalimjon@gmail.com

O'zMU dotsenti, f.f.d N.Abdullayeva taqrizi asosida

YOSHLARNING IJTIMOY-DEMOGRAFIK, SOTSIOLOGIK HAMDA ANTROPOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Yoshlarning ijtimoiy-demografik, sotsiologik hamda antropologik jihatlarini o'rganish, xususiyatlarini aniqlash, ijtimoiy-demografik qatlam sifatida tan olinishida fiziologik yetuklik, ma'lum bir ijtimoiy burch va vazifalarni bajarishga tayyorlik omili, Yoshlarga sifatli ta'lim olish imkonini berish, ularning ko'nikma va tayyorgarligi beqiyos ahamiyatga egadir. Yoshlar sotsiologik jihatlarini qatoriga ularning jamiyat va davlat ishlarida qatnashishini kiritish zarurligi.

Kalit so'zlar: Ssientik, ijtimoiy-demografik qatlam, "voyaga yetganlik", ishtirok etish, rivojlanish va tinchlik, yoshlar muammosi, texnologik taraqqiyot.

СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ, СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ И АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

Изучение социально-демографических, социологических и антропологических аспектов молодежи, определение ее особенностей, физиологической зрелости в признании социально-демографического слоя, фактора готовности к выполнению определенных социальных обязанностей и задач, позволяющих молодым людям получать качественное образование, их образование, никма и подготовка имеют несравненное значение. Необходимость включения их участия в жизни общества и государственных делах в число социологических аспектов молодежи.

Ключевые слова: Наука, социально-демографический слой, «взросление», участие, развитие и мир, проблема молодежи, технологическое развитие.

SOCIAL-DEMOGRAPHIC, SOCIOLOGICAL AND ANTHROPOLOGICAL ASPECTS OF YOUTH

Annotation

Studying the socio-demographic, sociological and anthropological aspects of young people, determining their characteristics, physiological maturity in recognition as a socio-demographic layer, the factor of readiness to perform certain social duties and tasks, enabling young people to receive quality education, their education, nikma and preparation are of incomparable importance. The need to include their participation in society and state affairs among the sociological aspects of youth.

Key words: Scientific, socio-demographic layer, "coming of age", participation, development and peace, youth problem, technological development.

Kirish. Ilmiy bilish ssientik maqsadsiz bo'la olmaydi. Buni R. Dekart quyidagicha ifodalagan: "Bilish uchun,-deb yozadi faylasuf, ratsionalizm metodining asoschisi,-biz aniq va tiniq ko'ra oladigan yoki ishonchli tarzda unga yeta oladigan narsani belgilab olishimiz zarur. Ilmiy bilish boshqacha bo'la olmaydi [Dekart R. Sochineniya v dvux tomax. Tom 1.- Moskva: Mysl, 1989. S.82]. Bilishning ssientik o'rni obyekt (predmet)ning ichki, murakkab va turli obyekt (predmet)lar bilan aloqalarini aniqlashdan boshlanadi.

Qisqacha qilib aytganda, obyekt(predmet)ni aniqlash, uning turli aloqalari va funksiyalarini ochib berish ssientik yondashuvning xususiyatidir. Talaba yoshlarning xususiyatlarini aniqlash ularning "yoshlar" deb ataluvchi ijtimoiy-demografik qatlamga taalluqli jihatlarini qayd etishdan boshlanadi. Falsafaning umumiydan xususiyga, xususiydan umumiyga borish qonuniyatiga muvofiq avval talaba yoshlarning umumiy xususiyatlari, aholining alohida qatlami sifatida qaraladigan yoshlarga taalluqli ekanini tasdiqlashni taqozo etadi. Mazkur umumiylik talaba yoshlarning xalq, jamiyat hayotidagi o'rmini bilishga, ularning pozitiv xususiyatlarini kelajak modellari proeksiya qilishga imkon beradi. Ana shunda obyekt (predmet)ning real holatini ideal holatga yetkazish usullari va mexanizmlari aniqlanadi, chunki har qanday ilmiy tadqiqot kelajakka yo'naltirilgani, proektiv funksiyalari orqali ijtimoiy foydali izlanishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yoshlarni avvalo fiziologik rivojlanishiga qarab belgilash keng tarqalgan. Shu nuqtai nazardan BMT tomonidan 15-24 yoshdagi shaxslar "yoshlar" ijtimoiy-demografik qatlamga kiritilgan. Bu talqin 1985 yilgi Xalqaro yoshlar yili BMT Bosh Assambleyasi tomonidan tasdiqlangan va BMT ga a'zo davlatlarga rasmiy statistik hisobotlar tayyorlashda foydalanish tavsiya etilgan. Shundan beri BMT a'zo davlatlari o'z hisobotlarida "yoshlar" qatlamini, ularning demografik, sotsiologik va antropologik parametrlari haqidagi ma'lumotlarni ana shu ko'rsatkichga muvofiq tayyorlab keladi. Shu bilan birga, BMT ning Konvensiyasida 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar "bolalar" qatlamiga kirishi ta'kidlanadi [Qarang: Molodej. Organizatsiya Ob'edinennyx Natsiy.un.org]. Ba'zi davlatlarda esa yoshlar qatlamiga 16, boshqa birlarida 14 yoshga kirgan fuqarolar "yoshlar" ataladi. O'zbekistonda yoshlar deganda 16 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar guruhi nazarda tutiladi [Qarang: Bobomuradov E., Bobomuradova Sh. O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy psixologiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010. 28 b.].

Yoshlarning ijtimoiy-demografik qatlam sifatida tan olinishida fiziologik yetuklik, ma'lum bir ijtimoiy burch va vazifalarni bajarishga tayyorlik omili hisobga olinadi. Tashqi fiziologik omilga qarab shaxslarni bolalar, yoshlar, o'rta yoshlar, katta yoshlar, keksalar va qariyalar qatlamiga kiritish deyarli barcha xalqlarda, davlat hisobotlarida mavjud bo'lib,

bunday yondashuv genezisiga muvofiq qadimgi initsiatsiya urf-odatlariga borib taqaladi. Taniqli amerikalik etnograf M. Midning keltirishicha, initsiatsiya deyarli barcha etnoslarda uchraydigan, shaxs fiziologik yetukligini anglatadigan va bolalik yoshi tugab, ma'lum bir etnosga xos vazifalarni bajaradigan umr bosqichidir [Qarang: Mid M. Kultura i detstvo. - Moskva: Gl.red. gost. lit-ry, 1979.S.235 – 239]. "Initsiatsiya" qadimgi lotin tilidan olingan bo'lib bag'ishlov, o'zini u yoki bu vazifani bajarishga tayyor ekanini bildirish, tashqi ta'sirga munosib javob bera olishni anglatadigan, qabilalarda "voyaga yetganlik" sifatida qabul qilingan urf odatdir. BMT ning rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, bugun dunyoda 1,2 milliard yoshlar yashaydi. Bu dunyo aholisining 16% demakdir. 2030 yilga kelib yoshlar 1, 3 milliarda yetadi va dunyo aholisining 7 % ni tashkil etadi [O'sha joyda]. Yoshlarning alohida ijtimoiy-demografik qatlam sifatida xalqaro huquqda e'tirof etilishi huquq fenomeni uchun yangilik edi. Hatto BMT tomonidan yoshlarni alohida, o'z huquq va erkinliklariga ega ijtimoiy qatlam sifatida e'tirof etilishi 1965 yili qabul qilingan Yoshlar o'rtasida tinchlik, o'zaro hurmat va xalqlar o'rtasida bir-birini tushunish Deklaratsiyasi bilan boshlanadi. Mazkur hujjatda xalqaro huquqning yoshlar muammosi mavjudligi e'tirof etiladi, yoshlar dunyoda tinchlik, xalqaro aloqalar, bir birini hurmat qilish, kasb-kor egallash, bilim olish va jamiyat taraqqiyoti uchun mas'ul bo'lish kabi vazifalarni o'z ustiga olishi mumkinligi ko'rsatiladi. Eng muhimi shundaki, BMT yoshlarni ijtimoiy hayotga keng jalb etish maqsadida 1985 yilni Xalqaro yoshlar yili deb e'lon qildi va "Ishtirok etish, rivojlanish va tinchlik" shiori ostida turli xalqaro tadbirlar, festivallar, forumlar va bayramlar uyushtirdi. Hatto 1985 yili Moskvada o'tkazilgan Olimpiada o'yinlari ham ana shu sanaga bag'ishlangan.

1995 yili BMT yoshlar borasidagi muammolarni yetarli darajada yechish uchun 2000 yilgacha bo'lgan harakatlar dasturini qabul qiladi. Bu yoshlar muammolari (ishsizlik, demografik o'sish, jismoniy rivojlanish, ocharchilik, diskriminatsiya) ni hal etish borasida ilk yirik, besh yilga mo'ljallangan xalqaro harakat dasturi edi.

Mazkur dastur doirasida 1999 yili Yoshlar ishlari vazirlarining Butunjahon konferensiyasi uyushtiriladi. Mazkur tadbirda yoshlarni kasbli qilish, ish bilan ta'minlash, bilim olishi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratib berish global muammoga aylanib qolgani, ko'pgina davlatlarda (masalan, Afrika davlatlarida) ocharchilik davom etayotgani, ularda yoshlar muammolari dunyo hamjamiyati ishtirokini, yordamini talab etayotgani ko'rsatiladi. Konferensiya 12 avgustni Xalqaro yoshlar kuni deb e'lon qilish haqida BMT Bosh Assambleyasiga taklif kiritdi. Shundan beri har yili 12 avgust Xalqaro yoshlar kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi. O'zbekistonda bu sana 30 iyun qilib belgilangan. Yoshlar muammosining mavjudligi BMTning deyarli barcha qarorlari va hujjatlarida qayd etiladi. Bu o'rinda yoshlarning nafaqat ijtimoiy-demografik, shuningdek, sotsiologik va antropologik ahamiyatga ega muammolari ham borligi uqtiladi. Ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda, dunyo xalqlari o'rtasidagi hamkorlikni shakllantirishda, madaniy, ilmiy va iqtisodiy sohalarda integratsiyani amalga oshirishda yoshlar yetakchi kuch bo'lishi mumkinligi uchun BMT 2010 yilni tag'in Xalqaro yoshlar yili deb e'lon qiladi. 2020 yili esa BMT tomonidan insoniyatning 2030 yilgacha barqaror rivojlanishini ta'minlash strategiyasi ishlab chiqiladi. Unga ko'ra, BMTga a'zo davlatlar yoshlar siyosati bo'yicha amalga oshirayotgan ishlari haqida yillik hisobotlar topshiradi. Mazkur strategik hujjatdagi eng muhim jihat shundaki, unda, "barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun barcha yoshlarni qamrab olgan adolatli sifatli ta'lim va barcha uchun butun umri bo'yi bilim olish, kasb egallash imkoniyatini yaratib berish lozimligi

ta'kidlanadi" [Qarang: Molodej i sUR 4: kachestvennoe obrazovanie.un.org].

Tadqiqot metodologiyasi. Yoshlarga oid sotsiologik jihatlardan biri ularni ish bilan bandligini ta'minlashdir. Sotsiologik tadqiqotlar ko'rsatadiki, yoshlar, ayniqsa kasbiy tayyorgarligi yo'q yoshlarning ish bilan band bo'lishi juda qiyin. Ish bilan band bo'lish va kasbiy tayyorgarlik o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Har uchdan bir yosh kasbiy tayyorgarligi yo'qligi sababli ishsiz. Ular bugun yoshlarning 17-18 foiziga yaqinini tashkil etmoqda. Ko'pgina yoshlar kam maosh to'lanadigan, qoniqish keltirmaydigan, ijodiy yondashishga o'rin qoldirmaydigan "qora mehnat"ga rozi. Bu ularning ruhiyatiga, intellektual o'sishiga va jamiyat hayotida ongli qatnashishiga xalqait berayotgan sabablardan biridir. Jamiyatlarni bezovta qilayotgan terrorism, ekstremizm, geylar, transseksualar va deviant xulq atvorli shaxslar ichida hayotda o'z o'rini topolmagan, kasbiy tayyorgarligi va ma'lumoti yo'q yoshlar aksariyatni tashkil etadi. Sotsiologik jihatlarini hisobga olib BMT Bosh kotibi 2013-yili Yoshlar ishlari bo'yicha vakil, 2016 yili esa yoshlar ishsizligi muammolari bilan shug'ullanuvchi Maxsus vakil lavozimlari joriy etdi. Ular BMT Bosh Assambleyasiga har ikki yilda bir marta hisobotlar tayyorlab boradi. Yoshlar sotsiologik jihatlarini qatoriga ularning jamiyat va davlat ishlarida qatnashishini kiritish zarur. Xalqaro hujjatlarda yoshlar jamiyatning eng faol va murakkab ijtimoiy vazifalarni o'z ustiga olishga qodir qatlam sifatida qayd etiladi, shuning uchun ham BMT 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish dasturida yoshlar o'rtasidagi ishsizlik, siyosiy izolyatsiya, marginallik, ta'lim olish va tibbiy xizmatlardan foydalanishdagi notenglikni bartraf etish vazifa qilib qo'yilgan. Unda yoshlar Barqaror rivojlanishning Kun tartibida eng faol pozitsiyani egallashi, eng qiyin vazifalarni bajarishda ishtirok etishi, dunyoda tinchlik va ijtimoiy hamkorlikni o'rnatishda avangard bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Global muammolarni hal etish yoshlar zimmasiga tushishi tabiiy hodisadir, chunki ular o'zining sotsiologik jihatlariga muvofiq har qanday ijtimoiy vazifalarni bajarishga qodir. 2015 yili BMT qoshida tashkil etilgan yoshlar uchun munosib ish o'rinlari yaratish Global tashabbusi tomonidan strategik reja taklif etildi. Unga ko'ra, yoshlarning siyosiy integratsiyasini, fuqaroviy faolligini, huquq va erkinliklarini ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Yoshlarning sotsiologik jihatlariga oid muammolarni hal etishda Butunjahon yoshlar ko'nikmalari kunini belgilanishi muhim voqea bo'ldi. 2014 yili BMT Bosh Assambleyasining qaroriga muvofiq 15 iyul Butunjahon yoshlar ko'nikmalari kuni deb e'lon qilindi. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning ta'rificha, "Yoshlarga sifatli ta'lim olish imkonini berish, ularning ko'nikma va tayyorgarligi beqiyos ahamiyatga ega. Bugun nishonlanadigan Butunjahon yoshlar ko'nikmalari kuni ushbu o'ta global ahamiyatga ega say' harakat avangardida muallimlar turishini eslashga undaydi" [Qarang: Vsemirniy den navikov molodeji.un.org]. Yoshlarning kasb kor tanlashida muallimlar, ziyolilar muhim rol o'ynaydi. Ushbu sotsiologik jihat Butunjahon yoshlar ko'nikmalari kunini nishonlashga bag'ishlangan xalqaro konferensiyalar, forumlar va uchrashuvlarda qayd etiladi. Yoshlarning xalqaro miqyosda hal etilishi zarur bo'lgan bugungi sotsiologik muammolariga:

texnologik taraqqiyot davrida yoshlarga ijtimoiy hayotga moslashishga, murakkab borliqda o'z o'rini topishga yordam berish;

ta'lim tizimini yangilab borish va unda tajriba, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni markaziy o'ringa qo'yish;

yoshlarda o'zini o'zi tarbiyalashga, ma'rifatli va bilimli bo'lishga, huquqiy savodxonligini oshirishga qiziqish uyg'otish;

yoshlarni ijtimoiy potensialidan unumli va ratsional foydalanishga o'rgatish; umuminsoniy qadriyatlarini

e'zozlash orqali ularni insonparvar, oilaparvar, taraqqiyparvar va hayotsevar shaxslar qilib tarbiyalash;

intellektual potensialini, kasbiy imkoniyatlarini, bilimlarini milliy demokratik taraqqiyot maqsadlari bilan uyg'unlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish kabilar kiradi.

Ushbu sotsiologik muammolar yoshlar shaxsining antropologik jihatlari bilan ham uyg'un keladi, goho ularni bir birlaridan farqlash mushkuldir. Shunday bo'lsa da, ilmiy nuqtai nazardan, ularni bir birlaridan farqlash darkor. Bu farqlarni biz yuqoridagi sotsiologik jihatlarni ochib berayotganda qayd etamiz.

Tahlil va natijalar. Bugungi texnologik taraqqiyot insonni juda murakkab voqelikka ro'para qilmoqda. Birinchidan, u insonni o'zining "vintik"iga aylantirish imkoniga ega bo'lib borayotgani bilan xavflidir. Texnologik jarayonlar insondagi ijodga, yangilik yaratishga, ochiq muloqotga, insoniy tuyg'ularni sirli va maftunkor qilishga o'rin qoldirmayapti. Bugun inson o'yidagi, qalbidagi fikrlarni bilish qiyin emas, u ma'lum bir psixologik testlar va 5D orqali tez aniqlanishi mumkin. Mashhur Davos forumining prezidenti F.Shvartsning fikriga ko'ra, 2030 yilga borib, shunday tugmachalar, hatto soch tolasidan ming marka kichik tolalar kashf etiladiki, ularning yordamida inson organizmidagi barcha psixologik, fiziologik va tibbiy antropologik jarayonlar haqida ma'lumotlar olish mumkin [Qarang: Shvab F.Chetvertaya promyshlennaya revolyusiya. - Moskva: AST, 2021. S.206]. Ilmiy-texnik izlanishlar nuqtai nazardan bu jarayonlar yoshlar uchun qiziqarli, ammo ular insonga bo'lgan munosabatlarni mutlaq o'zgartirib yuborishi mumkin. Inson o'rmini egallashga davogar bo'layotgan ilmiy texnik vositalar, robot va sun'iy intellektlar yoshlarning ijtimoiy hayotda o'z o'rmini topishiga ma'lum bir psixologik va tashkiliy to'siqlar uyg'otadi, natijada yoshlardagi faollik, tashabbus, to'siqlarni yengishga qaratilgan ichki irodaviy kuch susayishi mumkin.

XXI asrga kelib, deb yozadi taniqli tarixchi va futurolog Yu.N.Xarari, dunyoni, kishilar hayotini o'gartirganlar siyosiy partiyalar, liderlar emas, balki internetni, sun'iy intellekt va blokcheynni yaratgan injenerlar va konstruktorlar bo'ldi [Qarang: Xarari Yu.N. 21 urok dlya XXI veka. - Moskva: Sinbad, 2020. S. 25- 26]. "Kelajak yuz yillikda biotexnologiya va IT ichki dunyomizni idora qilish imkonini beradi, ammo biz aqlimizning bor murakkabligini tushunishga o'zimiz, ushbu o'zgarishlar bizning tasavvurlarimizga halokatli ta'sir etishi mumkin" (O'sha joyda). Ushbu halokatli ta'sir etuvchi texnologik omilni yaratganlar ham yoshlar, ulardan azob chekuvchilar ham avvalo yoshlardir. Texnologik yangiliklar ish o'rinlarini qisqartiradi, inson omilini siqib chiqaradi, natijada insonga bo'lgan ishonchni susaytiradi. Ammo texnologik yangiliklar, kashfiyotlar inson imkoniyatlarini kengaytirishini, vaqtini tejashini, eng nozik operatsiyalarni tez va oson amalga oshirishini rad qilib bo'lmaydi. Masalan, chet ellardagi yirik mutaxassislarining, jarrohlarning uzoq masofodan turib

murakkab operatsiyalarni amalga oshirishi oddiy voqelikka aylanib qoldi. Internet aloqalari orqali har bir kishi boshqa davlatlarda yashayotgan yaqinigi yoki tanishi bilan muloqotga kirishishi, hamkorlik qilishi mumkin. Shunday ekan, yoshlarning ilmiy -texnik kashfiyotlarga bo'lgan qiziqishini ratsional tashkil etish. ijtimoiy taraqqiyot manfaatlarini tomonga yo'naltirish global ahamiyatga ega sotsiologik muammoga aylangan.

Taraqqiyotini ko'zlagan, o'ylagan davlat yoshlardagi bilim olishga va kasbiy shakllanishga bo'lgan qiziqishni turli sotsiologik vositalar (masalan, mablag'lar va grantlar ajratish, qabul kvotalarini oshirish, ilmiy darajalarga taqdim etish, ilmiy innovatsion ishlarni amaliyotga joriy qilish kabilar) bilan qo'llab-quvvatlaydi, bilimli, tajribali va iqtidorli yoshlarni o'ziga yordamchi tutadi. Chunki oliy ta'lim va kasbiy shakllanish faqat shaxsiy ish emas, u avvalo jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy borliqning yangilanishi, yangi avlodni tarbiyalash va uni chin ijodkor, kreativ faol shaxs bo'lib kamol topishi uchun zarurdir [O'sha asar. S. 12]. Antropologik omillar qanchalik muhim bo'lmasin, ta'lim va kasb shaxsga qanchalik qoniqish va rag'batlanish keltirmasin, ular sotsiologik muhitdagina o'z bahosini topadi. Ushbu sotsiologik omil, muammo individning "ijtimoiy mavjudot" (Aristotel) bo'lishining kafolatidir. Yoshlarni o'zini o'zi tarbiyalashga o'rgatish, bilimni tinmay oshirib borish ko'nikmasini shakllantirish, huquqiy savodxon fuqaro bo'lish haqida qayg'urishi ham ana shu sotsiologik omil ta'siri ifodasi hisoblanadi. O'z ustida umr bo'yi ishlash, umr bo'yi olgan bilimlarini yanada oshirishga intilish, jamiyatning ongli, faol fuqaro bo'lish uchun huquqiy savodxon bo'lishga tirishish yangilanayotgan davr, sotsiologik hayot talabidir.

Xulosa va takliflar. Xulosamiz, yoshlardagi sotsiologik jihatlardan yana biri ularni oilaparvar, xalqparvar va hayotsevar insonlar qilib shakllantirishdadir. Insonologik tadqiqotlar ko'rsatadiki, yoshlarda oilaparvarlik, xalqparvarlik va hayotsevarlik fazilatlarini ma'lum bir sotsial muhitda, ushbu muhit ta'sirida shakllanadi. Sotsial muhitning deterministik ta'siri oliy ta'lim va kasbiy shakllanishni jamiyat, umum, butun taraqqiyoti bilan bog'laydi, ammo gap ularning qaysi biri birlamchi va qaysi biri ikkilamchi ekani xususida emas, balki shaxsning sotsial muhit bilan inoq yashashidadir. Sotsial muhitdagi turli talablar qo'ygandek, u oliy ta'lim va yoshlarning kasbiy shakllanishini ham yo'naltiradi, ulardagi integratsiya jamiyat taraqqiyoti kafolatidir. Intellektual potensial va kasbiy ko'nikmalar ham shu tarzda baholanadi, jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar shakllantiradigan intellektualizm professional bilimlarga, kasbiy shakllanishga mohiyat, antropologik va sotsiologik ahamiyat baxsh etadi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy-gumanitar fanlar ta'lim tizimida ustuvordir. Ijtimoiy-gumanitar fanlar o'tilmaydigan birorta ham oliy ta'lim dargohi uchramaydi, ammo professional bilimlar har bir o'quv yurtida o'zgarib bormoqda.

ADABIYOTLAR

1. Dekart R. Sochineniya v dvux tomax. Tom 1.- Moskva: Mysl, 1989. S.82.
2. Bobomuradov E., Bobomuradova Sh. O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy psixologiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010. 28 b.
3. Mid M. Kultura i detstvo. - Moskva: Gl.red. gost. lit-ry, 1979.S.235 - 239.
4. Shvab F.Chetvertaya promyshlennaya revolyusiya. - Moskva: AST, 2021. S.206.
5. Xarari Yu.N. 21 urok dlya XXI veka. - Moskva: Sinbad, 2020. S. 25- 26.
6. Rozin V., Golubkova L. Filosofiya upravleniya. 2- ye izd. Uchebnoe posobie. - Moskva: Litres, 2022. S. 21- 24.



UDK: 796.015.82.842: 011.1: 322

Zafarjon YUSUPOV,

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Ganbol,
regbi nazariyasi va uslubi kafedrasida mustaqil izlanuvchisi, (PhD)
E-mail: Zafarjon1990@list.ru

JTSBMQTMOI dotsenti, (PhD) B.Nematov taqrizi asosida

YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILARNI TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI NAZORAT QILISH USLUBIYOTI

Аннотация

Mazur maqolada yuqori malakali gandbolchilarning musobaqa faoliyatiga amplituda bo'yicha saralash va tayyorlash tizimi, musobaqalarda o'yinchilarning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va maxsus testlar asosida texnik-taktik tayyorgarligini baholash hamda takomillashtirish vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish ishlari amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Yuqori malakali gandbolchilar, musobaqa faoliyati, saralash, texnik-taktik tayyorgarligi, takomillashtirish.

МЕТОДЫ КОНТРОЛЯ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ГАНДБОЛИСТОВ

Аннотация

В данной статье освещаются работы по внедрению в практику по совершенствованию средств оценки технико-тактической подготовки высококвалифицированных гандболистов при помощи специальных тестов, а также определение качественных показателей игроков в процессе отбора по амплуа на соревнованиях.

Ключевые слова: Высококвалифицированные гандболисты, соревновательная деятельность, отбор, технико-тактическая подготовка, совершенствование.

METHODS OF CONTROL OF TECHNICAL AND TACTICAL ACTIONS OF HIGHLY QUALIFIED HANDBALL PLAYERS

Annotation

In this article, the system of selection and preparation of highly qualified handball players for competitive activities by role, determination of quality indicators of players in competitions and assessment of technical and tactical readiness based on special tests, development and implementation of improvement tools were carried out.

Key words: Highly qualified handball players, competitive activity, selection, technical and tactical training, improvement.

Tadqiqot nazariy ahamiyati va dolzarbligi.

Zamonaviy gandbol o'ta tezkorligi va katta g'ayrat talab qiluvchi sport o'yinlari turiga mansubdir. Yuqori texnik-taktik mahoratga sazovar bo'lishi uchun birinchi navbatda gandbolchilarning jismoniy sifatlari mukammal darajada rivojlangan bo'lishi kerak. [1]

Gandbol bo'yicha yaratilgan ilmiy metodik va maxsus adabiyotlarni tahlil qilganda shuni guvuxi bo'ldikki hozirgi davrda gandbolchilarni musobaqalarga tayyorlash va ularni maxoratini oshirish xususida ko'p ilmiy ishlar qilingan.

Biroq musobaqalar davrida o'quv mashg'ulotlarini optimallashtirish muammosi chetda qolib ketgan. Barchamizga malumki sport o'yinlarida ayniqsa gandbolda musobaqalar davrida mashg'ulotlarni rejalashtirish va aniq bir dastur asosida o'tkazishning spetsefik ahamiyati bor. Gandbol bo'yicha musobaqalarni ko'p "tur"dan iborat bo'lishi o'yinchilarning har bir "tur"ga jismoniy va psixologik tayyorgarligi yuqori darajada bo'lishini taminlash uchun optimal dasturga ega bo'lishimiz shart. [2]

Musobaqalar davrida "tur"larning tig'izligi munosabati bilan o'yinchilarni har bir "tur"ga tayyorlash uchun ulardan yuqori darajada jismoniy tayyorgarlikni va texnik-taktik maxoratini rivojlantirish talab etiladi. [3]

Malakali gandbolchilarning musobaqa faoliyatiga jismoniy texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish, mashg'ulot jarayonini rejalashtirish va namunaviy ishchi dasturini ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbiiq yetish, bugungi kunda dolzarbligicha qolmoqda.

Tadqiqot maqsadi.

Yuqori malakali gandbolchilarning musobaqa faoliyatiga amplituda bo'yicha faoliyatini nazorat qilish, musobaqalarda o'yinchilarning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va maxsus testlar asosida texnik-taktik tayyorgarligini baholash shuningdek, musobaqadagi ko'rsatkichlar orqali jamoalarning amplituda bo'yicha samarali saralangani yoki samarasiz saralangani bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning mavifalari: Yuqorida qayd etilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar asosida tadqiqod olib borildi.

1. Gandbolchilarning mashg'ulotlarda texnik-taktik harakatlarini rivojlantirish jarayonini o'rganib chiqish.

2. Mashg'ulot va musobaqa faoliyatini tahlili asosida gandbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini samaradorligini aniqlash.

3. Musobaqa natijalariga ko'ra jamoalarning amplituda bo'yicha samarali saralangani bo'yicha takliflar va samarali saralash texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari:

1. Maxsus adabiyot va ilmiy metodik maqolalar hamda ilmiy ishlarning tahlili.

2. Pedagogik nazorat.

3. Gandbolchilarning texnik-taktik harakatlarining tahlili.

4. Jamoalarga samarali saralash texnologiyasini ishlab chiqish.

Jamoalarga sportchilarni samarali saralashning tajribaviy texnologiyasi tuzilmasiga ko'ra, iqtidorli va

istiqbolli gandbolchilarni saralash texnologiyasi to'rtta asosiy komponentlarni (bosqichlarni) o'z ichiga oladi:

- 1) maqsad – model;
- 2) tashxis – diagnostika;
- 3) tahlil – analitika;
- 4) baholash va bashorat qilish (1-rasmga qarang).

Tahlil asosida o'yinchilarning hujumda amalga oshirilgan texnik-taktik harakatlari va ularning sherigiga to'pni aniq oshirish, raqibini chalg'itish, raqib darvozasi tomon yo'naltirilgan zarbalarni quyidagi belgilar bilan belgilanadi.

- (+A.Z) Aniq zarbalar;

- (+X.Z) Xato zarbalar;

Aniqlik kiritish uchun quyidagi sxemadan foydalanildi.

- (+O) – olis masofadan yo'naltirilgan aniq zarba;

- (+O') – o'rtadan yo'naltirilgan aniq zarba;

- (+Ya) – yaqindan yo'naltirilgan aniq zarba;

- (+A) – aylantirib yo'naltirilgan aniq zarba;

- (+Ch) – raqibni chalg'itib yo'naltirilgan zarba;

Jadval 1.

Nb	Texnik-taktik harakatlar	Chiziq o'yinchisi	Burchak o'yinchisi	Yarim o'yinchisi	o'rta	Markaz o'yinchisi
1	To'pni ilish	19,5±2,2 12,7±3,1	76,5±5,0 50,5±2,8	160,8±5,0 123,5±3,4		173,8±4,9 136,8±3,4
2	Sherigiga to'pni uzatish	10,3±1,6 6,3±1,6	71,7±3,0 36,8±1,7	148,5±3,4 116,3±2,4		163,8±3,4 127,0±4,2
3	Raqibni aldab o'tish	12,8±1,8 10,5±3,1	18,8±1,9 10,3±3,3	22,2±1,5 12,3±3,0		26,8±1,5 13,5±3,4
4	To'p otish	3,5±1,2 4,0±1,1	7,0±2,0 12,0±1,4	13,4±2,3 10,5±1,3		7,8±1,9 10,3±1,3
5	To'p otish nuqtasi	21,5±1,9 13,3±2,2	12,5±1,0 8,7±2,5	21,2±2,1 9,8±2,2		25,7±1,9 11,3±4,4
6	TTX umumiy ko'rsatkichi	48,2±2,8 34,0±2,8	110,0±3,5 98,7±2,5	27,3±3,2 24,2±2,7		36,8±2,4 32,6±2,1

Izoh: natijalar foiz xisobida qayd etilgan.


“SKIF” gandbol jamoasining texnik-taktik harakatlarini nazorati.

Jadval 2.

Nb	Texnik-taktik harakatlar	Chiziq o'yinchisi	Burchak o'yinchisi	Yarim o'yinchisi	o'rta	Markaz o'yinchisi
1	To'pni ilish	17,3±2,2 11,3±2,1	74,5±5,2 49,5±1,8	158,8±4,1 121,5±2,4		171,2±2,6 134,8±2,2
2	Sherigiga to'pni uzatish	9,1±1,3 5,1±1,9	69,7±2,4 35,8±1,2	146,1±2,4 114,3±2,1		160,9±2,9 126,1±2,2
3	Raqibni aldab o'tish	11,3±2,8 9,5±2,1	16,9±1,4 9,5±2,3	20,2±1,9 11,3±2,8		25,4±1,9 12,5±2,3
4	To'p otish	2,9±2,2 3,2±1,4	6,8±2,7 10,0±2,4	12,1±1,3 9,5±2,0		6,9±2,0 9,6±1,5
5	To'p otish nuqtasi	19,5±1,3 1,3±1,2	12,5±1,0 7,3±1,5	20,3±1,1 8,7±2,6		24,9±1,5 10,8±2,4
6	TTX umumiy ko'rsatkichi	46,2±1,8 33,2±1,8	102,3±2,5 96,7±1,3	25,9±2,2 23,0±1,7		34,9±1,3 32,9±2,7

Izoh: natijalar foiz xisobida qayd etilgan.

1-rasimda Iqtidorli sportchilarni gandbol sport turiga va jamoalarga samarali saralash uchun to'rt bosqichli saralash texnologiyasi



Xulosa. Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki SKIF jamoasining tahlil natijalariga ko'ra tayyorgarlik darajasi Xorazm jamoasining qaraganda anchagina farq qiladi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra SKIF jamoa o'yinchilari amplua bo'yicha samarali saralanmagani hamda xorazim jamoasining amplua bo'yicha saralash jarayoni SKIF jamoasiga nisbatan maqsadli amalga oshirilgani aniqlandi.

Gandbol jamoalarini boshlang'ich va musobaqa oldi saralash jarayonlarini maqsadli bajarish uchun ishlab chiqilgan saralash texnologiyasi orqali amalga oshirish tavsiya beriladi.

Ishlab chiqilgan saralash texnologiyasi (1-rasimga qarang) jamoalarni musobaqalarga maqsadli tayyorgarlik ko'rish va musobaqlarda istiqbolin ishtirokini ta'minlaydi.

Xorazm jamoasining tahlil natijalari: o'yinda to'pni sherigiga uzatishni yarim o'rta o'yinchilar bajardilar 160±5,1.

Markaz o'yinchilarning to'p uzatishi – chiziqdagi hujumchi 19,5±2,2 va yon tomondagi hujumchilar 76,5±3,8.

Shuni ta'kidlash kerakki o'yin natijasi aksariyat musobaqalarda hujumchilarning o'yiniga bog'liq. Shu o'rinda hujumchi tomonidan raqibni chalg'itib o'tish yoki zarba berish harakatlari katta ahamiyatga ega. Bir o'yinda bu harakatlarning soni 20,1±1,8 ni tashkil etdi. Birinchi o'rinda markaziy hujumchi 26,8±1,5, ikkinchi o'rinda yarim himoyachi 22,2±1,5 turadi.

Hujumchilarning o'yinda to'psiz harakatlari eng asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Agar hujumchi o'yinda 60 daqiqa qatnasha, shundan 3,5-43 daqiqa to'p bilan o'zi harakat qiladi, qolgan daqiqalarda bu faqat zarba berish uchun fursatni va nuqtani izlaydi. Tahlilga ko'ra hujumchi uchun qulay sharoit bir o'yinda 81,2±3,4 ni tashkil etdi. Shu o'rinda markaziy hujumchilar 32,6±1,3% yon tomon hujumchilari 28,3±1,4%.

Tahlil jarayonida o'yinchilar xatosi quyidagicha bo'ldi: xato zarbalar 40,2±2,1%, darvozabon qayyargan zarbalar 17,8±0,5%, to'pni to'siqqa tegib qaytishi 16,4±0,3%, darvoza yonidan o'tib ketishi 13,4±0,3% ni tashkil etadi.

ADABIYOTLAR

1. Pavlov Sh.K, Abdurahmonov F.A, Akromov J.A, Gandbol :JTI uchun darslik, 2005 y. – 80 b.
2. Алешин И.Н., Рыбаков В.В. Моделирование годичной подготовки в командных игровых видах спорта //Теория и практика физической культуры. - М., 2007. – 95 с.
3. Achilov A.M., Akramov J.A. Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. O'quv qo'llanma. - T.: O'zDJTI, 2009. – 88 b.
4. Балсевич В.К. Спортивный венсор физического воспитания в российской школе. - Москва. НИЦ, 2006. – 99 с.
5. Безверхов П.В. Библиотека тренера. - Т.: ИТА-PRESS, 2014. – 102 с.



UDK: 373.291

Gulnoz YAKUBOVA,
Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: yagulnozayakubova8024@gmail.com

Urganch davlat universiteti, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasida dotsenti, N.M.Quchqorova taqrizi asosida

INNOVATIVE APPROACH OF THE PREPARATORY GROUP EDUCATOR TO THE PROCESS OF TEACHING LITERACY

Annotation

This article explores the current issue, that is, the role of the educator as a facilitator, based on an innovative approach in the process of teaching preparatory group educators to literacy in a preschool educational organization.

Key words: Literacy training, vowel, consonant sounds, sound tallafuzi, letter, writing, graphic form.

ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД ВОСПИТАТЕЛЯ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ К ПРОЦЕССУ ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается актуальный в настоящее время вопрос, а именно роль воспитателя как фасилитатора, основанный на инновационном подходе к обучению грамоте воспитанников подготовительной группы в дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова: Обучение грамоте, гласные, согласные звуки, звуковое произношение, буква, письмо, графическая форма.

TAYYORLOV GURUH TARBIYACHISINING SAVODGA O‘RGATISH JARAYONIGA INNOVATSION YONDASHUVI

Аннотация

Ushbu maqolada hozirgi davrda dolzarb bo‘lgan masala, ya’ni, maktabgacha ta’lim tashkilotida tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarini savodga orgatish jarayonida innovatsion yondashuvga asosan tarbiyachining fasilitator sifatidagi o‘rni o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Savodxonlikka o‘rgatish, unli, undosh tovushlari, tovush tallafuzi, harf, yozuv, grafik shakl.

Kirish. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jamoalarining vazifasi faqat tarbiyalanuvchilarni o‘qitish va tarbiyalashdan iborat emas, balki ularga beriladigan ma’lumotlarni innovatsion yondashgan xolda yetkazib berishdir. Yosh avlodni kelajakda qanday inson bo‘lib yetishishi uning tayyorlov guruhlarida olgan puxta bilimi-yu, ta’lim-tarbiyasiga bog‘liq. Bolalikda olgan bilim qanchalik pishiq puxta bo‘lsa, u shunchalik mustahkam sinovlarga bardoshli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko‘rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz”, - degan fikrlari katta ahamiyat kasb etadi [1].

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonunining 8-moddasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya” deb nomlangan va unda quyidagilar keltirilgan:

Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutishi keltirilgan [7].

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik texnologiyaning mohiyatini anglab yetsak, tarbiyachining innovatsion faoliyatga yondashuvi quyidagilar bo‘yicha belgilanadi:

Akmeologiya
Aksiologiya
Kreativlik
Refleksiya

Biz yuqoridagilarni tayyorlov guruh tarbiyachisi faoliyatiga bog‘lagan holda tahlil qilib chiqsak.

Akmeologiya tarbiyachilik kasbini eng oliy qadriyat deb qarash. Tarbiyachilarni ta’lim jarayonini eng qadrli kishilari sifatida qabul qilish. Haqiqatan ham hech qaysi kasb egasiga tayyorlov guruh tarbiyachisi kabi eng qalbi toza, beg‘ubor farzandlar bilan ishlash baxti nasib qilmaydi.

Aksiologiya eng gullagan davr. Tayyorlov guruh tarbiyachisi hech bir akademik, olim, o‘qituvchi, chevar, shifokor, barcha-barcha kasb egasini yodidan hech qachon chiqmaydi. Tayyorlov guruh tarbiyachisining mehnati kelajak avlod hayotida muhim ahamiyatga ega.

Kreativlik ijodiy yondashuv. Tayyorlov guruh tarbiyachisihar bir mashg‘ulotga ijodiy yondashsagina, oz vaqt ichida ko‘zlangan maqsadiga erishishi, bolalalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga qiziqishlarini orttirish va qobilyatli tarbiyalanuvchilarni aniqlash uchun zamin yaratishi mumkin.

Refleksiya -“ortga qaytish” degan ma’noni anglatadi. Tayyorlov guruh tarbiyachisi har bir ta’lim-tarbiyaga doir faoliyatni tahlil qilib borsagina ijobiy natijalarga erishishi mumkin. Shu o‘rinda K.D.Ushenskiyning quyidagi fikrini o‘rgansak:

Tadqiqot metodologiyasi. «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi» hamda uni hayotga joriy qilish to‘g‘risidagi qonun va qarorga o‘zgarishlar kiritilishi savod chiqarishda ya’ni o‘qish-yozishga o‘rgatishda ancha qulayliklarga olib keldi. Chunki kirilidagi 35 harf o‘rniga 26

harf, 3 nutq tovushi (ng, ch, sh) harf birikmasi, hammasi bo'lib 29 ta harf va "tutuq" belgisi qabul qilindi. Shu harflarning 6 tasi unli tovushni, 24 tasi undosh tovushlarni bildiradi. Kirilidagi 10 ta unli harf 6 taga keltirildi

So'nngi yillarda qayta nashr qilingan «Alifbo» mashg'ulotligini yaratilishida harflar berilishini tartiblashda ilmiylikka yondashilgan. Birinchi navbatda sonor tovushlari bergan. Chunki sonorlar yarim unlidir. Savod o'rgatishning boshlang'ich kunlarida birinchi bo'g'in birinchi so'z o'qilishida tarbiyalanuvchidanbo'g'inlab o'qish talab qilinadi. Dastlabki bo'g'in hosil qilinishda ochiq bo'g'in hosil qilinganda undoshni cho'zib talaffuz qilishga to'g'ri keladi: nno, mmo, nina-mana (shuning uchun dastlab portlovchini berib bo'lmaydi). Ikkinchi navbatda sirg'aluvchilarni, uchinchi navbatda portlovchilarni, oxirida affikatlarni berish ma'quldir.

Tahlillar va natijalar. Tovush savod o'rgatishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Savodga o'rgatish davrida so'z va bo'g'inlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish, tovush va ularning artikulyatsiyasini analiz qilish mashqlari o'tkaziladi, diksiya (ravshan, burro gapirish) ustida ishlanadi, logopedik ishlar olib boriladi. Bundan tashqari savodga o'rgatish jarayonida tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilariga unli va undosh tovushlar haqida, ularni bir-biridan farqi borligi, unli va undosh tovush ekanligi haqida tushuncha beriladi.

Analitik-sintetik (tovush-tarkib) tovush metodiga K.D.Ushinskiy asos solgan bo'lib, S.P. Redazubov tomonidan mukammal ishlangan. Bu usul o'zbek olimlaridan K. Abdullayeva, K.Qosimova, Y.Abdullayevalar tomonidan yoritilgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashdi. Tahlil- tarkib tovush metodi deganda nutqdan gapni, gapdan so'zni, so'zdan bo'g'inni, bo'g'indan so'z, so'zdan gap, gapdan nutq anglashiladi.

Tayyorgarlik davriga doir mashg'ulot ishlanmalar.

1-Mavzu: Alifbe mashg'ulotligi, mustaqillik bayrami, bilimlar kuni va o'quv qurollari.

Mashg'ulotning borishi:

Tashkiliy qism: Tarbiyalanuvchilar bilan salomlashib, ular bilan tanishib chiqiladi va albatta ularning 1-guruhga qadam qo'yganliklari va prezident sovg'asini olganliklari bilan tabriklanadi.

Yangi mavzu bayoni: Tarbiyalanuvchilarga Alifbe kitobini ko'rsatib sumkalaridan huddi shu kitobni olishlari

aytiladi, bolalar diqqati kitobga qaratilib, u quyidagicha tushuntiriladi: Tarbiyalanuvchilar qaranglar bu Alifbe kitobi.Uning ustki jildidagi bolalarni ko'ryapsizlarni, ularning qo'lida "Ertaklar" nomli kitob bor ekan.Bu kitobni o'qish uchun ular harflarning hammasini o'rganib, harflar pog'onasidan eng yuqoriga chiqdilar va bemaol o'zlari kitob mutolaa qilish darajasiga yetishdilar.Agar sizlar ham bu kitobni mukammal o'rgansangiz, kelajakda quyoshli O'zbekistonimizning mana bunday ko'rkam binolarida ishlaysizlar. Kabutarlarni ko'rayapsizmi? Ular tinchlik ramzidir. Agar biz bu kitobni o'rganib ilmi bo'lsak va kelajakda vatanimizga xizmat qilsak, osmonimiz doimo musaffo, yurtimiz tinch bo'ladi.Hattoki biz bu kitobni o'rganib, kelajakda olim bo'lib, mana bunday robotlarni ham yarata olamiz.

Kitobimizni 1-sahifasini ochamiz. Hammamiz bilamizki, 1-sentabr biz uchun eng ulug' bayramlardan biri bo'lmish Mustaqillik bayrami.Bu bayramni vatanimizning har bir shahar va qishloqlarida ulkan tantana bilan nishonlaymiz.Bu sahifadagi rasmga qaraydigan bo'lsak,bu yerda mustaqillik maydoni, vatanimiz bayrog'i hamda mehmondo'st xalqimizning bayramni ulkan tantana bilan nishonlayotganliklarini ko'ramiz.

Tarbiyalanuvchilar toliqib qolmasliklari uchun dam olish daqiqasi o'tkaziladi:

(Qo'llar harakatda)

Daraxt tikka o'sadi

Barg yozadi yoniga

Quyoshjondan nur olib


Yerga soya soladi

Mavzu tushuntirilishda davom etiladi:

Aytinglarchi bolalar bilimlar kuni qachon?(2-sentabr)

To'g'ri bolajonlar bilimlar kuni 2-sentabr.Bu kunning bunday atalishining boisi shuki, biz 2-sentabr kuni bilim maskani bo'lmish MTT ning tayyorlov guruhlariga qadam qo'yamiz. Ota-onalar, ustozlar, tarbiyalanuvchilar MTT ning tayyorlov guruhlariga keladilar va birinchi qo'ng'iroq nishonlanadi.

Bolajonlar kitobning bu sahifasida Hilola bizga partada qanday o'tirishni va Sobirjon yozayotganda o'zini qanday tutish kerakligini o'rgatayapdilar.Qani bolajonlar partada qanday o'tirish kerak ekan? Sizlar ham ulardek o'tirsangiz qomatingiz chiroyli, gavgangiz tik va ko'zingiz ravshan bo'ladi.



Rasmning ostida uchta katakcha bor ekanmi? Qani kim bu katakchalarga mos gap tuza oladi?

Sobirjon daftarga yozayapdi.

Hilola to'g'ri o'tiribdi.

To'g'ri bolajonlar, endi hammamiz rasmga qaraymiz.Bu yerda nimalar tasvirlangan ekan?(o'quv qurollari)

Bu o'quv qurollari ostidagi katakchalarni ham birgalikda mos harflar bilan to'ldiramiz va ularni chapak yordamida bo'g'inlarga ham ajratib ketamiz:

1-da 5ta katakcha bu sum-ka (2bo'g'in)

2-da 5ta katakcha bu ki-tob (2bo'g'in)

3-da 6ta katakcha bu daf-tar (2bo'g'in)

4-da 5ta katakcha bu ruch-ka (2bo'g'in)

5-da ham 5ta katakcha bu qa-lam (2bo'g'in)


Mustahkamlash: Qani bolajonlar bu yerda tasvirlangan o'quv qurollaridan boshqa yana qanday o'quv qurollari mavjud ekan? Men ko'rsataman sizlar nomini aytasizlar va o'zingiznikini qo'lingizga olasizlar: o'chirgich, chizg'ich,uchlagich...

Baholash: mashg'ulotda faol qatnashgan tarbiyalanuvchilar shirinlik bilan taqdirlanadilar.

Uyga topshiriq berish: ko'proq o'quv qurollari nomini topib kelish.

Mavzu: Oo harf-tovushi bilan tanishtirish

Maqsad:

tarbiyalanuvchilar –
 – unli harflar guruhiga kiruvchi Oo harf-tovushi bilan tanishadilar;
 -O tovushli so'zlarni tahlil qilishni bilib oladilar;
 -O tovushini so'zning boshida, o'rtasida, oxirida kelishi mumkinligini bilib oladilar;
 - do'stona bir-birlarini qo'llab-quvvatlashga odatlanadilar;
 - mayda qo'l motorikasini rivojlantiradilar.
 Kerakli jihozlar:
 "Laylakvoy" media mahsuloti, rasmlar, rasmlari alifbo, rangli qalam, kitob maketi, so'zlar uchun moslashtirilgan kartochkalar, unli tovush belgisi bor kubik (), kesma harflar, ish daftari, rangli iplar, ruchka yoki flomasterlar, AKT.
 Mashg'ulot metodi: Muzyorar mashqi: "Bir-birimizga ezgu so'zlarimizni aytamiz", analiz-sintez, suhbat, nafas Tarbiyachiga eslatma.

mashqi, ta'limiy o'yinlar: "Ortiqchasini top", "Zanjir", amaliy ish.

Mashg'ulotning borishi:

Tashkiliy qism: 3-5 daqiqa

Muzyorar mashqi: "Ezgu so'zlar"

Tarbiyachi guruh tarbiyalanuvchilarni doira bo'lib qo'llarini ushlab turishlarini va yonidagi o'rtogiga bitta ezgu so'zni aytishlarini so'raydi. (bolalar bir-biriga "sen yaxshisan", "sen quvnoqsan", "sen tirishqoqsan", "sen ozodasan", "sen zo'r rasm chizasan" kabiezgu so'zlarini aytishlari mumkin).

2. Asosiy qism: 20 daqiqa

Tarbiyachi "Laylakvoy" media mahsulotidan ekranda O tovushi bor olma rasmini ko'rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini- so'zni aytadilar. Tarbiyachi O tovushini cho'zib (o-o-o-ol-ma) aytadi va qaysi tovushni cho'zib aytayotganligini tarbiyalanuvchilardan so'raydi.

O tovushini talaffuzida quyidagi holat yuz beradi: Lablar aylana shaklida(dumaloqlangan) va bir oz oldinga chiqadi, tishlar dumaloqlangan lablar bilan bekiyadi, til ildizi bir oz yuqoriga ko'tariladi, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga siqilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib turadi, havo oqimi og'iz bo'shlig'i orqali o'tib ketadi, tovush boylamlari bog'langan bo'lib, tebranadi va tovush hosil bo'ladi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga unli tovushlar to'ssiqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni qizil rangda belgilanishini (qizil kvadrat shaklni ko'rsatiladi) aytadi.

Bolalarga O tovushi bilan boshlanadigan bir necha buyum rasmlari kartochka orqali ko'rsatiladi va birga talaffuz qilinadi va ularga O tovushi bilan boshlangan so'zlar qatori tuzish uchun "Zanjir" o'yin o'ynaladi (bolalar ko'ptokni bir-birlariga uzatib o'ynaydilar).

Unda bolalar doira bo'lib turib oladilar va birinchi bola O tovushi bilan boshlanadigan so'z aytadi ikkinchi bola boshqa shunday so'z aytadi va o'yin shu tariqa yana birinchi bolaga qaytib kelgunga qadar davom etadi. Masalan: Olma, olcha, olxo'ri, ona...kabi

Tarbiyachi "Zanjir" o'yinidan so'ng tarbiyalanuvchilarga O tovushining xususiyatlari haqida savol-javob o'tkaziladi.

Bolalar javoblari tinglangandan so'ng O harfi "Laylakvoy" media mahsulotidan ko'rsatiladi. Bunda O harfining shaklini eslab qolishlariga alohida e'tibor beriladi.

O harfi kitobga joylab qo'yiladi. (kitob maketiga O kesma harfi yopishtiriladi.)

Quvnoq daqiqa

"Mevalar salati" o'yini:

Bolalar doira bo'lib o'tiradi. Boshlovchi har bir bolaning qulog'iga uchta mevaning nodaqiqai aytib chiqadi (olma, olcha, olxo'ri). Boshlovchi qaysi mevaning nomini aytsa, o'sha mevalar joyini almashtiradi yoki boshlovchi "Mevalar salati" desa hamma bolalar joylarini almashtiradilar, o'z joyiga o'tira olmagan bola boshlovchi bo'ladi.

Amaliy ish.

Tarbiyachi bolalarga katta bosma O harfini doskada chizib ko'rsatib beradi. Tarbiyachi ko'rsatib bergan namunaga qarab bolalar rangli iplardan katta O harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga O harfi haqida quyidagi quvnoq she'rni aytib berishi mumkin.

G'ildirakka qarasang

"O" harfini ko'rasan

Bu harfda burchak yo'q

Shuning uchun dumaloq.

Tarbiyachi bolalardan ikkita bosh va ko'rsatkich barmoqlari bilan bosh "O" harfini yasab ko'rsatishlarini so'rashi mumkin. (Tarbiyachi namuna ko'rsatadi).

Amaliy masq.

Tarbiyachi O unli ishtirok etgan bir necha so'zni bo'g'inlarga bo'lib (Ol-ma, ol-cha, ol-ma-xon, oy-mo-mo, o-lov, bol-ta, to-vuq) aytadi. Bolalar aytilgan so'zdagi bo'g'inda O unli ishtirok etgan bo'lsa O harfni baland ko'taradilar.

Mashg'ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Ish daftari bilan ishlash

Tarbiyachi ish daftari berilgan topshiriqlarni tushuntiradi, bolalar daftari mustaqil ravishda vazifalarni bajaradilar.

Topshiriqlar:

1. Namunaga qarab Oo harfining bosma shaklini yozing.

2. O harfi so'zning boshida kelgan rasmlarni chiziq bilan birlashtiring.

3. So'zlarni bo'g'inga bo'ling. O tovushi o'rini qizil rangga bo'yang.

4. So'zlarni qarsak chalib bo'g'inlarga bo'ling va nechta bo'g'in borligini aniqlang. Bo'g'inlar sonini aylana ichiga yozing.

Yakuniy qism: 5 daqiqa.

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg'ulotda sizga nimalar yoqdi?

- Bugun qaysi harf bilan tanishdik?

- O harfining necha xil shakli bor ekan? (Bosh va kichik, bosma shakli)

- So'zlarni bo'g'inga qanday bo'ldik?

- Bitta bosh va ko'rsatkich barmog'ingiz bilan kichik "o" harfini yasab ko'rsating.

Xulosa. Innovatsion faoliyatga bo'lajak tayyorlov guruh tarbiyachilari oliy o'quv yurtidagi ta'lim predmetlari, amaliyotlar natijasida tayyorlanib boriladi. MTT ning tayyorlov guruhlaridagi tayyorlov guruh tarbiyachilari esa malaka oshirish, o'z ustida ijodiy izlanishlari orqali innovatsion faoliyat, uning maqsad va vazifalarini anglab borishadi. Demak, har bir pedagog innovatsion faoliyatga ham nazariy, ham amaliy jihatdan tayyorlanib borishi lozim. Xulosa qilib aytganda, tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarini savodga o'rgatish jarayonini fasilitator sifatida tashkillash zamon talabidir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi." - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.

2. Abdullayeva Q. va boshqalar. "Savod o'rgatish darslari." T., "O'qituvchi", 2012 y.
3. G'afforova. T. Shodmonov.E. "Ona tili" 1-sinf darsligi. "Sharq" Toshkent-2014y.
4. Gafforova T., Gulomova H, Eshturdiyeva. M "1-sinfda savod darslari" Toshkent, 1998 y.
5. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi.T., TDPU. 2008
6. Safarova R., Inoyatova M., Shokirova M., Shermamatova L. "Alifbe" 1-sinf uchun darslik. Toshkent "Ma'naviyat"-2013y.
7. <https://lex.uz/docs/-5013007>